


B.M.UMAROV, M.M.MIRQOSIMOVA

PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA

Darsligi



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
159.37(075) TALIM VAZIRLIGI

U-47

O'ZBEKISTON XALQARO ISLOM AKADEMIYASI

B.M.UMAROV, M.M.MIRQOSIMOVA

PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA

Darsligi

Bilim sohasi: 200000 - Ijtimoiy soha, iqtisod va huquq

Ta'lim sohasi 210000 - Sotsiologiya va psixologiya

230000 - Iqtisod

5120300 - Tarix (Islom tarixi va manbashunosligi)

5330200 - Informatika va axborot texnologiyalari

5210200 - Psixologiya (Din sotsiopsixologiyasi) ta'lim
yo'nalishi uchun darslik

O'zbekiston xalqaro
islom akademiyasi
Axborot-resurs markazi

Inv. № 57158

20__ yil " __ " _____

Toshkent-2019

Umarov B.M., Mirqosimova M.M.
Pedagogika. Psixologiya. - Darslik. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus talim vazirligi - T.: «Zamon piligraf», 2019. - 272 bet.

Mazkur darslikda tibbiyotda pedagogik va psixologik bilimlarning o'rni va ahamiyati, pedagogika va psixologiyada shaxs muammosi, tarbiya jarayonining mazmun va mohiyati, ta'lim (pedagogik) texnologiyalari va pedagogik mahorat asoslari, shaxs faoliyati va uning individual-psixologik xususiyatlari, psixik bilish jarayonlari, emotsional-irodaviy holatlari, shaxslararo munosabatlar, jamoa va gurux psixologiyasi bayon etilgan. Darslik tibbiyot oliy ta'lim muassasalarining barcha bakalavriat ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun "Pedagogika. Psixologiya" fanidan tavsiya etiladi.

V dannom uchebnike opisanyayutsya rol pedagogiki i psixologii v meditsine, problema lichnosti v pedagogike i psixologii, sushnost protsessa vospitaniya, obrazovatelnye (pedagogicheskie) texnologii i osnovny pedagogicheskogo masterstva, deyatelnost lichnosti i yego individualno-psixologicheskie svoystva, psixicheskie poznavatelnye protsessy, emotsionalno-voleyvye sostoyaniya, psixologiya mejlichnostnykh otnosheniy, kollektiva i grupy. Uchebnik rekomendovan po predmetu «Pedagogika. Psixologiya» dlya studentov bakalavriata po vsem napravleniyam obrazovaniya meditsinskix vuzov.

This textbook describes the role of pedagogy and psychology in medicine, the problem of the individual in pedagogy and psychology, the essence of the upbringing process, educational (pedagogical) technologies and the foundations of pedagogical skill, the activity of the individual and his individual psychological properties, mental cognitive processes, emotional-volitional states, psychology of interpersonal relations, collective and group. The textbook is recommended for the subject "Pedagogy. Psychology" for undergraduate students in all areas of education of medical schools.

Taqrizchilar:

Nishonova Z.T. Nizomiy nomidagi TDPU "Psixologiya" kafedrasini professori, ps.f.d.
Xalilova S.H.T. Nizomiy nomidagi TDPU "Umumiy pedagogika" kafedrasini professori, p.f.d.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus talim vazirligining 2018 yil "25" avgustdagi "744"- sonli bo'yruq'iga asosan nashr etishga ruxsat etildi (Guvohnoma raqami - 744-224).

© Umarov B.M., Mirqosimova M.M.

KIRISH

XXI asrda juda ko'plab davlatlarda bo'lgani kabi dunyo xaritasida munosib o'rin olgan mustaqil O'zbekistonda ham barcha sohalarda tub islohotlar boshlandi. Bu islohotlarning barchasi *inson omilini* har qachongidan ham yuqori saviyaga ko'tarib, uning kuchi, idroki, salohiyati, ruhiy hamda ma'naviy barkamolligini bevosita taraqqiyot, rivojlanish va sivilizatsiya bilan uzviy bog'ladi. Natijada inson va uning mukammalligi, o'z ustida ishlashi, o'z mukammalligi xususida qayg'urishi muammosi har qachongidan ham dolzarb masalaga aylandi.

Zero, O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek, "yoshlarimizning iymon-e'tiqodini mustahkamlash, irodasini baquvvat qilish, ularni o'z mustaqil fikriga ega bo'lgan barkamol insonlar etib tarbiyalash"¹ ishining samaradorligiga ulush bo'lib qo'shiladi.

Davrimiz insonni mustaqil fikrli shaxs sifatida har bir soniyada o'ylashga, fikrlashga, mulohaza yuritib, o'zi uchun xulosalar chiqarishga majbur etmoqda. Ya'ni, bu cheksiz olamda biz o'zimizni o'zgalarsiz, o'z manfaatlarimizni o'zgalar manfaatisiz tasavvur qila olmaganimiz uchun ham pedagogika va psixologiyani bilishga majburmiz. Mustaqil davlatimizning siyosati Inson manfaatini himoya qilish, uning uchun munosib turmush tarzini yaratish ekan, bu ishlarni amalga oshirish uchun bo'lg'usi mutaxassis shifokor bo'lib, el dardiga darmon bo'lish jarayonida ijtimoiy borliq qonuniyatlarini bilishi va undan maromida foydalib, turmush normalariga bo'ysunishi, jamiyatda o'zining munosib o'rnini egallab, fuqarolik burchini ado etishga tayyor bo'lishi dardkor.

Prezident Sh.M.Mirziyoev ham "Oldimizga yoshlarga tarbiya berish, psixologiya va boshqa turli sohalarda kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash bo'yicha murakkab vazifalar turibdi"², deya jamiyatimiz hayotida ro'y berayotgan barcha o'zgarishlarning pedagogik-psixologik mohiyatini bo'lg'usi mutaxassislar tomonidan o'zlashtirilishiga ko'mak beruvchi ilmiy manbalarning ahamiyatini yana bir marotaba ta'kidlab o'tdilar.

Shu nuqtai nazardan olib qaralganda, talabalar hukmiga havola etilayotgan ushbu darslik pedagogika va psixologiyani o'rganish zaruriyati hamda uning tamoyillari haqidagi bilimlarni inobatga olgan holda tayyorlashga harakat qilindi. Darslikning ahamiyati yana shundaki, u mustaqil yurtimiz fuqarolari psixologiyasida ro'y berayotgan o'zgarishlar, ularning hayotga, qadriyatlariga, kasb-kori, oilasi, o'z salomatligi va yaqinlariga bo'lgan munosabatlarida milliy mafkuramizning asosiy mazmun va mohiyatlarini namoyon bo'layotganligi bilan uyg'un tarzda bayon etilganligidir. Zero,

¹ Karimov I.A. Южак маънавият – энгилмас куч. Т., 2008. – Б. 62.

² Мирзиёев Ш.М. Таълимий таҳлил, қатъий тартиб-иқтисом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятнинг кулдилик қондири бўлиши керак. Т., 2017. – Б. 45.

mustaqillik psixologiyasini ongi va shuurida aks ettirgan hamyurtlarimiz, birinchi navbatda, yosh avlod kundalik muomalasi va turmush tarzida o'sha millat va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi solih amallarga intilaveradi va sog'lom g'oyalarsiz yashay olmaydi.

Keyingi yillarda butun jahon miqyosida, shu jumladan Respublikamizda qaysi soha mutaxassislari bo'lishidan qat'iy nazar ularni pedagogik-psixologik bilimlar bilan qurollantirish masalasiga alohida e'tibor berilmoqda. Bo'lajak shifokor o'z mutaxassisliklarini chuqur egallashdan tashqari shaxs psixikasidagi yosh va individual xususiyatlarni farqlay olishga, shaxs taraqqiyoti jarayonini kuzatishdan to'g'ri psixologik-pedagogik xulosalar chiqara bilishga o'rganish talab etilmoqda.

Shundan kelib chiqib, mazkur darslikda shaxs taraqqiyoti va kamoli uchun muhim bo'lgan omil va jihatlar, jumladan, shaxs tarbiyasi va madaniyati, undagi fikrlash jarayonlari, insondagi fikrning mustaqilligi, salomatligi, tashqi ijtimoiy muhitga kirishib ketishi, moslashishi, mehnat faoliyati, professional yuksalishiga turtki bo'luvchi muhim omillar, ya'ni, ma'naviyati, mafkurasi, oilasi va oilaviy munosabatlari, turli ijtimoiy guruhlardagi maqomi, shaxslararo munosabatlar kabi qator masalalar yoritilgan.

Darslikning tuzilishi, mavzularning bayon etilishida tanlangan stilistik uslub, yangidan kiritilgan mavzular uning talabalar tomonidan maqbul tarzda idrok etilishiga imkon beradi. Mualliflar guruhi kitobxonlar, talaba va magistrlar, professor-o'qituvchilar tomonidan bildiriladigan har qanday fikr va mulohazalarni qabul qiladi va keyingi nashrlarda albatta, ularni inobatga oladi.

Mualliflar

I-MODUL. PEDAGOGIKA

I-MAVZU: PEDAGOGIK FAOLIYAT: NAZARIYA VA AMALIYOT BIRLIGI, PEDAGOGIKANING DINIY TA'LIMDAGI O'RNI

Bobning qisqacha mazmuni

Pedagogika fani nima haqida bahs qiladi? Mustaqillik yillarida O'zRda uzluksiz ta'limni takomillashtirilishi va rivojlantirilantirilishi, Shaxs kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub'ekti va ob'ekti sifatida, Pedagogikaning o'rganish sohasi, pedagogikaning asosiy tushunchalari

Pedagoglik kasbi, uning paydo bo'lishi va ravnaq topishi. Pedagoglik kasbining shakllanishi kishilik taraqqiyoti tarixi. Sharh? mutafakkirlari va G'arb pedagoglari jamiyatda pedagoglik kasbining tutgan o'rni haqida/

Pedagogikada ma'naviy qadriyatlar talqini va ularning shaxs ma'naviy madaniyatini shakllantirishdagi o'rni. Ma'naviy qadriyatlar haqida tushuncha va ularning shaxs ma'naviy madaniyatini shakllantirishdagi o'rni.

1.1. Pedagogika fani nima haqida bahs qiladi?

Mustaqillik yillarida O'zRda uzluksiz ta'limni takomillashtirish va rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi. Ana shu maqsadda keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi.

"Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" O'zRning "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni qoyalariga muvofiq, milliy tajribaning tahlili va ta'lim tizimidagi jahon miqyosidagi yutuqlar asosida tayyorlangan hamda yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo'ljalni to'g'ri ola bilish mahoratiga ega bo'lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga sodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo'naltirilganidir.

Dasturning maqsadi – ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarash va sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash Milliy tizimini yaratishdan iboratdir.

Ushbu maqsadni ro'yobga chiqarish bir qator vazifalarning ijobiy hal qilinishini nazarda tutadi. Ya'ni: O'zRning "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq ta'lim tizimini isloh qilish, davlat va nodavlat ta'lim muassasalari hamda ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasida raqobat muhitini shakllantirish negizida ta'lim tizimini yagona o'quv, ilmiy-ishlab chiqarish majmui sifatida izchil rivojlantirishni ta'minlash; ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini jamiyatda amalga oshirayotgan demokratik huquqiy davlat qurilishi jarayonlariga moslashtirish; kadrlar tayyorlash tizimi muassasalarini yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlash, pedagogik faoliyatining nufuzi va ijtimoiy maqomini ko'tarish; kadrlar tayyorlash tizimi va mazmunini mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollariidan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, madaniyat, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda qayta qurish; ta'lim oluvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning va ma'rifiy ishlarning samarali shakllari hamda uslublarini ishlab chiqish va joriy etish; ta'lim va kadrlar tayyorlash, ta'lim muassasalarini attestatsiyadan o'tkazish va akkreditatsiya qilish sifatiga baho berishning xolis tizimini joriy qilish; yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda ta'limning talab qilinadigan darajasi va sifatini, kadrlar tayyorlash tizimining amalda faoliyat ko'rsatishi va barqaror rivojlanishining kafolatlarini, ustuvorligini ta'minlovchi normativ, moddiy-texnika va axborot bazasini yaratish; ta'lim, fan, ishlab chiqarish samarali integratsiyalashuvini ta'minlash, tayyorlanayotgan kadrlarning miqdori va sifatiga nisbatan davlatning talablarini, shuningdek, nodavlat tuzilmalari, korxonalar va tashkilotlarning buyurtmalarini shakllantirishning mexanizmlarini ishlab chiqish; uzluksiz ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimiga byudjetdan tashqari mablag'lar, shu jumladan, chet el investitsiyalari jalb etishning real mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish; kadrlar tayyorlash sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

Shaxs kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub'ekti va ob'ekti, ta'lim sohasidagi xizmatlarning iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchidir. Shaxs uzluksiz ta'lim jarayonida dunyoviy, ilmiy bilimlarni o'zlashtiradi, fan asoslarini puxta egallaydi, ishlab chiqarish sohalari bilan tanishadi, shuningdek, o'zida ijtimoiy ta'sirlar yordamida ma'naviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalab boradi.

Davlat va jamiyat ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimi faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni amalga oshiruvchi kadrlarni tayyorlash va ularni qabul qilib olishning kafillaridir.

Uzluksiz ta'lim malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo'lib, ta'limning barcha turlari, davlat ta'lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimi tuzilmasini o'z ichiga oladi.

Uzluksiz ta'lim jarayoni shaxsning har tomonlama qaror topishi uchun eng qulay davr sanaladi. O'zRda uzluksiz ta'lim Davlat ta'lim standartlari hamda o'quv dasturlari talablariga muvofiq tashkil etiladi.

Ta'lim muassasasi qonun qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan
ustav asosida faoliyat ko'rsatadigan yuridik shaxs

Fan yuqori malakali mutaxassisni tayyorlovchi, undan foydalanuvchi, ilg'or pedagogik, axborot texnologiyalarini ishlab chiqaruvchi sanaladi.

Ishlab chiqarish – kadrlarga bo'lgan ijtimoiy ehtiyojni shuningdek, ularning tayyorgalik sifati va saviyasiga nisbatan qo'yiladigan talablarni belgilovchi asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimini moliyaviy va moddiy-texnika jihatdan ta'minlash jarayonining qatnashchisi.

1.2. Pedagoglik kasbi, uning paydo bo'lishi va ravnaq topishi

Pedagoglik kasbining shakllanishi kishilik taraqqiyoti tarixi bilan uzviy bog'liq. Terib-termaclab kun kechirgan ibtidoiy davr kishilari bolalarni o'zlari bilan zrgashtirib yurib, ularga ov qilish, turli daraxt mevalarini terish, o'simliklarning ildizi kovlab olish, suv manbalarini izlab topish kabi harakatlarni amalga oshirishni o'rgatganlar. Bunday harakatlar qabila (urug')ning tajribali kishilari yoki keksalar tomonidan amalga oshirilgan. Oddiy kundalik ehtiyojlarni qondirish yo'lida olib borilayotgan xatti-harakatlar asosida yoshlarga mavjud tajribalar asosida ma'lumotlarni berib, ularda amaliy ko'nikmalarni shakllantirganlar.

Dastlabki maktablar hadimgi Sharq (Vavilon, Misr, Hindiston)da paydo bo'lib, ularda bolalarga ma'muriy-xo'jalik boshqaruvi asoslari o'rgatilgan. Antik davrda maktablar Sparta, Afina va Rim tarbiya tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida faoliyat olib borganlar.

Qadimgi Yunonistonda bunday joylar akademiya deb nomlangan. "Akademiya" so'zi afsonaviy qahramon Akadema nomidan kelib chiqqan. Eramizdan avvalgi IV asrda Afina yaqinidagi Akadema nomi bilan atalgan joyda Platon o'z shogirdlariga ma'ruzalar o'qigan bo'lib, keyinchalik ta'lim tashkil etiluvchi maskan ham shunday nom bilan yuritila boshlagan. Qadimgi Rim va Yunonistonda bolalarga bilim berish faylasuflar zimmasiga yuklatilgan.

Jamiyatning tabaqalanishi natijasida quldorlik tuzumida bolalarni ta'lim maskanlariga olib borish va olib kelish vazifasini qullar bajarishgan va ular "pedagog" deb nomlanganlar. Ushbu tushunchaning ma'nosi "bola yetaklayman" demakdir. Tarixiy taraqqiyotning keyingi bosqichlarida

bolalarga tizimli bilimlarni berish bilan doimiy shug'ullanuvchi kishilar pedagoglar deb e'tirof etilgan. Feodalizm davrida aksariyat maktablar masjid (musulmon mamlakatlari) yoki ibodatxonalar (Hindiston) qoshida tashkil etilgan. Ularda bolalarga diniy va dunyoviy bilimlar o'rgatilgan. O'rta asrlar davrida Sharqda akademiya ko'rinishidagi ta'lim muassasalari ham faoliyat yuritgan bo'lib, ular "Donishmandlar uyi" (Bag'dod, IX asr), "Ma'mun akademiyasi" (Xorazm, XI asr boshlari), observatoriyalar qoshidagi jamiyatlar (Samarqand, XV asr) tarzida nomlangan. Akademiyalarga turli fan yo'nalishlari bo'yicha kuchli bilimga ega bo'lgan qomusiy olimlar jalb zitiilgan bo'lib, ular tomonidan matematika, geodeziya, mineralogiya, meditsina, astronomiya kabi yo'nalishlarda keng ko'lamli tadqiqotlar olib borilgan.

O'rta asrlar hamda kapital ishlab chiqarishiga asoslangan jamiyatlarda akademiya (Sharqda madrasa)lar ko'rinishidagi maktablarda ma'naviy-axloqiy jihatdan yetuk, turli sohalar bo'yicha mukammal bilimga ega pedagoglarning faoliyat yuritishlariga alohida ahamiyat qaratilgan. Chunonchi, Muhammad Tarag'ay Ulug'bek tomonidan barpo etilgan madrasalarda o'z davrining taniqli olimlari – Ali Qushchi, Taftazoniy, Qozizoda Rumiy, Mavlono Muhammad, G'iyosiddin Jamshid Koshiy, Muiniddin Koshiy hamda Mansur Koshiylar talabalarga ta'lim berganlar.

Sharq mutafakkirlari va G'arb pedagoglari jamiyatda pedagoglik kasbining tutgan o'rnini haqida. Jamiyat tomonidan o'qituvchi shaxsiga qo'yilayotgan talablar o'z davrida Sharq mutafakkirlari hamda G'arb ma'rifatparvarlarining asarlarida o'z aksini topgan.

Muhammad al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy hamda Abu Rayhon Beruniylar o'qituvchining ma'naviy-axloqiy jihatdan etuk bo'lishlariga alohida ahamiyat haratadilar. Ularning fikrlaricha, yaxshi o'qituvchi boshqalardan shu jihati bilan farq qiladi: o'zi ega bo'lgan bilimlarni yoshlarga beminnat o'rgatadi, har bir ishda ularga namuna bo'la oladi.

Abu Ali ibn Sino o'z asarlarida o'qituvchi bolalarga ta'lim berishdek mas'uliyatli burchni bajarishi zarurligini uqtirar ekan, ularga faoliyatda muvafaqiyatga erishish garovi bo'lgan quyidagi tavsiyalarni beradi: bolalar bilan muomalada bosiq, jiddiy bo'lish; berilayotgan bilimning talabalar tomonidan o'zlashtirilishiga e'tiborni qaratish; ta'limda turli shakl va metodlardan foydalanish; talabaning xotirasi, bilimlarni egallash qobiliyati, shaxsiy xususiyatlarini bilishi; fanga qiziqira olishi; berilayotgan bilimlarning eng muhimini ajratib bera olishi; bilimlarni talabalarga tushunarli, uning yoshi, aqliy darajasiga mos ravishda berish; har bir so'zning boalar qissiyotini uyg'otish darajasida bo'lishiga erishish?

Alisher Navoiy o'z davrining ayrim maktabdorlari ega bo'lgan sifatlar, xususan, qattiqqo'llik, ta'magirlilik va johilliklarni qoralar ekan, o'qituvchining ma'naviy qiyofasiga nisbatan jiddiy talablarni qo'yadi. Xususan, "mudarris

kerakki, qarazi mansab bo'lmasa va bilmas ilmni aytishga urinmasa, manmanlik uchun dars berishga havas ko'rgazmasa va olg'irlik uchun gap-so'z va g'avg'o yurgizmasa, nodonlikdan sallasi katta va pechi uzun bo'lmasa, gerdayish uchun madrasa ayvoni boshi unga o'rin bo'lmasa... Yaramasliklardan qo'rqsa va nopoklikdan qochsa, nainki, o'zini olim bilib, necha nodonga turli xil fish ishlarni mumkin, balki halol qilsa, qilmas ishlarni qilmoq uchun sodir bo'lsa va qilar ishlarni qilmaslik unga qoida va odat bo'lib qolsa. Bu mudarris emasdir, yomon odatni tarqatuvchidir"?

Ayni o'rinda o'qituvchi mehnatining mashaqqatli ekanligini ta'kidlab o'tadi: "Uning ishi odam qo'lidan kelmas, odam emas, balki dev ham qila bilmas. Bir kuchli kishi bir yosh bolani saqlashga ojizlik qilardi, u esa bir to'da bolaga ilm va adab o'rgatadi, ko'rkim bunga nima yetsin" ?.

Abdulla Avloniy ham o'z asarlarida o'qituvchi shaxsi va uning faoliyati borasidagi qarashlarni ifodalashga alohida o'rin beradi. Allomaning qayd etishicha, bolaning sog'lom bo'lib o'sishida ota-onalar o'ziga xos rol o'ynasalar, uning fikriy jihatdan taraqqiy etishida o'qituvchining o'rni beqiyos ekanligini ta'kidlaydi. Ya'ni bolalarning aqliy qobiliyatlarini shakllantirish muallimlarning "diqqatlariga suyalgan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir vazifa" ekanligini ta'kidlab, "fikrning quvvati, ziynati, kengligi, muallimning tarbiyasiga bog'liqdur"?, - deydi.

Yan Amos Komenskiy o'z davrida o'qituvchining bola dunyoq-rashini rivojlantirishdagi roliga katta baho berib, o'qituvchilik "yer yuzidagi har qanday kasbdan ko'ra yuqoriroq turadigan juda faxrli kasb" ekanligini ta'kidlaydi. U o'qituvchi obrazini tasvirlar ekan, uning shaxsida quyidagi fazilatlarining namoyon bo'lishi maqsadga muvofiqligiga urg'u beradi: vijdonli, ishchan, sabotli, axloqli, o'z ishini sevuvchi, o'quvchilarga otalaridek muomala qiluvchi, ularda bilimga havas uyg'otuvchi, o'quvchilarni o'z ortida ergashtiruvchi va diniy e'tiqodga ega bo'lgan shaxs.

K.D.Ushinskiy o'qituvchi ma'naviyati va kasbiy faoliyatiga yuqori baho berib, ularning kasbiy malakalarini doimiy ravishda takomilashtirib borish maqsadga muvofiq deb hisoblaydi. Bu g'oyaning ijtimoiy ahamiyatini tasdiqlovchi tizim – o'qituvchilarni tayyorlovchi tizimni ilk bor asoslaydi.

O'qituvchining asosiy vazifalari va uning shaxsiga qo'yiladigan talablar. Zamonaviy o'qituvchi qanday bo'lishi zarur?

O'qituvchi (pedagog) pedagogik, psixologik va mutaxassislik yo'nalishlari bo'yicha maxsus ma'lumot, kasbiy tayyorgarlik, yuksak axloqiy fazilatlariga ega, ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatuvchi shaxs

O'zRning "Ta'lim to'zrisida"gi qonunining 5-moddasi 3-bandiga muvofiq ta'lim muassasalarida sudlangan shaxslarning pedagogik faoliyat bilan shug'ullanishlariga yo'l qo'yilmaydi.

Zamonaviy o'qituvchi qiyofasi namoyon bo'lishi zarur bo'lgan fazilatlar:

1. Jamiyat ijtimoiy hayotida ro'y berayotgan o'zgarishlar, olib borilayotgan ijtimoiy islohotlar mohiyatini chuqur anglab etish, bu borada o'quvchilarga to'g'ri, asosli ma'lumotlarni bera olish.

2. Ilm-fan, texnika va texnologiya yangiliklari va yutuqlaridan xabardor bo'lish.

3. O'z mutaxassisligi bo'yicha chuqur, puxta bilimga ega bo'lish, o'z ustida tinimsiz izlanish.

4. Pedagogika va psixologik bilimlarni puxta bilish, pedagogik jarayonida o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda faoliyatni tashkil etish.

5. Ta'lim-tarbiya jarayonida eng samarali shakl, metod va vositalardan umumli foydalana olish imkoniyatiga ega.

6. Ijodkor, tashabbuskor va tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo'lish.

7. Yuksak darajadagi pedagogik mahorat, chunonchi, kommunikativlik layoqati, pedagogik texnika (nutq, yuz va gavda harakatlari, mimika, pantomimika, jest) qoidalarini chuqur o'zlashtirish.

8. Nutq madaniyatiga ega bo'lish (nutqda quyidagilar aks etishi lozim: a) to'g'ri; b) aniq; v) ifodaviy;

g) sof (uning turli sheva so'zlaridan qoli bo'lib, faqat abadiy tilda ifoda etilishi); jargon (muayyan kasb yoki soha mutaxassisliklariga xos so'zlar); varvarizm (muayyan millat tilida bayon etilayotgan nutqda o'zga millatlarga xos so'zlarni noo'rin qo'llanilishi); vulgarizm (haqorat qilish, so'kishda qo'llaniladigan so'zlar), kontselyarizm (o'rni bo'lmagan vaziyatlarda rasmiy so'zlardan foydalanish) so'zlardan holi, sodda, ravon va tushunarli bo'lish; d) ravon;

j) boy (hikmatli so'zlar, ibora va maqollar, matallar hamda ko'chirma gaplardan o'rinli va samarali foydalana olish).


9. Kiyinish madaniyati (sodda, ozoda, bejirim kiyinishi), ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchining diqqatini tez jalb etuvchi turli xil bezaklar (oltin, kumush taqinchoqlar)dan foydalanmasligi, fasl, yosh, gavda tuzilishi, yuz qiyofasi, hatto, soch rangi va turmagiga muvofiq ravishda kiyinishni o'zlashtirishga erishish)ga egalik.

10. Shaxsiy hayotda pok, atrofda qilarga o'rnak bo'la olishi lozim.

Pedagogik mahoratni egallash yo'llari. O'qituvchi barkamol avlodni tarbiyalash jarayonida ishtirok etar ekan, nafaqat ma'naviy-axloqiy madaniyati bilan atrofda qilarga o'rnak bo'lishi, shu bilan birga, pedagogik mahoratini namoyon eta olishi, yetuk pedagog sifatida malakali kadrlarni tayyorlash ishiga o'zining munosib hissasini qo'shishi zarur.

Pedagogik mahorat – yuksak pedagogik tafakkur, ta'lim-tarbiya jarayoniga ongli, ijodiy yondashuv, metodik bilimlarni samarali qo'llay olish qobiliyati bo'lib, u doimiy ravishda pedagogik bilimlarni oshirib borish, yangiliklardan xabardor bo'lish, ilg'or texnologiyalarni o'zlashtirish asosida tarkib topadi

Yosh, shuningdek, ta'lim muassasasida bir necha yillik mehnat stajiga ega bo'lgan o'qituvchilarning pedagogik mahoratga ega bo'lishlarini ta'minlashda quyidagi yo'llardan foydalaniladi:



Pedagogik mahoratni oshirishning yuqorida qayd etilgan yo'llardan foydalanish o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Chunonchi:

Mustaqil o'qib-o'rganish, o'z ustida ishlash pedagogika fanida ro'y berayotgan yangiliklar haqida ma'lumotlarni beruvchi yangi adabiyotlar, Internet materiallari, vaqtli matbuot sahifalarida chop etilayotgan ma'lumotlar, ilg'or texnologiyalar bilan tanishish imkonini beradi.

Mahoratli o'qituvchilarning ish tajribalarini o'rganish ta'lim muassasasidan chetga chiqmagan holda tashkil etiladi. Tajribali o'qituvchilarning ish tajribasini o'rganish ular tomonidan tashkil etilayotgan mashg'ulotlarni kuzatish, tahlil qilish asosida amalga oshiriladi. Bunda olingan taassurotlarni umumlashtirish va xulosa chiqarish maqsadga muvofiqdir.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurs (institut)larida kasbiy malakalarni oshirish ta'lim muassasalarida ishlab chiqilgan rejaga muvofiq tashkil etiladi. Rejani ishlab chiqishda muassasada faoliyat yuritayotgan o'qituvchilarning kamida 3-5 yilda bir marta malaka oshirish kurslarida ta'lim olishlarini ta'minlash e'tiborda tutiladi.

Ilmiy anjumanlar (nazariy va amaliy konferentsiya, seminar, pedagogik o'qish va treninglar)da faol ishtirok etish.

Respublika hamda rivojlangan xorijiy mamlakatlarning yetakchi ta'lim muassasalarida ularning ish tajribalarini o'rganish (stajirovka).

1.3. Pedagogikada ma'naviy qadriyatlar va ularning shaxs ma'naviy madaniyatini shakllantirishdagi o'rni

Millatimiz, mamlakatimiz mustaqillikni qo'lga kiritgandan keyin shunday ijtimoiy hodisalarni boshidan kechirmoqdaki, bu hodisalar zamirini tashkil etuvchi jarayonlarni tahlil qilish va ulardan xulosalar chiqarishni hayotning o'zi taqozo etmoqda.

Nainki, insoniyat kecha yo bugun shakllangan emas. U uzoq o'tmish va ummoniy xotira zahirasi, davrlar, zamonlar silsilasini o'zida tashuvchi ma'naviy xazina sifatida amal qiladi. Bu ma'naviy xazinada boshi osmon yanglig' ko'tarilgan shaxslar ruhi ham, zafarlarni quchgan bahodirlar sha'ni ham, parokandalik va depsinishlar rutubatlarini ifodalovchi qismat o'yinlari ham hamma-hammasi meros bo'lib kelaveradi. Xuddi shu merosdan olinajak saboq va savoblar bugun bilan ertangi kunni yorituvchi umid chiroqlaridir.

Ma'lumki, milliy ko'tarilish, milliy o'zligini anglash, ma'naviy qadriyatlar ko'lamini kengaytirish jarayoni ham axloqiy tasavvurlarimiz, an'alarimiz va ezgu fazilatlarimizga borib taqaladi. Ijtimoiy ko'tarilish hyech qachon axloqni, insoniylikni buzishga olib kelmagan. Ijtimoiy harakat ilg'or va olijanob milliy fazilatlariga qanot bag'ishlasa, xalq ommasi ruhiyati va orzulari bilan yo'g'rilgan bo'lsa millat va milliy o'ziga xosliklar gullab-yashnashi mumkin. Hyech qachon millat yoki milliy qadriyatlar nomidan shaxsiy g'araz yoki shuhratparastlikni ko'zlab aytilgan so'z yuraklarga yetib bormagan, qilingan ishlar milliy qadriyatlar ko'rkinini oshirmagan.

Xayriyatki, mustaqillik tufayli milliy urf-odatlarimiz, axloqu-odobimiz, ezgu fazilatlarimiz orasida asta-sekin sodir bo'layotgan kasallanishning oldi olinmoqda.

Xalqimizda shunday milliy odat, an'ana va fazilatlar borki, ular boshqa xalqlarda yo'qligidan tashqari, insoniyat ma'naviyatining nodir zarvaraqlari sifatida boshqalarda hayrat uyg'otishga imonim komil, - deb yozgan edi Tilab Mahmudov³. "O'zbek xalqi azaldan jamoa tuyg'usiga moyil, - degan edi O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov⁴

- Bizlar to'yda ham, azada ham yonma-yon turib, oddiy kunlarda ham bir-birining holiday xabar olib, kattaning hurmatini, kichikning izzatini joy-

joyiga qo'yib, beva-bechoralarning, yetim-yesirlarning boshini silab, xullas, odamgarchilikni barcha narsadan ustun qo'yib yashagan insonlarning farzandlari bo'lamiz" Jamoaga suyanish va jamoatchilik fikrini hurmat qilish xalqimizning eng olijanob fazilatidir. Buni mahallalardagi ijtimoiy-axloqiy rasm-rusumlar isbot qilib kelmoqda.

Mamlakatimizda yangi jamiyat barpo etilmoqda. Uning bag'rida shakllanishi lozim bo'lgan komillikning mohiyati, shartlari va nizomlari qanday bo'ladi? Qanday yurtdoshimizni komil inson deb ataymiz? Eng avvalo, ota-bobolarimizning ibratli hayot yo'li biz uchun namunadir. Binobarin, komillik g'oyasi biz uchun yot narsa emas. Aytish mumkinki, O'zbekiston insoniy komillikning chuqur an'analriga ega bo'lgan o'lka. Tadqiqotchilar qayd etishicha, "bu an'ana turli avlodlar o'rtasida ruhiy yaqinlikni mustahkamlaydi, yoshlar qalbida vorislik tuyg'usini uyg'otadi. Demak, komillik, eng avvalo, insoniylik sharti va buyuk ajdodlarimizga vorislik taqozosi".

Barkamollikning qirralari ko'p ekanligi haqida yuqorida aytib o'tildi. Har bir shaxsni ilk yoshligidan boshlab mustaqil fikrlashga o'rgatish hayot talabidir. Shunga ko'ra unga har doim mantiqiy tafakkur yuritish tamoyillarini singdirib borish lozim.

Mustaqillik sharoitida to'g'ri ma'nodagi mustaqil fikrlash har bir yoshning qobiliyatini, olamga faol munosabatini, malakasini tarkib toptirishda muhim ma'naviy omil ekanligi ta'kidlanadi. Prezidentimiz ta'kidlaganidek: "Ta'limning yangi modeli jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin shaxsning shakllanishiga olib keladi. O'zining qadr-qimmatini anglaydigan, irodasi baquvvat, iymoni butun, hayotda aniq maqsadga ega bo'lgan insonlarni tarbiyalash imkoniga ega bo'lamiz. Ana shundan keyin ongli turmush kechirish jamiyat hayotining bosh mezoniga aylanadi. Shunda odam olomon bo'lib, har lahzada serkaga ehtiyoj sezib emas, aksincha - o'z aqli, o'z tafakkuri, o'z mehnati, o'z mas'uliyati bilan, ongli tarzda, ozod va hur inson bo'lib yashaydi".⁵

Biz ma'naviy qadriyatlar va ularning shaxs ma'naviy madaniyatida tutgan o'rni xususida ushbu mavzuning oldingi bo'limlarida ham to'xtalib o'tgan edik. Umuman olganda, ma'naviy qadriyatlarining shaxs ma'naviy madaniyatini shakllantirishda tutgan o'rni quyidagilar orqali ifodalashimiz mumkin:

Ma'naviy qadriyatlar har bir millatning o'z ona tilida yaratilganligi tufayli ushbu tilning naqadar jozibali ekanligini namoyon etadi. Bu esa shaxsda o'z ona tiliga bepisand bo'lmaslik tuyg'usini rivojlantiradi.

³ T. Mahmudov. Mustaqillik va ma'naviyat. - T., «Sharq», 2001, 107-bet.

⁴ I.A. Karimov. «Uzbekiston: milliy izzat, ictisod, siyosat, mafkura». - T., «Uzbekiston», 1998. 11-bet.

⁵ I.A. Karimov. Adolatli jamiyat sarpi. - T., «Uzbekiston», 21-23-betlar.

Ma'naviy qadriyatlar har bir millatning o'zligini namoyon etadi. Chunki, ular bevosita shu millatning ruhiyati asosida shakllangandir.

Ma'naviy qadriyatlar har bir shaxsni o'z xalqi va vatani tarixini sevishga, o'z ajdodlari bilan har lahzada faxrlanishga undaydi.

Yuqorida aytib o'tilganlardan ko'rinib turganidek, ma'naviy qadriyatlarni qadrlash, ulug'lash va rivoj toptirish, o'z xalqiga mehr-muhabbat bilan munosabatda bo'ladigan ma'naviy barkamol insonning muqaddas burchidir.

Bob yuzasidan nazorat savollari:

1. Pedagogika fani nimani o'rganadi?
2. Pedagogika fani nima uchun fan sifatida shakllanadi va uni asoslang.
3. Pedagogika fanining maqsadi va vazifalari qanday muammolarni hal etishdan iborat?
4. Tarbiyaning tarixiy va ijtimoiy xarakteri nimalardan iborat? Uni asoslang?

Mustaqil ish uchun mavzular:

1. Mustaqillik yillarida O'zRda uzluksiz ta'limni takomillastirilishi va rivojlantirilantirilishi.
2. Shaxs kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub'ekti va ob'ekti sifatida.
3. Pedagogikaning o'rganish so'zasi, pedagogikaning asosiy tushunchalari.
4. Pedagoglik kasbi, uning paydo bo'lishi va ravnaq topishi.
5. Pedagoglik kasbining shakllanishi kishilik taraqqiyoti tarixi.
6. Sharq mutafakkirlari va G'arb pedagoglari jamiyatda pedagoglik kasbining tutgan o'rni haqida.
7. Pedagogikada ma'naviy qadriyatlar talqini va ularning shaxs ma'naviy madaniyatini shakllantirishdagi o'rni.
8. Ma'naviy qadriyatlar haqida tushuncha va ularning shaxs ma'naviy madaniyatini shakllantirishdagi o'rni.

2-MAVZU. PEDAGOGIKA – IJTIMOY FAN SIFATIDA

Bobning qisqacha mazmuni

Pedagogika fanining predmeti, mazmun-mohiyati va uning tibbiyotda tutgan o'rni. Pedagogikaning predmeti, mazmun-mohiyati va uning tibbiyotdagi o'rni va ahamiyati, tibbiy ta'limda pedagogikaning maqsad va vazifalari, ob'ekti, predmeti, tuzilish, asosiy kategoriyalari va tushunchalari.

Pedagogikaning ijtimoiy fan sifatida rivojlanishi. Jahon ma'rifiy fikrlarining tarixiy-pedagogik tahlili, O'zbekiston hududida eng qadimgi davrdan XIV asrgacha ma'rifiy fikrlar taraqqiyoti, tarmoqlari, boshqa fanlar bilan o'zaro aloqadorligi.

Pedagogika fanining metodologiyasi va uning ilmiy tadqiqot metodlari. Pedagogikaning zamonaviy metodologik mammolari, pedagogika fani rivojining hozirgi bosqichida alohida dolzarb metodologik masalalari, pedagogik tadqiqotlarning metodologik tavsifi, pedagogika fanining metodologik asosi falsafa ekanligi, pedagogikaning metodlari, pedagogikaning ilmiy tadqiqot metodlari.

O'zbek xalq pedagogikasi hamda uning ta'lim-tarbiyuda tutgan o'rni. Xalq og'zaki ijodining janrlari, ma'naviy qadriyatlar va ularning shaxs ma'naviy madaniyatini shakllantirishdagi roli.

2.1. Pedagogika fanining predmeti, mazmun-mohiyati

Kelajagi buyuk davlatni qurayotgan kishilarning tafakkuri, yangi iqtisodiy munosabatlarni tiklashga, moddiy ne'matlar ishlab chiqarishga astoydil kirishib doimo yonib yashash hissi bilan sug'orilgan bo'lishi lozim. Mana shunday ijobiy hislatlarga boy insonni tarbiyalash pedagogika o'quv yurtlarining, o'quv muassasasi, litsey, gimnaziya, kollej, institut va universitetlarning asosiy vazifasi hisoblanadi.

Buyuk alloma A. Avloniy ta'kidlaganlaridek: *«Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir»*. Haqiqatan ham inson hayotini saodatga, sof insoniy faoliyatga erishishda tarbiyaning roli nihoyatda muhim.

Yoshlarni tarbiyalashda biz uchun qadrlan bo'lgan milliy urf-odatlarimiz, an'analarimiz, o'chmas merosimizga mehr-muhabbat ularga sodiqlik ruhini shakllantirira olsak har birimiz uchun ijobiy natija sifatida bajarayotgan ishlarimizning mahsuli ekanligi bilinadi.

Buning uchun avvalo milliy g'urur, milliy ong, milliy g'oya, ma'naviyat, yuksak madaniyat egasi kabi tushunchalarni yoshlarning ongiga singdirishimiz lozim. Chunki tarixni bilmasdan, o'rganmasdan undan ruhiy, ma'naviy ozuqa olmasdan turib kelajakni tasavvur etib va kelajakdagi orzu umidlarga erishib bo'lmaydi.

Ma'lumki, har bir mustaqil fan o'zining predmeti va metodologik asoslariga egadir. Jumladan, jamiyatning talab va ehtiyojlari asosida mustaqil fan sifatida rivojlanib borayotgan pedagogika fani ham o'z predmetiga ega.

Demak, pedagogika fanining *predmeti* - o'qitishning, ta'lim-tarbiyaning zamonaviy qonuniyatlari, mazmuni, usullari, vositalari bilan kishilarni, yoshlarni, mutaxassislarni qurollantiruvchi fan bo'lganligi uchun ham uning metodologik asoslari maqsad va vazifalari dunyoning moddiy-ma'naviy rivojida shaxs kamoloti uyg'unligi qonuniyatlari va davlatning zamonaviy siyosatidan kelib chiqadi.

Jahon hamjamiyatida ta'lim jarayoni sub'ektlari faoliyatini tashkil etish va ularni muvofiqlashtirish asosida ta'lim sifati boshqaruvini takomillashtirishning yo'l-yo'riqlarini aniqlash, kompetensiyaviy yondashuvlar asosida muvofiqlashtirish va amaliyotga joriy etish, pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish yetakchilik qilmoqda.

Pedagogikaning bosh masalasi *tarbiyadir*. Tarbiyadagi keng ma'no ta'lim, rivojlanish, ma'lumot bilan bog'langan holda barkamol insonni voyaga yetkazishga yo'naltirilgandir.

Pedagogika fanining maqsadi:

- Respublikamizda komil insonni voyaga yetkazishning bir butun holatdagi muammolarini hal qilish;

- ta'lim-tarbiya samaradorligini tinmay oshirish va dunyo talablari darajasiga olib chiqish masalalariga ijodiy yondashish;

- umuminsoniy qadriyat va milliy madaniyatning asoslarini e'tiborga olib, ta'lim-tarbiya mazmunini, milliy mafkurani shakllantirib borish imkonini yaratish;

- pedagogika - tarbiyashunoslik qoida, qonunlarni ilg'or tajribalar asosida boyitib borish va yangi ish shakllarini izlash bo'yicha tadbirlar belgilash;

- uzluksiz ta'lim tizimini yanada rivojlashtirish muammolarini hal qilish;

- "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" ni amalga oshirish.

Pedagogika fanining umumiy vazifalari:

- Sharq va G'arbda xalqlari yaratgan xalq og'zaki ijodiyoti, pedagogikasi, mutafakkir, ma'rifatparvar, pedagog va olimlarining tarbiyashunoslikka doir ilg'or g'oyalarini o'rganib, tahlil qilib, komil insonni tarbiyalash jarayonini o'rganish;

- komil insonni tarkib toptirishning qonuniyat, qoida va zaruriy sifatlarini aniqlash;

- pedagogikadagi ta'lim-tarbiya nazariyasini hozirgi darv xususiy metodikasi bilan uzviylik muammolarini ishlab chiqish va yangi pedagogik texnologiya qonuniyatlariga amal qilish;

- ta'lim-tarbiya nazariyasidagi qoida, qonun, tamoyil, metod va usullarini maktab amaliy hayoti bilan bog'lab, bo'lajak o'qituvchilarga o'rgatish;

- xalq ta'limini boshqarish va rahbarlik masalalarini chuqur o'rganib bo'lajak o'qituvchilarni qanday tayyorlash muammolarini hal qilish;

- pedagogika fanining mazmuni, maqsadi, vazifalari, tamoyil, usul va vositalari va umuman, har bir inson uchun zarur bo'lgan tarbiyaviy ta'sirlar yangicha asosga ega bo'lishi kerak;

- umumiy qadriyatlarga sodiqlik;

- xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish;

- insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilish;

- Vatandarparvarlik.

Mazkur bilimlarning pedagogik aspekti bo'yicha tibbiyotchi-pedagog mutaxassisining kasbiy tayyorgarligi nuqtai nazaridan yondoshganda, bitiruvchi tibbiyot sohasidagi didaktik materialni aholini o'qitish jarayoniga moslashtirishi, tibbiy ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishi, uni muvofiqlashtirishi, didaktik maqsadlarni belgilashi, kasbiy masalalarni hal etishida qo'l keladi.

Tibbiyot oliygohlarida mazkur kursni o'qitishdan *maqsad* - bo'lajak shifokorlarda psixologik va pedagogik kasbiy kompetentlikni shakllantirish, talabalarning kelgusidagi shifokorlik faoliyatida insonparvarlik tamoyillariga rioya qilishga o'rgatish, shaxsiy, umummadaniy hamda maxsus kompetentlik qirralarini takomillashtirish-dir.

Tibbiy ta'limda pedagogika fanining *vazifalari* sifatida olimlar pedagogikaning uchta asosiy funksiyalari (vazifalari)ni ajratib ko'rsatishmoqdalar. Bular:

- analitik - pedagogik tajribani nazariy tadqiq qilish, tasvirlash, umumlashtirish, interpretatsiyalash vazifasi;

- prognoz qilish (bashoratlash) - davlatning oliy ta'lim muassasalari, kafedralar ta'lim siyosatini samarali boshqarish, o'qitishning istiqbolli va maqsadga yo'naltirilgan ilmiy asoslarini ishlab chiqish;

- loyihali, konstruktiv - yangi pedagogik texnologiyalarni, innovatsion faoliyat asoslarini yaratish, pedagogik tadqiqotlar natijalarini amaliyotga tatbiq qilish.

Pedagogikani o'rganish jarayonida bo'lajak shifokor talaba quyidagi *vazifalarni* amalga oshirishga tayyor bo'lishi lozim:

Uzbekiston Respublikasi
Islom Akademiyasi

Inv. № 57158

20__ yil " __ "

– shifokorlik faoliyatida pedagogik (ta'limiy, tarbiyaviy, insonparvarlik tamoyillariga asoslangan) bilimlarga ega bo'lish, ularni o'zlashtirish;

– pedagogik bilimlar, ko'nikma, malakalarga ega bo'lish, umumiy pedagogik madaniyatini oshirish;

– kelgusidagi shifokorlik faoliyatidagi qobiliyatlarini rivojlantirishda zarur bo'ladigan pedagogik bilimlarning ahamiyatini, kasbiy salohiyatini oshirishdagi o'rni anglashi lozim.

Pedagogika bo'lajak shifokorning faoliyatini ilmiy asosda tashkil qilishga xizmat qiladi. Oliy ma'lumotli shifokorning shaxsiy va kasbiy rivojlanishi, shifokorlik faoliyatining madaniyati uning pedagogik bilimlarga ega bo'lishiga asoslanadi.

Respublikamizda va MDH mamlakatlarida tibbiyot ta'limidagi pedagogikaning rivojlanishi XX asming 70 yillariga to'g'ri keladi. Uning rivojiga ulkan hissa qo'shgan shifokor-pedagoglar: M.Ya.Mudrov, N.I.Pirogov, I.M.Sechenov, S.P.Botkin, I.P.Pavlov, V.M.Bexterev, P.B.Gannushkin, A.V.Vishnevskiy, A.N.Bakulev, A.Abdullaev, S.Kamarov va boshqalar. Umuman olganda, jamiyatning turli bosqichlarida tarbiya va ta'lim sohasidagi to'plangan tajribalarni nazariy jihatdan anglash, umumlashtirish va hayotga tatbiq qilish ehtiyojlari asosida pedagogika fani rivojlandi.

Pedagogika (yunoncha: "paidagogike", ya'ni "peys"-bola va "agogein"-yetaklamog) ijtimoiy tarbiyaning umumiy qonuniyatlari, muayyan jamiyatda yagona ijtimoiy maqsadga muvofiq yosh avlodni tarbiyalash hamda unga ta'lim berishning mohiyati va muammolarini o'rganadigan fan. Pedagogika insonshunoslik haqidagi fan bo'lib, "inson-jamiyat", "jamiyat-inson" shaklida o'zaro ta'sirni taqozo etadi. Demak, tibbiyot sohasidagi shifokor o'zaro hamkorlik aloqalariga kirishar ekan, insonlar psixologiyasi va ijtimoiy munosabatlar tuzilishini yaxshi bilishi kerak.

Pedagogikaning metodologik asosi jamiyatning taraqqiyot bosqichlaridagi o'qitish va kamol toptirish tizimlarini, ularning qonun-qoidalarini, qomusiy mutafakkirlar, ma'rifatparvarlar va shifokor-pedagoglarning ta'lim-tarbiya, ma'rifatga doir g'oyalarini va ularning rivojlanishini mukammal o'rganadigan fandır. Demak, mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy ilm-fan va kasb-hunarlarni puxta egallagan, o'z yurti, o'z xalqiga fidoyi, Vatan taraqqiyotiga xizmat qilishga tayyor shifokorlarni tayyorlash masalasi – tibbiyot pedagogikadasigi bosh masala sifatida namoyon bo'lmoqda. Shunday ekan, *tibbiyot pedagogikasi* - jamiyat va shaxs munosabatlarini tizimlashtiradigan tarbiya va ta'lim muammolarini o'rganadigan fan sifatida maydonga chiqib, unda hozirgi zamon fani va metodologiyasining quyidagi umumiy masalalari yoritiladi:

➤ fan tarixi va taraqqiyoti;

➤ fan haqidagi asosiy konsepsiyalar;

➤ hozirgi zamon fanidagi asosiy dolzarb muammolar va ularning yechimini topishda zarur bo'ladigan metodlar, usullar va vositalar.

Boshqa fanlar kabi pedagogika ham jamiyatning talab va ehtiyojlari asosida paydo bo'ldi va jamiyat ijtimoiy taraqqiyoti bilan uzviy rivojlanib bormoqda. Shu sababli ta'lim-tarbiya jarayonini ijtimoiy hayotning ajralmas qismi, deb qarash lozim, chunki ta'lim-tarbiyaviy ishlarni olib bormasdan turib, jamiyat rivojlanishini, barkamol insonni tarbiyalashni tasavvur qilish qiyin.

Pedagogika fanining asosiy kategoriyalari. Har bir fanning mazmun va mohiyatidan kelib chiqadigan, uning asosiy tomonlarini yoritishga xizmat qiladigan va eng ko'p ishlatiladigan asosiy tushunchalari bo'ladi. Xuddi shuningdek, pedagogika fanining ham asosiy tushunchalari – kategoriyalari mavjud.

Kategoriya - (yunoncha: *kategoriya* - ko'rsatma, dalil, tushuncha) pedagogikada ta'lim va tarbiyaga oid jarayonlar xususiyatlarini, mohiyat-mazmunini, shaxs va jamiyat, shaxs va guruh, shaxs va jamoa o'rtasidagi, ta'lim va tarbiya, ma'naviy-ma'rifiy, axloqiy-estetik, iqtisodiy-ekologik va boshqa munosabatlarni aks ettiruvchi asosiy tushunchadir. Kategoriya bilish jarayonlarining tarixiy rivojlanishi va jamiyat tajribasi asosida paydo bo'ldi. Kategoriyalar orqali inson borliqni va tevarak-atrofni, ijtimoiy hayotda sodir bo'layotgan voqea-hodisalarni o'rganadi.

Fanning mohiyatini ochib beruvchi eng muhim, asosiy tushuncha kategoriya deb ataladi.

Pedagogika fanining asosiy kategoriyalari shaxs kamolotini ta'minlash, ta'lim va tarbiya samaradorligiga erishishga qaratilgan jarayonlarning umumiy mohiyatini yoritadi. Eng muhim kategoriyalar sirasiga quyidagilar kiradi: *shaxs, tarbiya, ta'lim (o'qitish, o'qish), bilim, ko'nikma, malaka, kompetensiya, ma'lumot, shakllantirish, rivojlantirish.*

Pedagogikaning yana bir muhim tushunchalaridan biri "*didaktika*" kategoriyasidir. Miloddan oldingi 3-2 asrlarda qadimgi Yunonistondagi maktablarda ta'lim beruvchi kishini "*didaskal*" deb atashgan. "*Didaktika*"-yunoncha "*didaktikos*" so'zidan kelib chiqib, "*o'qitish*", "*o'rgatish*", "*bilim berish*" ma'nolarini anglatadi. Qadimgi yunonlar o'qitish faoliyatiga nisbatan "*didasko*", o'qituvchi o'rinda "*didaskal*", o'quvchiga nisbatan "*didaskale*" atamalarini ishlatishgan. Ammo "*didaktika*" termini o'zining dastlabki ma'nosidan ancha uzoqlashgan. Hozir bu tushunchalarning hajmi va mazmuni ancha boyigan va kengaygan bo'lib, u faqat o'qituvchining faoliyatini emas, shu bilan birga o'quvchining faoliyatini, ta'limiy texnologiyalar, ta'lim metodlarini ham qamrab oladi.

Pedagogika ta'lim va tarbiya sohasidagi tajribalarni umumlashtiradi, ta'lim mazmuni va tarbiyaning kelgusidagi istiqbollari, yo'llari va usullarini

qo'rsatib boradi. Pedagogika fanida umumiy kategoriyalar bilan bog'langan asosiy tushunchalardan biri – *shaxs* tushunchasidir.

Shaxs - ruhiy jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo'lgan jamiyat a'zosi. Jamiyatda o'z mavqeiga ega bo'lgan, o'zligini anglagan, o'z "Men"iga da'vogar, tevarak-atrofdan sodir bo'layotgan ijtimoiy voqea-hodisalarga adekvat baho beradigan, tafakkur faoliyatining ob'ektivligi bilan tavsiflanadigan insondir. Shaxs - "kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub'ekti va ob'ekti, ta'lim sohasidagi xizmatlarning iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchi"⁶. Jamiyatsiz shaxs, shaxssiz jamiyat bo'lmaganidek, insonning shaxs sifatida kamol topishi uchun biologik, psixologik, ijtimoiy omillar sabab bo'ladi.

Shaxsning *axloqiy sifatlari* – shaxsning aqliy jihatdan kamolotga yetishuvi uning aqliy, zehniy sifatlari, fazilatlarini orqali namoyon bo'ladi: *bilag'ovlik, ob'ektivlik, fikrlovchilik, qobiliyatlilik* va boshqalar hisoblanadi.

Pedagogik muhit – ta'lim – tarbiya maqsadlariga muvofiq ravishda tuzilgan shaxslararo (o'qituvchi – shifokor- tahsil oluvchi- talaba; tahsil oluvchi-tahsil oluvchi; o'qituvchi-tahsil oluvchi-jamoa; o'qituvchi-ota-onalar; tahsil oluvchi-ota-ona va boshqalar) munosabatlar majmuidir.

Ichki muhit – shaxsning o'ziga xos hayotiy faoliyati, xarakterining o'ziga xosligi, hayotiy tajriba va irsiy tafakkur ko'nikmalari majmui, odatdagi ruhiy holatlarda o'zini namoyon etadigan ta'sirchanlik va voqyelikka munosabatlarining o'zaro bir-biriga muvofiq kelishi, bir-birini to'ldirishi va boyitishidir.

Ma'lumki, har qanday shaxs jamiyatda shakllanadi va rivojlanadi. Inson bioijtimoiy mavjudot bo'lganligi tufayli, biologik rivoji bilan bir qatorda u ijtimoiy rivojlanib ham boradi va kamolotning ma'lum bir bosqichida shaxsga aylanadi. Pedagogikada "shakllanish" kategoriyasi muayyan insonda muayyan sifatlari, fazilatlar, xususiyatlarni singdirish jarayoni bilan belgilanadi. Masalan, boladagi badiiy adabiyot, tasviriy san'at, musiqaga bo'lgan iqtidorni oldindan aniqlash asosida undagi qobiliyatlarni shakllantirish mumkin.

Shaxsning har tomonlama kamolga yetishi – ma'lum bir tarixiy shart-sharoitlardagi individ qobiliyati va iqtidori, uning bioijtimoiy mohiyatlarini tashkil qiladigan hamma kuchlarni to'liq rivojlantirishdan iboratdir. Shaxsda muayyan belgilar, sifatlari, fazilatlar (ba'zan ayrim illatlar, nuqsonlar) shakllangach, rivojlanish jarayoni boshlanadi⁷.

"Rivojlanish – tushunchasi bir xususiyatdan ikkinchisiga, mukammalroq darajaga o'tish jarayonini anglatadi". Bu jarayonda eski

⁶ Kadrlar tayyorlash milliy dasutri. Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.T., "Sharq", 1998 y.41 bet.

⁷ Абдуллаева Ш. А. Педагогик диагностика.-Тошкент: Фан ва ахборот технологиялари, 2008.-118-бет.

sifatlovchi belgilar yangilari bilan almashinadi, oddiydan murakkabga, quyidan yuqori pog'onaga yetishish tushuniladi. Insonda rivojlanish jismoniy (tana a'zolari - suyak, muskul tizimining, tanosil a'zolari, bo'yining o'sishi, vaznining oshishi va h.k.), ruhiy (psixikaning rivojlanishi, nerv funksional faoliyatining kamol topishi, aql-zakovatining shakllanishi) hamda ma'naviy (inson ichki dunyosining boyishi, hissiy-irodaviy, bilish jarayonida muhim o'zgarishlar yuz berishi) sohalarida sodir bo'ladi. Rivojlanayotgan shaxsning ijtimoiy rivojlanishi uning xulqida, tevarak-atrofga bo'lgan munosabatida, ayniqsa jamoa ishlarida qatnashishida namoyon bo'ladi. Inson ruhan va ma'nau rivojlanishida bilim, dunyoqarash, tafakkur kuchi, iroda safarbarligi muhim o'rin egallaydi.

Tarbiya – uzoq muddatli, ko'p xususiyatli, tarbiyalovchi va tarbiyalanuvchi o'rtasidagi qo'shaloq jarayon bo'lib, tarbiyalanuvchida aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida muayyan sifatlari, ko'nikmalari shakllantiriladi va rivojlantiriladi⁸. Tarbiyachi o'zi xohlagan sifatlarni tarbiyalanuvchilar ongiga singdirish uchun ularning ruhiyatiga ma'lum maqsadga ko'ra tizimli ta'sir ko'rsatadi.

Ta'lim - bilim, ko'nikma va malakalarni egallash, dunyoqarashni tarkib toptiradigan jarayondir. Bunda bilim – bir butunlikni tashkil qiluvchi qismlar orasidagi, ularning ichki ziddiyatlaridan kelib chiqqan bog'liqlikdir. U ba'zan qonuniyat deb ham yuritiladi. Ya'ni, bilim insoniyat tomonidan mustaqil hayotda, faoliyatda, jumladan ishlab chiqarishda zarur bo'lgan fan asoslarini qonunlar va tushunchalarni o'zlashtirish natijasidir.

Bilimni hayotda ko'p samara beradigan qilib qo'llay olish uchun bilim bilan birga ko'nikma va malaka hosil qilish lozim. Bilim bahsda kerak bo'lsa, ko'nikma va malaka mehnat faoliyatida, dunyoni o'zlashtirishda zarur.

Ko'nikma – malakaning tarkibiy qismi bo'lib, harakatning ayrim qismlarini nihoyatda tez, aniq va maqsadga muvofiq ravishda bajarilish qobiliyatini ifodalaydi va o'quvchi – talabalarda ko'p marotaba takrorlanadigan mashqlar natijasida yuzaga keladigan harakatlar yig'indisidir.

Malaka – tahsil oluvchilarning bilim egallashi va mehnat jarayonidagi harakatini (yoki harakatlar majmuasini) muayyan sharoitda maqsadga muvofiq shakllantirish va shu orqali o'qishda va mehnat faoliyatida ijobiy natijalarga erishib, ongli bajarishga tayyor bo'lishidir. Iqtidor va ko'nikma mashq qilish va takrorlash orqali malakaga aylanadi. Turli malakalardan ishonchli, ijodiy foydalanish hamda kasbiy malakalar rivojlanishining yuqori darajasi va kasbiy ta'limning mutloq ko'rinishi mahorat bilan belgilanadi. *Mahorat* – bu murakkab ishni tez, aniq bajarishning yengilligi, mehnatning yuqori sifati va barqaror maromidir.

⁸ Абдуллаева Ш. А. Педагогика.-Тошкент: Фан, 2009.-17-бет.

Ta'lim jarayonida tahsil oluvchilar muayyan ma'lumotga ega bo'ladilar. *Ma'lumot* - ta'lim, tarbiya natijasida olingan va tizimlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko'nikma va malakalar hamda shakllangan dunyoqarashlar majmuidir. Insonning shaxs sifatida shakllanishi, tarbiyalanishi va ta'lim olishi pedagogik jarayonda sodir bo'ladi.

Pedagogik jarayon – pedagogik kategoriyalardan biri bo'lib, ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan kattalarning pedagogik faoliyati ta'sirida tashkiliy shakllantirilgan va mazmunan boyitilgan hamda "...tarbiyachining yo'naltiruvchi va olib boruvchi rahbarlik roli natijasida tarbiyalanuvchining o'z-o'zini taraqqiy ettirishidir"⁹.

Pedagogik faoliyat - estetik, axloqiy, siyosiy, iqtisodiy kabi maqsadlarga muvofiq ravishda yosh avlodni hayotga tayyorlashning aqlan o'ylab ko'rilgan, katta yoshdagilarning ijtimoiy zarur bo'lgan mehnatining o'ziga xos turidir.

O'z-o'zini anglash – shaxsning o'ziga va o'z faoliyatiga bir jamoa yoki butun jamiyat nuqtai nazaridan baho bera olishdir. Taniqli rejissyor K.Stanislavskiyning: "Teatr qayerdan boshlanadi? – Albatta, – kiyim ilish joylaridan boshlanadi", - degan iborasi mashhur bo'lsa, pedagogikada - "pedagogik faoliyat – oiladan boshlanadi", deyish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, pedagogika fani uzoq taraqqiyot yo'lini bosib o'tib, hozirgi vaqtda ilmiy bilimlarning yaxshi shakllangan, katta nazariy va amaliy materiallarni o'z ichiga qamrab oldi va o'zining ilmiy-nazariy, uslubiy, amaliy asoslarini yaratdi.

O'zbekiston mustaqil bo'lgandan so'ng mamlakatimizda uzluksiz ta'lim tizimida, pedagogika fanining umumiy va metodologik asoslari va mazmunida ta'lim-tarbiya nazariyasida, ta'limning tashkiliy shakllanishida, shaxsning barakamollik darajasi hamda sifatlarini aniqlashda ijobiy o'zgarishlar sodir bo'ldi. Bu o'z navbatida innovatsion va axborot-kommunikatsion texnologiyalarni ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etishga yo'l ochdi.

Bugun mamlakatimizda ko'plab o'qituvchilarimiz pedagogik g'oyalar targ'ibotchisiga aylanishdi, tasdiqlangan dastlabki materiallar birligina emas, balki o'zining shaxsiy ijodiy rejasi asosida ish yuritmoqdalar. Yangilikka, erkinlikka, mustaqillikka intilish hozirgi zamon o'qituvchisining shaxs sifatleri tarkibiga kirib ulgurdi, endi an'anaviy o'qitish tizimi o'z o'rnini milliy istiqlol g'oyasi bilan sug'orilgan va qat'iyon ilmiy asosda tashkil etilayotgan zamonaviy pedagogik tizimga asoslanmoqda. Pedagogik amaliyotning turli tomonlarini qamrab olayotgan kuchli innovatsion impuls harakati davom etmoqda: ta'lim sifatini oshirish, natijalarini oldindan belgilash, innovatsion, axborot va kommunikatsion texnologiyalarni ta'lim

⁹ Turunov I. I., Nishonaliyev U. N. Pedagogika. - Toshkent: "O'qituvchi", 2007. - 17-bet.

jarayoniga tatbiq etish, interfaol o'qitish, ta'lim menejmentiga qaratilgan yondashuvlar vujudga keldi.

"Faqatgina zamonaviy asnoda ta'lim-tarbiya olgan, jahonning manaman degan mamlakatlaridagi tengdoshlari bilan bellasha oladigan, jismoniy va ma'naviy jihatdan barkamol yoshlar biz boshlagan ishlarni munosib davom ettirish va yangi bosqichga ko'tarishga qodir bo'ladi"¹⁰

Darhaqiqat, o'zbek xalqining milliy ma'naviyatida insonparvarlik, bilimdonlik, axloqiylik, vatanparvarlik, ilmga chanqoqlik, bunyodkorlikka, ijodkorlikka intilish fazilatleri yetakchi o'rinda turadi. Bugungi kunda respublikamiz yoshlari orasidan jahon olimpiada g'oliblari, "Nihol" mukofoti sovrindorlari, sport sohasidagi g'oliblar, davlat va nomdor stipendiatlarning yetishib chiqishi mamlakatimizda ta'lim-tarbiyaga e'tibor kuchli ekanligidan dalolat beradi. Bu esa, bugungi kunda zamonaviy ta'lim-tarbiya sirlaridan voqif bo'lish, innovatsion texnologiyalarni egallagan, axborot-kommunikatsiya vositalaridan oqilona foydalana olish ko'nikmalariga ega bo'lishni talab etiladi. Shu jihatdan olganda, pedagogika aynan shu *dolzarb masalalarning yechimini* topishga yordam beradi.

Pedagogika fanlari tizimining muhim tarmog'i sifatida aniq fanlarni o'qitish va o'rgatishning qonuniyatlarini o'rganuvchi metodika, ya'ni uslubiyat fanining xizmatlari beqiyosdir. Butun pedagogik jarayonni amalga oshirish yo'l-yo'riqlarini ko'rsatib beruvchi (metodika, ya'ni uslubiyat), metodika fani ham o'z navbatida, maktabgacha ta'lim uslubiyati (metodikasi), umumta'lim uslubiyati, kasb-hunar ta'limi uslubiyati, maxsus ta'lim uslubiyati, oliy ta'lim uslubiyati, malaka oshirish uslubiyati va boshqa fan uslubiyati tarmoqlaridan iborat. Bu tarmoq fanlar bilan o'zaro uzviy aloqadorlikda bo'lib, bir-birini to'ldiradi va pedagogika fanlari tizimida muhim ahamiyat kasb etadi. (1.1- rasm).

Pedagogika tarixi va nazariyasi asosini tashkil qiluvchi birinchi guruhning uchta pedagogik fan tarmoqlariga umumiy tasnif beradigan bo'lsak, bularning uchlasini ham boshqa pedagogik fan tarmoqlariga asos bo'lib, o'zaro aloqadordir.

Pedagogika insonlar orasidagi munosabatlarni va ijtimoiy muhitning insonga ta'sirini tadqiq etuvchi fan sifatida iqtisodiyot, madaniyat rivojlanishining o'ziga xosligi hamda ularning inson shaxsi shakllanishiga ta'sirini o'rganadi. Shu bilan birga, pedagogika o'quv muassasasi tizimining tashkiliy jihatlariidagi ko'pgina masalalarni hal etishga, shaxslarni tarbiyalashda o'quv muassasasi, oila va jamoatchilikning o'zaro hamkorlikda ish olib borishiga yordam beradi.

¹⁰ Каримова И.А. Она юртимиз бахту ихбодли ва бузук келажакги йулида хизмат қилиш – энг олий саводдир. - Тошкент: O'zbekiston, НМИУ, 2015. -255-6ет.

Pedagogika fani tarbiya jarayonini ijtimoiy hodisa sifatida o'rganar ekan tabiiy ravishda jamiyatdagi barcha fanlar bilan bog'liqdir.

Pedagogika (fan sifatida) falsafa fani zamirida rivojlandi. Har qanday fan yakka holda o'zi mukammalikka erisha olmaydi. U boshqa fanlar bilan aloqada, ularning yutuqlaridan foydalangan holda mazmunan boyib boradi Xuddi shuningdek pedagogika fani ham hozirgi kunda umumbashariyat tomonidan yaratilgan bilimlar va kelajak haqidagi ma'lumotlarga tayanadi. U tabiat va jamiyat rivojlanishi qoidalari to'g'risidagi ma'lumotlarga asoslanadi, o'zi ham ijtimoiy fan sifatida rivojlanib, insonning ijtimoiy kamolotiga xizmat kiladi. U falsafa, tarix, iqtisod, psixologiya, sotsiologiya, etika, estetika, biologiya, madaniyatshunoslik, siyosatshunoslik va boshqa fanlar bilan uzviy aloqadadir.

Falsafa - jamiyat, tabiat rivojlanishining umumiy qonuniyatlarini tashkil etadigan, ya'ni pedagogikaning taraqqiy etib borishiga imkon beradigan ilmiy manbadir. Shu bilan birga, faylasuflar va pedagogika fanlari vakillari tomonidan ishlab chiqilgan bir qator umumiy masalalar falsafada ham, pedagogikada ham barobar mavjuddir.

Bular jumlasiga tarbiya bilan boshqa ijtimoiy xodisalar orasidagi o'zaro aloqalar; dunyoqarashni, axloqiy, mehnat va estetik tarbiyani shakllantirish masalalari; shaxs va jamoa munosabatlari; ta'lim jarayoni mohiyatini tushunish hamda bilishning dialektik nazariyasini ishlab chiqish bilan bog'liq.

Falsafa pedagogika fani uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Falsafa pedagogikani ilmiy uslublar bilan boyitadi, ta'lim va tarbiyaning ob'ektiv qonun-qoidalarini ishlab chiqishga manba bo'lib xizmat qiladi.

Etika va estetika fanlari pedagogikaning tarbiya nazariyasi sohasi bo'yicha ma'lumot beradi. Bu fanlar o'quvchining axloqi, odobi, xulqi me'yorlarini aniqlash, belgilash hamda nafosatli qilish uchun hayotning jozibali, nafis qirralariga bevosita rag'bat uyg'otish borasida pedagogika fani bilan aloqadadir.

Etika falsafaning axloqiy va tarbiya masalalari bilan bevosita bog'liqdir. Ularni xal etishda pedagogika axloqning umuminsoniy qadriyatlariga suyanadi.

Estetika (nafosat tarbiyasi) insonning estetik ideallarini shakllantirish, madaniyatga va voqyelikka estetik munosabatlari umumiy qonuniyatlarini o'rganadi va estetik tarbiyani ilmiy jihatdan asoslash uchun xizmat qiladi. Bu asoslarni pedagogika fani ishlab chiqadi, yoshlarni go'zallikni xis qila olish, tushunishga o'rganish vositalari va yo'llarini belgilab beradi.

Pedagogikaning falsafa va boshqa ijtimoiy fanlar bilan bog'liqligini, hal etadigan ilmiy masalalarning umumiylikini pedagogikaning ijtimoiy xususiyati, uning mafkuraviy yo'nalishga ega ekanligini ta'kidlab turadi.

Tarbiyaning hamma muammolarini boshqa siyosiy, ijtimoiy masalalar bilan bir qatorda hal etish zaruriyatini ko'rsatib beradi.

Ta'lim oluvchilarga bilim berish, ma'lumotli qilish, tarbiyalash maqsadida ularga tizimli ta'sir ko'rsatishni talab qiladi. Bunda psixologiya va ijtimoiy omillarga asoslanadi. Ya'ni ta'sirning samarasini bilish uchun o'quvchining sezgi, idroki, tasavvur, dikkat va tafakkur - fikrlash jarayonining qanday kechayotganini bilishga asoslanib, ta'sir ko'rsatish rejasini belgilaydi. Ayniqsa, yosh davrlari psixologiyasini, bolaning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda tarbiyalanuvchiga yondashadi va unga samarali ta'sir ko'rsata oladi. Bunda *psixologiya* turkumidagi fanlar pedagogika uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Psixologiya - pedagogikaning boshqa fanlar tomonidan aniqlangan bilimlar, o'sib kelayotgan insonning shaxsini shakllantirish, ichki jarayonlarini yuz berish omillari va shart-sharoitlari haqidagi bilimlar bilan qurollantiradi.

Jamiyatimiz rivojlanishining hozirgi bosqichida pedagogikaning iqtisodiyot fanlari bilan aloqasi mustahkamlanib bormoqda. Ijtimoiy fanlardagi ma'lumotlarga suyanib, pedagogika jamiyatning tarbiyaga bo'lgan ob'ektiv ehtiyojini va ularni amalga oshirish shart-sharoitlarini o'rganadi.

Shunday qilib, keyingi vaqtlarda pedagogika boshqa yangi rivojlanayotgan fanlar bilan, jumladan, murakkab dinamik tizimlarni rejali boshqarish haqidagi fan bo'lgan kibernetika bilan mustahkam aloqada rivojlanmoqda. Bularning barchasi pedagogika o'zining predmeti va tadqiqot sohasiga ega bo'lib, boshqa bir qator fanlar bilan juda mustahkam bog'liqlikda ekanligini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida tutgan o'z yo'li, tamoyillari tarbiya jarayonida hali avvalgi kekxa avlod oldida turmagan yangi masala va muammolarni yechish uchun zarur bo'ladigan xislat va sifatlar shakllantirilishini taqozo etadi.

O'zbekistonda pedagogika ilmidagi tushunchalar, ta'riflar milliy istiqlol mafkurasiga mos umuminsoniylik ruhida tushuntirilmog'i zarur. Albatta ta'lim va tarbiyada umuminsoniy qadriyatlar bilan birga milliy o'ziga xoslik nisbati, muvozanati alohida ahamiyatga ega.

Zamonaviy pedagogika ijtimoiy hayot jabhalarida faoliyat ko'rsatayotgan shaxslarni bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobatga bardosh bera oladigan, yuksak ongli, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'ladigan bilimli, komil inson etib tarbiyalashdek muhim masalalarni hal qilmoqda.

Metodika (uslubiyat) - muayyan sohaga oid o'qitish va o'rganishning qonuniyatlarini tadqiq etadi. Metodika maxsus va uzluksiz ta'lim bosqichlaridagi pedagogikalar kabi ta'limning o'ziga xos turi va qonuniyatlaridan kelib chiqqan holda didaktika prinsiplari va umumiy

pedagogikadagi qonun-qoidalarni o'z sohasiga moslashtiradi va soha uslubiyatini yaratadi.

Ta'lim oluvchilarga bilim berish, ma'lumotli qilish, tarbiyalash maqsadida ularga tizimli ta'sir ko'rsatishni talab qiladi. Bunda psixologiya va ijtimoiy omillarga asoslanadi. Ya'ni ta'sirning samarasini bilish uchun o'quvchining sezgi, idroki, tasavvur, diqqat va tafakkur - fikrlash jarayonining qanday kechayotganini bilishga asoslanib, ta'sir ko'rsatish rejasini belgilaydi. Ayniksa, yosh davrlari psixologiyasini, bolaning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda tarbiyalanuvchiga yondashadi va unga samarali ta'sir ko'rsata oladi. Bunda psixologiya turkumidagi fanlar pedagogika uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Psixologiya – psixologiya pedagogikaning boshqa fanlar tomonidan aniqlangan bilimlar, o'sib kelayotgan insonning shaxsini shakllantirish, ichki jarayonlarini yuz berish omillari va shart-sharoitlari haqidagi bilimlar bilan qurollantiradi.

Jamiyatimiz rivojlanishining hozirgi bosqichida pedagogikaning iqtisodiyot fanlari bilan aloqasi mustahkamlanib bormoqda. Ijtimoiy fanlardagi ma'lumotlarga suyanib, pedagogika jamiyatning tarbiyaga bo'lgan ob'ektiv ehtiyojini va ularni amalga oshirish shart-sharoitlarini o'rganadi.

Insonning aqliy rivojlanishi qirralarini, jihatlarini o'rganadigan boshqa fanlardan farqli o'laroq, pedagogika inson shaxsi, uning taraqqiyot bosqichlari bilan shug'ullanadi.

Pedagogika fiziologiya bilan ham bevosita va bilvosita bog'liqdir. Fiziologiya pedagogika hamda psixologiyaning tabiiy ilmiy bazasi hisoblanadi. Pedagogika fiziologiyaning oliy asab (nerv) faoliyatining rivojlanishi, asab sistemasining o'ziga xosligi, birinchi va ikkinchi signal sistemalar haqidagi, shuningdek, sezgi organlarining, tayanch harakat apparatlarining, yurak, qon-tomir hamda nafas olish sistemalarining faoliyati, rivojlanishi haqidagi ma'lumotlarga suyanadi.

O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida tutgan o'z yo'li, tamoyillari tarbiya jarayonida hali avvalgi keksa avlod oldida turmagan yangi masala va muammolarni yechish uchun zarur bo'ladigan xislat va sifatlar shakllantirilishini taqozo etadi.

O'zbekistonda pedagogika ilmidagi tushunchalar, ta'riflar milliy istiqlol mafkurasiga mos umuminsoniylik ruhida tushuntirilmog'i zarur. Albatta ta'lim va tarbiyada umuminsoniy qadriyatlar bilan birga milliy o'ziga xoslik nisbati, muvozanati alohida ahamiyatga ega.

Shuningdek, zamonaviy pedagogika ijtimoiy hayot jabhalarida faoliyat ko'rsatayotgan shaxslarni bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobatga bardosh bera oladigan, yuksak ongli, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o'zgalarga

ibrat bo'ladigan bilimli, komil inson etib tarbiyalashdek muhim masalalarni hal qilmoqda

2.2. Pedagogikaning ijtimoiy fan sifatida rivojlanishi

Pedagogikaning fan sifatida rivojlanishida o'ziga xos xususiyatlar mavjud. «Avesto» ta'limoti, «Qur'oni Karim» saboqlari, Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy (810-970), Abu Iso Muhammad ibn Iso at-Termiziy (824-892) kabi Hadis ilmining ulug'lari, tasavvuf ilmi (sufiylik tariqati)ning namoyondalari: Bahovuddin Naqshbandiy, Abduxoliq G'ijduvoni, Najmiddin Kubrolarning komil inson to'g'risidagi g'oyalari, G'ijduvoni, «ustoz-shogird» munosabatlari, ilm o'rganish borasidagi ta'limotlari bilan Sharqda ta'lim-tarbiya jarayonining rivojiga ulkan hissa qo'shdilar. Ularning pedagogik qarashlari tarixning zarhal sahifalaridan munosib o'rin egalladi.

Sharq Uyg'onish davrining 1-bosqichida yashab, ijod etgan Abu Nosir Farobiy (789-950), Abu Ali ibn Sino (980-1037), Abu Rayhon Beruniy (937-1051), Kaykovus (XI asr), Ahmad Yugnakiy (XI asr), Mahmud Qoshg'ariy (XI asr) kabi allomalar ta'lim-tarbiyaga oid dunyoviy fikrlari bilan dovrug' qozondilar.

Sharq Uyg'onish davrining 2-pallasida yashab ijod etgan o'zbek badiiy tilining asoschisi, buyuk davlat arbobi Mir Alisher Navoiy o'zining tarbiyaviy ahamiyatga molik bo'lgan noyob asarlari, dostonlari, she'rriyat olamidagi merosi bilan insonshunoslik to'g'risidagi fanning shakllanishiga zamin yaratgan bo'lsa, ilmiy tafakkur va falakiyot ilmi sohasida yetuk dunyoqarash sohibi Mirzo Ulug'bek ma'rifiy qarashlari, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqa adiblar o'zlarining o'lmas ijodiyoti bilan pedagogika taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shdilar.

Yevropa faylasuflari Tertullian (160-222), Avgustin (354-430), Akvinat (1225-1274)larning pedagogik ta'limotlari garchi muvaffaqiyat qozongan bo'lmasada, Rotterdamlilik Erazm (1466-1536), italiyalik Vittorino de Feltre (1378-1446), fransiyalik Fransua Rable (1494-1553) va Mishel Monten (1533-1592)larning insonparvarlik g'oyalari, ta'lim-tarbiyaga oid qarashlari pedagogik g'oyalar rivojida muhim ahamiyat kasb etdi. Didaktikaning asoschisi, chech olimi Yan Amos Komenskiyning ta'lim tamoyillari, shakllari va uslublari to'g'risidagi ilmiy qarashlari, ingliz faylasufi va pedagogi Jon Lakk (1632-1704)ning «jentelmen tarbiyasi» - tadbirkor va ma'rifati, ishbilarmon va ziyoli, e'tiqodi kuchli shaxs tarbiyasiga oid ta'limoti bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotganicha yo'q. Fransuz ma'rifatparvar mutafakkirlari Deni Didro (1713-1784), K.Gelvetsiy (1715-1771), P.Golbax (1723-1789), Jan Jak Russo (1712-1778)larning demokratik va gummanistik qarashlari, shveytsariyalik olim Iogann Genrix Pestalotssi (1746-1827)ning

o'quvchilarning ma'naviy tarbiyasi va rivojlantiruvchi ta'lim nazariyasi pedagogika sohasini kengaytirdi.

Amerikalik olimlar Iogann Fridrix Gerbart (1776-1841), Jon Dyui (1859-1952), Edvard Torndayk (1874-1949)larning fanga "tarbiyaviy ta'lim", "dars modeli", "rivojlantiruvchi topshiriqlar tizimi", "eksperimental pedagogika", "test usuli" kabi tushunchalarni kiritish-lari, noan'anaviy pedagogik ta'limotlari, nemis olimi Fridrix Adolf Disterveg (1790-1886)ning ta'lim tamoyillari muammolariga qarashli nazariyasi insonlarni hanuzgacha noyobligi, originalligi bilan hayratga soladi.

Rus milliy pedagogikasining asoschisi Konstantin Dmitrievich Ushinskiy (1824-1870)ni o'qitishning xalqchilligi nazariyasi, ulug' yozuvchi, olim, pedagog va tanqidchi Lev Nikolaevich Tolstoy (1828-1910) ning o'qitish jarayonidagi hayotiylik tamoyili ta'lim-tarbiya jarayonida o'ziga xos o'rinni egallaydi.

Jadidchilik harakatining yorqin namoyondalari: Munavvarqori Abdurashidxonov, Mahmudxo'ja Behbudiy, Saidahmad Siddiqiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Is'hoqxon Ibrat, Muhammadsharif So'fizoda kabilar Turkiston maorifi va ta'lim-tarbiya tizimi rivojiga salmoqli hissa qo'shdilar. Ular o'zlarining sermazzun hayoti va faoliyatlari bilan hanuzgacha yosh avlodga ibrat namunasi bo'lib kelmoqda.

O'qitishda innovatika masalalari, taksonomiya kabi ta'lim nazariyalariga asos solgan amerikalik olimlar - Benjamin Blum, Govard Gardnerlar (XX asr) pedagogikaning rivojlanishiga ulkan hissa qo'shdilar.

Muammoli ta'lim handa rivojlantiruvchi ta'lim nazariyalarini o'qitish jarayoniga tatbiq qilgan olimlar S.T.Shatskiy, V.Davidov, N.Zankov, K.Babanskiy, I.Podlasiylar zamonaviy pedagogikaning salmog'ini yanada oshirishdi.

Shaxsning ma'naviy-ma'rifiy rivojlanishiga doir qarashlar N.Leontev, L.A.Karpenko, G.K.Lozanov, G.A.Kitaygorodskaya (Rossiya), R.Mavlonova, O.To'raeva, O.Hasanboeva, R.Inog'omov, T.Risqievlarining ilmiy qarashlarida o'z aksini topdi. Ta'limda texnologik yondashuv, o'quv jarayonini loyihalash, ta'lim texnologiyasi samaradorligini aniqlash va baholash M.Ochilov, N.Sayidahmedov, N.Azizxodjaeva, B.Abidov, M.Usmonboevalar ishlarida yoritildi. Shuningdek, rivojlantiruvchi ta'lim konsepsiyalari N.N.Sunsov, I.A.Zimnyaya, B.Bershadskiy, V.Zankov, K.Klarin, M.Monaxov, V.Choshanov, B.F.Lomov, A.K.Markova, B.Bespalko (Rossiya) va respublikamiz olimlari S.S.G'ulomov, B.Farberman, R.H.Juraev, J.G.Yo'ldoshevlarning ishlari orqali zamonaviy pedagogik muammolarning yechimini topishga zamin yaratildi.

O'zbek milliy pedagogikasining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan K.Hoshimov, A.Zununov, S.Nishonova, O.Hasanboeva, E.Seytxalilov,

M.Quronov, O.Musurmonovalar yosh avlodni tarbiyalash an'analarini, jamiyatning taraqqiyot bosqichlaridagi o'qitish va kamol toptirish tizimlarini, ularning qonun-qoidalarini, qomusiy mutafakkirlar, ma'rifatparvar adiblar va pedagoglarning ta'lim-tarbiya, ma'rifatga doir g'oyalari o'z asarlarida chuqur yoritadilar.

Bugungi kunga qadar pedagogika sohasida yangi-yangi ta'limotlar, g'oyalar kashf qilindi, yuzlab risolalar, asarlar yaratildi, ammo tarbiya jarayonidagi insonni chuqur o'ziga cho'mdiradigan muammolar hanuzgacha o'z yechimini to'laqonli topganicha yo'q. Shu sababli zamonaviy pedagogika ijtimoiy hayot jabhalarida faoliyat ko'rsatayotgan shaxslarni bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobatga bardosh bera oladigan, yuksak ongli, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'ladigan bilimli, komil inson etib tarbiyalashdek muhim masalalarni hal qilishi lozim.


Pedagogika fani uzoq taraqqiyot yo'lini bosib o'tib, hozirgi vaqtda ilmiy bilimlarning yaxshi shakllangan, katta nazariy va amaliy materiallarni o'z ichiga qamrab oldi va o'zining ilmiy-nazariy, uslubiy, amaliy asoslarini yaratdi. Zamonaviy pedagogika fan sifatida shakllanib, takomillashib borib, ta'lim - tarbiyaning maqsadi va vazifalari, ularning mazmuni, usullari hamda tashkil etish shakllari haqidagi fanga aylandi. Natijada bularning barchasi pedagogika fanining alohida tarmoqlari vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Jumladan, *pedagogika tarixi* mustaqil tarmoq sifatida, pedagogika fanining tarixan rivojlanishini o'zida aks ettirdi. Bunda o'tmishdagi ilg'or pedagogik g'oyalarning paydo bo'lishi, rivojlanishi, ularning bugungi kundagi ahamiyati, mutafakkirlarning pedagogik merosidan foydalanish zaruriyati haqida fikr yuritiladi.

Pedagogika tarixi pedagogik ta'limotlar tarixi va tarbiyaning rivojlanish masalalarini ijtimoiy hodisa sifatida tadqiq etib, insonparvar pedagogik g'oyalarning rivojlanish bosqichlarini o'rganadi, ilg'or pedagogik konsepsiyalar, qarashlar, ta'lim va tarbiya nazariyalari, qonuniyatlari, tamoyillarini tahlil qiladi, muhim umumiy xulosalar chiqaradi va bugungi kun uchun dolzarb muammolar, ularning yechimini topishga oid g'oyalarni aks ettiradi.

Pedagogika fanlari tizimida tarbiyalanuvchilarning yoshi va kasbiy omilkorligini shakllantirishga qaratilgan maktabgacha ta'lim pedagogikasi, maktab pedagogikasi, yoshlar pedagogikasi, katta yoshdagilar pedagogikasi (androgogika), kasb-hunar ta'limi pedagogikasi, ishlab chiqarish pedagogikasi, oliy maktab pedagogikasi, menejment pedagogikasi, tibbiyot pedagogikasi, harbiy pedagogika, iqtisodiy pedagogika, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va boshqa tarmoq pedagogikalari vujudga keldi. Bu tarmoq pedagogikalari maktabgacha tarbiya maskanlari, umumiy va o'rta maxsus ta'lim muassasalari,

oliy o'quv yurtlarida olib boriladigan ta'lim-tarbiya jarayonini, uning qonuniyatlarini o'rganadi.

Bulardan tashqari *maxsus pedagogika turlari*: defektologiya (rivojlanishida nuqsoni mavjud bo'lganlar), surdopedagogika (kar va soqovlar bilan ishlash), tiflopedagogika (ko'zi ojizlar bilan ishlash); oligofrenopedagogika (aqliy rivojlanishdan orqada qolganlar bilan ishlash); logopediya (nutqi yaxshi rivojlanmaganlar bilan ishlash) mavjud bo'lib, bu tarmoqlar tarbiyalanuvchilarni o'qitish va tarbiyalash masalalari bilan shug'ullanadi. *(Pedagogikaning asosiy tarmoqlari bo'yicha ma'lumot uchun 1.2.1-jadvalga qarang).*



1.2.1-rasm. Pedagogikaning asosiy tarmoqlari

2.3. Pedagogika fanining metodologiyasi va uning ilmiy tadqiqot metodlari

Zamonaviy pedagogikaning metodologiyasiga e'tiborning kuchayishi, bejiz emas. Mamlakatimizda demokratik tamoyillarning qaror topishi, kuchli huquqiy davlat zamirida ochiq fuqarolik jamiyati qurilganligi ta'lim va tarbiyaga yangicha mohiyat, mazmun, atribut baxshida etayotganligida o'z aksini topmoqda. Bu yangi modelning muvaffaqiyati ko'p jihatdan zamonaviy pedagogikaning rivojlanish darajasiga bevosita bog'liqdir.

Pedagogika fanining metodologik asosi hisoblanmish O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" da davlatimiz ijtimoiy taraqqiyoti sohasida ta'limning ustuvor deb e'lon qilinishi pedagogika fani zimmasiga juda katta mas'uliyatli, ulug'vor vazifalarni yukladi.

Pedagogika fani rivojining hozirgi bosqichida alohida dolzarb metodologik masalalarni yechish bilan birga xususiy bilimlar tizimi sifatida pedagogika metodologiyasini aniq belgilab olish zarur. Bu birinchidan, pedagogik nazariyalar ishonchligini ta'minlasa, boshqa tomondan metodologik bilimlar pedagogik tadqiqotlarni samarali tashkil etish va amaliyotda tatbik etish uchun zamin hozirlaydi. Bugungi kunda pedagogika fani metodologiyasiga, uning predmetiga nisbatan turlicha yondashuvlar mavjud.

Metodologiya tushunchasi murakkab va har doim ham bir xilda talqin qilinavermaydi. hozirgi kunda pedagogika fanining metodologik asosi falsafadir. "Falsafaning bosh masalasi - ob'ektiv borliq va inson o'rtasidagi o'zaro aloqani oydinlashtirish hisoblanadi. Olam bilan odam mavjudligini tadqiq qilish insonning cheksiz faoliyatini va xarakterini o'rganishdir. Individning shaxs darajasida namoyon bo'lishida tarbiyaning yetakchi mavkeini qadimdan faylasuf (Arastu, Platon, Sukrot, Demokrit va boshkalar)lar tan olishgan va inson tarbiyasi muammosi falsafaning asosiy masalalari qatoriga kiritilgan. Shu tariqa falsafiy ta'limotlar tarkibida pedagogik fikr va g'oyalar vujudga kela boshlagan va yillar davomida rivojlanib borgan, natijada pedagogika mustaqil fan sifatida ajralib chiqqan. Demak, hech ikkilanmasdan aytish mumkinki, pedagogika faning metodologiyasini jamiyat taraqqiyoti qonunlarini ifoda etuvchi zamonaviy falsafiy, uning bilish nazariyasi tashkil etadi", N. Sayidahmedov.¹¹ Demak, metodologiya birinchi navbatda keng ma'noda - fan metodologiyasi sifatida qo'llanilib, barcha ilmiy fanlar uchun ilmiy bilishning falsafiy tayanchi hisoblanadi. Metodologiya fan sifatida ob'ektiv borliqni bilish haqida ta'limot

¹¹ N. Sayidahmedov. Pedagogika fani metodologiyasi xususida. // Xalq ta'limi, 2000 yil 1-soni, 34-37-betlar.

(nazariya)dir. Tor ma'noda esa aniq ilmiy fanlar, shu jumladan pedagogika uchun ilmiy bilish nazariyasini anglatadi.

Pedagogik tadqiqotlarning metodologik tavsifi. Pedagogik tadqiqotlarning zamonaviy yo'nalishlari dolzarb va amaliy jihatdan muhim masalalarning yangicha yechimlarini izlab topish jarayonining tezlashuvi, ayni vaqtda istiqbolli muammolarning nufuzi oshib borayotganligi bilan tavsiflanmoqda. Bunda ikki yo'nalishdagi tadqiqotlar alohida ko'zga tashlanadi:

➤ umumiy xarakterdagi yirik tadqiqotlarni talab etadigan keng doiradagi muammoni o'rganish;

➤ murakkab pedagogik jarayonlarning ichki, nozik qirralarini topishga imkon beradigan tor muammolar yechimiga qaratilgan chuqur detalli o'rganish.

Birinci yo'nalish tarafdorlari pedagogik jarayonning barcha unsurlari o'zaro aloqada va ularni ajratish yaramaydi, degan dalilga tayanishadi, pedagogik tajribani yaxlit o'rganish zarurligiga urg'u berishadi. Biroq ular quyidagi holatni nazardan chetda qoldirishadi: pedagogik jarayon o'zining bor munosabatlari bilan olib qaralganda pedagogika fani ob'ekti hisoblanadi. Ikkinchi yo'nalish vakillari pedagogik jarayonning alohida unsurlari (metod, shakl va b.) o'rganishga urungan holda bir narsani unutishadiki, o'quv-tarbiyaviy ishlar tizimida yulib olingan hych bir vosita to'liq hisoblanmaydi.

Bugungi kunning jiddiy metodologik muammosi – bu zamonaviy ta'limni pedagogik tadqiqotlarga oid ilmiy muammolarda ishonarli va samarali aks ettirishdir. Tadqiqot taqdiri metodlariga bog'liqligi sir emas. Pedagogik tadqiqotlar metodi agar pedagogik hodasalming ob'ektiv mohiyatini to'g'ri ifodalasa, pedagogika predmetining o'ziga xosligiga javob bersa, shubhasiz, ilmiy deb e'tirof etiladi. Shu jihatdan olib qaralganda, pedagogik tadqiqot metodlari uchun metodologik baho zarur bo'ladi.

Pedagogik tadqiqotlarning samaradorligi tadqiqotchining metodologik madaniyatiga to'g'ri proporsionaldir. Shu boisdan bu tushuncha integral sifat ko'rsatkich hisoblanib, tadqiqotchidan o'zida xususiy ilmiy faoliyatni tahlil qilish ko'nikmasini, ma'lum konsepsiya (nazariya)ni ilmiy asoslash va ijodiy qo'llash qobiliyatini egallashni talab etadi.

Bugun har bir pedagogik tadqiqot qoidaga ko'ra, joriy etilgunga qadar ilmiy asoslanishi shart: dastlabki holat; tadqiqot mantiqi; kutilayotgan natijalar, ularga erishish metodlarini belgilash; iste'molchilar bilan hamkorlik o'rnatish; uni joriy etish shartlarni ishlab chiqish; iqtisodiy manfaatdorlik va h.q.

Pedagogik tadqiqot ilmiy faoliyatning murakkab turi hisoblanib, u ishonchli qo'llarda – metodologiyani chuqur o'rgangan, ilmiy tadqiqot metodlari bilan qurollangan shaxs tomonidan muvaffaqiyatli amalga oshirilishi mumkin.

Olimning qiyofasi, ruhiyati va tiynati haqida maxsus adabiyotlarda batafsil yoritilgan, ayniqsa, uning quyidagi sifatlari alohida qayd etiladi; haqiqatga, noma'lumni bilishga jiddiy intilish; kuzatilayotgan hodisa va jarayonlarni tasniflash qobiliyati va kuzatuvchanlik; ilmiy tafakkurning analitik – sintetik jamlanmasi va b. Ilmiy – tadqiqot ishlarida ob'ektivlik, aniqlik, tanqidiylik, izchillik, tizimlilik bo'lishi shart.

Ob'ektivlik - o'rganilayotgan voqeya va hodisalar, jarayonlar to'g'risida odilona, to'g'ri baho berish, ulardagi mohiyat, mazmun va o'zaro aloqa, o'zgarishlarga holisona yondashishni ifodalaydi.

Aniqlik tadqiqotning barcha muolajalari uchun tegishlidir: pedagogik hodisa va jarayonlarni kuzatish va qayd etish; fikrlar tahlili va umumlashmasi; turli manbalaridan olingan ilmiy axborotlardan foydalanish va boshqalar.

Pedagogik metodologiyada izchillik qabul qilingan atamalarning bir xilligiga, tadqiqot mantiqiga amal qilishga, shart-sharoitlarni hisobga olishga erishiladi, ilmiy apparat tushunchalarining bog'liqligida namoyon bo'ladi.

Tizimlilik - o'rganilayotgan hodisa va jarayonlarni biror belgilari asosida tasniflash, tasavvurlar, tushunchalar va qonuniy aloqalarni o'rnatish, konsepsiyalar, naziriyalarni shakllantirish orqali muayyan tartibga solish jarayoni.

Tanqidiylik – o'rganilayotgan muammoga turli nuqtai nazardan baho bera olish, tajriba natijalarining haqqoniyligini ta'minlash bilan farazlar va nazariyalarni uzluksiz tekshirib borish, mabodo, olingan yangi natijalarga mos kelmasa, ulardan voz kechish xususiyati bilan tavsiflanadi.

Shunday qilib, pedagogikada ilmiy tafakkur tadqiqotning boshlang'ich nuqtasini belgilashda ob'ektivlik, izchillik, aniqlikni nozik, ehtiyotkorona qo'llashni talab etadi, ilmiy farazlarni to'g'ri tanlashni, tajriba natijalari, nazariy xulosalarni tanqidiy tekshirib ko'rishni va albatta, tizimlilikni taqozo etadi. Boshqacha aytganda, tadqiqotchining metodologik madaniyatini shakllantirishda refleksiya – xususiy ilmiy faoliyatini tahlil qilish ko'nikmasi asosiy o'rin tutadi.

Yuqoridagi fikrlar turli fan sohalari bo'yicha tadqiqot olib boruvchilarga tegishlidir, ammo pedagogikada tadqiqotchi o'ziga xos ba'zi bir xususiyatlari bilan farqlanadi. Avvalambor, pedagogika sohasidagi izlanishlar tadqiqotchidan pedagogik tajribaga ega bo'lishni, pedagogik jarayonning barcha "ikir-chikir"laridan xabardor bo'lishni talab etadi. Qolaversa, pedagogik muammoning dolzarbligi respondentlar fikriga tayangan holda aniqlanadi. Bu juda muhim bosqich hisoblanadi.

Pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlari. Zamonaviy pedagogika nazariyasida nimani o'rganish va o'rgatish, kimni va qanday tarbiyalash lozim, degan masalalar bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmasdan, o'zaro uzviy bog'liqlikda yechimini kutmoqda.

Pedagogika fani o'z mazmun mohiyatini boyitishda, yangilash mavjud pedagogik hodisa va nazariyalarni, uning maqsadi va vazifalarig muvofiq keladigan metodlar bilan o'rganadi. Aniq izlanish predmetiga eg bo'lgan pedagogika fani ta'lim-tarbiya masalalariga aloqador jarayonlarnin mohiyatini yoritish va materiallar to'plash uchun maxsus metodlar v vositalardan foydalanadi. Ular fanning metodlari deb yuritiladi.

Zamonaviy fanning ilmiy-tadqiqot metodlari yosh avlodni tarbiyalash biliml qilish va o'qitishning aniq jarayonlariga xos bo'lgan ichki aloqa v. munosabatlarini bilish yo'llari, usullari va vositalarini o'rganadi.

Fanning salohiyati va nufuzi avvalambor mazkur metodlar yordamid to'plangan ma'lumotlarning ob'ektivligi va ishonchligiga bog'liq bo'ladi.

Metod (*lotincha "metodos" - "yo'l", "uslub"*) tadqiqot yo'li, nazariya ta'lilot, deb tarjima qilinadi. Ilmiy tushuncha sifatida "metod" so'zi keng ma'noda: muayyan muammo yechimini topishga yo'naltirilgan uslubni, malum maqsadga erishish yo'lini, tor ma'noda: tabiat va ijtimoiy hayot hodisalarini hamda qonuniyatlarini bilish maqsadida qandaydir vazifani hal etish uslubini bildiradi.

Pedagogikada shunday maxsus metodlar mavjudki, ular yordamida ta'lim-tarbiya jarayoniga taalluqli muhim faktlar, turli pedagogik vaziyatlar mohiyatlari, mexanizmlari, xususiyatlari o'rganiladi.

Pedagogika fanining ilmiy-tadqiqot metodlari qanchalik to'g'ri qo'llansa, ta'lim-tarbiya mazmunini yangilash va takomillashtirish shu darajada yuksaladi. Zamonaviy sharoitda, bo'lajak tibbiyot xodimlariga pedagogik tadqiqot metodlaridan foydalanish bo'yicha tavsiyalar:

- > Kuzatish metodi,
- > Suhbat metodi.
- > Anketa metodi.
- > Intervyu metodi.
- > Hujjatlarni tahlil qilish metodi.
- > Test metodi.
- > Tahlil metodi.
- > Pedagogik tajriba metodi.
- > Matematikaviy statistika metodi.
- > Bashorat (prognoz).

Hujjatlarni tahlil qilish metodi - tadqiqot doirasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim-tarbiyaga oid qarashlari, nutqlari, risolalari, pedagogika, psixologiya, valeologiya, falsafa, sotsiologiya, madaniyat, iqtisod, siyosat va boshqa adabiyotlar, ilmiy izlanishlar, qo'lyozmalar, dissertatsiyalar, normativ hujjatlarni tahlil qilishda qo'llaniladi. Bunda tadqiqot mavzusi bo'yicha o'rganilayotgan jarayonlarning umumiy miqdori, uning o'sishi yoki

kamayish sabablari, tavsifi, tatbiq qilinayotgan tushunchalarni shakllanganlik darajasiga e'tibor beriladi.

Bo'lajak shifokorning ishlash ob'ekti, ular orasidagi munosabatlar, fanlarni o'zlashtirish darajalari, muayyan sifatlarni shakllantirish va rivojlantirish, kamchilik va nuqsonlarni korreksiyalash (bartaraf etish) va monitoring (nazorat)ini olib borish bilan bog'liq masalalar tadqiq qilinadi.

Kuzatish metodi - ushbu metod bo'lajak shifokorni jarayonlarning amaldagi holati bilan tanishtiradi, ularning oqibat natijalarini bilishga yordam beradi va shu asnoda yaratilgan yangi kashfiyotlar uchun dalillar, omillar yig'ish imkonini tug'diradi. Bu usul ancha murakkab bo'lib, nazarda tutilgan maqsad qanday amalga oshayotganligini aniqlash, "sub'ekt-sub'ekt" munosabatlarining o'zaro aloqalari, individual farqlarini qiyoslash uchun ham qo'llaniladi.

Tabiiy kuzatishda o'rganilayotgan respondentlarning (tadqiq qilinuvchilar) o'zaro munosabatlari, o'quvchilarning fanlarni o'zlashtirishlari, ularning xulq-atvori va muammolaridagi o'zgarishlarni hisobga olish va tegishli ta'limiy-tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish yo'llarini belgilash uchun qo'llaniladi. Ilmiy kuzatishlar esa nafaqat respondent (o'rganilayotgan sub'ekt)larning tabiiy faoliyatini balki, ularning ilmiy dunyoqarashlarning shakllanishi, fikrlash jarayonini darajasi, kuchini, xulosalar chiqarishdagi faolliklarini aniqlaydi, ularni tahlili qiladi. Bunday kuzatishlar oqibat natijada pedagogika fani mazmunini boyishiga xizmat qiladi. Qolaversa, ilmiy kuzatish orqali respondentlar (bular maktabgacha tarbiya yoshidagilar, o'quvchi, talabalar bo'lishi mumkin)ning o'rganilayotgan muammo yuzasidan sifat va son ko'rsatkichlarini aniqlashga yordam beradi. Bu metod tadqiqotchining pedagogik tajribaning muayyan bir tomoni va hodisalarini biror maqsadni ko'zda tutib tashkil etiladi. Bunda kuzatishlar tezligi va soni, kuzatish ob'ekti, vaqti, pedagogik vaziyatlarni kuzatish uchun ajratiladigan xarakteristika va boshqalar hisobga olinadi.

Pedagogik kuzatish metodini qo'llash jarayonida ta'lim muassasalarining o'quv-tarbiya ishlari jarayonini o'rganish asosida tadqiq etilayotgan muammo holati aniqlanadi, tajriba avvali va yakunida qo'lga kiritilgan ko'rsatkichlar o'rtasidagi farq to'g'risidagi ma'lumotga ega bo'linadi. Pedagogik kuzatish murakkab va o'ziga xos xususiyatlarga ega. Kuzatish aniq maqsad asosida, uzluksiz, izchil va tizimli amalga oshirilsa, kutilgan natijani qo'lga kiritish mumkin. Olib borilayotgan pedagogik kuzatish ta'lim-tarbiya sifatini oshirish, o'quvchi shaxsini shakllantirishga xizmat qilsa, mazkur metodning ahamiyati yanada oshadi.

Pedagogik kuzatuvni tashkil etishda xatoga yo'l qo'ymaslik muhimdir. Buning uchun tadqiqotchidan quyidagilar talab etiladi:

- 1) kuzatuv jarayonida aniq maqsadga egalik;

- 2) kuzatishni tizimli ravishda yo'lga qo'yish;
- 3) kuzatishning har bir bosqichida muayyan vazifalarni hal etish;
- 4) har bir holatning mohiyatini sinchiklab o'rganish;
- 5) xulosa chiqarishga shoshilmaslik

Suhbat metodi - an'naviy pedagogik metodlar turkumiga kirib, dialog, diskussiya tarzida o'tkaziladi. Ushbu metod orqali insoniy munosabatlar, ularning istiqboldagi rejalari, qarashlari va xususiy fikrlarini o'rganish mumkin. Pedagogik suhbat oddiy suhbatdan farq qiladi. Ushbu metod orqali suhbatdoshning ichki olamini o'rganish, uning dunyoqarashi, kelajakdagi rejalari bilan tanishish imkoniyati tug'iladi. Ta'lim-tarbiya tizimi sifatini oshirishda, takomillashtirishda yoki yaratilgan ilmiy farazlarning qanchalik to'g'ri ekanligini aniqlash maqsadida suhbat uslubidan foydalaniladi.

Suhbat metodi - ta'lim muassasasi o'qituvchilari va tahsil oluvchilar jamoasi bilan ota-onalar va keng jamoatchilik bilan, yakka va guruhli tartibda ish olib borilganda qo'llaniladi. Suhbat metodini tadbiiq etishdan oldin reja tuziladi, uni amalga oshirish yo'llari belgilanadi, natijalar tahlil qilinadi va tegishli xulosaga kelinadi. Bu metod so'rashning bir turi bo'lgani holda tadqiqotchining jiddiy tayyorgarlik ko'rishini talab etadi, chunki u tekshirayotgan shaxs bilan bevosita aloqada bo'lish vaqtida og'zaki suhbat tarzida, suhbatdoshning javoblarini yozmasdan erkin muomala shaklida qo'llaniladi. Suhbat metodidan farq qilib, intervyu olish metodi savollarni oldindan belgilangan izchillikda intervyu yo'li bilan bayon qilishni nazarda tutadi. Bunda javoblar magnit tasmasiga yoki kassetalarga yozib olinadi. Hozirgi kunda ommaviy so'rash nazariyasi va amaliyotida intervyu tashkil etishning bir necha usullari mavjud:

- guruhlar bilan ishlash;
- intensiv, rivojlantiruvchi;
- sinash va boshqalar.

Ijtimoiy fikrni o'rganish (so'rovnoma, intervyu, test) metodi - tadqiqotchining boshqa kishilardan pedagogik tajribaning biror tomoni yoki hodisalari haqida axborot olish jarayonidir. Bu metod orqali o'rganilayotgan muammoning yechimini topish yo'llari belgilanadi. So'rash savollari mantiqiy izchillikda, nazokatli shaklda bo'lgani maqsadga muvofiq. Qo'yilayotgan savollar aniq ifodalinishi, mavjud nuqson va salbiy oqibatlarining oldini olishga mo'ljallangan bo'lishi lozim. So'ralgan savolga to'liq javob olish bilan birga, qat'iy shaklda: "ha", "yo'q" tarzida ham javob olinadi. So'rashning modifikatsiyalashtirilgan shakli - intervyudir. Intervyudagi savollar oldindan tayyorlanib, suhbatdoshiga uzatiladi. Olingan javoblar har doim ham pedagogik muammoni yaxlitligicha tahlil qilishga imkoniyat yaratmaydi, chunki intervyu javoblari keng jamoatchilik ichida tahlil qilinadi. Shu sababli

suhbatdosh ayrim paytlari o'z fikrini aniq, va ravshan, baralla aytishga iymnadi.

Test sinovlari orqali tahsil oluvchilarning bilimlari qisqa muddat ichida yoppasiga aniqlanadi va baholanadi. Masalan, XX asrning o'rtalarida abituriyent biron bir oliy o'quv yurtiga kirishi uchun deyarli bir oy mobaynida bir necha fandan imtihon topshirar va ularning javoblarini kutish uchun ancha vaqt sarflardi. Baholar ko'p hollarda sub'ektiv quyilar, imtihon qilinayotgan fanlar javoblari birin-ketin chiqarilar, natijada adabiyot shinavandasi birinchi imtihondan natijasi salbiy baholansa, keyingi imtihonga kirish huquqidan mahrum etilardi va shu bois yoshlarning talaygina qismi o'z sevgan kasbini egallay olmasdi. Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq yoshlarning bilimiga xolisona yondashish, ular iqtidorini yuzaga chiqarish maqsadida O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim muassasalariga kirish uchun 1993 yildan etiboran abituriyentlarning bilim darajasini baholash uchun bir kunda (1 avgust) va aynan bir xil vaqtda test sinovlari o'tkaziladi. 2017 yil 16 noyabdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Respublika oliy ta'lim muassasalari bakalavriatiga kirish test sinovlarini o'tkazish tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi qaroriga binoan 2018/2019 o'quv yilidan boshlab oliy ta'lim muassasasiga qabul qilish bo'yicha kirish test sinovlarini 1 avgustdan 15 avgustgacha bo'lgan davrda o'tkazish belgilandi.

Test metodi orqali yoshlarning bilimi baholanishi ularning fanlarni o'zlashtirganlik darajasini xolisona baholashga yordam beradi va iqtidorini yorqinroq ifodalashga zamin yaratadi.

Test savollarining o'rni va ularning mazmunan rang-barang qilib tuzilishi, ko'p variantda qo'llanilishi tadqiq qilinayotganlarning mustaqil fikrlarini o'stiradi, kelajakni real baholash qobiliyatini taraqqiy ettiradi

Test metodi - ijtimoiy fikrni o'rganish, kichik vaqt ichida biron muammoga javob topish, tahsil oluvchilarning bilim darajasi va fanlarni o'zlashtirish darajasini o'rganish uchun qo'llaniladi. Test metodi qisqa vaqt ichida katta hajmdagi ma'lumotga ega bo'lishga, ulkan auditoriya bilan ishlashga imkoniyat yaratadi.

Test savollarining o'rni va ularning mazmunan rang-barang qilib tuzilishi, ko'p variantda qo'llanilishi tadqiq qilinayotganlarning mustaqil fikrlarini o'stiradi, kelajakni real baholash qobiliyatini taraqqiy ettiradi

Ilmiy tadqiqotlarda test, so'rovnomalar metodi yetakchi bo'lib hisoblanadi. So'rovnoma - anketa metodi qo'llanilganda yaratilgan ilmiy farazning yangiligini bilish, aniqlash, tadqiq qilinuvchilarning yakka yoki guruhli fikrlari, qarashlarini o'rganishga imkon yaratiladi; qanday kasblarga qiziqishlarini, kelajak orzu-istaklarini bilish va tegishli xulosalar chiqarish, tavsiyalar berish maqsadida o'tkaziladi.

Test, anketa savollarini ishlab chiqish murakkab ilmiy jarayondir. Pirovard natijada tadqiqot natijalarining ishonchliliği anketalar mazmuniga, berilayotgan savollar shakliga, to'ldirilgan anketalar soniga bog'liq bo'ladi. Odatda test savollarining ma'lumotlarini kompyuterda matematik- statistika metodlari bilan ishlov berishga imkon beradigan qilib tuziladi.

Bolalar ijodini o'rganish. Bolalar ijodini o'rganish ko'p qirrali jarayondir. Bunda ta'lim va tarbiya maskanlari tarbiyalanuvchilarining o'ziga xos individual tartibdagi faoliyatlari tahlil qilinadi, muayyan xulosalarga kelinadi. Ularning turli yozma ishlari, daftarlari, tutgan kundaliklari, she'r va hikoyalari, hayotiy rejaları, insholari, turli yozma hisobotlari, chizgan rasmlari, haykaltaroshlik ishlari, bastalagan kuylari, yozgan va ijro etgan qo'shiq va raqslari ularning dunyoqarashi va ma'naviyatini o'rganish uchun manba bo'lib xizmat qiladi. Bu metod orqali yoshlar orasidan iqtidor egalari, noyob qobiliyatga ega bolalar ajratib olinadi. Ayniqsa, bizning respublikamizda mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq iqtidorli yoshlarni aniqlash, ularning qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida salmoqli ishlar amalga oshirilayapti. Bugungi kunda iqtidorli yoshlarimiz jahon mamlakatlarining fan olimpiadalarida, turli ko'riklarda (san'at, musiqa va boshqa), sport maydonlarida o'zlarining iqtidorini namoyish qilishmoqda, zehn va bilim, kuch va chaqqonlik, shijoat va g'ayrat bobida dunyodagi boshqa millatlardan kam emasligini namoyish qilishmoqda, g'olibliklarni qo'lga kiritishmoqda. Ta'lim va tarbiya muassasalarida iste'dodli, iqtidorli yoshlar aniqlanib, ular bilan alohida ish olib borilmoqda. Bolalar ijodi fan olimpiadalari, mavzular bo'yicha ko'rgazmalar, qushiq va raqs tanlovlari, maktablar bo'yicha viktorinalar, musobaqalar, sayohatlar va boshqalarda namoyon bo'ladi.

Tajriba-sinov metodi – tajriba (“eksperiment” so'zi lotincha “sinab ko'rish”, “tajriba quyish” ma'nosini anglatadi) tajriba ishlari, asosan ta'lim-tarbiya jarayoniga aloqador ilmiy faraz yoki amaliy ishlarning tadbiqiy jarayonlarini tekshirish, aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Tajriba-sinov metodi sharoitga qarab 3 xilda o'tkaziladi: 1. Tabiiy tajriba, 2. Laboratoriyaviy tajriba, 3. Amaliy tajriba.

Matematika va statistika metodi. Ushbu metod ilmiy tadqiqot natijasida jamlangan axborotga kompyuter texnologiyalari yordamida ishlov berish, statistika ma'lumotlarini jamlash, taxlil qilish, qiyoslash umumlashtirishda qo'llaniladi. Matematik-statistika metodiga XX asrning 40 yillarida nemis olimi A.Vald asos soldi. Ushbu metod ilgari faqat matematika sohasida qo'llanilib kelindi va XX asrning 50-70 yillarda ilmiy tadqiqotlardan olingan natijalar matematik hisoblash uchun kibernetik mashinalarga taqdim etildi. Natijada boshqa fan sohalari ham ushbu metoddan foydalanishdi. Kibernetika ishlab chiqarish, texnika, tirik organizmlar, kishilik faoliyatini boshqarishning umumiy qoidalari va vositalariga oid sarhisob ishlarni amalga


oshiradi. Uning mazmuni axborot berish, dasturlashtirish, algoritmlar, boshqaruvchi tizim, model yasash singari asosiy nazariyalarda o'zligini namoyon etib, imitativ vazifani bajarar edi. Bugungi kunda pedagogikada ilmiy-tadqiqot natijalarini sarhisob qilish uchun kompyuterli moslamalardan keng foydalanilmoqda. Statistika ma'lumotlarni qayta ishlovchi bir qancha statistik dastur paketlari ishlab chiqilmoqda. Bu dasturlar orqali murakkab diagramma va grafiklarni chizish, qiyin hisob-kitoblarni bajarishni kompyuter o'z zimmasiga oladi.

O'qitish nazariyasi, amaliyotda hisoblash matematikasi va kompyuterlar yordamida bir tildan ikkinchisiga tarjima qilish, dasturli ta'lim va uni mashina orqali boshqarish, o'qitishni mustahkamlash, baholash orqali ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish, differensial va individual ta'lim berish, maktab hisobotini mashina-kompyuterlar yordamida tuzish kabi jarayonlar bajarilmoqda. Bu metod nafaqat ta'lim va tarbiya ishlarni olib borishda, balki barcha sohalarida faoliyat yuritayotgan boshqaruvchi xodimlar, oilada farzand tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi ota-onalar uchun ham, jamoa bilan ishlaydigan mutasaddiflar uchun ham zaruriydir.

Modellashtirish - bilish ob'ektlarini o'z tushunchalari asosida tadqiq etish; jarayon va hodisalarning xususiyatlarini o'rganish maqsadida modellar orqali o'rganish¹²

Sotsiometriya - pedagogika faniga ijtimoiy psixologiya sohasi orqali kirib kelgan tushuncha bo'lib, kichik ijtimoiy guruhlarning tarkibi hamda ijtimoiylashuvi vazifalarini miqdoriy metodlar orqali o'rganadi¹³

Demak, pedagogika fani o'z mazmunini boyitish va yangilash maqsadida mavjud pedagogik hodisa va jarayonlarni uning maqsadi va vazifalariga muvofiq keladigan metodlari bilan o'rganadi.



2 - rasm. Pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlari

¹² www.google.ru -2015.17 Oktyabr

¹³ www.google.ru -2015.17 Oktyabr

Shunday qilib, ta'lim oluvchilarning shaxsiy-xarakterologik sifatlarini aniqlash, tarbiyalanganlik jihatlari o'rganish, yoshlarda mafkuraviy immunitet hosil qilish, ta'lim sifatini oshirish va boshqa ko'plab muammolar yechimini topishda ilmiy-pedagogik metodlardan foydalanish va ular asosida muayyan chora-tadbirlar ishlab chiqish, uning natijasini hayotga tatbiq qilish, monitoringini olib borish kasbiy-pedagogik tayyorgarlikning muhim usullaridan biridir. Demak, zamonaviy pedagogikadaga ilmiy-tadqiqot metodlari pedagogik jarayon qatnashchilarini har tomonlama chuqur o'rganishga, pedagogik muammolar yechimini topishga xizmat qiladi.

2.4. O'zbek xalq pedagogikasi va uning ta'lim-tarbiyada tutgan o'rni

Insonni har tomonlama tarbiyalash insoniyatning azaliy orzusi bo'lib, ajdodlarimiz ma'rifat va madaniyatni qanday qilib yosh avlodga o'rgatish, ularni komillikka yetaklash yo'llari, qonun-qoidalarini izlaganlar. Ma'rifatli va ma'naviy komil insonni tarbiyalash "O'zbek xalq pedagogikasi" fanining asosiy maqsadidir hamda uning bosh masalasi va mavzusi tarbiyadir. Tarbiyadan keng ma'no ta'lim rivojlanishi, ma'lumot bilan bog'langan holda barkamol insonni voyaga yetkazishdir. Bu o'z navbatida insoniyat yaratgan ilmiy-ma'naviy boylklarga, insonning o'ziga yangicha munosabat, yondashuvni yuzaga keltirdi. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov aytganlaridek: "Fuqarolar endi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning ishtirokchisi, bajaruvchisigina emas, balki bunyodkori va tashkilotchisi hamdir"¹⁴. Bunday yangicha yondashishlar "O'zbek xalq pedagogikasi" fanining ob'ekti va mavzuini kengaytiradi.

Xalq pedagogikasining ajralmas qismi bo'lgan "O'zbek xalq pedagogikasi" O'zbek xalqi paydo bo'lgan va yashab kelayotgan butun davrni o'z ichiga oladi. Jumladan, ijtimoiy va maishiy-axloqni, hayotning barcha tomonlarini, Xalq og'zaki ijodi, qadrshunoslik, udumshunoslik va marosimshunoslikning yetakchi yo'nalishlarini, diniy axloqiy ta'limotni o'z ichiga oladi. Demak, "O'zbek xalq pedagogikasi" - bu dono xalqimizning ta'lim-tarbiya, ahloq, odob, insoniy qadriyatlar va uning ma'naviy ustuvorligi, imon-etiqodi, butunligi sohasidagi dunyoqarashi, ommaviy faoliyati, usullari, an'analari, tajriba xulosalarining lo'nda, bag'oyat teran, donishmandnoma tarzda ifodalanishidir.

Milliy qadriyatlarining barkamol insonni tarbiyalashdagi roli "O'zbek xalq pedagogikasi" an'analari farzandlarning estetik idroki, hissiyoti va tasavvurlarini rivojlantirish hamda mukammallashtirish;

tarbiyalanuvchilarning badiiy-ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish va kamol toptirish, estetik did asoslarini shakllantirish va takomillashtirish; estetik tarbiyada tarbiyalanuvchilar o'yin folklori-ning o'rni va ahamiyati, tarbiyalanuvchilar folklor-etnografik dastalari - estetik tarbiya markazi ekanligi, vorislik, ustoz-shogirdlik an'analari pedagogik, axloqiy-estetik ahamiyati, yoshlarni shaxs sifatida shakllantirish hamda badiiy-estetik tarbiyalashda xalq ommaviy tomosha san'ati - sirk, dorbozlik, askiya, baxshi-shoirlilik, dostonchilik, ertakchilik, qiziqchilik, taqlidgo'ylik, maddohlik, qiraotxonlik, qissaxonlik, otunlik, voizlik, bo'zaxo'rlik alyorlari kabi san'atlarining tutgan o'rni va pedagogik-tarbiyaviy ahamiyati, xalq an'anaviy sporti, fizkulturchi - farzandlar jismoniy baquvvatligi va yetukligining garovi ekanligi, chaqqonlik, epchillik va har tomonlama garmonik rivojlanishning sinalgan vositasi ekanligi, tarbiyalanuvchilar o'yin folklorining pedagogik tarbiyaviy ahamiyati, xalq pedagogik tarbiyasida turizm va sayohatning, savdo-sotiq va tijoratning o'rni, jismoniy tarbiya va sport ko'nikmalarida xalq qiziqarli tomosha san'ati, axloq-odob va ta'limning uyg'unligi va o'ziga xosligi, xalq sport va jismoniy tarbiyasida jinsiy tafovutlarga ahamiyat berishning axloqiy-aqliy ahamiyati; xalq an'anaviy pedagogikasida tabiat va inson uyg'unlashuvi muammolari, tabiat va tarixni e'zozlash, saqlash va qadrlashning ahamiyati, hayvonlar dunyosi, qushlar olami hamda dov-daraxtlar, o'simliklar va giyohlarga ruxsat, suv, borliq-atrofga insoniy munosabat - xalq pedagogikasining ekologik tarbiyasi asoslaridan biri ekanligi, odatlar, udumlar, rasm-rusumlar, marosimlar, irim-sirimlar, qarq'ish va olqish-duolar, tabiat, diniy bayramlarning ta'lim-tarbiyaviy ahamiyati, xalq ommaviy bayram-sayllari "Navro'z", "Mehrijon", "Hayit-ro'za", "Hayit bayrami" va boshqalarning, tarbiyalanuvchining dunyoga kelishi, qulog'iga azon aytish, tish chiqishi, ilk qadami, beshikka solish, birinchi kiyim-bosh kiydirish, besh, yetti kun, o'n bir kunligi, bir yilligi, uch, to'rt, besh yilligining alohida bayram qilinishi, o'quv muassasasiga borishi, sunnat qilinishi, koki' qo'yish, koki' oldirish, mo'ylov oshi, uylanish-nikoh to'yi, birinchi farzand ko'rish, qirq, ellik, oltmish yoshlar tantanalari, payg'ambar yoshi, yetmish, saxon, to'qson yillik yubileylari, kumush to'y, oltin to'y, marvarid to'y va boshqa bayram-sayllar, to'y-tomoshalar, odatlar, udumlar, marosimlar va an'analarning ta'lim-tarbiyaviy, pedagogik yo'nalishi, ahamiyati va shu kabilar.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, xalq nazdida, inson ona qonidan yaxshi yo yomon bo'lib tug'ilmaydi - u birday tug'iladi. Yaxshi-yomonga aylanishi tarbiyadan, dastavval ota-ona, oila, mahalla-kuy, qishloq-ovul, qolaversa, jamiyat va tuzumdandir. Bunda ajdodlar qoldirgan ota meros-oilaviy pedagogika, xalq pedagogikasi, shuningdek udumshunoslik, qadrshunoslik, elshunoslik an'analari, jamiyatning bu sohadagi sa'y-harakatlari

¹⁴ Каримов И.А. Озод ва обод ватан, эркин ва фировон ҳаёт пировард мақсади. - Т. «Ўзбекистон», 2000. 14-бет.

hal qiluvchi o'rin tutadi. Xalq ta'kidlashicha, bola boshdan to'g'ri, haqqoqiy tarbiyalansa – u kelgusida yaxshi inson bo'lib yetishadi, egri yo'nalishda tarbiyalansa – yomon kishiga aylanadi. Zero, "ko'chat boshdan, bola yoshda maqoliga amal qilish xalq an'anaviy pedagogikasining bosh yo'nalishidir.

El-yurt uchun har tomonlama mukammal insonni tarbiyalash, yaratilgan "O'zbek xalq pedagogikasi" ham ayrim shaxslar yoxud bir-ik jamoa – ular qanchalik iqtidorli-iste'dodli bo'lishmasin, uni xalqimiz asri bilan o'lchanuvchi hayotida o'zining boy hayotiy tajribalari, farzandlari kamoloti borasida tutgan tutimlari, sa'y-harakatlari, yo'l-yo'riqlari, aq zakovatlari bilan yaratilgan.

Hamisha safarlarda bo'lib, o'zga yurt kishilari bilan muloqotlar bo'lish, izlanishlar olib borishdan toliqmaslik kabi xislatlar o'zbek xalq karakteriga xos fazilatlarandir. Insonparvarlik, baynalmilallik, hushyorlik zukkolik, topqirlik, bilimdonlik, uquvlikni o'ziga e'tiqod qilib olgan o'zbek xalq pedagogikasi ayni choqda Sharq odobnomasi, ibratnomasidan doimiy ravishda bahramand bo'lgan, sharqona xalq pedagogikasi boyliklaridan oziqlangan va uning eng go'zal namunalari o'ziga qabul qilib olgan.

O'zbek xalq pedagogikasining asosiy manbasi. O'zbek xalq pedagogikasining manbalarini asosan uch turga bo'lib o'rganish mumkin. Bular quyidagilar:

Xalqimizning buyuk mutafakkirlari tomonidan meros qilib qoldirilgan nasriy va nazmiy asarlar, odobnoma va pandnomalar;

Xalqimiz tomonidan yaratilgan xalq og'zaki ijodi va folklori namunalari, xalqimizning qadriyatlari, urf-odatlari va turli xil marosimlari;

Islom dinining muqaddas kitobi "Qur'oni karim", Payg'ambarimizdan meros qilib qoldirilgan hadis namunalari va buyuk islomiy ta'limotlarning namunalari.

Endi biz shular xususida o'zimizning fikr-mulohazalarimizni bildirib o'tmoqchimiz. Xalqimizning buyuk mutafakkirlari bo'lmish Imom al-Buxoriy, Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Bahouddin Naqshbandiy, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek, Mirzo Bobur, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Botu, Mahmudxo'ja Behbudiy va boshqa shu kabi ko'plab buyuk ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan ma'naviyat sarchashmalari o'zining tarbiyaviy ahamiyatga, ma'rifatni targ'ib etish xususiyatlariga va ibratlilik xususiyatlariga ega ekanligi tufayli hozirgi kunga qadar o'z qadr-qimmatini yo'qotmay kelmoqda. Bular jumlasiga Navoiyning mashhur "Xamsa" sini, Imom al-Buxoriyning "As-sahih" hadislar to'plamini, Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" kabi ko'plab yuksak qadr-qimmatga ega asarlarni kiritishimiz mumkin. Xalqimiz tomonidan yaratilgan qadriyatlar va urf-odatlar hamda xalq og'zaki ijodi namunalari bevosita xalqimiz ruhiyati asosida shakllangan bo'lib, ular ma'naviy barkamol insonni tarbiyalashda eng

muhim ahamiyatga egadir. Ushbu qadriyatlar o'z navbatida yuqorida sanab o'tilgan buyuk mutafakkirlarimizni ham tarbiyalab voyaga yetkazgandir. Shunday ekan biz buyuk xalqimiz tomonidan yaratilgan milliy qadriyatlarimiz bilan har qancha faxrlansak arziydi. Bizning burchimiz bunday qadriyatlarini asrab-avaylash va ularni izchil ravishda takomillashtirib borishdir.

Ma'lumki, xalqimizning salkam ming yillik tarixi Islom dini bilan chambarchas bog'langandir. Shuning uchun xalqimiz tomonidan yaratilgan milliy qadriyatlarining aksariyati ham va mutafakkirlarimiz tomonidan yaratilgan ma'naviyat sarchashmalari ham aynan ana shu din asosida shakllanib, rivoj topib kelgan. Shunday ekan, biz bu dinning urf-odatlariga oqilona yondashib, ularni to'g'ri anglab olishga harakat qilishimiz kerak. Chunki, islom dini yuksak tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lib, doimo millatlar o'rtasidagi tinchlik-totuvlikni va insoniyatga nisbatan qilinadigan har qanday zo'rvonlikka qarshi g'oyalarni targ'ib etib kelgan.

Bob yuzasidan nazorat savollari:

1. Pedagogika fanining predmeti, ob'ekti va uning tibbiyotdagi ahamiyatini izohlab bering?
2. Pedagogikaning asosiy tushunchalari (kategoriyalari)ni tushuntirib bering?
4. Pedagogikaning inson va jamiyat taraqqiyotidagi o'rni nimada?
5. Pedagogikaning fan sifatida shakllanishida muhim manba bo'lib xizmat qilgan Sharq mutafakkirlarining qaysi asarlarini bilasiz?
6. Jahon ma'rifiy fikrlarining tarixiy-pedagogik tahlilini tushuntirib bering?
7. Pedagogikada qanday ilmiy - tadqiqot metodlari qo'llaniladi?
8. Pedagogikaning qanday sohaları farqlanadi?
9. Pedagogik fanlar majmui va uning boshqa fanlar bilan aloqadorligi.

Mustaqil ish uchun mavzular:

1. Pedagogikaning tibbiyot xodimlari faoliyatidagi o'rni.
2. Milliy pedagogikaning taraqqiyot bosqichlari va asosiy yo'nalishlari.
3. Pedagogikaning shakllanish tarixi.
4. O'zbek xalq pedagogikasi hamda uning ta'lim-tarbiyada tutgan o'rni.
5. Ma'naviy qadriyatlar va ularning shaxs ma'naviy madaniyatini shakllantirishdagi o'rni.

3-MAVZU. ТАРБИЯ ЖАРАЁНИ: МАЗМУНИ ВА МОХИЯТИ

Bobning qisqacha mazmuni

Tarbiya jarayonining mohiyati va uning tibbiyotdagi ahamiyati. Tarbiya tushunchasi, tarbiyaning maqsadi va umumiy vazifalari, tarbiya jarayonining o'ziga xos xususiyatlari, tarbiya qomuniyatlari va tamoyillari tarbiya jarayonining mazmuni, tamoyillari, milliy tarbiya va uning o'ziga xosligi.

Tarbiyaviy ta'sir etish usullari, vositalari va uni amalda qo'llash shakllari. Tarbiya metodlari, vositalari va ularning mazmuni, tarbiyada ta'sir etish usullari, o'quv-tarbiyaviy tadbirlar, tarbiya shakllari va ularning mazmuni, oilaviy tarbiya asoslari, shaxs tarbiyasida oila va jamiyatning o'рни.

3.1. Tarbiya jarayonining mohiyati va uning tibbiyotdagi ahamiyati

Umumiy pedagogika singari tibbiyot pedagogikasida tarbiya muhim o'rin egallaydi. Jamiyat va pedagogikaning tarixiy rivoji davomida mazkur kategoriyani tushuntirishga turlicha yondashuvlar yuzaga keldi. Eng avvalo, keng va tor ma'nodagi tarbiya farqlanadi.

Tarbiya tamoyillari - yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi qoidalar hisoblanadi. Tarbiyadan ko'zlangan asosiy *maqsad* - har tomonlama ma'naviy rivojlangan, aqliy va axloqiy barkamol shifokor shaxsini shakllantirishdan iborat. Tarbiyaviy ish ma'lum maqsadni ko'zlovchi va uzluksiz davom etadigan jarayondir. Tarbiyaning ma'lum maqsadga qaratilganligi bo'lajak shifokorlarning axloqiy, ma'naviy tarbiyalanganlik istiqbollari ko'ra bilishda yordam beradi.

Tarbiyaning maqsadi va umumiy vazifalari. Inson paydo bo'libdiki, tarbiya jarayoni va tamoyillari mavjud. Tibbiyot pedagogikasida tarbiya jarayoni shaxsni maqsadga muvofiq takomillashtirish uchun uyushtiriladi va tarbiyalanuvchining shaxsiga muntazam va tizimli ta'sir etish imkoniyatini beradi. Tarbiya jarayonida bo'lajak shifokorda his-tuyg'ulari va turli qobiliyatlari rivojlanadi, g'oyaviy, axloqiy, irodaviy, estetik xislatlari shakllanadi, tabiatga, jamiyatga nisbatan ilmiy qarashlar tizimi tarkib topadi, tibbiyot sohasidagi bilimlari tarkib topadi. Tibbiy tarbiya jarayonida yoshlarda jamiyatning shifokor shaxsiga qo'yadigan axloqiy talablariga muvofiq keladigan xulqiy malaka va odatlar hosil qilinadi.

Tibbiyot pedagogikasida asosiy yunalishlar yoshlarda Vatan to'g'usini shakllantirish, tibbiyot sohasini rivojlantirishga o'z hissasini qo'shish, Gippokrat qasamyodiga sadoqatlilik, milliy qadriyatlarga hurmatni kuchaytirish, insonparvarlik, umuminsoniy qadriyatlarga, millatlararo totuvlik, bag'rikenglik, dunyoviy ilmlarga intilish va ilg'or madaniyatni shakllantirish, dinning dunyoviylik bilan qarana-qarshi emasligini anglash, huquqiy madaniyat - sog'lom dunyoqarashning muhim omili ekani to'g'risidagi ma'lumotlarni kengaytirish, ma'rifatning shaxs intellektual salohiyatini oshirishdagi imkoniyatlari kengligini isbotlash kabi tamoyillarga tayanadi.

Keng ma'noda tarbiya shaxsga jamiyatning ta'sir etishi, ijtimoiy hodisa sifatida qaraladi. Mazkur holatda tarbiya ijtimoiylashtirish bilan uyg'unlashadi.

Tor ma'nodagi tarbiya deganda, pedagogik jarayon sharoitida tibbiy ta'lim maqsadini amalga oshirish uchun pedagog va bo'lajak shifokorning maxsus tashkil etilgan faoliyati tushuniladi.

Tarbiya mazmuni deganda, qo'yilgan maqsad va vazifalar bilan bog'liqlikda ta'lim oluvchilarning egallashi lozim bo'lgan bilim, malaka, e'tiqod, shaxs sifati va xarakteri, xulq-atvor tizimi tushuniladi.

Tarbiyaning *maqsadi* - har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirishdir.

Tarbiyaning umumiy vazifalari:

- jamiyat a'zolarining maqsadga yo'naltirilgan rivojlanishi hamda ularning qator ehtiyojlarini qondirish uchun shart-sharoit yaratish;
- jamiyat rivoji uchun zarur bo'lgan ijtimoiy madaniyatga mos yetarlicha hajmdagi «inson kapitali»ni tayyorlash;
- madaniyatlarni avloddan-avlodga yetkazish orqali ijtimoiy hayotning barqarorligini ta'minlash;
- ma'lum jins yoshi va ijtimoiy-kasbiy guruhlarning qiziqishlarini hisobga olgan holda ijtimoiy munosabatlar doirasida jamiyat a'zolarining harakatini tartibga solish.

Tibbiy tarbiya jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega:

- maqsadga yo'naltirilganligi;
- ko'p qirrali jarayon;
- uzoq muddat davom etishi;
- uzluksizligi;
- yaxlitligi;
- variativligi;
- natijalarning oldindan aniqlanmasligi, biroq kafolatlanishi zarurligi;
- ikki tomonlamalilik;

Tibbiy tarbiya qonuniyatlari – bu bir tomondan, ijtimoiy hodisa sifatida tarbiyaning xususiyatlari, ikkinchi tomondan, shaxsning rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan barqaror aloqalar yig'indisidir.

Tarbiya jarayonining quyidagi qonuniyatlari mavjud:

- ijtimoiy muhitning ob'ektiv va sub'ektiv omillariga bog'liqligi;
- tarbiyaning shaxsni rivojlanishi bilan birligi va o'zaro bog'liqligi;
- faoliyat va munosabatni e'tirof etish shaxsning ijtimoiy ahamiyatga ega fazilatlarini shakllantirishning negizi va asosiy manbai ekanligi;
- tarbiyalanuvchilarning o'zaro tarbiyaviy ta'siri, o'zaro munosabatlari hamda faol faoliyati o'rtasidagi bog'lanish;
- tarbiya va o'zini-o'zi tarbiyalashning intensivligi;
- tarbiyalanuvchining «ichki olami»ga ta'sir etishning intensivligi;
- tarbiyalanuvchilarda verbal va sensomotor jarayonlarning rivojlanish darajasi va pedagogik ta'sirni hisobga olish.

Tarbiya tamoyillari – bu tarbiyaviy ishning yo'nalishiga, mazmuniga, metodlari va tashkil etilishiga, tarbiya jarayonining ishtirokchilari orasidagi munosabatlarga qo'yiladigan asosiy talablar ifodalanadigan dastlabki qoidalardir.

Tarbiya jarayoni quyidagi tamoyillar asosida boshqariladi:

- maqsadga qaratilganligi va g'oyaviy yo'nalganligi;
- tarbiyaning insonparvarlashuvi;
- tarbiyaning hayot, mehnat bilan bog'liqligi;
- tarbiyaga yaxlit(kompleks) yondashuv;
- jamoada tarbiyalash va jamoaga suyanib ish ko'rish;
- shaxsga talabchanlik bilan hurmatni birga qo'shib olib borish;
- o'qituvchilar, jamoat tashkilotlari va oilaning talab hamda tarbiyaviy ta'sirlarining birligi;
- tarbiyalanuvchining yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish;
- tarbiya jarayonining tizimligi va uzluksizligi.

Tarbiya turlarining umumiy tavsifi. Tarbiya turlari turli sohalarga ko'ra tasnif etiladi. Ko'proq umumlashgan tasnif o'zida aqliy, mehnat, jismoniy tarbiyani qamrab oladi. Ta'lim muassasalaridagi tarbiyaviy ishlarning turli yo'nalishlari bilan bog'liqlikda fuqarolik, siyosiy, baynalmilal, axloqiy, estetik, mehnat, jismoniy, huquqiy, ekologik, iqtisodiy tarbiyaga bo'linadi. *Institutsional belgilari bo'yicha* oila, ta'lim muassasasi, ta'lim muassasasidan tashqari, diniy, bolalar, yoshlar tashkilotlaridagi tarbiya, maxsus ta'lim muassasalaridagi tarbiyaga bo'linadi.

Tarbiya va tarbiyalanuvchilar orasidagi *munosabatlar uslubiga ko'ra* avtoritar, demokratik, liberal, erkin tarbiya; turli falsafiy kontsepsiyalar bilan bog'liqlikda pragmatik, aksiologik, jamoaviy, individual tarbiya farqlanadi.

Tarbiya jarayonida asosiy vazifa ta'lim - tarbiya berish, yoshlarda bilim, ko'nikma, malakalarni muttasil oshirib borish, ularda tafakkur, ilmiy dunyoqarash va mafkuraviy tushunchalarni shakllantirishdan iboratdir.

Mafkura – inson ruhiyati, tafakkur va dunyoqarashini o'zgartiradigan kuchli vositadir. Uning g'oyalari xalqning ishonch - e'tiqodi, intilish va manfaatlari ifodasiga aylansa yetarlicha samara beradi. Shuning uchun ham mafkura sohasidagi targ'ibot va tashviqot ishlarini, tahsil oluvchilarning tushunchasi, aql - idroki va tafakkur darajasini inobatga olgan holda ma'rifiy yo'l va usullar orqali amalga oshirish taqozga etiladi.

Tarbiyada insonparvarlik va demokratiya tamoyillari. O'qituvchining bilim saviyasi ma'naviyati jamiyatni harakatga keltiruvchi, taraqqiyotga eltuvchi etakchi omillardan biridir. Tarbiyada inson shaxsini oliy ijtimoiy qadriyat deb tan olish, har bir insonning betakror va o'ziga xosligini hurmatlash, uning ijtimoiy huquqi va erkinligini hisobga olish lozim. **Tarbiyani demokratiyalash** - bu tarbiyani ma'muriy ehtiyot va qiziqishlardan yuqori qo'yish, tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar o'rtasida o'zaro ishonch, hamkorlik asosida pedagogik munosabatlar mohiyatini o'zgartirish demakdir. Tarbiyaviy faoliyatni demokratiyalash va insonparvarlashtirish uning mohiyatini va mazmunini qayta tafakkur etishni ko'zda tutadi. Shaxsning rivojlanishi va o'zligini anglashni ta'minlaydi.

Tarbiyada milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi. Yoshlarni Vatanimiz qadriyatlari, boy madaniyati bilan tanishtirish, madaniy va diniy bilimlarini egallashga bo'lgantalablarini shakllantirish, malakalarini oshirib, tobora boyitish, estetik tushunchalarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqimizning ko'p asrlik qadriyatlarini ulkan boy va madaniy merosini chuqur bilmasdan, milliy o'zlikni anglash, milliy g'urur tuyg'usini qaror toptirish mumkin emas. U yaratgan madaniy boyliklar yoshlar tarbiyasida mo'him vosita bo'lib xizmat qiladi. Buyuk mutafakkirlarning asarlari orqali tahsil oluvchilar go'zal axloq, baxt, insof, poklik, mehr - shafqat, ota - onani hurmat qilish qoidalari haqida keng tasavvurga ega bo'ladilar. *Insoniylik* - o'z tarkibiga insonning eng yaxshi axloqiy xususiyatlarini, do'stlik, ota - onaga sadoqatlilik, meqnatsevarlik, diyonatlilik kabi fazilatlarini qamrab oladi. Shu sababli insondagi eng yaxshi fazilatlar avloddan - avlodga o'tib kelgan.

Tarbiyada izchillik, tizimlilik, tarbiyaviy ta'sirlarning uyg'unligi va uzluksizlik yo'nalishi. Tarbiya ishida izchillik juda muhim. Tarbiya uzoq davom etadigan jarayon, shu sababli ularning ishida izchillik va davomiylik bo'lishiga rioya qilish kerak. Bu qoida tarbiyani amalga oshiradigan barcha bo'g'inlarni birgalikda ish ko'rinishlarini nazarda tutadi. Chunki tizimlilik faqat yoshlarni emas, balki aholining barcha qatlamlarini qamrab olishi kerak.

Tarbiya tarbiyalanuvchining ruhiyatiga, tarbiyasiga ma'qul bo'lgan sifatlarini singdirish uchun maqsadga muvofiq tarzda muntazam ravishda ta'sir etishdir. Tarbiya jarayoni inson tug'ilganidan boshlab umrining oxirigacha olib boriladigan jarayon hisoblanadi. Tarbiya davomida tarbiyalanuvchining qarashlari, hayotiy nuqtai nazari asta-sekin tarkib topib boradi. Tarbiya jarayonida kishining turli qobiliyatlari rivojlanadi, g'oyaviy, axloqiy, siyosiy estetik xislatlari shakllanadi. Uning dunyoqarashi tashkil topadi, hamd, jismoniy imkoniyatlari rivojlanadi.

Insonni boshqa mavjudotlardan ajratib turuvchi asosiy belgisi, uning tarbiyasi hisoblanadi. Uning qirralari esa behisobdir. Har bir inson o'z hayoti yo'lida qancha muvaffaqiyatlarga erishgan yoki imkoniyatlarni qo'ldan boy bergan bo'lsa, buning hammasiga, avvalo uning fe'l-atvori, olgan tarbiyasi sababchidir.

Xalqimiz azal-azaldan axloqiy fazilatlariga boy bo'lgan. («Nur Sharqdan taraladi» degan edi Marko Polo). Ota-bobolarimiz farzand o'stirar ekanlar, ularning xulq-atvorlariga, gap-so'zlariga, kishilar oldida o'zlarini qanday tutib, nimalar haqida fikrlashib, o'z maqsadlariga qanday erishishlariga katta ahamiyat berishgan. Tarbiya jarayoni O'rta Osiyo allomalarining, xalq pedagogikasining tarbiya borasidagi boy tajribalariga tayanadi. Sharqona odob ming yillar davomida islomiy tarbiya qoidalari asosida shakllanib kelgan. Qur'oni Karim, Hadislar, sharq allomalari va faylasuflarining asarlari tarbiyamiz manbai bo'lib xizmat qilgan. Islomiy tarbiya musulmonlar hayotining barcha qirralarini, hatto mayda jihatlarigacha qamrab olgan. Eng asosiysi, islomiy odob farzandlarning halol, pok, mehnatkash, ilmga intiluvchi, kattalarni, ayniqsa, ota-onani hurmat qilish ruhida tarbiyalashni shart qilib qo'ygan. Sufiylik ta'limoti ham tarbiyaviy xarakterga ega (Shariat, tariqat, ma'rifat, haqiqat). *Islomiy tarbiya insonni 7 jihatdan tarbiyalashni maqsad qilgan:*

- Axloqiy tarbiya
- Aqliy tarbiya
- Nafosat tarbiyasi
- Badan yoki jismoniy tarbiya
- Mehnat tarbiyasi
- Diniy-ruhiy tarbiya
- Vijdoniy-nafsoniy tarbiya

Barcha davrlarda xam shunchaki bilim egasi bo'lgan insonni emas, balki har jihatdan rivojlangan, o'z imkoniyatlaridan to'la foydalangan holda qobiliyatlarini namoyon qila oladigan insonni tarbiyalash asosiy maqsad hisoblangan.

Tarbiya jarayoni o'zining mohiyati bilan ta'lim jarayonidan farq qiladi. *Bu mohiyat quyidagilardan iborat:*

- tarbiya jarayoni ko'p qirrali jarayondir;
- davomiydir ya'ni inson tug'ilganidan uning umri oxirigacha davom etadigan jarayondir;
- qarama qarshiliklarga to'la jarayondir;
- natijasi ko'zga yaqqol tashlanmaydi. Keyinchalik natija beradi;
- tarbiya ko'rinishlari yaxlit tarzda ro'yobga chiqariladi.

Tarbiya qoidalari – pedagogik ta'lim-tarbiya jarayonini yaxshirok tashkil etish maqsadida foydalanadigan holat, raxbarlik asosidir. U insonni shakllantirish vazifalari bilan belgilanadi. Tarbiya jarayonida bu qoidalarga rioya qilish uning samarasini va natijasini oshiradi. Tarbiyaning mazmuni, tashkil etilishi, usullari va ularga qo'yiladigan talablar shu qoidalarda o'z ifodasini topadi.

Tarbiya qoidalari:

- tarbiyaning ma'lum maqsadga karatilganligi;
- tarbiyaning insonparvarlik va demokratikligi;
- tarbiyaning hayot va mehnat bilan bog'liqligi;
- tarbiyada umuminsoniy kadriyatlarining ustivorligi;
- shaxsni jamoada, jamoa orkali tarbiyalash;
- tarbiyada yosh va individual xususiyatlarni hisobga olish;
- tarbiyaviy ta'sirlarning izchilligi va muntazamligi;
- tarbiyaning pedagogik qonuniyatlariga rioya etish.

Bola tarbiyasi bolaning o'z faolligi bilan amalga oshiriladi. Uning harakatlari – imkoniyatlariga mos bo'lishi lozim. Har bir tarbiyaviy vazifa faol harakatlar orqali bajariladi. Jismoniy rivojlanish – jismoniy harakatlar orqali, axloqiy – insoniy qadriyatlarga doimiy mo'ljallanish orqali, aqliy rivojlanish – fikrlash faoliyati, intellektual vazifalarni bajarish orqali amalga oshadi.

Bolaning faoliyat mazmuni uni tarbiyalash jarayonida aktual ehtiyojlari bilan aniqlanadi. Bularning inobatga olinmasligi karshilik va sustlikka olib kelib tarbiya jarayoni kiyinlashishi mumkin.

Pedagog va tarbiyalanuvchining o'zaro faoliyatidagi proporsional harakatlari. Boshlang'ich bosqichda pedagog faolligi bola faoligidan kuchli bo'ladi, sekin-asta bola faolligi kuchayib, yakuniy bosqichda bola pedagog nazorati ostida hamma narsani o'zi bajaradi. Bunday faoliyat bolaga o'zini faoliyat sub'ekti sifatida his qilishga yordam beradi. Bu esa shaxsning erkin ijodiy rivojlanishida muhim.

Faqat mehr-muhabbat va himoya sharoitida bola o'z munosabatlarini erkin va ixtiyoriy ifodalaydi, yaxshi rivojlanadi. Shuning uchun tarbiya o'z ichiga bolaga bo'lgan muhabbatni namoyon qilish, uni tushunish, unga yordam berish, himoya qilish va kichik xatolarini unutish kabi vazifalarni kiritadi

Har bir faoliyat muvaffaqiyat vaziyati bilan uyg'unlashishi lozim. Y bolaning o'z faoliyati va uning natijasidan ichki qoniqishidir. Tarbiyada har bola muvaffaqiyat vaziyatini his qilishi juda muhimdir.

3.2. Tarbiyaviy ta'sir etish usullari, vositalari va uni amalda qo'llash shakllari

Tarbiyaning samarali bo'lishi ko'p jihatdan jamiyatdagi ijtimoiy institutlarning rivojlanishiga bog'liq. Bo'lajak shifokorda ma'naviy va insoniy sifatning shakllanishida oiladagi, atrofdagi, jamiyatdagi muhit va munosabatlar muhim o'rin egallaydi. Aniq bir maqsadga qaratilgan tarbiyaning samaradorligi tarbiyachining qanday metoddan foydalanishiga bog'liq.

Metod, ya'ni uslub, axborotni uzatish va qabul qilish xarakteriga qarab.

- So'z orqali ifodalash.
- Ko'rgazmalilik.
- Amaliy namuna.
- Rag'batlantirish va jazo.
- Irodani safarbar etish.
- Ijtimoiy ongni shakllantirish.

Bu metodlar o'z navbatida quyidagi guruhlarga bo'linadi.

Birinchi guruh - so'z orqali uzatish, maslahat berish, ma'lumotlarni eshitish orqali qabul qilish, hikoya, ma'ruza, suhbat va boshqa uslublar;

Ikkinchi guruh - kinofil'mlar, tasviriy san'at, badiiy san'at va boshqa ko'rish orqali tarbiyalash uslublari

Uchinchi guruh - tarbiya jihatlarini amaliy mehnat harakatlari orqali berish, o'rnatish, boshqalar mehnatini misol tariqasida ko'rsatish.

To'rtinchi guruh - yaxshi bajarilgan ishlarni ma'qullash, minnatdorlik bildirish, iqtisodiy va ma'naviy rag'batlantirish.

Tarbiya vositalari biron - bir tarbiyaviy masalani maqsadga muvofiq yo'l bilan hal qilishni tashkil etish uchun ishlatiladi. Bundan tashqari bo'lajak shifokorlar jalb qilingan faoliyat turlari kinofil'mlar, tibbiyot xaritalari, sport va boshqa faoliyat turlari tarbiya vositalari bo'lishi mumkin.

Tarbiya jarayonining xususiyatlari				
ko'p qirrali jarayon	uzoq muddat davom etadi	yaxlit holda va konsentrik asosda amalga oshadi	ikki tomonlama xususiyat, bolaning faolligi	qarama-qarshiliklar ko'pligi

Tarbiya jarayoni o'z-o'zini tarbiyalash bilan mustahkam bog'liq bo'ladi. O'z-o'zini tarbiyalash kishining o'z shaxsidagi kamchiliklarini bartaraf etishga, o'z shaxsini o'zgartirishga qaratilgan faoliyatidir. O'z-o'zini

tarbiyalashning muvaffaqiyatli bo'lishi uchun ta'lim oluvchi o'zini to'g'ri baholay bilishga o'rganishi, hayotda o'zi intilishi lozim bo'lgan idealni aniq tushungan holda o'zidagi ijobiy sifatlarini va kamchiliklarni ko'ra olishi muhim ahamiyatga ega. O'z-o'zini tarbiyalash mexanizmlari quyidagilardan iborat:

- O'z-o'zi bilan muloqot o'rnatish. O'zini aniq tarbiya ob'ekti sifatida idrok etish va o'zi bilan muloqotni tashkil eta olish.
- O'z-o'ziga ta'sir ko'rsatish. Har xil shoshilinch vaziyatlarda o'zini qo'lga olish va o'zini to'g'ri yo'lga chorlay olish.
- O'z-o'zini ishtirish.
- O'z kuchi va irodasiga ishonish.
- O'z-o'ziga bo'yruq berish.

Ichki intizom. Bu mexanizm o'z-o'zini boshqarishning muhim mezon bo'lib, har doim har vaqtda xususiyatlarini muntazam ravishda tuzatish va boshqarish uchun zarur sifat hisoblanadi. Yuqoridagilarni amalga oshirishda ichki dialog muhim ahamiyatga ega.

Tarbiyaning tarkibiy qismlari: Tarbiyada oliy maqsadga erishish uchun, ma'lum vazifalarni bajarishimiz lozim bo'ladi. Bu vazifalarni esa tarbiyaning tarkibiy qismlari deb atash ham mumkin.

Aqliy tarbiya - bu barkamol inson tarbiyasining yetakchi tarkibiy qismi bo'lib, o'quvchi yoshlarni tabiat va jamiyat, kishi tafakkuri haqidagi bilimlar tizimini ilg'ab olishi, ularda ilmiy dunyoqarash, yuqori onglik xislatlarini parvarishlash, fan asoslaridan xabardor qilish, tafakkur va nutq qobiliyatlarini o'stirish uchun maqsad qilib qo'yadi.

Axloqiy tarbiya - bu o'quvchilarda jamiyatga, Ona-yurtiga, mehnatga, boshqalarga va o'z-o'ziga nisbatan axloqiy munosabatlarni shakllantirish jarayonidir. **Axloq** - ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, insonlarning jamiyatga, boshqalarga va o'z-o'ziga bo'lgan munosabatlarini tartibga solib turuvchi axloq-odob me'yorlari, qonun-qoidalar majmuasidir. Ana shu xulq-odob qonun-qoidalarini o'quvchilar ongi, hayoti, turmush tarziga singdirish uchun ko'rsatilayotgan ta'sir **axloqiy tarbiya deyiladi**.

Mehnat tarbiyasi - bu tarbiyaning oldida turgan asosiy vazifa o'quvchilarga mehnat ta'limiga oid ilmiy bilimlar berish, mehnat qurollari bilan muomala qilishga o'rgatib borish, hayotga, ijtimoiy foydali mehnatga tayyorlashdir.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturining bosh vazifalaridan biri ham yosh avlodni hayotga, mehnatga tayyorlash, ularni aniq bir kasb-hunar egasi qilib tarbiyalashdir.

Estetik tarbiya - o'quvchilarning san'atga, tabiatga, hayotga nisbatan estetik munosabatlarini shakllantirishdan iboratdir. Estetik tarbiyaning maqsadi o'quvchilarni tabiat, jamiyat va san'atdagi go'zalliklarni idrok etish, uni to'g'ri tushunib yetish, qadriga yetishga, hayotga qayta go'zallik olib kira olishga

o'rgatishdan iboratdir. Tasviriy san'at, musiqa, adabiyot, tabiatshunoslik darslari estetik tarbiyaning asosiy vositalari hisoblanadi.

Huquqiy tarbiya – bu o'quvchilarni rivojlangan demokratik davlat qonun-qoidalarini asosida shaxs haq-huquqlari me'yorlari bilan qurollantirishga qaratilgan jarayondir.

Ekologik tarbiya – bu o'quvchilarda atrof-muhitga, tabiatga nisbatan ekologik munosabatlarni shakllantirish jarayonidir. Barkamol insonning muhim fazilatlaridan biri uning ekologiya madaniyatidir. Ekologik madaniyatga ega shaxs barcha tirik mavjudotlarning yashash sharoiti, muhiti, qonun-qoidalarini puxta biladi, tabiat muvozanatini saqlashga hissa qo'shadi. U atrof-muhitga nisbatan beparvo bo'lmaydi, aksincha uni yaxshilashga, sog'lomlashtirishga hissa qo'shadi.

Iqtisodiy tarbiya – bu o'quvchilarda iqtisodiy tafakkur va madaniyatni shakllantirishga qaratilgan jarayondir. Bozor iqtisodiga o'tayotgan bir paytda yoshlarda iqtisodiy tafakkurni tarbiyalash muhim ahamiyatga egadir.

Jismoniy tarbiya – o'quvchilar tanasidagi barcha a'zolarining sog'lom o'sishini ta'minlash barobarida ularni aqliy va jismoniy mehnatga, Vatan mudofasiga tayyorlashdir. Jismoniy tarbiya mazmuniga ko'ra bola organizmi ichki a'zolari funksiyasi faoliyatini boshqarish, o'quvchilarning sog'ligini mustahkamlash, gigiena qoidalariga ko'nikishini tarkib toptirish, mohirliklarini o'stirish, mehnat qilish qobiliyatlarini oshirish, ularda iroda, chidamlilik qat'iy intizom, do'stlik his-tuyg'ularini kamol toptirish, jismoniy qobiliyatlarini shakllantirishdan iborat.

Oilaviy tarbiya asoslari. Mustaqillik davrida oila institutini jamiyatning boshqa muhim ijtimoiy tuzilmalari, yurtimizdagi ma'naviy o'zga-rishlar bilan uyg'un tarzda rivojlantirish, uning nufuzini oshirish masalasiga davlat siyosatining eng muhim va ustuvor yo'nalishi sifatida doimiy e'tibor berib kelinmoqda.

Mamlakatimiz Konstitutsiyasida oilaning ijtimoiy maqomi aniq belgilab qo'yilgani, shu asosda Oila, Fuqarolik, Uy-joy kodekslari va boshqa zarur qonun hujjatlari qabul qilinib, bu borada tegishli huquqiy poydevor yaratilgani ham bu fikrni tasdiqlaydi.

Oila har qaysi jamiyatning kichik bo'g'inidir, oilalar birlashib, jamiyatni tashkil etadi. Oila farovonligi - milliy farovonlik asosi hisoblanadi. Inson shaxsini shakllantirish oiladan boshlanadi, shu bilan birga oila-murakkab ijtimoiy guruh bo'lib, biologik, ijtimoiy, axloqiy, mafkuraviy va ruhiy munosabatlarning birlashuvi natijasida vujudga keladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 25-maydagi PF-3434-raqamli farmoni va unda ko'zda tutilgan maqsad va vazifalarni bajarilishi bo'yicha bugungi kunda respublikamizda qator ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda. jamiyatdagi o'zgarishlar oilaga ta'sirini ko'rsatganidek, oiladagi o'zgarishlar ham

jamiyatga o'z ta'sirini ko'rsatadi, oila davlatning, jamiyatning asosiy tayanchi, uning mustahkamligi, tinch-totuvligi, farovonligi va barqarorligidan jamiyat mafaattodor bo'ladi. Oilada ma'naviy va jismoniy yetuk avlodni tarbiyalash yoshlarni oilaviy hayot qurishga tayyorlash, zamonaviy kasb-hunar sirlari bilan qurollantirish lozimligi zarur. Bunda Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-iyuldagi "Oilada tibbiy madaniyatni oshirish, ayollarning sog'ligini mustahkamlash, sog'lom avlod tug'ilishi va uni tarbiyalashning ustivor yo'nalishlarini amalga oshirishning maqsadli dasturi to'g'risida" gi 242-sonli qarori, 2018 yil 2 fevraldagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni va 2018 yil 27 iyundagi "O'zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini" tasdiqlash to'g'risidagi Qarori yuzasidagi vazifalarning bajarilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Har qanday jamiyat taraqqiyotida oila farovonligi, oila mustahkamligining o'rni beqiyosdir. Chunki tirik organizmning salomatligi uni tashkil qiluvchi har bir xujayraning sog'lomligiga bog'liq bo'lganidek, butun organizm o'z faoliyatini maqsadga muvofiq amalga oshirishida har bir xujayraning munosib o'rni bo'lganidek, oila ham davlat, jamiyat deb atalgan butun bir organizmni tashkil etuvchi xujayradir. Har bir oilaning sog'lom bo'lishi, ularda ijobiy-psixologik iqlimning hukm surishi, mana shu muhitda dunyoga kelib shaxs sifatida shakllanib, so'ng o'zi yashayotgan davlatning fuqarosi sifatida o'z davlatining iqtisodiyoti, ijtimoiy hayoti taraqqiyotini ta'minlovchi, hal qiluvchi omil bo'lgan inson kamolotida oilaning tutgan o'rni muhimdir.

Shuningdek, jamiyat taraqqiyotining kutilgan darajaga chiqa olmasligi, uning taraqqiyotiga to'sqinlik qiluvchi, uning inqiroziga olib keluvchi kuchlarning yuzaga kelishida ham oilaning hissasi kattadir. Chunki nosog'lom, noqobil va nizoli oilalar, ajralishlar sonining ortishi, jamiyatga turli iqtisodiy, ijtimoiy ziyon etkazishi bilan birga, bunday nosog'lom psixologik muhitda, nizo-janjalli, o'zaro mehr-oqibatsiz muhitda dunyoga kelgan, shakllangan bola ham keyinchalik nafaqat o'z ota-onasi, aka-ukalariga nisbatan mehr-oqibatsiz, shafqatsiz, zolim, xudbin, jamiyat yurt manfaatlariga zid har xil salbiy tashqi kuchlar ta'siriga oson beriluvchan shaxs bo'lib shakllanishi, shu asosda esa o'z oilasi, o'z xalqi, o'z yurti uchun xavfli insonlarning yetishib chiqishiga ham asos bo'lishi mumkin.

Oilaning maqsadi – ikki jinsning o'zaro kelishuvi asosida farzand dunyoga keltirish, hamda tabiat va jamiyatning davomiyligini ta'minlashdir. Farzandda uning hayot yo'lida uchraydigan qiyinchilik va to'siqlarni yengishda yordam beradigan shaxsiy xususiyatlarni tarkib toptirish,

intellektual va ijodiy qobiliyatlarni, mehnat faoliyati tajribasini, axloqiy va jismoniy sog'ligini rivojlantirishdan iborat.

Oilaning vazifasi – oilani yaratish, mustahkamlash va saqlash, oilalar ham ma'naviy, ham moddiy jihatdan ta'minlash, har tomonlama barkamol farzand tarbiyalash, farzandning o'sishi va rivojlanishi uchun maksimal sharoitlar yaratish, farzandga o'zaro munosabat tajribalarini berish, farzandni ijtimoiy, iqtisodiy va psixologik himoyalash, farzandlarni o'z-o'zini rivojlantirishi uchun foydali kasb-hunar va mehnatga tayyorlash, unda shaxsiy qadr-qimmat va hurmat hissi, shaxsiy "Men" qadriyatlarini tarbiyalashdir.

Har bir insonning hayotdagi asosiy maqsadlaridan biri baxtli oila qurish komil farzandli bo'lish. Bu maqsadga erishish uchun oila qurishga ruhiy jihatdan tayyor bo'lish, mas'uliyat va javobgarlik tuyg'usini his qilib, oilaning maqsad va vazifalari, oilaviy tarbiya xususiyatlari, er va xotin, ota-ona va farzandlarning burch va vazifalari, o'zaro munosabatlari xususiyati haqida bilim va tajribaga ega bo'lishlari lozim. Oilada har bir oila a'zolarining tegishli burch va majburiyatlari mavjud.

Ota-onaning farzand oldidagi burchlari:

- Farzandga chiroyli ism qo'yish.
- Insoniy fazilatlarini tarkib toptirish, tarbiya berish.
- Savodli qilish.
- Iqtidoriga qarab rivojlanish.
- Kasb-hunarga o'rgatish.
- Uylantirish yoki turmushga chiqarish.
- Farzandlar orasidagi meros taqsimotida adolatli bo'lish.
- Farzandning ota-ona oldidagi burchlari:
- Ota-onaga hurmat va izzat bilan munosabatda bo'lish.
- Ularning nasihatlariga quloq solish.
- Ota-onaga mehribon, g'amxo'r bo'lish.
- Ularga ham ma'naviy, ham iqtisodiy yordam berish.
- Ota-onaning orzu-niyatlarini amalga oshirishda yordam berish.

Oilada erkak va ayol qonunan teng xuquqli, lekin ularning biologik, jismoniy va ruhiy tuzilishi nuqtai-nazaridan bunday tenglik yo'q. Shu sababli oilada erkak va ayolning vazifalari, farzand tarbiyasi, oila mehnati va yumushlari taqsimotida bir qancha tafovutlar mavjud. Erkakning vazifasi – oilani ham moddiy, ham ma'naviy ta'minlash, oilani turli xavf-xatardan himoya qilish, oila uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olish, oila uchun g'amxo'r bo'lish. Ayolning vazifasi – oilada ijobiy-emotsional va psixologik muhit yaratish, farzand tarbiyasi bilan shug'ullanish, oilaning ichki ishlari uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olish.

Vazifalar shulardangina iborat emas, albatta. Har bir inson o'z afakkurini va aql-farosatini ishga solgan holda, o'z vazifa, majburiyat va

burchlarini aniq bilishi, mas'uliyat va mehr-muhabbat bilan bajarishi lozim. Ushbu majburiyatlari to'g'ri taqsimlansa, oilada ishonch va o'zaro yordam ortadi.

Hozirgi zamon oilalarining qanday turlarga ega ekanligi va ularning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini bilish, ularga xos muammolarni o'rganish oilaviy hayotda ro'y berishi mumkin bo'lgan noxushliklarning oldini olish imkonini beradi.

Oila uni xarakterlovchi turli mezonlarga ko'ra quyidagilarga farqlanadi:

To'liqligiga ko'ra: to'liq, noto'liq va qayta tuzilgan (ikkinchi nikoh) oilalar.

Bo'g'inlar soniga ko'ra: nuklear (ota-ona va bolalardan iborat bo'lgan) va ko'p bo'g'inli (ikki va undan ortiq avloddan iborat) oilalar.

Er-xotinning ijtimoiy kelib chiqishiga ko'ra: ziyolilar, ishchilar, dehqonlar, xizmatchilar oilasi, aralash tipdagi oila.

Er-xotinning ma'lumot saviyasiga ko'ra: oliy ma'lumotlilar, o'rta-maxsus, o'rta, tugatilmagan o'rta, maxsus yordamchi maktab ma'lumotiga va turli saviyadagi ma'lumotga ega bo'lgan yoshlardan tashkil topgan oila.

Regional jihatlari ko'ra: shahar, qishloq, aralash tipdagi oila.

Oilada o'zaro munosabatlarga ko'ra: avtoritar, demokratik, liberal, aralash tipdagi oilalar.

Er-xotinning millatiga ko'ra: bir millatli yoki baynalminal oilalar. Baynalminal oilalar: a) dini, urf-odatlari yoki tili bir guruhga kirgan millat vakillari orasidagi nikohlar; b) dini, urf-odatlari yoki tili bir guruhga kirmagan millat vakillari orasidagi nikohlar.

Yuridik rasmiylashtirilganligiga ko'ra: sinovdagi oila (birga yashashadi, ammo hali nikohni rasmiylashtirmagan, chunki bir-birlarini norasmiy nikohda sinashadi), rasmiylashtirish arafasidagi oila (birga yashashadi, oila qurish maqsadi aniq, lekin ba'zi sabablarga ko'ra rasmiylashtirish kechiktirilgan), nikohdagi oila, nikohdan tashqari oila (ayrim erkaklarning ikkinchi, uchinchi yuridik jihatdan norasmiy oilasi).

Har bir oila ijtimoiy tizim sifatida jamiyat oldida ma'lum bir funksiyalarni bajaradi. Oilaning ijtimoiy funksiyalari haqida gapirganda, bir tomondan jamiyatning oilaga ta'sirini, ikkinchi tomondan esa umumiy ijtimoiy tizimda oilaning o'rnini, oilaning xal qiladigan ijtimoiy (jamoatchilik) funksiyalarini hisobga olish lozim.

Barcha oldingi jamiyatlarda oila quyidagi asosiy funksiyalarni bajargan: oilani yaratish, mustahkamlash va saqlash (reproduktiv funktsiya);

➤ oilani ham ma'naviy, ham moddiy jihatdan ta'minlash (iqtisodiy funktsiya);

➤ har tomonlama barkamol farzand tarbiyalash, farzandning o'zining rivojlanishi uchun maksimal sharoitlar yaratish (tarbiyaviy funktsiya),

➤ farzandga o'zaro munosabat tajribalarini berish (kommunikatsiya funktsiya);

➤ farzandni ijtimoiy va psixologik himoyalash (relaksatsiya funktsiyas).

➤ farzandlarni o'z-o'zini boshqarishi uchun foydali kasb-hunar mehnatga tayyorlash.

Vazirlar Mahkamasining 2017- yil 25-avgustdagi Nikohlanuvchi shaxslarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish tartibini takomillashtirish to'g'risida 365- sonli qarori, 20162- yil 5-iyuldagi "Oilada tibbiy madaniyatni oshirish ayollarning sog'ligini mustahkamlash, sog'lom avlod tug'ilishi va ularning tarbiyalashning ustivor yo'nalishlarini amalga oshirishning maqsadli dasturini takomillashtirish to'g'risida"gi 242- sonli qarorlarining amalida bajarilishi jamiyatimizdagi oilalarning mustahkamlanishi va sog'lom avlod tug'ilishi kabi muammolar yechimini topishga qaratilgan.

Oila deb atalmish muqaddas makon, "oila qasri"ning mustahkamligi shaxslarning qasmiy poydevori bo'lgan nikoh oldi omillari xususiyatlariga, ularning qanday darajada to'g'ri va mustahkam qo'yilishiga bog'liq. Agar shu poydevor yetuk va mustahkam bo'lsa, uning ustiga qurilgan imorat ham ko'rkam, yorug', unda istiqomat qiluvchilarga qulaylik, xotirjamlik, tinchlik, huzur-halova bag'ishlaydigan bo'ladi.

Nikoh oldi omillari u yoki bu nikohning yuzaga kelishiga asos bo'lgan omillar ijtimoiy, iqtisodiy, biologik, fiziologik, ma'naviy, axloqiy va bugungi kunda eng muhim bo'lgan ruhiy omillarni o'zida mujassamlashtirgan, ko'pincha qirrali omillar kompleksidan iborat bo'lib, oila qurayotgan yoshlarning o'zlarining qurayotgan oilaviy hayotlariga qay darajada "yetilgan"liklarini belgilab beradi.

Nikohga yetuklik tushunchasi ham o'z navbatida o'ta murakkab va nisbiy tushunchadir. Chunki odam doimo rivojlanib, takomillashib boruvchi, kasb-hunar faoliyatida yoki ma'naviy-axloqiy rivojlanishida muntazam yangidan-yangi cho'qqilarga erishib boruvchi mavjudotdir. Odamning "yetukligi", ayniqsa, nikohga va oilaviy hayotga yetukligi haqida gapirilganda, bu tushunchadan ma'lum bir umumiy qabul qilingan standart, o'rtacha me'yor, ma'lum bir shartli "o'lchov birligi", ko'rsatkichlar va shu kabilalar sifatidagina foydalaniladi. "yetuklik" – rivojlanishning ma'lum bir bosqichi, fazasi, chegarasiga yetilganlikning sifat va miqdoriy xarakteristikasini ma'lum bir aniqlikda belgilab beruvchi ko'rsatkich bo'lib xizmat qiladi. Odamning nikohga, oilaviy hayotga yetukligi masalasi esa o'ta murakkab, biron-bir qat'iy me'yor bilan o'lchab bo'linmaydigan individual xarakterga ega bo'lgan ko'rsatkichdir.

Nikoh oldi omillari qatoriga shu oila qurayotgan yoshlarning: oilaviy hayotga yetukligi; ularning oila qurish motivlari; ularning oila qurgunga qadar

bir-birlarini tanish muddati (qancha vakt bir-birini tanish), shartlari va sharoitlari; ularning bo'lg'usi oilaviy hayotlari haqidagi tasavvurlari kabilarni kiritish mumkin. Albatta, bu omillarning har biri turli yoshlarda turlicha xarakterda bo'lishi mumkin, shu bilan birga ularning har biri o'z navbatida yana bir necha turlarga farqlanadi.

Nikohga yetuklik deyilganda oila quruvchi yoshlarning jismoniy (fiziologik), jinsiy, huquqiy, iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy, ruhiy kabi yetuklik jihatlari farqlash mumkin. Bularning orasida xuquqiy, jinsiy yetuklik ko'rsatkichlari yetarlicha aniq alomatlariga, belgilarga ega bo'lgan va bular haqida tegishli xuquqiy, tibbiy, psixologik adabiyotlarda ko'plab ma'lumotlar berilgan jihatlari bo'lsa, iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy, ruhiy jihatlari bir oz murakkabroq, qat'iy bir ko'rsatkich, chegaraga ega emasligi bilan xarakterlanadi.

Jinsiy tarbiya masalasiga ko'pincha yo alohida e'tibor talab qilinmaydigan va hеч qanday qiyinchilikni yuzaga keltirmaydigan, har bir yosh guruhi uchun osongina o'zlashtirish mumkin bo'lgan, yoki o'ta shaxsiy, intim, ko'pchilik orasida, ayniqsa, bolalar orasida muhokama qilib bo'lmaydigan masala tarzida qaraladi. Oilaviy hayotda esa jinsiy hayot xaqida bilimlarga ega bo'lish o'ta muhim ahamiyatga ega bo'lgan masaladir. Tadqiqotlarga ko'ra, har bir to'rtinchi ajralishga er-xotinlarning jinsiy nomutanosibliklari sabab bo'lmoqda.

Bob yuzasidan nazorat savollari:

1. Tarbiya tamoyillarining ahamiyati nimada?
2. "Tarbiyaning maqsadga qaratilgan bo'lishi" deganda nimani tushunasiz?
3. Tarbiyada insonparvarlik va demokratiya tamoyilining hozirgi kundagi ahamiyati qanday?
4. Ijtimoiy ongning shakllantiruvchi usullarga nimalar kiradi?
5. O'z-o'zini tarbiyalash mexanizmlarini tushuntiring.
6. Tarbiyaning qanday tarkibiy qismlari mavjud?
7. Oila va uning maqsad-vazifalarini bilasizmi?
8. Oila turlari va uning asosiy funktsiyalarini izohlang?

Mustaqil ish uchun mavzular:

1. Mas'uliyat, imon, vijdon, adolat tushunchalarining shifokor faoliyatidagi o'rni.
2. Yuksak dunyoqarash va e'tiqod tarbiyasi.
3. Har tomonlama barkamol, malakali shifokor kadrlarni tayyorlashda jamiyatimizda qabul qilinayotgan islohotlar
4. Tarbiya jarayonida tibbiy ta'limning o'rni.
5. Tarbiyaning asosiy mezonlari.

4-MAVZU. TA'LIM – YAXLIT JARAYON SIFATIDA

Bobning qisqacha mazmuni

Didaktika pedagogikaning tarkibiy qismi sifatida. Didaktika haqida tushuncha, ta'lim mazmuni, vositalari, shakllar, ma'ruza darslar laboratoriya, amaliy va seminar mashg'ulotlari, tekshirish va bilimlarni baholash darslari.

Innovatsion ta'lim texnologiyalari. "Pedagogik texnologiya" "metodika", "metodlar", "shakllar" va "vositalar" haqida tushuncha pedagogik texnologiyalarning mezonlari, tuzilishi, zamonaviy ta'lim paradigmalari.

Pedagogik mahorat asoslari. Pedagog va unga qo'yiladigan talablar, pedagogik mahorat haqida tushuncha, pedagogik qobiliyatlar, pedagogik texnika, pedagogning muloqot madaniyati, funksiyalari va usullari.

4.1. Didaktika pedagogikaning tarkibiy qismi sifatida

Didaktika haqida tushuncha. Globallashuv sari borayotgan hozirgi dunyoda davlatning xalqaro raqobat jarayoni shartlariga tez moslashuvi uning muvaffaqiyatli va barqaror rivojlanishining asosiy omili hisoblanadi. Bu yuksak taraqqiy etgan davlatlarning asosiy ustunligi - ta'lim tizimining holati bilan aniqlanadigan, shaxsni rivojlantirish imkoniyatlari mavjudligi bilan bog'liq. Davlatning bugungi va istiqboldagi barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlovchi omillar ham aynan tibbiy ta'lim sohasi rivojlanishiga bevosita bog'liqdir.

Didaktika - (yunoncha "didaska" - o'qitaman, o'rgataman) pedagogika nazariyasining nisbatan mustaqil qismi bo'lib, unda o'qitish jarayonining umumiy qonuniyatlari ochib beriladi. Didaktikaning so'zma-so'z tarjimasida "ta'lim nazariyasi" ma'nosini anglatadi.

Didaktika - ta'lim jarayoni, mazmuni, qonuniyat va tamoyillari, shakl, metod va vositalarini ilmiy asoslab beruvchi ta'lim nazariyasi, pedagogikaning alohida sohasi.

Bu atamani nemis pedagogi V.Ratke (1571-1635) fanga kiritgan, deb hisoblanadi. Didaktika nomi ostida u fanning nazariy va metodologik asoslarini tadqiq qiladigan ilmiy soha tushuniladi. Didaktikaning fundamental ilmiy asoslari ilk bor Ya.A.Komenskiy tomonidan ishlab chiqilgan. 1657 yilda

u chex tilida "Buyuk didaktika" asarini yozadi. Didaktikani Komenskiy "hammani hamma narsaga o'rgatish san'ati" deb tushuntirdi.

"Didaktika" atamasi ilk bor nemis pedagogi Volfgang Ratkening "Didaktika yoki ta'lim san'ati" (1613 yil) deb nomlangan ma'ruzasida qo'llanilgan.

O'qitish jarayoni pedagogning o'rgatuvchilik faoliyatini va tahsil oluvchilarning maxsus tashkil etilgan bilish faoliyatini o'z ichiga oladi. Shu o'rinda bu jarayonlarning tahliliga e'tibor qarataylik. Ta'limda o'qituvchining boshqaruvchilik roli o'z kasbining ijtimoiy asoslaridan kelib chiqib, ajdodlarining boy tajribasini, insoniyatning asrlar davomidagi bilish, mehnat, muloqot, umumiy aloqalar, estetik hamda axloqiy qarashlar jarayonida qo'lga kiritgan yutuqlarni egallashni shart qilib qo'yadi.

Bularning barchasi o'qituvchining ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi vazifalarini amalga oshirishida o'z aksini topmog'i lozim. Ana shu asosdan kelib chiqib aytish mumkinki, tibbiy ta'lim jarayonida bo'lajak shifokorlar ko'nikma va malakalar bilan qurollantiriladi. Shu bilan bir paytda u dunyoqarash va axloq normalarini hosil qiladi, qiziqish va qobiliyatlarini shakllantiradi, ularning tibbiyot haqidagi bilish faolligini oshiradi.

Didaktikada ta'limni tashkil etishning umumiy masalalari, o'qitish jarayonining mohiyati, ta'limning mazmuni, o'qitish qonuniyatlari, o'qitish tamoyillari, metodlari, uning tashkiliy shakllari yoritiladi.

Didaktika «nimaga o'qitish?», «nimani o'qitish?», «qanday o'qitish?» «qaerda o'qitish» kabi savollarga javob izlaydi.

Didaktikaning **ob'ekti** - o'sib kelayotgan avlodga ijtimoiy tajribalarni, milliy va umuminsoniy madaniyatni tarkib toptirishga yo'naltirilgan faoliyatning asosiy turi hisoblangan ta'lim berishdir.

Didaktikaning asosiy kategoriyalari quyidagilardan iborat: o'rgatish, o'rganish, o'qitish, ta'lim, bilim, ko'nikma, malaka, kompetensiya, maqsad, mazmun, tashkil etish, shakl, metod, vosita, natija.

Didaktika va metodika mustahkam aloqa va o'zaro bog'liqlikda joylashadi. Didaktika o'qitishning umumiy qonuniyatlarini o'rganadi va aniq bir predmetni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari xususiy metodikalarda ishlab chiqiladi.

Ta'limning mazmuni, didaktikaning asosiy kategoriyalari. Muayyan fanga xos bo'lgan tushunchalarda insoniyat tomonidan ijtimoiy taraqqiyot jarayonida to'plangan bilimlar aks etadi. Shunga ko'ra, ta'limning mazmuni quyidagilarda namoyon bo'ladi.

O'rgatish - o'qitish maqsadini amalga oshirish bo'yicha pedagogning tartiblangan faoliyati.

O'rganish – anglash, mashq qilish va egallangan tajribalar asosida xulq-atvor va faoliyatning yangi shakllarini egallash jarayoni, oldin egallanganlar o'zgaradi.

O'qitish – qo'yilgan maqsadga erishishga yo'naltirilgan pedagog bilan tahsil oluvchilarning tartiblangan o'zaro harakati.

Ta'lim – o'qitish jarayonida egallanadigan bilim, ko'nikma, malakalar kompetensiya va fikrlash usullari tizimi.

Bilim – ma'lum bir fanni nazariy o'zlashtirishni aks ettiradigan inson g'oyalari yig'indisi;

Ko'nikma – egallangan bilimlarning aniq xatti-harakatdagi ifodasi, o'zlashtirilgan bilimlarni amaliyotga qo'llash usullarini egallash.

Malaka – avtomatlashgan, biror bir usul bilan bexato bajarish yoki ko'nikmaning takomillashgan darajasi.

Kompetensiya – egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik va kasbiy faoliyatda qo'llay olish layoqati.

Maqsad – o'qitishning nimaga qaratilganligi, uning ta'sirchanligi kelgusida qay yo'sinda safarbar etilishi.

Mazmun – o'qitish jarayonida egallanishi lozim bo'lgan ilmiy bilim, amaliy ko'nikma va malakalar, faoliyat, fikrlash usullari tizimi.

Tashkil etish – qo'yilgan maqsadni samarali amalga oshirish uchun unga zaruriy shaklni taqdim etadigan, aniq mezonlar bo'yicha tartiblangan didaktik jarayon.

Shakl – o'quv jarayonining tashqi ifodasi, uning ichki mohiyati, mantig'i, mazmuni uchun qobiq.

Metod – o'qitishning maqsad va vazifalariga erishish (amalga oshirish) yo'li.

Vosita – o'quv jarayonining predmetli qo'llab-quvvatlanishi, yangi materialni o'zlashtirish jarayonida o'qituvchi va tahsil oluvchilar tomonidan foydalaniladigan obekt.

Natija – o'quv jarayonining so'nggi mahsuli, belgilangan maqsadlarning amalga oshganlik darajasi.

O'qitish jarayoni mohiyati va uning vazifalari. O'qitish – o'qituvchi va tahsil oluvchilarning maqsadga qaratilgan birgalikdagi faoliyati jarayoni bo'lib, bu jarayonda tahsil oluvchilarni rivojlantirishni amalga oshiradigan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalar yuzaga chiqadi.

O'qitish jarayoni uchta vazifani bajaradi: ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi.

O'qitish jarayonining ta'limiy vazifasi tahsil oluvchilarda bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat. O'qitish natijasi sifatida bilimlarning to'liqligi, chuqurligi, tizimlilik, anglanganligi, mustahkamligi va amaliy xususiyat kasb etishi namoyon bo'ladi. Bu kabi

holatlar ta'lim jarayonining metodik jihatdan to'g'ri tashkil etilganligini ifodalaydi.

Ta'lim jarayonida tahsil oluvchilarda ular tomonidan o'zlashtirilgan nazariy bilimlar asosida hosil qilingan amaliy ko'nikma va malakalar hamda kompetensiyaning shakllanishi ham alohida ahamiyatga ega.

O'qitishning tarbiyaviy vazifasi – ta'lim jarayonida shaxsning ma'naviy-axloqiy va estetik tasavvurlari, xulq-atvori va dunyoqarashi shakllantirilishida o'z ifodasini topadi. Ta'limning tarbiyaviy xususiyati, eng avvalo, ta'lim mazmunida aks etadi. O'qitish jarayonida tarbiyaning ikkinchi omili o'qituvchi va tahsil oluvchilarning munosabatlari, sinfdagi psixologik muhit, o'qish jarayoni ishtirokchilarining o'zaro munosabatlari, tahsil oluvchilarning idrok etish faoliyatlariga o'qituvchining rahbarligi hisoblanadi.

O'qitishning rivojlantiruvchi vazifasi – tahsil oluvchining fikrlashi, shaxsning sensorli va harakatlanish sohalari, emotsional-irodaviy, intellektual sohalarni rivojlantirishda o'z aksini topadi. O'qitish jarayonida tahsil oluvchini aqliy rivojlantirish, aqliy faoliyat usullari, analiz qilish, taqqoslash, tasniflash, kuzatish, xulosa chiqarish, obektlarning muhim belgilarini ajrata bilish, faoliyat maqsadi va usullarini aniqlashni bilishga o'rgatish, uning natijalarini tekshirish malakasini rivojlantirishga erishiladi.

O'qitish jarayonining bosqichlari. O'qitish o'qituvchi rahbarligida tahsil oluvchining o'quv materiallarini rejali ravishda bilib olish jarayonidir. Bu jarayonni bilish bosqichidan iborat bo'lgan tarkibiy qismlarga (yoki komponentarga) ajratish mumkin.

O'qitish jarayoni 4 ta asosiy bosqichdan iborat:

- 1) o'zlashtirilishi lozim bo'lgan materialni idrok etish;
- 2) uni fahmlab olish, tushunchalarning hosil bo'lishi;
- 3) bilimlarni mustahkamlash va takomillashtirish, ko'nikma va malakalarning hosil bo'lishi;
- 4) hosil qilingan ko'nikma va malakalarni amaliyotda qo'llash (kompetensiyalarni tarkib toptirish).

Har bir bosqich uchun muayyan xarakterdagi bilish faoliyati mavjud. O'rganilayotgan materialni idrok qilish. Tahsil oluvchilarning o'rganilayotgan (yoki o'rganilishi lozim bo'lgan) materialni idrok qilishini tashkil etar ekan, o'qituvchi ularning hayotiy tajribasi va tayyorgarlik darajasini hisobga olgan holda material to'g'risida umumiy tasavvur hosil qilib, oldindan uni butunligicha tushuntiradi va ko'rsatadi.

O'rganilayotgan materialni fahmlab olish – o'rganilayotgan obekt haqidagi umumiy tasavvur asosida uni tushunishni ta'minlovchi, asta-sekin chuqurlashib boruvchi anglash jarayoni davom etadi. O'qitishning bu zvenosining maqsadi ilmiy tushunchalarni tarkib toptirishdir.

Bilimlarni mustahkamlanishi, ko'nikma va malakalarning hosil bo'lishi. O'quv materialini idrok etish va faqrlab olish jarayonid o'zlashtirish keyinchalik uni mustahkamlash va takomillashtirishni talab etadi.

Bilim, ko'nikma va malakalarni amalda qo'llay olish (kompetentsiyalarni shakllantirish) - bilim, ko'nikma va malakalarni amalda qo'llash jarayoni ta'limning yakuniy mustaqilligini asta-sekin va izchillik bilan oshirib borish.

O'qitish va o'qish jarayonlari tavsifi, o'quv jarayonida ularning o'zaro bog'liqligi. Inson faoliyatining hamma asosiy turlari (mehnat, fan, san'at, o'yin, sport) uning tevarak-atrof olamni va o'z-o'zini bilish bilan bog'langan. O'qish tevarak-atrofdagi olamni bilishning maxsus tashkil etilgan va o'qituvchi rahbarlik qiladigan alohida turidir. Bu jarayonning mohiyati - bilim, ko'nikma malaka va kompetentsiyalarni hosil qilish, o'quv fanlari mazmunini o'zlashtirib olish va bilish kuchlarini rivojlantirishdir.

O'rgatuvchilik faoliyati yoki o'qitish, tahsil oluvchilarning o'quv faoliyatini boshqarishdan iborat bo'ladi va ularni mashg'ulotlar uchun uyushtirishda, ularning diqqati, tafakkuri, xatti-harakati va hokozolariga rahbarlik qilishda, ular oldiga ularning faoliyatini tobora murakkablashtirilgan vazifalarni izchillik bilan qo'yib borishda, ularni tekshirib borish kabilarda o'z ifodasini topadi.

O'quv faoliyati yoki o'qish bilim, ko'nikma va malakalarni egallab olishning murakkab jarayoni bo'lib, tahsil oluvchilarning intellektual, irodaviy va jismoniy kuch-g'ayratini talab etadi hamda ularning rivojlanishini rag'batlantiradi. O'qituvchining oqilona biror maqsadga qaratilgan rahbarligi va tahsil oluvchilarning esa faol ongli ishtirokisiz, ta'lim jarayonida ijobiy natijalar bo'lishi mumkin emas. Ta'lim jarayonining bu ikki tomoni (o'qitish va o'qish) bir maqsad: ta'limning xilma-xil vositalari va metodlaridan foydalangan holda o'quv materialni egallab olish maqsadi bilan birlashgandir.

Ta'lim jarayoni qonuniyatlari. Pedagogikada qonuniyatlar - bu qonunlarning aniq sharoitlaridagi harakat ifodasi. Ularning asosiy xususiyati qonuniyatlar pedagogikada ehtimoliy-statistik xarakter berishida aks etadi, qonunlarni esa ta'lim jarayonida amalga oshirishni hamma holatlarda ham aniq ko'rib bo'lmaydi.

Ta'lim jarayonining tarkibiy qismlari orasidagi ob'ektiv, mavjud, barqaror, takrorlanuvchi aloqadorlik ta'lim qonuniyati deb ataladi.

Ta'limning umumiy qonuniyatlariga quyidagilar kiradi:

- ta'limning maqsadi jamiyatning rivojlanish sur'ati va darajasi, jamiyatning talablari va imkoniyatlari, pedagogika fani va amaliyotining rivojlanganligi va imkoniyatlari bilan bog'liqlikda aniqlashtiriladi;

- ta'lim mazmunini belgilashda ta'limning ijtimoiy ehtiyojlari va maqsadlari, ijtimoiy va ilmiy-texnik taraqqiyot sur'ati, tahsil oluvchilarning

yoshi imkoniyatlari, ta'lim nazariyasi va amaliyotining rivojlanish darajasiga asoslaniladi;

- ta'limning sifati avvalgi bosqich mahsuldorligi va hozirgi bosqichda erishilgan natijalar, o'rganilayotgan material xususiyati va hajmi, tahsil oluvchilarga tashkiliy-pedagogik ta'sir ko'rsatish, tahsil oluvchilarning bilim olishga qobiliyatlari va ta'lim vaqtiga bog'liq;

- ta'lim metodlari samaradorligi ta'lim maqsadiga, tahsil oluvchilarning yoshi, ta'lim olish imkoniyatlariga, ta'lim muassasasining moddiy-texnik ta'minotiga bog'liq;

- ta'limni boshqarish samaradorligi ta'lim tizimida qayta aloqalarning intensivligi va korrektsiyaga, ta'sir ko'rsatishning asoslanganligiga bog'liq;

- ta'limda rag'batlantirish samaradorligi ichki va tashqi stimullarning o'zaro uyg'unligiga bog'liq.

Ta'lim tamoyillari. Ta'lim tamoyillari o'quv jarayonining umumiy maqsadlari va qonuniyatlariga binoan uning mazmuni, tashkiliy shakl va metodlarini belgilab beruvchi boshlang'ich qoidalardir.

Ta'lim tamoyillarini shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin: *ta'limning mazmunga aloqador va tashkiliy-metodik tamoyillari.*

Ta'lim mazmuniga aloqador tamoyillarga quyidagilar kiradi: insonparvarlashtirish; tabiat bilan uyg'unlik; madaniyat bilan uyg'unlik; ilmiylik; ta'limning fundamentalligi va amaliy yo'nalganligi; ta'lim va tarbiyaning uyg'unligi.

Ta'limni insonparvarlashtirish - uning mazmuni, tamoyillari, shakl va metodlarini yangilash, ularning o'zaro aloqasi va birligini ta'minlash orqali shaxsni har tomonlama shakllantirish va rivojlantirishga yo'naltirishdir.

Ta'limning tabiat bilan uyg'unligi tamoyili. Ya.A.Komenskiy tomonidan fanga kiritilgan bo'lib, tabiatda hayot bahordan boshlangani kabi ta'lim olish jarayoni uchun eng qulay davr bolalik ekanligi g'oyasiga asoslanadi.

Ta'limning madaniyat bilan uyg'unlik tamoyili. Ta'lim insonga o'z dunyosi va boshqa madaniyatlarni anglash, mazkur madaniyat vakillari fikrini eshita olish, ularni qadrlash, ularning dunyosini tushunish, o'zining shaxsiy fikriga tayanish, o'zining bu yorug' olamdagi mavjudligini anglash va o'zining hayotdagi, madaniyatdagi o'rni aniqlash imkonini beradi.

Ta'limning ilmiylik tamoyili - bu tamoyil ta'lim vaqtida va o'qishdan tashqari vaqtda amalga oshiriladigan ta'lim mazmuni tahsil oluvchilarni obektiv ilmiy dalillar, hodisalar, qonunlar, zamonaviy yutuqlar va rivojlanish istiqbollarini ochib berishga yaqinlashtirib, u yoki bu sohning asosiy nazariya yoki konsepsyalari bilan tanishtirishga yo'naltirilgan bo'lishini talab etadi.

Ta'limning fundamentalligi va amaliy yo'nalganligi tamoyilining ahamiyati shundaki, o'qishda fundamentallik bilimlarning ilmiyligi, to'liq va chuqur bo'lishini ko'zda tutadi. Fundamental bilimlar aniq bilimlarga

qaraganda sekin eskiradi, shuningdek, inson va xotirasiga emas, ko'proq un fikrlash layoqatiga bog'liq bo'ladi. Ta'limning fundamentalligi **bilim** mazmunining muntazamligi, nazariy va amaliy jihatdan o'zaro nisbat bo'lishni talab etadi.

Tibbiy ta'lim va tarbiyaning uyg'unligi tamoyili - yaxlit pedagog jarayonda ta'lim va tarbiyaning birligi qonuniyatlariga tayanadi. Bu tamoyil ta'lim jarayonida barkamol rivojlangan shaxsni shakllantirishni ko'zda tutadi.

Ta'limning tizimlili va izchillik tamoyili - bayon qilinayotgan o'quv materialini mustahkamlash va ilgari o'tilgan materiallarni to'ldirishga xizmat qilishini, tahsil oluvchilarning uzluksiz va tizimli sur'atda mustaqil ish olib borishlarini, tahsil oluvchilarning o'zlashtirgan bilim va hosil bo'lgan ko'nikma, malakalarini hisobga olib borishni ham o'z ichiga oladi.

Ta'limda ongliklik, faollik va mustaqillik tamoyili - o'qitishni shunday tashkil etishni nazarda tutadiki, bunda tahsil oluvchilar ilmiy bilimlarni hamda ularni amalda qo'llash usullarini ongli va faol egallab olishlari lozim. Mazkur tamoyil tahsil oluvchilarning tashabbuskorliklari va mustaqil faoliyatlarini nazarda tutadi.

Tibbiy ta'limda ko'rsatmalilik tamoyili - o'qitish jarayoni sifatini oshiradi, tahsil oluvchilarning bilim olishlarini osonlashtiradi. Ya.A.Komenskiy uni didaktikaning «oltin qoidasi» deb atagan. Unga binoan ta'limda inson sezgi orgalaridan foydalanish kerak.

Ta'limning tahsil oluvchilarga mos bo'lish tamoyili - deganda o'quv materiallarining mazmuni uning hajmi, xarakteri, u yoki bu sinf tahsil oluvchilarining jismoniy rivojiga, umumiy tayyorgarligiga - saviyasi va imkoniyatlariga loyiq bo'lishi tushuniladi.

Tibbiy ta'limda bilim ko'nikma va malakalarni puxta va mustahkam o'zlashtirish tamoyili - muhim didaktik talab va qoidalarni, ya'ni tahsil oluvchilar tomonidan tizimli va ongli o'zlashtirilgan ilmiy bilimlarni mustahkam, esda saqlab qolish hamda o'zlashtirilgan ilmiy bilimlarni o'z turmush faoliyatlarida qo'lay olish malakalari bilan qurollantirishni nazarda tutadi.

Ta'limning tushunarlik tamoyili - tahsil oluvchilarning mavjud imkoniyatlarini hisobga olish, jismoniy va psixik sog'lig'iga yomon ta'sir etuvchi intellektual va emotsional qiyinchiliklardan voz kechishni talab etadi.

4.2. Innovatsion ta'lim texnologiyalari

Pedagogik texnologiya nazariyasi o'tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab asoslanib kelinayotgan bo'lsada, aynan "pedagogik texnologiya" tushunchasiga nisbatan turlicha yondashuvlar mavjud. Xususan, pedagog olim V.P.Bespalko pedagogik texnologiyani "amaliyotga tadbir qilinadigan

muayyan pedagogik tizim loyihasi" deya ta'riflaydi hamda asosiy diqqatni o'quv-pedagogik jarayonni oldindan loyihalashga qaratadi¹⁵. N.F.Talizin esa pedagogik texnologiyani "fan va amaliyot oralig'ida muayyan tamoyillarni olg'a suruvchi metodlar ishlab chiqaruvchi, ularni izchil qo'llash kabi masalalarni hal etishga yo'naltirilgan mustaqil fan"¹⁶ bo'lishi lozimligini qayd etadi va h.k.

So'nggi o'n yilliklar davomida nutqimizda "pedagogik texnologiya", "zamonaviy pedagogik texnologiya", "o'qitish texnologiyasi" kabi tushunchalar keng qo'llanilmoqda. Aksariyat pedagoglar "ta'lim texnologiyasi" va "pedagogik texnologiya" tushunchalari mazmunan bir ma'noni anglatishini aytadi. Aslida bunday yondashuv u qadar to'g'ri emas. Ta'lim jarayonini texnologiyalashtirish g'oyasi dastlab G'arbiy yevropa va AQShda shakllangan. Ularda "Pedagogika" fani mavjud emas, shu bois "pedagogik faoliyat", "pedagogik texnologiya" tushunchasi ham iste'molda yo'q. Ushbu mamlakatlarda shaxsga ilmiy bilimlarni berish jarayoni "ta'lim jarayoni" sifatida nomlanadi, shaxsga bilimlar berish, uning ma'lumotini oshirish, ta'lim samaradorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi fanlar majmui "Metodika" deb yuritiladi. Metodika fanlarini o'qitishda asosiy e'tibor ta'lim sifatini yaxshilash, uning samaradorligini ta'minlashga qaratiladi.

O'zbekiston Respublikasi ta'lim amaliyotida o'qitilib kelinayotgan "Pedagogika" fanining predmeti shaxsni shakllantirish, uning kamolotini ta'minlashga yo'naltirilgan ta'limiy va tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish jarayonining mazmunidan iborat. Ya'ni, shaxs kamoloti ta'limiy va tarbiyaviy faoliyat jarayonining natijasi sifatida namoyon bo'ladi.

Xo'sh, "metod", "metodika", "ta'lim texnologiyasi", "pedagogik texnologiya" tushunchalari bir xil ma'noni anglatadimi? Quyida ana shu xususida so'z yuritiladi.

Metod tushunchasi tadqiqotchilar tomonidan turlicha sharhlanishiga qaramasdan, ta'lim jarayonida qo'yilgan maqsadga erishish yo'li hisoblanadi. Masalan, pedagog olim Sh.A. Abdullaevaning ta'rificha: "Metod (lotincha "metodos" - "yo'l", "uslub") tadqiqot yo'li, nazariya, ta'limot, deb tarjima qilinadi. Ilmiy tushuncha sifatida "metod" so'zi keng ma'noda: muayyan muammo yechimini topishga yo'naltirilgan uslubni, malum maqsadga erishish yo'lini, tor ma'noda: tabiat va ijtimoiy hayot hodisalarini hamda qonuniyatlarini bilish maqsadida qandaydir vazifani hal etish uslubini bildiradi.

Pedagog - olim D.I.Ro'zieva: "Metod pedagog va tahsil oluvchi hamkorligida tashkil etilayotgan ta'lim jarayonida qo'yilgan maqsadga erishish usuli sanaladi" - deb e'tirof etadi. Pedagogikada shunday maxsus metodlar

¹⁵ Беспалько В.П. Слагаемые педагогической технологии. - Москва: Педагогика, 1989. - С. 6.

¹⁶ Талызина Н.Ф. Управление процессом усвоения знаний. - Москва: Изд-во МГУ, 1984. - С. 13.

mavjudki, ular yordamida ta'lim-tarbiya jarayoniga taalluqli muhim faktl turli pedagogik vaziyatlarning mohiyatlari, mexanizmlari, xususiyatlari o'rganiladi.

Ta'lim jarayonida an'anaviy (og'zaki, ko'rgazmali va amaliy) noan'anaviy metodlar tasniflanadi.

- Hikoya
- Mashq
- Videometod
- Munozara
- Didaktik o'yinlar
- Laboratoriya metodi
- Suhbat
- Tushuntirish
- Ma'ruza
- Kitob bilan ishlash
- Illyustratsiya
- Namoyish va h.k.

Bugungi kunda ta'lim jarayonida noan'anaviy, interfaol metodlardan foydalanilmoqda.

Interaktiv so'zi inglizcha "inter" – "birgalikdagi" va "act" – "harakatlanish" so'zlaridan olingan. Interaktivlik birgalikda harakatlanish yoki suhbat, dialog rejimida nimadir (masalan, kompyuter) yoki kimdir (o'qituvchi) bilan bo'lish demakdir. Bundan kelib chiqadiki, interaktiv ta'lim – avvalo dialogli ta'lim bo'lib uning davomida o'qituvchi va tinglovchi, tinglovchi va kompyuter o'zaro hamkorligi amalga oshiriladi.

Interfaol ta'limning asosini interfaol metodlar asosida darsni olib borish tashkil etadi.

Interfaol metod – o'quv jarayonining tarkibiy qismi bo'lib, bir vaqtning o'zida ham o'qituvchi, ham tahsil oluvchini faollashtirishga yo'naltirilgan o'qitish usullari majmuidir. "Modellashtirish", "Breynshstorming", "Muzyorar" kabi turli interfaol metodlardan bugungi kunda ta'lim jarayonida foydalanilmoqda.

Modellashtirish metodidan foydalanish mobaynida o'qituvchi auditoriya xususiyatlarini bilishi lozim. Bunda yoshlarning bilim, o'zlashtirish xususiyatlari, uchrashi mumkin bo'lgan qiyinchiliklar, ish dinamikasi, darsning tuzilishi, o'zaro hamkorlikka asoslanganligi inobatga olinishi zarur.

"Breynshstorming" metodi orqali tahsil oluvchilar bilan tezkor aloqa o'rnatish, ular fikrini mustaqil ravishda izhor etishlariga imkoniyat yaratish, ularga dinamik ta'sir ko'rsatish mumkin. "Breynshstorming" uch bosqich: motivatsiya, idrok, refleksiya (mushohada yuritish) dan iborat bo'lganligi bois, har birida ham bahsga kirishuvchilar muloqot madaniyatini namoyish eta olishi

lozim bo'ladi¹⁷. Demak, pedagogik muloqotda tahsil oluvchilar tashabbusi qullab- quvvatlanadi, dialog muloqotga zamin yaratiladi, yoshlarning o'z fikrlarini real sharoitga moslay olish ko'nikmalari shakllantiriladi. Tabiiyki, bunda o'qituvchi pedagogik muloqotni tashkil qiluvchi, tashabbuskor va yetakchi shaxs sifatida maydonga chiqadi.

Bugungi kunda ta'lim jarayonida noan'anaviy metodlar - "Chalkashtirilgan mantiqiy zanjirlar ketma-ketligi", "Erkin yozish", "Besh minutlik esse", "Tushunchalar asosida matn tuzish" kabi metodlardan keng foydalanilmoqda.

Metodika - muayyan qarashlar, nazariyalar, metodlar majmuasi bo'lib, xususiy fanlarni o'qitish uslubiyati hisoblanadi. Metodikadan foydalanish mexanizmini bilish ta'lim jarayonini rivojlantirish va boshqarishning eng samarali shakl va metodlarini aniqlash imkonini beradiki, buning nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyati ham beqiyosdir. Metodika shaxsning tabiatga bo'lgan ta'sirini jamoaviy, maqsadga muvofiq, texnologik o'zaro ta'sir sifatida namoyon bo'lishini ifodalaydi.

Ta'lim texnologiyasi tahsil oluvchilar faoliyatini samarali, muvaffaqiyatli tashkil etishga yo'naltirilgan bo'lib, u talabalarining shaxsiy va pedagog bilan birgalikdagi faoliyatlarini inobatga olgan holda, o'quv materiallarini mustaqil o'zlashtirishlari uchun zarur sharoitlarni yaratishga xizmat qiladi.

Ta'lim jarayonini texnologiyalashtirish nazariyasining shakllanishi uzoq muddatli vaqt oralig'ida kechadi. Qator mamlakatlar – AQSh, Angliya, Yaponiya, Italiyada ta'lim texnologiyasi va uning muammolarini tadqiq etishga alohida e'tibor qaratilgan. Bu mamlakatlarda ta'lim texnologiyasi muammolarini tadqiq etuvchi tashkilotlar tuzildi, maxsus jurnallar ("Ta'lim texnologiyasi – 1961 yil, AQSh; 1970 yil, Angliya; 1965 yil, Yaponiya; 1971 yil, Italiya; "Ta'limtexnologiyasi va dasturli ta'lim" – 1964 yil, Angliya; "Ta'lim texnologiyasi sohasidagi tadqiqot-lar" – 1965 yil, Yaponiya) nashr etildi.

Mustaqillik sharoitida O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalari faoliyatini jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni olib kirishga qaratilgan harakatlar bir qator yetakchi tashkilotlar tomonidan olib borildi. So'nggi besh yillar davomida yuqorida nomlari keltirilgan tashkilotlarning ko'magida respublikaning bir qator yetakchi oliy o'quv yurtlari qoshida Innovatsion markazlar (Pedagogik texnologiya markazlari) tashkil etildi.

O'zbekiston Respublikasida uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirish, uning sifat va samaradorligini oshirish davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Shu boisdan yuqori darajadagi bilimga ega, ma'naviy boy, sog'lom, barkamol avlodni tarbiyalash "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va

¹⁷ Qarant: Педагогик технологиялар. Абдуллаева Ш.А., Ахатова Д.А.- Тошкент. 2003.- 56 –бет.

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da ko‘zda tutilgan asosiy maqsadlardan biridir.

Ta’lim jaryonlarini rivojlantirish bilan birgalikda hozirgi kun talablari oldida turgan dolzarb masala – kelgusidagi kasb egalarini, shu jumladan, bo‘lajak shifokorlarni innovatsion faoliyatga tayyorlash, yosh avlodni ma’naviy tarbiyalash, intellektual jihatdan rivojlantirishda samaradorlikka erishishdir. Zero, faqat barkamol shaxsgina o‘zining intellektual, ma’naviy imkoniyatlarini kasbiy faoliyatida to‘laqonli namoyon etish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Shu ma’noda mamlakatimizda innovatsion jarayonlarni qiyosiy-tahliliy o‘rganish, amaliy tajribalarni tanqidiy mushohada qilish asosida umumlashtirish, bo‘lajak mutaxassislarining innovatsion faoliyatini to‘g‘ri tashkil qilish, uning istiqbol strategiyasini aniqlash imkonini beradi.

Innovatsion faoliyat – bu yangi ijtimoiy talablar bilan an’anaviy me’yorlarning mos kelmasligi, yoxud amaliyotning yangi shakllanayotgan me’yorining mavjud me’yor bilan to‘qnashuvi natijasida vujudga kelgan majmual muammolarni yechishga qaratilgan faoliyatdir¹⁸, – deb ta’kidlaydi M.Ochilov. Innovatsion faoliyat - amaliyot va nazariyaning muhim qismi bo‘lib, ijtimoiy-madaniy ob’ekt sifatlarini yaxshilashga qaratilgan ijtimoiy sub’ektlarning harakat tizimi bo‘lib, u ma’lum doiradagi muammolarni yechish qobiliyatiga emas, balki har qanday vaziyatdagi muammolarni yechish uchun motivatsion tayyorgarlikka ega bo‘lishdir.

Innovatsiya (ing. “innoveyshn” - yangilik kiritish) - tizim ichki tuzilishini o‘zgartirish, deb ta’riflanadi. Innovatsiya - amaliyot va nazariyaning muhim qismi bo‘lib, ijtimoiy - madaniy ob’ekt sifatlarini yaxshilashga yo‘naltirilgan ijtimoiy sub’ektlarning harakat tizimidir. Bu g‘oya nazariyasi mohiyatining yaratilishiga nisbatan turli yondashuvlar va fikrlar mavjud bo‘lib, uning mohiyati borasida fanda yagona fikr mavjud emas.

Innovatsiyalar dolzarb, muhim ahamiyatga ega bo‘lib, muayyan bir tizimda shakllangan yangicha yondashuvlardir. Ular tashabbuslar va yangiliklar asosida tug‘ilib, ta’lim mazmunini rivojlantirish uchun istiqbolli bo‘ladi, shuningdek, umuman ta’lim tizimi rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Innovatsiya - ma’lum bir faoliyat maydonidagi yoki ishlab chiqarishdagi texnologiya, shakl va metodlar, muammoni yechish uchun yangicha yondashuv yoki yangi texnologik jarayonni qo‘llash, oldingidan ancha muvaffaqiyatga erishishga olib kelishi ma’lum bo‘lgan oxirgi natijadir.

Butun ta’lim tizimidagi innovatsiyalarni quyidagicha tasniflash ma’qullanmoqda:

- Faoliyat yo‘nalishiga qarab (pedagogik jarayondagi, boshqaruvdagi).

- Kiritilgan o‘zgarishlarning tavsifiga ko‘ra (radikal, modifikatsiyalangan, kombinatsiyalangan).

- O‘zgarishlar ko‘lamiga ko‘ra (lokal, modulli, tizimli).

- Kelib chiqish manbaiga ko‘ra (shu jamoa uchun ichki yoki tashqaridan olingan).

Innovatsiyaning maqsadi - sarflangan mablag‘ yoki kuchdan eng yuqori natija olishdan iborat. Boshqa turli-tuman o‘z-o‘zidan paydo bo‘ladigan yangiliklardan farqli o‘laroq, innovatsiya boshqariluvchi va nazorat qilinuvchi o‘zgarishlar mexanizmini tashkil etadi.

Ta’lim tizimidagi har qanday yangilik innovatsiya bo‘la olmaydi. Shu sababli «novatsiya» va «innovatsiya» tushunchalari o‘rtasidagi asosiy farqlarni ko‘rsatib o‘tish zarur. Buning uchun islohot faoliyatining aniq shakli, mazmuni va ko‘lami asos bo‘lib xizmat qiladi. Agar faoliyat qisqa muddatli bo‘lsa va yaxlit tizim xususiyatiga ega bo‘lmasa, o‘z oldiga muayyan tizimdagi faqat ba’zi elementlarini o‘zgartirishni vazifa qilib qo‘ygan bo‘lsa, u holda biz novatsiya bilan muloqot qilayotgan bo‘lamiz. Agar faoliyat ma’lum konseptual yondashuv asosida amalga oshirilayotgan bo‘lsa va uning natijasi o‘sha tizim rivojlanishiga yoki uning prinsiplar o‘zgarishiga olib kelsagina innovatsiya deya olamiz.

Har ikkala tushuncha *mezonlari* quyidagicha: novatsiya amaldagi nazariya doirasida amalga oshiriladi, ko‘lam va vaqt bo‘yicha chegaralanadi, metodlar yangilanadi va natijasi avvalgi tizimni takomillashtiradi. Innovatsiya esa tizimli, yaxlit va davomli bo‘ladi, ma’lum amaliyotda yangi faoliyat tizimini loyihalaydi, amaliyot sub’ektlari pozitsiyalarini to‘la yangilaydi. Bunda faoliyatning yangi yo‘nalishlari ochiladi, yangi texnologiyalar yaratiladi, faoliyatning yangi sifat natijalariga erishiladi, natijada amaliyotning o‘zi ham yangilanadi.

Innovatsiyaning amaliyotga kiritilishi innovatsion jarayonlarda amalga oshiriladi. *Innovatsion jarayon deb* - innovatsion o‘zgarishlarga tayyorgarlik ko‘rish va uni amalga oshirish jarayoniga aytiladi.

I.P.Podlasiy pedagogik tizimda innovatsion o‘zgarishlarning yo‘nalishlarini o‘rganish asosida *quyidagilarni belgilab beradi:*

- Pedagogik tizimning tamomila o‘zgarishi.
- O‘quv jarayonining o‘zgarishi.
- Pedagogik nazariyaning o‘zgarishi.
- O‘qituvchi faoliyatining o‘zgarishi.
- Tahsil oluvchi faoliyatining yangilanishi.
- Pedagogik texnologiyaning o‘zgarishi.
- Mazmunning yangilanishi.
- Shakl, usul va ta’lim vositalarining o‘zgarishi.
- Boshqaruvning o‘zgarishi.

¹⁸ Очиллов М. Педагогик технологиялар. – Тошкент: Ухитувчи, 2006. -91-бет.

➤ Maqsad va natijaning o'zgarishi.

Ta'lim jarayonidagi innovatsion o'zgarishlar, ta'lim tizimiga har qanday yangilikning kiritilishi bevosita o'qituvchi faoliyatini yangilash va o'zgartirish orqali amalga oshirilishi ham muallif tomonidan qayd etilgan. Ta'lim tizimidagi innovatsiyalar, ularni amaliyotga kiritish, innovatsion jarayonlarni boshqarishni tahlil qilish orqali innovatsion faoliyat tuigunchasini ta'riflash imkoniyati paydo bo'ldi. Innovatsion faoliyat - pedagogik jamoani harakatga keltiruvchi, olg'a boshlovchi, taraqqiy ettiruvchi kuchdir. "Innovatsion faoliyat - bu yangi ijtimoiy talablar bilan an'anaviy me'yorlarning mos kelmasligi yoxud amaliyotning yangi shakllanayotgan me'yorining mavjud me'yor bilan to'qnashuvi natijasida vujudga kelgan majmual muammolarni yechishga qaratilgan faoliyatdir", - deb ta'kidlaydi V.I.Slobadchikov.

Innovatsion faoliyat bu amaliyot va nazariyaning muhim qismi bo'lib, ijtimoiy - madaniy ob'ekt sifatlarini yaxshilashga qaratilgan ijtimoiy sub'ektlarning harakat tizimi hisoblanadi va u ma'lum doiradagi muammolarni yechish qobiliyatigina emas, balki har qanday vaziyatdagi muammolarni yechish uchun motivatsion tayyorgarlikka ega bo'lishdir. O'qituvchining innovatsion faoliyatining markaziy masalasi o'quv jarayonini samarali tashkil etishdan iborat.

Pedagogik texnologiyalarda masofaviy ta'lim. Pedagogik texnologiyalarda masofaviy ta'lim muhim ahamiyat kasb etadi, chunki, axborot tizimi - axborotni to'plash, saqlash, izlash, unga ishlov berish hamda undan foydalanish imkonini beradigan, tashkiliy jihatdan tartibga solingan jami axborot resurslari, axborot texnologiyalari va aloqa vositalarini qamrab oladi. Ta'lim jarayonini qulaylashtirishda masofaviy o'qitish ta'lim tizimi ishtirokchilarining innovatsion pedagogik faoliyatini tashkil qilishga mo'ljallangan. Aynan:

- doimiy va muntazam ravishda o'z malakalarini oshirib borish, bilim, ko'nikma va malakalarini doimiy yangilab borish;

- mamlakatimizning va hattoki yer kurrasining qaysi burchagida bo'lishi va qaysi vaqt oralig'ida topshiriq berish va ularni bajarishdan qat'iy nazar, tahsil oluvchi va o'qituvchi o'rtasida interfaol aloqa o'rnatishga imkoniyat mavjudligi, ta'lim mazmunining xalqaro talablarga monand bo'lishi, milliy va umumbashariy qadriyatlar uyg'unligi asosida tashkil qilish;

- o'qitish jarayonida erkin muloqot qilish talablarini bajarish, o'quvchining vizual, eshitish, so'zlashish, fikr almashish kabi layoqat va malakalarining teng ravishda shakllantirilishi zarurligini inobatga olish va buning uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlar yaratish;

- o'qitish jarayonida insoniylik (gumanizm) talablariga rioya etish, ta'limning uzviyligi, uzluksizligi, bosqichma-bosqichligi, demokratlashuvi va xalqchilligini ta'minlash;

- davlatlararo xalqaro va mintaqaviy hamkorlik o'sayotganligini inobatga olgan holda istiqbolda kadrlarning milliy manfaatlar asosida shunday xalqaro muloqotga tayyorligini ta'minlash;

- ta'lim jarayonini tashkil qilish va boshqarishda pedagogik motivatsiya, realizatsiya va refleksiya talablariga to'liq rioya etishga qaratilgan.

Zamonaviy ta'lim paradigmalari. Paradigma (grekcha, paradeigma) so'zining o'zi keng ma'noda turmush va fikrlashining biror sohasining fundamental asoslarini aniqlab beruvchi o'ziga xos tuzilishga ega nazariya deb izohlanadi.

Paradigma - aniq vaqt doirasida ilmiy jamoatchilikka muammolarni aniqlash va ularni hal etish modeli sifatida taqdim etiladigan barcha ilmiy yutuqlarga tegishli tadqiqot vazifalarini hal etish namunasi sifatida qabul qilingan nazariya.

Ta'limning yangi paradigmasini paydo bo'lishi faqat ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lmasdan, balki u butun madaniy rivojlanish jarayonida yuzaga kelgan. Uning shakllanishida insonparvarlik falsafasi va psixologiyasi asosiy o'rin egallaydi. Mazkur konsepsiyaning asosiy nuqtai nazari - har bir alohida inson hayotining o'ziga xosligi, har bir shaxs noyob, individual, shartsiz qadriyat ekanligini e'tirof etishdir. Insonparvar falsafa va psixologiya o'z-o'zini realizatsiyalash, o'z-o'zini rivojlantirish ehtiyojini insonning yuksak ehtiyoji deya e'tirof etib, insonning o'z noyobligini asrash va rivojlantirish, insonning erkinlikka erishish mexanizmi sifatida individual shaxsiy tanlovni amalga oshirishni o'zida namoyon etish, qilingan tanlov uchun javobgarlikni bo'yniga olishda ularni amalga oshirishning muhim shartini ko'radi. Shuning uchun shaxsning rivojlanishi va insonning shakllanishi boshqalar bilan hamjihatlikda, ishonch, oshkoralik, sevgiga asoslangan insonparvar munosabatlarni o'rnatish jarayonida sodir bo'ladi.

Asosida ta'limga yangicha yondashuv yotadigan g'oyalarning rivojlanishida psixologlar ham muhim hissa qo'shishgan: yaqin zonadagi rivojlanish va inson rivojlanishida birgalikdagi faoliyatni roli haqidagi ta'limot, shaxsning hayotiy faoliyatdagi vazifalari, fikriy soha, insonning refleksiv imkoniyatlarining rivojlanishi, o'quv faoliyati jarayonida uning psixik rivojlanish qonuniyatlari haqidagi tadqiqotlar, shular jumlasidandir.

Zamonaviy pedagogik fanlardagi (ta'limiy, tarbiyaviy), ta'limning bosh maqsadi - madaniyatga yondashuvga, o'quv-tarbiya jarayoni doirasida hal etiladigan vazifalariga, pedagog va tahsil oluvchilar orasidagi o'zaro ta'sir etish tavsifiga ko'ra paradigmalar farqlanadi.

Ta'limning keng tarqalgan beshta paradigmasi mavjud: an'anaviy (bilimga yo'naltirilgan paradigma); fenomenologik (insonparvarlik

paradigmasi); *ratsionalistik (bixevioristik, xulq-atvorga doir); texnokratik*
ezoterik.

An'anaviy (bilimga yo'naltirilgan) paradigma. Bilimga yo'naltirilgan paradigmada ta'limning bosh maqsadi: "Istalgan qiymatdagi bilim, bilim, yana bilimdir". Shuning uchun ta'lim muassasasining roli inson sivilizatsiyasi madaniy merosining ko'proq mavjud unsurlari – ham individual xuddi shunday ijtimoiy tartibni saqlab qoluvchi, individual rivojlanish imkon beradigan zaruriy, xilma-xil, muhim bilim, ko'nikma va malakalardan bundan tashqari ideal va qadriyatlarini uzatish va saqlashda namoyon bo'ladi. Shuning uchun o'quv dasturlari mazmuni tayanch, asosiy, bilim, ko'nikma va malakalarni egallash vaqtida sinovdan o'tuvchi, shaxsning funksion savodxonligi va ijtimoiyligini ta'minlashga asoslanadi.

Bixevioristik (ratsionalistik) paradigma. Ratsionalistik paradigmada an'anaviy paradigmaga qarama-qarshi o'laroq, o'zining diqqat markazini mazmunni emas, tahsil oluvchilarning turli turdagi bilimlarni o'zlashtirishini, samarali usullarini qo'yadi. Ratsionalistik ta'lim paradigmasi asosida ijtimoiy injeneriya bixevioristik konsepsiyasi yotadi. Ta'lim muassasasining maqsadi – ta'lim oluvchilarda ijtimoiy me'yorlar, milliy madaniyat talablari va natijalariga muvofiq, moslashuvli «xulq-atvor majmui»ni shakllantiradi. Shuning uchun "xulq-atvor" atamasi "barcha turdagi reaksiyalar, insoniy xususiyatlar – uning fikrlashi, his-tuyg'usi va harakati"ni bildiradi.

Mazkur paradigma ta'lim muassasasiga ta'lim oluvchilarning maqbul xulq-atvorini shakllantirish maqsadida bilimlarni o'zlashtirish yo'li sifatida qaraydi, ya'ni har qanday ta'lim muassasasi – bu yashash muhitiga moslashtirishning ta'limiy mexanizmi. Bunday o'qitishning asosiy metodlariga o'rgatish, trening, test nazorati, individual o'qitish, korreksiyalash kiradi.

Insonparvarlik (fenomenologik) paradigmasining diqqat markazida o'z-o'zini rivojlantirish ehtiyojiga ega bo'lgan, hayot subekti, shaxs erkinligi va ma'naviyati sifatidagi ta'lim oluvchi turadi. U bolaning ichki dunyosini rivojlantirish, shaxslararo muloqot, ijod, dialog, shaxs o'sishi uchun yordamga yo'naltirilgan. Insonparvarlik paradigmasi vakillari yagona qarash bilan ajralib turmaydi. Uning doirasida ta'limning xilma-xil modeli amalga oshadi. Ularni bola va inson hayotining tengsiz davri sifatida bolalikka qadriyatli munosabat, ta'lim muassasasining bosh vazifasi bolani rivojlantirish (aqliy, axloqiy, jismoniy, estetik) ekanligini etirof etish yagona yo'nalishda birlashtiriladi. Insonparvarlik paradigmasi doirasida harakatlanuvchi har bir ta'lim tizimi ijodiy izlanishga asoslanib, ta'lim va tarbiyaning sof mazmuni, metod va vositalaridan joy oladi. Insonparvarlik paradigmasi ham o'qituvchi, ham tahsil oluvchilarning erkinligi va ijodkorligini talab etadi.

Ilmiy-texnik, texnokratik paradigmaning bosh maqsadi amaliy takomillashtirish uchun zarur "aniq" ilmiy bilimlarni uzatish va

o'zlashtirishdan kelib chiqadi. "Bilim – kuch", shuning uchun inson qadriyatini uning bilish imkoniyatlari aniqlab beradi. Inson o'zini o'zicha emas, faqat aniq belgilangan etalon (o'rtacha namuna, standartlashgan)dagi bilish yoki xulq-atvor sohibi sifatidagina baholaydi. Texnokratik paradigma sharoitida o'quv-tarbiya jarayonining istalgan natijasi "ha – yo'q", "biladi – bilmaydi", "tarbiyali – tarbiyasiz", «egallagan – egallamagan» tizimida baholanishi mumkin. Bu yerda tayyorgarlik, ma'lumotlilik, tarbiyalanganlik darajasi tekshirib aniqlanadigan qandaydir etalon, ideal mavjud bo'ladi.

Ezoterik paradigma. Bu bizning sayyoramizdagi eng qadimiy ta'limiy paradigmalardan biri. Mazkur so'zning yunonchadan so'zma-so'z tarjimai "sirli", "yashirin" ma'nolarini bildiradi. Uning mohiyatini abadiy va o'zgarmas Haqiqatga munosabat tashkil etadi. Ushbu paradigma tarafdorlarining fikricha, haqiqatni shunchaki bilish mumkin emas, unga vijdon pokligi orqali erishish mumkin. Pedagogik faoliyatning oliy maqsadi tahsil oluvchining tabiiy kuch va imkoniyatlarini yuqori darajadagi ongga ega bo'lish, Kosmos bilan muloqot uchun sarf etish va rivojlantirishda namoyon bo'ladi. Shuning uchun o'qituvchining muhim muhofaza qiluvchi funksiyasi ta'lim oluvchilarning axloqiy, jismoniy, psixik tayyorgarligini amalga oshirish va mavjud kuchlarini rivojlantirishdir.

4.3. Pedagogik mahorat asoslari

Pedagogik faoliyat — pedagogning tahsil oluvchilarga ta'lim va tarbiya berish vazifalarini hal qilishga qaratilgan hamda pedagogik ta'sir o'tkazish vositalari bilan amalga oshiriladigan kasbiy faolligidir. O'qituvchi bu mazkur faoliyatning bir necha turlarini bajaradi: *o'qitadi, tarbiyalaydi, yo'l - yo'riqlar ko'rsatadi, tashkil qiladi, targ'ibot yurgizadi, mustaqil bilim olish bilan shug'ullanadi.* Bularning hammasi bevosita yoki bilvosita o'qitish va tarbiyalash vazifalarini hal qilishga yo'naltiriladi. Pedagogik faoliyat mobaynida motivatsion - mo'ljalli bosqich, vaziyatni tushunish bosqichi namoyon bo'ladi; motivlar tug'iladi, faoliyatga ruhiy tayyorgarlik vujudga keltiriladi, maqsad va vazifalar qo'yiladi va o'zgartiriladi, pedagogning tarbiyalanuvchilar ruhiy rivojlanishiga ta'sir o'tkazishi muvofiqlashtiriladi, pedagogik o'z - o'zini tahlil qilish usullari (diagnostika, bashorat, nazorat)dan foydalaniladi, qo'yilgan vazifa hal etiladi, yo'l quyilgan pedagogik nuqsonlar bartaraf etiladi.

Inson faoliyatining boshqa turlari kabi pedagogik faoliyat ham o'z xususiyatlari bilan bir-biridan ajralib turuvchi: maqsad, ob'ekt, sub'ekt va vositalardan tashkil topadi. Bular:

birinchidan, pedagogik faoliyatning maqsadi jamiyat tomonidan belgilanadi, ya'ni pedagog faoliyatning natijasi jamiyat manfaatlarini bilan

bog'liqdir. Uning mehnati yoshlar shaxsini har tomonlama kamol toptirishga yo'naltirilgan bo'lishi zarur. Pedagogik faoliyat avlodning ijtimoiy o'zviyligini (ketma-ketligini) ta'minlaydi, bir avlod tajribasini ikkinchi avlodga o'tkazadi, yoshlarni ijtimoiy munosabatlar tomon yo'llaydi, ijtimoiy tajriba orttirish uchun insondagi tabiiy imkoniyatlarni ro'yobga chiqaradi.

ikkinchidan, pedagog faoliyati doimo shaxs faoliyatini boshqarish bilan bog'liq. Bunda pedagogik maqsad tahsil oluvchi maqsadiga aylanishi muhimdir. Unga erishish osonlikcha kechmaydi. Pedagog o'z faoliyati maqsadini va unga erishish yo'llarini aniq tasavvur qilishi va maqsadga erishish tahsil oluvchilar uchun ham ahamiyatli ekanligini ularga anglata olishi zarur.

uchinchidan, pedagogik (ta'lim, tarbiya) jarayonida tahsil oluvchi faoliyatini boshqarish shuning uchun ham murakkabki-pedagog maqsadi doimo tahsil oluvchi kelajagi tomon yo'naltirilgan bo'ladi. Bu maqsadni tahsil oluvchidan ko'ra pedagog yaqqolroq tasavvur qiladi. Tahsil oluvchi esa ko'p hollarda, hayotiy tajribasi yetishmasligi sababli hozirgi hayot, shu bugun tashvishlari bilan yashaydi, kelajakni esa to'la tasavvur qila olmaydi. Ijodkor pedagog Sh.A.Amonashvili bu nomuvofiqlikni "tarbiyadagi asosiy fojia" deb ataydi. Buni anglagan holda, mohir pedagoglar o'z faoliyatini tahsil oluvchilar ehtiyojlari, ya'ni bilim, ko'nikma, malaka olishga mo'ljallab loyihalaydilar. Bu hamkorlik pedagogikasi, ya'ni "sub'ekt-sub'ekt" munosabatlarining mohiyatini ko'rsatadi.

"Pedagogik mahorat" atamasiga mavjud pedagogikaga oid manbalarda: "o'qituvchi - tarbiyachining pedagogik qobiliyati"¹⁹, "o'qituvchining muamala madaniyati va nutq san'ati"²⁰, "pedagogik nazokat, odob va ahloq"²¹, "turli kelib chiqadigan pedagogik vaziyatlarga munosabat"²², "o'z-o'zini tarbiyalash va o'z ustida ilmiy ijodiy ishlash"²³ kabi tavsiflar berilgan.

Pedagogik mahorat - bu pedagogik (o'quv - tarbiyaviy) jarayonining barcha shakllarini eng qulay va samarali holatda tashkil etish, ularni shaxs kamoloti maqsadlari tomon yo'llantirish, tarbiyalanuvchilarda dunyoqarash, qobiliyatni shakllantirish va ularda jamiyat uchun zarur bo'lgan faoliyatga moyillik uyg'otishdir.

Uzluksiz ta'limni amalga oshirishda pedagog, o'qituvchi va tarbiyachilar kadrlar bilan ishlash mahoratiga ega bo'lmog'i lozim. Shu sababli pedagogika fanining qonuniyatlari va mazmunini har tomonlama o'rganish, uni yosh avlod tarbiyasida qo'llash har bir ustoz, o'qituvchidan mahorat talab etadi.

Mahorat - shaxsning tajriba orqali orttirgan xususiyati, biror sohasidagi moslashuvchan ko'nikma va ijodkorlik asosida hosil bo'lgan kasbiy ko'nikmalarning nazariy darajasidir. Mahorat - yoshlarni tanlagan kasbiga hurmat uyg'otish jarayonidagi kasbiy g'ururni shakllantirishda xizmat qiladi.

Shu jihatdan barkamol avlod tarbiyasida o'qituvchi-tarbiyachining mahorat egasi bo'lishi muhimdir.

Mahorat kasbga nisbatan tavsifnoma berishda, ta'lim jarayonidagi o'zlashtirish saviyasini egallashda, tarbiya jarayonida muayyan vazifani bajarishdagi kasbiy xislatlarni ta'riflashda qo'llaniladi.

Mahorat - va uning o'ziga xos xususiyat va talablari borasidagi masalalarni I.A.Zyazyun, P.ye.Reshetnikov, ye.I.Ilin, Sh.A.Amonashvili, N.Saidahmedov, X.A.To'raqulov kabi olimlar o'rganishgan va o'z tadqiqotlarida o'qituvchi mahoratining turli yo'nalishlarini tadqiq qilishgan.

Mahorat - san'at, mahorat izlanish, mahorat - pedagogik texnologiyalarni qo'llay bilish, mahorat - o'qituvchining o'z faoliyatini ilmiy asosda tashkil etishi va o'z-o'zini tarbiyalashidir.

O'qituvchining ko'p qirrali faoliyati va uning qobiliyati, zo'r san'atkor va fidoiy bo'lishi hamda shogirdlarni barkamol insonlar qilib tarbiyalash masalasi davlat siyosati darajasidagi dolzarb masalalardan biridir. Shu sababli bo'lajak o'qituvchilar pedagogik mahoratni egallashlari lozim.

Pedagogik mahoratga ega bo'lgan o'qituvchi tarbiyadagi qiyinchiliklarni yengishga qodir bo'lgan nufuzli rahbar, o'sib kelayotgan yosh avlodning ichki dunyosini tushuna oladigan, ularning tuyg'ularini his qila oladigan, ichki dunyosi nozik va zaif bo'lgan bola shaxsiga mohirlik bilan avaylab yondashadigan, donolik va ijodiy dadillik, ilmiy tahlil, xayol va fantaziyaga, chuqur ilmiy tafakkurga ega bo'lgan shaxslardir.

Pedagogik mahoratga pedagogik bilimlar, fahm - farosat bilan bir qatorda pedagogik texnika sohasidagi malakalar ham kiradi, ular tarbiyaga kam kuch sarflab, ko'proq natijalarga erishish imkonini beradi.

Pedagogik mahorat pedagogdan odatdan tashqari kuch - g'ayratni, qat'iyatni, tirishqoqlikni, tadqiqotlarni olib borishga intilishni, yangi vaziyatga, yangi jamoaga kirish qobiliyatini, samimiyatni, to'g'rilik va halollikni, o'tkir aql-idrokni, bir vositani boshqasi bilan tekshirib ko'rish malakasini talab qiladi.

Pedagogik qobiliyat - pedagogga xos bo'lib, pedagogik faoliyatni oqilona tashkillashtirish va olib borilishiga imkon beradigan, amaliy vazifalarning samarali bajarilishini ta'minlashda ahamiyatli bo'lgan xususiyatlar. Psixolog olim F.N.Gonobolin pedagogik qobiliyatlarni quyidagi turlarga ajratishni taklif etadi: *didaktik, akademik, perseptiv, nutq, tashkilotchilik, avtoritar, kommunikativ, pedagogik xayolot (ijod), diqqatni taqsimlash qobiliyatlari*.

¹⁹ Очилтов М. Педагогик маҳорат. - Тошкент: Ўқитувчи, 2003. - 76-бет

²⁰ Азизходжиева Н. Педагогик маҳорат ва педагогик технологиялар. - Тошкент: Молия, 2008. - 63-бет

²¹ Ҳасанбоев Ж. Педагогика. - Тошкент: Янги аср, 2008. - 23-бет

²² Нисаналиев У. Педагогика. - Тошкент: Ўқитувчи, 1996. - 43-бет

²³ Ибрагимов Х., Абдуллаева Ш. Педагогика. - Тошкент: Фан ва ахборот технологиялари, 2008. - 69-бет

Pedagogik texnika haqida tushuncha. Pedagogik texnika o'qituvchig' o'quv va o'qishdan tashqari faoliyatda ham zarur bo'lgan umumiy pedagogik malakalar majmuidan tashkil topadi.

Avvalo, pedagogik texnikaning tarkibiy qismi sifatida o'qituvchining nutq malakalarini, ya'ni savodli gapirishi, o'z nutqini chiroyli va tushunarli, ta'sirchan qilib bayon etishi, o'z fikr va his -tuyg'ularini so'zda aniq ifodalashi malakasini aytib o'tish mumkin.

Pedagogik texnikaning boshqa tarkibiy qismi pedagogning mimik va pantomimik ifodaliligidir. Aniq imo - ishora, ma'noli qarash, rag'batlantiruvchi yoki istehzoli tabassum pedagogik ta'sir ko'rsatishda ko'p so'zli tushuntirish yoki e'tiroz bildirishga qaraganda ancha samarali muomila vositalari bo'ladi.

Pedagogning muloqot madaniyati, funksiyalari va usullari. Pedagogik muloqot o'qituvchi va tahsil oluvchi o'rtasida darsda va darsdan tashqari vaqtda eng qulay psixologik muhit yaratishga qaratilgan kasbiy munosabatdir.

Oqilona tashkil etilmagan pedagogik muloqotdan tahsil oluvchida qo'rquv, ishonchsizlik paydo bo'ladi, e'tibor, diqqat, ishchanlik pasayadi, nutq dinamikasi buziladi, mustaqil fikrlash pasayadi.

O'qituvchi bolalarga do'stona munosabatda bo'lishi kerak. Gumanistik pedagogika tarafdorlari ta'limni faqat hamkorlikka asoslanilgan holatda o'tkazish lozimligini e'tirof etishadi.

Pedagogik muloqot - o'qituvchi kasbiy faolligining ko'rinishi sifatida namoyon bo'ladi. Pedagogik muloqot mobaynida tahsil oluvchiga yangi ma'lumot beriladi yoki fikr almashiniladi; o'qituvchi bilan tahsil oluvchilarning o'zaro hamkorlikka asoslangan faoliyati tashkil topadi; muloqotga kirishuvchi shaxslarning imkoniyatlariga keng yo'l ochiladi; o'qituvchi shaxsiy fikrining pedagogik jihatdan maqsadga muvofiqligi sodir bo'ladi va muloqot ishtirokchilari bir - birlaridan qanoat hosil qilishadi.

Pedagogik muloqot sotsial - psixologik jarayon sifatida quyidagi funksiyalari bilan tavsiflanadi: muloqotning axborot almashish, o'ziligini anglash, ijtimoiy rollar almashinuvi, faoliyatni tashkil qilish, empatiyaga moyillik (hamdard bo'lish) va h.k.

Muloqotning axborot almashish funksiyasi materiallar va qadriyatlar bilan almashish jarayonini ta'minlab, o'quv-tarbiya jarayoni uchun hamkorlikdagi izlanish muhitini yaratadi.

Pedagogik muloqot vositalari: tashkil etuvchi, baho beruvchi, intizomga undovchi (yo'riqnoma berish, intizomni baholash va tanbeh berish) bo'lishi mumkin.

Muloqot usuli sifatida shakllangan uslub amalda o'zining uchta shakli bilan namoyon bo'ladi: bilimlarni egallashda o'qituvchi bilan tahsil oluvchilarning birgalikda hamkorlik qilishlari (demokratik uslub), o'qituvchining tahsil oluvchilarga tazyiq o'tkazishi va ularning aktivligini

ro'yobga chiqarmasligi (avtoritar uslub), o'qituvchining tahsil oluvchilarga nisbatan neytral munosabatda bo'lishi va uning hal etilayotgan masaladan chetga chiqishi (liberal uslub) shakllari;

1. Muloqotdagi vaziyat bir xil o'zaro harakatni ("yonidan" moslashish), boshqa ishtirokchiga tazyiq o'tkazishni ("yuqoridan" moslashish), boshqa ishtirokchiga muvofiqlashishni ("quyidan" moslashish) o'z ichiga oladi.

2. Muloqotda emotsional tus berish xarakteri neytral hol orqali ijobydan salbiygacha o'zgaradi. Bularning hammasi muloqot muhitini, sinfda ma'lum iqlimni yaratadi.

3. yetuk pedagogik muloqot o'qituvchining - o'z-o'zini, muloqot jarayoni va natijalarini nazorat qilib borishni nazarda tutadi.

4. To'g'ri tashkil etilgan pedagogik muloqot davomida o'qituvchida tanlangan vositalarni vazifa va sharoitlarga muvofiqligining o'lchovi sifatida tushuniladigan pedagogik nazokat mujassamlanadi.

Pedagogik muloqotda o'ziga xos qiyinchiliklar mavjud. Ayrim paytlarda tajribasiz o'qituvchi pedagogik muloqotni o'z faoliyatining bir qismi ekanligini tushunmaydi, uni rejalashtirmaydi, muloqot usullarini takomillashtirib bormaydi. Pedagogik muloqot usullari ustida ishlashning asoslangan dasturini tuzish uchun har bir o'qituvchi o'zining "sub'ekt-sub'ekt" munosabatlarini tahlil qilib chiqishi muhim.

Bo'lajak o'qituvchilar o'zida kasbiy muloqotchanlik ko'nikmalarini rivojlantirish uchun bir qator mashqlarni bajarishlari maqsadga muvofiq, xususan:

1. Muloqotda tahsil oluvchining sub'ektiv qarashlarini aniqlash; bu tahsil oluvchi bilan muloqotda oqilona hal qilinishi zarur bo'lgan vazifalarni aniqlash, masalan, uning hulqini tuzatish yoki unda shunchaki ishonch kayfiyatini yaratish;

2. Tahsil oluvchi bilan muloqotga kirishishda unda sodir bo'luvchi psixologik to'siqlarni bartaraf etishga yordam berish;

3. O'zgalar fikrini tinglay olish, ularning fikrlariga qo'shilish, hamdard bo'lish. Muloqot natijalarini baholash va ularni foydalanilgan vositalar bilan taqqoslash.

Pedagogik muloqot davomida o'qituvchi shaxsi, uning dunyoqarashi, shaxsiy pozitsiyasi, g'oyaviy - siyosiy saviyasi, kasbiy tayyorgarligi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga o'qituvchining umumiy va boshqaruv qobiliyati, uning mayllari, xarakteri, muvaqqat psixik holatlari, shuningdek to'plangan tajribasi muhimdir. O'qituvchi shaxsini xarakterlash uchun faoliyatning individual uslubi kabi yig'ma ko'rsatkichlar, jumladan individual faoliyat uslubi (mazkur kishining individual - psixologik xususiyatlariga mos keluvchi pedagogik faoliyat va pedagogik muloqotning vazifalari, vositalari va usullarining barqaror birligi)dan ham foydalaniladi; ijodiyot (masalan,

novator o'qituvchidagi kabi, mazkur o'qituvchi uchun sub'ektiv yangi, shuningdek pedagogika fani uchun ob'ektiv yangi pedagogik faoliyat va pedagogik muloqotning yangi vazifalari va vositalarini izlash va topish); ijtimoiy faol tutilgan yo'l vaziyat (o'qituvchi dalilining ta'sirchanligi, uning so'zi bilan ishi birligi), yetuk shaxs har doim bundan keyingi rivojlanishi uchun kurashadi, bu hol o'qituvchiga ham taaluqli. Shaxsning kasbiy jihatdan o'z - o'zini tarbiyalash yo'llaridan biri - o'zining sifat va hislatlarini, shuningdek pedagogik faoliyat va muloqotlarning barqaror xususiyatlarini, tahsil oluvchilarning ta'lim olganligi va tarbiyalanganligidagi erishilgan natijalarni tahlil qilib borishdan iboratdir.

Pedagogik san'at va mahorat, ularning qismlari va ijtimoiy ahamiyati.
O'qituvchi ta'lim - tarbiya jarayonida tahsil oluvchilarni darsning turli elementlarini bajarishga jalb etadi, ularga tashkilotchi va ijrochi rollarida qatnashishga imkoniyat beradi.

Muloqot shaxsni o'zligini anglashga imkoniyat beradi. O'qituvchining asosiy vazifalaridan biri - tahsil oluvchiga o'zining "Meni"ni anglashga yordam berishi, uning qadr-qimmatini, o'zligini bilishga, o'ziga baho berishga o'rgatishi kerak. Pedagogik jarayonda rollar almashinishi yordamida muloqot o'rnatiladi. Bunda ijtimoiy shakllanib qolgan xatti-harakatlar dasturlanadi.

Ijtimoiy rollar almashinuvi shaxsni har tomonlama namoyon bo'lishini ta'minlaydi, niqobni olib tashlab boshqa kishi rolga kirish va shu bilan insonni inson orqali idrok qilish jarayoniga ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, bugungi kunda keng tus olgan interfaol uslublar orqali o'qituvchilar o'quv-tarbiyaviy jarayonda shaxs-rol shaklidan foydalanadilar, darsning ayrim elementlarini bajarishga tahsil oluvchilarni taklif qiladilar, har bir tahsil oluvchini o'qituvchi rolini bajarishga imkon beradilar. O'z shaxsi qimmatini namoyon qilish ham muloqot funksiyasi sifatida namoyon bo'ladi. Muloqotning eng muhim funksiyalaridan biri - empatiyaga moyillik, hamdard bo'lishdir. U boshqa kishi hissiyotlarini tushunish, boshqalar nuqtai nazarini ma'qullash qobiliyatini shakllantirish jarayonida amalga oshadi va jamoadagi munosabatlarni me'yorga keltiradi. Bunda tahsil oluvchining istaklarini tushunish va bular asosida tahsil oluvchiga ta'sir etish zarurligini anglash o'qituvchi uchun juda muhimdir.

Muloqot funksiyalarini bilish o'qituvchilar uchun dars va undan tashqarida tahsil oluvchilar bilan bo'ladigan muloqotlarni yaxlit jarayon sifatida tashkil etishga yordam beradi.

Pedagogik muloqotni modellashtirish. "Modellashtirish - bilish ob'ektlarini o'z tushunchalari asosida tadqiq etish; jarayon va hodisalarning xususiyatlarini o'rganish maqsadida modellar orqali o'rganish"²⁴

Darsga tayyorgarlik ko'rayotganda muloqotning barcha funksiyalaridan yaxlit tarzda foydalanishga erishish zarur. Mohir o'qituvchi darsni modellashtirishda nafaqat fanga oid ma'lumot berish haqida, balki tahsil oluvchilarning o'z shaxsini namoyon qilishlari va o'z shaxsiy qobiliyatini ham ko'rsata olishlariga sharoit yaratishni rejalashtirishi zarur.

Muloqot, uning tarkibiy tuzilishi ustida izlanish olib borgan olim Kan-Kalik fikricha, o'qituvchi, ayniqsa, uning yordamiga muhtoj bo'lgan tahsil oluvchilarga alohida e'tibor berishi, har bir tahsil oluvchini qiziqtirish usullarini, hamkorlik va ijodkorlikka asoslangan mehnatni tashkil etishni oldindan o'ylab qo'yishi lozim.

Muloqot texnikasini bilish o'qituvchiga har bir vaziyatda o'z hatti-harakatlarini to'g'ri tashkil etishiga yordam beradi. O'zaro ta'sir uchun tanlangan noto'g'ri pedagogik hatti-harakat yoki noto'g'ri muloqot shaklini qo'llanilishi, ya'ni muloqotga uni amalga oshirish nuqtai nazardan tayyorlanmaganlik, o'qituvchi va tahsil oluvchi o'rtasida kelishmovchiliklarga sabab bo'lishi mumkin.

Bob yuzasidan nazorat savollari:

1. Didaktika nimani o'rganadi? Mazkur sohaning ob'ekti va predmetini izohlang.
2. Didaktikaning asosiy kategoriyalarini sanab bering.
3. O'qitish jarayonining asosiy vazifalariga izoh bering.
4. O'qitish jarayonining bosqichlariga ta'rif bering.
5. Innovatsion ta'lim deganda nimani tushunasiz?
6. Ta'lim jarayonida an'anaviy va noan'anaviy metodlar tasniflang.
7. Innovatsion ta'lim deganda nimani tushunasiz?
8. Ta'lim jarayonida an'anaviy va noan'anaviy metodlar tasniflang.
9. Zamonaviy ta'lim paradigmalariga nimalar kiradi?
10. Pedagogik mahorat nima?
11. Pedagogning muloqot madaniyati, funksiyalari va usullarini tushuntiring?

Mustaqil ish uchun mavzular:

1. Interfaol metodlar va ularning mohiyati
2. Ta'lim muassasasi menedjmenti
3. O'quvchilarning bilim, ko'nikma, malakalarini tashxis etish
4. Interfaol metodlar va ularning mohiyati
5. Ta'lim muassasasi menedjmenti
6. Ta'lim tamoyillari va qonuniyatlari
7. Pedagogik san'at va mahorat, ularning qismlari va ijtimoiy ahamiyati.
10. Tibbiyot xodimi faoliyatida pedagogik qobiliyatlarning ahamiyati.

²⁴ Абдуллова Ш.А. Педагогика. Дарслик-Тошкент: Фан, 2011.-178б.

5-MAVZU. PEDAGOGIK FIKRLAR TARIXIY TARAQQIYOTI

"Pedagogika tarixi" fanining maqsad va vazifalari. Pedagogika tarixi fanining predmeti, shakllanish tarixi, pedagogika tarixining bugungi kundagi muammolari.

Ta'lim-tarbiya va pedagogika tarixini davrlashtirish muammolari. Ta'lim-tarbiya va pedagogika tarixi metodologiyasining uyg'unligi, ta'lim-tarbiya va pedagogika tarixini davrlashtirish zaruriyati va shart-sharoitlari.

Eng qadimgi davrlardan VII asrgacha ta'lim-tarbiya va pedagogik fikrlar taraqqiyoti. Pedagogik fikrlar va ularning shakllanish jarayoni, pedagogik fikrlarning insoniyat va jamiyat hayotidagi o'rni.

Eng qadimgi yozma manbalarda ta'lim-tarbiya masalalarining yoritilishi. Qadimgi yozma manbalar va ularning ta'lim-tarbiya jarayoni taraqqiyotida tutgan o'rni va ahamiyati, qadimgi yozma manbalarning miliy qadriyat sifatida e'tirof etilishi.

5.1. "Pedagogika tarixi" fanining maqsad va vazifalari

"Pedagogika tarixi" fanning maqsadi – eng qadimgi zamonlardan to hozirgi kungacha turli tarixiy davrlarda tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar taraqqiyotini tizimli yondashuv asosida o'rganishdean iborat.

Maktab va pedagogika ko'p asrlik tarixiy yo'lni bosib o'tgan. Mazkur davrda pedagogika fani ko'plab g'oyalalar va kontseptsiyalar bilan boyib bordi. "Pedagogika tarixi" fanning predmeti - eng qadimgi zamonlardan to hozirgi kungacha tarbiya, maktab va pedagogik fikrlarning rivojlanish jarayoni.

"Pedagogika tarixi" fanining vazifalari:

- 1) milliy o'z-o'zini anglash, kasbiy rivojlanish bilan bog'liqlikda umumiy va pedagogik madaniyatni shakllantirish;
- 2) pedagogik fikrlar rivojini tahlil etish va tizimlashtirish;
- 3) pedagogik g'oyalarni tahlil etish asosida ularni o'quv-tarbiya jarayoniga tatbiq etish.

Pedagoga tarixini o'rganish manbalari:

- 1) arxeologik yodgorliklar;
- 2) qo'lyozmalar;
- 3) xalq og'zaki ijodi;
- 4) adabiy yodgorliklar;
- 5) hujjatlar;
- 6) badiiy adabiyot;

- 7) memuarlar;
- 8) Charq va G'arb mutafakkirlarining asarlari.

5.2. Pedagogika tarixini davrlashtirish muammosi

Pedagogika tarixini davrlashtirishga doir xilma-xil yondashuvlar mavjud. So'nggi yillarda O'zbekistonda pedagogika tarixini o'rganishga doir eng keng tarqalgan davrlashtirish o'zida quyidagi bosqichlarni aks ettiradi:

1) eng qadimgi davrlardan O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgunga qadar?

2) mustaqillikka erishilgandan to hozirgi kungacha O'zbekistonda pedagogik fikrlar rivoji?

3) jahon pedagogik fikrlari rivoji (eng qadimgi davrlardan hozirgi kungacha).

Biroq pedagogika tarixini insoniyat tarixi bilan bog'liqlikda o'rganish maqsadida quyidagi tarzda davrlashtirish maqsadga muvofi?:

1) eng qadimgi davrlardan VII asrgacha ta'lim-tarbiya va pedagogik fikrlar?

2) VII asrdan XIV asrning birinchi yarmifacha O'rta Osiyoda tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar?

3) Charq Uyg'onish davrida pedagogik fikrlarning rivojlanishi?

4) XIV asrning ikkinchi yarmi va XVI asrda Movaraunnahrda tarbiya va maktab?

5) XIV asrning ikkinchi yarmi va XVI asrda Movaraunnahrda pedagogik fikrlar rivoji?

6) XVII asrdan XIX asrning yarmigacha tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar rivoji?

7) XIX asrning 2-yarmi – XX asr boshida Turkiston o'lkasida tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar?

8) 1917-1991 yillarda O'zbekistonda ta'lim tizimi va pedagogik fikrlar rivoji?

9) Mustaqil O'zbekiston ta'lim tizimi. Mustaqillik yillarida pedagogik fikrlar rivoji?

10) eng qadimgi davrlardan XIX asrning birinchi yarmida jahon pedagogika fanining rivojlanish tarixi?

11) XIX asrning 2-yarmi – XX asrda jahon pedagogika faning rivoji?

12) hozirgi davrda jahon mamlakatlari ta'lim tizimi va pedagogika fani rivoji.

Eng qadimgi davrlardan VII asrgacha ta'lim-tarbiya va pedagogik fikrlar taraqqiyoti.

Ibtidoiy jamiyatda tarbiya. Ibtidoiy jamiyat insoniyat tarixinin dastlabki davri bo'lib, mazkur davrda yozma manbalarning saqlani qolmaganligi ushbu davrda tarbiyaning amalga oshirilishini arxeologi manbalarga asoslangan holda tahlil etishni talab etadi.

Ibtidoiy jamoa tuzumi ikki davrga bo'linadi:

- 1) ibtidoiy to'da
- 2) o'rug'chilik jamoasi.

Ibtidoiy jamiyat quyidagi davrlarni o'z ichiga oladi:
qadimgi tosh asri Peleolit:

ilk

o'rta

so'nggi

mil. av. 700/500-100 ming yilliklar.

mil. av. 100-40 ming yilliklar.

mil. av. 40-12 ming yilliklar.

O'rta tosh asri Mezolit mil. av. 12 - 7 ming yilliklar.

Yangi tosh asri Neolit mil. av. 6-4 ming yilliklar.

Mis-tosh asri Eneolit mil. av. 4-3 ming yilliklar.

Bronza davri Bronza davri mil. av. 3-1 ming yilliklar.

Temir asri Ilk temir asri mil. av. X-VIII asrlar.

So'nggi temir asri VII-IV asrlar. Insoniyat faoliyatining asosiy turi sifatida tarbiyaning yuzaga kelishi mil. av. 40-35 ming yilliklarda zamonaviy qiyofadagi odamlar ("homo sapiens"- "ongli odam")ning paydo bo'lishi bilan bog'liq. Ibtidoiy jamoa tuzumi davrida mehnat tarbiyasi yetakchi o'rin tutgan. Ana shu asosga ko'ra me'nat bilan bog'liqlikda kishilar uch guruhga bo'lingan:

- 1) bolalar va o'smirlar?
- 2) ijtimoiy hayot va me'natda to'la ishtirok etuvchilar?
- 3) keksalar.

Co'nggi paleolitda insoniyat o'z taraqqiyotida yana bir bosqich yuqori ko'tarildi. Odamlar ilk to'da tarzida yashamay qo'yidilar va qarindosh-urug'chilik jamoalariga bo'lindilar. Jamiyatda juft oilalar paydo bo'ldi, ular ayrim urug'larni birlashtirib, uru? jamoasini tashkil ztdilar. Odamlar g'orlardan tashqari erto'la va chaylasimon uylarda ham yashashga o'rgandilar. Juft oilalarning paydo bo'lishi haqida kichik uy-joylarning tarqalishi darak beradi.

O'sha zamon jamoasida ona-ayolning ijtimoiy o'mi baland bo'lib, urug' uning nomi bilan boshlangan. Ayollar uy, o'choq va muqaddas olovning egasi sifatida uy xo'jaligida hamda bolalarni tarbiyalash jarayonida, o'choqda o'tni saqlashda, ovqat pishirishda, ro'zg'or buyumlarini, mehnat qurollarini qo'riqlash, uy-boshpanani asrash paytida muhim vazifalarni bajarganlar.

Mezolit davrida O'zbekistonda qoyatosh suratları kashf etilgan. Ularning ba'zisi rang berib chehilgan, ba'zilari o'yib ishlangan. Surxondaryo viloyatidagi Zarautsoy qoya tasvirlari mezolit davriga oid. Ular qadimgi odamning fikru o'ylari, atrof-mu?it ?a?idagi tasavvuri, qanday hayvonlarni ovlagani, qaysi mehnat va ov qurollarini qo'llagani haqida fikr yuritish imkonini beradi.

Neolit davrida ona urug'i matriarxat o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga o'tadi. Urug' jamoalari kattalashadi va ularni bir joyda bog'ish amri ma?ol bo'lib qoladi. Oqibatda urug' jamoasidan mayda guruhlar-kichik oilalar ajralib chiqib boshlaydi.

O'rta Osiyo hududida bronza davri miloddan avvalgi 3-mingyillik o'rtalaridan boshlanadi va miloddan avvalgi 2-mingyillikka kelib o'z rivojining yuksak darajasiga ztadi.

Patriarxat urug'chilikka o'tish patriarxal oilaning vujudga kelishiga olib keladi. Sunday oila bir-biriga qarindosh ota uru?i bo'yicha yuritiladigan bir necha avlodlardan iborat bo'ladi.

Xalq pedago-gikasi xalq ommasi orasida hukmronlik qiluvchi tarbiyaning maqsadi va vazifalariga bo'lgan qarashlarni ifodalovchi amaliy pedagogik bilimlar va tajribasining soqasidir.

Xalq pedagogikasining tarbiyaviy imkoniyatlari deganda xalq tarbiya tajribasidan joy olgan zmpirik pedagogik bilimlar, ma'lumotlar, malakalar va ko'nikmalarning zamonaviy maktab va oila tarbiyaviy sistemasida bolalar va o'quvchi-yoshlarni tarbiyalash maqsad va vazifalarini hal etish uchun zarurligi (qulay shart-sharoiat yaratishi) tushuniladi.

Xalq pedagogikasining didaktik imkoniyatlari deganda xalq ommasining yoshlarga bilimlar va amaliy ko'nikmalar berish, ularni ijodiy ishlash uslublari bilan qurollantirish, dunyoqarashlarini o'stirish va axloqiy nafosat g'oyalarini egallashlarida qo'llab kelgan empirik pedagogik tajribasini zamonaviy milliy maktab o'qitash jarayonida qo'llash uchun qulayligi tushuniladi. Masalan, milliy amaliy san'atga o'rgatishning xalq orasida tarkib topgan uslubiyotini xalq pedagogikasining didaktik imkoniyatlari doirasiga kiritish mumkin. Xususan, ganch va yog'och o'ymakorligi, zardo'zlik, musi?a asboblari yasash, kulolchilik va boshqa ko'plab amaliy can'at turlarini zgallashning xal? ustalari va chevarlari tomonidan tajribada yaratilgan o'z usullari, uslub va vositalari mavjud. Ulardan milliy maktabdagi mehnat ta'limi darslarida yoki to'garak mashg'ulotlarida o'quvchilarga bilimlar va amaliy ko'nikmalar berishda foydalanish mumkin.

O'zbek xalq poetik ijodida bolalarni oilada va bola yashab turgan mu?itda insoniy fazilatlarini tarbiyalashning juda uzoq zamonlardan beri davom etib kelayotgan o'ziga xos xilma-xil metod va vositalari mavjud ekanligi ko'rinadi.

Yuqorida aytib o'tilganidek, xalq ijodi ham shu orqali pedagogikasida qo'llaniladigan: tushuntirish, namuna ko'rsat odatlantirish (o'rganish, mashq qildirish), iltimos qilish, tilak-istak bildirish, yulvorish-iltijo qilish, maslahat berish, ko'ndirish, undash, ma'quull. rahmat aytish, duo qilish, olqish (oq yo'l tilash), ta'qiq qilish, ta'na (g o'pka) qilish, mashara - mazax qilish, majbur qilish, tanbeh berish, koy. qarg'ash, qo'rqitish, uzr so'rash, ont - qasam ichirish, la'natlash, so'k urish, kaltaklash metodlari bo'lsa-da, yoshlarning insoniy fazilatlar tarbiyalashda asosan: o'git-nasi'at, ibrat ko'rsatish, ma'quullash va maqta alqash, mukofotlash, qoralash - qarg'ish, jismoniy jazo berish k. metodlardan foydalanilgani ko'zga tashlanadi.

5.3. Eng qadimgi yozma manbalarda ta'lim-tarbiya masalalarining yoritilishi "Avesto"dagi ta'limiy-axloqiy g'oyalari

"Avesto" – zardushtiylik dinining mu'addas kitobi? isoblanib, dastlab Charq falsafiy qarashlarini o'zida aks ettiruvchi manbadir. Unda inson kamolotga erishuvda mehnat, ezgulik, insoniylik, soflik, bag'rikenglik k. sifatning ahamiyati chuqur ifodalangan.

Zardushtiylik dinining nomi ushbu din asoschisi Zardusht (turli tillar Zaratushtra, Zoroastr) ismidan olingan. Uning tug'ilgan joyi noma'lum Zardusht miloddan avvalgi I-mingyillikning birinchi choragida yashagan.

Zero, zardushtiylikda axloqiylikning asosi, sahovatlilik belgisi - mehnat deb ko'rsatilsa, ishyoqmaslik barcha nuqsonlarni keltirib chiqaruvchi sabab ekanligiga urg'u beriladi.

Zardushtiylik yayilayotgan davrda ibodatxona ham, maxsus ilohiy kitoblar ham bo'lmagan. Diniy marosimlar ochiq havoda, gulxan yonida adab etilgan. Keyinchalik koinlar Zardusht va'zlarini yozib borganlar. Zardusht dini koinlari bunday diniy matnlarni yod bilganlar va ibodat paytida o'qiganlar. Zardusht vafotidan bir necha asr o'tgach barcha diniy marosimlar, madhiya va duolar kitob holiga keltirildi. Bu zardushtiylik muqaddas kitobi «Avesto» zdi. «Avesto» so'zi «qat'iy qonunlar» ma'nosini bildiradi.

Zardusht diniga ko'ra, atrofdagi dunyo ikki qismdan tashkil topgan: yaxshilik va yomonlik. Bular o'rtasida azaldan kurash ketadi. Masalan, nur bilan qorong'ulik, hayot bilan o'lim, ezgulik bilan yomonlik, qonun bilan qonunsizlik o'rtasida.

Zardushtiylik hayotining asosiy mazmuni xayrli ish, shirin so'z, olijanob o'y-fikrdan iborat bo'lgan. Insonning asosiy burchi adolatli turmush tarzi bo'lmo'ki kerak. Yaxshilikning yomonlik ustidan g'alaba qilishini ko'zlab yashash kerak: yolg'on gapirmaslik, so'zning ustidan chiqmoq, faqat yaxshilik qilmoq.

Zardusht dini bo'yicha har bir inson hayot yo'lini o'zi belgilaydi. Kimga yon bosmoqlik, kimni himoya qilishni o'zi hal qiladi.

Zardushtiylikda olov, er, suv va havo muqaddas sanaladi. Ularni yomon, yovuz narsalar bilan aralastirmaslik lozim.

Zardushtiylik axloqining asosiy uchligi

Inson

Ezgu fikr

Ezgu so'z

Ezgu amal

Bob yuzasidan nazorat savollari:

1. Pedagogikaning asosiy ilmiy-tadqiqot metodlariga nimalar kiradi?
2. Pedagogikaning fan sifatidagi xususiyatlarini ochib bering.
3. Pedagogika fanining rivojlanish bosqichlari haqida gapirib bering.
4. Pedagogikaning asosiy tarmoqlariga nimalar kiradi?
5. Pedagogika qanday fanlar bilan bog'liq? Misollar keltiring.

Mustaqil ta'lim uchun mavzular:

1. "Pedagogika tarixi" fanining maqsad va vazifalari.
2. Pedagogika tarixi fanining predmeti, shakllanish tarixi, pedagogika tarixining bugungi kundagi muammolari.
3. Ta'lim-tarbiya va pedagogika tarixini davrlashtirish muammolari.
4. Ta'lim-tarbiya va pedagogika tarixi metodologiyasining uyg'unligi.
5. Ta'lim-tarbiya va pedagogika tarixini davrlashtirish zaruriyati va shart-sharoitlari.
6. Eng qadimgi davrlardan VII asrgacha ta'lim-tarbiya va pedagogik fikrlar taraqqiyoti.
7. Pedagogik fikrlar va ularning shakllanish jarayoni, pedagogik fikrlarning insoniyat va jamiyat hayotidagi o'rni.
8. Eng qadimgi yozma manbalarda ta'lim-tarbiya masalalarining yoritilishi.
9. Qadimgi yozma manbalar va ularning ta'lim-tarbiya jarayoni taraqqiyotida tutgan o'rni va ahamiyati.
10. Qadimgi yozma manbalarning miliy qadriyat sifatida e'tirof etilishi.

GLOSSARIY (PEDAGOGIKA BO'YICHA)

Akademik litsey (AL) - o'quvchilarning imkoniyatlari, qiziqishlar ko'ra, ularning jadal intellektual rivojlanishi chuqur, sohalashtirilgan, tabaqalashtirilgan, kasbga yo'naltirilgan ta'lim olishlarini ta'minlash maqsadida DTSga muvofiq o'rta maxsus ta'lim beruvchi, yuridik maqom ega ta'lim muassasasi.

Aqliy tarbiya - shaxsga tabiat va jamiyat taraqqiyoti to'g'risidagi bilim asoslarini berish, uning aqliy (bilish) qobiliyati, tafakkurini shakllantirish, yo'naltirilgan pedagogik faoliyat jarayoni bo'lib, shaxsda tabiat, jamiyat, inson tafakkuri haqidagi bilimlarni hosil qilish, ilmiy dunyoqarashni shakllantirish jarayoni.

Amaliy mashg'ulotlar - maxsus jihozlangan xona yoki alohida ajratilgan tajriba maydonida tashkil etilib, o'quvchilarda ular tomonidan o'zlashtirilgan nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llay olish ko'nikma va malakalarini hosil qilishga yo'naltirilgan ta'lim shakli.

Anketa (fransuzcha "tekshirish") metodi - pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlaridan biri bo'lib, tizimli savollar asosida respondentlar bilan muloqot tashkil etishga asoslangan ushbu metod yordamda pedagogik kuzatish va suhbat jarayonida to'plangan dalillar boyitiladi; savollarga javoblar, odatda yozma ravishda olinadi.

Bakalavr - o'zi tanlagan soha bo'yicha oliy ma'lumotli mutaxassis bo'lib davlat klassifikatorida belgilangan lavozimda ishlash huquqiga ega.

Bilim - shaxsning ongida tushunchalar, sxemalar, ma'lum obrazlar ko'rinishida aks etuvchi borliq haqidagi tizimlashtirilgan ilmiy ma'lumotlar majmui.

Bolalar ijodini o'rganish metodi - pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlaridan biri bo'lib, o'quvchilarning muayyan yo'nalishlardagi layoqati, qobiliyati, ma'lum fan sohalari bo'yicha BKM darajasini aniqlash maqsadida qo'llaniladi.

Dars - bevosita o'qituvchi rahbarligida muayyan o'quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta'lim jarayonining asosiy shakli.

Darslik - muayyan o'quv fani bo'yicha ta'lim maqsadi, o'quv dasturi va didaktik talablarga muvofiq belgilangan ilmiy bilimlari to'g'risidagi ma'lumotlarni beruvchi manba bo'lib, u mazmuni, tuzilishiga ko'ra o'quv dasturiga mos keladi.

Dasturiy ta'lim - pedagogik texnologiyalardan biri bo'lib, u o'quvchilarning ichki ehtiyojlari, qiziqishlari, ular tomonidan o'quv materiallarini o'zlashtirishda duch kelayotgan muammolar, shuningdek,

o'quvchilarning bilim, dunyoqarash hamda o'quv fanining imkoniyatlarini inobatga olgan holda tashkil etiladi.

Didaktika (ta'lim nazariyasi, yunoncha "didaktikos" - "o'rgatuvchi", "didasko" - "o'rganuvchi") - ta'limning nazariy jihatlarini, ta'lim jarayonining mohiyati, tamoyillari, qonuniyatlari, o'quvchi va o'qituvchi faoliyati, ta'limning maqsadi, mazmuni, shakllari, metodlari, vositalari, natijasi, ta'lim jarayonini takomillashtirish yo'llari va hokazo muammolarni tadqiq etadi.

Yozma mashqlar - ta'limning tarkibiy qismi sifatida zaruriy ko'nikma va malakalarni shakllantirish va mustahkamlash uchun qo'llaniladigan mashqlar (diktant, insho, masala, misol, referat yozish, tajribani yoritish).

Jazolash - shaxsning xatti-harakati, faoliyatiga salbiy baho berish.

Jinsiy tarbiya - bolalar, o'smirlar va yoshlarda jins masalalariga nisbatan to'g'ri munosabatni shakllantirishga qaratilgan tibbiy, pedagogik tadbirlar tizimiga ko'ra tashkil etiladigan jarayon.

Jismoniy tarbiya - o'quvchilarda jismoniy-irodaviy sifatlarni shakllantirish, ularni aqliy, jismoniy jihatdan mehnat va Vatan mudofaasiga tayyorlashga yo'naltirilgan jarayon.

Ijtimoiy pedagogika - shaxsni ijtimoiylashtirish qonuniyatlarini, ijtimoiy muammolarni hal qilishga pedagogik yondashish hamda ijtimoiy pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish texnologiyalarini yaratish masalalarini yoritadi.

Iqtisodiy tarbiya - ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, o'quvchilarga iqtisodiy bilimlarni berish, ularda iqtisodiy faoliyat (oila byudjetini shakllantirish, oila xo'jaligini yuritish, mavjud moddiy boyliklarni asrash, ko'paytirish, savdo-sotiq munosabatlarini to'g'ri tashkil etish va h.o.)ni tashkil etish ko'nikma, malakalarini shakllantirishga yo'naltiriladi.

Individual ta'lim - pedagogik texnologiyalardan biri bo'lib, shaxs tomonidan yakka tartibda, mustaqil ravishda zarur bilim, ko'nikma, malakalarning o'zlashtirilishini anglatadi.

Innovatsion ta'lim - pedagogik texnologiyalardan biri bo'lib, o'quvchi, talabada yangi g'oya, me'yor, qoidalarni yaratish hamda o'zga shaxslar tomonidan yaratilgan ilg'or g'oyalar, me'yor, qoidalarni tabiiy qabul qilishga oid sifat hamda malakalarni shakllantirish imkoniyatini yaratadi.

Intervyu - pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlaridan biri bo'lib, respondent tomonidan tadqiq etilayotgan muammoning u yoki bu jihatini yorituvchi hodisaga nisbatan munosabat bildirilishini - bu ajdodlarga xos biologik belgi va rivojlanish xususiyatlarini keyingi avlodlarga o'tish jarayoni.

Interfaol metodlar - ta'lim jarayonida o'quvchilar hamda o'qituvchi o'rtasida hamkorlikni qaror toptirish, faollikni oshirish ta'lim oluvchilar tomonidan bilimlarni samarali o'zlashtirish, ularda shaxsiy sifatlarni rivojlantirishga xizmat qiladigan metodlar.

Interfaol ta'lim – pedagogik texnologiyalardan biri bo'lib, ta'jarayonining asosiy ishtirokchilari – o'qituvchi, o'quvchi va o'quvchilar guruhrtasida yuzaga keluvchi hamkorlik, qizg'in bahs-munozalar, o'zaro almashish imkoniyatiga egalik asosida tashkil etiladi.

Kasb-hunar kolleji (KHK) o'quvchilarning kasb-hunarga moyilli bilim va ko'nikmalarini chuqur rivojlantiruvchi, tanlab olingan kasb-hunabo'yicha bir yoki bir necha ixtisosni egallash imkonini yaratish maqsaditgishli DTS doirasida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini beruvchi, yurid maqomga ega ta'lim muassasasi.

Korreksion (maxsus) pedagogika – imkoniyati cheklangan kar-soq(surdopedagogika), ko'r (tiflopedagogika), aqliy jihatdan rivojlanishda ortqolgan (oligofrenopedagogika) bolalarga ta'lim berish va ulan tarbiyalashning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganadi.

Kreativ pedagogika – shaxs (o'quvchi, talaba)ni o'qishga, ta'lim olishgijodiy yondashishga, o'zining va o'z kelajagining yaratuvchisi bo'lishg o'rgatadi.

Ko'nikma – shaxsning muayyan faoliyatni tashkil eta olish qobiliyati; olingan bilimlarga asoslanib qo'yilgan vazifalar va shartlarga binoan bajariladigan harakatlar yig'indisi.

Laboratoriya ishlari – o'quvchilarning jihoz, maxsus uskuna, qurol hamda turli texnikaviy qoliplardan foydalangan holda tajribalarni o'tkazish metodlari bo'lib, ular ko'proq tabiiy fanlar asoslarini o'rganishda qo'llaniladi.

Magistr – ma'lum ixtisoslik bo'yicha ta'lim olgan yuqori malakali, aspiranturaga kirish huquqiga ega mutaxassis hisoblanib, u ilm-fan sohasida, ishlab chiqarishning mas'uliyatli lavozimlarida faoliyat ko'rsatadi.

Maqsad (arabchadan niyat, oliy tilak, intilish) – erishish, amalga oshirish uchun ko'zda tutilgan narsa, murod, muddao.

Malaka – muayyan harakat yoki faoliyatni bajarishning avtomatlashtirilgan shakli.

Masofaviy ta'lim – o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri, shaxsiy aloqasiz “masofadan o'qitish” imkonini yaratib beruvchi zamonaviy axborot va telekommunikatsion texnologiyalardan foydalanishga asoslangan o'qitish jarayonining o'ziga xos yangi shakli.

Matematik statistika – pedagogik ilmiy-tadqiqotlarni olib borishda qo'llanilib, tajriba-sinov ishlari, umumiy holda tadqiqotning samaradorlik darajasini aniqlash maqsadida qo'llaniladi.

Mashq – aqliy yoki amaliy (jismoniy) harakatlarni bajarish ko'nikmalarini egallash yo'lidagi ko'p marta takrorlanishlar.

Ma'lumot – ta'lim-tarbiya natijasida o'zlashtirilgan, tizimlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko'nikma va malakalar, tarkib topgan dunyoqarash majmui.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya – o'quvchilar ongi, hayoti, turmush tarziga muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo'lgan tartib, odob, o'zaro munosabat, muloqot va xulq-atvor qoidalari, mezonlarni singdirish jarayoni.

Ma'ruza – o'quvchilarga nazariy bilimlarni verbal (og'zaki) yetkazib berish shakllaridan biri.

Metodologiya (yunon. methodos – yo'l, usul, logos – ta'limot) – shaxsning amaliy va nazariy faoliyatini to'g'ri uyushtirish va tuzish to'g'risidagi ta'limot; ilmiy bilish va dialektik taraqqiyot mohiyatini yorituvchi ustuvor g'oya, yetakchi tamoyil, muhim qonuniyatlar, nazariy hamda amaliy yondashuvlar majmui.

Mehnat tarbiyasi – shaxsga mehnatning mohiyatini chuqur anglatish, ularda mehnat va mehnat faoliyatiga ongli munosabatni, shuningdek, muayyan ijtimoiy-foydali harakat yoki kasbiy ko'nikma va malakalarni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon.

Mimika – bu yuz muskullarining harakatlari orqali o'z fikri, his-tuyg'ulari, kayfiyatini, shuningdek, mavjud voqyelikka nisbatan munosabatini ifodalash.

Muammoli ta'lim – zamonaviy ta'lim mohiyatini aks ettiruvchi ilg'or pedagogik texnologiya biri bo'lib, ta'lim oluvchilarda ijodiy izlanish, kichik tadqiqotlarni amalga oshirish, muayyan farazlarni ilgari surish, natijalarni asoslash va ma'lum xulosalarga kelish kabi ko'nikma va malakalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Munozara – tarbiyalanuvchilarga hissiy-og'zaki ta'sir ko'rsatish asosida ularda ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan bahs-munozara usuli bo'lib, siyosiy, iqtisodiy, madaniy, estetik va huquqiy mavzularda o'tkaziladi.

Muhit (yoki ijtimoiy muhit) – individ, shaxs, ijtimoiy guruhlarning mavjud bo'lishi, shakllanishi va faoliyati kechadigan ijtimoiy (moddiy, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy) shart-sharoitlar.

Neyropedagogika – inson miyasining ijodiy imkoniyatlarini aniqlash va amaliy (funktional) rivojlantirish, shaxsda faoliyatga nisbatan faol, ongli munosabatchi qaror toptirish, ijtimoiy hulq-atvorni psixologik korrektsiyalash, bolalar ruhiy rivojlanishni tashxislash va bashoratlashning yangi ilmiy dasturlari, samarali shakl va metodlarini, shuningdek, yangi turdagi maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatini tadqiq etadi.

Nutq madaniyati – bu o'z fikrini nutq yordamida mantiqli, to'g'ri, obrazli, aniq va ifodali yetkazib berish malakalarining o'zlashtirilganlik darajasi.

Nutq texnikasi – nutqni tinglovchi yoki o'quvchiga yetkazishda qo'llaniladigan vositalar majmui.

Ogohlantirish – sodir etilishi mumkin bo'lgan muayyan xarakteratlarning oldini olish maqsadida qo'llaniladigan tarbiyaviy usul.

Pantomimika – bu gavda, qo'l va oyoqlarning harakati bo'lib pedagog tomonidan bayon etilayotgan muayyan fikrni alohida ajrab ko'rsatishga, ma'lum qiyofa orqali gavhlantirishga imkon beradi.

Pedagogik innovatika – ta'lim sub'ektlari nuqtai nazardan pedagog innovatsiyalarning mohiyati, paydo bo'lish, rivojlanish qonuniyatlarini hamda pedagogik an'analar bilan kelajak ta'limining loyihalashtirilishi o'rtasida aloqalarni o'rganadi.

Pedagogik kreativlik – pedagogning an'anaviy pedagogik fikrlashdagi farqli ravishda ta'lim va tarbiya jarayonini samaradorligi ta'minlashga xizmat qiluvchi yangi g'oyalarni yaratish, shuningdek, mavjud pedagog muammolarini ijobiy hal qilishga bo'lgan tayyorgarligini tavsiflovchi qobiliyati.

Pedagogik qobiliyat – pedagogga xos bo'lib, pedagogik faoliyatni oqilona tashkillashtirish va olib borilishiga imkon beradigan, amaliy vazifalarning samarali bajarilishini ta'minlashda ahamiyatli bo'lgan xususiyatlar.

Pedagogik mahorat – 1) o'qituvchining pedagogik jarayonni tashkiliy metodik, ruhiy va sub'ektiv jihatdan o'ta mohirlik, ustalik bilan tashkil etish va boshqarish qobiliyati, ko'nikma-malakasiga egaligi; ta'lim-tarbiya jarayoniga ongli, ijodiy yondashuv, metodik bilimlarni samarali qo'llay olish qobiliyati, yuksak pedagogik tafakkur; 2) pedagog tomonidan kasbiy faoliyatning ustalik, mohirlik bilan, san'atkorona tashkil etilishini ta'minlovchi bilim, ko'nikma va malakalar majmui.

Pedagogik muloqot madaniyati – pedagogning o'quvchilar jamoasi, ota-onalar, hamkasblar hamda rahbariyat bilan pedagogik odob hamda muloqot talablariga muvofiq holda uyushtiriladigan suhbat.

Pedagogik novatorlik – pedagogik faoliyatda ilg'or tamoyil yoki g'oyani asoslash, yangi yo'l, usul yoki vositalarni tavsiya qilish, ularning amaliyotga tatbiqini ta'minlashga qaratilgan ijodiy yondashuv.

Pedagogik odob – bu pedagog (o'qituvchi) oldiga uning o'ziga, kasbiga, jamiyatga, bolalarga va o'quv-tarbiya jarayonining boshqa ishtirokchilariga munosabatda bo'lishiga nisbatan qo'yiladigan axloqiy talablar tizimi.

Pedagogik relaksatsiya – ta'lim oluvchilar (o'quvchi, talaba, tarbiyalanuvchi)larning hissiy faoliyatini, ruhiy-jismoniy quvvatini hamda ishchanlik qobiliyatini qayta tiklash.

Pedagogik takt – pedagogning o'quvchilar bilan turli faoliyat shakllari bo'yicha tashkil etiladigan muloqotda mavjud axloqiy tamoyillar hamda hulq-atvor qoidalarga rioya qilishi, ularga to'g'ri yondashish malakalariga egaligi.

Pedagogik texnika – pedagogga alohida o'quvchi (talaba, tarbiyalanuvchi) hamda ta'lim oluvchilar jamoalariga pedagogik ta'sir ko'rsatish metodlarini amalda samarali qo'llay olish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar majmui; pedagogik faoliyatda orttirilgan ko'nikma va malakalar yig'indisi.

Pedagogik texnologiya – muayyan loyiha asosida tashkil etiladigan, aniq maqsadga yo'naltirilgan va bu maqsadning natijalanishini kafolatlovchi pedagogik faoliyat jarayonining mazmuni.

Pedagogik faoliyat – pedagog tomonidan kasbiy maqsadga muvofiq tashkil etiladigan tizimli harakatlarning muayyan shakli.

Pedagogika (“παιδαγωγική”) – tarbiya san'ati, qadimgi grek tilidan “παις” (“pais”) – bola, “γωγός” (“agogos”) – yetaklayman) – shaxsni shakllantirishga qaratilgan muayyan tizimli faoliyat hamda ta'lim-tarbiyaning mazmuni, shakli, metod va vositalari haqidagi fan.

Pedagogika nazariyasi – har tomonlama rivojlangan, barkamol shaxsni shakllantirish, unda dunyoqarash va yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalash masalalarini o'rganadi.

Pedagogika tarixi – pedagogik fikrlarning paydo bo'lishi va rivojlanish tarixini, turli davrlarda bola tarbiyasini tashkil etishga oid bilimlarning shakllanishini tadqiq qiladi.

Pedagogika fanining maqsadi – shaxsni har tomonlama rivojlantirish, unda yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalashdan iborat.

Rag'batlantirish – tarbiyalanuvchining xatti-harakati va faoliyatiga ijobiy baho berish asosida unga ishonch bildirish, ko'nglini ko'tarish va uni qo'llab-quvvatlashning eng samarali usuli.

Reyting (inglizcha “baholash”, “tartibga keltirish”) – muayyan hodisani oldindan belgilangan shkala bo'yicha baholash shakli, usuli.

Rivojlanish – shaxsning fiziologik va intellektual o'sishida namoyon bo'ladigan miqdor va sifat o'zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayon.

Rivojlantiruvchi ta'lim – pedagogik texnologiyalardan biri bo'lib, u o'quvchilarning ichki imkoniyatlari oshirish va ularni ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi.

Seminar – o'qituvchi va o'quvchilarning faol hamkorligi asosida ishtirokida tashkil etiluvchi ta'lim shakllaridan biri bo'lib, uni tashkil etishdan ko'zlangan maqsad o'quvchilarning mustaqil ishlarini yanada rivojlantirish, ayrim mavzular yuzasidan keng va chuqur ma'lumot bera oladigan manbalar ustida ishlay olishlari hamda shu asosda kelajak faoliyatlarida zarur adabiyotlardan foydalana olish ko'nikma va malakalariga ega qilishdan iboratdir.

Sinf – yoshi va bilimi jihatidan bir xil bo'lgan muayyan o'quvchilarga guruh.

Suhbat metodi – pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlaridan biri bo'lib pedagogik kuzatish chog'ida ega bo'lingan ma'lumotlarni boyitish, vaziyatga to'g'ri baho berish, muammoning yechimini topishga imkon beruvchi pedagogik shart-sharoitlarni yaratish, tajriba-sinov ishlari sub'ektlari imkoniyatlarini muammo yechimiga jalb etishga yordam beradi.

Tanbeh berish – eng muhim jazo choralaridan biri bo'lib, o'qituvchi o'quvchiga yuzma-yuz turib tanbeh beradiva, buni kundaligiga yozib qo'yishi mumkin.

Tarbiya – muayyan, aniq maqsad va ijtimoiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni.

Tarbiya vositalari – tarbiya jarayonining ta'sirchanligini oshirish maqsadida qo'llaniladigan moddiy buyumlar, narsalar, ma'naviy omillar, faoliyat (o'yin, o'qish, mehnat, muloqot) hamda hissiy yondashuv ko'rinishi.

Tarbiya jarayoni – o'qituvchi va o'quvchi (tarbiyachi va tarbiyalanuvchi)lar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda aniq maqsadga yo'naltirilgan hamkorlik jarayonidir.

Tarbiya metodi (yunoncha “metodos” – yo'l) tarbiya maqsadiga erishish, tarbiyalanuvchilarning ongi, irodasi, tuyg'ulari va xulqiga ta'sir etish yo'llari.

Tarbiya nazariyasi – pedagogika fanining muhim tarkibiy qismi bo'lib, tarbiyaviy jarayon mazmuni, tamoyillari, qonuniyatlari, uni tashkil etish masalalari, metodikasi, shakllari, metodlari, vositalari, usullari va muammolarini o'rganadi.

Tarbiya usullari – bu tarbiyalash, pedagogik ta'sir ko'rsatish xususiyatga ega xatti-harakatlar majmui bo'lib, ular yordamida shaxsning qarashlari, motivlari, harakatlarini o'zgartirish maqsadida uning xulqiga va pozitsiyasiga tashqi ta'sir ko'rsatiladi.

Ta'lim – o'quvchilarni nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish, ularning bilish qobiliyatlarini o'stirish va dunyoqarashlarini shakllantirishga yo'naltirilgan jarayon.

Ta'lim vositalari – o'qitish samaradorligini ta'minlovchi ob'ektiv (darslik, o'quv qo'llanmalari va qurollari, xarita, diagramma, plakat, rasm, chizma, dioproektor, magnitafon, videomagnitafon, uskuna, televizor, radio, kompyuter, b.sh.) va sub'ektiv (o'qituvchi nutqi, namunasi, muayyan shaxs hayoti, faoliyatiga oid misollar, h.o.) omillar.

Ta'lim jarayoni – o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda ilmiy bilimlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon.

Ta'lim jarayonini loyihalashtirish – alohida olingan ta'lim jarayonini samarali tashkil etish uchun barcha omillarni inobatga olgan holda uning loyihasi (sxemasi)ni ishlab chiqish.

Ta'lim jarayonini tashkil etish – o'quvchilarga ilmiy bilimlarni berish maqsadida o'qituvchi tomonidan pedagogik faoliyatni tashkiliy-metodik jihatdan uyushtirilishi.

Ta'lim mazmuni – shaxsni har tomonlama rivojlanishi, unda boy dunyoqarashni, e'tiqodni tarkib toptirish, bilishga nisbatan qiziqishlarini rivojlantirish uchun asos bo'luvchi aniq belgilangan, tizimlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarning hajmi.

Ta'lim maqsadi – ta'limning aniq yo'nalishini belgilab beruvchi yetakchi g'oya.

Ta'lim metodlari – o'quv jarayonida qo'llanilib, uning samarasini ta'minlovchi uslublar majmui.

Ta'lim muassasasi hujjatlarni tahlil qilish – pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlaridan biri bo'lib, pedagogik hodisa va dalillarni tekshirish maqsadida o'rganiladi, ta'lim muassasalarida uzluksiz ta'limni tashkil etishga oid hujjatlar talablarining bajarilish holatini o'rganish, erishilgan yutuq hamda yo'l qo'yilgan kamchiliklarni aniqlash, ilg'or tajribalarni ommalashtirish va ta'lim muassasasi pedagogik tajribasini oshirish maqsadida qo'llaniladi.

Ta'lim natijasi (ta'lim mahsuli) – ta'lim yakunining mohiyatini qayd etuvchi tushuncha; o'quv jarayonining oqibati; belgilangan maqsadni amalga oshirish darajasi.

Ta'lim tamoyillari – ta'lim nazariyasining muhim, asosiy, yetakchi, ustuvor g'oyalari, qoidalari; o'qitish asosidagi ta'lim va uni tashkil etish jarayonini tashkil etish mazmuni, shakl, metod va vositalar tanlanishini belgilaydigan boshlang'ich asoslar.

Ta'lim tizimi – yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish yo'lida davlat tamoyillari asosida faoliyat yuritayotgan barcha turdagi o'quv-tarbiya muassasalari majmui.

Ta'lim turlari – mazmuni, tashkil etilish o'rni, bosqichi, qo'llaniladigan vositalari va ta'lim oluvchilarning yoshiga ko'ra farqlanuvchi ta'lim ko'rinishlari.

Ta'lim shakli – ta'lim jarayonining tashkiliy qurilishi.

Test metodi – pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlaridan biri bo'lib, respondentlar tomonidan muayyan fan sohasi yoki faoliyat (shu jumladan, kasbiy faoliyat) bo'yicha o'zlashtirilgan nazariy bilim va amaliy ko'nikma, malakalar darajasini aniqlashga xizmat qiladi.

Texnologiya (yunoncha “techne” – mahorat, san'at; “logos” – tushuncha, ta'limot) – ishlab chiqarishning biror sohasida xomashyo, material, yarim

fabrikat va shu kabilarga ishlov berish yoki qayta ishlash, ularning holati xossalari va shaklini o'zgartirishda qo'llaniladigan usullar (metodlar) majmui.

Tibbiyot – insonlar sog'lig'ini saqlash va mustahkamlash, umrin uzaytirish, kasalliklarning oldini olish, davolash haqidagi bilimlarni yoritadi.

Uzluksiz ta'lim tizimi – O'zbekiston Respublikasi davlat siyosatining asosiy tamoyillari asosida yosh avlodni tarbiyalashga mas'ul barcha turdagi ta'lim muassasalari majmui.

Uzluksiz ta'lim tizimida davlat ta'lim standartlari (DTS – inglizcha standard – me'yor, namuna) – uzluksiz ta'lim bosqichlarining asosiy ta'lim dasturlari mazmunining zaruriy minimumini, o'quvchilarga yuklanadigan o'quv yuklanmalarning maksimal hajmini, ta'lim muassasasi bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini, ta'lim jarayonini ta'minlash (uning moddiy-texnik, o'quv-laboratoriya, axborot-metodik, kadrlar ta'minoti)ning asosiy talablarini aniqlab beradigan me'yor va talablar.

O'z-o'zini tarbiyalash – o'quvchilarning o'zini o'zi idora qilish, o'quvchilar organlari faoliyatida faol ishtirok etish, ijtimoiy mavqeyini oshirishning ta'sirchan vositasi.

O'qituvchi – pedagogik, psixologik va tegishli mutaxassislik bo'yicha maxsus ma'lumot, kasbiy tayyorgarlik, yuksak axloqiy fazilatlariga ega bo'lib, ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatuvchi shaxs.

O'quv dasturlari – uzluksiz ta'lim tizimining turli bosqichlarida tashkil etiladigan o'qitish mazmunini yorituvchi muhim hujjatlardan biri.

O'quv rejasi – me'yoriy hujjat bo'lib, unda har bir o'quv predmetining mazmuni ochib beriladi va o'quv yilida o'zlashtirilishi zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar hajmi ko'rsatib beriladigan hamda tegishli ravishda barcha turdagi ta'lim muassasalari so'zsiz amal qilishlari lozim bo'lgan davlat hujjati.

O'quv fani – ta'lim muassasalarida o'qitilishi yo'lga qo'yilgan hamda o'zida muayyan fan sohasi bo'yicha umumiy yoki mutaxassislik bilim asoslarini jamlagan manba.

Uyaltirish – o'quvchining ma'lum xatti-harakatlariga jamoa yoki uning tarbiyasi uchun mas'ul bo'lgan sub'ektlar (ota-onalar, vasiylar, jamoatchilik vakillari va boshqalar) oldida baho berish usuli.

Hikoya metodi – bayon qilinayotgan ma'lumotlarning to'g'ridan-to'g'ri o'qituvchining jonli nutqi orqali idrok qilish usuli.

Huquqiy tarbiya – shaxs tomonidan o'zlashtirilgan nazariy-huquqiy bilimlar negizida huquqiy faoliyatni tashkil etish borasidagi ko'nikma va malakalarni hosil qilish, unda ijobiy mazmundagi huquqiy sifatlarni qaror toptirish va huquqiy madaniyatni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim – ta'lim jarayonining asosiy ob'ekti o'quvchi (talaba, tarbiyalanuvchi) bo'lib, uning shaxsi, qadr-qimmatini yuqori o'ringa qo'yadigan hamda asosiy e'tiborni intellektual salohiyatini oshirish, dunyoqarashini boyitish, ma'naviy-axloqiy tafakkurini rivojlantirishga qaratadigan pedagogik faoliyat turi.

Ekologik tarbiya (grekcha "oikos" – turar joy, makon, "logos" – fan) o'quvchilarga dastlabki ekologik bilimlarni berish, mavjud ekologik bilimlarini boyitish, ularda tabiat va atrof-muhit muhofazasini tashkil etish ko'nikma va malakalarini shakllantirishga qaratilgan pedagogik jarayon.

2-MODUL. PSIXOLOGIYA

6-MAVZU. PSIXOLOGIYA FANINING PREDMETI, MAQSADI VAZIFALARI, TARIXI VA ILMYI TADQIQOT METODLARI. PSIXOLOGIYANING DINIY TA'LIMDAGI O'RNI

Bobning qisqacha mazmuni

Psixologiyaning predmeti va uning tibbiyot xodimlari faoliyatida tutgan o'rni. Psixologiyaning predmeti, maqsadi, vazifalari va psixologik bilimlarning tibbiyotdagi o'rni.

Psixologiyaning shakllanish tarixi. Psixologiyaning shakllanish tarixi va rivojlanish bosqichlari, qadimgi dunyo va o'rta asr faylasuf va mutafakkirlarining psixologiya ilmi to'g'risidagi tushunchalari, dunyo va rus olimlarining psixologiya faniga qo'shgan hissalari.

Psixika va ong. Psixika va ong muammolari, psixikaning reflektor tabiati, psixikaning moddiy asosi, onging psixologik tavsifi, onglik va ongsizlik tushunchalari

Psixologiyaning asosiy tamoyillari (prinsiplari), ilmiy tadqiqot metodlari va tarmoqlari. Psixologik qonuniyatlar va ularni aniqlash metodlari, psixologiya fanining tarmoqlari, boshqa fanlar bilan bog'liqligi.

6.1. Psixologiyaning predmeti va uning tibbiyot xodimlari faoliyatida tutgan o'rni

Psixologiya yunoncha psychelogos so'zi "jon", "ruh" haqidagi fan, ta'limot degan ma'noni anglatmada, ammo hozirgi davrda "jon" tushunchasi o'rniga "psixika" qo'llanilib kelinmoqda. "Psixika" tushunchasi bugungi kunda "jon"dan kengroq ko'lamga ega bo'lib, ham ko'zga ko'rinuvchi, ham ko'zga ko'rinmovchi tomonlarni o'zida aks ettiradi. Psixikaning tarkibiy qismlari bo'lmish faoliyat, xulq, muomala yaqqol namoyon bo'lish xususiyatiga ega bo'lsa, bilish jarayonlari, psixik holatlar, ichki kechinmalar, ijodiy rejalar, ilmiy farazlar esa miyada mujassamlashgani uchun ular ko'zga ko'rinmaydi. Psixologiya fanining keyingi davrdagi taraqqiyoti ular o'rtasida bir talay tafovutlarni keltirib chiqardi.

Demak, psixologiyaning predmetini har birimizning tashqi olamni va o'z-o'zimizni bilishimizning asosida yotgan jarayonlar, hodisalar, holatlar va

shakllangan xislatlar tashkil etadi. Psixologiya bo'yicha adabiyotlarda uning predmetini qisqacha qilib, psixikadir, deb ta'riflashadi.

Psixika yuksak darajada tashkil topgan materiyaning xususiyati va miyaning mahsuli bo'lib, u borliqning sezgi organlari orqali insonning miyasiga bevosita ta'sir etishi asosida vujudga kelib, bilish jarayonlarida, shaxsning xususiyati va holatlarida, diqqati, his-tuyg'ulari, xarakter xislatlarida, qiziqishi hamda ehtiyojlarida o'z ifodasini topadi.

Psixikaning negizida miyaning reflektor faoliyati yotib, tashqi dunyodan kirib keladigan qo'zg'atuvchilarga ichki yoki tashqi biologik organlarning javob reaksiyasini bildiradi. Bosh miya katta yarim sharlarida vujudga keladigan muvaqqat nerv bog'lanishlari psixik hodisalarning fiziologik asoslari hisoblanib, ular tashqi ta'sirning natijasida hosil bo'ladi. Miyaning funksiyasi psixofiziologik qonuniyatlarga binoan muvaqqat nerv bog'lanishlarining birlashish mexanizmi hamda analizatorlar faoliyati mexanizmlari ta'sirida hosil bo'ladi.

Psixikani tadqiq etish deganda insonning butun ongli faoliyatini – uning ham nazariy, ham amaliy hayot faoliyatini o'rganish tushuniladi. Odamning onglikligi uning turli-tuman faoliyatida, xatti-harakatlarida namoyon bo'lib, uning shaxsi har xil shakl va mazmunga ega bo'lgan nazariy hamda amaliy faoliyatlarda tarkib topadi. Bunda muhit, irsiy belgilar, ijtimoiy ta'sir asosiy omillar hisoblanadi.

Inson o'zi yashab turgan davrni, moddiy turmushni aks ettiradi, ijtimoiy-siyosiy muhit ta'siri ostida bilimlarni o'zlashtirgan holda ijtimoiylashadi. Shuningdek, ijtimoiy muhitda uning his-tuyg'ulari, xakteri, qobiliyati, iqtidori, tafakkuri, ehtiyojlari, e'tiqodi, uni faollikka da'vat qiluvchi harakat motivlari, istaklari, tilaklari, xohishlari asta-sekin o'zgarib boradi.

Psixikaning turli shakllarda ko'rinishi, jumladan, psixik jarayonlar, anglanilmagan holatlar, xulq-atvor, psixosomatik (*yunoncha psyche "jon" somo "tana" ma'nosini anglatadi*) hodisalar, inson aql-zakovati va qo'lining mo'jizakorligi moddiy va ma'naviy madaniyat mahsulini yaratdi. Har qanday faktlarda (voqeyelikda), hodisalarda psixika namoyon bo'lib, o'zining xususiyatlarini ajratadi va faqat ular orqaligina psixikani o'rganish mumkin bo'ladi.

Psixologik voqeyelik-fakt deganda sub'ektning ichki kechinmalari-ning tarkibiy qismlari bilan bir qatorda ularning ob'ektiv shakllari (xulq-atvor, tana harakati, jarayoni, faoliyat mahsuli, ijtimoiy-madaniy hodisalar) orqali psixikaning xususiyatlari, holatlari, qonuniyatlarini o'rganish tushunilib, bunda inson ongidan tashqari, unga bog'liq bo'lmagan holda hukm suruvchi ob'ektiv borliq, ya'ni atrofimizdagi narsa va hodisalar, muhit, sharoit va boshqalarning psixikada aks etishi tushuniladi.

6.1.1-jadval

PSIXIK HODISALAR KLASSIFIKATSIIYASI		
PSIXIK JARAYONLAR	PSIXIK HOLATLAR	PSIXIK XUSUSIYATLAR
Diqqat	Emotsiya	Temperament
Sezgi	E'tiqod	Xarakter
Idrok	Stress	Qobiliyat
Xotira	Kayfiyat	
Tasavvur	Frustratsiya	
Tafakkur	Affekt	
Nutq	Hayratlanish	
Xayol	Ehtiros	
	Ruhanish	
	Iroda	

Har qanday fanning ob'ekti bo'lganidek, psixologiya ham o'z ob'ektiga ega. Psixologiyaning bevosita ob'ekti *individ, shaxs* bo'lsa, bilvosita ob'ekti esa *atrof-muhit, jamiyat, oila* hisoblanadi.

Psixologiya fanining maqsad va vazifalari shaxs psixik faoliyatining shakllanish va rivojlanish mexanizmlarini o'rganishdan iboratdir. Psixologiya fani yaqqol inson fazilati, muayyan taraqqiyot xususiyatlari, mexanizmlari, qonuniyatlari, o'ziga xoslik, alohidalik, yakkahollik tabiati yuzasidan bahs yuritadi.

Shaxs kundalik turmushning o'ziga xos psixologik bilimlarini egallagan bo'lib, o'z saviyasi, salohiyati bilan turlicha kamolot ko'rsatgichiga egadir, hatto hayotiy faoliyatida to'plangan bilimlar ilmiy psixologik bilimlardan ustunroq turishi ham mumkin. Chunki yirik yozuvchilar (shaxslararo munosabat va muomala, muloqot xususiyatlari yuzasidan kuzatuvchanlikka egadirlar), shifokorlar, o'qituvchilar, din ulomalari, savdogarlar uzluksiz ravishda kishilar bilan muomalaga kirishishlari natijasida ularning ichki dunyosi va xulq-atvoriga oid bilimlar bilan yuksak darajada qurollangandirlar. Lekin har qanday insonda ham ozmi yoki ko'pmi psixologik bilimlar mavjuddir, buning dalili sifatida odamlarning bir-birlarini tushunishlari, ta'sir o'tkazishlari, xulq-atvor oqibatini oldindan bashorat qilish, kishining yakkahol xususiyatlarini hisobga olgan holda unga yordam ko'rsatishni ta'kidlab o'tishning o'zi kifoya.

Hayotda juda ko'p uchraydigan, ayniqsa, shifokorlar faoliyatida namoyon bo'luvchi tibbiy uslub arzimas ijobiy siljishni payqash imkoniyatini yaratadi. Amaliy faoliyatda erishilgan ushbu samara psixologik tahlilga muhtoj bo'lib, uni keltirib chiqaruvchi ob'ektiv yoki sub'ektiv omillarni dalillash ancha mushkul hisoblanadi. Buning uchun o'zgalarga ta'sir o'tkazish usuli, ularda ichki imkoniyatga ishonch tuyg'usini uyg'otish qo'zg'ovchisi, ta'sirga beriluvchanlikni kuchaytiruvchi motivlar (*fransuzcha motif qo'zg'atuvchi sabab ma'nosini bildiradi*) tabiatini chuqur tahlil qilish va shu yo'l bilangina siljishning psixologik ma'no kasb etishini dalillash mumkin, xolos.

Psixologiya insonning ichki imkoniyati, iste'dodi, ishchanligi, qobiliyati yuzasidan umuminsoniy tavsifga ega bo'lgan teran bilimlar bilan qurollantiradi. Buning natijasida odam psixikasini aniqlash, bashorat qilish, ayrim ruhiy nuqsonlarni tuzatish, noxush kechinmalarning oldini olish imkoniyati tug'ilib, bu esa ijtimoiy-psixologik bog'lanishlar mohiyatini oqilona tavsiflash uchun xizmat qiladi. Ijtimoiy va yakkahol turmush og'irliklari va tashvishlarini kamaytirish, aqliy hamda jismoniy zo'riqishlarni pasaytirish, shaxslararo nizolarni bartaraf etish singari sa'y-harakatlarni faqat ilmiy psixologik ma'lumotlarga asoslangan holda amalga oshirish mumkin.

Shuning uchun psixologiyaning turli sohalarida o'tkazilgan tadqiqot ishlari ilmiy asosda psixika, psixik holat, psixik hodisa, psixik jarayon, psixik funksiya, psixik xususiyat, ijodiyot, faoliyat, ong, xulq, muomala singari tushunchalar bo'yicha materiallar to'plab beradi, shuningdek, psixik aks ettirishning (fizik, fiziologik, psixik, ong, o'zini o'zi anglash) moddiy asoslari, mexanizmlari yuzasidan qonuniyat ochishga imkon yaratib, hatto insonni o'zligini anglash va boshqarish sari yetaklaydi.

6.2. Psixologiyaning shakllanish tarixi

Psixologiya yaxlit va mustaqil fan sifatida rivojlanishida barcha ijtimoiy-gumanitar (falsafa, sotsiologiya, pedagogika, tarix, iqtisodiyot va h.), tabiiy fanlar (biologiya, fiziologiya, ximiya, fizika va h.), kibernetika va texnika fanlari bilan o'zaro aloqasi va hamkorligi yaqqol sezilmoqda. Yuqorida ta'kidlangan fan tarmoqlari psixologiya bevosita uzviy aloqada rivojlanadigan fanlarning asosiy qismi xolos. Bugungi kunda har bir fan rivoji uchun inson omilini hisobga olish zarur ekan, psixologiya o'sha barcha fanlar bilan aloqada va hamkorlikda rivojlanadi.

Psixologiya inson o'zining kimligini anglashga intilishdan, o'z ruhiy dunyosini va o'zgalar ruhiyatini bilish istagi paydo bo'lishdan, tabiat va jamiyat hodisalarini tushunishga ehtiyoj sezishdan, o'tmish, hozirgi zamon, kelajak haqida mulohaza yuritishdan e'tiboran fan sifatida rivojlana boshladi.

Psixologiyaning fan sifatida rivojlanishi tarixi *to'rt bosqichga bo'lib* o'rganiladi:

I. Psixologiya jon, ruh haqidagi fan sifatida o'rganilib, bu 2500 yil avvalgi davrga to'g'ri keladi. U davrda inson hayotidagi ko'plab voqyealar jon, ruh va uning xususiyatlariga bog'lab tushuntirishgan.

II. Psixologiyaga ong haqidagi fan sifatida qaralib, tabiiy fanlarning rivojlanishi ta'siri ostida XVII asrda paydo bo'ldi. Kishining fikrlash, his qilish, istaklarining namoyon bo'lishini ong deb atadilar. Psixologiya fanining eng asosiy tadqiqot metodi - o'z-o'zini kuzatish va tahlil qilish hisoblangan.

III. Psixologiya xulq-atvor haqidagi fan sifatida. XX asrda shakllangan bo'lib, psixologiyaning asosiy vazifasi bevosita kuzatish imkoniyati bo'lgan psixik hodisalar, ya'ni kishining xulq-atvori, harakatlari, reaksiyasi kabilarni o'rganish hisoblangan.

IV. Psixologiya psixik faktlarni, psixik hodisalarning mexanizm-lari va qonuniyatlarini o'rganuvchi fan sifatida. Hozirgi zamon psixologiya fani psixologiyaning fan sifatida rivojlanishi, falsafa, tabiiy va tibbiy fanlar, aniq fanlar sohasidagi ko'plab boy tajribalarga asoslanib shakllangan.

Eramizdan avvalgi VI asrda zardushtiylar tomonidan yozilgan "Avesto"ning "Vendidat" deb nomlanuvchi birinchi kitobida psixologiya va tibbiyotga oid dastlabki ma'lumotlar keltirilgan. Mazkur kitobda 9999 xil kasalliklar haqida va ularni davolashda jarrohlik, ruhiy tinchlantirish va shifobaxsh g'iyohlar qo'llanilishi bitilgan.

Qadimgi odamlarning tasavvurlariga qaraganda, inson tanasida "jon" joylashgan bo'lib, u shaxsga oid xususiyatlar, xislatlarni vujudga keltirish imkoniyatiga ega ekan. Qadimgi ajdodlarimizning "jon" to'g'risidagi tasavvurlari animizm (lot. "anima" - jon) ta'limotini tarkib toptiradi. Bunda ularning tasavvurlarida ruh insonning tanasi bilan uzviy bog'liq holda hukm suradi, go'yoki yashaydi. Shuning uchun ijtimoiy hodisalar, hatto ong, shuningdek, real voqyeliklar (o'lim, uyqu, bexush bo'lish, betoblik) kabilarni soddada tarzidagi moddiylik (mavjudlik) nuqtai nazaridan talqin qilishga uringanlar. Ularning tasavvurlarida quyidagicha talqinlar keng o'rin egallagan:

- o'lim - uyquning bir turi, lekin ruh ba'zi bir sabablarga ko'ra tanaga qaytib kelmaydi;

- tush ko'rish - uyqudagi tanani tark etib yurgan harakatdagi ruhning taassurotidir;

- ruh - insonning aynan o'zidir;

- ruhning ehtiyojlari, turmush sharoitlari tirik odamnikidan tafovutlanmaydi;

- marhumlarning ruhlari muayyan mashg'ulotlar tizimiga, ijtimoiy qonun-qoidalarga rioya qiluvchi hamjamiyatni yaratish emish;

- tirik insonlar bilan marhumlarning ruhi bir-biriga bog'liq bo'lib, moddiy jihatdan o'zaro aloqadordir.

Keyinchalik esa animistik tasavvurlar o'rnini ruhni borliqning naturalistik (lot. "natura" - tabiat) falsafiy manzarasi tarzida izohlash namoyon bo'la boshladi:

- Fales (eramizdan avvalgi VII-VI asrlar), Aneksimon (eramizdan avvalgi V asr), Geraklit (eramizdan avvalgi VI-V asrlar) ruh olamining ibtidosini tashkil qiluvchi narsalar (suv, havo, olovning insonlar va hayvonlarga jon bag'ishlovchi shakli tarzida talqin qilishadi;

- Eramizdan avval yashab o'tgan yunon faylasuflarining ilmiy izlanishlari natijasida materiyaning jonliligi (gilozoizm) to'g'risidagi g'oya yuzaga keladi;

- Materiyaning jonliligi haqidagi g'oyani rivojlantirgan atomizm (yunon. "atomos" - bo'linmas) namoyandalari Demokrit (eramizdan avvalgi V-IV asrlar), Epikur (eramizdan avvalgi IV-III asrlar), Lukritsiy (eramizdan avvalgi I asr) bir qancha fikrlarni ilgari surdilar, jumladan:

- ruh tanaga jon bag'ishlovchi moddiy jismdir;

- moddiy asos hisoblanmish aql;

- hayotni boshqaruvchi idrok vazifasini bajaruvchi a'zo;

- ruh bilan aql tana a'zolari bo'lganligi bois, ularning o'zi ham tanadir;

- ular sharsimon, kichik harakatchan atomlardan tarkib topadi.

Yuqoridagi mulohazalar organizmning anatomik-fiziologik tuzilishi, miyaning tarkibi singari moddiy asoslarga suyangan holda real voqyelikni tushuntirish imkoniyatiga ega emas edi.

Aflotun (Platon) jonning tarkibiy qismlari to'g'risidagi tushunchani psixologiyaga olib kiradi. Uning fikricha, aql-idrok, jasorat, orzu-istak kabilardan iborat bo'lib, ular bosh, ko'krak, qorin bo'shlig'iga joylashgan. Aflotun psixologiyada dualizm (lot. "dualis" - ikki mustaqil) ta'limotini ruhiy olamni, tana bilan psixikani ikkita mustaqil narsa deb izohlasa, uning shogirdi Arastu (Aristotel) o'zining ta'limotida psixologiyani tabiiy-ilmiy asosga qurib, uni *biologiya va tibbiyot* bilan bog'lab tushuntirishga erishgan. Arastuning "Jon" to'g'risidagi kitobi ma'lum bir davr uchun taraqqiyparvar manba vazifasini bajarib, unda odamlarning va hayvonlarning kundalik hayotiy lahzalarini kuzatish orqali yaqqol voqyelikni tasvirlash, tahlil qilish jarayonlari mujassamlashgandir. Arastuning ta'kidlashicha, jon qismlarga bo'linmaydi, lekin u faoliyatning oziqlanish, his etish, harakatga keltirish, aql, idrok kabi turlarga oid qobiliyatlarda namoyon bo'ladi. Uning fikricha, sezgi bilishning dastlabki qobiliyati, u tasavvur shaklida iz qoldirishi mumkin ekan.

Qadimgi dunyoning keyingi rivojlanishi davrlarida psixologik g'oyalar mukammallashib, unga oid tayanch tushunchalar vujudga kela boshladi, hatto ruh hozirgi zamon psixikasi kabi qo'llanish ko'lamini kengaydi.

Gippokrat (eramizdan avvalgi 460-377 yillar) Demokritning izdoshi sifatida qadimgi tibbiyotda to'plangan tajribalarni jamlab, umumlashtiradi. U miya va ruh o'rtasidagi munosabatlarga oid qarashlari bilan mashhur bo'lib, temperament talimotining asoschisidir. Mashhur olimi odamlardagi kasallikning kechishi va bemorning tuzalishi uning temperamentiga bog'liq ekanligini ta'kidlaydi.

Gippokratdan keyin Gerofio va Erazistlar (Aleksandriya maktabi), Sels, Aretey, Avreliy va Galen (qadimiy rum maktabi) muvaffaqiyatli ishlarni amalga oshirdilar. Masalan, rumlik shifokor Galen (eramizdan oldingi II asr) fiziologiya va tibbiyot yutuqlarini umumlashtirib, psixikaning fiziologik asoslari to'g'risidagi tasavvurlarni yanada boyitdi.

X-XI asrga kelib qadimiy Sharqda Yaqub bin Isaak al-Kindiy, Abu Nasr al-Farobiy, Abu Bakr ar-Roziy, Abu Ali ibn Sino va boshqalar falsafa, tibbiyot va psixologiya sohalarini jadal rivojlanishiga hissa qo'shadilar. Ularning asarlarida ko'plab psixologiyaga oid muammolarga oydinlik kiritilgan. Jumladan, mashhur mutafakkir Abu Bakr ar-Roziy (865-925 yillar) bemorlarni davolashda ruhiy ta'sir qilish usullarini keng qo'llagan. U kasallikning kelib chiqish sabablarini, ularning oqibatlarini o'rganib, psixoprofilaktika va psixogigiena sohalariga oid bilimlarni rivojlantirgan. Shuningdek, Abu Bakr ar-Roziy asarlarida shifokor burchi, tibbiy maslahatlar haqida ham ma'lumotlar uchraydi.

Buyuk mutafakkir Abu Ali ibn Sino (980-1037) o'zining davrigacha ma'lum bo'lgan psixologiyaga doir ma'lumotlarni to'plab, maxsus asarlar ("Jon to'g'risida risola" ("Risola fi-al-nafs"), "Psixologiya to'g'risida risola" ("Risola-dar revanshinosi"), "Kitob al-ta'bir" ("Tushni yo'yish kitobi"), "Jon-ruh haqida kitob" ("Kitob al-muhjat"), "Tib qonunlari" ("Kitob al-qonun fit tib"), "Shifo beruvchi kitobi" ("Kitob an-najot"), "Donishnoma") yozib qoldirgan.

Ibn Sino antik dunyo olim va faylasuflari va o'tgan sharq mamlakatlari olimlari yozib qoldirgan asarlarini chuqur o'rganar ekan, u psixologiyaning "otasi" deb nom olgan Arastuni o'zining "birinchi o'qituvchisi" deb tan oladi. U Arastu singari odam tanasi va "ruhiy quvvatlar" materiya bilan shaklan bir-biridan ajratilmagan holda mavjud ekanligini e'tirof etadi. Bu bilan mashhur mutafakkir psixik faoliyat bilan odam salomatligining bir-biriga ta'sir etish kuchi qanchalik katta ahamiyatga ega ekanligini isbot qilishga harakat qiladi. Ibn Sino o'zining nazariy bilimlarini turli tajribalari natijalariga ko'ra asoslab berishga harakat qiladi.

Ibn Sino psixik holatlarning organizmga ta'siri har qanday ruhiy jarayonning fiziologik asoslari bilan bog'liq ekanligi hamda organizmga tashqi muhitning ta'siri katta bo'lishini isbotlash maqsadida ikkita qo'zi olib, ulardan birini och bo'ri yaqiniga bog'lagan, ikkinchisini esa bo'riga ko'rsatmay, oddiy,

tinch sharoitda boqqan. Har ikkala qo'yga ham bir xil hajmdagi yemakni aynan bir vaqtda berib borgan. Ko'p o'tmay bo'riga yaqin bog'langan qo'zi uning doimiy hamllaridan uzoq vaqt qo'rqqanidan juda ham ozib ketgan va yaxshi boqilishiga qaramay, kasallikka uchrab nobud bo'lgan. Tinch sharoitda boqilgan qo'zi esa kundun-kun semirib, xotirjam uzoq yashagan. Ibn Sinoning turli kasallikka chalingan og'ir bemorlarni psixoterapevtik ya'ni so'z bilan ruhiy ta'sir qilish orqali davolaganligi haqida ko'plab hikoyalar uchraydi.

Shuningdek, uning asarlarida kasalliklarning oldini olishda tarbiyaning ahamiyati alohida ko'rsatib o'tiladi. "Tarbiya erta bolalik davridan boshlanishi kerak", degan edi Ibn Sino. Bolani qo'rqqoq, g'amgin yoki juda erka qilib o'stirmaslik kerakligini, bolaning istaklarini yaqinlari payqashi va uning xohishini muhayyo qilishini, yomon illatlardan esa bolani yiroqlashtirishlari zarurligini uqtirgan. Bu amallarni bajarish bolaning zehni o'tkir, tanasini sog'lom qilib o'stirishini ta'kidlab o'tgan.

Ibn Sinoning tana va ruhiyatning bir butunligi haqidagi fikrlari hozirgi kunda zamonaviy tibbiyot yutuqlari tufayli o'z isbotini topib, psixosomatik tibbiyot faniga asos soldi. U xotiraning buzilishi bosh miyaning orqa qismi, tafakkurning buzilishi miyaning o'rta qismi, idrokning buzilishi esa miya qorinchalarining zararlanishi bilan bog'liq deb mulohaza bildirgan. Psixik jarayonlarning buzilishini o'rganish XIX asrlarda G'arb olimlari tomonidan boshlangan degan fikr hali-hanus manbalarda uchraydi. Vaholanki, buyuk bobokalonimiz o'z davrida depressiya, epilepsiya, ongning buzilishlari, gallyusinatsiyalar, alahsirash, tafakkur va xotira buzilishlarini o'rganib, ular haqida yozib qoldirgan.

Abu Ali ibn Sino bosh miyaning atrof muhitdagi narsa va hodisalarni o'zida turli xil shaklda aks ettirish qobiliyatiga ega ekanligini anglab yetgan. Tashqi ta'sirlar avvalo sezgilar orqali namoyon bo'lishi va ular ko'rish, eshitish, hid bilish, ta'm va teri-tuyg'u ko'rinishga ega ekanligini, ularning xususiyatlari va ahamiyati haqida to'xtalib, har qaysi sezgining bosh miyada alohida boshqarib turadigan markazi borligini ta'kidlagan. U insonning tafakkuri, xayoli, xotirasi va iroda sifatlariga yuqori baho beradi va bu psixik jarayonlarning bir-biri bilan chambarchas bog'liq ekanligini anglaydi. Tafakkurning yordamida hodisa va voqyealarni bir-biri bilan almashtirish, abstraksiyalash bilan haqiqatni yolg'ondan ajratiladi. Xotira yordamida esa idrok qilingan narsa va hodisalar kishi ongida mustahkam joylashadi va idrok qilingan bir ob'ektini ikkinchisidan ajratishga yordam beradi. Xayol kishi ongida ob'ektiv voqyelikni aks ettiradi, degan fikrlarni bayon etish orqali Ibn Sino psixologiya sohasida chuqur bilimga ega bo'lganidan dalolat beradi. Abu Ali ibn Sino psixologiya fanining keyingi taraqqiyotiga ham ko'pgina ilg'or va haqqoniy fikrlari bilan katta hissa qo'shgan.

Sharqlik yana bir buyuk mutafakkir alloma Ismoil Jurjoniy (1080-1141) yillarda Xorazmda yashab ijod qilgan) tibbiyotga oid asarlarida ("Ibn Sinc haqida so'z", "Xorazmshoh xazinasi" va "Xastaliklarni aniqlash usullari") bemorlar psixologiyasiga bag'ishlangan bir qancha fikrlar bayon qilingan. Sharq olimlari bemorlar psixologiyasi va ruhiy kasalliklarni o'rganishga katta hissa qo'shibgina qolmay, ular Marvda, Bog'dodda, Quddusda, Damashqda bemorlar uchun shifoxonalar ochadilar.

X-XI asrlarga Sharqda ilm-fan va tibbiyot gurkirab rivojlangan bo'lsa, yevropa mamlakatlarida esa turg'unlik (V-XV asrlar) hukmron edi. XVI asrdan boshlab yevropada ham ilm-fan taraqqiy etib, buyuk kashfiyotlar yaratiladi va XVI-XVII asrlar uyg'onish davri deb ataladi. Bu davrda biologiya va fiziologiya sohasida A.Vezaliy (1514-1564), V.Xarvey (1578-1657) kabi buyuk olimlar yetishib chiqdi. A.Vezaliy bosh miyani ochib o'rganib, ruhiy jarayonlar miya suyuqliklari bo'ylab og'adi, deb mulohazani ilgari suradi.

XVII asr biologiya va psixologiya fanlari taraqqiyoti uchun muhim davr bo'lib, jumladan, fransuz olimi Dekart (1596-1650) tomonidan xulq-atvorning reflektor (g'ayriixtiyoriy) tabiatga ega ekanligini kashf etilishi, yurakdagi mushaklarning ishlashi (faoliyati) qon aylanishning ichki mexanizmi bilan boshqarilayotganligini tushuntirilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, refleks (lot. "reflexus" - aks eittirish) organizmning tashqi ta'sirga qonuniy ravishdagi javob reaksiyasi sifatida talqin qilinishi asab-mushak faoliyatini ob'ektiv tarzda bilish vositasiga aylandi, sezgi, assotsiatsiya, ehtiros yuzaga kelishini izohlashga imkon yaratildi.

Psixologiya fanining ilmiy asosga qurilishida ingliz olimi Gobbs (1588-1679) ruhni mutlaqo rad etib, mexanik harakatni yagona voqelik deb biladi va uning qonuniyatlari psixologiyaning ham qonuniyatlari ekanligini ta'kidlaydi. Uning negizida epifenomenalizm (yunon. "epi" - o'ta, "phainomenon" - g'ayritabiiy hodisa) vujudga kelib, psixologiya tanadagi jarayonlarning soyasi singari ro'y beradigan ruhiy hodisalar to'g'risidagi ta'limotga aylandi.

Niderlandiyalik olim Spinoza (1632-1677) ongni katta ko'lamga ega materiyadan sira qolishmaydigan voqelik, ya'ni yaqqol narsa deb tushuntirib, u determinizm (lot. "determinata" - belgilayman) prinsipining, ya'ni tabiat, jamiyat hodisalarining, shu jumladan, psixik hodisalarning ob'ektiv sabablari bilan belgilanishi haqidagi ta'limot targ'ibotchisi hamdir.

Nemis mutafakkiri Leybnits (1646-1716), ingliz faylasufi Jon Lokk (1632-1704), ingliz tadqiqotchisi Gartli (1705-1757), fransuz adibi Didro (1713-1784) kabilar g'oyalari assotsiatsiyasi (bog'lanishi) qonuni, idrok va tafakkurning paydo bo'lishi, qobiliyatlar psixologiyasi haqida muhim ta'limotlarini yaratish bilan fanning rivojlanishiga muhim hissa qo'shdilar.

XVIII asrga kelib Galler, Proxazkalar nerv tizimini tadqiq qilishda ulkan yutuqlarga erishdilar, natijada esa psixika miyaning funksiyasi ekanligi

haqidagi ta'limot vujudga keldi. Ingliz tadqiqotchisi Charlz Bell va fransuz Fransua Majandi tomonidan yozuvchi va harakat nervlari o'rtasidagi tafovut ochib berilib, uning negizida reflektor yoyi degan yangi tushuncha paydo bo'lib, bularning natijasida ixtiyoriy (ongli) va ixtiyorsiz (ongsiz) reflektor turlari kashf qilindi.

Avstriyalik shifokor F.Gall (1758-1828) odam miyasining tuzilishini juda mukammal o'rganib, miyaning frenologik xaritasini yaratdi. U bosh miya katta yarim sharlarining kulrang va oq moddasini bir-biriga bog'liq bo'lgan alohida tuzilmalar ekanligini birinchilardan bo'lib aniqladi. F.Gall bosh miya po'stlog'ida 40 ga yaqin ruhiy funksiyalarni joylashtirdi va ularni miyaning pushtalari (bo'rmalar) bilan bog'ladi. U harakat, ko'ruv, eshituv va sezgi markazlari bilan birgalikda miyada xotira, tafakkur, sevgi, kamtarlik, donolik, ayyorlik markazlarini joylashtirdi. O'ta qobiliyatli odamlarning miyasidagi pushtalar kuchli rivojlangan, botiq va chuqur bo'ladi, kimning fikrlashi sust bo'lsa, uning miyasi silliq bo'ladi, degan fikrni ilgari suradi.

Yuqoridagi ilmiy kashfiyotlar ta'sirida rus olimi I.M.Sechenovning (1829-1905) reflektor nazariyasi ro'yobga chiqdi va ushbu nazariya psixologiya fanining fiziologik asoslari, mexanizmlari, bosh miya reflekslarining o'ziga xos xususiyatlari tabiatini ochib berish imkoniyatiga ega bo'ldi. Bu muhim nazariy qoidalar I.P.Pavlov (1849-1936) tomonidan tajriba yo'li bilan tasdiqlandi. U hayvon va odamning tashqi muhit bilan o'zaro harakati miya tomonidan boshqarilishi qonuniyatlarini kashf etgan edi. Olimning ushbu qonuniyatlariga nisbatan barcha qarashlari odatda ikki xil signal tizimi haqidagi ta'limot deb ataladi.

XIX asming o'rtalarida psixologiyaning rivojlanishida katta o'zgarishlar yuz berib, Mesmer gipnoz (yunoncha - "uyqu" degan ma'noni anglatib, fanga ushbu tushunchani 1843 yili angliyalik jarroh Jeyms Bred kiritgan.) haqidagi ta'limot yaratadi. Gipnozda kuzatiladigan barcha hodisalarni Mesmer "magnetizm" bilan bog'laydi. Keyinchalik fransiyalik olim J.M.Charkott (1888) gipnoz asosida fiziologik jarayonlar yotadi deb uqtiradi. Mazkur davrda mashhur nevrologlar va psixiatrlar (J.Sharko, Benedikt, Forel, Levenfeld, Mapassan, S.S.Korsakov, Mebius) bemorni gipnoz usuli bilan davolashni keng yo'lga qo'yishadi.

1879 yili Leypsigda birinchi psixologik laboratoriya tashkil qilgan Vilgelm Vundt (1832-1920) psixologiyaning strukturaviy maktab yo'nalishiga asos soladi. Vundt psixologiyaning asosiy vazifasi sifatida ong jarayonini qismlarga ajratish va ular o'rtasidagi qonuniyat bog'lanishlarni o'rganish taklifini kiritadi.

Venalik yosh shifokor Zigmund Freyd (1856-1939) psixologiya sohasida katta shov-shuvga sabab bo'lgan psixoanalitik maktab yo'nalishiga asos soladi. Z.Freyd odam psixik hayotining markaziga ongni qo'yish o'miga, uni ozgina

qismi suvning tepasiga chiqib turgan aysbergga qiyosladi. U shu davrgacha hukmronlik qilib kelgan odamga o'z xulqini anglay oladigan aqlli mavjud sifatida qarashlarga mutloqo zid bo'lgan nazariyani ilgari suradi. U odamlar doimiy ziddiyat holatida bo'lishini va nizolarning sababini anglanilmagan jinsiy, agressiv mayllar bilan bog'liqligini e'tirof etadi. Z.Freyd o'zining 40 yillik samarali ilmiy faoliyati davomida shaxsning birinchi keng ko'lamli nazariyasini, o'zining terapevtik tajribasi va o'zini o'zi tahlil qilishga asoslangan klinik kuzatishlarning keng miqyosli tizimini, nevrotik buzilishlarni davolashning o'ziga xos usulini, boshqa hiech qanday usul bilan o'rganib bo'lmaydigan psixik jarayonlarni tadqiq qilish usullarini yaratib, freydizm yo'nalishiga asos soladi.

Z.Freyd fiziologlar (I.M. Sechenov, I.P. Pavlov) hamda nevropatolog va psixolog olimlarning (Ernest Krehmer, Emil Krepelin, Eygen Bleyler) ilmiy ishlarini ham o'rganadi. U isterik nevrozlarning kelib chiqishida I.P.Pavlovning tormozlanish va qo'zg'atish jarayonlari haqidagi ta'limotini yuqori baholaydi. Uning dastlabki safdoshlari va shogirdlari A.Adler va K.G.Yunglar nevrozlarning kelib chiqishiga oid o'z nazariyalarini ilgari surib, Freydcha yondoshuvni kengaytirishga harakat qilishdi. A.Adler fanda individual psixologiya g'oyasini ko'tarib chiqib, shaxsning ijtimoiy determinantlariga alohida e'tibor beradi. K.G.Yung esa o'z e'tiborini analitik psixologiyaga qaratib, shaxsning psixik salomatligiga erishish uchun uning turli yo'nalishdagi intilishlari o'zaro mutanosiblikdagi bir butunlikda jamlanishi kerak, degan fikrni isbotlaydi.

O'tgan asrning birinchi yarmida E.Krehmer (1888-1964) "Tibbiyot psixologiyasi" asarini yozadi va tibbiyot psixologiyasini alohida fan sifatida rivojlanishiga sababchi bo'ladi. U mazkur fanni barcha tibbiy, falsafiy va biologik fanlar yutug'iga asoslanib o'rganish zarurligini ta'kidlaydi. Krehmer tibbiyot psixologiyasida va psixoterapiyada odam ruhiyatining shakllanishida va buzilishida asosan tug'ma konstitutsional omillarga katta e'tibor berdi.

Psixologiya fanining eksperimental, psixoanalitik, bixevioristik, empirik, epifenomenalistik, geshtalt, assotsiativ, vyursburg, psixogenetik, reduksionizm, solipsizm, gumanistik, biogenetik, sotsiogenetik kabi yo'nalishlari tomonidan to'plangan ma'lumotlar hozirgi zamon psixologiyasini vujudga keltirdi.

6.3. Psixika va ong

Psixik (ruhiy) hodisa insonning shaxsiy g'oyalarini, hissiy kechinmalarini, sezgi va idrok jarayonlarini o'zi kuzatish jarayonida aks etuvchi voqeyelikdangina iborat emas. Balki u refleks singari tashqi qo'zg'atuvchilarning ta'sirini va unga javoban bildiriladigan harakat

reaksiyasini ham o'zida mujassamlashtiradi. Ma'lumki, I.M.Sechenovgacha bo'lgan psixologik, fiziologik nazariyalarda insonning ongida obrazlar, tasavvurlar, mulohazalar, g'oyalar tarzida aks ettiriluvchi hodisalarni psixologiya fanining predmeti sifatida tan olinar edi. Lekin bu psixologik voqeyelik I.M.Sechenov tomonidan organizmning muhit bilan o'zaro ta'sir harakatining alohida shaklidan iborat ekanligi, psixologik yaxlit jarayonning ayrim holatlari, uning lahzalari tariqasida tushuntirildi. Psixologiyada tan olib kelinayotgan psixik jarayonlar ongning ichida tug'iladi va uning ichida yakunlanadi, degan g'oya I.M.Sechenov tomonidan inkor qilinadi, asossiz da'vo ekanligi ta'kidlanadi.

Psixikaning reflektor tabiati, xususiyati to'g'risida rus olimi I.M.Sechenov va uning shogirdlari tomonidan to'plangan materiallar asos hisoblanadi. I.M.Sechenovning "Bosh miya reflekslari" nomli asarida "ong va ongsiz hayotning barcha harakatlari ro'y berish usuliga ko'ra reflekslardan iboratdir" deydi. Uning fikricha, psixik hodisa sifatida ongning harakati tanasiz ruhning xususiyatiga emas, vujudga kelish usuliga, tuzilishiga binoan refleksga o'xshash xislatga ega bo'lgan jarayondir.

I.M.Sechenovning fikricha, psixik hodisa yaxlit reflektor harakat tufayli yuzaga keluvchi va uning mahsuli bo'lishi bilan birga ham vujudga kelmagan, lekin ta'sir o'tkazish ehtimoli mavjud kutilmadan boxabar qiluvchi omil funksiyasini ham bajaradi, ya'ni ilgari ketuvchi bashorat vazifasini ijro etadi. Bunday dadil ilmiy mushohadalar psixik jarayonlar unuman qanday rol o'ynashi mumkinligi, ularning o'rni to'g'risida tasavvurga ega bo'lish uchun moddiy negizni vujudga keltiradi. Psixik jarayonlar organizmda signal va boshqaruv (regulyativ) funksiyasini ijro etib, o'zgaruvchan shart-sharoitlarga harakatni moslashtiradi, shuningdek, mazkur daqiqada yuqori samaraga erishishni ta'minlaydi. Psixik jarayon miyaning bo'lmalari (tarkibiy qismlari) funksiyasi tariqasida tashqi olam (borliq) to'g'risidagi axborotning qabul qilinishi, saqlanishi, qayta ishlanishini o'zida mujassamlash-tiruvchi javob faoliyatining idora qiluvchisi hisoblanadi. Shuning uchun odamlarning bilimlari borliq to'g'risidagi tasavvurlari, shaxsning shaxsiy tajribalarining yig'indisi reflektor harakat tarkibiga kiradi. Shunday qilib, psixik hodisalar deganda miyaning tashqi (qurshab turgan olam) va ichki (fiziologik tizimdagi organizmning holati) ta'sirlarga javobini tushunmoq kerak.

Shuni ta'kidlab o'tish joizki, I.M.Sechenov psixikaning reflektorligi va faoliyatning psixik jihatdan boshqarilishi ta'limotini xaspo'shlab berdi. Bu ta'limot ya'ni nazariya rus olimi I.P.Pavlov (1849-1936) tomonidan eksperimental tasdiqlandi va xususiy holatlarda keng ko'lamda yaqqollashtirildi. I.P.Pavlov ham odamlarning, ham hayvonlarning tashqi muhit bilan o'zaro harakati miya bilan boshqarilishi qonuniyatini ochgan edi. Uning mazkur qonuniyatlarga taalluqli qarashlari yig'indisi birinchi va

ikkinchi signallar tizimi to'g'risidagi ta'limot tariqasida fan olamida muhim o'rin egalladi.

Tevarak-atrof muhitidagi narsa va hodisalarning ko'rinishi, eshitilishi, hid tarqatishi, tovlanishi, yengil yoki og'irligi, qattiq yoki yumshoqligi kabilar hayvonlar uchun *shartsiz qo'zg'atuvchi signal* bo'lib xizmat qiladi, keyinchalik ular *shartli refleks*ga aylanishi mumkin. Hayvonlar o'z xatti-signallari ("birinchi signallar")ga rioya etadilar. Binobarin, ularning psixik faoliyati birinchi signallar sistemasi bosqichida amalga oshadi va unga uzluksiz ravishda amal qiladi. Inson faoliyati va xulq-atvori uchun ham birinchi signal sistemasining signallari (yaqqol, tasavvurlar, timsollar, obrazlar) ularni boshqarishi, yo'naltirishi, harakatlantirishi faollashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, yo'l (ko'cha) qoidalari, avtomobil, elektrovoz signallari, havf-xatar belgilari shaxs uchun muhim rol o'ynaydi. Shuni unutmashlik kerakki, insonning xulq-atvorini signal qo'zg'atuvchilar mexanik ravishda boshqarmaydi, balki mazkur *qo'zg'atuvchilarning miyaga o'rnatilgan timsollari, ya'ni signallari boshqarib turadi*. Muayyan timsolga ega bo'lgan timsollar narsa va hodisalar to'g'risida signal jo'natadi, buning natijasida insonning xatti-harakatini boshqarib turadi.

Odamlarda hayvonlardan farqli o'laroq, birinchi signallar sistemasi bilan bir qatorda ikkinchi signallar sistemasi ham mavjuddir. Ikkinchi signallar sistemasining signallari odamlar tomonidan talaffuz etilgan, qabul qilingan, eshitilgan, o'qilgan tushunchalar va so'zlardan ("ikkinchi signallari"dan) tashkil topadi. Odatda birinchi signallar sistemasining signallari timsoliy signallar, o'z navbatida so'zlar bilan almashtiriladi, uzatiladi. So'z birinchi signallar sistemasi signallari o'rni bosishi, umumlashtirishi va ular vujudga keltiradigan jamiki xatti-harakatlarni amalga oshirishi mumkin. Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqqan miyada aks etishi deb baholash mumkin.

Psixikaning moddiy asoslari to'g'risida fikr yuritilganda, eng avvalo, u miyaning xususiyati ekanligini ta'kidlash lozim. Organizmning psixik faoliyati tananing ko'p miqdordagi a'zolarining yordami bilan ishga tushadi. A'zolarining ba'zi birlari ta'sirotlarni qabul qilsa, boshqalari ularni signallarga aylantiradi, xatti-harakatlarning rejasini tuzadi hamda uning amalga oshirishini nazorat qiladi. Shuningdek, ularning bir guruhi xatti-harakatga kuch-quvvat, g'ayrat, shijoat baxsh etadi, yana bir turi esa mushaklarni, paylarni harakatlantiradi. Mana shunday murakkab funksiyaning yig'indisi (majmuasi) organizmning tashqi muhitga moslashuvini, unga muvofiqla-shuvini, hayotiy vazifalar ijro etilishini, bajarilishini ta'minlaydi.


Organik olamning mikroorganizmdan to'nsonga qadar bir necha o'n million yil davom etgan evolyusiyasi davomida xatti-harakatlarning, xulq-

atvorning fiziologik mexanizmlari uzluksiz ravishda murakkablashib, tabaqalanib, buning oqibatida organizm muhitning o'zgarishlariga tez reaksiya qiluvchan, moslashuvchan xususiyat kasb etib borgan.

Jumladan, bir hujayrali amyobaning hayot kechirishi uning ozuqa qidirish imkoniyati, o'z hayotini muhofaza qilish qobiliyati muayyan darajada cheklangandir. Undagi yolg'iz hujayraning o'zi ham sezuvchi, ham harakatlanuvchi, ham ovqat hazm qiluvchi vazifalarni ijro etadi. Murakkab tuzilishga ega bo'lgan hayvonlarda a'zolarining ixtisoslashuvi ozuqani ko'rish, uni farqlash, xavf-xatarni tez sezish, aniq mo'ljal olish imkoniyatini beradi. Ixtisoslashuvning asosiy funksiyasi signallarni idrok qilishdan iborat xujayralarning vujudga kelishida o'z aksini topadi. Mazkur hujayralar yig'indisi retseptor deb nomlanadi. Hujayralarning boshqalari mushak to'qimalari ishini, bezlarning shira ajratishini nazorat qiladi. Bunday hujayralar effektorlar deyiladi. Ixtisoslashuv a'zolarini hamda funksiyalarni bir-biridan ajratadi. Organizmning asosiy boshqaruv imkoniyati yaxlit narsa sifatida harakat qiladigan markaziy nerv sistemasi vositasi bilan erishiladi.

Nerv sistemasining asosiy tarkibiy qismlari nerv hujayralari (neyronlar) hisoblanib, ularning funksiyasi qo'zg'atishdir. *Neyron hujayra tanachasidan, dendritdan, aksondan tashkil topadi*. Markaziy nerv sistemasi bosh miya va orqa miyadan iborat.

Hozirgi zamon fanining ko'rsatishicha, *orqa miya va miya naychasi reflektor faoliyatining tug'ma (shartsiz reflekslar) hisoblangan shakllarni amalga oshiradi*, katta yarim sharlarning qobig'i esa hayotda orttirilgan, psixika yordami bilan boshqariladigan xulq-atvor shakllarining organi sanalanadi.



6.3.1-rasm. Bosh miya va uning tuzilmasi

Miya katta yarim sharlari faoliyatining umumiy qonunlari I.P.Pavlov tomonidan kashf etilgan. Hozirgi zamon fiziologiyasi ma'lumotiga qaraganda,

miyada hosil bo'ladigan to'lqinlar turli chastotadagi elektromagnit tebranishlariga o'xshab ketadi. Miyada elektroensefalogramma ko'rinishdagi kuchaytirgich yordamida yozib olish mumkin bo'lgan elektr toklari paydo bo'lishining kashf etilishi muhim ahamiyatga ega.

Odam bosh miyasi, miya katta yarim sharlarining ixtisoslashgan funksiyalarining mavjudligi haqidagi ma'lumotlar quyidagi jadvalda keltirilgan.

№	Chap yarim shar	O'ng yarim shar
1.	Xronologik tarkib	O'tayotgan vaqt
2.	Xarita va chizmalarni o'qish	Aniq makon
3.	Nomlarni, izlarni belgilarni yodda saqlab qolish	Tasavvurlar, aniq voqealarni yodda saqlab qolish
4.	Nutq faoliyati mohiyatini his etish	Emotsional holatni idrok etish
5.	Olamni xursandchilikda osoyishta ko'rish	Olamni qamgin holda ko'rish
6.	Batafsil idrok qilish	Yaxlit idrok qilish

Odamning psixik hayotida katta yarim sharlar qobig'i sirtining peshona qismlari alohida rol o'ynaydi. Psixik funksiyalar chap va o'ng yarim sharlar o'rtasida taqsimlanadi. Ma'lumki, *psixikaning mazmuni tirik mavjudot o'zaro munosabatda bo'ladigan tashqi olam bilan belgilanadi.* Psixik va nerv-fiziologik jarayonlarning o'zaro munosabati masalasi murakkab muammolardan hisoblanadi. Psixikaning o'ziga xos xususiyatlari nerv-fiziologik xususiyatlaridan qanday muhim belgilari bilan farqlanishini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Agarda mazkur o'ziga xoslik mavjud bo'lmaganida edi, u holda psixologiya mustaqil bilim sohasi sifatida tadqiq etilishi ham mumkin emas edi. Psixik jarayonlar o'zida ichki, fiziologik jarayonlarning emas, balki tashqi ob'ektlarning tavsifini mujassamlashtiradi.

Psixikada o'tmishning, hozirgi davr va kelasi zamonning hodisalari ifodalangan, tartibga solingandir. O'tmish hodisalari inson xotirasida mujassamlashtirib, shaxsiy tajribalarda namoyon bo'ladi. Hozirgi zamon aqliy jarayonlar, hissiy kechinmalar, obrazlar va tasavvurlar majmuasida ifodalanadi. Kelajak esa turtkilarda, maqsad, ezgu niyatlarda, shuningdek, fantaziya, vijdon azobi, armon va tushlarda aks etadi. Inson psixikasi ham anglanilmagan, ham anglanilgan xususiyatga ega bo'lib, anglanilmagan psixika o'z navbatida hayvon psixikasidan sifat jihatidan keskin tafovutga va ustuvorlikka ega.

Psixikaning insonda paydo bo'lishi sifat jihatdan mutlaqo yangi tuzilishga ega, chunki u ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotning qonuniyatlari bilan shartlangandir. Faoliyat regulyasiyasining yuksak darajasi sifatida ong vujudga

keladi, psixika faolligining yuksak ko'rinishi manbai tariqasida esa shaxs shakllanadi.

Insonning ongi ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot mahsuli bo'lish bilan birga, u mehnat faoliyatida, ijtimoiy tajribani o'zlashtirishda, hamkorlikdagi o'zaro ta'sirda, tabiatga, jamiyatga nisbatan munosabatlar mohiyatida vujudga kelgan. Buning mahsuli, shakli sifatida individual, guruhiy, etnik (milliy) ijtimoiy ong namoyon bo'lgan va ularning barchasi taraqqiyot tufayli o'zining yangi bosqichlariga o'sib borib, fan, texnika yaralishiga puxta zamin hozirlagan.

Ong psixikani yaxlit tarzda ifodalovchi yuksak shakli, ya'ni faqat odamgagina tegishli bo'lib, u nutq bilan bog'liq bo'lgan markaziy nerv sistemasi faoliyatidir. Shuningdek, *ong* shaxsning tevarak-atrofdagi narsalarni, hozirgi va o'tmish davmi yaxshi bilish, o'zlikni anglash, qaror qabul qilish, vaziyatga qarab o'z xatti-harakatini boshqarish qobiliyati bilan namoyon bo'ladi.

Psixologik manbalarda *ongning tarkibiy qismlarining mohiyati* quyidagicha tavsiflanadi:

Ong - narsa va hodisalar haqidagi bilimlar majmuasidan iborat bo'lib, uning tuzilishi tarkibi barcha bilish jarayonlari (diqqat, sezgi, idrok, xotira, tasavvur, tafakkur, nutq, xayol) kirib, ular yordami bilan shaxs o'z axborotlari ko'lamini uzluksiz ravishda boyitib boradi. Bunda bilish ikki xil *hissiy va aqliy* bosqichda namoyon bo'ladi.

Ongning ikkinchi psixologik tavsifi sub'ekt bilan ob'ekt o'rtasidagi aniq farqlanishda o'z ifodasini topishi, ya'ni shaxs "Men" degan tushunchasi bilan "Men emas" atamasi tarkibiga nimalar tegishli ekanligini aniq bilishi bilan izohlanadi. Shaxs tirik mavjudotlar olamida birinchi bo'lib borliqda real uni qurshab turgan tevarak-atrofga nisbatan o'zini qarama-qarshi qo'yadi va ong yordamida o'z-o'zini anglaydi.

Ongning uchinchi psixologik tavsifi shaxsning maqsadni ko'zlovchi faoliyatini ta'minlashga yo'naltirilgan. Bunda shaxs faoliyatining turli xususiyatli motivlari ehtiyojlar asosida yuzaga kelishi, ular inson tomonidan chamalab chiqilishi, buning natijasida motivlar kurashi namoyon bo'lishi, bu o'rinda ustuvorlikka erishish yetakchilikni ta'minlashi, irodaviy zo'r berish oqibatida muayyan qaror qabul qilinishi, harakatlarni bajarishning izchilligi qay yo'sinda amalga oshirilayotgani hisobga olinishi, maqsadni qaror toptirish yo'lidagi to'siqlar bartaraf etilishi va unga muayyan o'zgarishlar kiritilishi, samaradorlikni oshirish uchun ba'zi bir tuzatishlar amalga oshirilishi nazarda tutiladi.

4. *Ongning so'nggi tavsifi* uning tarkibiga muayyan darajadagi emotsional (hissiy) munosabatlar tizimi qamrab olinganligini aks ettiradi. Shaxs ongiga turli-tuman his-tuyg'ular, kechinmalar, stress, affekt holatlar to'g'risidagi axborotlar oqimi kirib kela boshlaydi. Shaxsning boshqa

kishilarga, tabiatga, jamiyatga, narsalarga nisbatan munosabatlari mavjud mezonlarga asoslansa, muayyan qoidalarga bevosita amal qilinsa ongning nazorat funksiyasi me'yorda ekanligidan dalolat beradi.

Odamda ong asta-sekin rivojlana boradi. Yangi tug'ilgan bolada ong bo'lmaydi, lekin u ruhan va jismonan taraqqiy etgan sari rivojlana boradi va takomillashadi. Ongga yuqori darajali izchillik xosdir. U doim jadalligi, chuqurligi va kengligi bilan boshqa bilish jarayonlaridan farq qiladi. Odam hayotining turli davrlarida — o'smirlik, o'rta yosh, qarilik chog'ida ong turli ko'rinishda bo'lsa-da, u bir butundir.

Odam tanasi faqat tashqi olamdan (ko'ruv, eshituv, hid bilish) dan emas, balki tanasining ichki a'zolaridan ham ta'sirov yetkazuvchi retseptorlar orqali ma'lumot olib turadi, lekin ular ongda aks etmaydi. Tashqi olamdan axborot olish va o'zini-o'zi anglash doimo ongda aks etib turadi. Ana shu jarayonlar natijasida odam o'z his-tuyg'ulari, sezgilari, xohishlari, ehtiyojlarini atrof-olam vaziyatlari bilan taqqoslaydi. Bu ongning eng muhim funksiyasidir.

Psixofiziologlar ongga bosh miya po'stlog'ining funksiyasi deb ta'rif berishadi. Ularning fikricha, bosh miya po'stlog'i va birinchi galda ikkinchi signal sistemasi ong uchun, uning rivojlanishi hamda saqlanib qolishi uchun hal etuvchi o'rin tutadi. Miya ustuni retikulyar formatsiyasi ham ong jarayonida muhim o'rin tutadi. Retikulyar formatsiya ongga ta'sir o'tkazadi, uyqu va tetiklikni idora etadi. Ikkinchi signal sistemasi ongga xos bo'lgan o'z-o'ziga hisobot berishni ta'minlansa, ong faoliyat ko'rsatishi uchun zarur bo'lgan po'stloqning tetiklik holati retikulyar formatsiyaning faoliyati bilan uzluksiz bog'langandir.

Z.Freyd yaratgan psixonaliz to'g'risidagi nazariya inson ruhini bir muz tog'iga qiyoslaydiki, go'yo uning ustki, oltidan bir qismi ong bo'lsa, suv ostida ko'rinmay yotgan oltidan besh qismi — *ong ostidagi jarayonlardir, ya'ni ongsizlikdir*. Psixanaliz fani o'z oldiga ongdan yashirinib yotgan chuqur psixologik jarayonlarning sir-asrorini ochishni maqsad qilib qo'yadi va shu yo'l bilan nevrozni keltirib chiqaruvchi omillarni o'rganadi. Z.Freyd "yashirinib" yotgan psixologik jarayonlarni ongsiz jarayonlar deb ataydi.

Ongsizlik bu shunday holatki, bunda odam ixtiyorsiz tarzda, o'zi bilmasdan yoki anglamasdan turli xatti-harakatlarni amalga oshiradi. Bu xatti-harakatlar avtomatik tarzda kundalik hayotda, uyquda, ya'ni tush ko'rayotganda yoki gipnotik holatlarda kuzatilib turadi. Ongsizlik, tabiiyki, ongga bog'liq bo'lmagan holat.

Z.Freydning ta'бири bilan aytganda, ongdan siqib chiqarilgan odamning tabiiy instinktlari ong ostida joy topadi. Ongsizlik tug'ma xususiyat bo'lib, insonning barcha xatti-harakatlarini belgilab beradi.

Z.Freyd fikricha ongsizlik:

- tushda;

- bilmay gapirib yuborishda;

- ongsiz unutishda;

- xulq va nutqda xato qilishda;

- o'zimizdagi tushkunlik va xafachilikni hazil yordamida bartaraf qilishda;

- kinoya gaplarda;

- gipnotik yoki sarhush (mast) holatlarda ifodalanadi.

Ongsizlikni Z.Freydning psixanaliz haqidagi ta'limoti o'rganadi.

Psixanaliz ta'limotining yaratilishiga asosan bolalar psixologiyasi, nevrozlar klinikasi va psixoterapiya usullari turtki bo'lgan. Psixanaliz o'rganadigan asosiy yo'nalishlardan biri — shaxsning seksual rivojlanishidir. Z.Freyd nevrozlarning kelib chiqishini o'zi yaratgan psixoseksual nazariyaga asoslanib tushuntirib beradi.

6.4. Psixologiyaning asosiy tamoyillari (prinsiplari), ilmiy tadqiqot metodlari, tarmoqlari

Psixologiyaning asosiy prinsiplari determinizm, ong va faoliyat birligi, psixikaning faoliyatda rivojlanishi bo'lib ular quyidagicha izohlanadi:

1. *Determinizm* (lot. *determinata-belgilayman degan ma'noni bildiradi*) prinsipi tabiat va jamiyat hodisalari, xususan, psixik hodisalarning ob'ektiv sabablar bilan belgilanishi haqidagi ta'limotdir. Bunda psixika va ongning ob'ektiv borliq hamda nerv sistemasi bilan belgilanishi tushuniladi. Shuning uchun determinizm psixikaning turmush tarzi bilan belgilanishini va turmush tarzi o'zgarishiga qarab u ham o'zgarishini anglatadi.

2. *Ong va faoliyat birligi* prinsipini psixologiya fanida ong bilan faoliyat bir-biriga qarama-qarshi voqeyelik emas, ular aynan bir-biriga o'xshash ham emas, biroq ular bir butunlikni tashkil etishi bilan izohlanadi. Faoliyat o'zining tuzilishi bo'yicha ichki va tashqi tarkiblariga ega bo'lib, unda voqeyelik tashqi ifodasi bilan ajralib turadi. Ong bo'lsa faoliyatning ichki rejasini tuzadi, uning dasturiy jihatini aks ettiradi. Real vaqtlarning o'zgaruvchan modeli ongda paydo bo'lib, odam atrof-muhit bilan munosabatga kirishganda undan mo'ljal oladi. Faoliyat ong yordamida amalga oshadi va o'z navbatida ong mazkur jarayonda takomillashib, rivojlanib boradi.

3. *Psixika va ongning faoliyatda rivojlanishi* prinsipi psixik taraqqiyot insonning mehnat faoliyatiga, ta'limga, o'yin va muloqot faoliyatiga bog'liq ekanligini aniqlashdan dalolat beradi. Ijtimoiy tajribani o'zgartirish jarayonining yuz berishi shaxs uchun psixik taraqqiyotning shakli sifatida xizmat qilib, dasturiy bilimlarni egallashga mustahkam zamin hozirlaydi. Har qaysi faoliyat turi inson psixikasini rivojlantirish manbai va mexanizmi rolini bajaradi.

Psixologiya ham mustaqil fanlar singari o'z predmetining mohiyatini yoritish, ma'lumotlar to'plash uchun maxsus usullar va vositalardan foydalanadi va ular metodlar deb yuritiladi.

6.4.1-jadval

PSIXOLOGIYANING ASOSIY METODLARI

ASOSIY METODLAR	Asosiy metodlarning variantlari
KUZATISH	Tashqi (ob'ektiv kuzatish) Ichki (sub'ektiv, o'z-o'zini kuzatish) Erkin kuzatuv Standartlashtirilgan Guruh ichida kuzatish Guruh tashqarisida kuzatish
SO'ROV	Og'zaki so'rov Yozma so'rov (anketa) Erkin so'rov (suhbat) Standartlashtirilgan so'rov
FAOLIYAT MAHSULLARINI TAHLIL QILISH	Bolalar faoliyat mahsulini tahlil qilish Kattalar faoliyat mahsulini tahlil qilish
TEST	Test - so'rov Test - topshiriq Proektiv test Sotsiometrik test
EKSPERIMENT	Tabiiy eksperiment Laboratoriya eksperimenti
BIOGRAFIYA (TARJIMAI HOL) METODI	
MODELLASHTIRISH	Matematik modellashtirish Mantiqiy modellashtirish Texnik modellashtirish Kibernetik modellashtirish

Kuzatish metodi tabiiy metodlar jumlasiga kirib, bunda tashqi kuzatuv mohiyatan kuzatiluvchi xulq-atvorini bevosita tashqaridan turib kuzatish orqali ma'lumotlar to'plash usuli bo'lsa, o'z-o'zini kuzatish esa odam o'zida kechayotgan biror o'zgarish yoki hodisani o'zi o'rganish maqsadida ma'lumotlar to'plashdir.

Erkin kuzatuvda ko'pincha biror ijtimoiy hodisa yoki jarayonni o'rganish maqsad qilib qo'yiladi. Masalan, dars jarayonida ta'lim oluvchilarning u yoki bu mavzu yuzasidan umumiy munosabatlarini bilish uchun ham ba'zan erkin kuzatish tashkil etilishi mumkin. *Standartlashtirilgan kuzatuv* esa, buning aksi

bo'lib, nimani, qachon, kim va kimni kuzatish qat'iy belgilab olinadi va maxsus dastur asosida kuzatuv olib boriladi.

Psixologiyada guruhij jarayonlarning shaxs xulq-atvoriga ta'sirini o'rganish maqsadida bevosita *ichkaridan kuzatuv* tashkil qilinadi, bunda kuzatuvchi shaxs o'sha guruh hayotiga tabiiy ravishda qo'shiladi va zimdan kuzatish ishlarini olib boradi. Shu yo'l bilan olingan ma'lumotlar bir tomondan tabiiyligi va mufassalligi bilan qimmatli bo'lsa, ikkinchi tomondan, agar kuzatuvchida konformizm xislati kuchli bo'lsa, o'zi ham guruh hayotiga juda kirishib ketib, undagi ayrim hodisalarni sub'ektiv ravishda takrorlaydigan bo'lib qolishi ham mumkin. Guruhij fenomenlarni *tashqaridan kuzatish* buning aksi – ya'ni kuzatuvchi guruhga yoki kuzatilayotgan jarayonga nisbatan chetda bo'ladi va faqat bevosita ko'zi bilan ko'rgan va eshitganlari asosida fikr-mulohaza yuritadi.

Kuzatish metodining ijtimoiy hayot, professional ko'rsatkichlarni qayd qilishda so'zsiz afzalliklari bor, lekin shu bilan birga kuzatuvchining professional mahorati, kuzatuvchanligi, sabr-qanoatiga bog'liq bo'lgan jihatlari, yana to'plangan ma'lumotlarni sub'ektiv ravishda tahlil qilish xavfi bo'lgani uchun ham biroz noqulayliklari yuzaga kelishi mumkin. Shuning uchun ham kuzatish boshqa metodlar bilan birgalikda ishlatiladi.

So'rov metodi ham psixologiyaning barcha tarmoqlarida birlamchi ma'lumotlar to'plashning an'anaviy usullaridan biri bo'lib, unda tekshiriluvchi tekshiruvchi tomonidan qo'yilgan qator savollarga muxtasar javob qaytarishi kerak bo'ladi.

Og'zaki so'rov oddiygina qilib, suhbat metodi deb ham ataladi. Suhbat o'tkazadigan shaxs unga ma'lum darajada tayyorgarlik ko'rgach so'rov o'tkazadi. Agar so'rovchining professional mahorati yoki tajribasi bunga yetarli bo'lmasa, so'rov o'z natijalarini bermasligi, aksincha bo'lsa esa ushbu metod yordamida inson ruhiy kechinmalariga aloqador bo'lgan noyob ma'lumotlarni to'plash imkoniga ega bo'ladi.

Yozma so'rov yoki anketaning afzalligi shundaki, uning yordamida bir vaqtning o'zida ko'pgina odamlar fikrini o'rganish mumkin bo'ladi. Unga kiritilgan savollar, ulardan kutiladigan javoblar (yopiq anketa), yoki erkin o'z fikrini bayon etish imkoniyatini beruvchi (ochiq anketa) so'rovnoma aniq va ravon tilda, javob beruvchilar tushunish darajasiga monand tuzilgan bo'lsa, qimmatli birlamchi materiallar to'planadi.

So'rovning ham *erkin* va *standartlashtirilgan* shakllari mavjud bo'lib, birinchisida oldindan nimalar so'ralishi qat'iy belgilab olinmaydi, ikkinchi shaklida esa, hattoki, dastur ishlab chiqilib, minglab odamlarda bir xil talablar doirasida so'rov o'tkazilishi nazarda tutiladi.

Faoliyat mahsulillarini tahlil qilish metodi inson xotirasi, tafakkuri, qobiliyati va xayolining xususiyatlarini aniqlash maqsadida psixologiyada

keng qo'llaniladi. Ijodiy faoliyat mahsullariga sxema, ixtiro, asbob-uskunalar, referat, kurs va malakaviy bitiruv ishlari, magistrlik dissertatsiyasi, ilmiy ma'ruza, konspekt, taqriz, tezis, maqola, ko'rsatmali qurollar (bolalarning chizgan rasmlari, yasagan o'yinchoqlari) kabilar kiradi.

Test (ing. sinash, tekshirish) metodi yordamida biror o'rganilayotgan hodisa xususida ham sifat, ham miqdor karakteristikalarini olish, ularni ko'pchilikda qayta-qayta sinash va ma'lumotlarni korrelyasion analiz orqali ishonchlilikka tekshirish mumkin. Testga qo'yilgan talab hech qachon o'zgarmaydi, hattoki, shunday testlar borki, ular turli millat va elat vakillarida, turli davrlarda ham o'zgarishsiz holda ishlatiladi (masalan, Ravenning aqliy intellektni o'lchash, Kettelning va Ayzekning shaxs testlari).

Testning so'rov shaklida oldindan qat'iy tarzda qabul qilingan savollarga javob berish talab qilinadi (masalan, Ayzekning 57 ta savoldan iborat testi shaxsdagi introversiya - ekstroversiyani aniqlab, undagi savollarga "ha" yoki "yo'q" tarzida javob berish so'raladi).

Test-topshiriqda esa odam xulqi va holatini amalga oshirgan ishlari asosida baholash tushuniladi. Bunday testlarga shaxsning kreativligini aniqlash maqsadida sinaluvchiga tugallanmagan shakllardan o'zi xohlagancha rasmlar chizish imkoniyati beriladi. Chizilgan rasmlarning o'ziga xos va betakrorligiga qarab shaxs fikrlashi jarayoniga baho beriladi, miqdoriy ko'rsatkich aniqlanadi. Mazkur metodlarning afzalligi ularni turli yosh, jins va kasb egalari nisbatan qo'llashning qulayligi, bir guruhda natija bermasa, boshqa guruhda yana qayta tekshiruv o'tkazish imkoniyatining mavjudligidir. Kamchiligi - agar sinaluvchi testning mohiyatini yoki kalitini bilib qolsa, natijalar sun'iy xarakterga ega bo'lib qoladi.

Testning *proektiv (loyiha)* turida uning asl maqsadi tekshiriluvchiga sir bo'ladi. Bunda tekshiriluvchi o'zining qaysi xislati yoki holati, yoki jarayoni tekshirilayotganidan bexabar bo'ladi. Masalan, mashhur Rorshaxning "siyoh dog'lari" testi, assotsiativ (tugallanmagan hikoyalar), ekspressiv (psixodrama, o'yinlar, ishbilarmonlik o'yinlari, ijtimoiy treninglar, erkin mavzuda rasm chizish) kabi testlarda bir narsaning loyihasidan go'yoki ikkinchi bir narsaning mohiyati aniqlanadi.

Sotsiometrik test kichik guruh a'zolari o'rtasidagi bevosita emotsional munosabatlarni o'rganish va ularning darajasini o'lchashda qo'llanilib, unga amerikalik sotsiolog Djon Moreno asos solgan. Mazkur test yordamida muayyan guruhdagi har bir a'zoning o'zaro munosabatlarini aniqlash uchun, uning qaysi faoliyatida kim bilan qatnashishi so'raladi.

Ekspiriment metodining psixologiyada ikki turi: laboratoriya eksperimenti va tabiiy eksperiment tafovut qilinadi.

Laboratoriya eksperimentida tekshiruvchi kishi tekshiriladigan psixik hodisani qachon kerak bo'lsa, o'sha vaqtda ataylab vujudga keltiradi. Bunda

tekshirilayotgan psixik hodisa tabiiy sharoitda birgalikda sodir bo'ladigan boshqa psixik hodisalar eksperiment mobaynida o'zgartirilishi, boshqa psixik hodisalar bilan muayyan bir tarzda bog'lanishi, kuchi, tezligi, hajmi va boshqa shu kabi jihatlari o'lchab ko'rilishi mumkin. Psixik hodisalarning qonuniyatlari yaxshiroq aniqlanishi mazkur metodning yutug'i sanaladi. Bu metodni o'tkazishda maxsus metodik materiallar - narsa, rasm va so'zlar, maxsus asboblardan foydalaniladi.

Tabiiy eksperiment kuzatish va laboratoriya eksperimenti metodi o'rtasida turadi. Tabiiy eksperimentda tekshiruvchi kishining o'zi tekshiriladigan kishida yoki kishilarda psixik jarayon (masalan, xotira, diqqat, tasavvur) hosil qilish yoki tekshiriladigan kishilarda individual xususiyatlarni namoyon etish uchun maxsus sharoit tug'diriladi.

Biografiya (tarjimai hol) metodi yordamida inson hayoti, faoliyati, ijodiyoti to'g'risidagi og'zaki va yozma ma'lumotlar o'rganiladi. Bunda kishilarning tarjimai holi, kundaligi, xatlari, esdaliklari, o'zgarishlar ijodiga bergan baholari, tanbehleri, taqrizlari alohida o'rin egallaydi.

Modellashtirish metodi kuzatish, so'roq, eksperiment yoki boshqa usullar yordamida olingan natijalar qoniqtirmagan vaziyatda qo'llaniladi. Bunda o'rganilayotgan hodisani umumiy xossasi yoki asosiy parametrlari modellashtirilib, o'sha model asosida tadqiqotchini qiziqtirgan jihat o'rganiladi va xulosalar chiqariladi (V.M.Karimova "Psixologiya" 2002).

Har bir metodni o'z vaqtida va professional tarzda qo'llay bilish va olingan natijalardan to'g'ri xulosalar chiqara olish muhim ahamiyatga egadir.

Psixologiya fanini muayyan tarmoqlarga bo'lishda aniq, yaqqol faoliyatining psixologik tomoni, insonning jamiyatga nisbatan psixologik munosabati, taraqqiyotining psixologik jihatlari asos qilib olinadi. Psixologiyani hozirgi kunda 300 dan ortiq tarmoqlari mavjud ularning ayrimlariga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Umumiy psixologiya - umumiy psixologik qonuniyatlar, mexanizmlar, murakkab ichki bog'lanishlar, nazariy va metodologik prinsiplar, ilmiy tadqiqot metodlari, psixikaning filo va ontogenetik o'zgarishlarini, ilmiy tushunchalar va kategoriyalar, bilish jarayonlarini amaliy va nazariy jihatdan o'rganadigan sohadir.

Ekspirimental psixologiya - eksperimental metodlar yordamida psixik hodisalarni tadqiq qilishning umumiy sohasi. Psixologiya fan sifatida falsafadan ajralib chiqishida eksperimental tadqiqotlar o'tkazish asosiy rol o'ynagan. XIX asrning o'rtalarida psixologik hodisalar ustidan ilk bor amaliy eksperimental-psixologik tadqiqotlar o'tkazilgan. Bu tadqiqotlar eksperimental psixologiyani falsafa va fiziologiyadan mustaqil, alohida fan sifatida vujudga kelishiga muhim asos va ob'ektiv shart-sharoit yaratib berib, uni fan sifatida ajralib chiqishiga V.Vundt o'zining katta hissasini qo'shgan.

Mehnat psixologiyasi – insonning mehnatga munosabati, mehnat faoliyatining qonuniyatlari va rivojlanishini tadqiq qiladigan psixologiya sohasi. Mehnat psixologiyasining ob'ekti ishlab chiqarishda va mehnatda shaxsning faoliyati bo'lib, uni ishdan bo'sh vaqtining, dam olishining ishlab chiqarishga ta'sirini ham o'rganadi.

Pedagogik psixologiya – tarbiya va ta'lim muammolarini hamda shaxsning maqsadga muvofiq rivojlanishi, bilish faoliyatining va shaxsda ijtimoiy ijobiy sifatlarini tarbiyalashning psixologik muammolarini o'rganadi. Pedagogik psixologiyaning maqsadi – o'qitishning oqilona rivojlantiruvchi ta'sirini shart-sharoit va boshqa psixologik faktorlardan kelib chiqqan holda kuchaytirishdir.

Tibbiyot psixologiyasi – bemorlarning davolanishi, gigiena, profilaktika, diagnostika jihatlarini tadqiq qiluvchi psixologiya sohasi bo'lib, unda tadqiqotlar tizimiga kasalliklarning kechishi, ularning shaxs psixologiyasiga ta'siri qonuniyatlari, insonning kasallikdan sog'ayishiga mikroijtimoiy guruh ta'siri o'rganiladi. Tibbiyot psixologiyasi o'z ichiga insonning psixologiyasiga ijobiy ta'sir qiluvchi va shu bilan davolanishni tezlashtiruvchi, ijobiy davolash muhitini tashkil qilishga qaratilgan *psixoterapiya*, psixik hodisalar bilan miyaga fiziologik tuzilishlar o'rtasidagi nisbatni o'rganadigan soha – *neyropsixologiya*, dorivor moddalarning kishi psixik faoliyatiga ta'sirini tekshiradigan soha – *psixofarmakologiya*, bemorlarni davolash uchun psixik jihatdan salomatligini ta'minlash chora-tadbirlari tizimini ishlab chiqish bilan shug'ullanuvchi soha – *psixoprofilaktika*, shuningdek, *psixogigiena*, *klinik psixologiya*, *patopsixologiya*, *somatopsixologiya* kabi tarmoqlarni qamrab oladi. Tibbiyot psixologiyasining asosiy muammosi kasallikni davolashning inson psixologiyasiga ta'sirini tadqiq qilishdir.

Yosh psixologiyasi – shaxsning psixik rivojlanish qonuniyatlarini inson tug'ilishidan to umrining oxirigacha bo'lgan davrni, ya'ni ontogenezni o'rganadigan psixologiya sohasi bo'lib, bolalar psixologiyasi, o'smirlik va o'spirinlik psixologiyasi, yetuklik psixologiyasi, gerontopsixologiyadan iboratdir.

Maxsus psixologiya – normal psixik rivojlanmagan tug'ma yoki keyinchalik orttirilgan nuqsonlar, defektlar ta'siri ostidagi insonlarning psixologiyasini tadqiq qilish sohasi bo'lib, uning bir necha bo'limlari mavjud: *patopsixologiya* – rivojlanish jarayonida psixikaning aynishi, miyadagi kasallikning turlicha kechishi, psixikaning tamoman izdan chiqishi hollarini o'rganuvchi soha; *oligofrenopsixologiya* – psixik rivojlanishning miyadagi tug'ma asoratlari bilan bog'liq patologiyasi to'g'risida tadqiqot ishlarini olib boruvchi soha; *surdopsixologiya* – quloq eshitishning butunlay kar bo'lib qolgunga qadar jiddiy kamchiliklari, nuqsonlari bilan shug'ullanuvchi, bolani voyaga yetkazishning omilkor yo'l-yo'riqlarini topuvchi, qorreksion-tuzatish

ishlarini olib boruvchi soha; *tiflopsixologiya* – chala ko'ruvchi va mutlaqo ko'zi ojiz odamlarning psixologik rivojlanishini tadqiq qiluvchi soha. Maxsus psixologiyaning yana o'ziga xos tor bo'limlari ham mavjud bo'lib, insonlarning kasalligi, nuqsoni, aql-idrok darajasi, nutq faoliyati patologiyasiga binoan tadqiqot ishlarini olib boriladi.

Differensial psixologiya – shaxslar o'rtasidagi tafovut va farqlarni hamda guruh a'zolari orasidagi nomutanosibliklarning psixologik tomonlarini, ya'ni psixologik farqlarini o'rganuvchi psixologiya sohasi.

Psixofiziologiya – odamlarning individual psixologik va psixofiziologik farqlarini tadqiq qiluvchi, psixikaning genetikasini o'rganuvchi psixologiya sohasi.

Boshqaruv psixologiyasi – jamiyatda faoliyat ko'rsatayotgan shaxslar, guruhlar va jamoalar o'rtasidagi ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan nazorat, baholash, munosabat qonuniyatlarini, rahbar faoliyati va xarakteri, qobiliyati xususiyatlarini tadqiq qiladigan ijtimoiy psixologiyaning sohasi.

Parapsixologiya – hozirgi zamon fanining chegarasidan tashqaridagi, tushuntirish qiyin bo'lgan ekstrosensorika – o'ta sezuvchanlik, telepatiya – fikrni masofaga uzatish, kelajakka bashorat qilish va shu kabi psixik hodisalarni o'rganadi. Parapsixologiyaga nisbatan qiziqish qadimdan mavjud bo'lib, unga nisbatan ixlos to'lovchi hozirgi kungacha kamaygani yo'q, goho uni *psixotronika* deb ham atashadi. Shuningdek, parapsixologiyaning *xiromantiya* – qo'l kaftiga qarab fol ochish, inson kelajagi va uning taqdiri haqida oldindan bashorat qilishdan iborat noilmiy sohasi; *sprilizm* – o'lgan odamlar arvohlari, ruhlari bilan aloqa o'rnatish mumkin, ular hamisha barhayot va biz bilan muloqotga muhtoj, degan g'oyani ilgari suruvchi sohalari mavjud.

Salomatlik psixologiyasi – psixogigiena va psixoprofilaktika, turmush darajasining infratuzilmasini oshirish masalalari bilan shug'ullanadi.

6.5. Psixologiyaning fanlar tizimida tutgan o'rni


Psixologiya yaxlit va mustaqil fan sifatida kishilar ongida gumanistik mentalitetning shakllanishiga xizmat qilgani uchun ham uning ushbu yo'nalishdagi muammolari ma'lum ma'noda o'rganadigan barcha fanlar bilan bevosita aloqasini muhim ahamiyat kasb etadi. Bular birinchi navbatda ijtimoiy-gumanitar fan sohalari bo'lib, psixologiyaning ular orasidagi mavqeyi o'ziga xos va yetakchidir.

Quyidagi 5.5.1-rasmda psixologiyaning boshqa fanlar bilan o'zaro aloqasi zamonaviy ketma-ketligi tartib bilan yoritilgan. Fan sifatida psixologiya avvalo, "ijtimoiy gumanitar", so'ngra "tabiiy, aniq va texnika" va eng oxirida "iqtisodiyot" blokidan o'rin olgan bir qator fanlar bilan o'zaro aloqada faoliyat yuritadi.

Eng avvalo fanni falsafa va uning oxirgi paytlarda shakllanib, rivojlanib borayotgan ijtimoiy falsafa qismi bilan bo'lgan aloqasi xususida. Bu aloqa ikkala fanning inson va uning hayoti mohiyatini to'la anglash va rivojlanib jamiyat va inson tafakkurining rivojlanishiga oid bo'lgan umumiy qonuniyatlar va tamoyillarni psixologiya falsafaning bazasidan oladi va shu bilan birga o'zi ham inson ongi va tafakkuri qonuniyatlari sohasidagi yutuqlari bilan falsafani boy ma'lumotlarga ega bo'lishiga yordam beradi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, mustaqillik mafkurasi va milliy ongning shakllanishiga taalluqli umumiy ilmiy qonuniyatlarni izlashda ham yurtimiz sharoitida bu ikkala fan – falsafa va psixologiyaning hamkorligi bevosita sezilmoqda. Bu bog'liqlik avvalo yangicha tafakkur va dunyoqarashni shakllantirish muammosi kundalang turgan tarixiy davrda milliy istiqlol g'oyalarini yurtdoshlarimiz ongi va shuurida shakllantirish kabi dolzarb vazifani bajarishga xizmat qilmoqda.

Psixologiya va tarix

Psixologiya va tarix fanlarining uzviy bog'liqligi ayniqsa, mustaqillik yillarida tarixni xolisona o'rganish va shu bilan birga inson shaxsining madaniy-tarixiy shart-sharoitlarga bog'liq tarzda rivojlanishi ayniyatini xalq ommasi ongiga yetkazishda namoyon bo'lmoqda. Yurtboshimiz I.Karimov o'zining "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" nomli asarida tarixning xalqlar taqdiri va rivojlanishidagi rolini obyektiv tarixiy omillar orqali tushuntirishning ahamiti va o'ri katta ekanligini ta'kidlash bilan bir qatorda, ana shu tarixni yaratuvchi inson psixologiyasini har bir davrda xolisona o'rganish zaruratini alohida alohida e'tirof etgan. Zero, inson ruhiyati va u vakil bo'lgan xalq va elat psixologiyasi orqali tarixiy voqyealarga baho berish milliy istiqlol g'oyalarini yoshlar ongiga singdirishning muhim vositalaridan biridir. Masalan, xalqimiz va davlatchiligimiz tarixida muhim o'rin tutgan temuriylar davri tarixini o'rganish uchun albatta, biz Buyuk Temur shaxsi va temuriyzodalarning insoniy fazilatlarini o'rganishimiz kerak. Ayniqsa, maktab yoshida tarixiy shaxslardagi takrorlanmas va ibratli sifatlar orqali o'sha davr tarixiy muhiti va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni tushuntirish ancha samarali va ta'sirchandır. Shuning uchun ham tarixchi va arxeologlar u yoki bu davrni yoritish uchun o'sha davr ijtimoiy qatlamlari, mashhur shaxslari avtobiografiyasini o'rganishga katta ahamiyat bersalar, psixologlar, ayniqsa, ijtimoiy psixologlar katta guruhlar psixologiyasi va shaxsning ma'naviy va ahloqiy qiyofasini to'la o'rganish uchun shaxs mansub tarixiy shart-sharoitlar, xududiy o'ziga xosliklarni ham o'rganadilar. Shuning uchun ham



5.5.1- chizma. Psixologiyaning boshqa fanlar bilan aloqasi

mustaqillikning inson shaxsi kamolotiga berayotgan cheksiz in'omlarini tasavvur qilish uchun biz tariximizni va istiqloq yillarida qo'lga kiritgan muvaffaqiyatlarimizning ob'ektiv zaminlarini yaxshi o'rganishimiz kerak. Shundagina "O'zbekiston – kelajagi buyuk davlat" shiorining tom ma'nodagi mohiyatini teran anglaymiz.

Psixologiya va sotsiologiya

Sotsiologiya fani ham yangicha ijtimoiy munosabatlar sharoitida o'z taraqqiyotining muhim bosqichiga o'tgan ekan, o'z navbatida psixologiya ham ushbu fan erishgan yutuqlardan foydalanadi va ularning ko'lami kengayishiga baholi qudrat xizmat qiladi. Ayniqsa, psixologiyadan mustaqil ravishda ajralib chiqqan, bugungi taraqqiyot davrimizda alohida ahamiyat kasb etgan ijtimoiy psixologiyaning sotsiologiya bilan aloqasi uzviy bo'lib, ular jamiyatda ijtimoiy taraqqiyot va progressni ta'minlash ishiga xizmat qiladi. qolaversa, huquqiy, demokratik davlat qurish ishini sobitqadamlik bilan amalga oshirayotgan O'zbekiston aholisining huquqiy madaniyatini va demokratik o'zgarishlarga psixologik jihatdan tayyorligini amalda ta'minlash, bu sohada muntazam tarzda ijtimoiy fikr va insonlar fikr va qarashlaridagi o'zgarishlarni o'rganish, bashorat qilish va taraqqiyot mezonlarini ishlab chiqishda ikkala fanlar metodologiyasi va metodlarini birlashtirish tadbqiqiy ahamiyat kasb etadi.

Psixologiya va pedagogika

Pedagogika bilan psixologiyaning o'zaro hamkorligi va aloqasi an'anaviy hamda azaliy xarakter kasb etib, ularning yosh avlod tarbiyasini zamon talablari ruhida amalga oshirishdagi roli va nufuzi o'ziga xosdir. Respublikamizda amalga oshirilayotgan "Ta'lim to'g'risidagi qonun" hamda "Kadrlar tayyorlashning milliy Dasturi"ni amalga oshirish ham bu ikkala fan hamkorligi va o'zaro aloqasini har qachongidan ham dolzarb qilib qo'ydi. Milliy dasturda e'tirof etilgan yangicha modeldagi shaxsni kamol toptirish, uning chuqur bilimlar sohibi bo'lib yetishishi, barkamolligini kafolatlovchi shart-sharoitlar orasida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta'lim-tarbiya jarayonlariga tadbqiq etishda pedagogikaning o'z uslub va qoidalari yetarli bo'lmaydi. Shuning uchun ham psixologiya u bilan hamkorlikda yosh avlod ongining ta'lim olish davrlaridagi rivojlanish tendensiyalaridan tortib, toki yangicha o'qitish texnologiyalarini talaba tomonidan o'zlashtirilishi va undagi aqliy hamda intellektual qobiliyatlarga nechog'lik ta'sir ko'rsatayotganligini o'rganish, shu asosda ishni tashkil etish psixologiya metodlarini didaktik metodlar bilan uyg'unlashtirishni taqozo etadi. Ayniqsa, ma'naviy barkamollik tamoyillarini maktabda va yangi tipdagi ta'lim muassasalarida, xususan,

Akademik lisey va Kasb-hunar kollejlari joriy etish ham shaxs psixologiyasini teran bilgan holda o'qitishning eng ilg'or va zamonaviy shakllarini amaliyotga tadbqiq etishni nazarda tutadi.

Psixologiya va tabiiy fanlar

Biologiya, fiziologiya, ximiya, fizika va boshqa fanlar psixik hodisalar va jarayonlarning tabiiy-fiziologik mexanizmlarini tushunish va shu orqali ularning kechishi qonuniyatlarini obyektiv o'rganish uchun material beradi. Ayniqsa, bosh miyaning hamda markaziy asab sistemasining psixik faoliyatlarini boshqarishda va ularni muvofiqlashtirishdagi rolini e'tirof etgan holda psixologiya fani tabiiy fanlar erishgan yutuqlar va ulardagi tadqiqot uslublaridan omilkorona foydalanadi. Masalan, shaxs qobiliyatlarini diagnostika qilish uning tug'ma layoqatlari hamda orttirilgan sifatlarini bir vaqtda bilishni taqozo etgani sababli, o'sha tabiiy layoqatning xususiyatlarini aniqlashda psixofiziologiyaning qator usullaridan (miya assimetriyasi qonunlari, miya bioritmlarini yozib olish, neyrodinamik hodisalarni aniqlash, qon aylanish va tana haroratini o'lchash metodlari) o'z o'mida foydalanadi va psixologiya, anatomiya, fiziologiya, neyrofiziologiya kabi fanlarning shu kungacha erishgan yutuqlaridan foydalanadi. Shuning uchun tabiiy fanlar sohasida erishilgan barcha yutuqlar psixologiyaning predmetini mukammalroq yoritishga o'z hissasini qo'shgan.

Psixologiya va kibernetika

Kibernetika fani sohasidagi erishilgan yutuqlar psixologiya uchun ham ahamiyatli va zarur bo'lib, u inson shaxsining o'z-o'zini boshqarish va psixik jarayonlarni takomillashtirish borasida axborotlar texnologiyasi va kibernetika tomonidan qo'lga kiritilgan yutuqlar va tadqiqot metodlari, maxsus dasturdan o'z o'rnida foydalanadi. Ayniqsa, ma'lumotlar asri bo'lgan XX va har bir alohida ma'lumotning qadr-qimmatini oshishi bashorat qilingan XXI asrda global informasion jarayonlar va yangi ilg'or texnologiyalarni modellashtirish borasida psixologiya hamda kibernetika hamkorligining salohiyati yanada ortadi. Masalan, oddiy muloqot jarayonini yanada takomillashtirish, har bir so'zning shaxslararo munosabatlardagi ta'sirchanligini oshirish maqsadida hamda ana shunday ijtimoiy faoliyat jarayonida shaxs tizimini takomillashtirishda turli kibernetik modellaridan o'rinli foydalanish zamonaviy psixologiyaning jamiyatdagi o'rni va rolini oshiradi, maxsus kompyuter dasturlarining keng qo'llanilishi inson miyasi va ruhiy olami sirlarini tez va aniq o'rganishni kafolatlaydi.

Psixologiya va texnika fanlari

Texnika fanlari bilan psixologiyaning o'zaro aloqasi va hamkorligi ayniqsa, asr oxiriga kelib yaqqol sezilmoqda. Bir tomondan murakkab texnikani boshqaruvchi inson ongi muammosini yechishda, ikkinchi tomondan, psixik hayotning murakkab qirralarini ochishda maxsus texnik vositalardan foydalanish zarurati bu ikki yo'nalishning erishgan yutuqlarini birlashtirishni nazarda tutadi. Masalaning yana bir alohida tomoni ham borki, u ham bo'lsa, texnika progressiga intilayotgan bir vaqtda murakkab texnika va mashinalar bilan "muloqot" qilayotgan shaxs faoliyatini yanada mukammallashtirish va uning imkoniyatlariga moslash masalasi ham ana shu hamkorlikda hal qilinishi lozim bo'lgan masaladir. Ayniqsa, mustaqil O'zbekiston uchun murakkab zamonaviy texnika sir-asrorlarini biladigan, uning jamiyat va fan ravnaqiga xizmatini ta'minlash qanchalik dolzarb bo'lsa, ana shu texnikaga har bir oddiy fuqaro ongi, tafakkuri va qobiliyatlarini moslashtirish va "odam - mashina" dialogining eng samarali yo'llarini izlab topishi juda muhim. Texnika bilan bemalol "tillashadigan" malakali mutaxassislar tayyorlash borasida ham texnika fanlari pedagogika va psixologiya fanlari metodlaridan foydalana olsagina, muvaffaqiyatga erishadi.

Psixologiya va iqtisodiyot

Iqtisodiyot bilan psixologiyaning o'zaro aloqasi va hamkorligi ham XX asrning yangiliklaridan bo'lib, ayniqsa, bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o'tish sharoitida iqtisodiy ong, iqtisodiy tafakkur hamda iqtisodiy xulqning o'ziga xos namoyon bo'lish qonuniyatlarini o'rganishda ikkala fan ham tenglikda xizmat qiladi. O'zbekiston Prezidenti I.Karimov mustaqillikning dastlabki yillaridayoq fuqarolarda, birinchi navbatda, yoshlarda yangicha iqtisodiy tafakkur shakllanishining jamiyat iqtisodiy taraqqiyotidagi ahamiyatiga e'tiborni qaratgan edilar. Demak, yangi davr shaxsini tarbiyalash va uning jamiyatga moslashuvi masalasida psixologiya iqtisodiyot fanida qo'lga kiritgan yutuqlar, yangiliklar va iqtisodiy samaraga erishish omillarini hisobga olsa, iqtisodiyot o'z navbatida iqtisodiy islohotlarning ob'ekti hamda sub'ekti bo'lmish inson omilidagi barcha psixologik o'zgarishlarni aniqlash, tahlil qilish va shu asnoda bashorat qilish vazifasini yechishi kerak. Bundan tashqari, menejment, marketing, boshqaruv sohasidagi har bir izlanish, xoh u iqtisodchi tomonidan amalga oshiriladimi, xoh psixologlar tomonidanmi, baribir, ishlab chiqarishning samaradorligini oshirishda shaxsning individual qobiliyatlarini inobatga olish, insonlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning sirlarini mukammal bilish, inson resurslari masalalariga to'g'ri omilkorona yondashishni taqozo etadi. Bu esa o'z

navbatida shaxs va guruhlar psixologiyasini bilish va ishlab chiqarishning iqtisodiy omillarini odam qobiliyatiga muvofiqlashti-rishni nazarda tutadi.

Yuqorida ta'kidlangan fan tarmoqlari psixologiya bevosita uzviy aloqada rivojlanadigan fanlarning asosiy qismi xolos. Bugungi kunda har bir fan rivoji uchun inson omilini hisobga olish zarur ekan, psixologiya o'sha barcha fanlar bilan aloqada va hamkorlikda rivojlanadi. 1-rasmda psixologiya aloqador bo'lgan asosiy fan tarmoqlari aks ettirilgan.

Mazkur fikrlar va psixologiya bevosita aloqador bo'lgan fanlarning xarakteriga suyangan ravishda bugungi kunda psixologiyadan ajarialib chiqqan alohida tarmoqlar to'g'risida ham fikr yuritish mumkin.

6. 6. Amaliy psixologiyaning bugungi kundagi holati va istiqbollari

Sanoat va ishlab chiqarish sohasi

Sanoat va mahsulotlar ishlab chiqarish sohasida tadbqiqiy ishlar birinchi navbatda konkret tashkilotda kadrlar zahirasini to'g'ri va oqilona tashkillashtirishdan tortib, xodimlar ish sharoitlari va mehnat unumdorligiga ta'sir etuvchi omillar kompleksini ilmiy ravishda o'rganib, hayotda natija olishga qaratilgan harakatlar majmuidir. Hozirgi bozor munosabatlari sharoitida ushbu yo'nalishdagi tadbqiqiy ishlarning ikki sohasini ajratish mumkin:

- marketing xizmatlari;
- xodimlar (personal) bilan ishlash.

Birinchisi eng zamonaviy va muhim ish bo'lib, bu yerda psixologning vazifasi «Nimani?» va «Kim?» xarid qilib olishga ehtiyoji borligini o'rganishga ko'maklashishdir. Chunki talab bilan ehtiyoj bevosita shaxsiga va uning psixologik munosabatlari tizimiga aloqador kategoriyalar bo'lib, bozor va raqobat sharoitida korxonalar yoki tashkilotlarning samarali ishlab ketishi eng avvalo xaridorgir tovar mahsulotlarni ajratib, ularning odamlar talab - ehtiyojiga qanchalik mosligini aniq tahlil qilishdan boshlanadi.

Marketing munosabatlari aslida odamlar o'rtasidagi sof psixologik munosabatlar bo'lib, uning negizida odamlar o'rtasidagi jonli muloqot, ta'b va did tarbiyasi yotadi. Shuning uchun biz bugun odamlarda to'g'ri marketing tafakkurini shakllantirish vositalarini qidirishimiz va talab - taklif munosabatlarini real ishlab chiqarish imkoniyatlari bilan muvofiqlashtirishda inson psixologiyasi ho'susiyatlarini inobatga olib ishlashga o'rganishimiz kerak. Masalan, shunday «Case Study»ni olaylik: Psixologiyani qanday qilib sotish mumkin? (ya'ni, Psixologik ma'lumotlar va bilimlarni) Biz aniq va to'g'ri javoblar olishimiz kerak bo'lgan savollar quyidagilar bo'ladi:

Nima sotiladi? - test natijalari.

Nima uchun? - nima qilib bo'lsa ham, pul ishlash, o'z imkoniyatlarni tekshirish, shaxsiy ish ochish.

Kim? - firma yoki konkret kishilar.

Nima? - xilma - xil testlar batareyasi.

Kimga? - turli kasb egalari, o'quvchilarga, xodimlarga.

Qaerda? Qachon? - zarurat bo'lgan har qanday joyda.

Qanday qilib? - minimal vaqt sarflab, tez va soz.

Qancha? - test o'tkazuvchilarning soni va imkoniyatiga qarab.

Kim bilan? - shu firma xodimlari bilan.

Demak, marketing xizmatida javob berilishi zarur bo'lgan savollardan ko'rinib turibdiki, har bir savolga beriladigan javobning o'rtasida konkret odamlar, ularning qobiliyatlari, manfaatlari va ish unumi yotadi. Shuning uchun bu sohada psixologik xizmat zarur.

Ikkinchi soha - kadrlar va ular bilan bevosita ishlash sohasi. Bu - kadrlarni ishga jalb etishda bilish zarur bo'lgan qobiliyatlar va shaxsiy fazilatlaridan tortib, ularni to'g'ri yo'naltirish, o'z joyiga qo'yish, tashkilot doirasida guruhlarini shakllantirish, xodimlarga ma'lumotlarni o'z vaqtida yetkazish bilan bog'liq kadrlar siyosatini olib borishga aloqador xizmatdir. Psixolog bu o'rinda asosan maslahatchi - konsultant va ekspert sifatida rol o'ynaydi.

Siyosat sohasidagi psixologiya

Har bir davr o'z kishilari ongida beixtiyor siyosiy ongni shakllantiradi va odamlar uning tamoyillariga bo'ysunadilar. Siyosat borasidagi psixologik masalalarga psixolog aralashuvining zarurati har doim bo'lmasa - da, ayrim paytlarda - yirik islohotlar boshlanishi arafasida, saylov oldi kompaniyalarda, yangi siyosiy liderlarning halq tomonidan qabul qilinishi jarayonlari, ko'pchilik auditoriyaga zarur ma'lumotlarni yetkazish, ijtimoiy ustanovkalarni o'zgartirish, siyosiy arboblarning imidjini omma ongiga singdirish paytlarida psixologik ta'sir vositalaridan o'rinli foydalanish, maslahatlar berish va ayrim guruhlar e'tiqodiga ta'sir etish zarur bo'lganda kerak bo'ladi.

Siyosiy sohada ishlayotgan psixolog ishining o'ziga xos jihatlari bo'lib, unga quyidagilar kiradi:

a) siyosatda psixolog aralashuvi ko'pchilik ommaga bevosita aloqador bo'lmaydi;

b) zarurat tug'ilganda, psixolog shunday tez va ishonchli o'Ichaydigan metodikalarni ishlatadiki, ularning natijalari sir saqlanib, o'sha buyurtmachi - siyosatchining talabiga ko'ra izlanishlar olib boriladi;

v) psixolog har bir siyosatchi uchun shunday ishonchli shaxs bo'lishi lozimki, undan odamlarning qayfiyatlarini, reaksiyalari, his - kechinmalari ho'susida aniq ma'lumotlar so'raladi;

g) o'ziga xos qiyinchilik shundan iboratki, jamoatchilik psixolog qiyofasida ko'pincha liderning bevosita «odamini» ko'rishga moyil bo'lib, liderning o'zi ham ba'zan o'ta professional psixologdan hadiksirab qolishi mumkin. Shuning uchun yuqorida ta'kidlaganimizdek, zarur paytlarda siyosiy arboblarning psixolog xizmatiga murojaat qilishlari va undan asosan biror jiddiy ijtimoiy proektlarni qabul qilish jarayonida yordam berishini so'rash mumkin. Buning uchun psixologdan jamoatchilik fikrini psixologik tahlil qilib berish, va shu asosda fuqarolarning ustanovkalari va kayfiyatlariga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni birgalikda ajratish vazifasini hal qilishlari mumkin.

Saylov oldi kompaniyalarda esa, psixologning asosiy vazifasi odamlarning kayfiyatini o'rgangan holda da'vogar imidjini shakllantirishga, odamlarning yoqtirishiga sabab bo'ladigan shaxsiy fazilatlar algoritmini tuzish, omma oldiga chiqishga psixologik tayyorlash, raqiblarning bahslashish madaniyati va etikasi borasida psixologik yo'l - yo'riq va usullar borasida ma'lumotlar almashinish kerak bo'ladi.

O'zbekiston sharoitida siyosiy psixologiyaning juda sust rivojlangan tarmoq bo'lgani sababli ham uni rivojlangan davlatlar tajribasiga tayangan holda rivojlantirish muhimdir.

Oila va nikoh borasidagi tadbiqiy ishlar

O'zbekistonda endi shakllanayotgan, lekin nazariy nuqtai nazardan ma'lum an'analarga ega bo'lgan sohadir. 1998 yilning Prezidentimiz tomonidan «Oila yili» deb e'lon qilinishi joylarda psixologik xizmat o'choqlarining paydo bo'lishiga va bu joylarda psixologik xizmatdan foydalanishni anglashga turtki bo'ldi. Shuning uchun Respublikamizda oila muamolarini maxsus tadqiq etadigan ilmiy-amaliy «Oila» markazi ham tashkil etilganki, bu markazda turli sohaga aloqador mutaxassislar oilani shaxs ijtimoiylashuvining asosiy maskanlaridan biri sifatida o'rganib kelmoqdalar. Mazkur sohada ishlayotgan psixolog joylarda yoshlardagi oila va nikoh borasidagi tasavvurlarning to'g'ri shakllanishidan tortib, toki muammoli, hattoki, ajrim bo'lgan oila a'zolariga psixologik maslahatlar berish, «ishonch telefonlari» orqali maslahatlar uyushtirishni o'z zimmasiga oladi.

Maorif sohasidagi amaliy ishlar

Boshqa sohalarga nisbatan anchagina yaxshi tajriba to'plangan soha bo'lib hisoblanadi. Ayniqsa, O'zbekistonda kadrlar tayyorlashning Milliy

dasturi qabul qilingandan so'ng tashkil qilingan yangi tipdagi ta'lim muassasalari - akademik litseylar va kasb - hunar kollejlariga bir nechtdan psixologlar shtati kiritilgan va ular aynan tadbqiqiy muammolar - bolaning o'quv jarayoniga psixologik jihatdan tayyorligini diagnostika qilishdan tortib, professional va kasb mahoratini rivojlantirishgacha bo'lgan barcha muammolarni hal qilishga «aralashadi».

Huquqbuzarlikning oldini olish

Bu soha va unga aloqador muammolar har doim ham psixolog aralashuvini talab qilib kelgan. Chunki jinoyatchi yoki huquqbuzar shaxsi o'z-o'zidan shakllanib qolmaydi, uni shakllantiruvchi omillar, motivlar va bolani qayta tarbiyalash va reabilitatsiya masalalari ijtimoiy psixologik jarayonlar mohiyatini bilish va ularga faol ta'sir ko'rsatishni talab qiladi. Shuning uchun ham mamlakatimizda yoshlar o'rtasida huquqiy - ma'rifat va huquqiy madaniyatni shakllantirishga juda katta e'tibor qaratilgan va bu ishda amaliyotchi xodim - psixologning o'rni va roli katta bo'ladi.

Mazkur yo'nalishning dolzarbligidan kelib chiqib, bugungi kunda Respublikamizda huquqbuzarlikning ijtimoiy-psixologik omillarini tadqiq etish va uning oldini olish borasida psixologiya fanlari doktori, professor B.Umarov, psixologiya fanlari nomzodlari ye.Agzamova, psixologiya fanlari nomzodi G'.Normurodov, psixologiya fanlari nomzodi, dotsent M.Axmedova, kabi ko'plab tadqiqotchilar ilmiy izlanishlarni olib bormoqdalar.

Bob yuzasidan nazorat savollari:

1. Psixologiya predmeti, ob'ekti, maqsad va vazifalarini tushuntiring.
2. Psixika xodisalari klassifikatsiyasini bilasizmi?
3. Tibbiyotda psixologik bilimlarga zaruriyat mavjudmi?
4. Mustaqil ta'lim uchun mavzular:
5. Sharq mutafakkirlarining tibbiyot xodimi faoliyatida psixologik bilimlarning ahamiyati haqidagi fikrlari talqini.
6. G'arb olimlarining tibbiyot xodimi faoliyatida psixologik bilimlarning ahamiyati haqidagi fikrlari talqini.
7. Tibbiyot xodimi faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi psixologik omillar.
8. Psixika va uning reflektor tabiatini tushuntiring.
9. Psixikaning moddiy asosini bilasizmi?
10. Ong va ongsizlik tushunchalarini izohlang.
11. Psixologiyaning prinsiplarini tushuntiring.
12. Psixologiyaning qanday tadqiqot metodlarini bilasiz?

13. Psixologiyaning tarmoqlarini izohlang.
14. Psixologiya fanining falsafa tarkibida rivojlangan davrini tushuntiring?

Mustaqil ta'lim uchun mavzular:

1. Psixologiyaning mustaqil fan sifatida taraqqiyot davri masalalari.
2. Z.Freyd asarlarida ong va ongsizlik munosabatlari.
3. Inson ongi ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot mahsuli.
4. Mustaqil ta'lim uchun mavzular:
5. Psixologiyaning rivojlangan fanlar tizimidagi o'rni.
6. Hozirgi zamon psixologiyasi yo'nalishlari.
7. Salomatlik psixologiyasi: fan hamda amaliyot sifatida.
8. Psixodiagnostik metod va metodikalar.
9. Psixologiyaning qisqacha tarixi

7-MAVZU. PSIXOLOGIYADA SHAXS VA JAMIYAT MUAMMOSI. SHAXS FAOLIYATI VA UNING INDIVIDUAL-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Bobning qisqacha mazmuni

Psixologiyada shaxs muammosi va uning taraqqiyotiga ta'sir etuvchi omillar. Psixologiyada shaxs muammosi, shaxs va uning shakllanishi, shaxsni kamol toptirish tushunchasi, biogenetik, sotsiogenetik, psixogenetik konsepsiyalar.

Shaxs faoliyati va uning tuzilishi. Faoliyat va shaxsning faolligi, ehtiyojlar va faoliyat motivlari, qiziqishlar, shaxsning dunyoqarashi, faoliyatning tarkibiy qismlari va turlari.

Shaxsning individual-psixologik xususiyatlari. Temperament haqida tushuncha va uning turlari, temperamentning fiziologik asoslari, temperament va shaxs. Xarakter to'g'risida tushuncha. Xarakterning fiziologik asoslari, xarakter xususiyatlari va xarakter aksentuatsiyasi. Qobiliyatlar haqida tushuncha. Layoqat nishonalari va qobiliyatlar, qobiliyat va intellekt, intellekt ko'pligi nazariyasi (G. Gardner bo'yicha).

7.1. Psixologiyada shaxs muammosi va uning taraqqiyotiga ta'sir etuvchi omillar

Shaxs tushunchasi psixologiyada eng ko'p qo'llaniladigan tushunchalardan biri bo'lib, uni o'rganish fanning asosiy fenomeni sanaladi. Odamga ta'sir qiluvchi barcha tashqi qo'zg'atuvchilar ijtimoiy shart-sharoitlarga, faoliyatning ichki tuzilishi yig'indisi bilan boyitilishi evaziga shaxs degan tushuncha hosil bo'ladi.

Shaxs deb - muayyan jamiyatda yashovchi faoliyatning biror turi bilan shug'ullanuvchi, kishilar bilan normal til orqali munosabatga kirishuvchi ongli individga aytiladi.

Shaxsning eng muhim xususiyatli jihatlaridan biri - bu uning individualligidir. Individuallik insonning shaxsiy psixologik xususiyatlarining betakror birikmasi bo'lib, uning tarkibiga xarakter, temperament, psixik jarayonlar, holatlar, hodisalar, hukmron xususiyatlar yig'indisi, iroda, faoliyati, motivlari, inson dunyoqarashi, iqtidori, har xil shakldagi reaksiyalar, qobiliyatlari va boshqalar kiradi. Shaxsning psixik hodisalarining birikmasini aynan o'xshash tarzda aks ettiruvchi inson mavjud emas. Shaxs o'zining qadr-

qimmati va nuqsonlari bilan ijtimoiy turmushda faol ishtirok etishi bilan, ta'lim va tarbiya yordamida yuzaga kelgan o'zining kuchli va kuchsiz jihatlarini bilan betakror oliy zotdir.

Hozirgi zamon jahon psixologiyasida biologik (tabiiy) va ijtimoiy (ijtimoiy) omil (faktor)ning, voqeyelikning ta'siri ostida shakllangan inson shaxsida ikkita muhim qism bo'lganligini tasdiqlovchi nazariya, ya'ni "ichki psixik" (*yunon. "endo" - ichki*) va "tashqi psixik" (*yunon. "ekzo" - tashqi*) qismlarga ajratiladi, degan g'oya ilgari suriladi. "Endopsixika"da shaxsning psixik tuzilishining ichki qismlari sifatida psixik elementlar va funksiyalarning o'zaro bog'liqligi aks ettirilsa, "ekzopsixika"da esa shaxsning tashqi muhitga nisbatan munosabati, shaxsqa qarama-qarshi bo'lgan barcha jihatlarini, shaxslararo va ob'ektiv munosabati ifodalanadi. "Endopsixika" shaxsning ta'sirlanishi, xotira, tafakkur, xayol kabi bilish jarayonlarining xususiyatlarini, irodaviy zo'r berish xislatlarini, ixtiyorsiz harakatlarini va shu kabi fazilatlarini aks ettirsa, "ekzopsixika" esa o'z tarkibida shaxs munosabatlarining tizimini va uning qiziqishlari, mayllari, ideallari, maslagi, ustunlik qiluvchi, hukmron hissiyotlarini, egallagan bilimlarini, tajribalarini va shu singarilarni qamrab oladi. "Endopsixika" biologik shart-sharoitlarga bog'liq bo'lsa, "ekzopsixika" aksincha, ijtimoiy voqeyeliklar ta'siri ostida yuzaga keladi, tarkib topadi va takomillashib boradi.

S.L. Rubinshteyn bo'yicha shaxs tuzilishi quyidagi ko'rinishga ega:

- yo'nalganlik - ehtiyojlar, qiziqishlar, ideallar, e'tiqodlar faoliyat va xulqning ustuvor motivlari hamda dunyoqarashlarni o'z ichiga oladi;

- bilimlar, ko'nikmalar, malakalar - hayot va faoliyat jarayonida egallanadi;

- individual psixologik xususiyatlar - qobiliyat, xarakter, temperamentlarda ifodalanadi.

Shaxs taraqqiyoti, va uning kamoloti to'g'risida turli xil konsepsiyalar mavjud. Ular inson shaxsini o'rganishda turlicha yondashib, o'z pozitsiyalarini himoya qilib kelmoqdalar. Ular biogenetik, sotsiogenetik va psixogenetik konsepsiyasilardir. Mazkur konsepsiyalar va ularning ayrim nazariyalari haqida to'xtalib o'tamiz.

Biogenetik konsepsiyaga ko'ra inson shaxsining taraqqiyoti biologik faktor, ya'ni nasliy faktor bilan belgilanadi. Bu konsepsiyaga ko'ra, odam psixik faoliyatining shakllarigina emas, balki bu faoliyat mazmuni ham go'yo tug'ilishidan peshonasiga yozib qo'yilgan, odamning psixik taraqqiyot bosqichlari va ularning yuzaga kelish tartiblari avvaldan belgilangan bo'ladi. Biogenetiklar pedagoglardan bolada taqdir yo'li bilan qanday shaxsiy sifatlar yuzaga kelishini bilib turishni, lekin ularning yuzaga kelishiga qarshilik qilmaslikni, aksincha yordam berishni talab qiladilar.

Mazkur konsepsiya namoyondalaridan Zigmund Freyd bo'lib, uning ta'limotiga ko'ra, shaxsning barcha xatti-harakatlari, xulqini tabiiy instinktlar, xususan, jinsiy (seksual) mayliga (libido) bog'liq, deb izohlaydi. Psixoanalitika maktabi asoschisi Z.Freyd ko'p yillik tadqiqotlari natijalariga asoslanib, odam shaxsi va psixikasining bir-biriga uzviy bog'liq bo'lgan 3 ta psixologik tuzilma, yani *id*, *ego* va *super-ego* mavjudligini ta'kidlaydi. "Id" — bu instinktlar ya'ni "U" deb nomlanib, ongsizdir. "Ego" — bu "Men" bo'lib, u esa onglidir. "Super-ego", ya'ni "Oliy-Men" — bu odamni o'rab turgan muhit, jamiyat, din, madaniyat, tarbiya deb izohlaydi. "Super-ego" inson xulq-atvorini "tepadan" nazorat qilib, "Id" hoxish — istaklari, jinsiy mayllarini amalga oshirishga to'sqinlik qiladi. "Id" doimo "Men" va "Super-Men" bilan murosasiz faoliyat ko'rsatadi, chunki ular "Id"ni doimo nazorat qilishga intiladi. "Id" kuchli energiyaga ega bo'lsa-da, "Men" uni ong ostidan suzib chiqishiga yo'l qo'ymaydi. "Id" ning doimo istaklari nazorat ostida bo'lganligi bois, u tajovuzkordir. "Men" nazoratni to'la qo'lga olgunga qadar instinktlar go'yoki odamning hayot tarzini, ya'ni xulq-atvorini belgilab bergan. "Men"ning rivojlanishi odamning hayot tarzini o'zgartirib yuboradi va uning xulq-atvorini nazorat ostiga oladi. Shunga qaramasdan psixoanalitiklar "Id" ga odamning hayot tarzini belgilab beruvchi asosiy manba sifatida qarashadi. "Id" katta energiya egasi bo'lsada, u o'zgarmasdir, "Men" esa rivojlanib boradi. Odam boshqa jonzotlardan aql-zakovatning, ya'ni ongning borligi bilan farq qiladi.

Demak, ong - bu "men" demakdir. Agar odam faqat "Id" ga bo'ysunib yashaganida edi, uning yashash tarzi hayvonlarnikiga o'xshab qolardi. Vaholanki, odam faoliyati ongli jarayondir va u o'z xatti-harakatlarida ham asosan onga tayanadi. Insonni o'z "Men"ini jazolanishi, jarohatlanishi, uyalib qolishi, munosabatning muhim qatnashchisi bo'lishga moyillikni yo'qotib qo'yishi, jiddiy oqibatlar sababchisi, odam o'zi uchun qadrlil insonni yo'qotib qo'yishi qo'rquvi har doim xavotirga soladi va ular nevrotik buzilishga sabab bo'ladi. Z.Freyd talqiniga ko'ra shaxs ushbu xavotirni pasaytirish va ijtimoiy muhitga adaptatsiya qilish, nevrotik holatni oldini olish uchun bir qancha himoya mexanizmlaridan foydalanadi.

Psixologik himoya — sub'ektning mavjud ijobiy holatini saqlashga yunaltilgan jarayon va mexanizmlar tizimidir. Uning ikki xil: yaqin (ijobiy holatni saqlash) va uzoq (ijobiy holatni imkon qadar uzoqroq o'zida ushlab turish) maqsadlari mavjud.

Psixologik himoya mexanizmlari quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

➤ Shaxsning ichki, ya'ni o'z-o'zi bilan yuzaga keladigan konfliktlarni oldini olishga yordam beradi. Hoxish-istak va xulq-atvor me'yorlari o'rtasidagi kurashni oldini oladi.

➤ *Negativ his-tuyg'ular* ta'sirini susaytiradi va ularni bartaraf etishga ko'maklashadi.

➤ Psixik salomatlikni saqlash uchun xavotirni kamaytiradi. Chunki muntazam xavotirda yashash nevroz, depressiya va sog'liqni yomonlashuviga, shaxs tanazzuliga olib keladi.

➤ Shaxs psixikasiga xavf tug'diruvchi, o'zini noadekvat tutishga sabab bo'luvchi, nokonstruktiv reallikni noto'g'ri talqin qiladi.

Hozirgi kunda himoya mexanizmlarining 50 dan ortiq turlari farq qilib, "ularni ikkita umumiy tavsifnomasi mavjud: 1) ongli ravishda reallikdan yuz o'giradi yoki uni noto'g'ri talqin qiladi; 2) odam ularni mavjudligiga shubha qilmasligi sababli ongsiz ravishda harakat qiladi".

Quyida Z.Freyd bo'yicha shaxsning ayrim psixologik himoya mexanizmlari xarakteristikasini ko'rib chiqamiz:

Regressiya — individni stressni bartaraf qilishga urinishda bir muncha soddaroq usullardan foydalanishi. Tang vaziyatlarda bolalikka qaytishi yoki o'zini yosh boladek tutishidir.

Rad qilish — individning atrofdagilar tufayli unga tahdid solayotgan kechinmalardan, ularning mavjudligidan o'zini chetga tortish yo'li bilan himoyalashida namoyon bo'ladigan himoya mexanizmi.

Ratsionalizatsiya — individga o'z muvaffaqiyatsizliklarini haqiqatga yaqinroq oqlab izohlashga imkon beradigan himoya mexanizmi sanaladi.

Reaktiv qurilma (reaksiya shakllanishi) himoya mexanizmi bir xil impuls va hissiyotlarni cheklash, ularga qarama qarshi impuls va hissiyotlarni kuchaytirish yuli bilan xavotirlanish darajasini pasaytirishga imkon beradi.

Samotizatsiya — qiyin vaziyatdan chiqib ketish uchun o'zini bemor sifatida ko'rsatishi, yoki sog'ligi yomonligi bilan fiksatsiya qilishi tushuniladi.

Proeksiya — individ o'zining nojoiz istaklarini va qilmishlarini boshqa odamga tegishli deb hisoblaydigan xavfli himoya mexanizmi hisoblanadi.

Izolyasiya — uyat, aybdorlik, shodlik, qayg'u bilan bog'liq tasavvurlar ular bilan bog'liq affektlardan uzoqlashtiriladi (ajratiladi).

Repressiya (siqib chiqarish) — noxush fikrlarni ong darajasiga yetib borishiga to'sqinlik qiladigan himoya mexanizmi. Bunda ong uchun iztirobli bo'lgan mazmun birmuncha yengilroq narsaga ko'chadi.

Intellektualizatsiya — mavhum, intellektual terminlarni muhokama qilishdan o'zini uzoqlashtirish sifatida tazyiq soluvchi emotsional tang vaziyatdan chiqib ketish uchun o'ziga xos urinishdir.

Sublimatsiya — idning impulslari ijtimoiy ma'qul faollikka yo'naltiriladigan o'rin almashtirish shaklidir.

Aralashtirib yuborish — shaxs xavotiriga sabab bo'lgan ob'ektga nisbatan yuzaga kelgan hislar boshqa ob'ektga yunaltilishini ifodalovchi himoya mexanizmi.

Shaxs himoya mexanizmlari ko'p holatlarda ongsiz jarayon sanalsada, murakkab vaziyatdan chiqib ketishda juda qo'l keladi. Himoya mexanizmlari samara berishi bilan birga ayrim vaziyatlarda aksi bo'lishi ham mumkin. Zamonaviy psixologiyada "norma"da shakllangan himoya mexanizmlarining quyidagi xarakteristikasi ajratib ko'rsatiladi:

➤ himoya adekvatligi (odam ongsiz himoyalangan vaziyatni ongli ravishda qayta muhokama qilishi);

➤ himoyaning o'zgaruvchanligi, qayishqoqligi (tazyikli holatda turli himoya mexanizmlaridan oqilona foydalana olishi);

➤ himoyaning yetukligi (kattalarning proeksiya, rad qilish, introeksiya kabi sodda mexanizmlardan ko'ra intellektualizatsiya, ta'sir o'tkazish, sublimatsiya, ratsionalizatsiya, aralashtirib yuborishdan foydalanishni lozim topishi)

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqqan holda, shuni aytish mumkinki, shaxsning psixologik himoya mexanizmlaridan foydalanishi u uchun ham samarali, ham ayrim vaziyatlarda aksincha ta'sirga ega ekan. Buni teran anglab yetish uchun shaxsda refleksiya shakllangan bo'lishi kerak. Aks holda turli konfliktlarga sabab bo'lishi mumkin. Ulardan odilona foylanish esa psixik salomatlikni saqlashda, shaxslararo munosabatlarda boshqalarda o'ziga nisbatan simpatiya uyg'otishga, turli ko'rinishdagi nizolarni bartaraf etishga va h.ga olib keladi.

Psixoanaliz inson shaxsi taraqqiyotini quyidagi bosqichlarga bo'lib o'rganadi:

1. Oral bosqich (0-18 oygacha bo'lgan davr)

2. Anal bosqich (1-3 yoshgacha bo'lgan davr)

3. Fallistik bosqich (Edip kompleksi) (3-6 yoshgacha bo'lgan davr)

Latent davri (5-6 yoshdan ilk o'smirlik davri) (6-12 yoshgacha bo'lgan davr)

4. Genital bosqich - ilk o'smirlik davri va undan kattalar yoshini o'z ichiga oladi.

Z.Freyd ta'limotining tarafdorlari ham, tanqidchilari ham ko'p bo'lgan. Uning eng yaqin safdoshlari va shogirdlari bo'lmish Alfred Adler va Karl Gustav Yung uning ta'limotini avvaliga qo'llab-quvvatlashdi, keyinchalik undan qisman voz kechib, nofreydizm ta'limotini yaratishdi (A.Adler individual psixologiya, K.G.Yung analitik psixologiya). Ular Z.Freydni tanqid qilishsa-da, aslida ular tanlagan yo'nalish psixoanalizning davomi edi.

Sotsiogenetik konsepsiya shaxsning taraqqiyotini uning atrofidagi ijtimoiy muhitga bog'lab tushuntiradilar. Ularning aytishicha, "odam ijtimoiy muhit nususidir". Sotsiogenetik ham biogenetiklar singari rivojlanayotgan odamning shaxsiy faolligini inkor qiladilar. Odam faqat atrofidagi muhitga

moslashadigan, passiv rol o'ynaydigan mavjudot deb qaraydilar. Mazkur konsepsiya *ijtimoiylashuv, o'rganish, rollar nazariyalarini* yuzaga keltiradi.

Ijtimoiylashuv nazariyasiga ko'ra inson biologik tur sifatida tug'ilib, hayotning ijtimoiy shart-sharoitlarining bevosita ta'siri ostida shaxsga aylanadi.

Rollar nazariyasiga ko'ra jamiyat o'zining har bir a'zosiga status (haq-huquq) deb nomlangan xatti-harakat (xulq)ning barqaror usullari majmuasini taklif qiladi. Inson ijtimoiy muhitda bajarishi shart bo'lgan maxsus rollari shaxsning xulq-atvor xususiyatlarida o'zgaralar bilan munosabat muloqot o'rnatishda sezilarli iz qoldiradi.

AQShda keng tarqalgan nazariyalardan yana biri bu *o'zlashtirish (tajriba va bilimlarni egallash) nazariyasidir*. Mazkur nazariya (E.Torndayk va B.Skinner)ga binoan shaxsning hayoti va uning voqelikka nisbatan munosabati ko'pincha ko'nikmalarni egallash, bilimlarni o'zlashtirishdan iborat bo'lib, uning samarasi qo'zg'atuvchini uzluksiz ravishda mustahkamlab borilishining mahsulidir. Shaxs taraqqiyotida irsiyat va muhitning rolini to'la inkor qilib bo'lmaydi, balki har ikkisining ham ma'lum darajada o'z o'rnini bor. Lekin shaxs taraqqiyotini belgilovchi asosiy omil ta'lim-tarbiya bo'lib hisoblanadi.

Psixogenetik konsepsiya. Psixogenetik konsepsiya (*psixodinamik kognitiv, personal nazariyalar*) boshqa (biogenetik, sosiogenetik) omillarning qiymatini kamsitmaydi, balki psixik jarayonlar taraqqiyotini birinchi darajali ahamiyatga ega, deb hisoblaydi.

Psixologiyaning irratsional (aqliy bilish jarayonlaridan tashqari) tarkibiy qismlari bo'lishi emosiya, mayl va shu kabilar yordamida shaxs xulqini tahlil qiluvchi nazariya psixodinamika deyiladi. Mazkur nazariyaning yirik namoyondalaridan biri amerikalik psixolog E.Eriksondir.

Kognitiv yo'nalishining asoschilaridan J.Piajening intellekt nazariyasida ikkita muhim jihatga ajratilgan, ya'ni, intellekt funksiyalari va intellekt davrlari. U intellektning asosiy funksiyalari uyushqoqlik (tartiblilik) va adaptatsiya (moslashish, ko'nikish) dan iborat bo'lib, intellektning funksional invariantligi deb ta'kidlaydi. J.Piaje shaxsda intellekt rivojlanishini 4 ta davrga ajratadi:

- sensomotor intellekt davri (tug'ilganidan to 2 yoshgacha);
- operatsiyalardan ilgari davr (2-7 yoshgacha);
- konkret operatsiyalar davri (7-8 yoshdan 11-12 yoshgacha);
- rasmiy operatsiyalar davri (11-12 yoshdan kattalar).

Mashhur rus psixologi L.S.Vigotskiy shaxs psixik taraqqiyoti xususiyatlarini o'rganishga muhim hissa qo'shdi. Uning talimoti insonga xos bo'lgan psixik jarayonlar va inson ongining tarixiy rivojlanishiga bag'ishlanadi. Uning fikricha, bolalar psixik taraqqiyoti insoniyat madaniyatini o'zlashtirishi natijasida ro'y beradi. Bunda shaxs shakllanishida talim va tarbiya jarayonlari yetakchi rol o'ynaydi.

L.S.Vigotskiyning fikricha ta'lim jarayoni taraqqiyot jarayoniga mos kelmaydi, ta'lim jarayoni taraqqiyotdan ilgari ketdi va bolalar psixikasining taraqqiy etishini ergashtirib boradi, unga eng yaqin istiqbol ochib beradi deb ko'rsatadi. Vigotskiyning fikricha taraqqiyotning 2 bosqichi bo'lib, ya'ni 1) aktual taraqqiyot bosqichi (katta yoshli kishilar yordamisiz mustaqil harakat qila olish); 2) eng yaqin taraqqiyot zonasi bosqichi (bolalarning katta yoshli kishilar yordami bilan qiladigan hatti-harakatlari) bor. Vigotskiy bolalarning psixik rivojlanishi ayniqsa shu taraqqiyot jarayonida tezroq rivojlanadi deb ko'rsatadi. Taraqqiyotning bu ikki bosqichi bolaning hozirgi vaqtda qanday ekanligini, ya'ni qanday bilim, malaka va ko'nikmalarga, xarakter sifatlariga ega ekanligini va kelajakda bolaning qanday bilim, ko'nikmalarga, xarakter sifatlariga ega bo'la olishini hisobga olish imkonini beradi.

Odam tug'ilganidan boshlab shaxslar qurshovida bo'ladi va u o'zining butun ruhiy imkoniyatlarini ana shu ijtimoiy muhitda namoyon qiladi. Agar insonning ontogenetik taraqqiyoti tarixiga nazar solinsa, bolaning tili chiqmasdan turib, u o'ziga o'xshash mavjudotlar davrasiga tushadi va o'z hayoti taraqqiyotining keyingi bosqichlarida ijtimoiy mulqotning barcha ko'rinishlarining faol ob'ekti va sub'ektiga aylanishi muqarrar. Odam bolasining jamiyatga qo'shilib yashashi psixologiyada *ijtimoiylashuv* yoki *ijtimoiyzatsiya* deb yuritiladi.

Ijtimoiylashuv – inson tomonidan ijtimoiy tajribani egallash, hayot – faoliyat jarayonida uni faol tarzda o'zlashtirish jarayoni bo'lib, bunda har bir shaxsning jamiyatga qo'shilishi, uning normalari, talablari, kutishlari va ta'sirini qabul qilgan holda, har bir harakati va muomalasida uni ko'rsatishi va kerak bo'lsa, shu ijtimoiy tajribasi bilan o'z navbatida o'zgalarga ta'sirini o'tkaza olishdek murakkab jarayondir.

Ijtimoiylashuv jarayonida eng avvalo odamlar o'rtasidagi mulqot va hamkorlikdagi turli faoliyat amalga oshiriladi. Odamga ko'rsatilayotgan tashqi ta'sir oddiy, mexanik tarzda o'zlashtirilmasdan, balki u har bir shaxsning ichki ruhiyati, dunyoni aks ettirish xususiyatlari nuqtai nazaridan turlicha individual tarzda amalga oshadi. Shu sababdan ham bir xil ijtimoiy muhit va ta'sirlar odamlar tomonidan turlicha idrok qilinadi va ularga javoban turlicha harakatlarni keltirib chiqarishga sabab bo'ladi.

Fanda ijtimoiylashuv jarayonlari ro'y beradigan shart-sharoitlar *ijtimoiy institutlar* deb ataladi. Bularga oila, mahalla, bog'cha, maktab, maxsus ta'lim muassasalari, oliygo'har, mehnat jamoalari hamda norasmiy uyushmalar, nodavlat tashkilotlar kiritish mumkin. Shaxsning ijtimoiylashuv jarayonining qay tarzda kechishi, uning yo'nalganligiga bog'liq bo'ladi. Shu boisdan mazkur masalaga psixologiya fanida katta e'tibor beriladi. Shaxs yo'nalganligi psixologiyada ijtimoiylashuv jarayonida shaxs faoliyatini yo'naltirib turadigan

hamda real vaziyatlarga nisbatan turg'un va barqaror motivlar majmuiga ega bo'lishlik deb ta'riflanadi va u quyidagi tarkiblarga ajratiladi:

Mas'uliyat. Mas'uliyat – ijtimoiylashuv jarayonida shaxsning yetukligini belgilovchi muhim ko'rsatkichlardan sanalib, shaxs o'zining hayotida ro'y berayotgan barcha hodisalarning sababchisi, mas'uli sifatida faqat o'zi (ayrim vaziyatlarda boshqa odamlarga yuklanish holatidam kuzatiladi)ni tan oladi.

Maqsadlar va ideallar. Maqsadlar doimo o'zining anglanganligi va shaxs real imkoniyatlariga bog'liqligi bilan xarakterlanib, ularning shakllanishi va ongda o'mashishida ma'lum ma'noda ideallar ham muhim rol o'ynaydi. *Ideallar* – shaxsning hozirgi real imkoniyatlari chegarasidan tashqaridagi orzu-umidlari, ular ongda mavjud bo'lsada, lekin ular har doim ham amalga oshmaydi. Chunki ularning paydo bo'lishiga sabab bevosita tashqi muhit bo'lib, o'sha ideallar ob'ekti bilan shaxs imkoniyatlari o'rtasida tafovut bo'lishi mumkin.

Qiziqishlar va dunyoqarash. Qiziqishlar ham anglangan motivlardan sanalib, ular shaxsni atrofida ro'y berayotgan barcha hodisalar, odamlarning o'zaro munosabatlari, yangiliklar borasida faktlar to'plash, ularni o'rganishga imkon beruvchi omildir. Qiziqishlarning eng muhim tomoni shundaki, ular shaxs dunyoqarashi va e'tiqodini shakllantirishga asos bo'lib xizmat qiladi. Chunki *e'tiqod* shaxsning shunday ongli yo'nalishiki, unga o'z qarashlari, prinsiplari va dunyoqarashiga mos tarzda yashashga imkon berib, e'tiqod va qiziqishlar dunyoqarashni shakllantiradi. *Dunyoqarash* – tartibga solingan, yaxlit ongli tizimga aylantirilgan bilim, tasavvurlar va g'oyalar majmui bo'lib, u shaxsni ma'lum bir qolipda, o'z shaxsiy qiyofasiga ega tarzda jamiyatda munosib o'rin egallashga chorlaydi.

7.2. Shaxs faoliyati va uning tuzilishi

Faoliyat turlari, shaxsning jamiyatdagi ijtimoiy xulqi va o'zini qanday tutishi, egallagan mavqeyi sababsiz kuzatilmaydi. Faoliyatning amalga oshishi va shaxs xulq-atvorini tushuntirish uchun psixologiyada "*motiv*" va "*motivatsiya*" tushunchalari ishlatiladi. "*Motivatsiya*" tushunchasi "*motiv*" tushunchasidan kengroq ma'no va mazmunga ega bo'lib, u inson xulq-atvori, uning bog'lanishi, yo'nalishi va faolligini tushuntirib beruvchi psixologik sabablar majmuini bildiradi. Bu tushuncha u yoki bu shaxs xulqini tushuntirib berish kerak bo'lganda, ya'ni: "nega?", "nima uchun?", "nima maqsadda?" degan savollarga javob qidirganda ishlatilib, xulqning motivatsion tasnifini yoritishga olib keladi. Mazkur sabablarning ikki jihati farqlanadi:

ichki sabablar, ya'ni xatti-harakat egasining sub'ektiv psixologik xususiyatlari nazarda tutilsa (motivlar, ehtiyojlar, maqsadlar, mo'ljallar, istaklar, qiziqishlar va hokazolar);

tashqi sabablarda faoliyatning tashqi shart-sharoitlari va holatlari, ya'ni, bular ayni konkret holatlarning kelib chiqishiga sabab bo'ladigan tashqi stimullar tushuniladi.

Shaxs xulq-atvorini ichkaridan, ichki psixologik sabablar tufayli boshqarish odatda *shaxsiy dispozitsiyalar* ham deb atalib, ular shaxs tomonidan anglanishi yoki anglanmasligi ham mumkin. Ya'ni, ba'zan shunday bo'ladiki, shaxs o'zi amalga oshirgan ishi yoki o'zidagi o'zgarishlarga nisbatan shakllangan munosabatning haqiqiy sababini o'zi tushunib yetmaydi, "Nega?" degan savolga "O'zim ham bilmay qoldim, bilmayman", deb javob beradi. Bu anglanmagan dispozitsiyalar yoki *ustanovkalar* deb ataladi. Agar shaxs biror kasbga ongli tarzda qiziqib, uning barcha sir-asrorlarini egallash uchun astoydil harakat qilsa, bunda vaziyat boshqacharoq bo'ladi, ya'ni, dispozitsiya anglanilgan, ongli hisoblanadi.

Shu nuqtai nazardan *motiv* – konkretroq tushuncha bo'lib, u shaxsdagi u yoki bu xulq-atvoriga nisbatan turgan moyillik, hozirlikni tushuntirib beruvchi sababni nazarda tutadi. Mashhur nemis olimi Kurt Levin motivlar har bir odam o'ziga xos tarzda u yoki bu vaziyatni idrok qilish va baholashga moyil bo'lib, o'sha bir konkret vaziyat xususidagi turli shaxslarning baholari ham turlicha bo'ladi, deb ta'kidlaydi. Bundan tashqari, bir shaxsning o'zi ham o'zidagi holat, kayfiyatga bog'liq holda bir xil vaziyatni turlicha idrok qilishi mumkin ekan. Shuning uchun ham odamning ayni paytdagi real harakatlarini o'sha ma'lum sharoitdagi ichki va tashqi stimullarga uning bergan bahosi yoki reaksiyasi sifatida qaramay, balki unda shunga o'xshash holatlarni idrok qilishga ichki bir hozirlik – dispozitsiyaning mavjudligi bilan tushuntirilgan ekan.

Har qanday motivlarning orqasida shaxsning *ehtiyojlari* yotib, maqsadli hayotda shaxsda avval u yoki bu ehtiyojlar paydo bo'ladi va aynan ularning tabiati va zaruratiga bog'liq tarzda xulq motivlari namoyon bo'ladi. *Ehtiyojlar faollik manbai bo'lib, u insonni biror narsa buyum, sharoit, vaziyat yoki kishilarga nisbatan zaruriyat tug'ilishida aks etadi.*

Ehtiyojlar ierarxiyasi (A.Maslou piramidasi)



7.2.1.-chizma. Ehtiyojlar ierarxiyasi

Umuman, har qanday shaxsdagi mavjud ehtiyojlarni ikki guruhga bo'lish mumkin: *biologik ehtiyojlar* (fiziologik (tashnalik, ochlik, uyqu), jinsiy, moslashuv ehtiyojlari) va *ijtimoiy ehtiyojlar* (mehnat qilish, bilish, estetik va axloqiy-ma'naviy ehtiyojlar).

Shaxsdagi har qanday ehtiyojlar ham ijtimoiylashgan bo'ladi, ya'ni, ular o'sha jamiyat va muhitdagi qadriyatlar, madaniy normalar va insonlararo munosabatlar xarakteriga bog'liq bo'ladi. Masalan, tabiiy ehtiyojni olsak, u ham konkret muhitga qarab turlicha harakatlarni keltirib chiqaradi.

Faoliyat motivatsiyalarini o'rganishda motivlar xarakterini bilish va ularni o'zgartirish muammosi katta ahamiyatga ega. Amerikalik olimlar D.Makklelland, D.Atkinson va nemis olimi X.Xekxauzenlarning fikricha, odamda turli ishlarni bajarishini ta'minlovchi asosan ikki turdagi motivatsiya bor: *muvaffaqiyatga intilish motivatsiyasi* hamda *muvaffaqiyatsizliklardan qochish motivatsiyasi*. Odamlar ham u yoki bu faoliyatlarga kirishishda qaysi motivga mo'ljal qilishlariga qarab farqlanadilar. Masalan, faqat muvaffaqiyat motivi bilan ishlaydiganlar oldindan ishonch bilan shunday ish boshlaydilarki,

nima qilib bo'lsa ham yutuqqa erishish ular uchun oliy maqsad bo'ladi. Muvaffaqiyatsizlikdan qochish motivatsiyasiga tayangan shaxslarda birinchilardan farqli, ishni boshlashdan avval nima bo'lsa ham muvaffaqiyatsizlikka duchor bo'lmaslikni o'ylaydilar. Shu tufayli ularda ko'proq ishonchsizlik, yutuqqa erishishga ishonmaslik, pessimizmga o'xshash holat kuzatiladi. Shuning uchun bo'lsa kerak, oxir-oqibat ular baribir muvaffaqiyatsizlikka uchraydilar. Agar birinchi toifali shaxslar bir ishni muvaffaqiyatli tugatgach, ko'tarinki ruh bilan ikkinchi ishga kirishisha, ikkinchi toifa vakillari, har qanday ishni yakunlagandan so'ng, uning natijasidan qat'iy nazar, ruhan tushkunlikka tushadilar va og'rinish hissi bilan boshqa ishga kirishadilar.

Shunday qilib, motivlar tizimi bevosita shaxsning mehnatga, odamlarga va o'z-o'ziga munosabatlaridan kelib chiqadi va undagi xarakter xususiyatlarini ham belgilab, ularning har bir kishida real shart-sharoitlarda namoyon bo'lishini biror mas'uliyatli ish oldidan o'zini tutishi va muvaffaqiyatlarga erishishi bilan baholasa bo'ladi.

Anglanmagan ijtimoiy xulq motivlari psixologiyada *ijtimoiy ustanovka* (inglizcha "attitud") hodisasi orqali tushuntiriladi. Ijtimoiy ustanovka shaxsning ijtimoiy ob'ektlar, hodisalar, guruhlar va shaxslarni idrok qilish, baholash va qabul qilishga nisbatan tayyorgarlik holati bo'lib, u bu baho yoki munosabatning aslida qachon shakllanganligini aniq anglamaydi (masalan, Vatanimizni hammamiz sevamiz, bayrog'imiz muqaddas, tijorat ishlari bilan shug'ullanadiganlarni albatta puldor, badavlat, deb hisoblaymiz va hokazo). Inson bu tasavvurlar, baho va hissiyotlar qachon va qanday qilib ongida o'mashib qolganligiga e'tibor bermasdan turli hissiyotlarni boshdan kechiraveradi. Mana shularning barchasi ijtimoiy ustanovkalar bo'lib, ularning mazmun mohiyati aslida har bir inson ijtimoiy tajribasi davomida shakllanib, uzoq muddatli xotirada saqlanib, konkret vaziyatlarda ruyobga chiqadi.

Amerikalik olim G.Ollport ijtimoiy ustanovkaning uch komponentli tizimini ishlab chiqqan:

1. *Kognitiv komponent* – ustanovka ob'ektiga aloqador bilimlar, g'oyalalar, tushuncha va tasavvurlar majmui;

2. *Affektiv komponent* – ustanovka ob'ektiga nisbatan sub'ekt his qiladigan real hissiyotlar (simpatiya, antipatiya, loqaydlik kabi emotsional munosabatlar);

3. *Harakat komponenti* – sub'ektning ob'ektga nisbatan real sharoitlarda amalga oshirishi mumkin bo'lgan harakatlari majmui.

Shaxsning ongi va o'z-o'zini anglash muammolari uning faolligi, u yoki bu faoliyat turlarida ishtiroki va uni uddalashi bilan bog'liq sifatlari orqali bayon etiladi. *Faollik* (lotincha "actus" - harakat, "activus" - faol

so'zlaridan kelib chiqqan tushuncha) shaxsning hayotdagi barcha xatti-harakatlarini namoyon etishini tushuntiruvchi kategoriya.

Psixologiyada inson faolligining asosan ikki turi farqlanadi:

Tashqi faollik – bu tashqaridan va o'z ichki istak-xohishlarimiz ta'sirida bevosita ko'rish, qayd qilish mumkin bo'lgan mushaklarning harakatlari orqali namoyon bo'ladigan faollik.

Ichki faollik – bu bir tomondan u yoki bu faoliyatni bajarish mobaynidagi fiziologik jarayonlar (moddalar almashinuvi, qon aylanish, nafas olish, bosim o'zgarishlari) hamda, ikkinchi tomondan, bevosita psixik jarayonlar, ya'ni aslida ko'rinmaydigan, lekin faoliyat kechishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar tushuniladi.

Inson faolligini mujassamlashtiruvchi harakatlar jarayoni *faoliyat* deb yuritilib, u (*faoliyat*) – inson ongi va tafakkuri bilan boshqariladigan, undagi turli-tuman ehtiyojlardan kelib chiqadigan, hamda tashqi olamni, o'z-o'zini o'zgartirish, takomillashtirishga qaratilgan o'ziga xos faollik shaklidir. Faoliyat yo'naltirilish ob'ektiga ko'ra tashqi va ichki turlarga farqlanadi. Bunda *tashqi faoliyat* shaxsni o'rab turgan tashqi muhit va undagi narsa va hodisalarni o'zgartirishga qaratilgan faoliyat bo'lsa, *ichki faoliyat* – birinchi navbatda aqliy faoliyat bo'lib, u sof psixologik jarayonlarning kechishidan kelib chiqadi. Namoyon bo'lish nuqtai nazaridan ichki – aqliy, psixik faoliyat tashqi predmetli faoliyatdan kelib chiqadi.

Aqliy faoliyatning quyidagi ko'rinishlari mavjud:

perseptiv faoliyat – ya'ni, bular shunday harakatlarki, ularning oqibatida atrofda predmetlar va hodisalar to'g'risida yaxlit obraz shakllanadi;

mnemik faoliyat – narsa va hodisalarning mohiyati va mazmuniga aloqador materialning eslab qolinishi, esga tushirilishi hamda esda saqlab turilishi bilan bog'liq murakkab harakatlar yig'indisi;

fikrlash faoliyati – aql, fahm-farosat vositasida turli xil muammolar, masalalar va jumboqlarni (tafakkur operatsiyalari yordamida) yechishga qaratilgan faoliyat;

imajitiv – ("image" - obraz so'zidan olingan) faoliyati shundayki, u ijodiy jarayonlarda xayol va fantaziya vositasida hozir bevosita ongda berilmagan narsalarning xususiyatlarini anglash va xayolda tiklashni taqozo etadi;

nutq faoliyati – odam tomonidan ijtimoiy-tarixiy tajribani o'zlashtirish, avlodlarga uzatish yoki kommunikatsiya o'rnatish, o'z shaxsiy harakatlarini rejalashtirish hamda amalga oshirish maqsadida tildan foydalanish jarayonidir.

Agar tashqi faoliyat asosida psixik jarayonlarga o'tish ro'y bergan bo'lsa, bunday jarayonni psixologiyada *interiorizatsiya* deb ataladi, aksincha, aqlda shakllangan g'oyalarni bevosita tashqi harakatlarda yoki tashqi faoliyatga ko'chirilishi *eksteriorizatsiya* deb yuritiladi.

Faoliyat turlari yana ongning bevosita ishtiroki darajasiga ko'ra ham farqlanadi, masalan, shunday bo'lishi mumkinki, ayrim harakatlar boshida har bir elementni jiddiy ravishda, alohida-alohida bajarishni va bunga butun diqqat va ongning yo'nalishini talab qiladi. Lekin vaqt o'tgach, bora-bora unda ongning ishtiroki kamayib, ko'pgina qismlar avtomatlashib borib, bunda *malaka* hosil bo'ladi. Masalan, har birimiz shu tarzda xat yozishga o'rganganmiz. Agar malakalar qat'iy tarzda bilimlarga tayansa, faoliyatning maqsadi va talablariga ko'ra harakatlarni muvaffaqiyatli bajarishni ta'minlasa, bu ko'nikmalar deb ataladi.

Faoliyatni klassifikatsiya qilish va turlarga bo'lishning yana bir keng tarqalgan usuli – bu barcha insonlarga xos bo'lgan asosiy faollik turlari bo'yicha tabaqalashdir. Bu – muloqot, o'yin, o'qish va mehnat faoliyatlaridir.

Muloqot – shaxs individual rivojlanishi jarayonida namoyon bo'ladigan birlamchi faoliyat turlaridan biri bo'lib, u insondagi kuchli ehtiyojlardan biri – inson bo'lish, odamlarga o'xshab gapirish, ularni tushunish, sevish, o'zaro munosabatlarni muvofiqlashtirishga qaratilgan ehtiyojlaridan kelib chiqadi.

O'yin – shunday faoliyat turiki, u bevosita biror moddiy yoki ma'naviy ne'matlar yaratishni nazarda tutmasada, lekin uning jarayonida jamiyatdagi murakkab va xilma-xil faoliyat normalari, harakatlarning simvolik andozalari taqlid qilish orqali bola tomonidan o'zlashtiriladi.

O'qish faoliyati ham shaxs kamolotida muhim ahamiyatga ega bo'lib, uning jarayonida bilimlar, malaka va turli ko'nikmalar o'zlashtiriladi.

Mehnat qilish tabiiy ehtiyojlarga asoslangan faoliyat bo'lib, uning maqsadi albatta biror moddiy yoki ma'naviy ne'matlarni yaratish, jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shishdir.

7.3. Temperament

Shaxsning individual xususiyatlari uning tug'ma, biologik xususiyatlariga bog'liq. Chunki aslida bir tomondan shaxs ijtimoiy mavjudot bo'lsa, ikkinchi tomondan biologik – yaxlitlik, tug'ma sifatlarini o'z ichiga olgan individ hamdir.

Temperament individning dinamik – o'zgaruvchan psixik faoliyati jarayonini ta'minlovchi sifatlarini o'z ichiga olib, u shaxsda ontogenetik taraqqiyot jarayonida shakllanadigan boshqa xususiyatlarga asos bo'ladi. Temperament xususiyatlari odam bir faoliyat turidan ikkinchisiga, bir emotsional holatdan yoki bir malakalardan boshqasiga almashtirgan paytlarda reaksiyalarning egiluvchan va dinamikligini ta'minlaydi.

Demak, temperament (lot. "temperamentum" – aralashma so'zidan olingan) – shaxs faoliyati va xulqining dinamik (o'zgaruvchan) va emotsional-

hissiy tomonlarini xarakterlovchi, biologik shartlashgan individual xususiyatlar majmuidir.

Temperament xususiyatlari shaxsning ichki tuzilmasi bilan bevosita bog'liq bo'ladi, ya'ni ularning namoyon bo'lishi uning konkret vaziyatlarga munosabatini, ekstremal vaziyatlarda o'zini qanday tutishini belgilab beradi. Masalan, inson turli vaziyatlarda o'zini turlicha tutadi: oliy o'quv yurtida talabalar safiga qabul qilinganligi to'g'risidagi axborotni eshitgan bolaning o'zini tutishi, yoki hayotning og'ir sinovlari (yaqin kishining o'limi, ishdan haydalanish, do'stning xoinligi kabi) paytida odam beixtiyor namoyon qiladigan reaksiyalari uning temperamentiga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun bir xil vaziyatni turli shaxslar, biri og'ir-bosiqlik bilan, boshqasi esa o'zini yo'qotgudek darajada his-hayajon bilan boshidan kechirar ekanlar. Shu sababli shaxs temperamenti uning shakllanishi va ijtimoiy muhitda o'ziga xos mavqeyi egallashida, shaxslararo muloqot jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, temperament hayotiy voqeyalar va vaziyatlarni turli mezonlar asosida ajratishga imkon beradi. Bunda temperament odamning ijtimoiy ob'ektlarga nisbatan "sezgiriligini" tarbiyalaydi, professio-nal mahorat va kasb malakasining oshib borishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Temperament ta'rifidan ma'lum bo'ldiki, uning xususiyatlari tug'ma hisoblanadi. Shunday bo'lsada, u shaxsga bevosita aloqador va anglanadigan bo'lgani uchun ham ma'lum ma'noda dinamik ko'rinishda bo'ladi. Masalan, inson go'daklik davrida flegmatikka o'xshash xususiyatlarni namoyon qilgan bo'lsa, u umrining oxirigacha faqat shundayligicha qoladi, deb bo'lmas ekan.

Temperamentning fiziologik asoslari to'g'risida tushuncha qadimgi yunon olimi Gippokrat ta'limotiga binoan, insonlarning temperament xususiyatlari jihatidan o'zaro bir-biridan tafovutlanishi ularning tana a'zolaridagi suyuqliklarning (xiltlarning) turlicha nisbatda joylashuviga bog'liq ekan. Uning fikricha, inson tanasida to'rt xil suyuqlik (xilt) mavjud bo'lib, ular o't yoki safro (*yunon. "chole" - o't*), qon (*lot. "sanguis" yoki "sanguinis" - qon*), qora o't (*yunon. "melas" - qora, "chole" - o't*), balg'am (*yunon. "phlegma" - balg'am*) kabilardan iborat bo'lib, unga ko'ra:

- 1) o'tning xususiyati – quruqlikdir, uning vazifasi tana a'zolarida quruqlikni saqlab turish yoki badanni quruq tutishdir;
- 2) qonning xususiyati – issiqlikdir, uning vazifasi tanani isitib turishdir;
- 3) qora o'tning xususiyati – namlikdir, uning vazifasi badan namligini saqlab turishdir;
- 4) balg'amning (shilimshiq moddaning) xususiyati – sovuqlikdir, uning vazifasi badanni sovutib turishdan iboratdir.

Gippokrat ta'limotiga muvofiq, har bir insonda shu to'rt xil suyuqlik mavjud bo'lib, uning bittasi ustuvorlik qilib, mazkur aralashmalardan qaysi

biri salmoqliroq bo'lsa, shunga qarab insonlar temperament jihatdan farqlanadilar, chunonchi, xolerikda sariq o't, sangvinikda qon, melanxolikda qora o't, flegmatikda balg'am (shilimshiq modda) ustun bo'lishi ta'kidlanadi.

Gippokratning to'rt xil moddalar (suyuqliklar) aralashmasi, ya'ni temperament tushunchasi va uning tipologiyasi (*sangvinik, xolerik, flegmatik, melanxolik*) ramziy ma'noda hozirgi zamon psixologiyasida ham qo'llanilib kelinmoqda.

Sangvinik – juda faol, qiziquvchan bo'lib, atrofda narsalar, insonlar diqqatini tez jalb etadi. U imo-ishoralarni ko'p ishlatib, uning chehrasiga qarab kayfiyatini anglab olish qiyin emas. Juda sezgir bo'lishiga qaramay, kuchsiz ta'sir (qo'zg'atuvchilar)ni seza olmaydi, serg'ayrat, ishchan, toliqmasdir. Faollik bilan reaktivlik munosabati muvozanatli bo'ladi, imtizomli, o'zini tiya biladi va boshqara oladi. Uning xatti-harakati jo'shqin, nutq sur'ati tez, yangilikni tez payqaydi, aql idroki teran, topqir, qiziqishlari, kayfiyati, intilishlari o'zgaruvchandir. Ko'nikma va malakalarni tez egallaydi, ko'ngli ochiq, dilkash, muloqotga tez kirishadi, uning xayoloti (fantaziyasi) yuksak darajada rivojlangan, tashqi ta'sirlarga hozirjavob bo'ladi.

Xolerik – sust sezitivlik xususiyatiga ega bo'lib, juda faol va reaktivdir. Ko'pincha reaktivligi faollikdan ustun kelib, u betoqatlik, serzardalik va giperaktivlikni namoyon qiladi. Sangvinikka qaraganda qo'zg'aluvchan, lekin ko'proq rigid, qiziqishlari, intilishlari barqaror, xatti-harakatlarda qat'iylik mavjud bo'lsada, biroq diqqatni bir joyga to'plashda qiynaladi, nutq sur'ati tez va h.k.

Flegmatik – sezitivligi sust, his-tuyg'usi (emotsiyasi) kam o'zgaruvchan, shunga ko'ra bunday shaxsni kuldirish, jahlini chiqarish, kayfiyatini buzish qiyin bo'lib, ko'ngilsiz hodisa xavf-xatar haqidagi xabarga xotirjamlik bilan munosabatda bo'ladi. Vazmin, kam harakat, imo-ishoras, mimikasi ko'zga yaqqol tashlanmasada, lekin serg'ayrat, ishchan, faol, chidamli, matonatlidir. Uning nutq va harakat sur'ati sust, farosati qiyiqroq. Diqqatni to'plashi osoyishta, rigid ko'rinishida bo'lib, diqqatni ko'chirishi qiyin kechadi. Intravertlashgan, kam gap, ichimdan top toifasidan bo'lib, yangilikni qabul qilishi murakkab va tashqi taassurotlarga sustlik bilan javob beruvchandir.

Melanxolik – sezitivligi yuksak, tortinchoq, g'ayratsiz, arazchan, xafaqon bo'ladi. U jimgina yig'laydi, kam kuladi, qat'iyli va mustaqilligi zaif, tez toladi, ortiqcha ishchan emas. Diqqati barqaror, his-tuyg'usi sust o'zgaruvchan, rigid va intravertlashgan.

Hozirgi davrda temperament tipi deganda, ma'lum insonlar guruhi uchun umumiy bo'lgan xususiyatlarning sodda majmuasi emas, balki mazkur xususiyatlarning qonuniy, zaruriy o'zaro bog'liqligi tushunilib, uning tipini tavsiflovchi xususiyatlarning qonuniy tarzda o'zaro bog'liqligini turlicha aks

ettirgan holda, yangi omillar mazkur tiplarning psixologik tavsifini qayta tahlil qilishni taqozo etadi.

Temperament tiplarining psixologik tavsifi quyidagi muhim xususiyatlar yordami bilan aniqlanishi mumkin:

1. **Senzitivlik** (lot. "sensus" - sezish, his qilish) – insonda bironta psixik reaksiyani hosil qilish uchun zarur bo'lgan o'ta kuchsiz tashqi taassurot kuchiga qarab mulohaza yuritiladi jumladan, sezgilarning paydo bo'lishi uchun kerak qo'zg'ovchining o'zina kuchi (ularning quyi chegarasi), ehtiyojlar qondirilmasligining sezilar-sezilmas darajasi (shaxsga ruhiy azob beruvchi) mujassamlashishi tushuniladi.

2. **Reaktivlikda** aynan bir xil kuch bilan ta'sir etuvchi tashqi va ichki taassurotlarga shaxs qanday kuch bilan emotsional reaksiya qilishiga qarab munosabat bildirilib, uning yorqin ro'yobga chiqishi – emotsionallik, ta'sirchanlikda ifodalanadi.

3. **Faollik** – inson qandaydir faollik darajasi bilan tashqi olamga ta'sir etishi va maqsadlarni amalga oshirishida ob'ektiv hamda sub'ektiv qarama-qarshiliklarni faollik bilan yengishidir.

4. **Reaktivlik bilan faollikning o'zaro munosabatida** odamning faoliyati ko'p jihatdan nimaga bog'liqligiga binoan, chunonchi tasodifiy tarzda tashqi va ichki sharoitlarda (kayfiyatga, favquloddagi hodisalarga) yoki maqsadlarga, ezgu niyatlarga, xohish-intilishlarga ko'ra fikr bildirish nazarda tutiladi.

5. **Reaksiya tempi** – turli xususiyatli psixik reaksiyalar va jarayonlarning kechishi tezligiga, binobarin, harakat tezligiga, nutq sur'atiga, farosatlikka, aql tezligiga asoslanib xulosa chiqarishdir.

6. **Harakatlarning silliqli va unga qarama-qarshi sifat - rigidlik** (qotib qolganlik) – shaxsning o'zgaruvchan tashqi taassurotlarga qanchalik yengillik va chaqqonlik bilan muvofiqlashishiga (silliqlik bilan moslashishga), shuningdek, uning xatti-harakatlari qanchalik sust va zaifligi (rigidligi – qotib qolganligi)ga nisbatan baho berishdan iboratdir.

7. **Ekstravertlik va intravertlik** - shaxsning faoliyati va reaksiyasi ko'p jihatdan nimalarga bog'liqligiga, chunonchi favquloddagi tashqi taassurotlarga (ekstravertlik) yoki, aksincha, timsollarga, tasavvurlarga, o'tmish hamda kelajak bilan uyg'unlashgan mulohazalarga (introvertlik) taalluqligiga asoslangan holda munosabat ifodasidir.

Temperamentning ilmiy psixologik asoslari va uning fiziologik mexanizmlari keyingi ijtimoiy tarixiy taraqqiyotning bosqichlarida ishlab chiqilib, bu borada izlanishlar davom ettirilmoqda. Temperamentning fiziologik asoslariga o'zining ulkan hissasini qo'shgan olimlardan biri rus fiziologi I.P.Pavlov hisoblanib, u hayvonlarning oliy nerv faoliyatini tadqiq qilayotganida itlarda shartli reflekslarning paydo bo'lishi, kechishi, davom etishi xususiyatlari insonlarnikidan farq qilishi va bu hodisa temperamentda

ham uchrashi mumkinligini kashf etadi. I.P.Pavlov temperament ham shartli reflektor faoliyatining individual xususiyatlarini keltirib chiqaruvchi omillar bilan bog'liq bo'lishi mumkin, degan xulosani berib, mazkur ta'limot bo'yicha, shartli reflekslar paydo bo'lishining individual xususiyatlari ro'yobga chiqishining sabablari nerv tizimi xususiyatlari mohiyatidandir. Muallif nerv tizimining uchta asosiy xususiyatiga alohida ahamiyat beradi:

- 1) qo'zg'alish jarayoni va tormozlanish (to'xtalish) jarayonining kuchi;
- 2) qo'zg'alish kuchi bilan tormozlanish kuchi o'rtasidagi muvozanatlilik darajasi (nerv tizimining muvozanatlashgani);
- 3) qo'zg'alishning tormozlanishi bilan almashinishi tezligi (nerv jarayonlarining harakatchanligi).

Uning ko'rsatishicha, har bir hayvonning temperamenti ham mazkur xususiyatlarning u yoki bunisiga aloqador bo'lmay, balki ularning majmuaviy tarziga, qonuniy birlashuviga bog'liq bo'ladi. I.P.Pavlov shartli reflektor faoliyatining individual xususiyatlari bilan temperamentga aloqador nerv tizimi xususiyatlarining o'zaro qo'shiluvini nerv tizimining tipi deb nomlaydi va uni to'rtta tipga ajratadi:

- 1) kuchli, muvozanatli, epchil (sangvinik);
- 2) kuchli, muvozanatsiz, epchil (xolerik);
- 3) kuchli, muvozanatli, sust (flegmatik);
- 4) kuchsiz tip (melonxolik).

Asabga bog'liq bo'lgan tabiiy xususiyatlarni ham umuman o'zgarimas deb bo'lmas ekan, chunki tabiatda o'zgarmaydigan narsaning o'zi yo'q. Masalan, V.S.Merlin temperamentning psixologik tasnifi va ularning hayotiy vaziyatlarda namoyon bo'lishini boshqarish masalasida ko'p ishlar qilib, uning fikricha, insonda mavjud bo'lgan faollik, bosiqlik, emotsional tetiklik, hissiyotlarning tezda namoyon bo'lishi va o'zgaruvchanligi, kayfiyatning turg'unligi, behalovatlilik, ishchanlik, yangi ishga kirishib ketish, malakalarning tez hosil bo'lishi kabi qator sifatlar asosida shaxsdagi o'sha ekstraversiya va intraversiya xossalari yotadi va ularni ham o'zgartirish va shu orqali temperamentni boshqarish mumkin.

Shulardan kelib chiqqan holda, shaxsning mehnat qilish uslubini tanlash va professional mahoratni o'stirishda ayni shularga e'tibor bersa ularning faoliyat natijasi samarador ko'rsatkichga ega bo'lishi kuzatiladi. Masalan, ba'zilar xoleriklarga o'xshash qiziqqon, tezkor bo'lib, ular mehnat jarayonida faollik, ishni tez bajarishga layoqati ijobiy bo'lsa, uning salbiy tomoni ishni chala tashlab ketish xavfi, ba'zi tomonlariga esa yuzaki qarashi kishini o'ylantiradi. Shu nuqtai nazardan olib qaralganda, hayotda sof temperament ham bo'lmaydi va u yoki bu temperament tipi juda yaxshi ham emas, har bir tipning o'ziga xos nozik, kuchsiz tomonlari va shu bilan birga kuchli, ijobiy tomonlari ham bo'ladi.

Shuni ta'kidlash o'rinliki, olimlar fikricha temperamentni faoliyat talablariga moslashtirish (muvofiglashtirish) imkoniyati mavjud ekan. Chunki har qanday faoliyat psixik jarayonlari dinamikasiga muayyan talablar tizimini qo'yadi. Xususan:

– kasb-hunarlarining insonlar temperamentiga mos turini tanlash kerak, chunki ularning psixik xususiyatlariga mutanosib kasbni tanlash professional tanlash deyiladi;

– shaxslarning individual xususiyatlarini hisobga olish joiz;

– temperamentga xos kamchiliklarni (salbiy illatlarni) bartaraf etish lozim;

– insonlarda individual uslubni shakllantirish zarur. Chunki shaxsning faoliyatiga ongli, faol va ijodiy munosabatda bo'lishi muvaffaqiyatlar garovidir.

Xolerik davriy almashib turadigan ishda o'zining imkoniyatlarini namoyon qilsa, sangvinik turli sohalarda ya'ni u tug'ma lider hisoblanadi. Flegmatik aniq, o'zgarmaydigan rejimli ishni afzal ko'rsa, melanxolik esa nozik qo'l ishlari, badiiy sohada moyilligi yaqqol seziladi.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, psixik faoliyatning dinamikasi nafaqat temperamentga, balki motivlarga, psixik holatlarga, his-tuyg'ularga ham bevosita bog'liqdir.

7.4. Xarakter

Xarakter – ijtimoiy muhit ta'sirida tarkib topib, shaxsning atrofda gi voqeyelikka va o'z-o'ziga bo'lgan munosabatida ifodalanadigan, muayyan sharoitda tipik xulq-atvor usullarini belgilab beradigan barqaror individual psixik xususiyatlar yig'indisidir. Xarakter tug'ma, o'zgarmaydigan xususiyat emas. U kishining hayot sharoitlariga bog'liq holda tarkib topib, o'zgaruvchan va tarbiyalanuvchandir. Maxsus sharoitda ta'lim-tarbiya ta'sirida salbiy xarakter xususiyatlarini bartaraf qilish, ijobiy xarakter xususiyat (xislat)larini shakllantirish mumkin.

Psixologiya fanida xarakterni tahlil qilishni o'ziga xos tizimi mavjudki, bu psixologik tuzilishning qonuniyatlari, tipologiyasi va rivojlanishini ifoda etadi. Shu bois, psixologiyada xarakterni psixologik tadqiq etish *xarakterologiya*ning asosiy predmeti hisoblanadi.

Mazkur tushunchaning etimologiyasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, xarakterologiya (grek. "characterology", "character" - xislat, belgi, alomat, nishon, xususiyat, "logos" - fan, ta'limot) – xarakter va uning mohiyati, strukturasi, tarkib topishi va rivojlanishi haqidagi ta'limotdir.

Xarakterologiyaga oid bilimlarga amalda qadimdan ehtiyoj sezilib kelingan ekan. Masalan, quldor bozordan qul sotib olish jarayonida uning

jismoniy xususiyatlari haqida turli xatti-harakatlarni bajartirish tarzida ma'lumotga ega bo'lganlar, lekin u o'zining bo'lajak quli itoatkor yoki bo'ysunmaydigan, soddadil yoki ayyor, mehnatkash yoki dangasa kabi xarakter xislatlari haqida ma'lumotga ega bo'la olmaganlar. Shuning uchun, quldorlik jamiyati sharoitlarida xaridor bo'lajak qulining xarakterini aniqlashning turli tizimiga amaliy ehtiyoj sezganligidan dalolat beradi.

Psixologiya tarixida xarakterologiyaga oid dastlabki ma'lumotlar odamning bosh suyagi va tana hamda yuz tuzilishiga bog'lab aniqlash orqali tarkib topgan (Aflotun, Arastu, Abul-Faraj Bar Ebrey, Iogann Kaspar Lafater, Frans Gall, Charlz Darvin).

Aflotun va Arastu kishi xarakterini uning aft-angoriga qarab aniqlash nazariyasi asoschilari hisoblanadilar. Ular kishi tashqi ko'rinishida biron bir hayvonga o'xshashlik belgilarini topib, so'ngra uning xarakterini ana shu hayvonniki bilan bir xil, deb tavsiflaganlar. Jumladan, Arastuning fikricha, buqaniki singari yo'g'on burun dangasalikni, cho'chqanikiga o'xshash teshiklari katta va keng burun axmoqlikni, arslonnik kabi burun mag'rurlikni, quyonlamiki singari tukning mayinligi qo'rzoqlikni, sher va yovvoyi cho'chqaniki kabi tukning dag'alligi botirlikni anglatadi. Shunga o'xshash nazariyalar O'rta asr Suriya yozuvchisi Abul-Faraj Bar Ebrey asarlarida ham uchraydi.

XVIII asrda Iogann Kaspar Lafaterning fiziologik tizimi mashhur bo'lib ketdi. U inson bosh suyagining konfiguratsiyasi va imo-ishorasini o'rganish kishi xarakterini aniqlashning asosiy yo'li, deb hisoblaydi.

Keyinchalik xarakterologik ta'limot nemis shifokori Frans Gallning nomi bilan bog'liq frenologiya degan nom oldi. Frans Gall fikricha, inson bosh suyagining bo'rtiq joylarini ushlab ko'rib, uning ruhiy belgilarini aniqlash mumkin.

Charlz Darvinning yuz ifodasining tavsiflanishi, uning yumshoq to'qimalari holatiga bog'langan fiziognomik ta'limoti xarakterologiya sohasida ko'pgina psixologlarning izlanishlari uchun asos bo'ldi.

Xarakterni o'rganishda tashqi ko'rinish ma'lum ahamiyatga ega bo'lsada, biroq shaxsning tashqi qiyofasi uning xarakterologiyasida batafsil ma'lumotlar manbai bo'la olmaydi.

Keyinchalik fan olami rivojlanishining turli bosqichlarida, shaxsning xarakterologik xususiyatlarini o'rganishda faoliyat va munosabatlar tizimi hamda boshqa psixik xususiyatlarni tadqiq etish borasidagi ilmiy izlanish va munozaralar ham xarakterga oid turli xil yondashuvlarni vujudga kelishiga sabab bo'ldi.

Xarakterda o'zlashtirilayotgan hayotiy timsollar shaxsning xulq-atvori va faoliyatida ijtimoiy-psixologik xususiyatlar sifatida tarkib topishni

ta'minlovchi psixologik vositalar inson "Men"ining tavsiflovchi poydevori hisoblanadi.

Xarakter temperament (mijoz)dan farqli o'laroq hayotda, muomala va hamkorlikdagi faoliyat jarayonida vujudga kelishi va shakllanishida farq qiladi. Xarakter xislatlari to'rtta yirik tizimga ajratiladi. Bu xususiyatlar insonning munosabatlarida aks etgan bo'lib, ular quyidagi 3-jadvalda keltirilgan.

Bunday xarakter xususiyatlarini o'quvchi va talabalarda shakllanishi va namoyon bo'lishi o'qish faoliyatini amalga oshirayotgan jamoada, oilada, norasmiy guruhlarda kuzatiladi.

7.4.1-jadval

Xarakter xislatlari va xulq-atvor xususiyatlari

N	Munosabatlarining nomlanishi	Xarakter xislatlari va xulq-atvor xususiyatlari
1.	Odamlarga bo'lgan munosabat	Muloqotmandlik, ochiqlik, aniqlik, mehribonlik, tundlik, tortinchoqlik, johillik, kamtarinlik va b.
2.	Faoliyatga bo'lgan munosabat	Vijdonlilik, mehnatsevarlik, tashabbuskorlik, ehtiyotsizlik, mas'uliyatsizlik va b.
3.	Ijtimoiy va shaxsiy mulkka bo'lgan munosabat	Betartiblik, tejamkorlik, ozodalik, ehtiyotkorlik va b.
4.	O'z-o'ziga bo'lgan munosabat	Vazminlik, talabchanlik, o'zini sevish, o'ziga ishonchlilik, xudbinlik va b.

Psixologiyada xarakter xislatlarining paydo bo'lish shartlarida organizmning nasliy xususiyatlari (*biologik qonuniyatlari*) asos bo'lsada, ammo u *ijtimoiy qonuniyatlar* bilan tavsiflanadi. Ushbu masalani irsiyatga bog'lab tushuntirish gomozigot egizaklarni o'rganish orqali inkor qilinadi, chunki ularning nasliy xususiyatlari aynan bir xildir. Ular temperament xususiyatlari bo'yicha tubdan o'xshash bo'lsalarda, lekin xarakter xislatlariga ko'ra bir-biridan keskin farq qiladilar. Shuning uchun xarakterning shaxs turmush sharoitiga bog'liqligini uning fiziologik asosi ham, tashqi taassurotlar tizimi tufayli vujudga keladigan shartli reflektor funksional holati ham tasdiqlaydi.

Xarakter tarkib topishi muayyan qonuniyatlar ta'sirida amalga oshib, uning har bir xislati shaxs munosabatlariga bog'liq bo'ladi, ular o'z navbatida ijtimoiy munosabatlar bilan belgilanadi. Nasliy xususiyatlari bir xil egizaklarda turlicha ijtimoiy muhitda har xil xarakter xislatlari shakllanishi tadqiqotlarda isbotlangan. Shu sababdan ijtimoiy tuzimni tavsiflovchi keng ijtimoiy munosabatlar shaxsning ijtimoiy tipik xususiyatlarigina emas, balki

xarakterning individual xususiyatlari (xislatlari) tarkib topishiga ham katta ta'sir o'tkazadi. Ijtimoiy munosabatlarga bevosita yoki bilvosita bog'liq tarzda, oilada, bolalar va mehnat jamoalarida hayrihoxlik, o'rtoqlik, o'zaro yordamlashish, hamkorlik yoki, aksincha, johillik, zolimlik, badjahllik kabi shaxslararo munosabatlar tarkib topa boshlaydi. Oilaviy muhit, undagi shaxslararo munosabatlar, farzandlarning miqdori, yoshidagi farqi, nizoli vaziyatlarning ko'rinishi, ota-ona munosabatiga asoslangan holda xarakterning o'ziga xos xususiyatlari shakllantirilsa, bolalar bog'chasidagi, maktabdagi shaxslararo munosabatlar ham xarakterning maxsus xislatlarini tarkib toptiradi. Mehnat jamoalarida, norasmiy guruhlarda ham xarakter xususiyatlarida sezilarli o'zgarishlar yuzaga kelib, ilk yoshlik davrida esa shakllangan xarakter xislatlari nihoyat darajada barqaror bo'lib, ularga ayrim o'zgarishlar kiritish juda qiyin kechadi. Shaxsda mayllarning qondirilishi yoki qondirilmashligi bilan bog'liq holda tarkib topgan munosabatlar o'zining mustahkamligi bilan ajralib turadi. Xarakter xislatlarining chuqurligi, barqarorligi, doimiyligi ko'p jihatdan shaxs munosabatlarining onglik darajasiga bog'liq. Insonning haqqoniylik, mehnatsevarlik xislatlari tasodifiy tarkib topmagan bo'lib, uning onglik qarashlariga, ishonch aqidalariga mos tushsa, u holda har qanday qiyin holatlarda ham namoyon bo'laveradi.

Xarakter bilan temperamentning o'zaro munosabati ularni *fiziologik asoslari* bilan belgilanadi. Xarakter xususiyatlarining tashqi jihatdan namoyon bo'lib aynan shu tarzda muayyan vaqt mobaynida kechishi *dinamik* xususiyat deyiladi. Xarakter xislatlarining dinamik xususiyati temperament xususiyatlariga bog'liqdir. Ana shu holatga muvofiq ravishda temperament xususiyatlari ham xarakterning ma'lum xislatlarining vaqt davomida tashqi namoyon bo'lishi ham temperament tipiga bog'liq.

Taraqqiyot va tarbiyaning ijtimoiy sharoitlari hamda ularning psixikaning irsiy individual xususiyatlari bilan o'zaro munosabati xarakter xislatlarini to'g'ridan to'g'ri tavsiflamaydi, balki shaxsning faoliyati orqali belgilaydi. Uning faoliyatiga taalluqli aynan bir xil ijtimoiy sharoitda ham xuddi shu bir xil irsiy xususiyatlaridan turli xarakter xislatlari shakllanadi. Shu boisdan xarakterning rivojlanishi shaxsning faol faoliyati jarayonida uning xatti-harakatlariga bog'liq tarzda amalga oshadi. Xarakterning tarkib topishida faol faoliyatda harakatning individual o'ziga xos usullari shakllanadi. Harakat usullarining avtomatlashuvi muayyan dinamik stereotip hosil qilinishi bilan bog'liq shartli reflektor funksional holatning natijasidir. Avtomatlashuvning bir necha turdagi psixologik mexanizmlari mavjud bo'lib, ulardan biri – bu *odat*lardir. Xarakter xislatlari tarkib topishining muhim shartlaridan yana biri – bu xislatlarni zaruriy xatti-harakatlarda chidam bilan *marshq qilishdan* iboratdir.

Xarakterning tarkib topishida *taqlidchanlikning* roli katta bo'lib, u harakat usullari avtomatlashuvining bosh manbai hisoblanadi va uning ahamiyatligi ko'p jihatdan ifodali xatti-harakatlarning shaxs emotsional (hissiy) kechinmalariga ta'siri bilan belgilanadi. Taqlidchanlik xatti-harakat namunasiga taqlid qilish uchun mo'ljallangan shaxs munosabatlari tomonidan motivlashtirilgandagina xarakter xislatlarini tarkib toptirish shartiga aylanadi.

Xarakterning shakllanishida muayyan psixik faoliyatga yaxlit ob'ektiv va sub'ektiv mayllik tarzidagi ko'rsatma berish (ustanovka), psixologik mexanizm negizida yuzaga kelgan avtomatlashish muhim bo'lib, bunda ko'rsatma (ustanovka) odatlaridan farqli o'laroq, muayyan harakatlarga tayyor turishgina bo'lib qolmay, balki bilish jarayonlariga, hissiy va irodaviy reaksiyalarga ham tayyor turishlikdir.

Xarakterning hosil bo'lishida nizoli vaziyatlar alohida ahamiyat kasb etib, bunda xarakter faqat murakkab va keskin vaziyatlarda (sharoitlarda) yorqin namoyon bo'libgina qolmasdan, balki mazkur holatlarda u tarkib ham topadi. Odatda xarakter xislatlarining o'zgarishidagi individual farqlar shaxsning nizoli vaziyatlardan chiqish uchun qanday yo'l-yo'riq topishiga bog'liq. Shunday qilib, shaxs o'zining butun hayoti va faoliyati davomida o'z xatti-harakatlari, odatlari bilan o'z xarakter xislatlarini o'zi yaratadi va ularni boshqarishga odatlanadi.

Xarakter xususiyatlarining variantlilikligi ularning faqat sifat jihatidan rang-barangligi va o'ziga xosligida emas, balki miqdor jihatidan ifodalanganligida ham namoyon bo'ladi. Xarakter xususiyatlarining miqdoriy ifodalanishi, ya'ni ayrim belgilarning haddan tashqari kuchli namoyon bo'lishi shaxs xulq-atvori me'yorining eng oxirgi marrasiga borib, patologik belgilar bilan chegaralanish holatida kuzatiladi. Bu holat psixologiyada xarakter aksentuatsiyasi (me'yordan ortishi) deb ataladi. Bunda shaxsda boshqalarga nisbatan barqarorlik bo'lgani holda bir xil qattiq xayajonlantiruvchi omillarga zaiflik ortishi kuzatiladi.

Xarakter aksentuatsiyasi turlari olimlar tomonidan turli xil ko'rinishda ajratib ko'rsatiladi. Ularning ayrimlari (K.Leongard bo'yicha) haqida to'xtalib o'tamiz:

Giertim tip – bu toifadagilar o'ta kirishimli, so'zamol bo'ladilar, mimika va pantomimika orqali o'z his-tuyg'ularini namoyon qiladilar. Ular to'satdan suhbatning dastlabki mavzusidan chetga chiqadilar. Bu toifadagi odamda o'z xizmat va oilaviy majburiyatlariga yetarli tarzda jiddiy e'tibor bermasliklari oqibatida atrofidagi odamlar bilan qisqa kelishmovchiliklar yuzaga keladi. Ularning ijobiy tomonlari ishchanlik, optimistlik, faoliyatlilik, tashabbuskorlik kabi sifatleri orqali namoyon bo'ladi. Ularning salbiy xislatlari – yengiltabiat, jizzaki, o'z majburiyatlariga befarq munosabatda bo'lish kabi sifatlardir.

Distim tip – bu toifadagilar kamgap, nekbini kayfiyatli, tortinchoq bo'lishadi. Ularning aksariyati uyda o'tirishni xohlashadi. Ular sershovqin davralarni yoqtirmaydilar va atrofdagilar bilan kamdan kam nizoga boradilar. Ularning ijobiy xislatlari: jiddiy, haqiqatgo'y, sof vijdonli. Salbiy tomonlari: sustkash, shaxsiyatparast, fikrlash doirasi tor.

Sikloid tip – bu toifadagilarning kayfiyati tez-tez davriy o'zgarishi, buning oqibatida ularning atrofidagi odamlar bilan bo'lgan muomalasi ham o'zgarib turishi kuzatiladi. Ularning kayfiyati chog' bo'lganda yaxshi hamsuhbat, kayfiyati yomon bo'lganda esa tundroq bo'lib qoladilar.

Ta'sirchan tip – bu toifadagilar muomalada tortinchoq, ko'p hollarda tund va injiq bo'lib, yolg'onchilikka, surbetlikka, nizoga moyildirlar. Shuningdek, bunday holatlarda ular doim faol bo'ladilar. Bu toifadagilar xotirjam bo'lganlarida sofdil, hayvonlar va kichkina bolalarni yaxshi ko'radilar, kayfiyatlari yomon bo'lganida esa injiq, jahldor, o'zlarini idora eta olmaydilar.

To'xtaluvchan (tiqiluvchan) tip – bu toifadagilar me'yorida hamsuhbat, pismiq, aql o'rgatuvchi, kamgapdirlar. Ular nizoli holatlarda faol, tashabbuskor bo'lib, tanlagan faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirishga intiladilar. Ular o'ziga nisbatan o'ta talabchan bo'lib, ijtimoiy adolatga xayrixoh, shuning bilan birga arazchi, hamda qasoskor bo'ladilar. Ba'zida haddan ziyod o'ziga bino qo'ygan, to'g'riso'z, rashkchi, yaqinlariga va qo'l ostidagi xodimlarga nisbatan o'ta talabchan bo'lib qoladilar.

Sinchkov (pedantik) tip mojarolarga kam aralashib, xizmat doirasida o'zini qattiqqo'ldek tutib, atrofdagilarga ko'p talablar qo'yadi. Shuningdek yetakchilikni bajonidil boshqa odamlarga beradi. Ba'zida oila a'zolariga tartib borasida o'ta talabchan. Uning ijobiy xislatlari: sofdil, tartibli, jiddiy, sadoqatli. Salbiy tomonlari: rasmiyatchi, pismiq, qiziqqon.

Tashvishli tip – bu toifadagilar past kirishimli, o'ziga nisbatan ishonchsiz bo'ladilar. Ular nizolarga kam aralashadilar va bu holatda qo'llab-quvvatlovchi va tayanch axtaradilar. Ular do'stlikni qadrlaydilar, o'z-o'ziga tanqid ko'zi bilan qaraydilar, o'ziga topshirilgan vazifalarni so'zsiz bajaradilar, o'zining himoyasizligi oqibatida ko'p hollarda hazil-huzul uchun nishon bo'ladilar.

Jo'shqin (hayajonli) tip – bu toifadagilar tor doirada saralangan odamlar bilan aloqa qilishni afzal ko'radilar. Ular kam hollarda mojarolarga aralashib, xafachiliklarini ichlarida saqlaydilar. Ijobiy xislatlari: samimiylilik, rahmshafqatlilik, o'zgalarning yutug'idan quvonadigan hamda bo'ysunuvchan. Salbiy tomonlari – yig'loqi, o'ta hissiyotli, izzatlab.

Tez muomalaga kirishuvchanlik, yetakchilikka intiluvchanlik, ko'ngilchanlik, boshqalarga tez ko'nikuvchanlik *namoyishkorona tipga* xosdir. Ularda hokimiyatni egallash hissi ustivor bo'lib, maqtozni juda yoqtiradilar. Bunday kishilar o'ziga ishonchiligi va o'ziga tortuvchanliklari bilan

atrofdagilarning g'ashiga tegib, mojarolarni o'zlari keltirib chiqaradilar va bu holatda faol tarzda o'zlarini himoya qiladilar. Ularning ijobiy tomonlari – sabr-qanoatlilik, artistlik qila oladigan, boshqalarni o'ziga qarata oladigan, to'g'riso'zligidir. Salbiy tomonlari esa – xudbinlik, shaxsiyatparastlik, maqtanchoqlik, dangasalikdir.

Ekzaltirlashgan tip – bu toifadagilar o'ta kirishimli bo'lib, tez-tez bahslashadilar, lekin bahs ochiq mojarolarga yetib bormaydi. Nizoli holatlarda ular bir paytning o'zida ham faol, ham sustkashdirlar. Shu bilan birgalikda do'stlari va yaqinlariga bog'langan va ularga juda g'amxo'r. Ularda achinish hissi yuqori, yaxshi didli, hissiyotlari yorqin va samimiy bo'ladi. Salbiy tomonlari – vahimachi, bir onlik kayfiyatlarga yon bosuvchi.

Ekstraversiv tip – o'ta kirishimli bo'lib, bunday odamlarning do'stlari va tanishlari juda ko'p bo'ladi. Bunday odamlar ezmalik darajasigacha ko'p gapiradilar, har qanday ma'lumotni ulardan ochiqchasiga bilib olish mumkin. Bu toifadagilar do'stlar davrasida, ishda, oilada, ko'pincha yetakchilikda boshqalarga yon bosib, boshqalarga bo'ysunishni va chetda turishni afzal ko'radilar. Ular o'zgalarni diqqat bilan eshitishga tayyorlik, so'rashgan narsani bajarish kabi ijobiy xislatlarga egadirlar. Salbiy tomonlari: ta'sirga beriluvchan, yengiltabiat, maishatga o'ch, ig'vo va g'iybatlarni tarqatishda ishtirok etadilar.

Introversiv tipning boshqalardan farqli tomoni shundaki, ular o'ta iymanuvchan, haqiqiylikdan yiroqlashuvchan, o'z tuyg'ularini oshkor etishni xohlamaslik, faylasuflik qilishga intilishlari bilan xarakterlidir. Bunday odamlar yolg'izlikni yoqtiradilar, atrofdagilar bilan kam nizoga borib, qachonki ularning shaxsiy hayotlariga aralashgandagina ular atrofdagilar bilan ixtilofga boradilar. Ularda qat'iyatlilik, prinsipiiallik kabi ijobiy fazilatlar bilan bir qatorda qaysarlik, fikrlashning torligi, o'z g'oyalarini o'ta qat'iyatlilik bilan himoya qilish kabi salbiy xislatlar mavjud. Ular har bir narsaga o'z nuqtai nazarlari bilan qaraydilar, boshqalarning fikrlaridan o'z fikrlarini ustun qo'yadilar.

Xarakter aksentuatsiyasiga to'g'ri tarbiyaviy ish yo'lga qo'yilganda chek qo'yish mumkin. Agar bu vaziyat o'z vaqtida me'yoriy holatga keltirilmasa, turli xil patologik buzilishlarga olib kelishi kuzatiladi.

7.5. Qobiliyat

Psixologiya fani qobiliyatlar bilan faoliyatning muhim jabhalari bo'lmish bilim, ko'nikma va malakalarning aynan bir narsa ekanligini rad etib, ularning birligini e'tirof qiladi. Shuning uchun qobiliyatlar faqat faoliyatda ro'yobga chiqadi. Agar shaxs rasm solishga hali o'rganmagan bo'lsa, uning tasviriy san'atga nisbatan qobiliyatini namoyon qila olmaydi.

Bolalik davrida u yoki bu qobiliyatlarning atrof-muhitdagi odamlar tomonidan tan olinmaganligi, keyinchalik xuddi ana shu qobiliyatlari tufayli jahonda munosib shon-shuhrat qozonishga musharraf bo'lgan juda ko'p allomalarning nomi olamga mashhur, chunonchi, Albert Eynshteyn (nisbiylik nazariyasi asoschisi), Nikolay Lobachevskiy (yangi geometriya yo'nalishi asoschisi) va boshqalar o'qishida genial olim bo'lib voyaga yetishishiga hych qanday asos yo'q edi.

Demak, qobiliyatlar deb shaxsning faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish sharti hisoblangan, bilim, ko'nikma va malakalarni egallash dinamikasida yuzaga chiqadigan farqlarda namoyon bo'ladigan individual psixologik xususiyatlarga aytiladi.

Qobiliyat sifat va miqdor jihatdan tavsiflanib, uning *sifat tavsifi* shaxsning qaysi individual-psixologik xususiyatlari faoliyat muvaffaqiyatining majburiy sharti tariqasida xizmat qilishini anglatadi. Uning *miqdoriy tavsifi* esa faoliyatga qo'yiladigan talablarga shaxs tomonidan qay yo'sinda bajarish imkoniyati mavjudligini bildirib, ya'ni mazkur inson boshqa odamlarga qaraganda malaka, bilimlardan nechog'lik tez, yengil, puxta foydalana olishini namoyish qiladi.

Qobiliyatlar sifatida ro'yobga chiqadigan psixik xislatlar majmuasining tuzilishi yaqqol va alohida faoliyat talabi bilan belgilanganligi tufayli har qaysi turdagi faoliyatlar uchun o'ziga xos tarzdagi ko'rinishga ega. Bularidan ayrimlari haqida to'xtalib o'tamiz:

Matematik qobiliyatga matematik materiallarni umumlashtirish, mulohaza yuritish jarayonini qisqartirish, matematik ish-amallarni kamaytirish, masalani idrok qilish bilan natijasi o'rtasida aloqa o'rnatish, to'g'ri va teskari fikr yuritishdan yengilga o'tishlik, masala yechishda fikr yuritishning epchilligi kabilar kiradi.

Adabiy qobiliyat esa nafasat hislarining yuksak taraqqiyot darajasi, xotirada yorqin ko'rgazmali obrazlarning jonliligi, "til zehni", behisob xayolot, ruhiyatga qiziquvchanlik, o'zi ifodalashga intiluvchanlik va boshqalarni o'zida ifodalaydi. Ajratib ko'rsatilgan qobiliyatlar tarkibidan ko'rinib turibdiki, matematik va adabiy qobiliyatlar o'zaro bir-biriga o'xshamagan talablari bilan tafovutga egadir. Bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, *pedagogik, tibbiy, musiqaviy, texnik* qobiliyatlar va shunga o'xshash qobiliyatlar tuzilishi maxsus xususiyatga ega bo'lib, kasbiy ahamiyat kasb etishi mumkin.

Umumiy qobiliyatlar (sifatlar)ni maxsus qobiliyatlarga (sifatlarga) zid tarzda tushuntirish mumkin emas. Chunki shaxsning umumiy qobiliyatlari maxsus qobiliyatlarni hosil qiluvchi omillardan iborat. *Maxsus qobiliyatlar* ko'lam jihatdan torroq bo'lishiga qaramay, chuqurroq mohiyatni o'zida mujassamlashtiradi.

Rus olimi I.P.Pavlov o'z ta'limotida "*badiiy*", "*fikrlovchi*", "*o'rt*" tiplarga ajratilgan shaxslarning ana shu uchta tipdan bittasiga taalluqli ekanligini tavsiflab beradi. Muallif ushbu tipologiyani yaratishda oliy nerv faoliyatining birinchi va ikkinchi signal sistemasidan iboratligi to'g'risidagi ta'limotiga asoslanadi. Birinchi signallar va ikkinchi signallar sistemasi esa obrazlar haqida so'zlar orqali signal berishdan iboratdir. Ikkinchi signallar sistemasi I.P.Pavlov tomonidan "signallarning signali" deb nomlangan edi. Ushbu tipologiyani osonroq qilib quyidagicha tushuntirish mumkin:

- shaxs psixik faoliyatida birinchi signallar sistemasining signallari nisbatan ustunlik qilsa inson "*badiiy*" tipga taalluqli bo'lib, ular uchun bevosita taassurot, jonli tasavvur, yorqin idrok, his-tuyg'ular (emotsiyalar) natijasida vujudga keladigan obrazlarning yorqinligi xosdir;

- mabodo «signallarning signali» nisbatan ustuvor bo'lsa - bu shaxs "*fikrlovchi tipga*" munosib bo'lib, ular uchun, mavhum, mantiqiy tuzilmalar, nazariy mulohazalar va metodologik muammolarning ustunligi muvofiqdir;

- agarda har ikkala signallar aralashib ketgan bo'lsa (birortasining ustunligi sezilmasa) - bu inson "*o'rt tipga*" mansub odamd.

- Psixologiyada ko'proq qobiliyat tushunchasi aql-zakovat, ya'ni *intellekt* tushunchasi bilan bog'lab o'rganiladi.

Intellekt (lot. "*intellectus*" - tushunish, bilish, "*intellectum*" - aql) aql-idrokning shunday bo'lagiki, uni o'lchab, o'zgartirib, rivojlantirib boriladi. Bu intellekt va u bilan bog'liq qobiliyatlar ijtimoiy xarakterga ega ekanligidan darak beradi. Qobiliyatlar va intellektga bevosita tashqi muhit, undagi insoniy munosabatlar, yashash davri ta'sir ko'rsatadi.

Govard Gardner "Intellektning xilma xilligi" nazariyasida intellekt bu turli-tuman qobiliyatlardan tashkil topgan shunchaki hodisa emas, balki aksincha intellektning har xil turlari ko'p, ulardan har qaysisi o'zicha muhim va boshqalardan mustaqil deb ta'kidlagan edi.

G.Gardner ta'kidlaydiki har bir odamda hych bo'lmaganda VIII turi bor:

I. Og'zaki-lingvistik intellekt sohibi o'qishni yaxshi ko'radi, so'zlarni o'zlashtirishi oson, katta so'z boyligiga ega, ijod etishni yaxshi ko'radi. Bunday intellekt shoirlarda, yozuvchilarda va notiqalarda kuchli rivojlangan bo'ladi.

II. Mantiqiy-matematik intellekt hisoblashni va sonlar bilan ishlashni yaxshi ko'radigan, mantiqiy masalalar va jumboqlarni yechishni, shaxmat o'ynashni yoqtiradigan, o'z tengdoshlariga nisbatan ko'proq abstrakt darajada fikrlaydigan, sabab va oqibat aloqalarini tushunadigan shaxslarga xosdir.

III. Vizual - fazoviy intellektli odam ko'rinadigan obrazlar bilan fikr yuritadi, xaritalarni, chizmalarni, diagrammalarni matnga nisbatan osonroq o'qiydi, fantaziyalarga berilishni va san'at bilan shug'ullanishni yaxshi ko'radi, yaxshi rasm chizadi, qiziqarli uch o'lchovli modellarning konstruksiyasini

ishlaydi, o'qish paytida so'zlardan emas, balki illyustratsiyadan ko'proq axborot oladi. Intellektning bu turi ko'z bilan ko'rish tasavvuri, o'zlashtirishi his-tuyg'usi bilan bog'liq bo'lgan va predmetlarni ko'rish orqali eslab qolish qobiliyati ichki aqliy obrazlarni yaratish qobiliyatini o'z ichiga oladi.

IV. Motor-harakatli intellekt turi yuqori sport natijalarini ko'rsatadi; imo-ishoralarni, mimikasini, boshqalarning qiliqlarini yaxshi o'xshatadi; narsalarni qismlarga bo'lishni va qaytadan yig'ishni yoqtiradi; ko'rgan narsalarning hammasini qo'li bilan tegib ko'radi; yugurishni, sakrashni, kurashga tushishni yaxshi ko'radi, hunarlarga qobiliyati borligini namoyish qiladi.

V. Musiqaviy-ritmik intellektning bu turi musiqaga oid obrazlarni, atrofimizdagi tovushlarni o'z ichiga olgan holda, bilishga va ritmni sezishga asoslangan. Bu tur ko'proq kompozitorlarda, musiqachilarda, ashulachilarda va o'yinchilarda rivojlangan.

VI. Shaxslararo intellekt tengdoshlari bilan aloqada bo'lishni yaxshi ko'radi, vaziyatlarda rahbar bo'lib qoladi, boshqa bolalar bilan o'yinashni va ularga o'rgatishni yoqtiradi, birga qayg'ura oladi, boshqa bolalar uning davrasiga intilishadi.

VII. O'z-o'ziga yo'nalgan intellekt sohibi mustaqillik - iroda kuchi tuyg'usini namoyish qiladi, o'zining ijobiy tomonlarini va kamchiliklarini haqiqatdan ham tan oladi, unga hyech narsa xalaqit bermagan paytda vazifalarni yaxshi bajaradi, o'zini tuta oladi, yolg'izlikda ishlashni afzal ko'radi, o'z his-tuyg'ularini aniq ta'riflab beradi, o'z xatolaridan saboq oladi, o'z qadrini biladi.

VIII. Tabiatga yo'nalgan intellekt tabiat hodisalari, hayvonlar, o'simliklarga qiziqishini ko'rsatadi, tabiat dunyosini tushunish, atrofda muhitning belgilari va xususiyatlarini ajrata olish, klassifikatsiyalash qobiliyatini namoyon qiladi.

Demak, shaxsning u yoki bu faoliyatiga tayyorligi tariqasida yuzaga keladigan har qaysi yaqqol intellektlar tuzilishi o'z tarkibiga yetakchi va yordamchi, umumiy va maxsus nomdagi majmua sifatlarini qamrab olgan bo'lib, murakkab tizimdan iborat ekan.

Talant qobiliyatlar taraqqiyotining yuksak bosqichi ekanligidan dalolat beradi. *Talant* (yunon. "talanton"- qimmatbaho, noyob narsa, irsiy, tabiiy xislat) muayyan faoliyatning muvaffaqiyatli va ijodiy ravishda bajarilishini ta'minlaydigan qobiliyat hamda iste'dodlar majmuasidir.

Talant - katta, ijodiy va zo'r mehnat mahsuli bo'lsa, mehnat esa hayotiy tajriba, ko'nikmalarning zaruriy majmuasi manbaidir. *Ijodiyotning sharti* esa hayotiy tajriba, zaruriy ko'nikma va malakalar yig'indisining mavjudligidir. Ijodiy faoliyat talantning ajralmas qismi hisoblanib, bunda *ruhlanish* deb nomlangan psixologik holat alohida ahamiyat kasb etib, bunda ruhlanish

faoliyat mahsuldorligi ortishiga qaratilgan ijodiy lahzadan iborat holatdir. Talant imkoniyat tariqasida psixologik hodisa hisoblansa, u holda *mahorat* - haqiqatga aylangan imkoniyat gavdalanishidir. Psixologik nuqtai nazardan haqiqiy *mahorat* - bu shaxs talantining faoliyatda namoyon bo'lishidir.

Layoqat esa qobiliyatning tabiiy zamini sifatida faoliyatda muhim rol o'ynaydi. *Layoqat* deb qobiliyatlar taraqqiy etishining dastlabki tabiiy sharti sifatida namoyon bo'ladigan miya tuzilishining, sezgi a'zolari va harakatlarning morfologik hamda funksional xususiyatlariga aytiladi.

Qobiliyat va layoqatlar muayyan tabiiy zamanga bog'liq bo'lsa-da, lekin ular faqat tabiatning in'omi emas, balki insoniyat tarixiy taraqqiyotining bebaho (qimmatli) mahsulidir. Xuddi shu bois qobiliyatlarining namoyon bo'lishi shaxslar tomonidan ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish davomida ijtimoiy shartlangan bilimlar va ko'nikmalarni tarkib toptirishning yaqqol usullariga bevosita bog'liqdir.

Bob yuzasidan nazorat savollari:

1. Shaxs faolligi va faoliyatini tushuntiring.
2. Motiv va motivatsiya tushunchalari qanday ma'noga ega
3. Shaxs ehtiyojlari nima?
4. 5. Temperament deganda nimani tushunasiz?
6. Temperament qanday turlanadi?
7. "Xarakter" va "xarakterologiya" tushunchalarini ta'riflang.
8. Xarakter xislatlari qanday guruhlarga bo'linadi?
9. Xarakter aksentuatsiyasi nima va uning qanday tiplari mavjud?
10. Qobiliyat to'g'risida umumiy tushuncha bering?
11. Qobiliyatning qanday turlarini bilasiz?

Mustaqil ta'lim uchun mavzular:

1. Shaxs faoliyati samaradorligini oshirishda motivatsiyaning o'rni.
 2. Shaxs faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi psixologik omillar.
- Xarakterologiyaga oid bilimlar tarixi.
3. Inson xarakteriga ta'sir qiluvchi omillar.
 4. Intellekt koeffitsienti va testlari haqida tushuncha.
 5. Inson qobiliyatining rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillar.

8-MAVZU. SHAXSNING BILISH JARAYONLARI

Bobning qisqacha mazmuni

Diqqat va sezgi. Diqqat haqida tushuncha, diqqatning fiziologik asoslari, diqqatning turlari, xususiyatlari, parishonlik. Sezgi turlari, ularning o'ri va o'ziga xos xususiyatlari.

Idrok. Idrokning umumiy ta'rifi va fiziologik asoslari, idrokning yaxlitligi, anglangan bo'lishi, ayrim narsalarga qaratilishi va barqarorligi.

Xotira va mnemik jarayonlar. Xotira tushunchasi, xotira nazariyalari, mnemik jarayonlar (esda olib qolish, esda saqlash, qayta esga tushirish, va unutish), xotira turlari, xotiraning individual farqlari.

Tafakkur. Tafakkurning umumiy ta'rifi, tafakkur turlari va aqlning muhim sifatlari, fikrlash operatsiyalari, tushuncha, hukan va xulosa chiqarish, mantiqiy masalalarni yechish.

Nutq va xayol. Til va nutq to'g'risida umumiy tushuncha, tafakkur va nutq, nutqni idrok qilish va tushunish, nutq turlari. Xayol haqida umumiy tushuncha, xayol turlari va obrazlar yaratish usullari.

8.1. Diqqat va sezgi

Diqqat inson faoliyatining barcha turlarini muvaffaqiyatli amalga oshirishning, ularning samaradorligini ta'minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Kishi faoliyati qanchalik murakkab, serzahmat, davomiylik jihatdan uzoq muddatli, mas'uliyat hissini taqozo qilsa, u diqqatga shunchalik yuksak shartlar va talablar qo'yadi. Diqqat aqliy faoliyatning barcha turlarida ishtirok etadi, insonning xatti-harakatlari ham uning ishtirokida sodir bo'ladi.

Diqqat deb inson his-tuyg'usini va ongini bir nuqtaga to'plab, muayyan bir ob'ektga faol qaratilishiga aytiladi. Inson faoliyati jarayonida idrok va tasavvur qiladigan har bir narsa, har bir hodisa, o'zi qilgan ishi, o'y va fikrlari diqqatning ob'ekti bo'la oladi.

Diqqat uzluksiz ravishda, muayyan darajada faollik xususiyatini saqlab turib, bunday faollik, ongning biron bir ob'ektga yo'nalishining kuchayishi va ma'lum vaqt davomida diqqat yo'naltirilgan narsaga ongning faol qaratilishini regulirovka qilib turadi hamda mazkur holatning saqlanishini ta'minlaydi.

Diqqat sezgi, idrok, xotira, tafakkur, xayol, nutq kabi psixik jarayonlarda qatnashadi, ularning mahsulдорligini oshirishga ta'sir etadi. Shu boisdan, diqqat qaratilgan ob'ektlar ong to'plangan nuqtasida aniq, yaqqol aks ettiriladi.

Diqqat individning hissiy, aqliy yoki harakatlantiruvchi faolligi darajasining oshirilishini taqozo etadigan tarzda ongning yo'naltirilganligi va biror narsaga qaratilganligidir (ye.B.Pirogov). Berilgan ta'rifga binoan, ushbu yo'naltirilganlik sub'ektning ehtiyojlariga, uning faoliyati maqsadlari va vazifalariga mos keladigan ob'ektlarning tanlanganligida, ixtiyorsiz yoki ixtiyoriy tanlashda va ajratishda vujudga keladi. Diqqatning muayyan ob'ektlarga to'planishi, to'planganligi (konsentratsiyalanishi) ayni paytda boshqa jismlardan chalg'ishni yoki ularning vaqtincha (muvaqqat) inkor etilishini talab qilib, ana shu omillarga ko'ra, aks ettirish ravshanlanib boradi, tasavvurlar, mulohazalar faoliyat yakunlangunga qadar, qo'yilgan maqsadga erishguncha ongda saqlanadi. Shu tariqa diqqat faoliyatni nazorat qilib boradi va uni boshqaradi. Shuning uchun ko'pgina psixologlar (P.Ya.Galperin va uning shogirdlari) diqqatning yuksak turini bilish jarayonlari, kishining xulq-atvori kechishini boshqarish imkoniyatiga ega ekanligini ta'kidlaydilar. Diqqatning biror ob'ektga yo'nalishiga ko'ra *sensor (perseptiv)*, *aqliy (intellektual)*, *harakatlantiruvchi (harakat)* shakllari mavjud.

Diqqat muayyan ob'ektga to'planishi ko'p jihatdan insonning *his-tuyg'usi*, *irodaviy sifati*, *qiziqishi* kabilarga bog'liqdir.

His-tuyg'ular va emotsional holatlar diqqatning ob'ekti bilan uzviy bog'langandagina uning uchun ijobiy ahamiyat kasb etib, ular qanchalik kuchli va ko'tarinki tarzda namoyon bo'lsa, demak, diqqat ham shunchalik ob'ektga mustahkam qaratiladi. Hislar, emotsiyalar diqqatning ham ixtiyorsiz, ham ixtiyoriy turlarini zo'raytiradi. Insonning amaliy va aqliy faoliyati jarayonida uning ongi muayyan darajada yangi bilimlar ma'lumotlar bilan boyib borishi natijasida diqqat ham takomillashib boradi. Insonning barqarorlashgan kayfiyati diqqatning kuchi va ildamligini oshiradi, tanlovchanligiga ijobiy ta'sir etadi. Stress, affekt singari emotsional holatlar diqqatga salbiy ta'sir etadi va uni tashqi ta'sirlarga beriluvchan, kuchsiz qilib qo'yadi. Buning oqibatida diqqat chalg'iydi, bo'linadi, parishonlik namoyon bo'ladi, faoliyatdagi bir tekislik buziladi.

Psixologiyada diqqatning ob'ektiga ko'ra tashqi va ichki; faoliyat shakliga ko'ra individual, guruhiy yoki jamoaviy; hosil bo'lish xususiyati va amal qilish usuliga qarab ixtiyorsiz, ixtiyoriy, ixtiyoriydan so'nggi turlarga bo'linadi.

Tashqi diqqat deb ongimizning ob'ektiv voqyelikdagi narsa va hodisalarga, ularning ayrim belgi va xususiyatlariga yo'naltirilishi, ularda faol to'planishiga aytiladi. Tashqi diqqat faqat idrok qilish jarayonidagina namoyon bo'lmasdan, balki fikr yuritilayotgan narsalarga ham qaratiladi. Jumladan, ixtirochining o'zi yaratgan narsasini tasavvur qilishi, rassomning obrazlarni kashf qilish jarayoni, muhandisning to'g'on qurilishini ko'z o'ngiga keltirish bilan bog'liq holatlar bunga misol bo'la oladi.

Ichki diqqat esa ongimizning o'z sub'ektiv taassurotlarimiz, his-tuyg'ularimiz va intilishlarimizga qaratilishidan iboratdir. Inson ongining o'zida sodir bo'layotgan o'z hissiyotlarini, fikrlarini, orzu istaklarini va shu kabilarni kuzatishda tashqi diqqatdan farqli o'laroq ichki diqqat yuzaga kelar ekan, bunda diqqatning har ikkala ko'rinishi ham faoliyatning muvaffaqiyatli yakunlanishiga munosib hissa qo'shish imkoniyatiga egadir.

Bir kishi ongining muayyan ob'ektga qarata yo'naltirilishi va unga to'planishiga *individual*; bir guruh yoki ko'pchilikdan iborat kishilar jamoasining ongi psixik faoliyatning biror ob'ektga qarata yo'naltirilishi va shu ob'ekt ustida to'planishiga *guruh* yoki *jamoat diqqati* deb yuritiladi.

Diqqatning *ixtiyoriy* turi ko'pincha irodaviy deb nomlanib, diqqatning muayyan ob'ektga yo'naltirilishi iroda kuchi bilan saqlab turiladi. Irodaning faoliyatni amalga oshirishda ishtirok qilishi ko'p jihatdan kishining maqsadiga intilishi, ishchanlik qobiliyati, psixologik tayyorligiga bog'liq. Shu boisdan, diqqatning kuchi, barqarorligi, mustahkamligi, ildamligi odamning muayyan faoliyatini bajarishga moyilligi, shayligi bilan o'lchanadi. Har qanday faoliyatni amalga oshirishning boshida qiyinchiliklar yuzaga kelib, ular kishidan irodaviy zo'r berishni talab qiladi. Faoliyatni bajarishdagi nuqsonlarning namoyon bo'lishi diqqatni to'plashdagi qiyinchiliklarning oqibatidir.

Ixtiyoriy diqqat – ongning oldindan belgilangan maqsadga muvofiq irodaviy va asabiy faollik ko'rsatgan holda muayyan ob'ektga yo'nalishi va unga to'planishidan iborat diqqat turidir.

Diqqatning ob'ektga to'planishi, mustahkamlanishi odamning qiziqishlariga bog'liqdir. *Ixtiyorsiz diqqat*ning faoliyatda mujassamlashishida kishining ishtiyoqi va qiziqishi katta ahamiyatga egadir. Odatda faoliyatga qiziqish bevosita va bilvosita shaklda namoyon bo'ladi. Bevosita qiziqish faoliyat jarayoniga, xatti-harakatlarning o'ziga, ish uslublariga qaratilgan qiziqishdan iboratdir.

Ixtiyorsiz diqqat – ongimizning oldindan belgilangan maqsadsiz ravishda muayyan ob'ektga yo'naltirilishi va unga to'planishidan iborat diqqat turidir. Ixtiyorsiz diqqat ob'ektlari narsa va hodisalarning odatdan tashqari holati, belgisi, sifati va boshqalardir.

Ixtiyoriydan so'nggi diqqat – diqqatning muayyan ob'ektga avvalo ixtiyoriy ravishda qaratilib, so'ngra uning ahamiyati tushunilgan sari o'z-o'zidan qaratilib boriladigan (avtomatlashgan) diqqat turi bo'lib, ushbu tushuncha psixologiya faniga N.F.Dobrinin tomonidan kiritilgan. Ixtiyoriydan so'nggi diqqat biror ob'ektga uzoq muddat qaratilishi bilan belgilanib, bunda hych qanday sezilarli irodaviy kuch-g'ayrat sarflanmasa ham bo'ladi. Insonning yuqori darajadagi jadal va unumli aqliy faoliyatini hamda barcha

turdagi mehnatning yuqori, samarali ko'rsatkichi diqqatning shu turi bilan bog'liq bo'ladi.

Psixologiyada diqqatning barqarorligi, o'zgaruvchanligi, ko'chuvchanligi, bo'linishi, taqsimlanishi, ko'lami kabi xususiyatlari haqida mulohazalar yuritiladi.

Diqqatning *barqarorligi* uning davomiyligi va u yuz bergan butun vaqt mobaynida qaratilganlik darajasi bilan belgilanadi. Diqqatning barqarorligi diqqat qaratiladigan ob'ektlarning xususiyatlariga va diqqati yo'naltirilgan shaxsning faolligiga bog'liq bo'lib, u diqqatning o'z ob'ektiga kuchli yo'naltirilishi va faol to'planishidan iborat ijobiy xususiyatdir.

Diqqatning *o'zgaruvchanligi* uning barqarorlik xususiyati bilan bog'liq bo'lib, bunda diqqat uzluksiz tarzda ob'ektga qaratilishi natijasida diqqat vaqti-vaqti bilan kuchayib yoki sustlashib ketishi kuzatiladi. Diqqatning o'zgaruvchanligi – idrok, xotira, tasavvur yoki tafakkur jarayonida diqqatning ma'lum vaqt ichida dam kuchayib, dam susayib turishdan iborat qonuniyat; diqqat ba'zan minutiga 25-30 marta ham o'zgaradi. Diqqatning o'rtacha o'zgarish – tebranish chastotasi 2-3 sekundga tengdir.

Diqqatning *ko'chishi* sub'ektning bir faoliyatdan ikkinchi faoliyatga, bir ob'ektidan ikkinchi ob'ektga, bir harakatdan ikkinchi harakatga ataylab o'tishida namoyon bo'lib, bunda ko'chish to'liq yoki chala bo'lishi mumkin.

Diqqatning *bo'linishi* uning ko'chishidan farqli o'laroq ixtiyorsiz tarzda bo'ladi. Diqqatning bo'linishi shaxsning asosiy faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun ahamiyatsiz bo'lgan ob'ektga ko'chishida namoyon bo'ladi.

Diqqatning *taqsimlanishi* – ikki va undan ortiq faoliyat turlarining ayni bir vaqtning o'zida muvaffaqiyatli bajarish imkoniyati bilan bog'liq xususiyatidir. Diqqatning taqsimlanishi murakkab faoliyat jarayonini amalga oshirishda alohida ahamiyatga ega. Masalan: shofyorning, o'qituvchining ish jarayonidagi diqqati taqsimlangan diqqatdir.

Diqqatning *ko'lami (hajmi)* uning taqsimlanish xususiyati bilan belgilanib, ayni bir vaqtning o'zida aniq-ravshan idrok etiladigan ob'ektlar soni bilan tavsiflanadi. Diqqatning ob'ektlari o'rtasida qanchalik yaqin bog'lanishlar mavjud bo'lsa, uning hajmi shunchalik keng bo'ladi va aksincha. Diqqatning hajmi eksperimental sharoitda 2 - 6 mustaqil ob'ektga tengdir.

Diqqat *ob'ekti* – ongimiz atrofda gildardan ajratib olgan holda yo'naltirilgan va faol to'plangan narsa yoki hodisa. Diqqat ob'ekti faqat ob'ektiv narsalar emas, balki sub'ektiv hodisalar, o'z his-tuyg'ularimiz, fikrlarimiz, xayol yoki xotira tasavvurlarimiz va boshqa shu kabilar ham bo'lishi mumkin.

Diqqatni ob'ektga qarata olmaslik va yo'naltira olmaslik bilan bog'liq salbiy xususiyatlar, ya'ni diqqatning buzilishi ham uchrab turadi. Ulardan biri

parishonlikdir. *Parishonlik* – diqqatni ma'lum bir ob'ektga qarata olmaslikdan iborat salbiy xususiyat. Parishonlik vaqtincha holat bo'lishi ham, shaxsning nisbatan barqaror xislati bo'lishi ham mumkin. Parishonlikning ikki turi mavjud bo'lib, biri diqqatni umuman hечch narsaga qarata olmaslik bo'lsa, ikkinchisi diqqatni muayyan ob'ekt ustiga kuchli to'plantirib, boshqa narsalarga qaratilmasligidir. Parishonlik psixopatologik sabablarga ko'ra kelib chiqishi ham mumkin.

Diqqatsizlik – diqqatni ob'ektga yo'naltira olmaslik va to'play olmaslik, atrofda kishilarga nisbatan e'tiborsizlik yoki iltifotsizlikdan iborat shaxsning yana bir salbiy xarakter xislatidir.

Ko'pgina psixologlar (xoh chet el, xoh sobiq sovet psixologi bo'lishidan qat'iy nazar) diqqatni o'quvchi va talabalarda tarbiyalash, o'stirish va faollashtirish to'g'risida mulohaza yuritib kelmoqdalar. E.G'.G'oziev fikricha, diqqatni an'anaviy uslubga tayangan holda maxsus vositalar yordamida darsdan tashqari qiziqarli materiallar hisobiga takomillashtirish yuzasidan mulohaza yuritishdan ko'ra, balki ta'lim jarayonida o'quvchi va talabalar tomonidan fan asoslarini o'zlashtirish kezida uni (diqqatni) shakllantirib borish zarur. Buning uchun u diqqatni shakllantirishga bevosita ta'sir qiluvchi quyidagi usullardan foydalanishni tavsiya etadi:

- materiallarga ko'z yugurtirish;
- materiallarni tasavvur qilish;
- ko'rgazmali materiallarni o'qish;
- chuqur tahlil qilish;
- gaplardan xato topish;
- mantiqiy urg'uga e'tibor berish;
- mantiqiy nuqsonni topish.

Sezgi oddiy psixik bilish jarayoni bo'lib, moddiy qo'zg'atuvchilarning muayyan retseptorlarga bevosita ta'sir etishi orqali real olamdagi narsa va hodisalarning ayrim xususiyatlarini va shuning bilan birga, inson organizmining (uning a'zolarining) ichki holatlarini alohida-alohida aks ettirishdan iborat bilishning dastlabki bosqichidir. Inson atrof-muhitdagi moddalar shaklini, harakatlar ko'rinishini, ularning xossalari o'ziga xos xususiyatlarini sezgi organlari yordamida, sezgilar orqali biladi, xolos.

Psixologiyada sezgilarning fiziologik asosini va mexanizmlarini analizatorlar ta'siri natijasida yuzaga keluvchi asab (nerv) jarayoni, uning tizimi, tuzilishi tashkil qiladi. Fiziolog va psixologlarning ta'limotlariga ko'ra, analizator uchta tarkibiy qismlardan iborat:

- 1) tashqi kuch-quvvatni (energiyani) asab (nerv) jarayoniga aylantirib beruvchi periferiya qismdan, ya'ni retseptordan;
- 2) analizatorlarning periferiya qismini markaziy qism bilan bog'lovchi afferent (markazga intiluvchi asab tolasi), o'tkazuvchi asab yo'llaridan;

3) periferiya qismlaridan keluvchi nerv impulslari (harakatlari) qayta ishlanuvchi analizatorlarning miya po'stidagi qismlar.

Periferik nervlarning uchlari (ko'z, quloq, teri, burun kabilar), ta'sirotni eltuvchi (afferent), javob qaytaruvchi (efferent) nerv tolalari, analizatorlarning orqa va bosh miya markazlari analizatorini tashkil qiladi.

Ch.Sherrington sezgilarni *quyidagicha klassifikatsiya qiladi*:

tashqi muhitdagi narsa va hodisalarning xususiyatlarini aks ettirishga moslashgan hamda retseptorlarga tananing sirtqi qismiga joylashgan *eksterioreseptiv sezgilar* (retseptorlar);

ichki tana a'zolari holatlarini in'ikos etuvchi hamda retseptorlari ichki tana a'zolarida, to'qimalarida joylashgan *interioreseptiv sezgilar*; tana va gavdaning holati hamda harakatlari haqida ma'lumot (axborot, xabar) beruvchi, muskullarda, bog'lovchi paylarda, mushaklarda joylashgan *proprioreseptiv sezgilar*.

Eksterioreseptiv sezgilar ko'rish, eshitish, hid bilish, teri-tuyish, ta'm-maza kabi turlarni tashkil qiladi. Ko'rish sezgilari bosh miya po'stining orqa bo'ltagiga joylashgan bo'lsa, eshitish sezgilari miya po'stini tepa burmasining qismida joylashgan. Teri-tuyish, harakat sezgilari esa miya po'stini markaziy burmasining orqa qismidan o'rin olgan.

Sezgi turlarining psixologik tavsifi:

Psixologiya fanida uchta katta guruh (turkum)ga ajratilgan sezgilar (eksterioreseptiv, proprioreseptiv, interioreseptiv) o'z navbatida quyidagi turlarga bo'linadi:

1. *Ko'rish sezgilari*. Inson tomonidan rang va yorug'likni sezish ko'rish sezgilari tarkibiga kirib, uning organi – ko'z hisoblanib, u ko'z soqqasi va undan chiqib keladigan ko'ruv nervlaridan tashkil topgan.

2. *Eshitish sezgilari* tovushlarni eshitishdan iborat bo'lib, musiqaviy va shovqinli tovushlarni aks ettiradi. Odatda tovushlar oddiy va murakkab turlarga ajratiladi, ularning birinchisi bir tondan ikkinchisi esa bir necha tonlardan tashkil topadi.

Eshitish sezgilari organi quloq bo'lib, tashqi quloq (quloq suprasi bilan eshituv yo'lidan iborat), o'rta quloq (nog'ora parda va unga yopishgan uchta suyakcha: bolg'acha, sandon va uzangidan tashkil topgan), ichki quloq (quloq labirinti o'zaro birlashgan uchta bo'lakdan tuzilgan).

3. *Hid bilish* sezgilariga hidlarni his qilish kiradi va ularning opgani burun kovagining yuqori tomoni hisoblanib, bu yerda hid bilish xujayralari hamda sezuvchi nerv tarmoqlari joylashgan, ular shilliq pardaga botib turadi.

Hidli moddalar sezuvchi nervni qo'zg'aydi, hid bilish markazi bosh miya yarim sharlari orqa yuzasining pastki qismida mavjud deb taxmin qilinadi.

4. *Ta'm bilish* (maza) sezgilari shirin, achchiq, nordon, sho'r singari mazalarni his qilish bilan tavsiflanadi. Ular muayyan turkumga kiritilgan va

kiritilmagan xilma-xil turlarga ega bo'lib, narsalarning, moddalarning nomlari bilan yuritiladi: nonning mazasi, qovunning mazasi kabilar.

Ta'm bilish sezgilarining organi tilning yuzasi va tanglayning yumshoq qismidan tashkil topgandir. Tilning shilliq pardasida maxsus ta'm bilish surgichlari mavjud bo'lib, ular tarkibida tayoqsimon xujayralardan tuzilgan maxsus ta'm bilish «kurtaklari»ga ega.

5. *Teri sezgilari* tarkibi tuyish va harorat turlaridan iborat bo'lib, ularning bunday nomlanishining bosh omili – bu retseptorlarning teri va organizmning tashqi shilliq pardalarida joylashganligidir.

Tuyish sezgilari ikki xil axborotni qabul qilish imkoniyatiga ega bo'lib, ularning birinchisi tegish va tarqalishni tuyish sezgilari, ikkinchisi esa silliq yoki g'adir-budurni tuyish bilan tavsiflanadi.

6. *Muskul-harakat sezgilari* va statik sezgilar. Muskul-harakat sezgilari motor sezgilari, goho kinestetik sezgilar deb nomlanib, ularga og'irlikni, qarshilikni, organlar harakatini bilish sezgilari kiradi. Ularning organlari – gavda muskullari, paylar, bo'g'imlardan iboratdir. Organlarning tarkibida sezuvchi nervlarning chekka tarmoqlari mavjud bo'lib, ularning ta'sirida harakat va statik sezgilar vujudga keladi.

7. *Organik sezgilarning* retseptorlari ichki organlarda qizilo'ngach, me'da, ichak, qorin tomirlari, o'pka va shu kabillarda joylashgan.

Ichki organlardagi jarayonlar organik sezgilar retseptorlarining qo'zg'atuvchilari bo'lib, ular quyidagilardan iboratdir:

- a) og'riq sezgilari;
- b) xush tuyg'ular;
- v) noxush tuyg'ular.

Sezgilarining xususiyatlariga – sifatleri, jadalligi, davomiyligi va fazoviy lokalizatsiyasi kiradi.

Sifat sezgining asosiy xususiyati bo'lib, uni boshqa sezgi turlaridan farqlaydi va ayni shu sezgi turi chegarasini o'zgartiradi. Masalan, eshitish sezgilari tovushning balandligi tembrni, qattiqligi bilan tafovutlanadi, ko'rish sezgilari esa ranglarning quyuvqligi, jilosi, tovlanishi, toni va boshqa shu kabilar bilan farqlanadi. Sezgilarning sifat jihatidan ko'p turiligi materiya harakati shakllarining turli-tumanlilikini aks ettirishidir.

Sezgilarining *jadalligi* ularning mikdoriy tavsifidan iborat bo'lib, ta'sir qilayotgan qo'zg'atuvchining kuchi va retseptorning funksional holati bilan belgilanadi.

Sezgilarining *davomiyligi* ularning vaqtinchalik tavsiflanishidan iborat bo'lib, u ham sezgi a'zolarining funksional holati bilan, shuningdek, qo'zg'atuvchining ta'sir qilish vaqti hamda jadalligi bilan o'lchanadi.

Qo'zg'atuvchi sezgi a'zosiga ta'sir qilishi bilan darhol sezgi hosil bo'lmaydi, balki u bir qancha daqiqadan keyin vujudga keladi. Ana shu qisqa

vaqt sezgining *latent (yashirin)* davri deb ataladi. Latent davri sezgi turlari uchun har xil fursatda kechadi. Masalan, taktil sezgilari uchun latent davri 130 millisekund, og'riq sezgilari uchun esa 370 millisekundga to'g'ri kelsa, maza-ta'm sezgisi esa til yuzasiga ta'sir etilgandan so'ng 50 millisekundgacha vaqt oralig'ida hosil bo'ladi.

Sezgilar uchun qo'zg'atuvchining *fazoviy lokalizatsiyasi* qo'zg'atuvchining fazoda o'rin egallashi bilan tavsiflanadi. Distant, ya'ni masofa retseptori tomonidan amalga oshiriladigan fazoviy analiz qo'zg'atuvchining fazodagi o'rni haqida ma'lumot beradi. Kontakt sezgilar: taktil, og'riq, maza badanning qo'zg'atuvchi ta'sir qilayotgan joyi bilan bog'liqdir. Bunda og'riq sezgilarining lokalizatsiyasi, ya'ni badanda joylashgan o'rni, taktil sezgilarga qaraganda badanga anchagina tarqalgan bo'lib, ular unchalik aniqlik darajasiga ega emas. Bu holatni yaqqol namoyish qilish uchun quyidagi ko'rsatkichlarni keltiramiz: 1 kvadrat mm teriga nisbatan barmoqlar 120, panja 14, kaft 15, ko'krak 29, peshona 50, burun uchi 100 va h.k.

Sezgilar bilan bog'liq *hodisalar (qonuniyatlar)* mavjud va ular turli holatda o'z ifodasini topadi.

Adaptatsiya (lot. "adapto" - moslanmoq) – sezgi organlari, ya'ni a'zolari (analizatorlar)ning taassurot kuchiga moslashuvi natijasida muayyan sezgirlikning o'zgarishidan iboratdir. Adaptatsiya hodisasida sezgirlik ortishi yoki kamayishi mumkin. Kuchli ta'sirdan kuchsiz ta'sirotda o'tganda, sezgirlik asta-sekin ortib boradi ta'sirotda kuchayganda esa sezgirlik kamayib boradi (ko'ruv, eshituv, hid bilish, teri-tuyish va hokazo).

Adaptatsiya uch xil xususiyatli negiz (manba) ta'sirida vujudga keladi:

1. Qo'zg'atuvchilarning davomli ta'siri jarayonida sezgilarning to'la yo'qolishi ya'ni sezgi so'nib qoladi. Masalan, teriga tegib turadigan yengilgina bir yuk tez orada sezilmay qoladi yoki yoqimsiz hidli bir joyga kirib qolganimizda, bir ozdan so'ng bu hidni batamom yo'qolib ketganday his qilamiz.

Kuchli qo'zg'atuvchining ta'siri ostida ham sezgilar zaiflashadi. Masalan, qorong'iroq xonadan juda yorug' joyga kirib qolsak, biz avval boshqa yorug'likdan «ko'r» bo'lib qolib, atrofimizdagi narsalarni ajrata olmaymiz. Ma'lum fursat o'tgandan so'ng, ko'rish analizatorlarining sezgirliги keskin sur'atda pasayadi va biz mo'tadil ko'rish imkoniyatiga ega bo'lamiz. Ko'rish sezgirligining intensiv yorug'lik qo'zg'atuvchisi bilan ta'sir qilganda pasayishdan iborat hodisa yorug'lik adaptatsiyasi deb yuritiladi.

Adaptatsiyaning yuqoridagi ikki turi ko'pincha psixologiya fanida *negativ adaptatsiya* deb ataladi. Chunki, har ikkala adaptatsiya natijasida ham analizatorlarning sezgirliги keskin pasayadi.

3. Sezgirlik kuchsiz qo'zg'atuvchi ta'siri ostida sodir bo'lib, uning ortib borishi *pozitiv adaptatsiya* deyiladi. Qorong'ilik adaptatsiyasida ko'rish sezgirligi ortsa, sokinlikka nisbatan adaptatsiya eshitish adaptatsiyasi zamirida yuzaga keladi. Masalan, sovuq suvda qo'l – bir harorat – issiqday; issiq suvda qo'l sovuq suvda o'zgarimganday tuyuladi. Harorat sezish bilan bog'liq bo'lgan pozitiv adaptatsiyalar yuqoridagi xususiyatlarga ega.

2. Analizatorlarning o'zaro munosabati va mashq qilish natijasida sezgirlikning kuchayishi *sensibilizatsiya* deb ataladi.

Sezgi organlarining sezgirligini o'zgartirish qonuniyatlariga asoslanib, maxsus ravishda tanlangan qo'shimcha qo'zg'atuvchilarni qo'llash yordami bilan ma'lum bir retseptorlarni sensibilizatsiyalash, ya'ni ularning sezgirligini oshirish imkoniyati mavjud.

3. Qo'zg'atuvchining birin-ketin analizatorga ta'siri bilan analizatorlarga xos sezgining paydo bo'lishini *sinesteziya* (yunon. «sinesteziya» - birgalikda sezish) deyiladi. Sinesteziya hodisasini har xil turdagi sezgilarda kuzatish mumkin. Ko'rish va eshitish sinesteziyasi hammadan ko'ra ko'proq uchrab turadi, unda tovush qo'zg'atuvchilarining ta'siri bilan odamda ko'rish obrazlari vujudga keladi. Bunday tabiiatli sinesteziyalar har xil odamlarda o'ziga xos ravishda kechadi, lekin ular har qaysi shaxs uchun muayyan darajada doimiy bo'lishi kuzatiladi.

4. Sezgirlik mashq qilish orqali rivojlantirib borilib, bunday o'zgarish *kompensatsiya* va faoliyat mazmunida o'z aksini topa boradi. Ayniqsa, ko'r, kar, soqov, haykaltarosh odamlarda, vibratsiya sezgisi bilan shug'ullanuvchilarda sezgirlik keskin ravishda oshishi mumkin.

8.2. Idrok

Idrok sezgilarga nisbatan murakkab va mazmundor psixik jarayon bo'lib, barcha ruhiy holatlar, hodisalar, xususiyatlar, xossalalar va inson ongining yaxlit mazmuni, egallangan bilimlar, tajribalar, ko'nikmalar bir davrning o'zida namoyon bo'ladi, bevosita aks ettirishda ishtirok etadi.

Idrokning (lot. «perceptio» - qabul qilish, idrok) yuqori bosqichi «*appersepsiya*» deyiladi. *Appersepsiya* – idrok jarayonini shaxsning oldingi bilimlari, shaxsiy va ijtimoiy tajribalari, qiziqishlari, motivatsiyasi, ehtiyojlari va odatlari, umuman, ruhiy hayotning barcha mazmuni bilan belgilanishidir. *Appersepsiya* hodisasi tufayli odamlar o'zaro idrokining mazmuni bilan bir-birlaridan muayyan darajada tafovutlanadilar, ya'ni ular aynan bir xil narsani o'zining bilim saviyasi, maslagi, pozitsiyasi, dunyoqarashi va ijtimoiy kelib chiqishiga asoslangan holda turlicha idrok qiladilar hamda aks ettiradilar. Masalan, «ildiz» tushunchasini biologlar o'simliklarning moddiy asosi sifatida,

matematiklar sonlarning ildiz ostidagi ko'rinishida, ijtimoiy nuqtai nazardan qarindosh-urug'chilik shaklida ko'z oldiga keltiradi.

Appersepsiya hodisasi *barqaror* va *vaqtincha* (muvaqqat) deb yurituvchi ikki turga ajratiladi. Barqaror appersepsiya hodisasi shaxsning dunyoqarashi, ideali, motivatsiyasi, qiziqishi, bilim saviyasi, madaniy darajasi, xulq-atvori, ma'naviyati va kasbiy tayyorgarligiga bog'liq bo'lib, u o'ta murakkab tuzilishga egadir. Vaqtincha appersepsiya turi esa shaxsning faqat idrok qilish jarayonidagi emotsional holatiga, ya'ni uning kayfiyati, ruhlanishi, shijoati, stress, affektiv ko'rinishdagi his-tuyg'ularida, ularning sur'ati, davomiyligi, tezligida o'z ifodasini topadi.

Idrokning *vaqtni, harakatni, fazoni idrok qilish turlari* mavjud. Ular yordami bilan atrof-muhit, biosfera va ijtimoiy turmushning mohiyati yuzasidan axborotlar, ma'lumotlar, xususiyatlar aks ettiriladi. Borliqdagi narsa va hodisalarning yashash shakli, uzluksiz ravishda harakatda bo'lishi, muayyan ob'ektiv vaqt birligida hukm surishi inson ongida bevosita in'ikos qilinadi. Odatda inson tomonidan *vaqtni idrok qilish*, asosan ruhiy hodisalar, holatlar, vaziyatlar, xususiyatlarining o'zaro o'rin almashinuvi tufayli namoyon bo'lib, inson tomonidan aks ettirilayotgan vaqt birligining ob'ektiv (haqqoniy, xolis) mazmuniga, shaxsning unga nisbatan munosabatiga bog'liq bo'lib, xuddi shu mezon orqali uning mahsuldorligi o'lchanadi. Masalan, shaxsning ehtiyoji, motivatsiyasi, qiziqishlari va intilishiga mos, mutanosib vaqt birligini idrok qilgan taqdiridagina vaqt ob'ektiv jihatdan (kechinmalar, his-tuyg'ularga nisbatan shaxsning ijobiy haqqoniy munosabatlarida) tez o'tganday idrok qilinadi, odatda yoqtirmaslik idrok maydoniga nomutanosiblikni keltirib, shaxsda zerikish holatini yuzaga keltiradi va vaqt «sekin» o'tishi tuyg'usini uyg'otadi.

Harakatlarni idrok qilish jismlarning (ba'zan nisbiy jihatdan boshqa ijtimoiy, siyosiy tabiiy holatlarning) fazodagi (ijtimoiy hayotdagi) o'rin almashinuvi bevosita (bilvosita) in'ikos ettirishdan iboratdir. Bunda harakat nisbatan (qiyosiy) va nisbatsiz (taqqoslanmasdan) idrok qilinadi. Harakatdagi jism uni qurshab turgan harakatsiz boshqa jismlarga taqqoslangan holda idrok qilinsa, bunday toifadagi harakat *nisbatan idrok qilish* deb atalib, harakatlanayotgan jism hyech qanday narsa bilan taqqoslanmasdan idrok qilinsa, bu ko'rinishdagi harakat esa *nisbatsiz idrok qilish* deyiladi.

Fazoni idrok qilish – voqyelikdagi narsa va hodisalarning fazoda egallagan o'rini, shaklini, miqdorini va bir-biriga nisbatan munosabatlaridan iborat bilish jarayonining shakli bo'lib, voqyelikni idrok qilish orqali inson borliq to'g'risida, uning xususiyatlari, hajmi, masofasi (ich tomoni, chuqurligi) yuzasidan muayyan ma'lumotlar, xossalalar, axborotlar to'plash, ularni farqlash imkoniyatiga ega bo'ladi.

2) sub'ektga nisbatan rishtasiz bog'lanib qolishlik, ongsizlik darajasidagi anglashilmagan ichki noaniq moyillik;

3) shaxslarning xarakterida o'xshashlikning mavjudligi;

4) sheriklarning muomala maromidagi yaqinlik va b.

Yaqqol ko'rinish (yasnovidenie) deb holat, hodisa va tasodifni yaqqol oldindan ko'rish, yaqqol g'oyibdan xabar kelish (olish) singari parapsixologik muammodir. Aksariyat vaziyatlarda yaqqol ko'rishlik bilish sub'ektining shaxsiy xayoloti, o'zgalarning diqqatini tortishga, jalb qilishga aloqador hissiy kechinmalar bo'lib, uning yaqqollik ehtimoli darajasi juda pastdir. Biroq shu narsani rad etmaslik kerakki, ayrim allomalarning bashoratlari, yaqqol oldindan ko'rish imkonining yuksakligi, aniqligi kishini hanuzgacha hayajonga soladi.

Idrok xususiyatlari turli jabhalar, vaziyatlar, sharoitlarda namoyon bo'ladi. Idrokning muhim xususiyatlaridan biri – bu faol ravishda, bevosita aks ettirish imkoniyatining mavjudligidir. Odatda insonning idrok qilish (perseptiv) faoliyati uning o'zlashtirilgan bilimlari, to'plangan tajribalari, shuningdek, murakkab analitik-sintetik harakatlar tizimi zahirida vujudga keladi. Bu holat bosqichma-bosqich o'zaro bir-birini taqozo etuvchi tarkibiy qismlardan iboratdir.

Idrokning yana bir muhim xususiyati – uning *umumlashgan* holda narsa va hodisalarni aks ettirishidir. Inson psixikasiga kirib borayotgan ko'pqirrali, ko'pyoqlama alomatlar idrok qilish bilan cheklanib, chegaralanib qolmasdan, balki ular aniq jism yoki hodisa sifatida baholanadi. Jismlarning o'ziga xos xususiyatlarini belgilash bilan qanoat hosil qilmasdan, balki mazkur narsalarni ma'lum ma'naviy qismlarga ajratadi. Jumladan, «soat», «bino», «hayvonot» va h.k.

Idrok etilayotgan narsalarning fizik holati o'zgarsa ham, lekin uning ko'z to'r pardasidagi obrazining o'zgarasligi eng muhim xususiyati bo'lib, u *barqarorlik* yoki *konstantlik* deyiladi. Doimiylik, o'zgaraslik uning acociy belgilari hisoblanib, ular yordamida inson o'zgaruvchan olamda to'g'ri mo'ljal oladi.

Idrokning navbatdagi xususiyati – uning *harakatchanligi* va *boshqaruvchanligi*dir. Masalan, toshko'mir yorug'likda yog'du sochadi, oq qog'ozdan ko'proq nur balqiydi. Lekin inson bu narsalarni «qora» va «oq» deb idrok qiladi, vujudga kelgan bevosita sub'ektiv taassurotlarga nisbatan o'zgartishlar hamda tuzatishlar kiritadi. Chunki idrok jarayoni inson oldida turgan maqsadga, unga berilgan ustanovkaga (ongli, ixtiyoriy ko'rsatmaga) uzviy bog'liq holda irodaviy boshqarilish xususiyatiga egadir. Shuning uchun insonni idrok qilish (perseptiv) faoliyatida ongli boshqariluv imkoniyati mavjud bo'lib, ular nutq orqali amalga oshiriladi.

Idrok jarayonida uning *fenomenlari* (yunon. "phainomenon" - noyob, g'ayrioddiy holat) muayyan hodisalarni aks ettirishda ishtirok etadi, in'ikosning turlicha aniqlikda namoyon bo'lishi mumkinligi to'g'risida ma'lumot beradi. Ular *gallyusinatsiya* (lot. "hallucinatio" - alahlash, bosinqirash, valdirash, yo'q narsalarning ko'rinishi, eshitilishi, sezilishi), *illyuziya* (lot. "illusio" - xato, adashish, yanglishish), *atraksiya* (frans. "attraction" - o'ziga tortish, mahliyo etish, jalb qilish), *yaqqol ko'rinish* (rus. "yasnovidenie" - yaqqol oldindan ko'rish, yaqqol g'oyibdan xabar olish) tushunchalari orqali nomlanadi.

Gallyusinatsiya deb, yaqqol voqeyelikdagi idrok va hodisalarning tana a'zolarini qabul qilish analizatorlariga bevosita ta'sir etmasdan inson ongida turli obrazlarning (ovozlarning eshitilishi, sharpalarning sezilishi) xayolan, fikran paydo bo'lishidan iborat idrokning psixopatologik (ruxiy xastalik) hodisasiga aytiladi. Gallyusinatsiya hodisasi muvaqqat ruhiy xastalikning alomati bo'lib, ba'zan qo'rqinch hissi mahsuli hisoblanib, bosh miya katta yarim sharlari qobig'idagi qo'zg'alish jarayonlarining nuqsonli, sust (patologik) harakati natijasida, goho asab tizimining zaharlanishi, zaiflashuvi, haddan tashqari toliqishi tufayli yuzaga kelishi mumkin. Gallyusinatsiya hodisasi bir necha xil ko'rinishga ega:

- yo'q narsalarning ko'zga ko'rinishi;
- u yoki bu ovozlarning, tovushlar, kuylar eshitilishi;
- yo'q sharpalar, hidlar sezilishi kabilar.

Illyuziya hissiy a'zolarimizga bevosita ta'sir etib turgan narsa va hodisalarni noto'g'ri (noadekvat), yanglish, xato idrok qilishdan iborat jarayonning noyob hodisasi hisoblanadi.

Illyuziyalar ko'rinadigan harakatlar bilan bog'liq, ya'ni:

a) qorong'ilikda harakatsiz yorug'lik manbaidan nurlarning tartibsiz tarqalishi (avtokinetik harakat);

b) fazoviy jihatdan yaqin joylashgan ikki harakatsiz stimulning tez sur'atlar bilan namoyon etib turish harakat taassurotini vujudga keltiradi (stroboskopik harakat);

v) harakatsiz ob'ektning uni qurshab turgan fonga qarama-qarshi yo'nalishga qo'yish harakat tuyg'usini paydo qiladi (induksion harakat) kabilar.

Atraksiya insonni (o'zi bilan o'ziga o'rtasidagi munosabatda namoyon bo'lib) o'ziga mahliyo qilish, qalbni «jiz» ettirishdan iborat, ongsizlikka taalluqli insonni inson tomonidan idrok qilish hodisasi bo'lib, bu hodisa bir qancha manbalar, qo'zg'atuvchilar, motivlar ta'sirida vujudga keladi, jumladan:

- 1) dastlabki tashqi ko'rinish, istaraning issiqligi;

Idrokning *yaxlitlik* xususiyati alohida namoyon bo'luvchi ayrim alomlarda ifodalanuvchi narsalarni predmet yoki jism tariqasida in'ikos qilish qobiliyatida namoyon bo'ladi. Jismlarning aniqligi, ravonligi predmet yoki jism sifatida ko'zga tashlanishida o'z ifodasini topib, muayyan strukturani vujudga keltiradi. Idrok mazmuniga, tarkibiga kiruvchi har qanday hodisa, verbal yoki noverbal tarzda ifodalanishidan qat'iy nazar, u predmet yoki jism sifatida gavdalanadi va yaxlitligini namoyish etadi.

Narsa va hodisalarning yaxlit holda aks etishida ularning hajmi, fazoda egallagan o'rni, rangi, ichki mohiyati, ko'rinishi, vazni to'g'risida muayyan tushunchaga ega bo'lish talab etiladi. Buning uchun idrok qilinadigan jism aniqligini yaxlitlashga, ya'ni strukturaga ega bo'lishi lozim. Ana shu muhim xususiyat idrokning *strukturaviyligi*dir. Idrokning strukturaviyligi xususiyatisiz uning yaxlitlik xususiyati bo'lishi mumkin emas, chunki struktura qismlardan vujudga kelsa, alohidalik birikmasidan yaxlit tuzilma yaratiladi.

Har qanday narsa va hodisalar inson tomonidan idrok qilinmaydi. Chunki u tabiiy va sun'iy shart-sharoitlar, ob'ektiv va sub'ektiv omillar tekshiriluvidan o'tkazilib, ya'ni saralash, tanlash jarayoni amalga oshiriladi, nomutanosiblik, me'yordan tashqari ma'lumotlar aks ettirish doirasidan chetda qolib ketaveradi. Yuqoridagi xususiyatlarning barchasi insonning yosh xycyciyatlariga, aqliy kamolotiga, tajribasiga, bilim saviyasiga bog'liqdir. Lekin to'g'ri (adekvat) idrok qilish uchun ma'lum shart-sharoitlar muhayyo bo'lmo'gi lozim.

Jahon psixologlari asarlarini tahlil qilish natijalari inson tomonidan faoliyat maqsadini ro'yobga chiqarish rejasini va modelini yaratishda ifodalanuvchi *antitsipatsiya* (lot. "anticipatio" - oldindan sezish, payqash, oldindan idrok qilish, hodisa mohiyatini ochishdagi topqirlik) bir necha bosqichlardan iborat ekanligidan dalolat bermoqda. Jahon psixologlari antitsipatsiyaning besh darajaga ajratib o'rganmoqdalar, chunonchi:

Antitsipatsiyaning subsensor (lot. "sub" osti va "sensis" - sezish, ya'ni idrok qilishning ongosti holati) darajasining ifodalanishi inson gavdasining o'zgarishida, uning ideomotor (ihtiyorsiz harakat) jarayonida, tashqi ta'sirga tezkor javob qaytarishida o'z aksini topib, gavdaning mujassamlashuvi va harakat barqarorligi insonning ihtiyoriy sa'y-harakatiga tayyorgarlik ko'rish uchun muhim zamin ta'minlaydi.

Antitsipatsiyaning sensomotor (lot. "senses" - sezish, "motor" - harakat) bosqichi harakatdagi jismlarni o'zaro taqqoslashda, murakkab harakatlarni muvofiqlashtirishda, tezkor harakatning muhitdagi vaqt va fazoviy o'zgarishlar mutanosibligini uzluksiz ravishda idora qilib turishda namoyon bo'ladi.

Perseptiv (lot. "rersertio" - idrok) bosqichida idrok qilish xotira jarayonlari bilan uyg'unlashib ketadi. Buning natijasida o'tmish tajribalariga

asoslanib kelajakda vaqt va fazoviy o'zgarishlar yuz berishi ehtimoli chuqur tahlil qilinadi, uning obrazlari yaqqollashtiriladi.

Antitsipatsiyaning tasavvur darajasi obrazlarning vaqt va fazoviy o'zgarishiga binoan ularni fikran qaytadart yaratish, bunyod etish, goho aralashma tasvirlar vujudga keltirish, ularning sxemasi va rejasini tuzish uchun insonda uquvchanlik, qobiliyat hamda ijodiy faollikning tug'ilishini namoyish qiladi.

Antitsipatsiyaning beshinchi bosqichi nutq va tafakkur yordamida bo'lg'usi holatlar, hodisalar, keskin o'zgarishlar to'g'risida *bashorat (prognoz) qilish* xulq-atvor harakatlarini va amalga oshiriluvchi faoliyatini rejalashtirish jarayonining yuksalishi bilan boshqa darajalardan sifat jihatidan ajralib turadi. Mazkur bosqichda umumlashtirish va mavhumlashtirishning ayrim sernahsul darajalari, mantiqiy usullar, oqilona hamda maqsadga muvofiq hatti-harakatlarning yuqori samara beruvchi ko'rsatgichlari o'zining cho'qqisiga erishadi.

8.3. Xotira va mnemik jarayonlar

Individning o'z tajribasida esda olib qolishi, esda saqlashi va keyinchalik uni yana esga tushirishi *xotira* deb ataladi. Bunda *xotira* - atrof-muhitdagi narsa va hodisani bevosita va bilvosita, ixtiyoriy va ixtiyorsiz ravishda, passiv va aktiv (faol) holda, reproduktiv va produktiv tarzda, verbal va noverbal shaklda, mantiqiy va mexanik yo'l bilan aks ettiruvchi esda olib qolish, esda saqlash, qaytadan esga tushirish, unutish hamda tanish, eslashdan iborat psixik jarayon ya'ni taassurotlarni ijodiy qayta ishlashga yo'naltirilgan mnemik (*yunon. "mnema" - xotira*) faoliyat sifatida namoyon bo'ladi.

Xotira obrazli qilib tushuntirilganda, psixikaning "tanasi" sifatida e'tirof etiladi. Chunki insonning psixik taraqqiyoti va ongi uning xotirasidagi ma'lumotlarning hajmi, mohiyati, mazmundorligi, anglanganligi, ularning o'zaro bog'langanligi bilan belgilanadi. Boshqa bilish jarayonlari (diqqat, sezgi, idrok, tasavvur, tafakkur, nutq, xayol) esa "tananing a'zolari" (xuddi organizmning harakati uning a'zolari funksiyasi bilan bog'liq bo'lgani singari) sifatida ma'lumotlarni o'zlashtirishda o'z funksiyalarini bajarish bilan unga yordam beradilar. Jumladan, avvalo biz ma'lumotlarni o'zlashtirish jarayonida ongimiz yoki his-tuyg'ularimizni muayyan (o'zlashtirilayotgan) ob'ektga qaratamiz, yo'naltiramiz (diqqat). So'ngra sezgilarimiz o'sha ob'ektning tashqi xususiyatlarini alohida-alohida, bevosita aks ettirsa, idrokimiz esa ancha murakkab jarayon sifatida hodisalarni yaxlit bir tizimga keltirishimizni amalga oshiradi. Tasavvur idrok qilingan narsa va hodisalarning obrazi miyamizda qayta tiklanishiga yordam berib, u hissiydan aqliy bilishga o'tishga vositachilik rolini o'taydi. Tafakkur o'zlashtirilayotgan ob'ektning ichki,

yashirin tomonlarini umumlashtirib, bilvosita aks ettirib, muayyan fikr, g'oya, mulohaza, faraz, taxminlarni nutq orqali ifoda etishni ta'minlaydi. Xayol idrok qilinmagan narsa va hodisalarning obrazini miyamizda aks etishi orqali xotirani ma'lumotlar bilan boyitadi.

Shunday qilib, xotira shaxs psixik faoliyatining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Tabiatda va jamiyatda namoyon bo'ladigan har qanday toifadagi psixik hodisa o'zining tarkibiga kiruvchi har bir qismni muayyan tartibda o'zaro bog'langan tarzda saqlab qolinishini talab etadi. Turli ko'rinishga ega bo'lgan "bog'lanish"ga imkoniyat yoki shart-sharoit vujudga kelmasa, u holda rivojlanish ham bo'lmas edi, chunki I.M. Sechenov iborasi bilan aytganda, kishi "chaqaloqlik holatida" mangu qolib ketgan bo'lardi.

Psixologiya fanida xotiraning xilma-xil nazariyalar ishlab chiqilganligi hamda original, innovatsion g'oyalari ilgari surilganligi ma'lumdir. Bu nazariyalar negizida xotira jarayonlarining shakllanishiga insonning faolligi qanday ahamiyatga egaligi va bunday faollikning mexanizmi qanday yuzaga chiqishi haqidagi muammolarni tasniflash va baholash yotadi.

Assotsiativ nazariyasi. Ushbu nazariyaga ko'ra o'zlashtirilishi lozim bo'lgan narsa va hodisalarning ongda bir vaqtda yoki birin-ketin xotiradagi mavjud ma'lumotlar bilan o'xshashligi, yondoshligi, qarama-qarshiligi asosida bog'lanishlar hosil qilinishi xotira samaradorligini belgilaydi.

Geshtalt nazariyasi esa ma'lumotlarni umumlashtirib, yaxlitlab o'rganishni tavsiya qiladi. Geshtaltizm ong hodisalariga nisbatan assotsianistlarning qismlarga ajratgan holda yondashuviga avvalo qismlarni sintez qilish prinsipini, uning qismlariga nisbatan yaxlitlikning birlamchiligi prinsipini qarama-qarshi qilib qo'yadi. Mazkur ta'limot bog'lanishlar hosil bo'lishining negizini shakliga o'xshashligi bo'yicha miyadagi izlarning aynan o'xshaydigan tarzda tuzilishini ham belgilaydigan ma'lumotning tashkil etilishini ilgari suradi.

Freydizm nazariyasi asoschilarining fikricha, ma'lumot shaxs ehtiyoji, qiziqishi, motivi, motivatsiyasi, emotsiyasi, faoliyatining maqsadi bilan bog'liq bo'lsa, bu ma'lumot oson o'zlashtirilib, sekin unutiladi.

Bixeviorizm nazariyasi esda saqlashning muhim omili – takrorlash ekanligini e'tirof etadi.

Mantiqiy nazariyaga ko'ra ma'lumotlarning mazmundorligi, mohiyatan anglanilganlik darajasi esda saqlashni yengillashtirib, unutilish sur'atini susaytirishga zamin hozirlaydi.

Faoliyat nazariyasida inson uchun hayotiy, ijtimoiy, kasbiy ahamiyatli bir qator voqeyeliklar, ma'lumotlar aslo unutilmasligi, odatda shaxsning faoliyatda ishtirok etish darajasiga qarab ma'lumotning esda saqlanishi ta'kidlanadi.

Xotira insonning hayoti va faoliyatining barcha sohalarida qatnashishi tufayli uning namoyon bo'lish shakllari, holatlari, shart-sharoitlari, omillari ham xilma-xil ko'rinishga egadir. Odatda xotiraning ikki turi mavjud: 1) *tug'ma* (irsiy) xotira; 2) *orttirilgan* xotira.

Tug'ma xotira oddiygina qilib tushuntirganda shartsiz refleklar yig'indisi bo'lsa, *orttirilgan xotira* esa shaxsning hayot va faoliyati jarayonida shakllanib, rivojlanib boradi. Orttirilgan xotiraning o'zi muayyan turlarga bo'linadi:

Harakat xotirasi – turli harakatlar va ularni bajarilish tartibi, tezligi, sur'ati, tizimini esda qoldirish, saqlash, esga tushirishdan iborat xotira turiga aytiladi. Agar insonda harakat xotirasi bo'lmaganda edi, u bironta harakatni amalga oshirish tugul o'sha harakatning aynan o'zini har gal "boshdan boshlar", o'rganar edi.

His-tuyg'u yoki hissiy xotira. Bu xotira his-tuyg'ular, ruhiy kechinmalar, hissiyotlar bizning ehtiyojlarimiz va qiziqishlarimiz qanday qondirilayotganligidan, atrofimizdagi narsa va hodisalarning xususiyatiga nisbatan munosabatlarimiz qay tarzda amalga oshirilayotganligidan doimo xabar berib turadi. Shuning uchun har bir kishining hayoti va faoliyatida hissiy xotira turi juda katta ahamiyat kasb etadi.

Obrazli (sensor) xotira – tasavvurlar va turmush manzaralari, shuningdek, tovushlar, ta'mlar, ranglar, shakllar bilan bog'liq bo'lib, u narsa va hodisalarning aniq obrazlarini, ularning xususiyatlari va bog'lanishlarini esda qoldirish, ongda mustahkamlash hamda zaruriyat tug'ilganda esga tushirishdan iborat xotira turidir.

Psixologiya fanida obrazli xotiraning bir nechta turlari ajratib ko'rsatiladi (7.3.1-chizma). Ulardan biri *izchil obrazlar* bo'lib, u sensor xotiraning eng sodda ko'rinishi yoki shaklidir. Ularning namoyon bo'lish hodisasi qyyidagilardan tuzilgan: agar sub'ekt (shaxs)ga bir necha daqiqa oddiy qo'zg'atuvchi yuborilsa, jumladan, 10-15 sek., yorqin qizil kvadratga qarab turish taklif etilsa, so'ng tekshiriluvchi oldidan kvadrat olib qo'yilsa, u qizil kvadrat o'rnida xuddi shunday geometrik shakl izini ko'rishda davom etadi, asosan, bu shakl ko'k-yashil rangda gavdalanadi.



8.3.1-chizma. *Образли хотира turlari*

Mazkur iz o'sha zahoti, ba'zan bir necha sekunddan keyin paydo bo'lib, 15 sekunddan to 45-60 sekundgacha o'sha ob'ektda saqlanib turadi, shundan so'ng u asta-sekin oqara boshlaydi. Natijada o'zining aniq konturini yo'qotadi, keyinchalik mutlaqo yo'qolib ketadi, goho butunlay yo'qolish uchun qaytadan paydo bo'lishi mumkin. Odamlarning individual-tipologik xususiyatlariga qarab, izchil obrazlarning aniqligi va davomiyligi turlicha bo'lishi mumkin.

Eydetik obrazlar (yunon. "eydos" - obraz) izchil obrazlardan farqli ravishda bunda narsa va hodisalarning obrazlari yaqqolroq namoyon etadi.

Tajribalarda aniqlanishicha, eydetik obrazlar uzoq vaqt inson ongida saqlanishi, mabodo ularning izlari yo'qolib ketgan bo'lsa ham, lekin hych qanday qiyinchiliksiz uning siymosi qayta tiklanishi mumkin ekan.

Tasavvur obrazlari xotiraning yanada murakkabroq turi bo'lib, bunda eydetik obrazlarga qaraganda ancha boy bo'lib, o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Tasavvur obrazlarini eydetik obrazlardan ajratuvchi farq - tasavvur obrazlarining *polimodallik xususiyati*, buning asosiy mohiyati tasavvur obrazlari ko'rish, eshitish, teri orqali sezish izlarining tarkibiy qismlarini birlashtirishidir. Masalan, meva to'g'risidagi tasavvur obrazi uning tashqi ko'rinishi (shakli, rangi, mazasi, og'irligi, vazni)ni o'zaro birlashtirib aks ettiradi.

So'z-mantiq xotirasi mazmunini fikr va mulohazalar, aniq hukm hamda xulosa chiqarishlar tashkil etib, ularni ifodalash faqat o'zlashtirilayotgan materiallarning asosiy ma'nosini izohlash, talqin qilib berishga qaratilgan

bo'ladi. Ularni so'zma-so'z ifodalanilishini aynan aytib berishga qaratilgan bo'lib, ma'lumot, axborot, xabar, material ma'no jihatdan qayta ishlanmasa, u holda materialni so'zma so'z o'zlashtirish *mexanik* esda olib qolish deyiladi.

Ixtiyoriy va ixtiyorsiz xotira. *Ixtiyoriy xotira* deganda ma'lum maqsadni ro'yobga chiqarish uchun, muayyan davrlarda aqliy harakatlarga suyangan holda amalga oshirishdan iborat ong boshqaruvidagi xotira jarayoni tushuniladi.

Ixtiyorsiz xotiraning muhim xususiyatlaridan biri - maxsus mnemik maqsadsiz, aqliy, asabiy, irodaviy zo'r berishsiz hayotiy ahamiyatga ega bo'lgan keng ko'lamdagi ma'lumot, xabar, axborot, taassurotlarning ko'pchilik qismini aks ettirishidir. Shunga qaramasdan, inson faoliyatining turli jabhalarida o'z xotirasini boshqarish zarurati tug'ilib qolishi mumkin. Bunday sharoitda, holatlarda, vaziyatlarda favqulodda kerakli narsalarni ixtiyoriy ravishda esda saqlash, esga tushirish yoki eslash imkoniyatini yaratadigan xotiraning mazkur turi katta ahamiyatga ega bo'ladi.

Qisqa muddatli, uzoq muddatli va operativ xotira. Biror material (shakli, mohiyatidan qat'iy nazar) xotirada mustahkam joy olish uchun inson tomonidan tegishli ravishda qayta ishlab chiqishi, zarur materiallarni bunday ishlab chiqish uchun ma'lum darajada muddat talab etishi tabiiy holdir. Ana shu muddat oralig'ida xotirada qayta tiklanayotgan izlarni *konsolidatsiyalash - mustahkamlash* deb qabyl qilingan.

Juda ko'p qaytarishlar va qayta tiklashlar natijasida materialni uzoq muddat davomida esda saqlab qolish *uzoq muddatli xotiraga* xos bo'lsa, undan farq qilgan holda *qisqa muddatli xotira* bir marta hamda juda qisqa vaqt oralig'ida idrok qilish va shu ondayoq qayta tiklashdan so'ng qisqa muddatli esda olib qolish bilan xarakterlanadi.


Operativ xotira vositachilik funksiyasiga ega bo'lib, u inson tomonidan bevosita amalga oshirilayotgan faol, tezkor harakatlar, usullar uchun xizmat qiluvchi jarayonni anglatuvchi mnemik holatdir. Masalan: matematik amalni bajarishga kirishar ekanmiz, biz uni muayyan bo'laklarga ajratib hal qilishni maqsad qilib qo'yib, oraliq natijalarini yodda saqlashga intilamiz, nihoyasiga (oxirga, yakunlanishga) yaqinlashgan sari ayrim materiallar esdan chiqa boshlaydi.

Fenomenal xotira tug'ma qobiliyatlar bilan bevosita bog'liq bo'lib, bir vaqtning o'zida nisbatan juda katta hajmdagi ma'lumotlarni esda olib qolish, saqlash va qayta esga tushirishdir.

Xotiraning esda olib qolish (*fiksatsiya*), esda saqlash (*retensiya*), esga tushirish (*reproduksiya*), unutish kabi jarayonlari ham alohida ajratib ko'pcatiladi.

Ularning har biri mustaqil holatda namoyon bo'lmaydi, chunki ular muayyan faoliyat davomida, xoh bilish, xoh mnemik faoliyat bo'lishidan qat'iy

nazar shakllanadi va o'sha faoliyat tuzilishi, mohiyati va mazmuni bilan belgilanadi. Shu bois inson tomonidan biror bir ma'lumotni esda olib qolish, esda saqlash, esga tushirish uning individual tajriba ko'lami, bilim saviyasi va aql-zakovati darajasiga ham bog'liqdir.



8.3.2-chizma. Mnemik jarayonlar va ularning turlari

Esda olib qolish jarayoni. Esda olib qolish yangi ma'lumotni ilgari malumot bilan bog'lash orqali namoyon bo'lib, uning quyidagi turlari mavjud:

- taassurot va materiallarni eshitish, ko'rish, idrok qilish (sensor) orqali olib qolish;
- o'zlashtirish zarur bo'lgan materiallarni aniq maqsad (ixtiyoriy) yoki qiziqishlar asosida, irodaviy zo'riqishlarsiz (ixtiyorsiz) esda olib qolish;
- materiallarni harakat yordamida yoki aralash yani ham eshitish, ko'rish, harakat (sensomotorik) kabilar orqali esda olib qolish;
- ma'lumotlar ma'nosini anglash (mantiqiy) orqali yoki so'zma so'z (mexanik) esda olib qolish;
- ehtiyoj va qiziqishlar qanday qondirilayotganligi bilan bog'liq hissiy kechinmalarni esda olib qolish.

Insonning o'z ustida mustaqil ishlashi, o'z-o'zini takomillashtirish, o'z-o'zini boshqarish imkoniyati, uzluksiz mashq qilishi, zarur ko'nikma va malakalarni egallashi, ichki imkoniyatlardan unumli foydalanishi esda olib qolish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Esga tushirish. Esga tushirish oldin o'zlashtirilgan materiallarni xotirada qayta tiklanishi, ya'ni xotirada to'planib (yig'ilib) qolgan izlarning faollashuv jarayoni murakkab yoki yengil kechishining darajalariga binoan tavsiflanishi mumkin: a) bizni qurshab turgan narsa va hodisalarni, hych ikkilanmasdan "avtomatik" tarzda tanish; b) qariyb unitilish darajasida bo'lgan narsa va hodisalarni qiyinchilik va azob bilan eslash kabilar. Ana shu talqindan kelib chiqqan holda esga tushirish jarayonining ichki tuzilishiga binoan bir nechta turlarga ajratish maqsadga muvofiq: tanish-bevosita shaxs yoki narsani esga tushirish (ixtiyoriy va ixtiyorsiz tarzda) va eslash (xotira salnomasi), uning umr davomidagi (ontogenetik) xotirasi va uni eslash shaxs uchun alohida ahamiyat kasb etadi.

Tanish-bu kognitiv nuqtai nazaridan tevarak- atrofdagi narsa va hodisalarni inson tomonidan qayta idrok qilish sharoitida esga tushirishdan iborat xotira jarayoni. Tanish muayyan shaxsning hayoti va faoliyatida katta ahamiyatga ega. Bu xotira jarayonining sharofati tufayli biz voqeliklar va insonlar bilan qayta duch kelganimizda ularni yangidan, boshdan idrok qilmaymiz, balki ularni qaysidir alomatlarini, ko'rinishi, xususiyatlari va boshqalarga asoslanib taniymiz.

Esga tushirish jarayoni tanishdan farqli o'laroq mo'ljallangan ob'ektni (sub'ektni) qaytadan idrok qilmasdan eslash orqali bevosita tarzda amalga oshiriladi. Favquloddagi daqiqalarda ro'yobga chiqarila-yotgan faoliyatning mazmuni esa tushirishni aks ettirsa-da, lekin ushbu faoliyat maxsus tarzda uni esga tushirishga yo'nalmagan bo'ladi. Bunday ko'rinishdagi esga tushirish ixtiyorsiz deyilsa-da, ammo u biron-bir tashqi yoki ichki turtkisiz, o'zidan o'zi yuzaga kelmaydi. Ixtiyorsiz esga tushirishning turtkisi - bu predmetni (sub'ektni) idrok qilish, tasavvur obrazlarini yaratish, fikrlarni tug'ilish jarayoni hisoblanib, ularni muayyan tashqi ta'sirlar (omillar) keltirib chiqaradi.

Xotira (esdaliklar shaxsiy majmuasi) bu shaxsning o'tmishdagi obrazlar voqeliklar va taassurotlarining fazoviylashuvi hamda vaqt (davr) jihatidan aniq ifodalanilishiga asoslanib esga tushirishdir. Xotirlashda nafaqat o'tmish ob'ektlari va sub'ektlari esga tushiriladi, balki ular muayyan vaqt va fazo jihatidan muvofiqlashtiradi, ya'ni ularni qachon, qaerda, qanday sharoitda kechganligi esga tushiriladi.

Unutish va esda saqlash. Unutish xotira jarayoni sifatida ta'rifga ega bo'lib, o'zini vujudga kelish xususiyatiga bog'liq tarzda o'ta chuqur va yuzaki ko'rinishlarga ega. Xuddi shu bois, unutilgan obrazlarning yoki fikrlarning faollashuvi u yoki bu darajada qiyinchiliklarga uchrashi, xatto amalga oshmaydigan voqelikka aylanishi mumkin. Shaxsning faoliyatida xotirada to'plangan materiallar (turlicha bo'lishidan qat'i nazar) amaliyotda kamroq qo'llanilsa, foydalanilsa (ortiqcha yuk xususiyatini kasb etsa), unutish tobora

chuqurlashib boradi, buning natijasida faol hayotiy maqsadga erishish yo'lidagi ahamiyati pasayadi. Ammo qaysidir materialni eslash chog'ida qiyinchilik, sun'iy to'siq yuzaga kelsa, uni mutlaqo yo'qqa chiqarish kerak emas, chunki, bu hodisa uni batamom shaxs xotirasidan chiqib ketishini bildirmaydi. Odatda materiallar (ob'ektlar, sub'ektlar)ning aniq, yaqqol, mavjud tomonlarining shakli unutiladi, bundan tashqari, uning hukm surishi, barqaror ahamiyatli mazmuni esa unga o'xshash (mutanosib) bilimlar va xulq-atvor harakatlari shakliy birliklari bilan qo'shib ketadi, oqibat natijada xulq-atvorning mazkur shakllarida taassurotlar integral (umumlashma, yig'iq) tarzda esga tushishi mumkin. I.P.Pavlovning dalillashicha, so'nib borayotgan reflekslar o'zlarini tiklashlari uchun dastlabki paydo bo'lish davriga qaraganda takrorlash miqdorini kamroq talab etadi. bunday tashqari, so'nib borayotgan reflekslar muayyan sharoit yoki vaziyatga tormozlanish, to'xtalishga uchrashi mumkin. Bu voqeyelik allaqachon unutilgan deb tasavvur qilingan taassurotlarning favqulodda ayrim omillarni esga tushirish holati bilan izohlanadi. Masalan, og'ir betob holda yotgan odam qachonlardir o'rgangan she'rini tasodifan yoddan aytadi, vaholanki, undan uzoq yillar foydalanmagani uchun uni batamom unutgan deb o'ylash mumkin.

Xotira jarayoni hisoblanmish unutish bu o'ziga xos, rang-barang, izohtalab ruhiy kognitiv hodisa. Assotsiativ psixologiya maktabining vakili, taniqli psixolog G.Ebbingauz jahon psixologiyasida birinchi bo'lib, 1885 yilda oliy ruhiy jarayon bo'lgan xotirani (1888 yilda intellektni) ilmiy tajriba metodi negizida tekshirdi va keng ko'lamda turmushga tatbiq etdi. G.Ebbingauz unutishning vaqtga bog'liqligini tajriba orqali aniqlagan. To'plangan natijalarning ko'rsatishicha, material yod olingandan so'ng unutish sur'ati tez, keyinchalik u birmuncha sekinlashadi. Bu qonuniyat ma'nosiz ayrim bo'g'inlarni unutish ustida olib borgan ishlarida tasdiqlangan. Tajribalarning ko'rsatishiga qaraganda, o'rganilgan narsalar bir soatdan keyin unutiladi. Materialni o'zlashtirish jarayoni mobaynida, xotirlash natijasida unutish sekinlashib boradi. Baqtning o'tishi bilan birmuncha unutilib borilayotgan yoki unutilib ketilayotgan vaqtli bog'lanishlarni, ya'ni assotsiatsiya-larni qaytadan tiklash jarayoni kuch-quvvat, xatti-harakatlarni talab qiladi.


Tadqiqotlar natijasiga asoslangan holda mana bunday xulosaga kelish mumkin: birinchidan, bir mavzudan boshqa bir mavzuga o'tish chog'ida biroz to'xtalish qilish tufayli asabiy taranglashuv, jiddiylik, aqliy zo'riqish kamayadi; ikkinchidan, auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarda mustaqil bilim olishda turdosh, jinsdosh o'xshash fanlar yuzasidan emas, balki o'zaro bir-biri bilan keskin tafovutlanuvchi sohalar bo'yicha tayyorgarlik ishlarini yo'lga qo'yish darkor.

Ma'lumotlarni samarali o'zlashtirish (esda olib qolish, esda saqlash, qayta esga tushirish) masalalari psixologiya sohasida keng tadqiqot ob'ektiga

aylangan. Olib borilayotgan tadqiqotlar samarali o'zlashtirish usullari yaratilishiga zamin bo'lmoqda. Bunday usullardan "Intellekt karta"si (*ing. mind maps*) bo'lib, taniqli ingliz psixologi, xotira va ijodiy tafakkurni rivojlantiruvchi metodikalar muallifi Toni Byuzen tomonidan ishlab chiqilgan. Mazkur metodika hozirgi kunda aqliy faoliyatning samaradorligini oshirishda qo'llaniladigan eng universal va oddiy usul hisoblanib, zamonaviy konspekt deb ham yuritilmoqda. Intellekt kartasi malumotlarni qayta ishlab chiqish, tartibga solish, tizimlashtirish, faoliyatni rejalashtirish, murakkab vaziyat va topshiriqlarni yechish, muammolarni hal qilishning turli variantlarini jamoaviy ko'rib chiqish, barcha ijodiy va intellektual imkoniyatlaridan foydalanish, hamda barcha psixik-bilish jarayonlari (xotira, diqqat, sezgi, idrok, tasavvur, tafakkur, nutq, xayol)ni rivojlantirishda qo'llaniladi.

"Intellekt karta"si tuzish qoidalari.

1. Asosiy fikrni markazga joylashtiring.
2. Asosiy fikrdan g'oyalar tarmoq bo'yicha tarqaladi (har bir tushunchalar tarmog'i 7-2 qonuniga asoslanishi shart).
3. So'zlarni rasm va belgilarga almashtiring. Imkoniyat bo'lsa grafik ham qo'shish mumkin.
4. Turli ranglardan foydalaning.
Ranglardan foydalanishda quyidagilar e'tiborga olinadi:
Qizil rang - tez idrok etiladigan rang bo'lib, diqqat oson konsratsiyalanadi. Idrok tezligi yuqori.
Ko'k rang - ishni samarali davom etishga undaydigan rang. Idrok tezligi o'rtacha.
Yashil rang - erkinlik rangi bo'lib, tinchlantiruvchi, bo'shashtiruvchi xususiyatga ega. rang. Idrok tezligi past.
Jigar rang - erkinlik rangi hisoblanib, idrok tezligi past.
Sariq rang - liderlik va energiya rangi. Idrok tezligi yuqori.
Havo rang - nazokat va romantika rangi bo'lib, fon uchun ma'qul rang. Idrok tezligi past.
Olov rang - yangilik, energiya, dinamika rangi bo'lganligi bois diqqatni juda tez jalb qiladi. Idrok tezligi yuqori.
Qora rang - qat'iy va chegaralovchi rang. Matn yozish uchun eng ma'qul rang bo'lib, idrok tezligi o'rtacha.



8.3.1.-rasm. "Intellekt karta"si tuzilishi

Inson tafakkurini assotsiativ tabiatiga ko'ra malumotlar intellekt-karta ko'rinishida tasavvur qilinishi, ularni tez va samarali idrok etilishiga, uzoq muddatda saqlanilishiga sabab bo'ladi. Demak, ushbu texnologiya o'zlashtirish jarayonida bosh miyaning o'ng (rasm, musiqa, tasavvur, hayol, rang) va chap (mantiq, tahlil, raqam, ketma-ketlik, nutq) yarim sharlari imkoniyatlaridan samarali foydalanishga undaydi.

8.4.Tafakkur

Tafakkur atrof-muhitdagi voqeyelikni nutq yordami bilan bilvosita, umumlashgan holda aks ettiruvchi psixik jarayon bo'lib, u ijtimoiy sababiy ichki bog'lanishlarni anglashga, yangilik ochishga va bashorat qilishga yo'naltirilgan aqliy faoliyatdir. Qachonki muammoli vaziyat paydo bo'lganda tafakkur ishga tushadi.



8.4.1-chizma.Tafakkur jarayoni tuzilishi

Tafakkur operatsiyalari:

1. **Analiz va sintez operatsiyalari.** Analiz – shunday bir tafakkur operatsiyasidirki, uning yordami bilan narsa va hodisalarning xususiyatlarini fikran yoki amaliy tahlil qilinadi. Sintez – narsa va hodisalarning analizda bo'lingan, ajratilgan ayrim qismlarini, bo'laklarini sintez yordami bilan fikran yoki amaliy ravishda birlashtirib, butun holiga keltirishdir. Sintez elementlarning, narsa va hodisalarning qismlari va bo'laklarini bir butun qilib qo'shishdan iborat aqliy faoliyatdir.
2. **Taqqoslash.** Insonning ijtimoiy faoliyatida, bilimlarning o'zlashtirilishida, voqeyelikni to'laroq aks ettirishda bir-biriga o'xshash jihatlar tafovutini hamda bir-biridan farq qiladigan tomonlar o'rtasidagi o'xshashlikni topishdan iborat fikr yuritish operatsiyasi taqqoslash deyiladi.
3. **Konkretlashtirish** – hodisalarni ichki bog'lanish va munosabatlardan qat'iy nazar, bir tomonlama ta'kidlashdan iborat fikr yuritish operatsiyasidir. Konkretlashtirish abstraksiyalashning kontrakt holati bo'lib, inson bilish faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi.
4. **Abstraksiya.** Narsa va hodisalarning, qonun va qonuniyatlarning ayrim belgisi, sifati, atomati yoki xususiyatlarini fikran ulardan ayirib olib, mustaqil fikr ob'ektiga aylantirishdan iborat fikr yuritish operatsiyasi abstraksiyalash deyiladi.
5. **Umumlashtirish.** Umumlashtirish deganda psixologiyada narsa va hodisalardagi xossa, belgi, xususiyat, atomatlarni topish va shu umumiylik asosida ularni birlashtirish tushuniladi. Masalan, insonning yosh davrlari


xususiyatidagi umumiy belgilar hisobga olinib, "o'smir", "o'spirin", "yetuk kishi", "kekxa" singari terminlar ishlatiladi. Umumlashtirish abstraksiyalash operatsiyasidan ajralgan holda sodir bo'lmasdan uni asosida abstraksiyalash jarayoni yotadi.

6. *Klassifikatsiyalash* deb bir turkum ichidagi narsalarning bir-biriga o'xshashligiga va boshqa turkumdagi narsalardan farq qilishiga qarab, narsalarni turkumlarga ajratish tizimiga aytiladi. Fan olamida buyuk kashfiyot bo'lib hisoblangan D.I.Mendeleevning "Elementlarning davriy tizimi" jadvali klassifikatsiya uchun yorqin misoldir. Bunda olim elementlarni atom og'irligi ortib borishiga, kimyoviy sifatlarining bir tipligiga va boshqa belgi va alomatlariga qarab tartib bilan joylashtirib chiqqan. Uning *tabiiy klassifikatsiya* (zoologiya fanidagi hayvonlar klassifikatsiyasi, masalan: sudralib yuruvchilar, sut emizuvchilar, suvda va quruqlikda yashovchilar, parrandalar, qushlar va h.k.), *sun'iy klassifikatsiya* (masalan, kutubxonadagi kitoblar mazmuniga, shakliga, noyobligi va shunga o'xshash belgilarga qarab tokchalarga teriladi) hamda *oddiy klassifikatsiya* (masalan, psixologiya sohalarining klassifikatsiya qilinishi: injenerlik, aviatsiya, kosmos psixologiyasi, mehnat psixologiyasi, maxsus psixologiya va h.) turlari mavjud.

7. *Sistemalashtirish* operatsiyasi yordamida narsa va hodisalar, faktlar, fikrlar va ob'ektlar makondagi, vaqtdagi egallagan o'miga qarab yoki mantiqiy joylashtiriladi. Fikr ob'ektiv hisoblangan narsa va hodisalarni zamon (vaqt), makon (fazo) va mantiqiy jihatdan ma'lum tartibda joylashtirishdan iborat mazkur operatsiya bilimlarni o'zlashtirishda, ko'nikma va malakalarni tartibga solishda muhim rol o'ynaydi.

Tafakkur shakllari

Tafakkur shakllari psixologiyada kognitiv dissonans, tushuncha, hukm, xulosa chiqarish bosqichlarida ifodalanadi



8.4.2- chizma. Tafakkur shakllari

1. *Kognitiv dissonans*. Insonni yangi bilimlarni izlashga, muammolarni yechimini topishga chorlovchi hayajonlanish, ajablanish, qiziqish, hayratlanish, lol qolish, shubhalanish kabi intellektual hislarning paydo bo'lishi.

2. *Tushunchalar*. Inson voqyelikni bilish jarayonida narsalarni bir-biri bilan taqqoslaydi, ularning o'xshashligi va farqini aniqlaydi: analiz va sintez yo'li bilan narsa va hodisalarning mohiyatini ochadi, fikran ularning belgilarini ajratadi, bu belgilarni abstraksiyalash-tiradi va umumlashtiradi. Natijada odam voqyelikdagi narsa va hodisalar to'g'risida tushuncha hosil qiladi. Tushunchalar mohiyati hukmlarda yoritiladi, mavjud hukmlar asosida xulosa chiqariladi, yangi hukm hosil qilinadi, topilgan yangi belgilar, alomatlar tushunchalarni yanada boyitadi.

3. *Hukmlar*. Narsa va hodisalarning belgi va xususiyatlari haqida tasdiqlab yoki inkor qilib aytilgan fikr *hukm* deb ataladi. Moddiy olamda haqiqatdan bog'liq bo'lmagan narsa hukmda bog'liq qilib ko'rsatilsa, bunday hukm *xato* (yolg'on) hukm deb ataladi. Chunki bu hukmda aks ettirilgan sifatlar (belgi va alomatlar) bu narsalarga aslo muvofiq kelmaydi. Masalan, "Atom - moddaning bo'linmas zarrachasidir" degan noto'g'ri hukmdir.

4. *Xulosa chiqarish*. Bir qancha hukmlarning mantiqiy bog'lanishi natijasida hosil bo'lgan yangi hukm insonning bilish faoliyatida alohida ahamiyatga ega. Xulosa chiqarish uch turga bo'linadi: induktiv, deduktiv va analogik.

Induktiv xulosa chiqarish - bir necha yakka yoki ayrim hukmlardan umumiy hukmga o'tiladi yoki ayrim fakt va hodisalarni o'rganish asosida umumiy qonun va qoidalar yaratiladi. Masalan: Toshkent Pediatriya Tibbiyot instituti talabalari qishki sessiyaga puxta hozirlik ko'rmoqdalar. Shahardagi boshqa oliy o'quv yurti talabalari ham qishki sessiyaga tayyorgarlikni kuchaytirmoqdalar. Demak, Toshkent shahrining barcha tibbiyot oliy o'quv yurti talabalari qishki sessiyaga qunt bilan tayyorlanmoqdalar, degan hukm chiqariladi.

Deduktiv xulosa chiqarishda - umumiy va yakka hukmlardan yakka yoki juz'iy hukm keltirib chiqariladi. Misol uchun: O'zbekiston "Yoshlar ittifoqi" a'zolari shijoatli yoshlardir. Toshkent Pediatriya Tibbiyot instituti talabalari "Yoshlar ittifoqi" a'zosisdir. Demak, ular ham shijoatlidirlar.

Analogik xulosa chiqarishning shunday shaklidirki, bunda ikki predmetning ba'zi bir belgilari o'xshashligiga qarab, bu predmetlarning boshqa belgilari o'xshashligi to'g'risida ham xulosa chiqariladi. *Analogiya* deb, narsa va hodisalarning bir-biriga o'xshash bo'lgan ba'zi belgilariga qarabgina hukm yuritishdan iborat xulosa chiqarish shakliga aytiladi. Shunday qilib, analogik yo'l bilan xulosa chiqarganda, murakkab qonuniyatlar to'g'risidagi bilimlar

o'zlashtirilmasada, lekin turmushning turli jabhalarida undan foydalanib turiladi.

Psixologiya fanida tafakkur quyidagicha shartli klassifikatsiya (turlanish) qilinadi:

Ko'rgazmali-harakat tafakkuri. Bola tug'ilishidan tortib, to uning bog'cha yoshigacha davr amaliy faoliyatda ko'rgazmali-harakat tafakkur o'sishining asosiy davri hisoblanadi. Mazkur yoshdagi inson ana shu amaliy faoliyat jarayonida aqliy harakatlarni amalga oshirib, amaliy bilimlarni o'zlashtiradi, natijada ko'rgazmali-harakat tafakkuri o'sib boradi. Ushbu yoshdagi bolalar o'zlari o'ynayotgan narsalar, o'yinchoqlarni qo'llari bilan bevosita ushlab ko'rish orqali ular bilan tanishadilar, shuning bilan birga ularni idrok qilishga intiladilar. Shu boisdan amaliy xarakterdagi muammolarni hal qilishda ko'pincha «buzib-tuzatish» yo'li bilan harakat qiladilar. Ko'rgazmali-harakat tafakkuri bog'cha yoshiga yetgandan so'ng bolalarda o'z qiymatini yo'qota boshlaydi.

Ko'rgazmali-obrazli tafakkur. Tafakkurning mazkur ko'rinishi 4-7 yoshgacha bo'lgan bolalarda namoyon bo'lib, bog'cha yoshidagi bolalarda ko'rgazmali-harakat tafakkurining amaliy elementlari ko'rgazmali-obrazli tafakkur bosqichiga o'tgandan so'ng ham saqlanib qoladi, lekin u o'zining yetakchi rolini yo'qota boshlaydi. Ushbu yoshdagi kichikintoylar bilish faoliyatida asosan ko'rgazmali obrazlarga suyanib fikr yuritadilar, mulohaza bildiradilar va hukm chiqaradilar. Shveysariyalik psixolog Jan Pijae tajribalarida 6-7 yoshdagi bolalarga xamirdan bab-baravar qilib yasalgan ikkita zuvalachani ko'rsatadi, shu zahotiy oq tekshiriluvchilar ularning bir-biriga teng ekanligiga ishonch hosil qiladilar, tajribaning ikkinchi bosqichida zuvalachaning bittasi non shakliga keltiriladi, bu holatni o'z ko'zlari bilan kuzatib turgan bolalardan so'ralganda, ular zuvalacha hajmining o'zgarishiga qarab tenglik buzilgan deb javob berganlar. Ushbu holat bog'cha yoshidagi bolalarda ko'rgazmali-obrazli tafakkur bevosita va batamom ularning idrok jarayonlariga bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Shuning uchun ular narsa va hodisalarning, jism va predmetlarning ko'zga yaqqol tashlanib turuvchi alomatiga, xususiyatiga, tashqi belgisiga e'tibor qiladilar. Lekin ularni ichki bog'lanishlari, o'zaro munosabatlarini bildirib keladigan muhim, asosiy sifatlariga ahamiyat bermaydilar. Ob'ektlarni fazoda joylashgan o'rni, tashqi nomuhim belgisi ularning ko'rgazmali-obrazli tafakkurini vujudga keltiradi. Masalan, ularning nazarida odamlar bo'yining baland va pastligi ularning yoshini (ulug'ligini) belgilaydi.

Intuitiv va analitik tafakkur. Tafakkur aktivligiga qarab ixtiyorsiz (intuitiv) va ixtiyoriy (analitik) tafakkur turlariga ajratiladi. *Intuitsiya* deb, mantiqiy tafakkur yordamida ko'p vaqtlar davomida hal qilinmagan aqliy vazifalarning to'satdan, kutilmaganda hal qilinib qolishi jarayoni ataladi.

Shaxsning muayyan sohadagi hayotiy yoki ilmiy tajribalariga asoslangan intellektual sezgirligidan iborat faoliyatdir. Ko'pincha ixtiyoriy tafakkur jarayoni mulohaza, muhokama, isbotlash, gipoteza qilish kabi shakllarda namoyon bo'ladi.

Fikr yuritilishi lozim bo'lgan narsa va hodisalarni idrok yoki tasavvur qilish mumkin bo'lsa, bunday tafakkur konkret tafakkur deb ataladi. U o'z navbatida *yaqqol-predmetli tafakkur* va *yaqqol-obrazli tafakkur* nomi bilan ikki turga ajratiladi. Agar fikr yuritish ob'ekti bevosita idrok qilinsa, bunday tafakkur yaqqol-predmetli tafakkur deyiladi. Fikr yuritilayotgan narsa va hodisalar faqat tasavvur qilinsa, bunday tafakkur yaqqol-obrazli tafakkur deb ataladi. Tafakkurning bir turi xotira yoki xayol tasavvuriga asoslangan holda namoyon bo'ladi.

Abstrakt tafakkur narsalarning mohiyatini aks ettiruvchi va so'zlarda ifodalovchi tushunchalarga tayanib fikr yuritishdir. Algebra, trigonometriya, fizika, chizma, geometriya, oliy matematika masalalarini yechish vaqtida fikr yuritish, mulohaza bildirish abstrakt tafakkurga xos misollardir.

Hodisalarni izohlashga, faraz qilishga qaratilgan tafakkur nazariy tafakkur deb ataladi. Tushunchalar o'rtasidagi bog'lanishlarni, munosabatlarni, ichki bog'lanishlarni yoritib borish va shu bog'lanishlarni nazariy jihatdan fikr yuritish yo'li bilan izohlash kabi jarayonlarni nazariy tafakkur yordamida amalga oshirish mumkin.

Voqelikni o'zlashtirish vositasi bilan real narsa va hodisalarni yaratishga yo'naltirilgan fikr yuritish amaliy tafakkur deb ataladi. U qo'yilgan amaliy va nazariy vazifalarni yangi usullar bilan hal qilish, ongimizda yangi tasavvur, tushuncha va hukmlar hosil qilish, muayyan yangi narsalar yaratish bilan bog'liq murakkab tafakkur jarayonidir.

Ijodiy tafakkur murakkab bilish faoliyatidan biri bo'lib tadrijiy ravishda, izchil o'zaro bog'langan jarayonlardan tashkil topadi: dastavval savollar tug'iladi, vazifa aniqlanadi, masalani yechish yoki savollarga javob qidirish jarayoni vujudga keladi. Ijodiy tafakkur turi o'zining samaradorligi va dolzarbligi, universalligi bilan boshqa fikr yuritish jarayonlaridan farq qiladi, yangi-yangi muammolarni o'ylab chiqishda, masalani hal qilishda zarur jarayon bo'lib, insonning bilish faoliyatida yetakchi rol o'ynaydi.

Qisqa vaqt birligi ichida yangi, original fikrlar yaratish yoki muhim ilmiy, amaliy masalalarni hal qilish bilan belgilanadigan tafakkur produktiv tafakkur deyiladi. Reproductiv tafakkur esa passiv, tayyor mulohazalarni o'zlashtirib olishga va «tayyor holda» undan foydalanishga qaratilgan insonning bilish faoliyati ko'rinishidir.

Fazoviy tafakkur deganda narsa va hodisalarning fazoda ratsional joylashishi, zamon va makon munosabatlarini, murakkab bog'lanishlarini adekvat ravishda aks ettirishdan iborat fikr yuritish jarayoni tushuniladi.

Insonning fazoviy tafakkuri xotira va xayol tasavvurlari bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi.

Tafakkurning individual xususiyatlariga (sifatlariga) bilish faoliyatining mazmundorlik, mustaqillik, epchillik, samaradorlik, fikrning kengligi, tezligi, chuqurligi va boshqa sifatlari kiritiladi.

Tafakkur mazmundorligi deganda insonning tevarak-atrofdagi moddiy voqeyelik to'g'risida ongida qay miqdorda (ko'lamda) mulohaza, muhokama, fikr, muammo va tushunchalar joy olganligi nazarda tutiladi.

Tafakkurning chuqurligi deganda, moddiy dunyodagi narsa-hodisalarning asosiy qonunlari, qonuniyatlari, xossalari, sifatlari, ularning o'zaro bog'lanishlari, munosabatlari tafakkurimizda to'liq aks etganligini tushunishimiz kerak.

Tafakkurning kengligi o'zining mazmundorligi, chuqurligi kabi sifatlari bilan muntazam aloqada bo'ladi. Insondagi narsa va hodisalarning eng muhim belgi va xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirgan, o'tmish yuzasidan, hozirgi davr haqida, shuningdek, kelajak to'g'risidagi mulohazalar, muammolar va tushunchalarni qamrab olgan tafakkur keng tafakkur deyiladi.

Tafakkurning mustaqilligi deganda, kishining shaxsiy tashabbusi bilan o'z oldiga konkret maqsad, yangi vazifalar qo'ya bilishi, ular yuzasidan amaliy va ilmiy xarakterdagi faraz (gipoteza) qilishi, natijani ko'z oldiga keltira olishi, qo'yilgan vazifani hyech kimning ko'magisiz, ko'rsatmasisiz, o'zining aqliy izlanishi tufayli turli yo'l, usul va vositalar topib, mustaqil ravishda hal qilishdan iborat aqliy qobiliyatni tushunish kerak. Tafakkurning mustaqilligi *aqlning sertashabbusligi, pishiqligi va tanqidiyligida* namoyon bo'ladi.

Tafakkurning ixchamligi deganda, muammoni hal qilishning dastlab tuzilgan rejasi mazkur jarayonda masala yechish shartini qanoatlantirmay qolsa, nomutanosiblik hosil bo'lsa, hyech ikkilanmay elastik ravishda o'zgartirishlar kiritishdan iborat fikr yuritish faoliyatini tasavvur qilishimiz shart.

Tafakkurning tezligi qo'yilgan savolga va muammoga to'liq javob olingan vaqt bilan belgilanib, tafakkur jarayonlarining tezligi va jarayonlarning ma'lum fursat ichida qanchalik samara berganligi bilan baholanadi.

Fikrlarning tezligi o'quvchi va talabalarga juda zarur psixologik qurol bo'lib xizmat qiladi. Imtihon paytida, seminar mashg'ulotlarida faol ishtirok etgan talaba hayajonlanib, egallagan bilimlarini vaqtincha unutib, o'zini yo'qotib qo'yadi. O'rinsiz, salbiy emotsiyalar (his-tuyg'ular) uning tafakkurini tormozlab, muvaffaqiyatsizlikka olib keladi, ya'ni fikrni bayon qilishda inertlik paydo bo'lib, keyinchalik butunlay tormozlanishga aylanadi. Ba'zi talabalar, aksincha, imtihonda hayajonlanib, fikrlari ravonlashadi. Qattiq hayajonlanish, qattiq tashqi ta'sir natijasida uyqudagi ayrim neyronlar uyg'onib funksiyasi jadallashib ketadi va fikr "birdaniga" ravshanlanishi mumkin. Shuning uchun

o'qitish jarayonida talaba va o'quvchilarning aqliy faoliyatini to'g'ri baholashda ularning individual-tipologik xususiyatlarini hisobga olish maqsadga muvofiqdir.

8.5. Nutq va xayol

Inson til yordami bilan boshqa odamlarga o'tmish, hozirgi zamon va kelajakka oid narsalar, voqeyelik yuzasidan axborot, xabar, ma'lumot berishi mumkin. Odamdagi shaxsiy individual tajribaning umuminsoniy tajriba bilan bog'liqligi kishilarda tilning mavjudligi bilan izohlanib, u oddiy qilib tushuntirilganda so'z va belgilar tizimi hamda yig'indisidan iboratdir.

Tilning asosiy funksiyalari:

- 1) til yashashning vositasi, ijtimoiy tajribani avloddan avlodga uzatish, berish va o'zlashtirish quroli tarzida vujudga keladi;
- 2) til vosita yoki kommunikatsiya usuli, hatto odamlarning xatti-harakatlarini boshqaruvchi qurol sifatida namoyon bo'ladi;
- 3) til intellektual faoliyatning quroli sifatida xizmat qiladi (muammoli vaziyat mohiyatini tushunish, yechishni rejalashtirish, ijro etish, maqsad bilan solishtirish).

Odami o'zi xoh amaliy xoh aqliy harakat qilishidan qat'iy nazar uni rejalashtirib, buning yechimi uchun vosita qidirishning va umumiy fikriy masalalarini hal qilishning asosiy quroli til hisoblanadi.

Nutq faoliyati – odam tomonidan ijtimoiy-tarixiy tajribani o'zlashtirish, avlodlarga uzatish yoki kommunikatsiya o'rnatish, o'z shaxsiy harakatlarini rejalashtirish va amalga oshirish maqsadida tildan foydalanish jarayonidir.

Nutq turlarining E.G.G'oziev muayyan asoslariga suyangan holda *noverbal* va *verbal* turlarga bo'ladi. *Noverbal nutq* genetik kelib chiqish jihatidan birlamchi hisoblanadi, chunki insonning ijtimoiy-tarixiy taraqqiyoti davrida dastavval tovushsiz, so'zsiz nutq turlari paydo bo'lgan bo'lib, u o'z ichiga shaxs kamolotining yirik sanasini qamrab olgan.

Noverbal nutq turini shartli ravishda quyidagi ko'rinishlarga ajratish mumkin:

- imo-ishora,
- mimika,
- pantomimika,
- exologik, ya'ni aks-sado,
- signifikatsiya,
- daktologik (barmoq nutqi).

Verbal nutq turini shartli ravishda quyidagi turlarga ajratish mumkin: og'zaki va yozma. Ularning quyidagi ko'rinishlari farqlanadi:

- 1) monologik;

- 2) diologik;
- 3) polilogik;
- 4) tashqi;
- 5) ichki;
- 6) ekspressiv;
- 7) impressiv;
- 8) lakonik (qatra, yig'iq);
- 9) epik (yoyiq);
- 10) affektiv (jahol holatidagi).

Jahol psixologiyasida *xayol* insonning ijodiy faoliyatining tarkibiy qismi sifatida talqin qilinadi, u tizimiy xususiyatli xatti-harakatning oraliq va yakuniy mahsullari orqali aks etadi, muammoli vaziyatda noaniqlik, noma'lumlik alomatlarini vujudga kelsa, u holda faoliyat rejasini qayta ko'rib chiqishni ta'minlash imkoniyatiga ega. Xayolning asosiy vazifasi amaliy faoliyat boshlanmasdan turib, uning mahsulini oldindan tasavvur qilish va ularni timsollar tariqasida vujudga keltirishdan iboratdir. Xayol boshqa bilish jarayonlari bilan uzviy aloqada bo'lib, ularni aks ettirish imkoniyatining to'laroq ro'yobga chiqishiga yordam beradi. Ayniqsa, u tafakkur bilan bevosita aloqada bo'ladi, xuddi shu boisdan ularning har ikkalasida ham bashorat qilish, oldindan payqash, sezish, istiqbol rejasini tuzish imkoniyati mavjud. Ular o'rtasida bir qator o'xshashliklar va ayrim farqlar mavjud, ya'ni:

- xayol tafakkur singari muammoli vaziyatda, masala va topshiriqlar yechish jarayonida tug'iladi;

- yangi yechim, usul, vosita qidirishda va ularni saralashda umumiylik mavjud;

- xayolning ham, tafakkurning ham paydo bo'lishi shaxsning ehtiyojlariga bevosita bog'liq;

- ehtiyojlarni qondirishning dastlab xayoliy obrazlari yaratiladi, uning natijasida vaziyatni yorqin tasavvur qilish imkonini tug'iladi;

- xayolda oldindan aks ettirish jonli tasavvurlar tarzida, yaqqol timsollar shaklida vujudga kelsa, tafakkurda ular umumlashmalar, tushunchalar, bilvositalik xususiyati orqali ro'yobga chiqadi.

Xayol jarayoni tafakkurdan farqli o'laroq muammoli vaziyatning ma'lumotlari qanchalik noaniq bo'lsa, shunchalik tasavvur obrazlari yaratilishi uchun qulay imkoniyat tug'iladi, uning mexanizmlari tezkorlikda ishga tushadi.

Xayol turlari. Inson quyidagi holatlarda xayolot olamiga kirib borishi mumkin:

1) inson hiech qanday yo'l bilan hal qilib bo'lmaydigan masalalar, muammolar iskanjasidan berkinish maqsadida;

2) turmushning og'ir sharoitlaridan, zahmatlaridan himoyalash niyatida;

3) shaxsiy nuqsonlarning tarkibidan;

4) ushalmagan armondan;

5) patologik holatga (ruhiy nuqsonga) uchraganda;

6) alkogolizm, narkomaniya va boshqa vaziyatlarda.

Xayolot (fantaziya) turmushda gavdalanishi mumkin bo'lmagan, amalga oshirish imkoniyati yo'q xatti-harakatlar dasturini namoyon etib, u *passiv (sust)* xayol deb nomlanadi. Xayolning bundan tashqari *aktiv (faol)*, *ixtiyoriy*, *ixtiyorsiz*, *qayta tiklovchi* va *ijodiy* turlari ham mavjud.

Inson *passiv xayolni* oldindan ixtiyoriy rejalashtirib, iroda bilan hiech bir bog'liq bo'lmagan, jo'rttaga "kashf" qilingan, biroq hayotda gavdalanirishga yo'naltirilgan obrazlari majmuasi "*shirin xayol*" deyiladi. Odatda «shirin xayol»da fantaziyaning mahsullari bilan insonning ehtiyojlari o'rtasidagi aloqa yengillik bilan yuzaga kelganligi tufayli quvonchli, yoqimli, qiziqarli narsalar haqida odamlar xayol suradilar. Inson qanchalik shirin xayolga berilsa, u shunchalik darajada passiv shaxs sanalib, bu uning nuqsoni hisoblanadi. Goho passiv xayol ixtiyorsiz ravishda vujudga kelishi ham mumkin, bunda quyidagi holat yuz beradi:

A) ong nazoratining kuchsizlanishi

B) ikkinchi signallar tizimining susayishi

V) insonning vaqtincha harakatsizlanishi

G) uyqusirash kezida

D) affektiv vaziyatda

ye) tush ko'rishda

Yo) gallyusinatsiyada

J) patologik holatlarda va h.k.

Passiv xayol ixtiyoriy va ixtiyorsiz turlarga ajratilganidek, aktiv xayol qayta tiklovchi va ijodiy ko'rinishlarga bo'linadi.

O'zining mohiyati bilan tasavvurlarga muvofiq keladigan tasvirlar tizimini yaratuvchi xayol "*qayta tiklovchi xayol*" deb atalib, u tabiatga, jamiyatga va shaxslararo munosabatga, bilimlarga oid ma'lumotlar o'rganilishida bevosita ishtirok etadi hamda matnlarda, rasmlarda, xaritalarda aks ettirilgan narsalar qayta tiklanadi. Diqqat bilan, sinchkovlik bilan qarash, tikilish jarayonida mazkur xayol turi rivojlanadi.

Ijodiy xayol tiklovchi xayoldan farqli o'laroq original va qimmatli moddiy, ijodiy mahsulotlarda gavdalanuvchi yangi obrazlarning yaratilishidan iborat xayol turidir.

Xayolning xususiyatlari. Xayolning ijodiyot va shaxs munosabatining yaxlit holda talqin qilish xususiyati mavjud bo'lib, ijodiyot shaxsning ichki imkoniyatlari va zahiralari ro'yobga chiqishining asosiy shartlaridan biridir.

- 2) diologik;
- 3) polilogik;
- 4) tashqi;
- 5) ichki;
- 6) ekspressiv;
- 7) impressiv;
- 8) lakonik (qatra, yig'iq);
- 9) epik (yoyiq);
- 10) affektiv (jahl holatidagi).

Jahon psixologiyasida *xayol* insonning ijodiy faoliyatining tarkibiy qismi sifatida talqin qilinadi, u tizimiy xususiyatli xatti-harakatning oraliq va yakuniy mahsullari orqali aks etadi, muammoli vaziyatda noaniqlik, noma'lumlik alomatlarini vujudga kelsa, u holda faoliyat rejasini qayta ko'rib chiqishni ta'minlash imkoniyatiga ega. Xayolning asosiy vazifasi amaliy faoliyat boshlanmasdan turib, uning mahsulini oldindan tasavvur qilish va ularni timsollar tarzida vujudga keltirishdan iboratdir. Xayol boshqa bilish jarayonlari bilan uzviy aloqada bo'lib, ularni aks ettirish imkoniyatining to'laroq ro'yobga chiqishiga yordam beradi. Ayniqsa, u tafakkur bilan bevosita aloqada bo'ladi, xuddi shu boisdan ularning har ikkalasida ham bashorat qilish, oldindan payqash, sezish, istiqbol rejasini tuzish imkoniyati mavjud. Ular o'rtasida bir qator o'xshashliklar va ayrim farqlar mavjud, ya'ni:

- xayol tafakkur singari muammoli vaziyatda, masala va topshiriqlar yechish jarayonida tug'iladi;
- yangi yechim, usul, vosita qidirishda va ularni saralashda umumiylik mavjud;

- xayolning ham, tafakkurning ham paydo bo'lishi shaxsning ehtiyojlariga bevosita bog'liq;

- ehtiyojlarni qondirishning dastlab xayoliy obrazlari yaratiladi, uning natijasida vaziyatni yorqin tasavvur qilish imkoni tug'iladi;

- xayolda oldindan aks ettirish jonli tasavvurlar tarzida, yaqqol timsollar shaklida vujudga kelsa, tafakkurda ular umumlashmalar, tushunchalar, bilvositalik xususiyati orqali ro'yobga chiqadi.

Xayol jarayoni tafakkurdan farqli o'laroq muammoli vaziyatning ma'lumotlari qanchalik noaniq bo'lsa, shunchalik tasavvur obrazlari yaralishi uchun qulay imkoniyat tug'iladi, uning mexanizmlari tezkorlikda ishga tushadi.

Xayol turlari. Inson quyidagi holatlarda xayolot olamiga kirib borishi mumkin:

- 1) inson hiech qanday yo'l bilan hal qilib bo'lmaydigan masalalar, muammolar iskanjasidan berkinish maqsadida;

- 2) turmushning og'ir sharoitlaridan, zahmatlaridan himoyalaniish niyatida;

- 3) shaxsiy nuqsonlarning tarkibidan;

- 4) ushalmagan armondan;

- 5) patologik holatga (ruhiy nuqsonga) uchraganda;

- 6) alkogolizm, narkomaniya va boshqa vaziyatlarda.

Xayolot (fantaziya) turmushda gavdalanishi mumkin bo'lmagan, amalga oshirish imkoniyati yo'q xatti-harakatlar dasturini namoyon etib, u *passiv (sust)* xayol deb nomlanadi. Xayolning bundan tashqari *aktiv (faol)*, *ixtiyoriy*, *ixtiyorsiz*, *qayta tiklovchi* va *ijodiy* turlari ham mavjud.

Inson *passiv xayolni* oldindan ixtiyoriy rejalashtirib, iroda bilan hiech bir bog'liq bo'lmagan, jo'rttaga "kashf" qilingan, biroq hayotda gavdalanirishga yo'naltirilgan obrazlari majmuasi "*shirin xayol*" deyiladi. Odatda «shirin xayol»da fantaziyaning mahsullari bilan insonning ehtiyojlari o'rtasidagi aloqa yengillik bilan yuzaga kelganligi tufayli quvonchli, yoqimli, qiziqarli narsalar haqida odamlar xayol suradilar. Inson qanchalik shirin xayolga berilsa, u shunchalik darajada passiv shaxs sanalib, bu uning nuqsoni hisoblanadi. Goho passiv xayol ixtiyorsiz ravishda vujudga kelishi ham mumkin, bunda quyidagi holat yuz beradi:

A) ong nazoratining kuchsizlanishi

B) ikkinchi signallar tizimining susayishi

V) insonning vaqtincha harakatsizlanishi

G) uyqusirash kezida

D) affektiv vaziyatda

ye) tush ko'rishda

Yo) gallyusinatsiyada

J) patologik holatlarda va h.k.

Passiv xayol ixtiyoriy va ixtiyorsiz turlarga ajratilganidek, aktiv xayol qayta tiklovchi va ijodiy ko'rinishlarga bo'linadi.

O'zining mohiyati bilan tasavvurlarga muvofiq keladigan tasvirlar tizimini yaratuvchi xayol "*qayta tiklovchi xayol*" deb atalib, u tabiatga, jamiyatga va shaxslararo munosabatga, bilimlarga oid ma'lumotlar o'rganilishida bevosita ishtirok etadi hamda matnlarda, rasmlarda, xaritalarda aks ettirilgan narsalar qayta tiklanadi. Diqqat bilan, sinchkovlik bilan qarash, tikilish jarayonida mazkur xayol turi rivojlanadi.

Ijodiy xayol tiklovchi xayoldan farqli o'laroq original va qimmatli moddiy, ijodiy mahsulotlarda gavdalanuvchi yangi obrazlarning yaratilishidan iborat xayol turidir.

Xayolning xususiyatlari. Xayolning ijodiyot va shaxs munosabatining yaxlit holda talqin qilish xususiyati mavjud bo'lib, ijodiyot shaxsning ichki imkoniyatlari va zahiralari ro'yobga chiqishining asosiy shartlaridan biridir.

Shu bois, shaxs o'zining ijodiy faoliyati bilan, birinchidan, insonning yaratuvchilik qudratini amaliyotda namoyish qilsa, ikkinchidan, u ijodiyot ta'sirida yangi fazilatlarini egallaydi, nafasat, badiiy ijod, texnik qobiliyat, kashfiyot, ijtimoiy muammolarni integratsiya qilish yoki mavjud umumiy qonuniyatlardan kelib chiqib, uni differensiallashti-radi. Uchinchidan, jahon faniga o'z ulushini qo'shadi va sivilizatsiyaga o'z ta'sirini o'tkazadi, ijtimoiy taraqqiyot harakatlantiruvchisiga aylanadi. Ijodiyot davomida shaxs motivatsiyasi, emotsional, irodaviy barqarorligi, xarakterining mustahkamligi va boshqa individual-tipologik xususiyatlaridagi yetuklik ijodiyot mahsuliga, uning samaradorligiga, sifatiga munosib ravishda ijobiy ta'sir o'tkazadi.

Xayolning *analitik xususiyati* uning mazmunini, mohiyatini, predmetini, asosan tubdan yangi mahsullar, yangicha obrazlar, timsollar, tasvirlar yaratilishidan, atrof-muhitning ifodasi, yangi bezakli, jiloli ekanligini qayd qilishdan iboratligini tan olishdir.

Xayol *sintetik xususiyatga* ham ega bo'lib, u ushbu fenomenlar orqali ifodalanadi:

agglyutinatsiya (lot. "agglutinare" - yopishtirmoq, yelimplamoq) muayyan tasavvurlarni bir-biriga qo'shib yoki ulardan foydalanib, narsa va hodisalarning yangi obrazlarini yaratishdan iborat xayol fenomeni;

giperbolizatsiya (yunon. "hyperbole" - bo'rttirish, kuchaytirish);

sxematisatsiya obraz va shaklni vujudga keltirish demakdir;

tipizatsiya (yunon. "tipos" - iz, chiziq) yoki tipiklantirish - o'xshatma muayyan narsalarga nisbatan qiyoslash orqali muhim va nomuhim tomonlaridan umumiylikni tanlab olish kabilar.

Bob yuzasidan nazorat savollari:

1. Sezgi Diqqat va uning turlarini tushuntiring.
2. Diqqat xususiyatlari haqidagi mulohazalaringizni bildiring.
3. Sezgi qanday hodisalarda aks etadi?
4. Idrok nima?
5. Appersepsiya tushunchasi va uning turlarini ta'riflang.
6. Idrok qanday turlarga bo'linadi?
7. Idrok fenomenlarini izohlang.
8. Idrok qanday xususiyatlarda ifodalanadi?
9. Antitsipatsiya va uning darajalarini tushuntiring.
10. Xotira nazariyalarining ahamiyatini bayon qiling.
11. Esda olib qolish jarayoni qanday yuzaga keladi?
12. Esda saqlash jarayoni va uning omillarini ko'rsating.
13. Esga tushurish va uning turlarini tushuntiring.
14. Shaxsda nima sababdan unutish jarayoni yuzaga keladi?
15. Tafakkur nima va u qanday operatsiyalarni amalga oshiradi?

16. Muammolar yechimi qanday bosqichda aniqlanadi?
17. Tafakkur turlari haqida gapiring.
18. Tafakkur qanday sifatlardan iborat?
19. Nutq va uning turlari klassifikatsiyasini bilasizmi?
20. Xayol nima, u qanday vazifalarni bajaradi?
21. Xayolning qanday turlari, xususiyatlarini bilasizmi?

Mustaqil ta'lim uchun mavzular:

1. Diqqatning psixologik nazariyalari.
2. Sezgilarning o'zgarishi va ularning o'Ichovi.
3. Idrok turlari va xususiyatlari.
4. Obrazlar shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar.
5. Insonning ko'rish idroki qonunlari.
6. Ma'lumotlarni mustahkamlash yo'llari, usullari, vositalari.
7. Inson xotirasi rivojining asosiy omillari va shart-sharoitlari.
8. Tafakkur va nutqning o'zaro bog'liqligi.
9. Xayol va ijodiyot.
10. Ijodiy fikrlash psixologiyasi.
11. Inson tafakkurining o'ziga xos xususiyatlari.
12. Tafakkurni rivojlantirish vositalari.

9-MAVZU. SHAXSNING EMOTSIONAL-IRODAVIY HOLATLARI

Bobning qisqacha mazmuni

His-tuyg'ular. His-tuyg'ular haqida tushuncha, his-tuyg'ularning ifodalanishi, his-tuyg'ularning fiziologik asoslari, his-tuyg'ularning asosiy sifatleri, emotsional holatlar: stress va uning bosqichlari, bartaraf etish yo'llari; affekt, kayfiyat, depressiya, frustratsiya, ruhlanish, ehtiros, yuksak his-tuyg'ular.

Iroda. Irodaviy jarayonlar haqida tushuncha, irodaning fiziologik asoslari, irodaviy harakatning manbalari, irodaviy harakatni tahlil qilish, shaxsning irodaviy sifatleri, irodani tarbiyalash.

9.1. His-tuyg'ular

Kishi idrok etish, xayol surish va fikrlash jarayonlarida faqat voqeyelikni bilib qolmay, balki shu bilan birga hayotdagi u yoki bu natsalarga qanday bo'lmasin munosabat bildiradi. Unda ularga nisbatan u yoki bu tarzda his-tuyg'u paydo bo'ladi. Bunday ichki shaxsiy munosabatning manbai faoliyat va munosabat jarayonlari bo'lib, u ana shunday jarayonlarda ro'y beradi, o'zgaradi, barqaror tus oladi yoki yo'qoladi (vatanparvarlik, nafratlanish, bir lahzalik mamnunlik).

His-tuyg'ular – kishining o'z hayotida nimalar yuz berayotganiga, nimalarni bilib olayotganiga yoki nima bilan mashg'ul bo'layotganiga nisbatan o'zicha turli xil shaklda bildiradigan *ichki munosabat*dir. His-tuyg'ularsiz birorta ruhiy jarayon kechmaydi. Har qanday his-tuyg'u nafaqat odamning, balki hayvonlarning (ayniqsa maymunlarning) ham yuzida aks etib turadi. Insonning tashqi qiyofasidagi o'zgarishlardan uning hissiy kechinmalarini bilib olish mumkin. Hissiy qo'zg'alishlar yurakda ham aks etadi. Shuning uchun ham qadimgi faylasuflar miyaning ba'zi funksiyalarini, ayniqsa hissiyot bilan bog'liq bo'lganlarini yurak bilan bog'lashgan.

Sezgi va idrokdan tortib to tafakkurgacha bo'lgan barcha operatsiyalar hissiy o'zgarishlar bilan kechadi. Inson tabiati shunday tuzilganki, u hissiy voqyealarga ko'proq ahamiyat beradi. Tibbiyotda his-tuyg'ular muammosiga ayniqsa katta e'tibor beriladi. Bemor bilan vrach, vrach bilan hamshira, hamshira bilan bemor orasidagi munosabatlarga bag'ishlab juda ko'p asarlar yozilgan. Bu asarlarda his-tuyg'ular muammosiga katta e'tibor qaratilgan.

Dunyoni bilish tizimidagi his-tuyg'ular odamda o'ziga xos indikator vazifasini bajaradi. Bizning kayfiyatimiz atrof muhitdagi narsa va hodisalarga (voqyealarga) qanday munosabatda bo'lishimizga qarab o'zgarib turadi. Buning yordamida odamning ichki dunyo manzarasini tushunib olish mumkin. Turli xil odamlarning bir ayanchli voqyeaga nisbatan bo'lgan hissiy kechinmalarini psixologlar tahlil qilishgan. Televizorda davlat poytaxtining qoq markazida shu davlat tanklari odamlar yashayotgan binoga o'q uzadi. Ayni paytda ba'zi odamlar darg'azab bo'lib, ularning yuzlari nafratga to'lgan va vahimaga tushgan bo'lsa, boshqa odamlar chehrasida yaqqol qiziqish ifodalangan. Bundan shu narsa ayonki, har xil odamlarda begona odam hayotining qimmatini har xil ahamiyatga ega. Agar bir xil voqyeaga bir odam hamdard bo'lsa, boshqasi hursand bo'ladi, uchinchisi esa mutloqo befarq bo'ladi. Tashqi dunyo voqyealariga bo'lgan munosabat odam ichki dunyosining ko'zgidir.

Odamning ichki dunyosini tushunish barcha psixologik maktablarning qiziqishini uyg'otib kelgan. Bu muammo hamma vaqt qiyin yechilgan. Odamning ichki dunyosi qanday shakllanadi, oilaviy muhitga, atrof-muhitdagi voqyealarga, jamiyatga qay darajada bog'liq? Odam o'z his-tuyg'ularini tahlil qila turib, o'zi haqida ko'pgina narsalarni bilib olishi mumkin.

Hissiyot haqidagi dastlabki nazariyalar XX asr boshlarida odam o'z-o'zini bayon etishiga asoslangan edi. O'sha davrda ikkita kashfiyotchi P. Jeyms va G. Lange nomi bilan atalgan nazariya keng ko'lamda tarqalgan edi. Jeyms-Lange nazariyasi his-tuyg'ularning paydo bo'lishini quyidagi tarzda tushuntirib beradi. Atrof muhitdagi hodisalar odam ruhiyatiga, u orqali esa vegetativ nerv sistemasiga ta'sir o'tkazar ekan, organizmda muayyan o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. Bu o'zgarishlar odam tomonidan talqin qilinadi, aynan ana shu talqin hissiyotning o'zi ekan. Bu jarayon quyidagicha ta'riflanadi. Avval odam tanasida qandaydir bir his paydo bo'ladi (masalan, eti jimirlaydi), ko'zi yosharadi, keyin esa qalbida qandaydir tuyg'u paydo bo'ladi.

XX asr boshlanishida Jeyms-Lange nazariyasi juda ko'p tanqidga uchragan bo'lsada, lekin so'nggi paytlarda bu nazariyaga qiziqish paydo bo'lib, bu nazariyaga yaqin turadigan hissiyot haqida yangi nazariyalar paydo bo'ldi. Bu nazariyalarning paydo bo'lishi ko'p jihatdan individual psixologiyaning rivojlanishi bilan ham bog'liq.

His-tuyg'u bizning tevarak atrofga nisbatan bo'lgan munosabati-mizni aks ettiradi dedik. Albatta biz sodir bo'layotgan voqyealarni faqat idrok etmasdan, balki unga muayyan tarzda o'z munosabatimizni ham bildiramiz. Biz kosmonavtlar amalga oshirgan qahramonlik mohiyatini-na emas, shu munosabat bilan mag'rurlik hissinini ham sezamiz. Odamning turli xil va ko'p qirrali his-tuyg'ulari hamda hissiyotlari ma'lum darajada ijobiy va salbiylarga ajratilishi mumkin. Masalan, ishq-muhabbatning ijobiy hissigi rashkning

salbiy hissi qo'shilib qolishi mumkin. His-tuyg'ular va sezgilar bir-biriga yaqin turgan tushunchalar hisoblanadi. Hissiyot va sezgiga mana bunday ta'rif berish ham mumkin: atrofdagi olamga munosabatda bo'lishga aloqador qisqa fursatli holatlar hissiyot deb, bir qadar uzoq davom etuvchi va chuqur holatlar sezgilar deb ataladi. Masalan, onaning o'z farzandiga bo'lgan mehr-muhabbat hissiga mehribonlik, g'ururlik, mehr-shavqat va farzandning fe'l-atvori yoqmasligi ham kiradi. Bu kechinmalarni hissiyot va sezgilar deb atasa bo'ladi. Odamning his-tuyg'ulari va sezgilari o'zgarib borish jarayonida biologik mayllar va ehtiyojlar asosida taraqqiy etib borgan. Masalan, muhabbat hissi jinsiy mayllar uyg'otadi. Lekin zamonaviy kishining hislari eng sodda biologik mayllardan va instinktlardan ancha o'zib ketdi.

Hozirgi vaqtda ular ko'pgina jihatdan ijtimoiy va tarixiy nuqtai nazardan bog'langandir. Shu munosabat bilan insonparvarlik, vatanparvarlik, go'zallik his-tuyg'ulari haqida fikr yuritimiz. His etish kishining fe'l - atvorida qudratli dastak hisoblanadi. Ular odam faoliyatining turli xillari bo'lmish - mehnat, ilmu-fan va san'atga rag'batlantiruvchi hisoblanadi. Lekin shuni nazarda tutish kerakki, odam faoliyatini faqatgina uyushtirmasdan, balki uni ishdan chiqarib qo'yishi ham mumkin. Masalan, muhabbat odamni qahramonlikka, shijoat ishlariga, qat'iylikka, qunt bilan ishlashga da'vat etadi. Lekin odamni qamrab olgan o'sha muhabbatning o'zi, uning hayot tarzini barbod etishi, ko'zda tutgan ishlarini izdan chiqarishi ham mumkin. Psixologiyada kuchli his-tuyg'ular hisoblangan qo'rquv, hayajon, tushkunlik, rashk odatiy ruhiy faoliyatni izdan chiqaradi.

Hissiyot va boshqa jarayonlar o'rtasida uzviy bog'lanish va o'zaro bog'liq his-tuyg'ular va idrok etish ijobiy yoki salbiy sezgi ohangida bo'ladi, shunga qarab ular yoqimli yoki yoqimsiz bo'ladi. Tasavvur va faraz qilish ham sezgi bilan bog'langan. Xotiraning sezgi va kayfiyatga aloqadorligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Turli hil kayfiyatlarga har-xil xotiralar mos keladi. Sezgilarning fikrlashga bog'liqligi ancha murakkab bo'ladi. Yana his-tuyg'ularning assotsiativ jarayonlarining kechishiga ta'siri ham rosmama ifodalangan bo'ladi. Bir tomondan, hislar fikrlashga ilxom baxsh etsa, boshqa tomondan ifodalangan sezgilar fikrlashga halaqit berishi, uning to'g'riligini, ob'ektivligi va haqqoniyligini izdan chiqaradi. Masalan, sevgan ona o'z farzandini qilgan harakatlarini to'g'ri baholab, ularni keraklicha ta'riflab bera olmaydi. Haqiqatni baholashda sezgilarni inkor etib bo'lmasada, lekin ularga juda ham berilmaslik zarur.

His-tuyg'uning boshdan kechirish turli shakllarda ifodalanadi: *Emotsiyalar* - "hissiyot" (emotsiya) va "his-tuyg'u" so'zlari ko'pincha sinonimlar sifatida qo'llaniladi. "Emotsiya" so'zini o'zbek tiliga aniq tarjima qilinganda u ruhiy hayajonlanish, ruhiy harakatlanish degan ma'noni anglatadi.

Hissiyot deb, masalan, kishining musiqaviy asarga nisbatan o'mashib qolgan xususiyati sifatidagi muhabbat tuyg'usining o'zini emas, balki konsert paytida yaxshi musiqiy asarni eshitayotib, boshidan kechirgan lazzatlanish, zavqlanish holatiga aytiladi. Musiqiy asarning yomon ijro etilganini eshitganda hosil bo'ladigan xuddi shunday his-tuyg'u nafratlanish kabi salbiy hissiyot sifatida boshdan kechiriladi.

Bu xil holatlarda emotsiyalar ta'sirchanligi bilan ajralib turadi. Ular xatti-harakatlarga, fikr-mulohazalar bildirishga turtki beradigan kuch bo'lib chiqadi, kuch-g'ayratlarni oshirib yuboradi va *stenik* deb ataladi. Boshqa bir hollarda emotsiyalar sustligi, loqaydligi bilan ajralib turadi, his-tuyg'ularning boshdan kechirilishi kishini bo'shashtirib yuboradi va bu hol *astenik* deb ataladi (masalan, qo'rqqanidan oyoqlari qaltirashi, kuchli his-tuyg'uga berilib, xayolga cho'mib, o'zi bilan o'zi ovora bo'lib qolish hollari).

Affektlar - (*hissiy portlash, jazava*) kishini tez chulg'ab oladigan va shiddat bilan o'tib ketadigan holat bo'lib, ular ongning anchagina darajada o'zgarganligi, xatti-harakatlarni nazorat qilishning buzilganligi, odamning o'zini o'zi idrok qila olmasligi, shuningdek uning butun hayoti va faoliyati o'zgarib qolganligi bilan ajralib turadi. *Affektlar* birdaniga katta kuch sarf qilinishiga sabab bo'lgani uchun ham *qisqa muddatli* bo'ladi: ular his-tuyg'ularning bamisoli birdan lov etib yonib ketishiga, portlashiga, bir zumda hamma yoqni to's-to'polon qilgan shamolga o'xshaydi. Agar oddiy hissiyot faqat ruhiy hayojonlanishini ifoda etsa, u holda *affekt* bo'ronidir. *Affektlar* tashqi alomatlari keskin ifodalangan zo'r berib kechadigan hissiyotlardir. Masalan, chinqirib yig'lagan, sochini yulgan, farzandidan mahrum bo'lgan onaizorda qayg'u affekti bor, deb fikr yuritimiz.

Ba'zi bir hollarda *affektlar* shunchalik kuchli bo'ladiki odam es-hushini yo'qotadi, shunday vaziyatlarda odamlar nimalar qilganlarini bilmay ham qoladilar. Es-hush buzilishlari rosmama ifodalangan *affektlar* patologik *affektlar* deb ataladi va ular asosan psixozlarda kuzatiladi. *Affektning* fiziologik va patologik turlari farqlanadi. Birinchisi sog'lom odamlarda kuzatilsa, ikkinchisi ruhiy kasalliklarda uchraydi. *Affekt* paytida odam o'zini boshqara olmay qoladi va bemalol birovning (o'zining ham) joniga qasd qilib qo'yadi. Qaxr, g'azab, rashk, ajablanish va hursandchilik *affekt*lari farq qilinadi. Patologik *affekt*tda ongning torayishi tufayli qisman yoki to'la amneziya ham kuzatiladi. Shuning uchun ham *affekt* paytida odam nima qilganini eslay olmaydi.

Kayfiyatlar - ancha vaqt davomida kishining butun xatti-harakatiga tus berib turadigan umumiy hissiy holatini ifoda etadi. *Kayfiyat* aniq bir hissiyotga aloqador bo'lmaydi. U tan sog'ligi yoki tan xastaligi haqida darak beruvchi ko'p sonli introretseptiv impulslar yig'indisi hisoblanadi. Bunga dolzarb ahamiyatga ega bo'lgan turli - tuman kechinmalarning so'nggi izlari ham qo'shilib ketadi. Natijada biz ko'pincha *kayfiyat* nimadan buzilganini aniq

bilmasak ham, uni ancha to'g'ri ta'riflab beramiz. Kayfiyat shod-xurram yoki qayg'uli, tetiklik yoki lanjlik, hayajonlilik yoki ma'vuslik, jiddiylik yoki yengiltaklik, jizzakilik yoki muloyimlik va hokazo tarzda bo'ladi. Jizzakilik va mayuslik – biror xastalik boshlanganining ilk alomati bo'lishi mumkin. Kayfiyatning turli xil buzilishlaridan bo'lmish eyforiya va disforiya ham keng tarqalgandir. Eyforiya-bu ko'tarinki, quvonchli kayfiyat bo'lib, patologik belgi hisoblanadi. Ularga atrofdagi barcha narsalar quvonchli, jozibali bo'lib ko'rinadi. Ular o'zlarini dunyoda eng baxtiyor kishidek his qilishadi(bunga hyech qanaqa asos bo'lmasada). Disforiya esa ortiqcha jizzakilik, o'z-o'zidan va atrofdagilardan hafa bo'lish, kerak bo'lmagan narsaga asabiylashaverish bilan ifodalanadi. Bunga badqovoqlik, yoqtirmaslik va badjaxllik ham qo'shilishi ham mumkin.

Stress (kuchli hayajonlanish). Psixologik ta'rifga ko'ra affektiv holatga yaqin turadigan, lekin boshdan kechirilishining davomlilikiga ko'ra kayfiyatlarga yaqin bo'lgan his-tuyg'ular boshdan kechirilishining alohida shakli stress holati (inglizchada *stress – tazyiq ko'rsatish, zo'riqish degan so'zdan olingan*)dan, yohud hissiy zo'riqishdan iboratdir. Hissiy zo'riqish xavf-xatar tug'ilgan, kishi xafa bo'lgan, uyalgan, tahlika ostida qolib ketish kabi vaziyatlarda ro'y beradi. "Stress" so'zi odatdagi turmushda va tibbiy amashunoslikka ancha keng tarqalgan so'zdir. Odam qattiq siqilsa: "Kecha men stressga uchradim" degan xitob qiladi. Bu so'zni turmushda ishlatish shunga olib keldiki, XX asr oxiri madaniyatida "stress" so'zi ishlatilganda odamlar faqat salbiy ruhiy zo'riqishni tushunadigan bo'lib qolishdi. Aslida "stress" so'zini faqat salbiy ma'noda tushunish noto'g'ridir. "Stress" atamasi 1936 yili fanga kanadalik fiziolog olim G.Sele kirgizilgan.

Stress nima? Stress-organizmning ta'siroatchisi bo'lmish stressorga nisbatan nospetsifik umumiy javobidir. Organizmning stressorga javob reaksiyalarida spetsifik va nospetsifik omillar kuzatiladi. Odam stressiz yashay olmaydi, hayot bor joyda stress bor, uning bo'lmasligi o'lim deganidir (G.Sele, 1956). Stress aslida "hayot" tushunchasi bilan bir xildir. Savol tug'iladi: bordiyu, odam hali tirik ekan, u stress holatida bo'lsa, unda qanday qilib u xastalikka duchor bo'ladi? G.Sele bu muammoni ochiq-oydin yoritib berdi. Stress odam uchun havf tug'dirmaydi, aksincha, distress havflidir, bunda odam ancha vaqt kuchli darajada zo'riqqan bo'ladi. Stressni ijobiy va salbiy turlarga ajratishdan hyech qanday ma'no yo'q, chunki fiziologik nuqta nazardan organizmning kuchli shodlikka va kuchli qayg'uga javob reaksiyasi bir xil bo'ladi. "Stress hastaliklari" degan tushuncha noto'g'ridir. "Distress kasalliklari" deyilsa, to'g'riroq hisoblanadi, degan edi G.Sele.

G.Sele stressni 3 ta asosiy bosqichga bo'lgan va quyidagicha ta'riflagan: Birinchi bosqich - qo'rquv bosqichidir. Bu bosqichda qon bosimi va tana harorati pasayadi, kapillyarlarning qon bilan to'lishi va alkaloz kuzatiladi,

oshqozon ichak sistemasida funksional o'zgarishlar, qonda qand miqdori kamayadi. Ikkinchi bosqich - bu qarshilik ko'rsatish bosqichidir. Bu bosqichda alkaloz atsidoz bilan, gipoglikemiya giperqlikemiya bilan, arterial gipotoniya gipertoniya bilan almashadi, tana harorati ko'tariladi va buyrakusti bezi qobig'i kattalashadi, kortikosteroidlar ko'plab ajralib chiqadi. Uchinchi bosqich -toliqish bosqichidir. Bu bosqich yurak mushaklarida distrofik o'zgarishlar, oshqozon ichak sistemasida yarachalar paydo bo'ladi, ularga nuqtasimon qon quyiladi, ayrisimon va limfatik bezlarning burishib qoladi, miya faoliyati susayadi. Stressni G.Selegacha ham tadqiq qilishgan, lekin organizmda kechadigan patofiziologik o'zgarishlar orasida bog'liqlik alomati o'rganilmagan. Hayotda stresslar bo'lib turishi tufayli ularni boshqarishni, ular keltirishi mumkin bo'lgan zararni kamaytirishni bilish zarur.

Stresslarga ko'nikish usullari: **Birinchi usul** – tashkilot darajasidagi usul bo'lib, siyosatdagi, ishlab chiqarish tuzilmasidagi xodimlarga nisbatan qo'yiladigan aniq talablarni ishlab chiqishda, ularning faoliyatiga baho berishda o'zgarishlar ro'y berishi natijasida sodir bo'lib, bunday o'zgarishlar stressli vaziyatlarning manbaini barham toptiradi. **Ikkinchi usul** – ayrim shaxs darajasidagi usul bo'lib, u stresslarni bartaraf qilish bo'yicha maxsus dasturlardan foydalanib, ularni boshqara bilishdir. Bunday dasturlar meditatsiya, trening, mashqlar, parhyez va ba'zan ibodat qilishni ham o'z ichiga oladi. (8.1.-jadval)

9.1.1-jadval

Stresslarga ko'nikish usullari

Usulning nomi	Usulning qisqacha tavsifnomasi
Rejalashtirish	Shaxsiy yoki kasb hayotida ko'pgina muammolarni rejalashtirish usuli yordamida ham qilish mumkin. O'z shaxsiy yoki xizmat vazifalaringizni bilib olishga birmuncha vaqt ajrating. Ertangi kun faoliyatingizni
	rejalashtirib qo'yish uchun ishda muayyan soatlarni belgilab qo'ying. Bu faoliyat sizning shaxsiy maqsadlaringiz va butun kompaniyaning maqsadlariga qanday mos kelishini belgilang.
Jismoniy mashqlar	Muntazam bajarib boriladigan mashqlar inson sog'lig'i uchun juda foydalidir. Ular salbiy energiyaning chiqib ketishi uchun imkon tug'diradi, umumiy jismoniy holatga qulay ta'sir ko'rsatadi.
Parhyez	Davomli stress vitaminlar yetishmasligiga, organizmning zaiflashuviga, kasalliklarni kuchli idrok qilishga shart-sharoit yaratishi mumkin. Bundan tashqari, stress vaqtida normal ovqatlanish rejimi buziladi, shuning uchun to'g'ri

	parhyezga amal qilish muhimdir.
Psixoterapiya	Kasb mutaxassislari bilan intensiv ish olib borishda odatda ishlatiladigan texnikalar juda xilma-xildir.
Psixologik tahlil	Bu psixoterapiyaning bir shakli bo'lib, unda normal bo'lmagan xulq-atvorning ongsiz asoslari tadqiq etiladi.
Meditatsiya va bo'shshish	Uzoq Sharqdan keltirilgan ko'p sonli misollar: meditatsiya, yoga, dzen-buddizm va boshqa usullarni qamrab oladi.

Taxminiy hisoblarga qaraganda hozir yer sharida 40 mln.dan oshiq odam turli darajada rivojlangan depressiyaga muhtalo bo'lgan. Xo'sh depressiya nima o'zi? *Depressiya* – bu hozirgi kunga va kelajakka ishonchsizlik bilan qarash, doimo past kayfiyatda bo'lish, horg'inlik, hyech narsa qilishga intilmaslik va fikrlashning sustlashuvidir. Depressiya (tushkunlik) - bu siqilish, ma'yuslik va g'amgin kayfiyatdir. Albatta, fikrlashning sustlashuvi og'ir depressiv holatlar uchun xosdir. Ko'rib turganingizdek, depressiya inson uchun xos bo'lgan barcha ijobiy faoliyatni yo'qqa chiqaradi. Bunda bemorlar atrofdegilarga befarq bo'lib qoladilar, kamgap, ma'yus, ko'pincha ko'zyoshi qiladilar. Ularning ongi ma'yus, g'amgin kechinmalarga to'lib ketadi. Hozirgi, o'tgan zamon va kelajak ularga qayg'uli bo'lib tuyuladi. Ular olamga go'yo qora ko'zoynak taqqan holda qaraydilar. Depressiv kayfiyat hayotdan qoniqmaslik va ruhiy xastalanishlar oqibati bo'lishi mumkin. Sabablari aniq bo'lsada, lekin unchalik ifodalangan bunday holatga odatdagi reaksiya deb qarash mumkin.

Depressiv holatlarda o'z joniga qasd qilish ko'p uchraydi, ayniqsa o'smirlar orasida. Ba'zan depressiyaga chalingan o'smirlar o'zlarining joniga qasd qilishlari uchun arzimagan sababning ham o'zi yetarlidir. Masalan, otanasi aytgan qimmatbaho paltosini sotib olib bermaydi yoki diskotekaga yubormaydi, sevgan kishisi bilan uchrashgani qo'ymaydi va h.k. Estrada qo'shiqchilari Viktor Soy, Igor Sorin hayotdan ko'z yumganlaridan keyin Rossiya yoshlari (15-17 yashar bolalar) orasida o'z joniga qasd qilishlar juda ko'p kuzatilgan. Igor Sorin o'zi yashaydigan uyning 6 -chi qavatidan sakrab, o'lim oldi xatida "Hammangizni mening ortimdan yulduzlarga ravona bo'lishga chorlayman" deb yozib qoldirgan edi. Biroz vaqt o'tgach 15 yoshga hali to'lmagan qiz dugonasi bilan birga 9-chi qavatning tomiga chiqib yerga sakrashadi va jon berishadi. Ularning yon daftlarida shunday misralar bitilgan edi. "Igor! Menga sensiz hayotning ne keragi bor. Men ham sening izingdan, sening bag'ringa, yulduzlarga ravona bo'laman! Meni kechiringlar" Nima uchun o'z joniga suiqaqd qilishadi? Buning psixologik mexanizmlari nimalardan iborat? Barcha o'z joniga suiqaqdlarni 3 turga bo'lish mumkin: haqiqiy, yashirin va tantanavor. Haqiqiy suiqaqd hyech qachon to'satdan

bo'lmaydi. Unga doimo past kayfiyat, depressiya hamroh bo'ladi. Ular tez-tez hayotning mantig'iga murojaat qilib turishadi. O'smirlar suiqaqdning bu turiga javobsiz sevgidan, yorining bevafoigidan murojaat qilishsa, qariyalar farzandlaridan keskin xafa bo'lgan paytlarida o'limning ushbu turini tanlashadi. Odam o'zining muammolariga boshqalarning e'tiborini qaratmoqchi bo'lsa, o'z joniga suiqaqd qilishning yashirin turini tanlaydi. Bunday odamlar, ba'zan o'z joniga qasd qilajagini eng yaqin odamlariga aytib ham yurishadi. Lekin, bunga e'tibor berilmaydi yoki kulib javob berishadi. Suiqaqdning bu turi ko'pincha iqtisodiy qiynalغان odamlar orasida uchraydi. Tantavor tarzda hayotdan ko'z yumuvchilar o'smirlar orasida ko'p uchraydi. Bunga misol, yuqorida keltirganimizdek, sevimli qo'shiqchisi o'lganidan keyin o'z joniga suiqaqd qilgan qizlardir. Keltirgan misollarimizning barchasi eng avvalo hissiy qo'zg'aluvchanlik darajasiga tegishlidir. Bu daraja individual ravishda hilma-xil bo'ladi.

Ehtiros – ham uzoq davom etadigan va barqaror bo'lgan emotsional holatdir. Kayfiyatdan ehtirosning farqi shuki, ehtiros muayyan harakatga, muayyan ob'ektiv muttasil intilishda kuchli suratda ifodalangan holatdir. bular – ijobiy ehtiroslarga misol bo'lib, ular odamni ulkan ijodiy faoliyat yo'liga yetaklovchi kuchdir. Ehtiros, tor ma'nodagi so'z bilan aytganda, shaxsning emotsional sohasini tashkil etib, ular kishi xulq-atvorini tartibga solib turadi, bilishning jonli manbai, odamlar o'rtasidagi murakkab va ko'pqirrali munosabatlarning ifodasi bo'lib hisoblanadi.

Ijtimoiy mavqeyi jihatidan *yuksak va past ehtiroslar* farq qilinadi. Ilmufanga, san'atga beriluvchanlik yuksak ehtirosga misol bo'lib xizmat qiladi. Past ehtiroslarga ichkilikka va giyohvandlikka, qimor o'yinlariga ruju qo'yishni misol qilish mumkin. Patologik ehtiroslar psixopatik shaxslarda osongina paydo bo'ladi. Biron narsaga berilish odam hislari orasida katta o'rin tutadi. Ularni shunday deyishga sabab - ular muayyan bir ob'ekt, narsaga qaratilgan bo'lib, unga bevosita aloqadordir. Masalan, biz kimdandir xafa bo'lamiz, kimgadir hasadgo'ylik qilamiz. Narsa va hodisalarga nisbatan bo'lgan hislar turli xil hissiy o'zgarishlarga mansubdir va ular orasida nozik farqlar bo'ladi. Achinish, afsuslanish, hamdardlik hislari bunga misol bo'la oladi. Bu hislarning qay darajadi rivojlangan bo'lishi, ob'ektning sifatleri va xossalariga, his etayotgan odam shaxsiyati xususiyatlariga (fazilatleri) va ijtimoiy kelib chiqishiga, dunyoqarashiga bog'liq bo'ladi.

Ruhlanish - muayyan maqsadga, faoliyatga katta kuch va istak bilan intilishdan iboratdir. Ruhlanish ba'zan qisqa muddat, ba'zan esa uzoq muddat davom etadi. Ruhlanish ijobiy emotsional holat bo'lib, jamiyat uchun va ayrim shaxs uchun alohida ahamiyatga ega bo'lgan hollarida ham, faoliyat natijalari g'oyat maroqli bo'lgan hollarda ham, odamlarda ruhlanish paydo bo'ladi.

Frustratsiya - doimiy stress oqibatida maqsadning yo'q bo'lib qolishi, rejaning izdan chiqish holatidir.

Yuqorida qayd etilgan his-tuyg'ulardan tashqari quvonch, g'azab, g'am-g'ussa, vahima va shuningdek, organizmda kuchli vegetativ o'zgarishlar bilan kechadigan - ochlik, chanqash, og'riq va jinsiy hissiyotlar mavjud. Ular ayni paytda organizmdagi biologik jarayonlar bilan chambarchas bog'langan bo'ladi.

Psixologiyada his-tuyg'uning quyidagi turlari ajratiladi:

Praksik his-tuyg'ular - mehnat faoliyatini davomida kechirilib, unda shaxs biror maqsadni angelaydi, uni e'tirof yoki inkor qiladi, maqsadga erishish yo'llarini baholaydi, unga tatbiq etish usullari va qurol vositalarini ma'qullaydi yoki ma'qullamaydi, ularning tanlanganligiga shubhalanadi, muvaffaqiyat yoki muvaffaqiyatsizlik va hokazo hislarini boshdan kechirilishi tushuniladi.

Axloqiy his-tuyg'ular - shaxsning boshqa odamlarga, mehnat va o'quv jamoasiga hamda ijtimoiy burchlariga bo'lgan munosabatlarida ifodalanadi. Inson axloqiy hislarini kechirar ekan, u ijtimoiy axloq tamoyillari va me'yorlari, mezonlariga asoslangan holda kishilarning xatti-harakatlarini baholaydi. Axloqiy his-tuyg'ular o'z tarkibiga mas'uliyat, javobgarlik, fidoiylik, vijdon, adolat, ibo, iffat, or-nomus, uyalish, simpatiya, empatiya, g'urur, o'rtoqlik, muhabbat kabilarni kiritadi.

Intellektual his-tuyg'ular - shaxsning haqqoniy, jonli, mantiqiy mushohadalari, soxta, yuzaki, ajablanarli, shubhali kabi mulohazalarga nisbatan munosabatida ifodalanadi. Hayajonlanish, ajablanish, qiziqish, hayratlanish, lol qolish, shubhalanish, shodlanish kabi intellektual hislar shaxsning bilish faoliyatining ajralmas qismidir.

Estetik his-tuyg'ular - muayyan mezonidagi baholarda, nafasot me'yorlarida o'ziga xos badiiy lazzatlanish, go'zallikni his qilish holatida kechib, u fojiali yoki kulguli, yoqimli yoki yoqimsiz, go'zallik yoki xunuklik kabi holatlar tarzida munosabatda bo'ladi.

Yuqorida tilga olingan his-tuyg'u turlari uyg'unlashgan holda birlashib namoyon bo'lsa, **yuksak his-tuyg'ular** deyiladi. Yuksak his-tuyg'ular ular faqatgina odamga xos bo'lib, kishilarning ijtimoiy-tarixiy, xususan, ularda ikkinchi signal sistemasining taraqqiy etishi maxsuli hisoblanadi.

Aksariyat ruhiy jarayonlar qatori hissiyotlar ham bolalarda juda erta boshlanadi. Birinchi bosqich - his-tuyg'u va ehtiyojga qarab **qoniqish - qoniqmaslik** birga keladigan hisdir. Ikkinchi bosqich - ijtimoiy hislar: **yoqtirish, o'z-o'zini yaxshi ko'rish, xafagarchilik** hissidir. Bir muncha kechroq (qariyb uch yoshdan boshlab) bolalarda **estetik did** hissi rosmama namoyon bo'ladi. Bolaning "chiroyli - xunuk" degan narsalarga aqli chiqishib boshlaydi. Uchinchi bosqich - hissiyotning jadal, xattoki, zo'r berib avj olishi, qo'zg'aluvchanlikning oshganligi va maktabgacha yoshda beqaror bo'lishi

bilan xarakterlanadi. Ayni paytda ahloq-odob hissi rivojlana boshlaydi. So'nggi bosqich - bolalarda maktab yoshida oliy hissiyotning rosmama rivojlanishi bilan xarakterlanadi. His-tuyg'uni tarbiyalash katta ahamiyat kasb etadi. U umuman tarbiyaning doimiy hamroxi bo'lmog'i lozim. O'qitish mohiyati bunda ayniqsa beqiyosdir. O'qituvchi va tarbiyachi bolaning hissiy ulami to'xtatib qo'yishi ham mumkin. Bunda shuni unutmaslik kerakki, musiqa, tasviriy san'at, she'riyat, teatr va kino estetik didni tarbiyalashda ma'lum ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi davrda, ayniqsa so'nggi yillarda ilmu fanda hissiyotlarning fiziologik mexanizmlari xususida talaygina ma'lumotlar to'plangan. Hissiy faoliyatda bosh miya po'stlog'i, quyi yotgan miya tuzilmalari, vegetativ asab sistemasi, shuningdek gormonlar va mediatorlar ishtirok etadi. Bu tuzilmalar, jarayonlar va komponentlarning hammasi o'zaro murakkab ta'sir o'tkazadi.

Bosh miya po'stlog'i va unga daxldor bo'lgan ikkinchi signal sistemasining faoliyati kishining hissiy hayotida nihoyatda katta ahamiyat kasb etadi. Odamning aksariyat his - tuyg'ulari so'z ta'siroti bilan bog'langan. So'z bir zumda keskin ifodalangan hisni, masalan, yaqin odam halok bo'lgani haqidagi olgan xabarnomaga javoban hamdardlik hissini yuzaga chiqarishi mumkin. Shunday qilib, po'stlog, ya'ni ikkinchi signal sistemasi hissiyotning boshlang'ich zanjiri sifatida xizmat qiladi. Lekin, ana shu mexanizm, muhim bo'lsada, u avvalambor eslatib o'tilganidek, odamda birdan - bir mexanizm bo'lib hisoblanmaydi. Bundan tashqari, hissiyotlar ikkinchi signal sistemasi bo'lmagan hayvonlarda ham mavjud. Chamasi, bosh miya po'stlog'i hissiy faoliyatda birinchi zanjir tariqasida emas, balki oxirgi zanjiri sifatida ham ishtirok etadi. Biz hisni anglash va uning paydo bo'lishidagi oxirgi bosqichni nazarda tutmoqdamiz. Masalan, keyinchalik muhabbat deb anglanadigan sekin- asta rivojlanuvchi his shunga misol bo'la oladi. Ishq-muhabbat biz uchun muhim sanaladi, chunki u odamda hissiy faoliyatning turli xil mexanizmlarida po'stlog va ikkinchi signal sistemasining tutgan o'rnini bildiradi.

Odam qo'rqib ketganida va g'azabga to'lib toshganida qonda adrenalin miqdori oshib ketishi hammaga ma'lum. Yuzaga kelgan giperadrenalinemiya natijasida jigarda va mushaklarda glikogen jadallik bilan parchalanadi. Bunda qonda qand miqdori ham oshadi. Bunday giperqlikemiya moslashuv xarakterida bo'lib, organizmni yonilg'i material bilan ta'minlaydi. Ayni paytda bu yonilg'i hayvon organizmini og'ir vaziyatlarda (hujum qilish, qochish) mushaklar uchun zarur bo'lgan energiya bilan ta'minlaydi. Bu vaqtda hayvonlarda keskin kechinmalar paydo bo'ladi. Affektlarda qonga qalqonsimon bez gormoni ko'plab tushadi, shuningdek gipofizning inkretor faoliyati ham oshib ketadi.

Salbiy xayajonlar (stress) me'da osti bezi shirasining kamayib ketishiga sabab bo'ladi. Ijobiy hissiyotlarda me'da osti bezi shirasining kislotaligi ko'payadi. His-tuyg'ular ayniqsa, yurak-qon-tomir sistemasiga va arterial qon bosimga keskin ta'sir ko'rsatadi. Arterial bosim va yurak qon-tomir sistemasidagi o'zgarishlar shunchalik katta bo'ladiki, bunda yuz qizarib va oqarib ketadi, tomir urishi tezlashadi yoki sekinlashadi, teri quruq yoki, aksincha, zo'r berib ter ajrata boshlaydi.

Biz o'z hislarimizni idora etaolamizmi va ularni qay darajada boshqaramiz? Po'stloqdan markaziy asab sistemasining quyi yotgan bo'limlariga tomozlovchi impulslarni yuborib, hissiy qo'zg'alishlarni to'xtatib turishimiz yoki kamaytirib qo'yishimiz mumkin. Kundalik kuzatuvlarimiz ham bundan guvohlik beradi. Har birimiz bilamizki, agar odam hohlansa yig'i-sig'ini to'xtatishi, og'riq hissini kamaytirishi yoki, aksincha, oshirib yuborishi mumkin. Lekin, biz hislarni emas, balki tashqi alomatlarini to'xtatib qo'yamiz, degan e'tirozlar bildirilishi mumkin. Ma'lum darajada bu to'g'ri. Hislar va ularning tashqi alomatlari bir narsaning o'zi emas. Shunday xollar ham bo'ladiki, kuchli hislar qiyofan sust ifodalanadi. Lekin ko'pgina hollarda ana shu hislar o'z ifodasini to'la-to'kis ifoda eta olmaydi. Bu oddiy va qisqa mud-datli his-tuyg'ular misolida yaqqol seziladi. Bordiyu, odam kulmay qo'ysa, kulishiga hojat ham qolmaydi. G'azablanganini bildirmay qo'ysa ham, odam shunda o'zini kuzatib tursa, g'azab hissi yo'qolganini yoki deyarli bilinma-ganini anglaydi. Aslida esa, buning hayron bo'ladigan joyi yo'q. Bunday paytlarda qaytuvchi afferentatsiya his tuyg'uni kuchaytiradi va uni quvvatlaydi. O'yinchog'i olib qo'yilgan bolaning yig'lashi bunga yaqqol misol bo'la oladi. Bir oz vaqt o'tgach, bola o'yinchog'ini ham unutib yuboradi. His-tuyg'ular po'stloq ta'siri ostidan chiqdi, lekin, alam hissi esa davom etaverishi mumkin. Bu bosqichda vegetativ nerv sistemasidan va chamasi, periferiyadan markaziy asab sistemasigacha bo'lgan kimyoviy o'zgarishlar va qaytar afferentatsiyalar hissiyotning harakatlanuvchi impulsi hisoblanadi. Qizig'i shuki, hissiy buzilishlar va ong buzilishlari ifodalangan holda diensefal psixozlarda ularning vaqt-bevaqt kechishiga moyillik bo'ladi.

Birinchi marta V.Gess (1924) asab to'qimasiga kiritilgan elektrodlar yordamida miyani elektr bilan qitiqlash uslubida olingan natijalar diqqatga sazovordir. 1952 yilda Olds kalamushning bosh miyasida "qoniqish" markazini kashf etdi. Bundan oldinroq gipotalamusga elektr bilan ta'sir o'tkazilganda "soxta g'azab" fenomeni olingan edi. Keyinchalik Olds kalamushlarda antiqa tajriba o'tkazdi, bu tajriba "ustasi o'zingiz" qoidasiga asoslangan edi. U qafas ichida kalamushlar uchun dastak o'rnatgan edi. Kalamush dastakni bossa uning tanasidan elektr toki o'tardi. Shu tariqa ta'sirot kalamushning o'ziga bog'liq bo'lgan. Dastak elektr tokidan uzilgan paytlarda kalamush qafasda o'rmlab yurib, bexosdan bir necha marta dastakni bosib

o'tgan. Dastak elektr tokiga ulanganda kalamush bir-ikki kun ichida toliqib yiqilmaguncha bir necha ming marotaba dastakka bosib turavergan. Bu tajriba shuni ko'rsatdiki, xatto qafasga ovqat qo'yilganda ham, kalamush ovqatdan ko'ra dastakni bosib o'zini qoniqtirishni xush ko'rgan. Ma'lum bo'lishicha, kalamush miyasida "qoniqish" markazlari po'stloq osti yadrolari va miya ustunining turli joylarida, xususan, talamusda, gipotalamusda va bazal gangliyalarda joylashgan. Keyinchalik bu markazlar ham bir xil emasligi ma'lum bo'ldi. "Ovqatdan qoniqish", "jinsiy hirsni qondirish" markazlari bor deb qabul qilindi. Birinchi holdagi markaz kalamush och qolganda ishga tushadi. Mushuklarda o'tkazilgan tajribalar ham yuqorida qayd qilingan markazlar borligini tasdiqladi.

Keyingi tadqiqotlar, miyaning ma'lum sohalarini qo'zg'atib g'azab, qo'rquv va qoniqish hissi uyg'otish mumkinligini tasdiqlab berdi va dalillar bilan to'ldirdi. "Jazolash markazi"ga ta'sir o'tkazilganda olingan his-tuyg'ular nihoyatda kuchli bo'lishi aniqlandi. Masalan, tajriba o'tkaziladigan maymunlar ayni paytda afini bujmaytirib, qichqirib yuboradi, hayqiradi, tishlab olmoqchi va qochmoqchi bo'ladi. Ular titrab, yunglari tik turadi, ko'z qorachilari kengayadi. Jazo markazlari o'rganish uchun "ustasi o'zingiz" qoidasiga ko'ra tajribalar o'tkazish mumkin. Bunda hayvon tegishli dastakka bosib turar ekan, "jazolash markazini" ishdan chiqarishi mumkin. Bunday tajribalar uzoq vaqt davom ettirilsa, hayvonlar toliqib, kasallanib, nobud bo'lishi ham mumkin. "Lazzatlanish", ya'ni "qoniqish" markazlarida joylashgan elektrodlar ishga tushirilganda hayvonlarning ahvoli yaxshilanib borgan.

"Jazolash" markazlarining kashf etilishi va ularning vegetativ jara-yonlarini boshqaruvchi zanjirlarga juda yaqin bo'lishi, Vuldrij ko'rsatib o'tganidek, ba'zi bir ruhiy-somatik xastaliklar mexanizmlarini bir qadar yaxshiroq tushunishga imkon beradi. Ma'lumki, peptik yaralar salbiy his-tuyg'ularga aloqador bo'ladi. Gipotalamusda bir-biriga juda yaqin turgan ikkita markaz bor: biri "jazolash" markazi —u ta'sirlantirilganda salbiy his-hayajonlarni paydo qiladi; ikkinchi markaz ta'sirlantirilganda esa me'da gipersekretsiyasini va peptik yarani paydo qiladi. Ikkala markaz bir-biriga juda yaqin turgani oqibatida ularning birida yuzaga keladigan qo'zg'alish jarayoni boshqasiga uzatiladi va salbiy hissiyotning nima sababdan peptik yarani paydo qilishi ayon bo'ladi, qoladi.

Odamlarda bu tajribalar qanday natija bergan? Neyroxirurgik operatsiyalar mobaynida odam miyasining chuqur joylashgan tuzilmalarini elektrodlar orqali ta'sirlantirib, odamda ham salbiy his-hayojonlar chaqiradigan markazlarni aniqlashga erishildi. Bu tadqiqotlar 1962 yildan boshlab o'tkazila boshlandi. Sobiq ittifoqda ularni mashhur neyrofiziolog N.P.Bextereva va uning xodimlari o'tkazishdi. Bosh miyaning tekshirish uchun mo'ljallangan tuzilmalariga oltindan tayyorlangan elektrodlar kiritiladi, ular diagnostik va

davolash chora tadbirlarini amalga oshirish uchun muayyan vaqtga qadar ana shu yerda qoldiriladi.

Keyinchalik elektrodlar chiqarib olinadi. Turli xil po'stloq osti tuzilmalari (talamus, oq shar, dumli yadro, gippokamp)ga bir yo'la bir-necha yuz elektrodlar kiritilib, qaysi neyronlar guruhi odamda qanday his-tuyg'ular chaqirishini o'rganishdi. Ma'lum bo'lishicha, ko'pchilik nuqtalar ularga elektr toki bilan ta'sir ettirilganda hissiy jihatdan betaraf bo'lgan va atigi o'n foizi turli xil hissiy alomatlar: zavq bag'ishlovchi, jinsiy hissiyotlar, issiqlikning juda yoqimli bo'lishi, gavdaning turli joylarida noxush sinestopatik hislar bilan bog'langan bo'lgan. Shuningdek, elektr bilan ta'sirlantirishdan keyin ba'zi tekshiriluvchilarda qo'rquv, vahima, quvnoqlik affektleri ham kuzatilgan. Bundan tashqari, kayfiyat o'zgarani va patologik kayfiyat - distimik va gipomaniakal kayfiyat ham qayd qilingan.

His-tuyg'ularning fiziologik mexanizmlari to'g'risidagi bilimni yakunlar ekanmiz, shuni ta'kidlab o'tish kerakki, hislar, ayniqsa insondagi hislar, har xil funksional sistemalarning o'zaro murakkab ta'sir ko'rsatishining integrativ maxsuli hisoblanadi. Ular ijtimoiy omillar, tarbiya, muhit, hayot tajribasi, odamning umumiy ahvoli va osoyishtaligiga bog'liq bo'ladi. Shuningdek, ular asab markazlari faoliyatining xususiyatlari va ular orasidagi bog'lanishlar, shu jumladan endokrin sistema funksiyalariga ham daxldor bo'ladi.

9.2. Iroda

Iroda – deb shaxsning oldiga qo'yilgan maqsadlarga erishishda qiyinchiliklarni yengib o'tishga qaratilgan faoliyati va hulq-atvorini ongli ravishda tashkil qilishi va o'z-o'zini boshqarishiga aytiladi.

Iroda – bu shaxs faolligining alohida shakli, uning hulq-atvorini tashkil etishning u tomonidan qo'yilgan maqsad bilan belgilanadigan alohida turi bo'lib, u tabiat qonunlarini egallab oladigan va shu tariqa uni o'z ehtiyojlariga ko'ra o'zgartirish imkoniyatiga ega bo'ladigan kishining mehnat faoliyatida paydo bo'ladi.

Iroda o'zaro bog'liq ikkita vazifaning – undovchi va tormozlash (to'xtatish) vazifalarini bajarilishini ta'minlaydi va ularda o'zini namoyon qiladi.

Undovchi vazifasi kishining faolligi bilan ta'minlanadi. Harakat oldingi vaziyat (chaqiriqqa nisbatan kishi aylanib qaraydi, o'yinda tashlangan to'pni qaytaradi, qo'pol so'zdan hafa bo'ladi va hokazo) bilan bog'liq bo'lgan paytdagi faollik harakatning ayni o'zida namoyon bo'ladigan ichki holatiga nisbatan sub'ektning o'ziga xos xususiyatini kuchga kiritish harakatini chaqiradi (zarur axborotni olishga ehtiyoj sezayotgan kishi o'rtog'ini

chaqiradi, jahli chiqqan holatda yonidagilariga qo'pollik qilishga yo'l qo'yadi va hokazo).

Irodaning **undovchi vazifasi** bilan birgalikda harakat qiluvchi to'xtatish vazifasi faollikning yoqimsiz ko'rinishlarini jilovlashda namoyon bo'ladi. Shaxs o'zining dunyoqarashida eng yuksak maqsadlariga javob bermaydigan motivlarning o'yg'onishini va harakatlarning bajarilishini to'xtatishga qodirdir. To'xtatish bo'lmasa, hulq-atvorni boshqarib bo'lmas edi.

Odamlar o'zlarining qilgan ishlari uchun ma'suliyatni kimga yuklashga moyil bo'lishiga qarab sezilarli ravishda farqlanadilar. Kishining o'z faoliyati natijalari uchun ma'suliyatni tashqi kuchlarga va sharoitlarga qayd qilib qo'yish, yoki, aksincha ularni shaxsiy kuch-g'ayratlariga va qobiliyatlariga moyilligini belgilaydigan sifatlar **nazoratni lokallashtirish** ("nazorat lokusi" degan termin qo'llaniladi, lotinchada *lotus* – o'rnamashgan joy va fransuzchada *controle* – tekshirish deyiladi) deyiladi. O'z hulq-atvori va o'z ishlari sabablarini tashqi omillar (taqdir, holat, tasodif va boshqalar)dan deb bilishga moyil bo'ladigan odamlar bor. Shunaqa paytda **nazoratning tashqi (eksternal) lokallashtirishi** to'g'risida gapiriladi. Bu toifaga mansub o'quvchilar olingan qoniqarsiz baholarini istagan vaj-bahona bilan tushuntirishadi. Tadqiqotlar nazoratning eksternal lokallikka moyilligi ma'suliyatsizlik, o'z imkoniyatlariga ishonmaslik, xavfsirash, o'z niyatlarini ro'yobga chiqarishni yana va yana kechiktirishga intilish kabi shaxsiy fazilatlar bilan bog'liq ekanligini ko'rsatdi. Agar inson, odatda o'z qilmishlari uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olsa va uning sabablarini o'z qobiliyati, xarakteri va shu kabillarda deb bilsa, unda **nazoratning ichki (internal) lokallashtirishi** ustun deb hisoblash uchun asos bor. Nazoratning ichki lokallashtirishi xos bo'lgan odamlar maqsadga erishishda ancha ma'suliyatli, izchil o'z-o'zini tahlil qilishga moyil hamda mustaqil bo'lishi aniqlangan.

Odamning hatti-harakatlari va faoliyati ixtiyorsiz va ixtiyoriy bo'lishi mumkin. Ixtiyorsiz harakatlar amalga oshirilishi uchun ongning ishtirok etish shart emas, ular umuman onggacha yetmasligi yoki harakatlar amalga oshganidan keyin ongda aks etishi mumkin. Ihtiyorsiz harakatlardan farqli o'laroq, irodali yoki ixtiyoriy harakatlar ong boshqaruvi asosida amalga oshib, muayyan, oldindan ko'zlagan maqsadga erishishga qaratilgan bo'ladi. Shartsiz va qisman shartli reflekslar ixtiyorsiz harakatlar sirasiga kiradi. I.P.Pavlov bo'yicha ixtiyoriy harakatlar asosida ikkinchi signal sistemasi yordamida amalga oshiriladigan oliy tartibdagi zanjir reflekslari yotadi.

Hayvonlar hayotida instinktiv harakatlar katta o'rin tutadi. Bularga tayyor holda nasldan-naslga o'tadigan fe'l-atvorning murakkab shakllari mansub bo'ladi. Bunday irsiy axborotni yo'ldosh plazmasi orqali o'tkazish mexanizmlari hozirgi vaqtda biolog-genetiklar tomonidan muvaffaqiyatli o'rganilmoqda. Qushlar, chumolilar, asalarilarning oldindan o'rgatmay turib

namoyon bo'ladigan fe'l-atvorining murakkab instinktiv shakllari hammaga ma'lum. Instinktiv harakatlarning ixtiyoriy harakatlardan farqi shundaki, ularni vujudga keltiruvchi organizm qandaydir muayyan maqsadni o'z oldiga qo'ymaydi va o'z harakatlaridan hech qanday natijalarni kuzda tutmaydi. Agar instinktiv harakatlar ko'pgina hayvonlarning hayotida fe'l-atvorining asosini tashkil qilsa, odam hayotida esa instinktiv harakatlar sof holda ancha kam o'rin tutadi. Lekin odamdagi jinsiy, onalik va boshqa instinktlar bundan mustasno.

Zamonaviy madaniyatli kishidagi instinktlar ongli ravishda iroda harakatlari tomonidan boshqariladigan murakkab faoliyatning farkibiy qismiga kiradi. Bu harakatlar instinkt dan kelib chiqishi ehtimoli bo'lgan ehtiyojlarga muvofiq amalga oshirilishi mumkin.

Avtomatik harakatlar yoki avtomatizmlar deb, avvaliga ongli, lekin ong nazoratidan mashq qilish natijasida muayyan darajada ozod bo'lgan harakatlarga aytiladi. Chunonchi, yosh bola xat yozishni o'rganar ekan, harflarni yozayotganda ongli ravishda u yoki bu elementlarni masalan, "i" harfiga kiruvchi uchta chiziqni qilib qilib birlashtirish kerak, deb uylaydi. Xat ko'nikmasini orttirgandan keyin harflarni yozish avtomatlashtiriladi va biz harflar qanday qilib yozilishini o'ylamasdan, xatto qilib qilib yozayotganimizga ham e'tibor bermasdan yozib ketaveramiz. Xuddi shu tariqa raqs o'rganuvchi ham oldin muntazam izchillikda ongli ravishda muayyan harakatlar qilib o'rganib olgach, osonlikcha avtomatik ravishda raqsga tushaveradi, bunda u o'z oyoqlarining harakatlarini ong nazoratisiz harakat qildiradi boshlaydi. Bayon etilgan avtomatizm ko'nikma deb ataladi. O'qish, yozish, sport va turli xil mehnat ko'nikmalari odam faoliyatida nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Ko'nikmalar yordamida ixtiyoriy va ixtiyorsiz harakatlar orasidagi o'zgilish yo'qoladi, aksincha, ular bir-biri bilan chambarchas bog'lanadi. Avtomatlashtirilgan harakatlar qilinganda, ongda ishga tushirish mexanizmlari qoladi. Bundan tashqari, avtomatik faoliyatda biz xoxlasak ong nazoratini ishga tushirishimiz mumkin. Royal chalish, avtomobilni boshqarish, iroda va avtomatlashtirilgan harakatlarning murakkab navbatlashuviga misol bo'lib xizmat qiladi. Ma'lumki, I.P.Pavlov instinktlarni murakkab bog'langan reflekslar deb atagandi. Oddiy shartsiz va shartli reflekslarda esa ular iroda harakatlari sirasiga kirmaydi. Ba'zi hollarda ular ongda aks etishi, boshqa paytlari aks etmasligi mumkin. Buni quyidagi misolda tushuntirib beramiz. Kishi kitob o'qib o'tiribdi va u tanasida iskoptopar turganini ko'rib qoladi. Birinchi vaziyat: "Bu iskaptopar, meni chaqmasidan oldin uni o'ldirish kerak", deb o'ylaydi. Bu irodali ongli harakatdir. Ikkinchi vaziyat: Odam tezda iskaptoparni o'ldiradi, va ana shundan keyingina nima sodir bo'lganini fahmlaydi. Bu reflektor harakatdir.

Uchinchi vaziyat: odam kitob o'qib turib, iskaptoparni o'ldirib, xatto bunga ahamiyat ham bermaydi. Bu ongda aks etmagan refleksdir.

Iroda harakatlari deb, oldindan ko'zlangan maqsadga erishish uchun ongli ravishda amalga oshiriladigan va rejalashtirilgan harakatlarga aytiladi. Iroda harakatlarini amalga oshirish mobaynida to'siqliklarni vengish uchun iroda kuchi talab qilinadi. Bu iroda kuchini biz turli darajadagi qiyinchiliklarga duch kelganda sezamiz. Masalan, oddiy qilib aytganda, har birimiz ana shu iroda kuchini sovuq suvga sakrayotganda o'zimizda sinashimiz mumkin.

Biror bir vazifani uzoq vaqt bajarayotganda (masalan, kitob yozayotganda) muayyan iroda kuchiga ehtiyoj sezishimiz mumkin.

Iroda kuchini ishlatish qobiliyati individual va turlicha bo'ladi. Bu borada irodasi kuchli va zaif odamlar farq qilinadi. Juda oddiy misol harakatlarini amalga oshirganimizda iroda kuchini sezmaymiz. Harakatni amalga oshirishga bo'lgan to'siqliklar qanchalik kam ifodalangan bo'lsa, iroda, kuchi shunchalik oz bo'ladi. Lekin parakgavada og'ir nevrozlarda, depressiya paytida, shizofreniyada iroda kuchiga qobiliyat shunchalik zaiflashgan bo'ladiki, bemorlar oddiygina harakatlarni bajarib, ko'inish, yuvinish kabi harakatlarni ham bajara olmaydilar. Chunonchi, kokandan zaxarlangan bemor o'rinda yotib, juda charchaganidan bir soatdan mobaynida yonida turgan suv solingan stakanni qo'l uzatib o'lmagan.

Iroda jarayoni biron ishni bajarishga intilishdan yoki xoxlashdan, harakat qilishdan boshlanadi. Intilishlar o'z navbatida odam qiziqishlariga aloqador bo'ladi. Bir necha qiziqish mavjud bo'lganda ulardan birasi asosiy qiziqish hisoblanadi. Masalan, shifokorda musiqaqa ov qilishga, surat yasashga, she'riyatga qiziqish bo'lsada, lekin uning asosiy qiziqishi tibbiyotdir. Kishiga ta'rif berar ekanmiz, qiziqishlarning ko'pligini va kamligini, ularning barqaror, kuchli yoki kam bo'lishini farq qila bilish zarur. Qiziqishlarning jadalligida katta individual tafovutlar mavjud. Ko'p kasalliklarda irodaning pasayishi hulq-atvorning va qiziqishlarning o'zgarishi bilan kechadi. Turli xil kasalliklarda qiziqishlarning jadalligi va soni odatda turlicha bo'ladi. Ko'pincha, bemorlarning ishtaxasi yo'qoladi, odatdagi mashg'ulotlarga, o'qishga qiziqmay qo'yadilar. Ba'zi bir ruhiy xastaliklarda qiziqishlarga va harakat qilishga qobiliyatning patologik zaiflashuvi yaqqol ifodalangan bo'ladi. Chunonchi, depressiyada va shizofreniyaning ayrim turlarida bemorlar deyarli hech narsaga qiziqmay qo'yadilar. Ular hech narsa qilgisi kelmaydi, hech narsa qiziqaydi. Bunday bemorlar uzoq vaqt, goho oylab va yillab kam harakatchan va faoliyat ko'rsatmay, ko'proq vaqtini o'rinda yotib o'tkazishadi. Ovqatga qiziqishning yo'qligi, uzoq vaqt ovqatdan bosh tortishda ifodalanadi. Boshqa kasalliklarda, ayniksa maniakal sindromda qiziqishlarning keskin oshishi va beqarorligi xos bo'ladi. Chunonchi,

akrixindan zaharlangan maniakal sindromga chalingan bemor ayol bir vaqtning o'zida tibbiyot institutiga o'qishga kirmoqchi, atirgullarning yangi navlarini o'stirmoqchi va ulardan uyda atir ishlab chiqarmokchi, erga tegib, kamida oltita bola tug'mokchi, kattakon roman yozmoqchi, opera teatrida ashula aytmoqchi, chet tilini o'rganmokchi va rangli fotosuratga olishni o'zlashtirmoqchi bo'lgan. Aslida esa u bittasining ham uddasidan chiqq olmagan.

Ma'lumki, har bir iroda harakatiga muayyan maqsad qaratilgan bo'lib unga ana shu harakat natijasida erishilishi lozim. Shuni ta'kidlash kerakki, odam psixologiyasini tushunish uchun faqatgina harakat maqsadlari emas, balki harakat sabablari ham ahamiyatli bo'ladi. Sabab va maqsadlar bir-biriga hamma vaqt ham to'g'ri kelavermaydi. Masalan, uchta ishchi ishlab chiqarish rejasini ortig'i bilan bajarib kelyapti. Ularning maqsadi biror bir buyumni imkoni boricha ko'proq ishlab chiqarish bo'lsada, sabablari har xildir. Birida - ijtimoiy sabab, ikkinchisi ko'proq pul ishlab televizor sotib olmoqchi, uchunchisi esa ishga shunchaki ermak uchun kelib ketadi.

Harakatlar sabablarini tahlil etish sog'lom va bemor odamlar psixologiyasini tushunish uchun kerak bo'ladi. Chunonchi, ovqatdan bosh tortishga turli xil omillar sababchi bo'ladi: ishtahaning yo'qligi, ozishga harakat qilish, kasalxonaga borishdan bosh tortish va h.k. Oddiy iroda harakatlarida intilishdan keyin bevosita ijro etishga o'tiladi. Birmuncha murakkab iroda harakatlarida esa intilish bevosita harakat qilishga o'tmaydi. Balki murakkab iroda harakatlarida muhim o'rin tutadigan muhokama etish va sabablar kurashi paydo bo'ladi. Bu bosqich shundan iboratki, biz mazkur harakatni bajarish kerakmi-yo'qmi, degan o'y-fikrlarni taroziga solib ko'ramiz. Sabablar kurashi muayyan qaror qabul qilish bilan tugallanadi. Ushbu bosqichda iroda jarayonining ikkita kamchiligiga duch kelishga to'g'ri keladi. Muhokama etish bosqichi yetarlicha rivojlanmagan yoki u xatto bo'lmaydigan odamlar bor. Bu esa o'ylamay, yengil harakat qilishga olib keladi, chunki intilish yoki impuls birdan harakat qilishga aylanadi. Impulsiv harakatlar ba'zi bir ruhiy kasalliklarga, ayniqsa psixopatiyalarga xos bo'ladi. Ma'lum sharoitlarda, bu harakatlardan soppa-sog' odamlar, ayniqsa xolerik mijozli kishilar ham istinso bo'lmaydi.

Bordiyu, sabablarning kurash bosqichi juda cho'zilib ketsa (bu harakatni tanlashning ikkilanish kiyinchiligida namoyon bo'ladi), bu ruhiyot buzilganidan darak beradi. Bunday ikkilanish psixoastenik shaxslarga xos bo'ladi. Umuman qaror qabul kilingach uni ijro etish kerak. Goho u yoki bu reja tuziladi, biroq hammasi ham ijro etilavermaydi. Ijro etish - iroda jarayonining eng qiyin bo'lagidir. Hammaga ma'lumki, to'g'ri va oqilona qarorlar ko'pincha osongina qabul qilinadi, ammo ularni ado etish mushkul bo'ladi. Iroda kuchi asosan ana shu yakunlovchi bosqich (ado etish)ga qarab

baholanadi. Ba'zi hollarda qarorni bajarish uchun ozgina iroda kuchi ko'rsatilsa, bas, boshqa hollarda esa uni uzoq va izchillik bilan ko'rsatish talab qilinadi. Shuni hisobga olmoq kerakki, iroda kuchi birorta ishni ado etishdagina emas, balki xoxishni to'xtatishda, ularni rad etishda namoyon bo'ladi, shunda u birorta ahloqiy-etik fikr-mulohazalarga qarab kerak bo'lib qoladi.

Shunchaki karaganda, odam irodasi juda erkin va hyech narsadan chegaralanmagandek bo'lib tuyuladi. Oddiygina kuzatuvlar go'yo buni tasdiqlaydi ham. Masalan, odam hohlasi o'tiradi, hohlasi turadi va hokazo. Agar odam ancha vaqt suv ichmay yursa, agar uning vujudi ana shu suyuqlikni juda qo'msasa, u albatta chanqaydi va albatta suv ichgisi keladi. Shunday qilib, uning "mutloq erkin irodasi" cheklangan bo'lib chiqadi va qandaydir shart-sharoitlarga bog'liq bo'ladi. Irodani tanlash imkoni borligini inkor etuvchi nazariyalar ham mavjud bo'lgan. Ular fikricha har qaeday hodisa, shu jumladan odamlarning hohishlari ham muayyan sabablarga aloqador bo'ladi, shu bois shart-sharoitlar mavjud bo'lgandagina odam biror harakatni ado etadi. Tanlash erkinligini his etish esa faqat illyuziyadir. Mutloq erkin irodani tan olish va umuman irodani inkor etish mumkin emas. Birinchisi dunyoni anglamaslikka olib keladi. Odam irodasi hyech qaday qonuniyatlarga bo'ysunmas ekan, jamiyatning taraqqiy etishi haqidagi fanni yaratish mumkin emas. Mexanistik determinizm ham ancha zararli. U hususan, taqdirga ishonishga, fatalizmga olib keladi. Haqiqatan ham, bordiyu odamning barcha hatti-harakatlari oldindan ma'lum bo'lsa va uni hyech o'zgartirib bo'lmasa, birorta ishni ado etishning, maqsadga erishishda urinib ko'rishning keragi bo'lmay qolardi.

Iroda erkinligi bunda inkor etilmaydi. U qaror qilish, oqilona tanlay bilish va o'z hatti-harakatlarini ongli ravishda boshqarish, ularning oqibatlarini oldindan bilish imkoniyati borligidan iborat. Shunday qilib, odam biror narsani yoki faoliyatni tanlashda, uning zaruriyatini anglagan holda eng zarur bo'lgan qarorlardan birini qabul qiladi.

Odamning irodasi mehnat faoliyatida, o'rganish va o'rgatish jarayonida, turmush mashaqqatlariga duch kelishida va ularni yengib o'tishida bilinadi va mustahkamlanadi. Bolalikdan to'g'ri tarbiy berish katta ahamiyat kasb etadi. Bola erka qilib tarbiyalansa, uning barcha istaku-hohishlari so'zsiz bajarib borilaversa, u hyech narsaga intilmasdan o'sadi, katta bo'lganida qiyinchiliklarga bardosh bera olmaydi. Bu esa irodaning taraqqiy etishiga g'oyat salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday bolalarning irodasi mo'rt bo'ladi, uzoq vaqt davom etadigan ishlarga qodir bo'lmay qoladi. Ular mustaqil bo'la olmaydi, hayotning yangi sharoitlariga ko'nika olmaydi, qiyinchiliklarni yenga olmaydi. Bunday tarbiya o'ta erka tarbiya deb ataladi. Bolalar o'z holiga qoldirilganda, ota-onalar ularning tarbiyasiga befarq qarashsa bunday tarbiya

noxush oqibatlariga olib keladi. Bunda hulk-atvor ham buzilib ketadi. Dadillik, tirishqoqlik, qat'yilik, tashabbuskorlik, intizomlilik, vazminlik va o'zini tuta bilishlik odamning ijobiy fazilatlariga mansubdir. Ikkilanish, lohaslik, lanjlik, tashabussizlik, jur'atsizlik, shuningdek qaysarlik, hamma narsaga salbiy munosabatda bo'lishlik (negativizm) irodaning salbiy hususiyatlariga taaluqlidir. Ayni paytda shuni nazarda tutish kerakki, odatda odamlardagi ihlos qo'yish darajasi individual tarzda juda hilma-xil bo'ladi. Irodani tarbiyalashda qiyinchiliklarni yenga bilish ahamiyatlidir. Odam oldiga hal qilinishi borgan sari qiyinlashib boradigan vazifalar qo'yilishi odatda insonni chiniqtiradi va foydali hisoblanadi.

Bob yuzasidan nazorat savollari:

1. His-tuyg'u va uning turlarini bilasizmi?
2. His-tuyg'uning boshdan kechirish shakllarini izohlang.
3. Stress nima va uning qanday bosqichi mavjud?
4. Stresslarga ko'nikishning qanday usullari mavjud?
5. Yuksak hislar qanday ifodalanadi?
6. Hissiyotlarning fiziologik mexanizmlarini tushuntiring.
7. Iroda va uning inson faoliyati muvaffaqiyatidagi ta'sirini tushuntiring.
8. Irodaning tormozlovchi va undovchi funksiyalarini izohlang.
9. Nazoratni lokallashtirish va avtomatizm daganda nimani tushunasiz?
10. Iroda harakatlarini amalga oshirish mobaynidagi to'sqinlik-larni tushuntiring.

Mustaqil ta'lim uchun mavzular:

1. Tibbiyot xodimi faoliyatida hissiy kechinmalarining ahamiyati.
2. Stress va uning bartaraf etish usullari.
3. Tibbiyot xodimi faoliyatida toleranilikning ahamiyati.
4. Irodaviy sifatlarining shakllantirish va rivojlantirish usullari.

10-MAVZU. MULOQOT VA SHAXSLARARO MUNOSABATLAR PSIXOLOGIYASI. JAMOA VA GURUH

Bobning qisqacha mazmuni

Muloqot va shaxslararo munosabatlar psixologiyasi. Muloqot va munosabat to'g'risida tushuncha, muloqotning kommunikativ sohasi, muloqotning perseptiv tomoni, muloqot turlari, verbal va noverbal muloqot, muloqot usullari, vositalari, ularning mohiyati va samaradorligi, manipulyasiya.

Jamoa va guruh psixologiyasi. Jamoa va guruh tushunchalari, kichik guruhlar klassifikatsiyasi, guruhda o'zaro moslik va psixologik muhit, konformizm va uning oqibatlari, ijtimoiy ta'sir (fasilitatsiya va ingibitsiya) hodisasi, liderlik, liderlik usullari va nazariyalari, superliderlik tushunchasi, superliderlikni shakllanish bosqichlari.

10.1. Muloqot va shaxslararo munosabatlar psixologiyasi

Muloqot - odamlar o'rtasida birgalikda faoliyat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan bog'lanishlar rivojlanishining ko'p qirrali jarayonidir. Shaxs - ijtimoiy munosabatlar mahsuli deyilishining eng asosiy sababi - uning doimo insonlar davrasida, ular bilan o'zaro ta'sir doirasida bo'lishini anglatib, bu shaxsning eng yetakchi va nufuzli faoliyatlaridan biri muloqot ekanligiga ishora qiladi.

Insoniy munosabatlarda dastlab odamlar o'rtasida ro'y beradigan fikrlar, his-kechinmalar, tashvish-quvonchlar almashinuvini nazarda tutadi. Odamlar muloqotda bo'lishgani sari, ular o'rtasidagi munosabatlar tajribasi ortgan sari ular o'rtasida umumiylik, o'xshashlik va uyg'unlik kabi sifatlar paydo bo'lib, ular bir-birlarini bir qarashda tushunadigan, ayrim hollarda esa ana shunday muloqotning tig'izligi teskari reaksiyalarni - bir-biridan charchash, gapiradigan gapning qolmasligi kabi vaziyatni keltirib chiqaradi.

Muloqot faoliyati shunday shart-sharoitki, unda har bir shaxsning individualligi, betakrorligi, bilimlar va tasavvurlarning xilma-xilligi namoyon bo'ladi va shunisi bilan u insoniyatni asrlar davomida o'ziga jalb etadi. Shuning uchun ham muloqot, uning jihati, tabiati, texnikasi va strategiyasi, muloqotga o'rgatish (ijtimoiy psixologik trening) masalalari bilan shug'ullanuvchi fanlarning ham jamiyatdagi o'rni va salohiyati keskin oshdi.

Muloqot hamkorlikda faoliyat ko'rsatuvchilar o'rtasida axborot ayirboshlanishini o'z ichiga olib, bunday ma'lumot almashinuv muloqotning *kommunikativ jihati* sifatida ta'riflanadi. Odamlar muloqotga kirishar ekanlar, uning eng muhim vositalaridan biri sifatida *tilga* murojaat qiladilar.

Muloqotning ikkinchi jihatida – munosabatga kirishuvchilarning nutq jarayonida faqat so'zlar bilan emas, balki *xatti-harakatlar* bilan ham almashinuvi nazarda tutilib, bu muloqotning *interaktiv jihati* deb yuritiladi.

Nihoyat, muloqotning uchinchi jihati *perseptiv* deb atalib, bunda munosabatga kirishuvchilarning bir-birlarini idrok eta olishlari tushuniladi.

Shunday qilib, muloqot jarayonida shartli ravishda uchta, ya'ni *kommunikativ* (axborot uzatish), *interaktiv* (hamkorlikda harakat qilish) va *perseptiv* (o'zaro birgalikda idrok etish) jihatlarni alohida ko'rsatish mumkin. Ana shu uchta jihatning birligi muloqot jarayonida hamkorlikdagi faoliyat va jalb etilgan odamlarning o'zaro birgalikdagi harakatlarini tashkil etish usuli sifatida maydonga chiqadi.

Muloqotning kommunikativ jihati. Muloqotning hamkorlikda harakat qilish va faoliyat ko'rsatish jarayonida odamlarni birlashtiradigan muloqot vositasi til bo'lib, u muloqotga kirishuvchilar o'rtasida aloqa bog'lanishini ta'minlaydi. Tilning ushbu maqsad uchun tanlangan so'zlar mohiyatiga ko'ra kodlashtirgan holda axborotni ma'lum qilayotgan kishi ham, bu mohiyatiga kodini ochgan, ya'ni uning ma'nosini oshkor etgan va ana shu axborot asosida o'z xulq-atvorini o'zgartirgan holda bu axborotni qabul qilayotgan kishi ham tushunadi.

Axborotni boshqa kishiga yo'llayotgan kishi (kommunikator) va uni qabul qilayotgan kishi (retseptient) munosabat va birgalikdagi faoliyat maqsadlarga erishish uchun mohiyatlarni kodlashtirish va kodini ochishning bitta yagona sistemasidan foydalanishlari, ya'ni «bitta tilda» so'zlashishlari kerak bo'ladi. Agar kommunikator va retseptient kodlashtirishning turli xil sistemalarini qo'llasalar, ya'ni bir-birlariga noma'lum bo'lgan «til»da so'zlashsalar, bu holda ular o'zaro hamjihatlikka va birgalikda faoliyat borasida muvaffaqiyatga erisha olmaydilar. Qo'llanadigan belgilar (so'zlar, imo-ishoralar va hokazolar) zamiridagi *mohiyat* muloqotda ishtirok etayotgan shaxslarga tanish bo'lgan taqdiridagina axborot ayirboshlash mumkin bo'ladi.

Mohiyat – tevarak-atrofdagi voqeyelikni bilishni ifoda etadigan qism sifatidagi mazmunga ega bo'lgan so'zlar belgisi tizimidir. Bunda so'zlar belgilari tizimi hayot kechirish, ijtimoiy-tarixiy tajribani o'zlashtirish va uzatish vositasi sifatidagi tilni tarkib toptiradi. Ijtimoiy tajriba to'plash va uzatish vositasi sifatidagi til aniq tovushlardan foydalangan holda o'y-fikrlar almashinuvi, axborot berishni amalga oshiradi.

Muloqotning psixologik vositalari. Odamlar bir-birlari bilan muomalaga kirishar ekan, ularning asosiy ko'zlagan maqsadlaridan biri – o'zaro bir-

birlariga ta'sir ko'rsatish, ya'ni fikr-g'oyalari ko'ndirish, harakatga chorlash, ustanovkalarni o'zgartirish va yaxshi taassurot qoldirishdir. Turli vositalar yordamida insonlarning fikrlari, hissiyotlari va xatti-harakatlariga ta'sir ko'rsata olish – *psixologik ta'sir* deyiladi.

Psixologiyada *psixologik ta'sir*ning asosan uch vositasi farqlanadi:

Verbal ta'sir – bu so'z va nutq orqali ko'rsatadigan ta'sirlardir. Har qanday nutq ko'rinishida odam o'zidagi barcha so'zlar zahirasidan foydalanib, eng ta'sirchan so'zlarni topib, sherigiga ta'sir ko'rsatishni xohlaydi.

Paralingvistik ta'sir – bu nutqning atrofidagi nutqni bezovchi, uni kuchaytiruvchi yoki susaytiruvchi omillari bo'lib, bunga nutqning baland yoki past tovushda ifodalanayotganligi, artikulyasiya, tovushlar, to'xtashlar, duduqlanish, yo'tal, til bilan amalga oshiriladigan harakatlar, nidolar kiradi.

Noverbal ta'sir «nutqsiz» ko'rinishga ega bo'lib, bunga suhbatdoshlarning fazoda bir-birlariga nisbatan tutgan o'rinlari, holatlari (yaqin, uzoq, intim), qiliqlari, mimika, pantomimika, qarashlar, bir-birini bevosita his qilishlar, tashqi qiyofa, undan chiqayotgan turli signallar (shovqin, hidlar) kiradi. Ularning barchasi muloqot jarayonini yanada kuchaytirib, suhbatdoshlarning bir-birlarini yaxshiroq bilib olishlariga yordam beradi.

Agar muloqot jarayonini yaxlit bir faoliyat sifatida undagi asosiy maqsad – muomalaga kirishgan shaxslarning umumiy muammolarini yechish bo'ladigan bo'lsa, muloqotning tashabbuskori bo'lgan shaxsning ta'siri qanchalik adresatga – ta'sir yo'naltirilgan kimsaga yetib borishi katta amaliy ahamiyatga ega. Shuning uchun ham olimlar muloqotning samaradorligi ko'proq qaysi vositalarga bog'liqligiga qiziqadilar. Amerikalik olim Mexrabyanning ma'lumotlariga ko'ra, birinchi uchrashuvda biz boshqalardan kelayotgan noverbal signallarga 55%ga ishonamiz, ulardan ta'sirlanamiz; 38% – paralingvistik va 7%gina nutqning bevosita mazmuniga ishonamiz. Shuning uchun ham obrazli tarzda “Kiyimga qarab kutib olinadi, aqlga qarab kuzatiladi” deyiladi. Keyingi uchrashuvlarda bu mutunosiblik, tabiiy, o'zgaradi.

Albatta, paralingvistik hamda noverbal vositalarning muloqotdagi o'rni va ulushi masalasi suhbatdoshlarning yosh, jins, kasb, hattoki, milliy xususiyatlariga bog'liq. Masalan, boshqa bir amerikalik olim Argayl turli millatlar vakillari muomalasida qiliqlar va qo'l harakatlarining kuchi va takrorlanishini o'rgangan. Ma'lum bo'lishicha, 1 soat mobaynida finlar bir marta qiliq qilarkan, italiyaliklar – 80 marotaba, fransuzlar – 20 va meksikaliklar 180 marta. Demak, har bir xalq vakilining asiyi udumlari, rasm-rusmlari, odatlari va emotsionalligiga qarab qiliq va harakatlar ma'lum o'rin egallar va bu narsa o'z navbatida muloqotni kuchaytiradi, uni boyitadi.

Muloqot jarayonida suhbatdoshlarning fazoviy joylashishlari hamda vaqt mezonlari amaliy ahamiyatga ega. Masalan, yuzma-yuz turib gaplashish,

telefon orqali yoki qichqirib gapirishdan farq qiladi. Yoki muloqotning vaqt mezonlari ayniqsa diplomatik uchrashuvga o'z vaqtida kelish va unda odob-axloqqa qat'iy rioya qilish yoki aksincha, sherikni hurmat qilmaslik, uchrashuvga kechikib kelish, uzoqdan turib gaplashish, iyaklarni tepaga qarab, kibor bilan gapni boshlash, muzokaralarning har bir sekundi o'ziga xos ma'no va mazmun kasb etadi va mos tarzda sharxlanadi.

Yuqorida ta'kidlangan holatlar psixologiyadagi maxsus bo'lim - proksemika tomonidan o'rganiladi. Bu yo'nalishning asoschisi amerikalik E.Xoll bo'lib, uning o'zi proksemikani "fazoviy psixologiya" deb atagan. Masalan, u amerikaliklarga xos bo'lgan suhbatdoshning sherigiga nisbatan fazoviy joylashuvi xususiyatlarini aniqlab, muloqotning turli sharoiti va shakliga qarab, fazoviy yaqinlashuvning o'rtacha qiymatini aniqlagan:


- intim (yaqin) masofa - 0 - 45 sm;
- personal (shaxsiy) masofa - 45-120 sm;
- ijtimoiy masofa - 120-400 sm;
- ommaviy masofa - 400-750 sm.

Har bir masofa o'ziga xos muloqot vaziyatlariga mos. Vaqt va fazo bilan bog'liq aloqalarning o'ziga xos majmui *xronotoplar* deb ataladi. Amaliyotda "kasalxona palatasi xronotopi", "vagon yo'lovchilari xronotopi" va boshqalar aniqlangan.

Muloqotda suhbatdoshlarning ko'z qarashlari - vizual kontaktlari ham katta ahamiyatga ega. Vizual kontakt - bu qarashlar soni, ularning uzoqligi, qarashlardagi statika va dinamik almashinuvlar, ko'z olib qochishlar va boshqalardir. Argayl shulardan kelib chiqib, "yaqinlik (intimlik) formulasi"ni ishlab chiqqan va bunda intimlik darajasi suhbatdoshlarning o'rtasidagi masofaga va ko'z qarashlarga bog'liqligini isbotlagan. Chunki ko'z qarashlar suhbatdoshning muloqotga tayyorligi, uni davom ettirish kerak yoki kerak emasligi haqida ma'lumot berib, suhbatning yo'nalishini belgilaydi.

Yana bir muhim ta'sirchan belgilar majmuini o'ziga mujassam etgan soha - bu yuzimizdir. Ilmiy adabiyotda yuz qiyofasining 2000 dan ziyod qirralari aniqlangan. Ularni ma'lum tartibda tizimga solish uchun P.Ekman "FAST" - *Facial Affect Scoring Technique* deb nomlangan metodikani ham taklif etgan. Professor Pol Ekman vizual kontaktning yuz sohasiga yo'nalishiga ko'ra yuz uch zonaga bo'linadi:

- I - Nigoh ko'z va peshona sohasiga qaratilishi - "bo'yruq" zonasi.
- II - Nigoh ko'z va burun va burun oldi sohasiga qaratilishi- "ijtimoiy, do'stlik" zonasi.
- III - Nigoh ko'z, og'iz, iyak va undan pastki sohalariga qaratilishi- "intim, yaqinlik" zonasi.




I - zona

II - zona

III - zona

10.1.1-rasm


Mazkur yo'nalishda uzoq yillik tadqiqot olib borgan mutaxassislardan Allan Piz va Barbara Piz hisoblanadi. Quyida ularning "Novy yazyk telodvijeniy" nomli kitobidan (M., 2010) noverbal qiliqlar tasnifini keltirib o'tamiz:



10.1.2-rasm

Birinchi rasmdagi holat- qo'l kaftlarining chakkaga quyilganligi uning nimagadir juda hayratlanib, qiziqayotganligining belgisidir.

Ikkinchisida, agar suxbat qiziqarli bo'lmasa yoki yoqmasa qo'lini yuziga qo'yib, bosh barmoqni daxaniga qo'yib, qolgan barmoqlari bilan og'zini bekitadi.




10.1.3-rasm.

Agar suhbatdosh yelkalarini qisayotgan bo'lsa, demak, u siz bilan bo'lgan suhbatga befarq, unga baribir yoki tushunmayotganlik belgisi.


Qo'llar ko'krakda bog'langan bo'lsa, bu suhbatdoshning berkligi, himoyalanganlik, muloqotda yopiqlik ramzi.

Agar suhbatdoshning qo'l kaftlari ochiq bo'lsa, bu samimiylik belgisidir.



10.1.4-rasm

Agar suhbatdosh iyagiga tegib, yoki uni ishqalayotgan bo'lsa, demak, u qaror qabul qilishga harakat qilayotganligi belgisi.



10.1.5-rasm

Agar odam labining chetiga, burniga tegib, yoki uni ishqalayotgan bo'lsa, demak, u o'z fikriga ishonchsizligi, yolg'on gapirayotganligi belgisi.

Agar suhbatdoshingiz barmoqlari bilan stolni tinmay chertayotgan bo'lsa, demak, u betoqat, yoki unga siz bilan suhbatlashish zerikarli, shuning uchun u asabiylashmoqda.

Agar u qo'l barmoqlarini qisayotgan bo'lsa, demak, u nimadandir juda xavotir, o'zini himoyasiz his qilmoqda.

Suhbatdoshning qo'llarini musht qilib turishi undagi vajohat belgisi, lekin u bu holatni, badjahllikni nazorat qilmoqchi.

Agar suhbatdoshning qo'llari behol bo'lib, kaftlari yuqoriga qaratilgan tarzda oldinga intilgan bo'lsa, demak, u nimadandir taajjubda, tashvishda, qiyinchilikda.

Agar odam tez yurib borayotib, iyaklarini ko'targan holda qo'llarini erkin tashlab qo'ygan bo'lsa, demak, u o'ziga ishonadi, u - qat'iyatli.


Odam ketayotganda, ikki quli cho'ntakda, boshi egik bo'lsa, demak uning ruhi tushgan, xafa, depressiya holatida bo'ladi.

Agar qo'llarining uchlarini birlashtirib "uycha" shaklini eslataayotgan bo'lsa, bu - uning nimanidir o'ylayotganligi yoki nimagadir qiziqayotganligi ramzidir.

Agar odam stulning qirgogiga o'tirib olgan bo'lsa, bu yo sabrsizlik bilan kutayotganligi, yoki nimagadir qiziqish bildirayotganligi ramzidir.

Odam oyoqlarini bir-birining ustiga qo'yib olib, oyog'ini yengil tebratayotgan bo'lsa, demak, u zerikmoqda.

Agar odam o'zini orqaga tashlab, qo'llarini bir-biriga bog'lab, bo'ynida ushlagan bo'lsa, demak, u dam olmoqchi, va boshqalarda taassurot qoldirmoqchi.



10.1.6-rasm

Agar qo'l berib ko'rinishda qaysi tomonning qo'li tepada bo'lsa o'sha odam *ustunlik*, pastda bo'lsa o'sha odam *bo'ysunuvchanlik*, vertikal, to'g'ri holatda bo'lsa *tenglik* holati bo'ladi.

Shunday qilib, biz odatiy, tabiiy deb idrok qiladigan faoliyatimiz bo'lgan - muloqotda ham ko'plab sirlar va o'ziga xos nozik tomonlar borki, ularning barchasi bizdan muloqotdagi bilimdonlikni va o'zgalarga va o'zimizga e'tiborliroq bo'lishimizni talab qiladi.

Shu o'rinda aytish joizki, muloqot jarayonining samarasi suhbatdoshni *tinglay olishga* ham bog'liq. Muloqotga o'rgatishning muhim yo'nalishlaridan biri - odamlarni faol tinglashga, bunda barcha paralingvistik va noverbal omillardan o'rinni foydalanishga o'rgatishdir.

Tinglash texnikasiga quyidagilar kiradi:

Empatik tinglash

Empatiya (ingl. empathy - hamdardlik, o'zini boshqaning o'rniga qo'ya olish mahorati) - bu insonning boshqalarning kechinma va his-tuyg'ulariga nisbatan emotsional javob bera olish qobiliyatidir. Empatiyani namoyon qilishning 3 varianti mavjud: empatik ta'sirlanish (kuzatish orqali boshqa insonda namoyon bo'layotgan emotsiyalarga o'xshash emotsional ta'sirlarni boshdan kechirish), boshqa nuqtai-nazarni qabul qilish (o'zini boshqaning o'rnida tasavvur etish), simpatik ta'sirlanish (boshqa insonning his-tuyg'usini tushunish g'amho'rlik, jonkuyarlik, rahmdillikni yuzaga keltirishi).

Empatik tinglash qoidalari:

- qalbni o'z kechinmalari va muammolaridan ozod qilish, suhbatdosh haqida noto'g'ri fikrlardan voz kechish, uning his-tuyg'ularini qabul qilishga intilish muhim;

-suhbatdoshining so'zlariga nisbatan ta'sirlanishda uning kechinmalari, his-tuyg'ularini aniq aks ettirish, nafaqat to'g'ri idrok etganligini, balki tushungan va qabul qilganligini ham namoyon qilish zarur;

- suhbatdoshning his-tuyg'ularini aks ettirish uning harakatlari va yashirin xulq-atvor motivlarini izohlashsiz amalga oshirilish zarur, unga shu his-tuyg'ularning sabablari haqida o'z fikrini tushuntirish shart emas;

- pauzani ushlab muhim, qo'shimcha mulohaza va sharhlarga shoshish kerak emas. Bunda qoidaga ko'ra maslahat, nasihat, tanqid, ba'ho berilmaydi.

Passiv tinglash

So'zlayotgan insonning nutqiga minimal darajada aralashish, maksimal darajada diqqatini jalb qilishni anglatadi (diqqat bilan jim turish mahorati). Ushbu tinglashning muhim signali noverbal ta'sir, ya'ni ko'z kontakti, bosh irg'itmoq yoki silkitmoq hisoblanadi. Bu tinglash turi quyidagi vaziyatlarda maqsadga muvofiq:

Agar suhbatdosh o'z nuqtai-nazarini aytishni xohlayotgan bo'lsa;

Agar suhbatdosh o'z muammolari haqida so'zlayotgan bo'lsa;

Keskin va tang vaziyatlarda;

Sizdan yuqori lavozimdagi inson bilan suhbatda (masalan, sizni rahbaringiz tanqid qilganda)

Passiv tinglash qoidalari:

Pozitiv reaksiyalar: a) ma'qullamoq ("xo'p", "ha-ha", "qani", bosh irg'itish); b) "exo-ta'sir" (suhbatdoshning so'nggi so'zini takrorlash); v) "ko'zgu" (suhbatdoshning oxirgi gapini so'zlar tartibini o'zgartirib takrorlash); g) "parafraza" (suhbatdoshning fikrini boshqa so'zlar bilan yetkazish); d) undash ("xo'sh...", "keyinchi?"); ye) emotsiyalar ("o'o'o", voy, ex, juda soz, qoyil, kulgu); j) aniqlashtiruvchi savollar ("qaytadan takrorla, nima deding?");

Negativ reaksiyalar: a) so'zlayotgan insonni bo'lish yoki davom ettirish; b) suhbatdoshning fikrlaridan mantiqiy natija qidirish; v) "beadab ta'sir" ("ahmoqlik", "bo'lmagan gap", "bu hammasi bema'nilik"); g) qayta so'rash; d) suhbatdoshga e'tiborsizlik (tinglovchi sherigini nazarga ilmaydi, uning so'zlariga e'tibor bermaydi). Passiv tinglash asosan bahs-munozarasiz suhbatlarda yoki nizo xavfida qo'llaniladi.

Aktiv tinglash. Bunda birinchi planga axborotning aksi chiqadi. Bu olingan axborotni tinglash jarayonida tahlil qilish va savol, luqma yordamida darhol javob berishni anglatadi. Ushbu tinglash turi muloqotda eng konstruktiv hisoblanadi.

Aktiv tinglash qoidalari:

a) aniqlash, oydinlashtirish ("men tushunmadim", "yana bir bor takrorlang", "nimani nazarda tutdingiz?", "tushuntirib bera olasizmi?"); b) parafraza (suhbatdoshning so'zlarini o'z so'zlari bilan takrorlash, "siz hisoblaysizki...", "boshqacha aytganda..."); v) his-tuyg'ularning aks etishi

("nazarimda, siz...his qilayapsiz», "tushunaman, sizning hozir jahlingiz chiqyapti..."); g) undash ("qani..."; "keyinchi..."); d) davom etish, ya'nisuhbatdoshning so'zlariga so'z kiritish, uning so'zlarini o'z so'zi bilan tugatish, so'zlarni aytib turish; ye) baholash ("sizning gapingiz qiziqtirib qo'ydi...", "menga yoqmayapti"); j) taqriz berish ("shunday qilib, siz hisoblaysizki...", "sizning so'zlarinigiz anglatadiki..."). Bunday muloqot usullarini qo'llash ikki maqsadga erishishga imkon beradi: adekvat qaytuvchan aloqa ta'minlanadi; suhbatdoshga bilvosita uning ro'parasida teng huquqli sherik ekanligi haqida axborot boradi. Teng huquqli sheriklar pozitsiyasi ikala suhbatdosh ham har so'zi uchun javobgar ekanligini anglatadi. Har bir insonning tinglash uslubi quyidagi omillarga bog'liq: jins, yosh, mavqe, individual xususiyatlar (xarakter, temperament, qobiliyat, qiziqishlar va b.), muayyan vaziyat.

Muloqotning interaktiv jihati. Muloqot shaxslararo birgalikdagi harakat, ya'ni odamlarning hamkorlikdagi faoliyati jarayonida tarkib topadigan aloqalari va o'zaro bir-birlariga ta'sirining yig'indisi sifatida yuzaga chiqadi. Hamkorlikdagi faoliyat va munosabat ijtimoiy qoidalar – odamlarning birgalikdagi harakati va o'zaro munosabatlarini qat'iyon belgilab qo'yadigan hamda jamiyatda udum bo'lgan xulq-atvor namunalari asosida amalga oshiriladigan *ijtimoiy nazorat* sharoitida yuz beradi.

Jamiyat ijtimoiy qoidalar sifatida qabul qilgan, ma'qul topgan, udumga aylangan va tegishli vaziyatda turgan har bir kishidan bajarilishini kutayotgan namunalarning o'ziga xos tizimini yaratadi. Ularning buzilishi qoidadan chetga chiqadiganlarning xulq-atvori to'g'rilanishini ta'minlaydigan *ijtimoiy nazorat* mexanizmlari (ma'qullamaslik, ta'na qilish, jazolash)ni o'z ichiga oladi. Qoidalarning mavjudligi va qabul qilinishi haqida biron kishining barcha boshqa odamlar xulq-atvoridan farq qiluvchi xatti-harakatiga atrofdagilarning bir xilda munosabat bildirishi dalolat beradi. Ijtimoiy qoidalar mehnat intizomi, harbiy burch va vatanparvarlik talablariga javob beradigan xulq-atvor namunalariidan tortib, odoblilik qoidalariga qadar hammasini o'z ichiga oladi. Odamlarning ijtimoiy qoidalariga murojaat qilishi ularda o'z xulq-atvori uchun mas'ullik hissini uyg'otadi, harakatlari va qiliqlarning ushbu qoidalarga mos kelishi yoki mos kelmasligini baholagan holda ularni tuzatib borish imkonini tug'diradi. Qoidalarga qarab mo'ljal olish kishiga o'z xulq-atvorining shakllarini andozaga qarab moslash, ijtimoiy jihatdan maqbullarini tanlab olish, nomaqbul shakllariga amal qilmaslik, o'zini muloqot jarayonida yo'naltirib va boshqarib borish imkonini beradi. Odamlar o'zlashtirilgan qoidalardan o'zlarining xususiy xulq-atvorini boshqalarning xulq-atvori bilan taqqoslaydigan mezon sifatida foydalanadilar.

Hamkorlikdagi harakat jarayonlarini ijtimoiy nazorat munosabat-ga kirishadigan odamlar "bajaradigan" rollar (Psixologiyada rol deganda xulq-

atvorning normativ jihatidan ma'qul bo'lgan muayyan ijtimoiy mavqeyeni egallab turgan har bir kishidan atrofdagilar kutayotgan namunasi tushuniladi) repertuariga muvofiq tarzda amalga oshiriladi. Sub'ekt o'qituvchi yoki o'quvchi, shifokor yoki bemor, katta yoshli kishi yoki bola, rahbar yoki xodim, ona yoki bola va shu kabi rolni bajaradi. Har qanday rol mutlaqo aniq talablarga va atrofdagilarning muayyan orzu-istaklariga javob berishi kerak.

Shaxs muloqotning turli xil vaziyatlarida qoida tariqasida har xil rollarni bajaradi. Masalan: o'zining xizmatidagi roliga ko'ra rahbar bo'lib turgan kishi betob bo'lib qolganda, bemor roliga kirgan holda shifokorning barcha ko'rsatmalarini bajaradi; shu bilan birga oilada u keksa onasining mo'mingina o'g'li rolni saqlab qoladi va hokazo. Rol mavqelarining ko'pligi ba'zida ularning to'qnash kelishiga – rol konfliktlariga (ziddiyatlarga) sabab bo'ladi.

Turli xil rollarni bajarayotgan odamlarning hamkorlikdagi harakati rollar ehtimoli bilan boshqariladi. Kishi buni istasa-istamasa atrofdagilar undan muayyan namunaga mos keladigan xulq-atvorni talab qiladi. Rolning qonday bajarilishi *ijtimoiy nazorat* ostida bo'ladi, ijtimoiy jihatdan muqarrar ravishda baholanadi va namunadan salgina chetga chiqilishi esa qoralanadi.

Muloqotning perseptiv jihati. Muloqotning ushbu jihatida bir kishining ikkinchi kishi tomonidan idrok qilinishi, tushunishi, baholanishi kuzatiladi. Muloqotning mazkur jihatida psixologik effektlar muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular inson tabiatini va uning psixikasi xususiyatlarini chuqur tushunishga imkon beradi. Bu bilimlarni amaliyotda qo'llash esa o'z-o'zini rivojlantirishga, shaxslararo munosabatning yaxshilanishiga yordam beradi.

Biz quyida ayrim psixologik effektlar haqida to'xtalib o'tamiz:

❖ **Identifikatsiya** (*aynan o'xshatish*). Bunda kishi hamkorlikda harakat qilish vaziyatida sherigi o'rniga o'zini qo'yib ko'rib, uning ichki holati, niyatlari, o'y-fikrlari, xohish-istaklari haqida taxmin qilinadi, bunda ular anglanilgan yoki anglanilmagan bo'lishi mumkin

❖ **Refleksiyada** kishi idrok etish sub'ekti sifatida o'ziga nisbatan sherigining munosabati anglab yetiladi. Bunda idrok qilinayotgan shaxsning o'rniga idrok qiluvchi o'z xohishi bo'yicha mulohaza yuritishi, uni tushunishga intilish o'z-o'zini anglash negizida namoyon bo'ladi. Lekin kishi har doim ham muloqot jarayonida o'zini kim ekanligini to'liq anglab yetolmaydi, bu esa uning o'zi qilgan xatti-harakatlari sabablarini boshqalarga to'nkashga majbur qiladi.

❖ **Kauzal atributsiya** kishi o'z xatti-harakatlari sabablarini, niyatlarini, o'y-fikrlarini, xulq-atvor motivlarini boshqa kishilarga to'nkash orqali tushuntirishidir.

❖ **Stereotiplashtirish** kishilarga, ijtimoiy guruh a'zolariga nisbatan berilgan xislatlarni hozirgacha ma'lum bo'lgan ijtimoiy qoliplarga mos tarzda ommaviy tarzda yoyish, tavsif berish va baholash

❖ **Oreol effekti** shaxs muloqot jarayonida o'z ob'ektiga nisbatan ijobiy taassurotga ega bo'lsa, sub'ektga ma'lum bo'lmagan fazilatlarini ijobiy baholashga yoki aksincha, ob'ekt salbiy taassurot qoldirgan bo'lsa, sub'ektga ma'lum bo'lmagan xislatlarini salbiy baholashidir.

❖ **Birlamchi (dastlabki) taassurot effekti** – muloqotning birinchi daqiqalari shaxs faoliyatiga baho berish va suhbatning qay tarzda kechishiga katta ta'sir ko'rsatishidir.

❖ **Pigmalion (Rozenal) effekti** - shaxsning atrofidagi kishilar undan qanday xulq-atvor, qobiliyat, xatti-harakatlar kutsa va unga ishonsa ushbu tasavvur va kutish reallikka aylanishini tushuntiradi.

❖ **Proeksiya effekti** shaxs muloqot jarayonida o'zidagi o'y-fikrlarini, nojoiz istaklarini va qilmishlarini boshqa odamga tegishli deb hisoblaydi.

❖ **Zevgarnik (tugallanmagan harakatlar) effekti** muloqot jarayonida kishilarning tugallanmagan harakatlari, suhbatlari, yakuniga yetganga nisbatan ko'proq qayta esga tushishini izohlaydi.

Muloqot odamlarning jamiyatda o'zaro hamkorlikdagi faoliyatlarining ichki psixologik mexanizmini tashkil etib, u hozirgi yangi demokratik munosabatlar sharoitida turli ishlab chiqarish qarorlarini yakka tartibda emas, balki birgalikda chiqarish ehtiyoji paydo bo'lganligini hisobga olinganda, odamlarning mehnat unumdorligi va samaradorligini ta'minlovchi muhim omil ekanligini bildiradi.

Muloqot mazmuniga ko'ra quyidagi turlarga ajraladi:

Moddiy muloqot deganda sub'ektni dolzarb ehtiyojlarni qondirish vositasi sifatida, ayni paytda shug'ullanayotgan faoliyatining mahsulotlari va predmetlarini ayirboshlash tushuniladi.

Kognitiv muloqot deb shaxslarning hamkorlikdagi faoliyatida narsa va hodisalarni o'rganish, ma'lumotlarni bilib olish jarayonida o'zaro bilim almashinuviga aytiladi.

Konditsion muloqotda psixologik va fiziologik holatlar ayirboshlanadi. Masalan, shifokor bemorning tushkun kayfiyatini ko'tarishi yoki aksincha, ona qizining o'ksinib yig'layotgan holatiga yig'i bilan munosabat bildirishi va hakoza.

Motivatsion muloqot muayyan yo'nalishda hamkorlikda harakat qilish uchun o'zaro maqsadlar, qiziqishlar, motivlar, ehtiyojlar almashinuv jarayoni bilan izohlanadi.

Faoliyat muloqoti kognitiv muloqot bilan uzviy bog'liq bo'lib, bunda harakatlar, operatsiyalar, ko'nikma va malakalar ayirboshlanadi. Bu muloqot jarayonida ma'lumotlar uzatiladi, bilim doirasi kengayadi, qobiliyatlar rivojlanadi, takomillashadi.

Muloqot maqsadiga ko'ra biologik va ijtimoiy ko'rinishda bo'ladi.
Biologik muloqot nasl qoldirish, organizmni rivojlantirish, himoyalash kabi

tabiiy ehtiyojlarni qondirish bilan bog'liq bo'lsa, **ijtimoiy** muloqot esa shaxslararo munosabatlarni kengaytirish, mustahkamlash, takomillashtirish bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

Muloqot vositasiga ko'ra bevosita va bilvosita bo'lib, bunda jonli mavjudotning tabiiy organlari yordamida ya'ni qo'li, boshi, tanasi, tovushi yordamida axborot ayirboshlasa – bu **bevosita** bo'ladi, agar muloqotni tashkillashtirish va ma'lumot almashishda maxsus qurol va vositalardan foydalanilsa – bu muloqot **bilvosita** deyiladi.

Muloqotning yuqorida mulohaza yuritilgan turlaridan tashqari ishbilarmonlik va shaxsiy turlari ham farqlanadi. **Ishbilarmonlik** muloqoti odamlarning turli xildagi qo'shma mahsuldor faoliyati va mazkur faoliyatining sifatini oshirish vositasi sifatida yuzaga keladi. **Shaxsiy** muloqot esa shaxs o'zining psixologik muammolariga, qiziqishlariga, ehtiyojlariga, o'z hayotiga, atrofida nimalar bo'layotganligiga bo'lgan munosabatini atrofda gildardan bilishga yo'naltirilganidir.

Muloqot shakl (usul)lari. Muloqot demokratik, avtoritar, liberal shaklida, usulida amalga oshadi. **“Demokratik”** usulda suhbatlar, munozaralar, mulohazalar o'zaro tenglik, o'zaro hurmat ruhiga bo'ysundirilib, ta'sir o'tkazish sohalarini yashiringan holda bo'ladi. Shu boisdan, tasodifan voqeya va hodisalarning sodir bo'lishi turlicha baholanadi, rag'batlantiriladi yoki jazolanadi. Mana bunday odilona amalga oshirilgan muloqot ta'sirida o'g'il-qizlarda do'stlik, dilkashlik, xushmuomalalilik, shaxsiy xatti-harakatida va mulohaza yuritishida mustaqillik, shaxsiy qarashlari saqlangan holda yangi norma va talablarga moslashish, o'z faoliyati uchun javobgarlik, emotsional zo'riqish davrida o'z-o'zini qo'lga olishlik kabi muhim fazilatlar paydo bo'ladi.

Muloqotning yana bir shakli **“avtoritar”** deb atalib, bunda shaxslararo teng huquqlilik, erkin xatti-harakat qilish, tashabbuskorlik o'z ahamiyatini yo'qota boshlaydi. Masalan, boshliq tomonidan xodimlarning yurish-turishi, xatti-harakati ko'pincha cheklab qo'yiladi. Boshliq tomonidan ta'sir o'tkazishning asosiy metodi – jazolash hisoblanadi. Biroq onda-sonda rag'batlantirish metodidan foydalanilganda ham, u xodimga ma'naviy ozuqa bermaydi. Mazkur usul oilada qo'llanilsa, farzandlarda ota-onaga yaqinlik, mehr hissi kamayadi, keyinchalik bu tuyg'u uzoqlashish, «begonalashish» kechinmasiga aylanadi. Oiladagi shaxslararo munosabatlar bolalarni qondirmaydi; natijada odamovi, tund, ichimdagini top, tashvishlilik, xavotirlilik kabi ijtimoiy norma va qoidalarga qiyinchilik bilan moslashishdan iborat xarakter xislatlari vujudga keladi. Shu sababdan oila azolari ruhiy dunyosida simpatiya (yoqtirish), empatiya (hamdardlik), samimiylik, hayrixohlik kabi yuksak insoniy his-tuyg'ular juda narsiz ifodalanadi. Ko'r-ko'rona va so'zsiz bo'ysunishga asoslangan munosabatlar negizida yotgan tarbiyaviy ta'sir qo'rqqoq va irodasi kuchsiz shaxsni tarkib toptiradi.

Muloqot shakli ichida *"liberal"* usuli ham ko'zga tashlanib turadi. Bu usul muloqot jarayonida murosasoz, ko'ngilchan bo'lishlik, tashqi ko'rinishdan iliq psixologik iqlimni, guruhiy moslikni o'zida aks ettirgandek bo'lib tuyuladi. Afsuski, "liberal"lik, murosasozlik har qanday vaziyatni til topib hal qilishga, prinsipiiallikdan uzoqlashishga, subutsizlikka olib keladi. Masalan, ota-onalarning farzandlari bilan bunday munosabatda bo'lishlari salbiy oqibat sari yetaklaydi: qat'iylik, mustaqillik, dadillik va cho'rtkesarlik singari irodaviy sifatlar farzandlar ruhiy dunyosidan uzoqlashadi. Murosasozlik ta'sirida yosh avlod xarakterida munofiqlik, ikkiyuzlamachilik, kelishuvchanlik kabi illatlar tarkib topishi mumkin.

Muloqotda manipulyasiya

Muloqot jarayonidagi manipulyasiyada suhbatdoshga ta'sir ko'rsatib, uning xohishiga qarshi ravishda o'z fikriga ko'ndiriladi. Bunda biryoqlama ustunlikka erishiladi.



10.1.7-rasm

Manipulyasiya shakllari: ijobiy, salbiy, bevosita, bilvosita.

Manipulyasiyaning universal iboralari:

Men sizdan buni kutmagandim...
 Sizning o'ringizda men bunday qilmasdim
 Men ishonaman, bu qo'lingizdan keladi
 Qobiliyatlaringiz sizga yordam beradi
 Men sizga ishonaman...
 Siz tez fahmlay olasizku, qani bo'ling!
 Meni ogohlantirishgan edi, bu guruh/talaba...
 Sizni ishontirib aytamanki..., To'g'risini aytsam...
 Javob bermay qo'ya qoling, ko'z'laringiz sizni fosh etib turibdi

Nutqda quyidagi so'z iboralarning mavjudligi: agar..., bundan kelib chiqadiki, chunki, shu bilan birga...

Xushomad va maqto'v

Nufuzli insonlardan havola: ... ta'kidlaganidek... aytganidek (olim, mutafakkir, avtoritet insonning nomi)

Men yana takrorlayman...

Men haqimda nima deb o'ylayotganingizni bilaman...

10.2. Jamoa va guruh psixologiyasi

Bir vaqtning o'zida shaxsga turli ijtimoiy guruhlarining ta'siri bo'lib, ma'lum davrda bir ijtimoiy guruhning shaxsga ta'siri sezilarliroq va ahamiyatliroq, ikkinchisini esa sal kamroq bo'ladi. Masalan, o'quvchilik yillarida maktabdagi o'quvchilar guruhining ta'siri mahalladagi o'rtoqlar davrasinikidan kuchliroq bo'lishi, yangi xonadonga kelin bo'lib tushgan qiz uchun yangi oila muhitining ta'siri talabalik guruhinikidan kuchliroq bo'lishi tabiiy. Lekin har bir alohida daqiqada biz doimo ma'lum guruhlar ta'sirida bo'larkanmiz, bunda guruhning o'zi nima?

Guruh – ma'lum ijtimoiy faoliyat maqsadlari asosida to'plangan, muloqot ehtiyojlari qondiriladigan insonlar uyushmasi bo'lib, bunda ikkita asosiy mezon mavjud, ya'ni biror faoliyatning bo'lishligi (muloqot, o'yin, o'qish, mehnat) hamda u yerda odamlarning o'zaro muloqoti uchun imkoniyatning mavjudligi.

Referent guruh - shunday odamlar guruhiki, ular har bir shaxs uchun ideal insonlar bo'ladiki, u ularning niyatlari, qiziqishlari, harakat normalari, g'oya va fikrlariga ergashishga tayyor bo'ladi, harakatlaridan andoza oladi, ularga taqlid qiladi. Referent guruhlarining bir necha turlari mavjud:

1. **Normativ guruhlar** – bu shaxs uchun shunday insonlar guruhiki, ularning normalarini u ma'qullaydi, ularga amal qilishga hamisha tayyor bo'ladi. Bunday guruhlariga birinchi navbatda oilani, diniy yoki milliy uyushmalarni, professional guruhlarini kiritish mumkin. Masalan, o'zbek xalqi uchun dasturxon atrofiga o'tirgan zahoti yuzga fотиha tortish, mezbonlarning mehmonlarga "Xush kelibsizlar" deyishlari norma hisoblanadi va har bir oilada shunday harakatlarga nisbatan ijobiy ustanovka shakllanadi. Bunda bola uchun referent rolini ota-onasi, kattalar, mahalladagi hurmatli insonlar o'ynaydi.

2. **Qiyoslash guruhlarini** – bu shunday guruhki, shaxs o'sha guruhga kirishni, uning ma'qullashiga muxtoj bo'lmaydi, lekin o'z harakatlarini yo'lga solishda unga asoslanadi va korreksiya qiladi. Masalan, talabalar guruhida shunday yoshlar bo'lishi mumkinki, shaxs ular bilan umuman muloqotda bo'lmaydi, ularning fikrlari yoki qarashlarini yoqlamaydi, lekin bu guruh

aynan o'shalarga o'xshamaslik va o'z ustida ko'proq ishlashga o'zini safarbar qilish uchun kerak bo'ladi, yoki talaba-yoshlar sessiya yakunlariga ko'ra differensial stipendiya oladilar. O'rtacha o'zlashtiruvchi talaba uchun «hamma talabalar» oladigan stipendiya miqdorini nazarda tutib, o'zini tinchlantiradi, a'lochi esa, o'zinikini nafaqat oddiy, o'rtachalar bilan balki, davlat stipendiyalarini oladiganlar bilan ham solishtiradi. Ko'rsatgichlar qanchalik yuqori bo'lsa, shunga mos da'vogarlik darajasi ham yuqori bo'ladi, shaxsning qiyoslash guruhlari ham ortiqroq bo'ladi.

3. *Negativ guruhlar* – shundayki, shaxs ularning xatti-harakatlaridan ataylab voz kechadi, chunki ular shaxsiy qarashlardan mutloq farq qiladi. Masalan, ikki qo'shni bir-biri bilan murosalar kelishmasa, hattoki, devorlarini oqlashda ham biri tanlagan rangni ikkinchisi tanlamaydi. Biri «oq» desa, ikkinchisi – aksincha, «qora» deb turaveradi.

Guruhlarning turlari: Hamkorlikning darajasi mezoniga ko'ra guruhlarni birlamchi va ikkilamchi turlarga bo'lib o'rganiladi:

1. *Birlamchi guruhda* shaxslararo o'zaro ta'sir «yuzma-yuz, bevosita» ro'y beradi. Masalan, oila davrasidagi, sinfdagi, hisobchilar xonasida o'tirganlar birlamchi guruhga misoldir.

2. *Ikkilamchi guruhda* har doim ham odamlarning bevosita muloqotda bo'lish imkoniyatlari bo'lmaydi. Ular o'rtasidagi munosabat va o'zaro ta'sir bilvosita bo'ladi. Masalan, yirik bir tashkilotdagi tizimlar orqali muloqot, kasaba uyushmasiga birlashgan odamlar, partiya a'zolarining bog'liqligi ikkilamchi guruhga misol bo'ladi. Ularda ham umumiylik bo'ladi, masalan, partiyani oladigan bo'lsak, ular Toshkentda bo'ladimi, Samarqanddami, baribir umumiy g'oya atrofida birlashishadi, a'zolik badallarini vaqtida to'lab turishadi, saylov oldi kompaniyalarida bir-birlarini qo'llab-quvvatlab turadilar.

3. *Rasmiy guruhdagi* munosabatlar rasmiy normalar va huquq burchlar tizimi bilan belgilangan bo'ladi, masalan, guruhda boshliq bilan xodimlar o'rtasidagi munosabatlarni ta'minlovchi guruh rasmiy bo'ladi.

4. *Norasmiy* – ichki, bevosita psixologik munosabatlarni ta'minlovchi guruh hisoblanadi. Masalan, do'stlar guruhi, ulfatlar guruhi.

Turli guruhlar inson hayotida bir necha funksiyalarni bajaradilar:

a) ijtimoiylashtiruvchi funksiya;

b) instrumental, ya'ni, aniq mehnat funksiyalarni amalga oshirishga imkon beruvchi muhit;

v) ekspressiv – odamlarning o'zgalarning tan olishlari, hurmatga sazovor bo'lish, ishonch qozonishini ta'minlash;

g) qo'llab-quvvatlash, ya'ni, qiyin paytlarda, muammolar paydo bo'lganda odamlarni birlashtirish funksiyasi.

Guruh o'lchamlari va uning tizimi. Guruhlar ulardagi odamlar soniga ko'ra *katta va kichik guruhlarga* bo'linib, psixologiyada ko'proq kichik

guruhlar o'rganiladi. Uni necha kishi tashkil etishi, necha kishi hamkorlikdagi faoliyati ko'proq samara berishi masalasi amaliy ahamiyatga egadir. Ko'pchilik olimlar guruhning boshlang'ich nuqtasi sifatida miqdor jihatdan ikki kishini – *diadani* tan olishsa, polyak olimi Yan Shepanskiyning fikricha, kamida uch kishi – *triadadan* boshlanadi. Yan Shepanskiy bunga qo'shilmasada, har qalay diada o'ziga xos uyushma sifatida tan olingan. Masalan, yangi oila qurib, birga yashayotgan kishilar, sevishtganlar, ikki do'st – o'ziga xos kichik guruh. Har qanday kichik guruhga xos sifat shuki, uning a'zolari bir-birlari bilan bevosita muloqotga kirishish, «yuzma-yuz» bo'lish imkoniyatga ega bo'lib, har bir kishi uchun shu guruh juda ahamiyatli bo'ladi, uning normalariga o'zi xohlab-xohlamay bo'ysuna boshlaydi. Xullas, olimlar (J.Moreno) kichik guruhning boshlang'ich miqdori 2-3 kishi va yuqori chegarasini 30-40 kishidan iborat bo'lishligi haqidagi to'xtamga kelishdi.

Har bir guruh o'ziga xos *psixologik tizimga* ega bo'lib, uni tashkil etuvchi elementlar nisbatan barqaror hisoblanib, ular guruh a'zolari xulq-atvorini muvofiqlashtirib turadi. Guruhning psixologik tizimini tashkil etuvchi elementlardan biri – *guruhning maqsadidir*. Guruh *maqsadi* – odamlarni jamoa mehnati atrofida uyushtirib, birlashtiruvchi psixologik elementdir. Masalan, barcha talabalarning maqsadi – o'qish, professional malaka orttirib, mutaxassis bo'lib yetishish.

Keyingi elementlardan biri guruhning *avtonomligi darajasi* bo'lib, u ham ma'lum ahamiyatga ega omil, chunki har bir a'zo umumiy maqsad asosida birlashgan bo'lsa ham, ularning har birining o'z burch va vazifalari bor va shu nuqtai nazardan har bir odam o'z imkoniyatlarini o'zicha ishga solib, o'zaro munosabatlarga sabab bo'ladi.

Guruhning psixologik tizimga ta'sir etuvchi omillariga yana ularning jinsiy, yosh jihatdan, ma'lumoti va malakasi nuqtai nazaridan farq qiluvchi va uyg'unlikni tashkil etuvchi omillar ham kiradi.

Guruhning *uyushganligi* ham dinamik ko'rsatgichlardan bo'lib, uning ta'sirida har bir guruh bir-biridan farq qiladi. Masalan, odamlar hamkorlikda bajarayotgan ishning qiziqarli va hamma uchun manfaatli ekanligi, guruh normalarining a'zolar tomonidan qabul qilinishi, qadriyatlar tizimini tasavvur qilishdagi fikrlar mosligi uyushqoqlikning mezonlaridir.

Guruhning tizimi uning katta yoki kichikligiga ham bog'liq. Masalan, 5-10 kishidan iborat guruhdagi munosabatlar yaxshiroq, uyg'unroq va faoliyat samaraliroq hisoblanib, bunday guruhlarda norasmiy muloqot uchun ma'qul sharoit mavjud bo'lib, ularda «guruhbozlik» degan illat ham bo'lmaydi. Guruhning hajmi ortib borgan sari ularda rasmiyatchilik, rasmiy yuzaki munosabatlar ko'payib, bu odamlar o'rtasidagi insoniy munosabatlarda o'z aksini topadi.

Guruhlarda psixologik o'zaro moslik. Guruh hayoti va undagi a'zolarning o'zlarini yaxshi his qilishlari ko'p jihatdan ularning hamkorlikda ishlay olishlari va bir-birlariga ijobiy munosabatda bo'la olishlariga bog'liq bo'lib, bu hodisa psixologiyada *psixologik moslik* tushunchasi bilan tushuntiriladi. *Psixologik moslik* deganda, guruh a'zolari sifatleri va qarashlarining aynanligi emas, balki ular ayrim sifatlarining mos kelishi, qo'llanilgan kerak bo'lsa, tafovut qilishi nazarda tutiladi.

Moslikning mezonlari sifatida N.Obozov quyidagilarni ajratadi:

- a) faoliyat natijalari;
- b) a'zolarning sarflagan kuch-energiyalari;
- v) faoliyatdan qoniqish.

Ikki xil o'zaro moslik farqlanadi: *psixofiziologik va ijtimoiy psixologik*. Psixofiziologik moslikda faoliyat jarayonida odamlarning bir xil va mos tarzda harakat qila olishlari, reaksiyalar mosligi, ish ritmi va tempidagi uyg'unliklar nazarda tutilsa, ijtimoiy-psixologik moslikda ijtimoiy xulqidagi moslik – ustanovkalar birligi, ehtiyoj va qiziqishlar, qarashlardagi monandlik, yo'nalishlar birligi nazarda tutiladi. Birinchi xil moslik ko'proq konveyer usulida ishlanadigan sanoat korxonalarida xodimlarida samarali bo'lsa, bu oliyog'oh o'qituvchilari, ijodiy kasb egalarida iloji yo'q va bo'lishi mumkin ham emas, ularda ko'proq ijtimoiy-psixologik moslikning ahamiyati kattadir.

O'tkazilgan tadqiqotlar psixologik moslikning ko'plab qirralari bo'lishi mumkinligini isbot qildi. Asosan shuni unutmash kerakki, qaysi faoliyat va uning maqsadi odamlarni birlashtirgan bo'lsa, o'sha maqsadni idrok qilish va birgalikda anglash istagida uyg'unlikning bo'lishi katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'ladi.

Guruhdagi psixologik muhit va uni o'rganish. Guruhdagi «ma'naviy muhit», «psixologik muhit» – bu guruhdagi ishning yaxshiligi, faoliyatning samarasi bilan bog'lanadi. *Ijtimoiy psixologik muhit* deganda, o'sha guruh a'zolarining fikrlari, hissiyotlari, dunyoqarashi, ustanovkalari va o'zaro munosabatlaridan iborat bo'lgan emotsional-intellektual holati tushuniladi.

Bu o'rindagi asosiy omil – bu a'zolarning o'zaro munosabatlar bo'lib, ular ish yuzasidan, faoliyat maqsadlari va mazmuni bilan hamda bevosita bir-birlarini yoqtirish-yoqtirmaslikka asoslangan insoniy emotsional hissiyotlar ko'rinishida bo'lishi mumkin. Professional faoliyatni bajarish jarayonida tabiiy birinchi tipli munosabatlar ustivor bo'lib, ikkinchilarining xarakteri birinchisidan kelib chiqsa, do'stlar to'plangan davradagi muhit esa aksincha, bevosita simpatiyalarga tayanadi.

Ijtimoiy psixologiyada psixologik muhitni eksperimental tarzda o'rganishga katta e'tibor beriladi. Uni o'rganishning eng keng tarqalgan usullardan biri sotsiometriya (*sotsiometriya lotincha «societas» - jamiyat, va «metreo» - o'lchayman degan ma'noni bildiradi*) uning asoschisi amerikalik

olim Jon Moreno hisoblanib, u guruhdagi shaxslararo munosabatlarni o'lchashga qaratilgan texnikadir. Nazariy sotsiometriya uning muallifi fikricha, jamiyatdagi barcha nizolar, muammolarni yechishning usullaridan biri – insonlar o'rtasidagi munosabatlarni o'rganish va shunga ko'ra, jamiyatda o'zgarishlarni amalga oshirish kerak, degan g'oyaga asoslansa, amalda esa har bir jamoalarda maxsus sotsiometrik so'rovlar o'tkaziladi va uning natijalari tashkiliy jarayonlarda inobatga olinadi.

Guruhiy qarorlar qabul qilishda o'zaro ta'sir masalasi. Guruhda odamlarning bir-birlarini yoqtirishlari yoki aksincha, inkor qilishlari ko'pincha turli xil qarorlar qabul qilish jarayonida ro'y berib, guruhiy qarorlar qabul qilish individual qarorlar qabul qilish jarayonidan tubdan farq qilmaydi. Ikkalasida ham avval muammo aniqlanadi, ma'lumotlar to'planadi, bir nechta takliflar ilgari suriladi va nihoyat, eng ma'quli qabul qilinadi. Lekin guruhda bu jarayon biroz boshqacharoq kechadi va ziddiyatlar ko'pincha aynan shu jarayon bilan bog'liq bo'ladi.

Amerikalik psixolog T.Mitchellning fikricha, o'zaro ta'sir guruh sharoitida quyidagi omillar vositasida ro'y beradi:

1) ayrim a'zolar boshqalariga nisbatan ko'proq gapirishga moyil bo'ladilar;

2) yuqoriroq mavqeyega ega bo'lgan shaxslar qarorlar chiqarish jarayonida ham boshqalarga tazyiq o'tkazishadi;

3) guruhda ko'p vaqt o'zaro fikrlardagi kelishmovchiliklarning oldini olishga ketib qoladi;

4) guruhda ayrim odamlar ta'sirida asosiy maqsaddan chetlash va maqsadga nomuvofiq qarorlar qabul qilish hollari kuzatiladi;

5) barcha a'zolar o'zlari sezmaganda holda konformlilikka beriladilar va guruh ta'siriga tushib qoladilar. Shuning uchun ham ba'zan majlisni olib boruvchi rais kun tartibini e'lon qilgan bo'lsa-da, undan chalg'ib ketishi va o'rinsiz qarorlar qabul qilishi mumkin.

Shunday bo'lsa-da, guruhiy qarorlar qabul qilish jarayonining eng katta ijobiy tomoni shundaki, unda ko'plab fikrlar tug'iladi va o'rta tashlanadi. Bu fikrlar shunday sharoit yaratadiki, oxir-oqibat alohida individual fikrlardan biroz bo'lsa-da, farq qiladigan original yangi fikr paydo bo'ladi. Shuning uchun ham rahbarlik san'ati ko'pchilik fikriga tayangan xolda oxirida eng ma'qul qarorga kela olishdir. Lekin salbiy tomoni shundaki, guruhiy muzokara va qarorlar qabul qilish jarayoni ba'zi a'zolarida loqaydlik ("Menga nima, ular gapirishyapti-ku" kabi), tashabbussizlik ("Baribir meniki qabul qilinmaydi, gapirib nima qildim?" kabi) illatlarini ham paydo qilishi mumkin. Bu o'sha muhitda ayrim odamlar fikri doimo qo'llab-quvvatlangan, ayrim odamlarga e'tibor, imtiyoz berilgan sharoitlarda rahbarning aybi bilan ro'y beradi.

Konformizm va shaxsning o'zgalarga yon beruvchanlik sifatlariga asosan nimalar sabab bo'ladi?

Avvalo yukorida ta'kidlanganidek, shaxsning o'ziga beradigan bahosi, uning qanchalik ob'ektiv mos kelishiga bog'liq.

2. *Ta'sir kursatuvchi guruxning hajmi.* Guruxda odamlar soni qanchalik katta bo'lsa, ayrim shaxslarga kuzatiladigan konformistik kayfiyat ham ortib boradi. Bu ko'rsatgich, agar a'zolar soni 5 taga yetganda keskin ortsa, 8 taga yetganda so'ng, sekin-asta ortib boradi. Bu narsalar amerikalik olim Jerar (Oegaga, 1986) kuzatishlarida qayd etilgan. Milgram ham bu borada juda qiziqarli eksperimentni odamlar ko'z o'ngida namoyish etgan. Olti qavatli uyning derazalaridan biriga 5 kishi turib olib, rosa telmurib qarab turishavergan. Kuzatuvchilar yolg'on «kuzatuvchilarning» qatoriga kelib qo'shilayotgan tasodifiy odamlar sonini qayd etib turganlar. 5 kishi bo'lib turishganda, qiziqib qo'shilganlar mikdori 16% ni tashkil etgan bo'lsa, ular soni 15 kishiga yetganda bu ko'rsatgich 40% gacha ortgan. Odamlar gavjum joylarda ro'y beradigan voqeyalarni eslab turib, bunday xadisalarning guvohi bo'lganligimizni eslashimiz mumkin.

Birorta e'tiroz bshdiruvchining borligi. Yuqorida eslab o'tilgan Ash eksperimentlariga o'xshash holatlarda ataylab o'tkazib qo'yilgan odamlardan hych bo'lmaganda, bitgasining sodda tekshiriluvchi tarafini olishi, uning o'ziga ishonchini orttiradi. Yahi, ko'pchilik orasida o'ziga ishongan bitta e'tirozchining bo'lishi nonkonformizmni kuchaytiruvchi omildir.

Omnia oldida ochiq gapirish yoki fikrning yashirinligi. Agar yuqoridagi holatlarda odamga o'z nuqtai nazarini yashirish, yozma ravishda berish imkoniyati tug'dirilganda edi, u unchalik ko'pchilik fikriga va tazyiqqa berilmagan bo'lardi. Demak, ko'pchilikning ichida dadil bir fikrni ayta olish san'ati tinglovchilarni o'z tomoniga og'dirishning yo'llaridan biridir. Shuning uchun ham omnia o'rtasiga chiqib va'zxonlik qiladiganlar ko'pincha o'zgalar fikriga ta'sir ko'rsata oladilar.

Umuman o'tkazilgan eksperimentlar va hayotiy kuzatishlar bir shaxsning boshqa shaxslar ta'siriga berilishini ko'rsatadi. Lekin aslida biz o'zining mustaqil fikriga ega bo'lgan, o'z nuqtai nazarini doimo himoya qila oladigan insonlarni hurmat qilamiz. Ana shunday shaxslar odamlar orasidan ajralib chiqadilar va fanda bu hodisani tushuntirish uchun liderlik fenomeni mavjud.

Ijtimoiy ta'sir hodisasi. Gap guruhning har bir alohida shaxs ruhiyatiga ta'siri to'g'risida borar ekan, ijtimoiy psixologiyada bu narsalarni tushuntirib beruvchi maxsus xodisalar mavjud. Masalan, shunday holatni tasavvur qiling: Siz kimlarningdir davrasidasiz. Ular Sizga g'ananim ham emas, siz bilan raqobat ham qilmayaptilar, sizni maqtashgani ham yo'q, aksincha, jazolashgani ham yo'q hattoki, ular sizga befarqlar, Lekin ayni paytda bir makon va vaqtda birgasiz. Ana shunday insonlarning yaqiningizda bo'lishlari sizga qanday ta'sir

Konformizm. Konformizm — shaxsning guruh yoki ko'pchilikning ta'siriga berilishini tushuntiruvchi xodisadir. Konformizm buyicha sof eksperiment Solomon Ash tomonidan 1956 yilda o'tkazilgan edi. U yettita talabani tanlab olib, ularning ro'parasidagi taxtaga ikkita qog'ozni yopishtirgan. Ularning birida etalon sifatida olingan bitta vertikal to'g'ri chiziq, ikkinchisida esa 3 ta turli uzunlikdagi vertikal chiziqdan chizilgan. O'sha uchtdan qay biri etalonga tengligini aytish lozim edi. Gap shundaki, haligi yettita talabdan faqat bitgasi haqiqiy tekshiriluvchi bo'lib, qolganlari ataylab etilganlar bo'lgan. Shunday guruhlardan 6 ta bo'lgan. Birinchi uchta guruhdagi ataylab kirgizilgan shaxslar to'g'ri javob berishgan, shuning uchun ham haligi "sodda" talaba ularning fikriga qo'shilavergan. Qolgan yana uchta guruxda esa ataylab kiritilgan talabalar ataylab noto'g'ri javobni bir ovozdan ma'qullayverganlar. Ko'rib turgan narsasi haqida noto'g'ri javob berishayotganligiga qaramay, haligidan "sodda" talabalarning 37%ni noto'g'ri javob bilan qo'shilavergan. Eksperiment so'ngida "soddalardan" "Nega shunday javob berdingiz?" deb so'ralganda, ular aslida to'g'ri javobni bilganliklarini, lekin guruhdan ajralib qol-maslik uchun noto'g'ri javobga qo'shilaverganliklarini aytishgan. Shunday qilib, oddiy hayotda tez-tez uchrab turadigan bunday hodisa aslida shaxsning o'z nuqtai nazari yo'qligidan emas, balki inson ruhiyatida ko'pchilik qabul qilgan xulq me'yorlariga ergashish, o'z shaxsining ajralib qolishidan cho'chish hissi borligini isbotlaydi. Konformizm xodisasiga teskari bulgan nokonformizm hodisasini o'rgangan rus olimlari G.Andreeva, V.Petrovskiy va boshqalar jamiyatda ko'pchilik fikriga, ta'siriga befarq odamlar deyarli bo'lmashligini, aslini olganda hattoki, o'sha «qaysan» toifali odamlar ham qo'shilmasligi bilan ma'lum ma'noda o'zlarida konformizmni namoyon qilishlarini isbot qilganlar. Masalan, guruhdoshning tug'ilgan kuniga bormaslikka qaror qilgan talaba birinchidan, hali qarorini o'zgalarga oshkor qilmay turiboq, «qo'shilmasam nima deb o'ylasharkin?» deb qayg'uradi. Ikkinchidan, hamma tug'ilgan kunga ketib, u yotoqxona yoki uyiga ravona bo'lgan takdirda ham tez-tez xayolan o'sha do'stlari davrasini eslaydi, «xozirnimaxkadagaplashishayotganikin,men to'g'rimda g'iybat qilmayotganmikin?» degan xayolga boradi. Bu ham aslida o'sha shaxsning ko'pchilik ta'siridan tamoman xolos bo'lmaganligidan darak beradi.

Demak, vaziyatga qarab, konformizmlikning ham ijobiy, ham salbiy jihatlarini taxlil qilish mumkin. Lekin har doim ham uning yon bosishlilik sifatidan farqi borligini anglashimiz lozim. Yon bosishlilik shaxsdaga o'z-o'ziga baho bilan bog'liqxodisa. Masalan, o'zi haqida juda yaxshi fikrdagi odamlar odatda guruhta'siriga kam berilish, yon berishlari ham ancha qiyin bo'ladi. Past baholilar esa aksincha, ta'sirchan bo'lib, har narsaga ham yon bosavradi. Yon bosish, degan tushuncha aslida odamdagi shaxsiy sifatlariga ko'proq alokador narsa, shuning uchun ham uni konformizmning o'zi deb bo'lmaydi.

qiladi? «Ularning men bilan ishlari bo'lmasa, menga qanday ta'sir qilishi mumkin?» deb e'tiroz bildirishga shoshilmang. Gap shundaki, bizning oldimizda bir vaqtda umuman biror insonning bo'lishi faktining o'zi baribir, bizga ma'lum ta'sirini o'tkazadi.

Ijtimoiy psixologiyada ana shunday kimnidir kimgadir ochiq yoki yashirin ta'sir ko'rsata olish xodisasi fasilitatsiya hamda ingibitsiya xodisalari orkali tushuntiriladi. Fasilitatsiya inglizcha «*facilitate*» so'zidan olingan bulib, «engillashtirmok» degan ma'noni anglatadi. Boshqacha qilib aytganda, o'zgalarning borligi tufayli shaxs faolligining ortishi, ishining yengillashuvi va samaradorligining ortishini tushuntirish uchun amerikalik psixolog Ollport (1920) bu terminni fanga kiritgan. Lekin bu fikrni tasdiqlovchi eksperimentlar XIX asrning oxirlaridayoq boshlangan edi. Masalan, Norman Triplet (1898) velosiped poygasi jarayoni bilan qiziqib, poygachilar tezligining ortishi ko'proq sekundomerni tasavvur qilganliklari uchun emas, balki o'zaro bir-birlarini, qolaversa, tomoshabinlarni tasavvur qilganliklariga bog'liq ekanligi isbotlandi. Ya'ni, uning eksperimentlarida poygachilarning tezligi tomoshabinlar tig'iz bo'lgan yarlarda ular kam yoki yo'q bulgan joylardagiga nisbatan 20% gacha ortib ketgan. Keyinchalik maorif, sog'liqni saqlash, sport, sof ilmiy psixologik sohalarda o'tkazilgan o'nlab tadqiqotlar fasilitatsiya xodisasining borligi va uning shaxs faolligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini isbotladi. Darhaqiqat, yolg'iz o'tirib dars qilgandan ko'ra, ba'zan yaxshi ko'rgan kursdoshimiz yoki o'rtog'imiz bilan darsqilganimizda yoki gurux sharoitida biror mavzu yuzasidan munozara qilganimizda yaxshi, noyob fikrlar miyamizga oqib kelayotganligini sezamiz. Guyoki, fikrlash jarayonlarimiz tezlab ketayotganday. Bunday holat ko'plab pedagogik kuzatishlarda isbotini topgan.

Lekin o'tkazilgan boshqa bir tadqiqotlar guruhi har doim ham birovlarining yonimizda borligi ishning samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatmasligini isbotladi. Ingibitsiya — shaxs faoliyati samaradorligiga o'zgalarning borligi tufayli salbiy ta'sir ko'rsatishi, masalan, ma'nosiz so'zlarni yodlashda, labirintli masalalarni yechishda, ko'paytirish bilan bog'liq, murakkab arifmetik misollarni bajarishda boshqa odamlarning aralashuvi va ularning borligi faqat fikrlash jarayoniga tormozlovchi salbiy ta'sir ko'rsatishi tushuniladi. Demak, bu narsa ham ijtimoiy psixologik omillarning nechog'li murakkabligini ko'rsatadi.

Boshqa bir ijtimoiy psixolog Robert Zayens ushbu ikkala hodisadagi qarama-qarshilikni tushuntirib berish uchun eksperimental psixologiyadagi oddiy bir qonuniyatni ishlatdi: qo'zg'atish ustunlik reaksiyasini kuchaytiradi. Ya'ni, ijtimoiy hayotga bu ayniyatni ko'chirib, u insoniy munosabatlarda tashabbus bera olish yoki erishilgan oddiy muvaffaqiyatlardan ham ruxlanishni fasilitatsiyaning sababidir, deb tushuntirdi muallif. Demak, agar hamkorlikda

faoliyat muhitida odamga tashabbus berilgan bo'lsa, u o'zgalarning borligidan ruxlanib, katta shijoat bilan ishlay boshlaydi. Oddiy misolda tushuntiradigan bo'lsak, agar krossvord yoki skanvord yechayotgan bo'lsangiz-u, oddiy bir jumboqning yechimini topa olganligingizdan ruxlanishingiz, ko'pchilik ichida o'zingiz bilmagan holda boshqa paytda ayto olmaydagan yoki eslolmaydigan yechimlarning ham miyangizga kelayotganligini xis qilasiz. Lekin bunday juda xursand bo'lib, hayajonlanib ketsangiz, ishingiz samarasi o'sha zahoti pastlay boshlaydi. Xuddi shunday, katta auditoriya oldiga chiqqan voiz odamlarning uni tinglayotganliklari va samimiy yuz bilan kutib olganliklaridan ruxlanib, ko'tarinkilik bilan ma'ruzasini o'qisa, yangi fikrlar kelaverayotganligini sezsa, agar mabodo biror sabab bilan tanglik paydo bo'lsa, yoki kimnidir noo'rin luqmasi unga sezilarli xalaqit berishi, hattoki, qog'ozdagi yozuvni ham eplab o'qib berolmasligi mumkin. Demak, o'zgalarning borligi fakti o'sha muhitdagi odamlarning bizga munosabatiga va o'zimizning bu munosabatdan ruxlanib, tashabbusni qo'lga ola bilishimizga bevosita bogliq ekan.

Shaxsning liderlik fazilatlarini. Har bir alohida guruhda shunday shaxslar paydo bo'ladi, ular aynan boshqa shaxslardagi konformlilik yoki ta'sirlanishning manbaiga aylanib qoladi. Ularning fikrlari, xatti-harakatlari go'yoki boshqalar uchun etalonday ibratli bo'lib, ular bu nufuzlarini saqlash uchun o'sha guruhning hayotida o'z mavkellarini yo'qotmaslikka harakat qiladilar. Bunday shaxslarni tavsiflash uchun psixologiyada "Lider" tushunchasi ishlatiladi. Demak, lider guruhning shunday azosiki, u go'yoki barcha guruhiiy jarayonlarning boshida turadi va o'z xulqi bilan o'zgalarga ta'sir qila oladi. G'arb psixologiyasida guruhning xox rasmiy, xox norasmiy boshlig'ini tavsiflash uchun lider tushunchasi ishlatilaveradi. Lekin aslida bizning gushunchamizda guruxdagi rasmiy munosabatlarni muvofiqqlashtiruvchi, uning boshqa tashkilot va insonlar guruxi oldidagi vakolatini amalga oshiruvchi, ish berib, ishni nazorat qiluvchi shaxs rahbar deb ataladi. Lider esa shunday shaxski, u o'zidagi ayrim ijobiy va kuchli fazilatlarini tufayli kundalik muloqot va muomala jarayonlarida obro' ortirgan mavqeyi baland kishidir. U aslida rahbarlikka da'vo qilmaydi, lekin yurish-turishlari ko'pchilikka ma'qul bo'lgani sababli, uni odamlar saylovlarda tanlashlari yoki rahbarlikka xaxira tanlashganda, aynan uning nomzodini qo'yishlari mumkin.

Bir guruxda uning hajmi va katta kichikligiga qarab, odatda bitta rahbar va bir nechta lider bo'lishi mumkin. Biri - jamoadagi mehnat yoki o'qish faoliyati maksadlarini hammadan ham anik anglagani uchun ishchan lider bo'lishi, boshqasi - qarorlar qabul qilish va mas'uliyatli vazifalarni yechish vaqtlarida hammaga aql o'rgatadigan intellektual lider, yana biri - turli vaziyatlarda odamlar kayfiyatini ko'taruvchi, ularni ruhan qo'llab-quvvatlashga usta emotsional lider bo'lishi mumkin. U yoki bu turli liderning

mavjudligi o'sha guruhdagi real vaziyatlarga, guruhiy faoliyatning maqsadlariga borliq.

Liderlik nazariyalari va ularning ish uslublari. Har bir rahbari yoki lidermi, uning o'z ish uslublari va mehnatni tashkil etishga qarashlari bo'ladi. Ilmiy adabiyotda ushbu masala yuzasidan ko'plab qarashlar mavjud. Biz xorijda keng tarqalgan va ko'plab shov-shuvlarga sabab bo'lgan bir nazariyaga to'xtab o'tmoqchimiz. Bu Mak-Gregoming *Iks va Igrek nazariyalaridir*. Nazariyaning mohiyati u yoki bu liderning odamlarga ta'sir ko'rsatish va ular mehnatini tashkil etishdagi konsepsiyasini nazarda tutadi.

Iks nazariyasi inson tabiatiga ishonmaslik, uning loqaydligini ta'kidlashga asoslanadi. Nazariyaning mohiyati shundaki, inson tabiatan dangasa, tashabbusiz bo'lib, uning o'ziga qo'yib berilsa, hych bir foydali ish qilolmaydi, uni boshqarish, har bir ishini qat'iy nazoratda ushlab kerak.

Unga qarama-qarshi ularoq, Igrek nazariyasi insondagi tashabbuskorlik va mustaqil ishlashga moyillik, faollikni yoqlaydi. Shu fikrni yoqlagan har bir lider odamlarga erkinlik berib, ularni jazolash bilan qo'rqitmaydi va qat'iy nazorat qilishdan o'zini tiyadi.

Mak-Gregor nazariyasini rivojlantirib, yana bir olim Oushi (1981) liderning odamlarga munosabatani tushuntiruvchi *Zet nazariyasini* ilgari surdi. Unga ko'ra, aslida odamlarda faollik bilan ishlashga ishtiyoqbor. Lekin agar ularning faoliyati samarali boshqarilmasa, natija baribir yaxshi bo'lmaydi. Shuning uchun rahbar odamlarni hamkorlikda ishlashga unday olishi, ularga ishonch bildirishi va jamoa bo'lib ishlashga o'rgata olishi kerak.

Yuqorida nazariyalar ta'sirida liderlikning turli xil uslublari to'g'risidagi qarashlar paydo bo'ldi:

Avtoritar lider. Ba'zan bu uslubni «avtokratik» ham deb atashadi. Chunki bunday lider doimo o'z irodasiga ko'pchilikni buyundira oladi. Barcha mas'uliyatli qarorlar faqat u tomonidan qabul qilinadi va uning bajarilishini o'zi shaxsan nazorat qiladi, kerak bo'lsa, xodimlarni qat'iq jazolaydi. Odamlar bunday liderdan borgan sari uzoqlashib boraveradilar.

Demokratik lider. U guruh a'zolaridan fikrlar to'playdi. Tashabbus ko'rsatishlari uchun barcha sharoitlarni yaratadi. Demokrat lider guruh oldiga umumiy masalani qo'yadi, ishning konsepsiyasini belgilaydi, lekin ishni qanday amalga oshirish yo'llarini guruhning a'zolari hal qilishlari lozim.

Liberal tipli lider. Bunday shaxs guruxga barcha mas'uliyatni yuklaydi, ular ishni bajarayotganda muvofiqlashtiruvchi rolini o'ynaydi, lekin qabul qilingan qarorlarni tuzatish, ularni rad etish holatlari juda kam uchraydi. Qaysi boshqaruv uslubi samarali ekanligi xususida ko'plab tadqiqotlar o'tkazilgan. Olingan umumiy natija shundayki, qaysi uslubning samaraliroq ekanligi avvalo guruhning ish tajribasiga, vaziyatga, yoshga va hattoki, jinsga bog'liq zkan. Masalan, rahbar ayollar ko'proq demokratik boshqaruv uslubini qo'llaydilar, ular uchun jamoadagi

shaxslararo munosabatlar, a'zolarining unga samimiy munosabatda bo'lishlari katta ahamiyatga ega. Lekin aksariyat ayollarning o'zlari avtoritar erkak rahbar qo'l ostida ishlashni ma'qul ko'rarkanlar.

Amerikalik tadqiqotchi Linda Djuell o'zining «Industrialno-organizatsionnaya psixologiya» (2001 yil) kitobida **liderlik** masalasiga o'zining o'ziga xos yondashuvini bayon etgan. U bu muammoni aynan bizning sharoitimizdagi talqini, ya'ni mardlik va jasorat ko'rsatish uchun ochiq maydonlar yo'q bo'lgan sharoitda liderlik xislatlarining namoyon bo'lish xususiyatlarini ochishga urinadi. Uning fikricha, zamonaviy ishlab chiqarishning samaradorligi eng avvalo xodimlar rolini oshirib, liderlarnikini aksincha, pastlashtirish, yoki aniqrog'i, kamaytirish hisobiga ro'y beradi. Shundagina rahbarlikda ortiqcha bo'g'inlarni kamaytirish mumkin. Liderning, ya'ni amerikaliklar rahbari lider fenomeni doirasida tasavvur qilishadi, vazifasi – guruhning samarali faoliyat ko'rsatish yo'llarini belgilab berishdir.

Mazkur darslikda ahamiyatli bo'lgan tushunchalardan biri bu – **superlider** tushunchasidir. Superlider kim va qachon oddiy lider superga aylanadi? Amerikalik tadqiqotchilar Mans va Simslarning fikricha, eng yaxshi lider – bu «superliderdir». Bu shunday shaxski, u o'z xodimlarining aksariyatini liderlarga, birinchi navbatda o'zlari uchun liderlarga aylantira oladi. Bunday asosiy g'oya shundan iboratki, agar odam eng **avvalo o'zi uchun lider bo'la** olsa, o'zidagi bu malaka yoki mahoratni boshqalarga yetkaza olsagina, bu odam uchun shunday vaqt-saot yetib keladiki, jamoa o'zi mustaqil ishlaydigan, bevosita tepasida turib boshqarib turadigan insonga muhtoj bo'lmagan mexanizmga aylanadi. Bu – superliderlikdir.

Oddiy rahbar yoki liderning superliderga aylanishi bir necha bosqichlarda kechadi:

I – o'zi uchun lider bo'lish, ya'ni shaxsiy maqsad va maslaklar, o'zini o'zi kuzatish, o'zini o'zi rag'batlantirish, hayoliy repetitsiyalar va kognitiv tahlillar orqali o'zining mustaqil inson, shaxs ekanligini, o'zida boshqalarga o'rnak bo'luvchi sifatlar borligini anglash;

II – yuqorida qayd etilgan sifatning afzalliklarini o'zgalarga namoyish etib, uning afzalliklariga ishonitira olish;

III – xodimlariga o'zlarida tashabbus va o'ziga ishonchni namoyon etish uchun sharoit yaratish;

IV – mustaqil qobiliyat egalari bo'lgan xodimlarni rag'batlantirish, kerak bo'lganda, faqat konstruktiv tanbehlar berish;

V – o'z-o'zini boshqarishga asoslangan ijtimoiy faoliyatni tashkil etish va ishlarga xadeb aralashaverishdan o'zini tiyish.

Demak, samarali boshqaruv – aslida ijtimoiy ta'sirni amalga oshirishning eng namoyishkorona ko'rinishidir. Shu ma'noda, liderlik – avval shaxsning

o'ziga, so'ngra o'zgalarga bera oladigan ta'sirida ko'rinadigan fazilatlar majmuidir, deb ta'riflanadi.

Bob yuzasidan nazorat savollari:

1. Muloqot va uning mazmun va mohiyatini tushuntiring.
2. Muloqotning kommunikativ jihati nima?
3. Muloqotning interaktiv jihati nima?
4. Muloqotning perseptivativ jihati nima?
5. Muloqot turlarini tushuntiring?
6. Muloqot qanday usullarda tashkil qilinadi?
7. Noberval muloqotning tahlil qilish qoidalarini tushuntiring?
8. Manipulyasiyaning salbiy va ijobiy jihatlari.
9. Psixologik effektlarning o'zaro idrok etishdagi ta'siri.
10. Tinglash texnikasi va uning turlari, qoidalarini izohlang.
11. Guruh va unga qo'yiladigan talablarni tushuntiring?
12. Referent guruh nima va uning qanday turlari mavjud?
13. Guruhlarning qanday turlarini bilasiz?
14. Psixologik moslik deganda nima tushuniladi uning qanday mezonlari mavjud?
15. Psixologik muhit deganda nima tushuniladi?
16. Sotsiometriya usuli qanday qo'llaniladi?
17. Konformizm va uning sabab hamda oqibatlarini izohlang?
18. Fasilitatsiya va ingibitsiya hodisasini tushuntiring?
19. Liderlik va uning nazariyalari, uslublarini izohlang?
20. Liderning superlidernga aylanish bosqichlarini tushuntiring?

Mustaqil ta'lim uchun mavzular:

1. Muloqot inson hayoti tutgan o'rni va uning salomatligiga ta'siri.
2. Noberval muloqot va uning samarali insoniy munosabatlarni tashkil etishdagi ahamiyati.
3. Ishbilarmonlik muloqotining samarali ta'sir vositalari.
4. Ijtimoiy psixologik trening nima va unga qanday talablar qo'yiladi?
5. Shaxsda liderlik qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirish masalalari.
6. Zamonaviy boshqaruv psixologiyasi masalalari.
7. Jamoada psixologik moslashuvchanlik va muvozanatni baholash mezonlari.

11-MAVZU. BOSHQARUV PSIXOLOGIYASI

Bobning qisqacha mazmuni

Boshqaruv psixologiyasi va uning predmeti, vazifalari. Boshqaruv psixologiyasi fan sifatida, boshqarish faoliyati psixologiyasi, boshqaruv psixologiyasining o'rganish sohasi.

Boshqaruv faoliyatining ijtimoiy-psixologik xarakteristikasi. Boshqaruv faoliyatining ijtimoiy-psixologik jihatlari. Boshqaruv faoliyatida qaror qabul qilishning psixologik mexanizmlari, boshqaruv usullari.

O'zaro munosabatlarning samarali va destruktiv ko'rinishi. Jamoalardagi o'zaro munosabatlar psixologiyasi, jamov psixologik muhiti va uning boshqaruv qarorlari qabul qilishdagi o'rni, o'zaro munosabatlarning samarali va destruktiv ko'rinishlari.

Liderlik psixologiyasi. Liderlik tushunchasi va uning psixologik mohiyati, liderlik haqidagi nazariyalar, liderlik uslublari.

11.1. Boshqaruv psixologiyasi va uning predmeti, vazifalari

Barcha rahbar kadrlar, boshqaruvning nazariya va amaliyoti, boqcha mudirasidan davlat raqbari – Prezidentgacha bo'lgan barcha rahbarlarni rahbar sifatida shakllanishida oliy ta'lim etakchi rol o'ynaydi. Yoshlardan yillar o'tib rektor, premer, Prezidentlar chiqadi...

Oxirgi yillarda inson omiliga e'tiborning ortib borishi munosabati bilan boshqarish psixologiyasi masalalariga ham qiziqish kuchaydi. Shu asosda ijtimoiy psixologiyaning maxsus bo'limi — boshqarish psixologiyasi paydo bo'ldi. Boshqarish psixologiyasi psixologiyaning shunday tarmog'iki, u boshqaruv faoliyati bilan bog'liq bo'lgan muammolarni, shaxs va shaxslar guruhi tomonidan boshqa guruhlar faoliyatini samarali tashkil etish va birgalikdagi faoliyatini amalga oshirishning psixologik mexanizmlarini o'rganadi.

Boshqaruv psixologiyasining predmeti ta'rif bo'yicha bir qancha shakldagi mulohazalar mavjud bo'lsa-da, lekin ularning birtantasi ham uning tub ma'nodagi xususiyati va mohiyatini ochish imkoniyatiga ega emas. Bu asnoda XX asming 60-70-yillarida berilgan ta'riflar xilma-xil bo'lib, ular sohaning yo'nalishi mazmunini chuqurroq yoritilishiga qaratilgandir. Ushbu fikrimixni dalillash maqsadida ayrim ma'lumotlarga murojaat qilamiz va ularni tahlil etishga (sharhlashga) intilamiz.

Jumladan, birinchi ta'rif: "Boshqaruv psixologiyasining *predmeti* - rahbar (menejer) kadrlar va ijrochilarning psixologik xususiyatlari, yaxlit

tizimdagi hamkorlik faoliyatida ularning o'zaro aloqasini o'rganishdir". Uning navbatdagi (ikkinchi ta'rif): "Boshqaruv psixologiyasining predmeti - guruh va ommaning psixologik xususiyatlari, ularning shaxs ongiga va xulqiga ta'sirini tekshirishdan iboratdir".

Keltirilgan parchalardan ko'rinib turibdiki, ularning hech biri boshqaruvning psixologik mohiyati va uning tadqiqot ko'lamini ochish, talqin qilish qudratiga ega emas, xuddi shu boisdan bunday ijtimoiy psixologik holat o'z navbatida ilmiy izlanish va tekshirish ko'lamini keskin toraytirishga olib keladi, oqibat natijada sohaning mavqei, uning xalq xo'jaligidagi roli yanada pasayadi. hamkorlik faoliyatining mazmuni, uning bosqichlari (fazalari, shakllari), shaxslararo munosabatlarning o'zaro ta'sir xususiyatlari, insonda ijtimoiylashuvning tezlashuvi, ongning rivojlanish bosqichlari, "inson-texnika" tizimi bilan bo'lib, bir talay muammolar tadqiqot predmetidan chetda qolib ketish xavfi tug'iladi.

Yuqoridagi fikrlarni to'laroq xaspo'shlash, izohli talqin qilish maqsadida ayrim ma'lumotlardan namunalar keltiramiz va ularni tahlil qilishga intilamiz:

- o'zaro hamkorlik faoliyatida shaxsiyatga oidlik muammosi;
- shaxs va guruhning (rahbar va tobe kishilarning) motivatsion, emotsional jabhasi;
- shaxs va jamoaning bilishga oid (kognitiv) munosabatlari;
- shaxs va jamoaning nazorat qilish (regulyativ) jabhasi va uning o'ziga xosligi;
- menejer faoliyatining o'ziga xos psixologik xususiyatlari;
- menejering tarbiya sub'ekti, ya'ni sub'ektiv ta'sir o'tkazish omili ekanligi;
- menejering siyosiy faoliyatning egasi ekanligi;
- menejering statusi, roli huquqi, uning funktsiyasi, imtiyozi, ta'sir etuvchi vositalari;
- menejering boshqaruv uslubi va ularning turlari bo'yicha tasnifi;
- hamkorlik faoliyatida kommunikatsiya, uning turlari va shakllari;
- rahbar ehtiyojini qoniqish darajalari va mezonlari;
- shaxslararo munosabat turlari va ularning psixologik tavsifi;
- jamoatchilik fikri va jamoaviy kechinmalarning o'zaro munosabati;
- o'zaro munosabatlar ierarxiyasi ("men", "sen", "u", "biz", "siz", "ular");
- o'zini-o'zi hurmat qilish - mavaffaqiyat - talabgarlik;
- psixologik muhit, o'zaro moslik-jipslik;
- boshqaruv faoliyatining funktsional tahlili;
- boshqaruv faoliyatining tuzilishi va tarkibining o'zaro munosabati, uyg'unligi;
- boshqaruv faoliyatining muhandislik va psixologik jabhalari;

- menejer psixikasiga va shaxsiga lavozim taqozo etuvchi talablar;
- ijrochilarning psixologik xususiyatlari va ularga qo'yiladigan asosiy talablar;

- rasmiy muloqotning psixologik muammolari;
- "rahbar-ijrochilar" muloqotining (muomalasining) psixologik jabhalari;
- sotsial-psixologik holatlarni boshqarishning vositalari va metodlari;
- nizoli (ziddiyatli) vaziyatlar, ularning oldini olish va bartaraf qilish usullari;
- nizo - nizoli vaziyat - mojaro o'rtasidagi uzviy ijtimoiy-psixologik bog'liqlik;

- menejer shaxsining sotsial-psixologik xususiyatlari;

- menejer qobiliyatlarining tavsifi va ularning o'zaro uyg'unligi kabilar.

Yuqorida keltirib o'tilgan muammolarga asoslangan holda boshqaruv psixologiyasining predmetini aniqlash mumkin. Bizningcha, unga quyidagicha ta'rif berish maqsadga muvofiq: "hamkorlik faoliyatida shaxsning xulqiga va ongiga guruhviy (ommaviy) ta'sir o'tkazishning psixologik xususiyatlarini, menejer bilan ijrochi o'rtasidagi muomala maromini tekshirish, shaxslararo munosabatlar bosqichlari (shakllari) hamda emotsional holatlarini tadqiq etish, rahbarning psixologik muhitini ta'minlash bilan bog'liq faoliyat uslubi va uning mexanizmlarini tadqiq qilish boshqaruv psixologiyasining predmetidir". Bundan tashqari mazkur psixologiya sohasining predmeti tarkibiga analiy va nazariy ko'nikmalarni egallash xususiyatlari, idora qilishning qonuniyatlari, jamoadagi psixologik moslik, jipslikni ta'minlovchi omillar va mexanizmlarni o'rganish singari bir qator muammolarni kiritsa bo'ladi. Shu boisdan boshqaruv psixologiyasi predmetini cheklash, uning birlamchi va ikkilamchi atamaları asosiy va yordamchi, bevosita va bilvosita yo'llari hamda vositalari yuzasidan mulohaza yuritish rejalashtirilgan g'oya yoki maqsadni amalga oshirish jarayonga sun'iy to'siq vujudga keltiradi. Boshqarish muammolari ham bir qancha fanlar tomonidan o'rganiladi, jumladan, falsafa, tarix iqtisod, huquqshunoslik va psixologiya uning o'ziga xos tomonlarini ochish bilan shug'ullanadi. Psixologiya boshqarishni ham ob'ekti, ham sub'ektini o'rganadi. Psixologik tadqiqotlarda o'rganiladigan olimlar jamoasi, alohida shaxs, ularning psixologik holatlari, ulardagi ayrim jarayonlar va vazifalari boshqaruv ob'ekti deb aytiladi. Boshqaruvning sub'ekti o'rganilganda esa odatda boshqaruvchi shaxs yoki odamlar guruhi nazarda tutiladi.

Psixologiya ko'proq boshqaruvchi shaxs faoliyatining psixologik asoslarini o'rganadi va shu asosda buysunuvchilar ishlarini samarali tashkil etish, aniq va to'g'ri qarorlar qabul qilish uchun qanday psixologik xolat va jarayonlarni o'zida tarbiyalash lozimligi kabi qator muammolarni yechadi. Masalan, konkret hayotiy sharoitlarda agar boshliq majlis olib borayotgan bo'lsa, har bir so'zga chiquvchilarning fikrlari, ma'ruzalari va hokazolalar orqali

ularning psixologik holatlari aniqlanadi, yangi ish dasturlari ishlab chiqariladi, qabul qilingan qarorlarga ko'ra boshliqning va xodimlarning har biriga alohida ilmiy ko'rsatmalar va maslahatlar beriladi.

Boshqaruv psixologik asoslari fanini o'qitishning maqsadi - psixolog, sotsiolog talabalarda boshqarishning o'ziga xos murakkab muammolarini bilishga nisbatan intilishni kuchaytirish, ularda amaliy tashkilotchilik faoliyatiga ishtiyoq uyg'otishga qaratilganidir. Hozirgi davr talabalari etragi kunda boshqaruv tizimining xodimi, kichik, o'rta va katta jamoalar rahbari, korxonada yoki firma faoliyatining turli tomonlarini boshqarish bo'yicha loyihalar, tadbirlar ishlab chiquvchi yuksak saviyali mutaxassis bo'lib etishadi. Buning uchun boshqaruv psixologiyasining amaliy ko'nikmalari bilan qurollanish mutlaqo shart.

11.2. Boshqaruv faoliyatining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari

Boshqaruv psixologiyasi boshliq faoliyatini analiz qilganda asosiy diqqatni boshqarish uning ehtiyoji yoki qobiliyatlariga mos yoki mos emasligi, qaysi individual xususiyatlariga ko'ra u boshliq darajasiga ko'tarildi, ishini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun u boshqaruvning qay usullaridan foydalanyapti, xodimlarga psixologik ta'sir ko'rsatish maqsadida u qanday ta'sir uslublarini qo'llayapti kabi qator masalalarga qaratadi. Boshliq bo'lish ishiga turli shaxslarning munosabatlari har xil, chunki kimdir boshliqda bo'lgan imtiyozlarga beriladi, kim uchundir unga berilajak huquqlarni afzal ko'rish xos, kimgadir yuksak mas'uliyatlarni bo'yinga olish ma'qul keladi. Shaxslarning boshliq funktsiyalari haqidagi tasavvurlari qanchalik xilma-xil bo'lmasin, boshliqdan real sharoitlarda odamlar guruhini aniq maqsad asosida faoliyatga yo'llash, ularga bosh bo'lish, turli tadbirlarni amalga oshirish, obro'ga zga bo'lish, har bir qilingan ish uchun javobgarlikni o'z buyniga olish kabi ko'plab sifatlarning mujassam bo'lishi talab qilinadi.

Ayniqsa boshliq uchun turli guruhlardagi, ko'p holda bir boshliq uchun bir vaqtning o'zida bir qancha guruhlardagi shaxslararo munosabatlarning xarakteriga javobgar bo'lish qiyinchiliklar tug'diradi, chunki o'sha guruhlarni tashkil etgan har bir shaxsning o'ziga xos individualligi, boshqaruvchi haqidagi ular tasavvurining har xilligi va guruhlarda norasmiy liderlarning borligi boshliqdan odamlar bilan ishlash borasida ham tajribaning, ham psixologik faxm-farosatning va sabr-qanoatning bo'lishini talab qiladi. Shuning uchun ham kundalik hayotimizda, ham ilmiy adabiyotlarda tez-tez yonma-yon ishlatiladigan "lider" va "boshliq" tushunchalarining psixologik mazmunlarini analiz qilib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Jahon psixologiyasi fanida xalq xo'jaligi tarmoqlarini tashkil qilish va ularni boshqarish jarayonida "inson-texnika" tizimidan tashqari "inson-inson"

("inson-tabiat", "inson-obraz" singari yondashish bundan istisno) munosabatlari muhim ahamiyat kasb etishi, uning tahlili ko'p jihatdan sotsial psixologiyaning empirik ma'lumotlariga asoslanishi muayyan darajada yoritilgan. Amaliy, tatbiqiy xususiyatli ma'lumotlar menejer shaxsiyatining gultojisidir.

Ishlab chiqarish jamoalari va moddiy mahsulot yaratmaydigan muassasalarning xodimlarini sotsial psixologik jihatdan idora qilishning jabhalarini tadqiqot qilishda mazkur fanning metodologiyasi va xalq xo'jaligini boshqarishning umumiy qonuniyatlariga asoslangan holda faoliyatni uyushtirish, omilkorona yo'lga qo'yish yuksak samaralar beradi. Psixologiya faniga "boshqaruv" "boshqaruv" tushunchasi davlat, jamiyat, jamoat, ishlab chiqarish va texnikani boshqarish tizimidan, ya'ni kibernetikadan kirib kelgan bo'lib u hozirgi davrda insonning xulqi, xususiyatlari, ruhiy holatlari bilishning jarayonlari, ommaviy, jamoaviy va ruhiy harakatlarni boshqarish ma'nosini bildiradi. U hozirgi davrga kelib: "inson-inson", "inson-jamoa", "jamoat-inson", "jamoat-jamoat" munosabatlarining boshqaruv imkoniyatlarini tekshirishni taqozo qiluvchi istiqbolli, mustaqil, maxsus soxalarga o'z predmeti ko'lamini yanada kengaytiradi. Natijada boshqaruv yangi qonuniyatlari, mexanizmlari, omillari, ijtimoiy manbalari. shaxslararo munosabat uslublari, yakka shaxsning ijtimoiylashuvi xossalari, menejer va tobe kishilar yoki xodimlar o'zaro muomalasining maromi, tekshirishning o'ziga xosligi, uslubiyatning takomillashuvi, nizoli va ziddiyatli vaziyatlarning oldini olish hamda ularning oqilona echimini topish, mazkur jarayonda iliq, psixologik muhitning roli, uning ob'ektiv va sub'ektiv ahamiyati, mahsulot samaradorligini oshirishning imkoniyatlariga doir empirik va nazariy-metodologik materiallar to'plashning qulay shart-sharoiti yuzaga keladi.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, boshqaruv psixologiyasi xo'jalikni yoki muassasani boshqaruvning ijtimoiy-tarixiy printsip (tamoyil)lariga va qonun (qonuniyat)lariga bevosita asoslanadi. Bular qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Demokratik detsentralizm (mahalliy boshqaruv ustuvorligi);
2. Boshqaruvda yakkaboshchilik;
3. Siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy, ma'rifiy rahbarlikda (ma'muriyatda) xo'jalik yuritishning birligi;
4. Xo'jalik hisobining oqilligi;
5. Boshqaruvning rejaliligi;
6. Ommaning boshqaruv jarayonida faol qatnashuvi;
7. Hamkorlik faoliyatining ishtirokchilarini ma'naviy va moddiy jihatdan rag'batlantirish;

8. Kadrlarni tayyorlash, tanlash va joylashtirish jarayonida psixodiagnostika tizimiga asoslanish.

Vaziyatni baholash yuzasidan boshliqni bildirgan mulohazalarining mantiqiy jihatdan asoslanganligi uning dunyoqarashi, salohiyati, intellekti darajasidan darak beradi. Bu narsaga boshqacha urg'u bilan yondashilganda, eng avvalo vaziyatni osoyishta tahlillash, ortiqcha tashvish, xadik, bezovtalanishga berilmaslik, unga emotsional emas, balki ratsional (aqlan) munosabatda bo'lish uning atrofidagi xodimlarda ishonch tuyg'usini uyg'otadi. Ishlab chiqarish bilan bog'liq iqtisodiy holat, u yoki bu tarzda tanglik, shaxslararo munosabatdagi muammolar, umumjamoa fikridagi ziddiyat o'ziga xos psixologik vaziyatni vujudga keltiradi. Ana shu vaziyatning echimiga oqilona yo'l topish boshliqning topqirligi, tashkilotchilik qobiliyati, irodasining kuchliligini bildiradi. Intervyu boshliq nutq yordami bilan yuqoridagi vaziyatlarga nisbatan birdirilgan fikrlarning majmuasini aks ettirishga imkoniyatiga ega.

11.3. O'zaro munosabatlarning samarali va destruktiv ko'rinishi

Shaxslararo yoki guruhlararo munosabat xususiyatini tekshirishda muomalaga kirishish va uning tabiiy sharoitda kechishini kuzatish, vaziyat va uning echimini topish, o'ziga xos ravishda omillar harakatlanuvini qayd qilish maqsadga muvofiq. Muomalaning kommunikativ, interaktiv, pertseptiv tarkiblari yuzasidan ma'lumotlilik (bilimga egalik) muloqot mohiyati, shakli, maromi, funktsiyasi, vaziyati, muammosi va uning echimini topishda sheriklar (muomaladoshlar) ning huquqiy tengligi muomala barqarorligini ta'minlaydi. Muomaladoshini hurmat qilish, uning imkoniyatini ob'ektiv baholash, erkin samimiy fikr almashish, biri ikkinchisiga kamroq ta'sir o'tkazish natijasida o'zaro tortilganlik holati yuzaga keladi. Muomalaning barqarorligi, uzluksizligi, ko'tarinkiligi, sheriklarning (muloqotga kirishuvchilarning) bir-birini tushunuviga va o'zaro qabul qiluvchanligiga bog'liq. Muomalaning kechishiga uning funktsiyalarini to'g'ri amalga oshirish sharoiti bilan tavsiflanadi. Muomalaning tashqi (eksternal) va ichki (internal) ifodasi menejer bilan xodim o'rtasidagi fikr almashuv muloqotdoshlarning nutqi qobiliyati, ta'sir o'tkazish imkoniyati, kasbiy nazokati, xulq-atvori, fikrlash darajasi, insonni inson tomonidan idrok qilishning odilligi, oqilligi to'g'risida psixologik ma'lumotlar to'planadi. Mazkur ma'lumotlar ishonchligi tekshiruv yoki eksperiment jarayonining tabiiy ravishda kechishida o'z ifodasini topadi. Fikr uzatish va uni qabul qilish kezida o'zaro nazokatlilikka rioya qilishlik va o'zaro tushunuv, o'zaro hurmat, o'zaro simpatiya, hatto empatiya tuyg'ulari mavjudligidan dalolat beradi.

Boshqaruvlikning turlicha darajalariga asoslanib amalga oshirilishi, menejering tashkilotdagi obro'si va mavqeini belgilab beradi.

Ushbu muammo mohiyatini ochishda menejer obro'sining 3 shakli to'g'risida ma'lumot berishdan boshlashi ijobiy samaralar beradi. Ular quyidagi tarkiblardan tarkib topadi:

- a) axloq va odobligiga binoan;
- b) vazifasiga ko'ra;
- v) rasmiy.

Menejer obro'sining birinchi ikki shakli psixologik nufuzini, oxirgisi esa mansabiga nisbatan mavqeyini ifodalaydi.

Psixologik ma'lumotlarda ta'kidlanishicha, menejer rasmi, ya'ni o'z mansabi orqali bo'ysunuvchilariga nisbatan ta'sirini faqat 65 foizgina o'tkaza olsa, qo'shimcha tariqasida o'zining psixologik obro'si yordami bilan bunday ta'sir etish darajasini 100 foizga ko'tarish mumkin. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda qaysi bir shakl orqali mavqeyini yanada mustahkamlash ehtimoli mavjud degan savolni qo'yish mantiqan noto'g'ridir. Negaki, bunda fikr umuman boshqa ob'ektga qaratilgandir.

Tasavvur qilining, agarda menejer mutaxassis sifatida o'zini namoyon qila olmasa, u insoniylik sifati yuqori bo'lgan taqdirda ham tashkilotga hech bir foyda keltira olmasligi mumkin. O'z kasbini chuqur bilmaslik asta-sekinlik bilan tashkilot a'zolarining unga nisbatan g'azabini uyg'otishi, ayniqsa, ijtimoiy mavqelari past shaxslarda esa bu xislat yaqqol ko'zga tashlanadi. Oqibat natijada bunday holat menejering odobiga ham salbiy ta'sir qilmay qolmaydi.

Ijtimoiy psixologik talqindan kelib chiqqan holda mana bunday ta'rif berish mumkin: menejering obro'si - uning o'z vazifasini uddalay olishi, bilimdonligi, qat'iy moslakka egaligi, shaxsiy fazilati va xarakter xislatlari tufayli yuksak muvaffaqiyatga erishish majmuasidir.

Menejering asosiy vazifalari quyidagilardan iboratdir:

- 1) ma'muriy (rejalashtirish, tashkiliy, odamlarga rahbarlik, motivatsiya va nazorat);
- 2) ekspert - maslahatchilik (yetuk mutaxassis sifatida eng maqbul tashkiliy jarayonni amalga oshira olishi, suhbatlar, maslaxatlar shaklida bo'ysunuvchilarni nazorat qilishni yo'lga qo'yilishi va boshqalar);
- 3) vakolatchilik (tashkilotning ramzi sifatida ichki va tashqi muhitda o'z rolini bajara olishi);
- 4) tarbiyaviy (doimiy, muntazam ravishda tenglik asosida muayyan odob printsiplarga amal qilishi, ijobiy an'analarni qo'llab - quvvatlashi, javobgarlikni o'z zimmasiga olishi va boshqalar);
- 5) kommunikativlik (ma'lumotlar bilan almashinuvi);

6) innovatsion (noan'anaviy yangi uslublarni joriy qilish orqali tashkilot faoliyatining samaradorligini yanada yuqori bo'lishiga erishish).

Menejer o'z vazifalarini yuksak saviyada bajara olgan taqdirdagina, o'zining bo'ysunuvchilariga nisbatan ta'siri ortib boradi va tashkilot faoliyati yanada samarali kechadi.

Boshqaruv psixologiyasi fanining eng dolzarb muammosidan biri - bu muayyan uslubga egalikdir. Har bir inson o'z hayoti davomida u yoki bu uslubga duch keladi, ammo shuni ta'kidlab o'tish kerakki, deyarli hech qaysi davrda aniq bir sof holdagi usulning o'zi namoyon bo'lmaydi.

Menejer uchun ahamiyatli hisoblangan uslublar tavsifi mavjud bo'lib, ular quyidagi ko'rinishga ega:

Rasmiy tomoni	Mazmuni
Avtoritar uslub	
<p>Ishchan, qisqa ko'rsatmalar; Kuch bilan izohlanishlar, ma'n etishlar; Tildagi aniqlik, salomlashish odobi; Maqtovlar va jazolashlarning sub'ektivligi; His-hayajon aks ettira olmaydigan usullarni ishlatish tizilmali emasligi; Guruhdan tashqaridagi rahbarning nuqtai nazari; Yo'riqnomalar, takliflar sifatidaligi; Ma'lumotlar do'stona ruhdaligi; Maqtovlar va jazolashlar maslahatlar yo'sinidaligi; Ko'rsatmalar va man etilishlar - mulohazalar yordamida guruh ichida rahbarning shaxsiy nuqtai nazari</p>	<p>Guruhdagi ishlar to'liq ko'lamda rahbar tomonidan oldindan rejalashtirilganligi; Faqat yaqin maqsadlar aniqlanganligi, kelajakdagi noma'lumligi; Rahbar ovozini hal qiluvchi ekanligi; Tadbirlar oldindan emas, balki guruh tashabbusi ishlab chiqilishi; Takliflar amalga oshirilishi uchun hamma javobgarligi; Bo'ysunuvchilarning barchalari nafaqat taklif etadi, balki muhokamada ham ishtirok qilishligi.</p>
Neytral uslubi	
<p>Maqtovlar ham, jazolar ham yo'q; Hech qanday hokimlik yo'q; Rahbar nuqtai nazari sezilarsiz va o'z guruhidan tashqarida.</p>	<p>Guruhdagi ishlar o'zidan o'zi ketadi; Rahbar topshiriqlar bermaydi; Ishning tarkibiy qismlari tashqaridagi manfaatlaridan yoki kichik guruhdan kelib chiqadi.</p>

Boshqaruvlikni amalga oshirish jarayonida bu uslublarning qorishib ketish holatini kuzatish mumkin. Ekstremal favqulotddagi holatlar demokratik

uslubdagi menejerdan qat'iy choralar ko'rishni talab etadi. Hozirgi davrda boshqaruvlik uslublarining soni birmuncha ko'paydi va ular qatoriga:

- a) novatorlik-analitiklik;
- b) xayrixohlik (uslubiy variant sifatida);
- v) samarali boshqaruvlikning ehtimollik modeli kabilarni kiritish

mumkin.

Boshqaruvlik uslubi - bu idora qilishning ob'ektiv va sub'ektiv shart-sharoiti, shuningdek, menejerning individual o'ziga xosligi, uning bilan jamoa o'rtasida doimiy ravishda namoyon bo'luvchi fazilatdan iboratdir.

Boshqaruvlik madaniyati - bu idora qilish jarayonida uning tomonidan namoyon etiladigan (axloqiy, aqliy, muammoviy negizdagi fazilatlar majmuasidir.

Boshqaruvlik madaniyati - turli ish va munosabatlar jarayonida namoyon bo'ladigan qoida, ko'nikma va qadriyatlar majmuidir. Ular quyidagilarda o'z ifodasini topadi:

- 1) g'oyaviy ishonch va mehnat faolligini yuksaltirish;
- 2) xulq-atvorni boshqarish;
- 3) mustaqil fikrlash;
- 4) yakkahokimlik huquqidan me'yoriy foydalanish;
- 5) jamoada sog'lom ijtimoiy-psixologik mikromuhitni mustahkamlash;
- 6) muloqot texnikasi va mahoratini egallash;
- 7) targ'ibot va tashviqot, tanqid va o'zini o'zi tanqiddan samarali foydalanish;
- 8) tajriba almashish, ko'rik-tanlovlarda ishtirok etish;
- 9) shaxsiy namuna orqali ta'sir ko'rsatish;
- 10) yagona talablar asosida faoliyatni baholash tizimini standartlashtirishda "ma'muriy qayta quruvchi - yaratuvchilik" vazifalarini bajarish va shu kabi holatlarda o'z ifodasini topdi. Boshqaruvlik madaniyati samarali iroda qilishni amalga oshirishda omilkor vosita sifatida qo'llaniladi.


Ko'p sifatlarning bir butunlikda namoyon etilishi orqali zamonaviy menejer darajasiga erishish mumkin.

Tashkilotda doimiy ravishda har qanday holatda, ya'ni:

- mehnat taqsimoti va ixtisoslashuv;
- mavqe ko'lamini aniqlash;
- javobgarlik mas'uliyatining taqsimoti;
- vakolat va javobgarlik nisbatini muvofiqlashtirish;
- faoliyatni funktsional chegaralash;
- nazorat ko'lami (bo'ysunuvchilik me'yorlari)ni aniqlashtirish;
- funktsiyalarda kommunikatsiya yo'lga qo'yish;
- tashkilot faoliyati bilan bog'liq bo'lgan yana bir qator muammolar majmuasini ijobiy hal qilishda bir-biriga qarama-qarshi, ya'ni "egiluvchanlik"

va "qat'iylik"ni o'z o'rinda ko'rsata olish qobiliyati yetarli darajada mujassam eta bilish orqali boshqaruvlik sifatining takomillashuvi holati kuzatiladi. Bu jarayonda menejer o'zining ham, bo'ysunuvchisining ham shaxsiy tipologiyasini to'liq ta'riflay olishdek imkoniyatga erishish mumkin.

Menejer o'zining yuqori darajada samarali ishchanligini saqlay bilishi ham aynan shu omilga bog'liqdir.



Boshqaruvlikni kasb sifatida tanlashda individual xususiyatlar ko'proq psixogenetikadan kelib chiqqanligi tufayli, individning funksional holatiga bog'liqdir.

11.4. Liderlik psixologiyasi

Guruhlardagi o'zaro munosabatlar yuqoridan pastga yoki aksincha bo'lib, guruh a'zolarining konkret mavqelari, boshliq bilan bo'ysunuvchilar o'rtasidagi munosabatlarni o'z ichiga oladi. Bu borada "lider" va "boshliq" tushunchalari o'rtasidagi farqlar haqida gapirish lozim. B.D. Parigin bu ikki tushunchani farqlab shunday yozadi:

1) lider asosan guruxdagi shaxslararo munosabatlarni boshqarsa, rahbar – shu guruxdagi rasmiy munosabatlarni boshqaradi;

2) liderlik kichik guruhlargagina xos bo'lgan hodisa bo'lsa, rahbarlikning haq-huquqlari katta guruhlar doirasida ham sodir bo'lishi, amalga oshirilishi mumkin;

3) agar liderlik stixiyali, betartib jarayon bo'lsa, rahbarlik maqsadga qaratilgan, jamiyatda ishlab chiqarilgan normalar, tartiblar asosida saylovlar oqibatida sodir bo'ladigan hodisadir;

4) liderlik rahbarlikka nisbatan vaqtinchalik hodisa bo'lib, guruh a'zolarining kutishlari, ularning kayfiyatlari, faoliyat yo'nalishiga qarab, uzoqroq muddatda yoki qisqa muddatda ro'y beradi;

5) rahbarning liderdan farqi yana shundaki, u liderda yo'q bo'lgan jazolash va ragbatlantirish tizimiga ega bo'lib, shu asosda o'z xodimlariga ta'sirini o'tkazishi mumkin;

6) lider guruxda u yoki bu harorlar, ko'rsatmalar, tashabbuslarni o'z ixtiyoricha, bevosita chiqarishi mumkin, rahbarda esa bu yo'nalishda ko'plab rasmiy ko'rsatmalar, rejalar, normalar, buyruqlar mavjudki, ular doirasidan chiqib ketishi kiyin;

7) lideming faoliyati faqat kichik guruhlar doirasida amalga oshirilsa, rahbar shu guruxdagi, kengroq ijtimoiy doiradagi, jamiyatdagi vakili bo'lganligi uchun, uning vakolatlari ham keng, faoliyat imkoniyatlari ham ortiqdir.

Lider hech qachon yolg'iz bo'lmaydi, u doimo guruh a'zolari orasida bo'ladi, u shu guruh a'zolarini u yoki bu harakatlarga chorlaydi. Chunki lider guruh a'zolarining psixologiyasi, ularning kayfiyatlari, intilishlari, qiziqishlari va hokazolarni hammadan ham yaxshi biladi, ular ichida eng tashabbuskoridir. Agar sinf doirasida olib qaraladigan bo'lsa, turli xil lider borligini aniqlash mumkin. Masalan, guruh a'zolari ichida eng bilag'oni, aql o'rgatuvchisi, topqiri, intellektual lideri, bolalar ichida eng hazilkashi, dilkashi, xushchaqchaqi, ko'ngil so'rovchisi, o'zgalarni tushuna oladigan – emotsional lider, guruxni ish faoliyatga chorlay oladigan, dadil, qatiyatli, irodali-irodaviy liderlar bo'lishi mumkin. Ular ayni vaziyatlarda vaziyat talabiga ko'ra paydo bo'ladilar hamda bolalar ongida o'z sifatlariga ko'ra obro' qozonadilar. Lider sifatleri ichida yaxshi va yomonlari ham bo'lishi mumkin, lekin guruh liderga ergashganda, uni ibrat sifatida tanqidsiz qabul qiladi va shuning uchun ham barcha ishlariga ergashib, ko'rsatmalariga amal qiladi. Maktabda bolalar yoshida xulqi maktab normalariga to'g'ri kelmaydigan liderlarning borligi, ular ma'lum guruh ichida so'zsiz obro'ga ega ekanligi ham shu bilan tushuntiriladi. Masalan, lider "ketdik" deb ko'rsatma bersa, unga ergashganlarning darsni ham tashlab keta olishi shu bilan tushuntiriladi.

Shuning uchun ham sinf rahbari o'z sinfidagi rasmiy liderlar bilan ishlash bilan cheklanmaydi, balki norasmiy liderlarni ham aniqlay bilishi, ular bilan hamkorlikda ishlashi zarur. To'g'ri, ba'zi hollarda rasmiy va norasmiy lider bir shaxs bo'lishi ham mumkin. Bu juda qulay, lekin liderlik vaziyatga bog'liq bo'lgani uchun ham ularning o'zgarib turishini hisobga oladigan bo'lsak o'qituvchining boshqarish maxorati yoki san'ati uning norasmiy liderlar bilan samarali ishlash usulidir.

Shunday qilib, har qanday lider obro'ga ega. Obro'lilik shaxsning shunday xususiyatiki, u boshqa shaxslarga ham hissiy-emotsional, ham irodaviy ta'sir ko'rsata olish qobiliyatiga egadir. Norasmiy obro'lilik ya'ni shaxslararo munosabatlar mahsuli sifatida orttirilgan obro' juda samaralidir. Odamlar ko'ngliga yo'l topish, ularni turli vaziyatlarda tushuna

Liderlik hodisasi to'g'risida gap ketar ekan, liderlik nazariyalari haqida ham qisqacha to'xtalib o'tish o'rindidir. Hozirgi kunga qadar liderlik to'g'risida asosan uchta nazariya mavjud:

1. Xarizmatik nazariya.
2. Vaziyatga bog'liqlik nazariyasi.
3. Sintetik nazariya.

"Liderlik sifatleri nazariyasi" yoki xarizmatik nazariyaning mohiyati shuki, hamma ham lider bula olmaydi, ayrim shaxslarda shunday sifatlar yig'indisi tug'ma mavjud bo'lib, ular uning guruhda lider bo'lishini ta'minlaydi. Masalan, 1940 yilda amerikalik K.Berd 79 sifatdan iborat bo'lgan liderlik qirralari ro'yxatini tuzdi. Bu ro'yxatda jumladan tashabbuskorlik muloqotga kirisha olish, yumor hissi, o'ziga ishonchi, tez va aniq qarorlar qabul qila olish, tashkilotchilik kabi sifatlar bor edi. Lekin bu nazariyaning xatoligi shunda ediki, birinchidan, u yuqoridagi sifatlar qanday qilib namoyon bo'ladi-yu, qanday shakllanishini tushuntirib bera olmadi, ikkinchidan, so'roqlar mobaynida birorta sifat ham mutlaq ko'p marta qayd etilmadi.

Liderlikning vaziyatga bog'liqligi nazariyasidagi asosiy g'oya – lider vaziyatning mahsuli degan qoyadir. Har bir odamda liderlik sifatleri bor, lekin ayrim vaziyatlar ayrim shaxslarning o'zlarini ko'rsatishlari, lider bo'lishlari uchun qulay hisoblanadi.

Yuqoridagi ikki nazariyani tanqid qilish natijasida paydo bo'lgan uchinchi nazariya liderlikning sintetik nazariyasidir. Bu nazariya liderni guruhiy munosabatlarning bevosita mahsuli deb qaraydi, liderning ruyobga chiqishida guruhning birlamchi rolini ilgari suradi.

Psixolog A.N.Leontevning faoliyat kontseptsiyasiga tayangan holda, liderlikni faoliyat mahsuli, guruhning ushbu faoliyatga munosabati va guruhda qabul qilingan normalar va ijtimoiy kutishlarga kim ko'proq javob berishiga qarab liderni aniqlash mumkin. Ijtimoiy kutishlar nazariyasi hozirda ko'pchilik tomonidan ma'qul yondashishlardan biri deb qabul qilinmoqda.

Har bir lider yoki boshliq o'zicha individual va qaytarilmasdir. Buning boisi har bir boshliq o'z ish faoliyatini, boshqaruv faoliyatini o'ziga xos tarzda tashkil etishidir.

Ijtimoiy psixologiyada boshqaruv sohasida batafsil o'rganilgan muammolardan biri – turli boshqaruv uslublari. Bu sohada nemis olimlari G.Gibsh va M.Forverg, rus olimlari V.D.Parigin, L.N.Umanskiy, M.Yu.Jukov va boshqalarning ishlari, ayniqsa, diqqatga sazovordir. Barcha ilmiy tadqiqotlarni umumlashtirgan holda ijtimoiy psixologiyada qabul kilingan uch asosiy boshqarish uslublariga xarakteristika berib chiqamiz. Bu uch uslub:

1. Avtoritar.
2. Demokratik.
3. Liberal ish uslublaridir.

Avtoritar rahbar barcha ko'rsatmalarni ishchanlik ruhida, aniq-ravshan, keskin ohangda xodimlarga etkazadi. Muloqot jarayonida ham xodimlarga nisbatan do'q-po'pisa, keskin ta'qiqlash kabi qat'iy ohanglardan foydalanadi.

Uning asosiy maqsadlaridan biri – nima yo'l bilan bo'lsa-da, o'z hukmini o'tkazish. Uning nutqi ham aniq va ravon doimo jiddiy tusda bo'ladi. Biror ish yuzasidan xodimlarni maqtash yoki ularga jazo berish, tanqid qilish sof sub'ektiv bo'lib, bu narsa boshliqning kayfiyatiga va o'sha shaxslarga nisbatan shaxsiy munosabatiga bog'liq. Jamoa a'zolarining tilak-istaklari, ularning fikrlari va maslahatlari juda kam xollardagina inobatga olinadi, aksariyat hollarda bunday istaklar yoki ko'rsatmalar to'g'ridan-to'g'ri do'q-po'pisa, kamsitish yoki ma'naviy jazolash yo'li bilan cheklanadi yoki qoniqtirilmaydi. Bunday rahbar o'z ish uslublari, kelajak rejalari, biror aniq ishni, operatsiyani qanday amalga oshirmoqchiligini odatda, jamoadan sir tutadi, uning fikricha, bu uning obro'yiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Guruhdagi ijtimoiy-fazoviy munosabatlardagi o'rni jihatidan, u "jamoadan chetda", avtonomdir.

Avtoritar rahbarda har bir jamoa a'zolarining qobiliyatleri, ishga munosabatlari, mavqelariga ko'ra tutgan o'rinlari haqida tasavvurlar borki, shunga ko'ra u har bir xodimning ish harakatlarini maksimal tarzda dasturlashtirib qo'ygan, unda har qanday cheklashlar uning ochiq g'azabini keltiradi va buning uchun unda jazolashning turli uslublari mavjud. Ya'ni bunday jamoalarda hokimiyat – markazlashtirilgan, jamoa rahbari ushbu markazning yakka hokimi – shuning uchun ham bu erda "mening odamlarim", "mening ishim", "mening fikrim bo'yicha" kabi iboralar tez-tez ishlatiladi. Bunday rahbarlarda ishiga nisbatan shunday fidoiylik borki, ular o'zlarini shu ishsiz tasavvur qila olmaydilar, ya'ni ish uning "butun vujudini qamrab olgan". Shu sabab bo'lsa kerak bunday rahbar har bir odamni uning kundalik ish faoliyatini, uning natijalarini juda yaxshi biladi. Lekin, aslida, uni ishning mazmunidan ko'ra, uning o'sha erdagi etakchilik roli, boshlig'ligi ko'proq qiziqtiradi va o'ziga o'sha sifatlariga qarab baho beradi. Bu sifat, tabiiyki, ishning sifatiga ham ta'sir qilgani uchun jamoa oldiga qo'yilgan barcha topshiriqlar bajarilmay qolmaydi ("temir rahbar"). Bunday jamoalarda tanqid ishi juda sust, chunki u o'zini ham, boshqalarni ham tanqid qilishlariga yo'l qo'ymaydi. Tang'id qilishga, uning fikricha, faqat boshliq haqli, yiqilishlarda so'zni o'zi boshlab, tashabbusni oxirigacha boshqalarga bermaydi, odamlarning takliflari, ularning hissiyotlari e'tiborga olinmaydi.

G.Gibsh va M.Forverglarning tahlil qilishlaricha, avtoritar lider bosh bo'lgan jamoada ishlarning samaradorligi ancha yuqori bo'lib, ishlab chiqarish ko'rsatkichlari ham yuqori bo'lar ekan. Lekin jamoadagi ruhiy-ma'naviy muhit og'ir, tang bo'lib, bu narsa odamlarning jamoadan, ishdan qoniqmasliklariga olib keladi. Bunday rahbarlar boshchilik qilgan mehnat jamoalarida ishlaydigan odamlar o'z kasblari, ish joylarini osonlikcha almashtirishlari mumkin.

Demokratik rahbar, aksincha, bo'ysunuvchilarga mustaqillik erk berish tarafdori. Ishda topshiriqlar berganda ishchilarning shaxsiy qobiliyatlarini

hisobga olgan holda tahsimlaydi. Bunda u xodimlarning shaxsiy moyilliklarini ham hisobga oladi. Buyruq yoki topshiriqlar, odatda, taklif ma'nosida beriladi. Nutqi oddiy, doimo osoyishta, sokin, unda o'rtoqlarcha, do'stona munosabat sezilib turadi. Biror kishini maqtash, uning lavozimini oshirish yoki ishdagi kamchilikka ko'ra ishiga baho berish doimo jamoa a'zolarining fikri bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi. Tanqid, ko'pincha taklif, istak shaklida qilingan ishlarning mazmuniga baho berish holida "aybdorga" etkaziladi. Har bir yangi ish jamoa maslahatisiz boshlanmaydi. Shuning uchun ham uning fazoviy-ijtimoiy holati "jamoada ichida".

Jamoada tanqid va o'z-o'zini tanqid shunday yo'lga qo'yilganki, uning oqibatidan hech kim aziyat chekmaydi. Chunki ko'prok boshliq emas, balki jamoaning boshqa faollari – norasmiy liderlar tanqid qiladilar. Boshliq yo'l qo'ygan xato-kamchiliklarni jamoatchilik oldida bo'yniga olishdan qo'rqmaydi. Chunki undagi mas'uliyat hissi nafaqat yuqori boshqaruv tashkilotlari a'zolari bilan muloqot paytida, balki, xodimlar bilan muloqotda ham sezilib turadi va qo'yilgan topshiriq yuzasidan mas'uliyatni boshqalarga ham bo'lib berishni yaxshi ko'radi. Boshliqning xodimlaridan siri yo'q, shuning uchun ham majlislarda ko'proq u emas, balki barcha xodimlar gapiradilar, oxirgi qaror chiqarish va so'zlarni yakunlash, umumlashtirish ququqidan u to'liq foydalanadi.

Gibsh va Forverglarning tahlillariga ko'ra, bunday boshliq rahbarlik qilgan jamoalarda ma'naviy-ruhiy muhit juda yaxshi, ishchilar jamoadan, ishdan qoniqish hosil qilganlar, ishdan ketish hollari kam bo'ladi, lekin ishlab chiqarish zo'rg'a norma holatida bo'lar ekan.

Liberal (loqayd) uslubda ishlaydigan rahbarning kayfiyatini, ishga munosabatini, ishdan mamnun yoki mamnun emasligini bilish qiyin. Unda taqiqlash, po'pisa bo'lmaydi, uning o'rniga ko'pincha ishning oxirgi oqibati bilan tanishish bilan cheklanadi, xolos. Jamoada hamkorlik yo'q boshliq jamoaning muammolari, ishning baland-pasti bilan qiziqmaydiganday, go'yoki boshqa "koinotda" yurganga o'xshaydi. Aniq ko'rsatmalar bermaydi, uning o'rniga norasmiy liderlar yoki o'ziga yaqin kishilar orqali qilinishi lozim bo'lgan topshiriqlar bajaruvchilarga etkaziladi. Uning asosiy vazifasi, uning nazarida, xodimlar uchun ish sharoitini yaratish, ishdagi kamchiliklarni bartaraf etish, kerakli mahsulot, xom-ashyo kabilarni topib kelish, majlislarda qatnashish va hokazolardan iborat.

Xodimlar bilan muloqotda bo'lishga to'g'ri kelganda, u doimo xushmuomala bo'lib, odob, axlok normalarini buzmaslikka harakat qiladi, lekin hech qachon ular bilan tortishmaydi. Majlislarda agar biror muammo munozarani keltirib chiqarsa, u bevosita jarayonga aralashmay, oxirgi so'zni o'ziga qoldiradi. Shunday qilib, xodimlarga fikrlash va xatti-harakatlar erkinligi berib qo'yilgan, bular yuzasidan boshliqning fikri so'ralgan taqdirda

ham, undan aniq gap chiqmaydi, chunki u xodimlarni yaxshi bilmaydi, qolaversa, ularni xafa qilib qo'yishdan qo'rqadi. Uning fazoviy-psixologik holati "guruh tashqarisida".

Olimlarning fikricha, bunday rahbar ishni olib borgan jamoalarda barcha ko'rsatkichlar doimo orqada, qo'nim ham yo'q. Liberal rahbar ishda o'zboshimchalikka yo'l qo'yib, ko'p turmay, boshqa erdan ish qidirishga harakat qiladi.

Yuqorida baho berilgan boshqarish uslublari ko'proq liderlikka emas, balki rahbarlikka taalluqli, lekin ilmiy adabiyotlarda bu ikkala ibora, ko'pincha sinonimday ishlatiladi. Aslida, eng yaxshi rahbar o'zida barcha liderlik sifatlarini ham mujassamlashtirgan bo'ladi. Chunki sof ijtimoiy psixologik ma'nodagi liderning turlari turli sharoitlarda o'zida ko'proq namoyon etadigan shaxsiy sifatlariga ko'ra tabaqalanadi. Masalan, lider-tashkilotchi, lider-tashabbuskor, lider-erudit, jamoa hissiy-emotsional holatni boshqaruvchi lider, lider-bilahon va hokazo. Yaxshi rahbar ana shu lider sifatlarini bilgan holda, ularni o'zida tarbiyalashi va jamoasidagi liderlar bilan hamkorlikda ishlay olishi kerak.

Oxirgi yillarda Moskva va boshqa yirik ilmiy markazlarda o'tkazilgan tadqiqotlar natijasida shunday xulosaga kelindiki, aslida hayotda sof demokrat yoki sof avtoritar rahbarni uchratish qiyin, lekin uchragan paytda ham ular bir jamoani uzoq muddat boshqara olmasligi ma'lum buldi. Shuning uchun ham ular vaziyatga bog'liq, konkret jamoa, unda qabul qilingan xatgi-harakat normalari, shaxslararo munosabatlar tipi liderning ham, rahbarning ham ish taktikasi va uslubini belgilaydi, degan hoya qabul qilinmoqda. Lekin bu rahbarlik uslublarining psixologik mazmun va mohiyatini bilishning amaliy ahamiyati shundaki, har bir uslubda o'ziga xos ijobiy tomon bor, mohir rahbar o'zini-o'zi tarbiyalay ekan, o'shalarning eng ma'quli, ayniqsa o'zi rahbarlik qilayotgan jamoaga moslarini tarbiyalashi maqsadga muvofiqdir.

Yuqorida aytib o'tilganidek, rahbarda tug'ma qobiliyat bo'ladi deb ham aytib bo'lmaydi, ikkinchi tomondan, rahbar vaziyatga harab stixiyali tarzda tarbiyalanib ketaveradi, deb ham bo'lmaydi. Minglab shaxs sifatleri ichida ko'plari rahbarlik uchun qulay va ma'quldir. A.V. Petrovskiy ana shunday ijobiy sifatlardan bir yarim mingini sanab chiqqan. Lekin ularning barchasini umumlashtiradigan, albatta bo'lishi lozim bo'lgan ayrim sifat, qobiliyatlar borki, ular haqida qisqacha to'xtalib o'tmoq lozim.

Avvalo, har qanday rahbarda intellekt – aql-zakovatning ma'lum normasi bo'lishi kerak. Bu norma yaxshi rahbar uchun o'rtadan yuqori bo'lmog'i maqsadga muvofiqdir, chunki geniy darajasidagi intellektga ega bo'lgan rahbar bilan ishlash xodimlar uchun qator noqulayliklarni keltirib chiqarishini, bunday aql-zakovat qolganlarning ijobiy rivojlanishiga psixologik to'siq bo'lishini amaliyot va hayot ko'rsatdi. Rahbardagi o'rtadan yuqori intellekti

qoplab ketadigan yana boshqa muhim sifatlar borki, ular boshqarish ishining samarasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Masalan, rahbarning mustaqil fikrlilik, topqirlik, tashabbuskorlik sifatleri. Chunki, ayrim hollarda xato qilsa ham, rahbar original fikrlar aytib, yo'l-yo'riqlar ko'rsata olishi, har bir aytilgan fikr, qilingan ishga mustaqil baho bera olishi zarur. Chunki mustaqillik shaxs qiyofasini belgilovchi mug'im psixologik xususiyatdir.

Rahbarda mustaqillik bo'lsa, unda o'ziga ishonch ham bo'ladi, bu esa o'z navbatida rahbardagi sub'ektiv talablar darajasining yuqori bo'lishiga olib keladi. Ko'pincha, rahbarning boshqalarga talabchanligi haqida gapiriladi, lekin yaxshi rahbar avvalo o'z-o'ziga nisbatan talabchan bo'lishi kerak. O'z-o'zini baholash va shu asosda boshqalarga nisbatan munosabatlar tizimini ishlab chiqishi muhim bir omildir.

Har qanday rahbar uchun universal, kerak bo'lgan hislatlardan yana biri tom ma'noda "ziyoli" bo'lish yoki, boshqacha qilib aytganda, madaniyatli bo'lishdir. Boshliq o'zidagi madaniyatni avvalo muomalada, odamlar bilan bo'ladigan kundalik muloqotlarda namoyon etmogi lozim. Muomala madaniyati – bu o'rinli, aniq, qiska, samimiy gapirish san'ati va ikkinchi tomondan, suhbatdoshni tinglash qobiliyatidir. Chunki, boshliq bilan xodimlar o'rtasida kelib chiqadigan shaxsiy ziddiyatlarning asosida yo finglay olmaslik yoki gapni to'g'ri yo'sinda gapira olmaslik yotadi. O'zganing o'miga tura olish, uning his-kechinmalariga sherik bo'lish, empatiya hissining borligi, dialoglarda sabr-toqatlilik va boshqalar muloqot madaniyatining muhim tomonlaridir.

Jamoa faoliyatini va o'z faoliyatini rejalashtirish qobiliyati rahbar uchun muhim bo'lgan talablardan biridir. Chunki rejalashtirish asosida o'z-o'zini boshqara olish va boshqalarni tashqi faoliyatini maqsadga muvofi? tarzda boshqara olishni ta'minlovchi muhim psixologik xususiyat yotadi. Rejalashtirish – bu o'ziga xos kelajakni ko'ra olish kobilyati, kelajak obrazi bo'lib, bu narsa shaxsning qanchalik kamol topganligi va maqsadga intiluvchanligining muhim belgisidir. Bu juda murakkab psixologik jarayon bo'lib, u shaxsning o'z diqqatini qanchalik omilona tarzda boshqarishi, uni faqat muhim narsalarga qarata olishi, vaqtdan tez foydalana olish, ortiqcha ishlardan o'zini tiyish, qo'l ostidagilarga, imkoni boricha, ularning qobiliyatlariga qarab ish buyura olish va nihoyat, buyurgan ishni o'z vaqtida nazorat qilib, so'rab olish imkoniyati bilan bog'liq.

O'z ishini puxta rejalashtirish qobiliyatiga ega bo'lgan rahbar realistik tafakkurga ega bo'lmog'i, ya'ni har qanday sharoitlarda ham o'sha muammo yoki ishga taalluqli barcha alternativ variantlardan eng to'g'risi va maqsadga muvofiqini tanlay oladigan, ishni to'g'ri tashkil eta bilgan, ya'ni eng kam kuch va vaqt sarflab ishni uddalay olgan, noaniq yoki tasodifiy vaziyatlarda ham ish

taktikasini to'g'ri yo'lga yo'naltira oladigan odam bo'lishi kerak. Bundan tashqari, yaxshi rahbar uchun oldida turgan ishning har bir alohida detallarigacha tasavvur qilib, uni amalga oshirishning barcha bos'ichlari va vositalarini oldindan ko'ra bilish qobiliyati ham zarur. Shunday taqdirdagina u ishga dadil kirishishi, o'zgalarni o'z ortidan ergashtirishi va ishlab chiqarishda yuksak ko'rsatkichlarga erishishi mumkin.

Yuqorida aytib o'tilgan rahbarlik sifatleri ichida eng muhim, tabiiyki, psixologik mahoratni talab etgani – odamlar bilan ishlash mahoratidir. Jamoa a'zolari bilan samarali ishlash uchun esa boshliq ularning psixologiyasini, har bir a'zo psixologiyasini va guruh psixologiyasini yaxshi bilishi zarur, chunki "o'zgalar psixologiyasini bilish ular ustidan hukmronlikning yagona yo'lidir", – deb yozishgan edi ingliz olimlari. Ijtimoiy psixologiyaning bu borada ham yaxshi vositasi – ijtimoiy psixologik trening uslubi borki, uning yordamida odamlar bilan ishlovchilar jamoani boshqarishning turli usullariga muvaffaqiyatli tarzda tayyorlanmoqdalar.

Amerikalik tadqiqotchi Linda Djuzll o'zining «Industrialno-organizatsionnaya psixologiya» (2001) kitobida ijtimoiy psixologik xodimalardan muhimi bo'lmish liderlik masalasiga o'zining o'ziga xos yondashuvini bayon etgan. U bu muammoni aynan bizning sharoitimizdagi talqini, ya'ni mardlik va jasorat ko'rsatish uchun ochiq maydonlar yo'q bo'lgan sharoitda liderlik xislatlarining namoyon bo'lish xususiyatlarini ochishga urinadi. Uning fikricha, zamonaviy ishlab chiqarishning samaradorligi eng avvalo xodimlar rolini oshirib, liderlamikini aksincha, pastlashtirish, yoki aniqrog'i, kamaytirish hisobiga ro'y beradi. Shundagina rahbarlikda ortiqcha bo'g'inlarni kamaytirish mumkin. Liderning, ya'ni amerikaliklar rahbari lider fenomeni doirasida tasavvur qilishadi, vazifasi – guruhning samarali faoliyat ko'rsatish yo'llarini belgilab berishdir.

Bu kitobda ijtimoiy psixologik nuqtai nazardan ahamiyatli bo'lgan tushunchadan biri bu – «superlider» tushunchasidir. Superlider kim va qachon oddiy lider superga aylanadi? Amerikalik tadqiqotchilar Mants va Simslarning fikricha, eng yaxshi lider – bu «superliderdir». Bu shunday shaxski, u o'z xodimlarining aksariyatini liderlarga, birinchi navbatda o'zlari uchun liderlarga aylantira oladi. Bunday asosiy g'oya shundan iboratki, agar odam eng avvalo o'zi uchun lider bo'la olsa, o'zidagi bu malaka yoki ma'oradni boshqalarga etkaza olsagina, bu odam uchun shunday vaqt-saot etib keladiki, jamoa o'zi mustaqil ishlaydigan, bevosita tepasida turib boshharib turadigan insonga muhtoj bo'lmagan mexanizmga aylanadi. Bu – superliderlikdir.

Oddiy rahbar yoki liderning superliderga aylanishi bir necha bosqichlarda kechadi:

I – o'zi uchun lider bo'lish, ya'ni shaxsiy maqsad va maslaklar, o'zini o'zi kuzatish, o'zini o'zi rag'batlantirish, hayolij repititsiyalar va kognitiv

tahlillar orqali o'zining mustaqil inson, shaxs ekanligini, o'zida boshqalarga o'rnatq bo'luvchi sifatlar borligini anglash;

II – yuqorida qayd etilgan sifatning afzalliklarini o'zgaralarga namoyish etib, uning afzalliklariga ishonira olish;

III – xodimlariga o'zlarida tashabbus va o'ziga ishonchni namoyon etish uchun sharoit yaratish;

IV – mustaqil qobiliyat egalari bo'lgan xodimlarni rahbatlantirish, kerak bo'lganda, faqat konstruktiv tanbehl berish;

V – o'z-o'zini boshqarishga asoslangan ijtimoiy faoliyatni tashkil etish va ishlarga hadeb aralashaverishdan o'zini tiyish.

Demak, samarali boshqaruv aslida ijtimoiy ta'sirni amalga oshirishning eng namoyishkorona ko'rinishidir. Shu ma'noda, liderlik – avval shaxsning o'ziga, so'ngra o'zgaralarga bera oladigan ta'sirida ko'rinadigan fazilatlar majmui, deb ta'riflanadi.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Boshqaruv psixologiyasining predmeti?
2. Boshqaruv psixologiyasining handay vazifalari bor?
3. Boshqaruvning asosiy ijtimoiy-psixologik muammolari nimada namoyon bo'ladi?
4. O'zaro munosabatlarning samarali va destruktiv ko'rinishi qanday?
5. Rahbarlik va liderlik tushunchalarining o'zaro farqi nimada?
6. Qanday liderlik usullari bor?
7. Qanday rahbarlik sifatlarini bilasiz?

Mustaqil ta'lim uchun mavzular:

1. Boshqaruv psixologiyasi va uning predmeti, vazifalari.
2. Boshqaruv psixologiyasi fan sifatida.
3. Boshqaruv psixologiyasining o'rganish sohasi.
4. Boshqaruvning ijtimoiy-psixologik xarakterlari.
5. Boshqaruv faoliyatida qaror qabul qilishning psixologik mexanizmlari. O'zaro munosabatlarning samarali va destruktiv ko'rinishi.
6. Jamoalardagi o'zaro munosabatlar psixologiyasi, jamoa psixologik muhiti va uning boshqaruv qarorlari qabul qilishdagi o'rni,
7. Jamodagi o'zaro munosabatlarning samarali va destruktiv ko'rinishlari.
8. Liderlik psixologiyasi.
9. Liderlik tushunchasi va uning psixologik mohiyati.
10. Liderlik haqidagi nazariyalar va liderlik uslublari.

Avtoritar usul – bunda shaxslararo teng huquqlilik, erkin xatti-harakat qilish, tashabbuskorlik o'z ahamiyatini yo'qotadi.

Adaptatsiya - (lot. «*adapto*» - moslanmoq) – sezgi organlari, ya'ni a'zolari (analizatorlar)ning taassurot kuchiga moslashuvi natijasida muayyan sezgirlikning o'zgarishidan iborat bo'lgan holatdir. Adaptatsiya hodisasida sezgirlik ortishi yoki kamayishi mumkin.

Antipatsiya - (lot. «*anticipatio*» - oldindan sezish, payqash, oldindan idrok qilish, hodisa mohiyatini ochishdagi topqirlik) inson tomonidan faoliyat maqsadini ro'yobga chiqarish rejasini va modelini yaratishda ifodalanadi.

Appersepsiya – idrok jarayonini shaxsning oldingi bilimlari, shaxsiy va ijtimoiy tajribalari, qiziqishlari, motivatsiyasi, ehtiyojlari va odatlari, umuman, ruhiy hayotning barcha mazmuni bilan belgilanishidir.

Aralashtirib yuborish – shaxs xavotiriga sabab bo'lgan ob'ektga nisbatan yuzaga keluvchi hisslarni boshqa ob'ektga yo'naltirilishini ifodalovchi himoya mexanizmi.

Attraksiya - insonni (o'zi bilan o'zga o'rtasidagi munosabatda namoyon bo'ladigan) o'ziga mahliyo qilish, qalbni «jiz» ettiradigan, ongsizlikka taalluqli insonni inson tomonidan idrok qilish hodisasi bo'lib, bu hodisa bir qancha manbalar, qo'zg'atuvchilar, motivlar ta'sirida vujudga keladi.

Affekt - (hissiy portlash, jazava) kishini tez chulg'ab oladigan va shiddat bilan o'tib ketadigan holat bo'lib, ular ongning anchagina darajada o'zgarangligi, xatti-harakatlarni nazorat qilishning buzilganligi, odamning o'zini o'zi idrok qila olmasligi, shuningdek uning butun hayoti va faoliyati o'zgarib qolganligi bilan ajralib turadi.

Biogenetik konsepsiya - inson shaxsining taraqqiyotini biologik omil, ya'ni nasliy omil bilan belgilaydigan yo'nalish.

Biografiya (tarjimai hol) metodi - yordamida inson hayoti, faoliyati, ijodiyoti to'g'risidagi og'zaki va yozma ma'lumotlar o'rganiladi. Bunda kishilarning tarjimai holi, kundaligi, xatlari, esdaliklari, o'zgaralari ijodiga bergan baholari, tanbehlari, taqrizlari alohida o'rin egallaydi.

Boshqaruv psixologiyasi – jamiyatda faoliyat ko'rsatayotgan shaxslar, guruhlar va jamoalar o'rtasidagi ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan nazorat, baholash, munosabat qonuniyatlarini, rahbar faoliyati va xarakteri, qobiliyati xususiyatlarini tadqiq qiladigan ijtimoiy psixologiyaning sohasi.

Gallyusinatiya - yaqqol voqeyelikdagi idrok va hodisalarning tana analizatorlariga bevosita ta'sir etmasdan inson ongida turli obrazlar-ning (ovozlarning eshutilishi, sharpalarning sezilishi) xayolan, fikran paydo bo'lishidan iborat idrokning psixopatologik (ruhiy xastalik) hodisasi.

Guruh – ma'lum ijtimoiy faoliyat maqsadlar asosida to'plangan, muloqot ehtiyojlari qondiriladigan insonlar uyushmasi bo'lib, bunda ikkita asosiy mezon mavjud, ya'ni biror faoliyatning bo'lishi (muloqot, o'yin, o'qish, mehnat) hamda u yerda odamlarning o'zaro muloqoti uchun imkoniyatning mavjudligi kuzatiladi.

Demokratik usul – bu usulda suhbatlar, munozaralar, mulohazalar o'zaro tenglik, o'zaro hurmat ruhiga bo'ysundirilib, ta'sir o'tkazish sohalari yashiringan holda bo'ladi.

Depressiya – bu hozirgi kunga va kelajakka ishonchsizlik bilan qarash, doimo past kayfiyatda bo'lish, horg'inlik, hych narsa qilishga intilmaslik va fikrlashning sustlashuvidir. Depressiya (tushkunlik) – bu siqilish, ma'yuslik va g'amginlik kayfiyatidir.

Determinizm prinsipi – (lot. *determinata-belgilayman degan ma'noni bildiradi*) tabiat va jamiyat hodisalari, xususan, psixik hodisalarning ob'ektiv sabablar bilan belgilanishi haqidagi ta'limotdir.

Diqqat – inson his-tuyg'usini va ongini bir nuqtaga to'plab, muayyan bir ob'ektga faol qaratilishiga aytiladi.

Diqqatsizlik – diqqatni ob'ektga yo'naltira olmaslik va to'play olmaslik, atrofda kishilarga nisbatan e'tiborsizlik yoki iltifotsizlikdan iborat shaxsning salbiy xarakter xislatidir.

Differensial psixologiya – shaxslar o'rtasidagi tafovut va farqlarni hamda guruh a'zolari orasidagi nomutanosibliklarning psixologik jihatlarini, ya'ni psixologik farqlarini o'rganuvchi psixologiya sohasi.

Yosh psixologiyasi – shaxsning psixik rivojlanish qonuniyatlarini inson tug'ilishidan to umrining oxirigacha bo'lgan davrini, ya'ni ontogenezni o'rganadigan psixologiya sohasi.

Identifikatsiya – (aynan o'xshatish) kishi hamkorlikda harakat qilish vaziyatida sherigi o'rniga o'zini qo'yib ko'rib, uning ichki holati, niyatlari, o'y-fikrlari, xohish-istaklari haqida taxmin qilinadi, bunda ular anglanilgan yoki anglanilmagan bo'lishi mumkin.

Idrok – sezgilarga nisbatan murakkab va mazmundor psixik jarayon bo'lib, barcha ruhiy holatlar, hodisalar, xususiyatlar, xossalar va inson ongining yaxlit mazmuni, egallangan bilimlar, tajribalar, ko'nikmalar bir davrning o'zida namoyon bo'ladi va bevosita aks ettirishda ishtirok etadi.

Ijtimoiylashuv – inson tomonidan ijtimoiy tajribani egallash, hayot – faoliyat jarayonida uni faol tarzda o'zlashtirish jarayoni bo'lib, bunda har bir shaxsning jamiyatga qo'shilishi, uning me'yorlari, talablari, kutishlari va ta'sirini qabul qilgan holda, har bir harakati va muomalasida uni ko'rsatishi va kerak bo'lsa, shu ijtimoiy tajribasi bilan o'z navbatida o'zgalarga ta'sirini o'tkaza olishdek murakkab jarayondir.

Izolyasiya – uyat, aybdorlik, shodlik, qayg'u bilan bog'liq tasavvurlar bo'lib, shaxs ular bilan bog'liq affektlardan uzoqlashtiriladi (ajratiladi).

Illyuziya – hissiy a'zolarimizga bevosita ta'sir etib turgan narsa va hodisalarni noto'g'ri (noadekvat), yanglish, xato idrok qilishdan iborat jarayonning noyob hodisasi.

Ingibitsiya – shaxs faoliyati samaradorligiga o'zgalarning borligi tufayli salbiy ta'sir ko'rsatish, masalan, ma'nosiz so'zlarni yodlashda, labirintli masalalarni yechishda, ko'paytirish bilan bog'liq, murakkab arifmetik misollarni bajarishda boshqa odamlarning aralashuvi va ularning borligi faqat fikrlash jarayoniga tormozlovchi salbiy ta'sir ko'rsatishi tushuniladi.

Intellekt – (lot. *intellectus*) – tushunish, bilish, «*intellectum*» – aql) aql-idrokning shunday bo'lagiki, uni o'lchab, o'zgartirib, rivojlantirib boriladi. Bu intellekt va u bilan bog'liq qobiliyatlar ijtimoiy xarakterga ega ekanligidan darak beradi. Qobiliyatlar va intellektga bevosita tashqi muhit, undagi insoniy munosabatlar, yashash davri ta'sir ko'rsatadi.

Intellekt karta – (ing. *mind maps*) taniqli ingliz psixologi, xotira va ijodiy tafakkurni rivojlantiruvchi metodikalar muallifi Toni Byuzen tomonidan ishlab chiqilgan.

Intellektualizatsiya – mavhum, intellektual terminlarni muhokama qilishdan o'zini uzoqlashtirish sifatida tazyiq soluvchi emotsional tang vaziyatdan chiqib ketish uchun o'ziga xos urinishdir.

Interioreseptiv sezgilar – ichki tana a'zolari holatlarini in'ikos etuvchi hamda uning retseptorlari ichki tana a'zolarida, to'qimalarida joylashgan bo'ladi.

Interiorizatsiya – tashqi faoliyat asosida psixik jarayonlarga o'tish ro'y berishidir.

Intravertlik – timsollarga, tasavvurlarga, o'tmish hamda kelajak bilan uyg'unlashgan mulohazalarga taalluqligiga asoslangan holda munosabat ifodasidir.

Iroda – shaxsning oldiga qo'yilgan maqsadlarga erishishda qiyinchiliklarni yengib o'tishga qaratilgan faoliyati va xulq-atvorini ongli ravishda tashkil qilishi va o'z-o'zini boshqarishidir.

Irodaviy harakatlar – oldindan ko'zlangan maqsadga erishish uchun ongli ravishda amalga oshiriladigan va rejalashtirilgan harakatlardir.

Kayfiyat – ancha vaqt davomida kishining butun xatti-harakatiga tus berib turadigan umumiy hissiy holatni ifoda etib, u aniq bir hissiyotga aloqador bo'lmaydi.

Kauzal atributsiya – kishining o'z xatti-harakatlari sabablarini, niyatlarini, o'y-fikrlarini, xulq-atvor motivlarini boshqa kishilarga to'nkash orqali tushuntirishidir.

Kognitiv dissonans - insonni yangi bilimlarni izlashga, muammolar yechimini topishga chorlovchi hayajonlanish, ajablanish, qiziqish, hayratlanish, lol qolish, shubhalanish kabi intellektual hisslarning paydo bo'lishi.

Konformizm — shaxsning guruh yoki ko'pchilikning ta'siriga berilishini tushuntiruvchi xodisadir.

Kuzatish metodi - tabiiy metodlar jumlasiga kirib, bunda tashqi kuzatuv mohiyatan kuzatiluvchi xulq-atvorini bevosita tashqaridan turib kuzatish orqali ma'lumotlar to'plash usuli bo'lsa, o'z-o'zini kuzatish esa odam o'zida kechayotgan biror o'zgarish yoki hodisani o'zi o'rganish maqsadida ma'lumotlar to'plashdir.

Qobiliyat - shaxs faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish sharti hisoblangan, bilim, ko'nikma va malakalarni egallash dinamikasida yuzaga chiqadigan farqlarda namoyon bo'ladigan individual-psixologik xususiyatlarga aytiladi.

Laboratoriya eksperimenti - tekshiruvchi kishi tekshiriladigan psixik hodisani qachon kerak bo'lsa, o'sha vaqtda ataylab vujudga keltirilib, tekshirilayotgan psixik hodisa tabiiy sharoitda birgalikda sodir bo'ladigan boshqa psixik hodisalar eksperiment mobaynida o'zgartirilishi, boshqa psixik hodisalar bilan muayyan bir tarzda bog'lanishi, kuchi, tezligi, hajmi va boshqa shu kabi jihatlari o'lchab ko'rilishi mumkin.

Layoqat - qobiliyatlara taraqqiy etishining dastlabki tabiiy sharti sifatida namoyon bo'ladigan miya tuzilishining, sezgi a'zolari va harakatlarning morfologik hamda funksional xususiyatlari.

Liberal usuli - bu usul muloqot jarayonida murosasiz, ko'ngilchan bo'lish, tashqi ko'rinishdan iliq psixologik iqlimni, guruhiy moslikni o'zida aks ettirgandek tuyulsada, har qanday vaziyatni til topib hal qilishga, prinsipiiallikdan uzoqlashishga, subutsizlikka olib keladi.

Lider - guruhning shunday a'zosiki, u go'yoki barcha guruhiy jarayonlarning boshida turadi va o'z xulqi, qobiliyati bilan o'zgalarga ta'sir qila oladi.

Manipulyasiya - muloqot jarayonidagi manipulyasiyada suhbatdoshga ta'sir ko'rsatib, uning xohishiga qarshi ravishda o'z fikriga ko'ndiriladi. Bunda biryozqlama ustunlikka erishiladi.

Maxsus psixologiya - normal psixik rivojlanmagan tug'ma yoki keyinchalik orttirilgan nuqsonlar, defektlar ta'siri ostidagi insonlarning psixologiyasini tadqiq qilish sohasi.

Mehnat psixologiyasi - insonning mehnatga munosabati, mehnat faoliyatining qonuniyatlari va rivojlanishini tadqiq qiladigan psixologiya sohasi.

Mehnat faoliyati - tabiiy ehtiyojlarga asoslangan faoliyat bo'lib, uning maqsadi albatta biror moddiy yoki ma'naviy ne'matlarni yaratish, jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shishdir.

Modellashtirish metodi - kuzatish, so'roq, eksperiment yoki boshqa usullar yordamida olingan natijalar qoniqtirmagan vaziyatda qo'llaniladi. Bunda o'rganilayotgan hodisaning umumiy xossasi yoki asosiy parametrlari modellashtirilib, o'sha model asosida tadqiqotchini qiziqtirgan jihat o'rganiladi va xulosalar chiqariladi.

Muloqot - odamlar o'rtasida birgalikda faoliyat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan bog'lanishlar rivojlanishining ko'p qirrali jarayonidir.

Muloqot faoliyati - shaxsning individual rivojlanishi jarayonida namoyon bo'ladigan birlamchi faoliyat turlaridan biri bo'lib, u insondagi kuchli ehtiyojlardan biri - inson bo'lish, odamlarga o'xshab gapirish, ularni tushunish, sevish, o'zaro munosabatlarni muvofiqlashti-rishga qaratilgan ehtiyojlaridan kelib chiqadi.

Muloqotning interaktiv jihati - munosabatga kirishuvchilarning nutq jarayonida axborotni faqat so'zlar bilan emas, balki *xatti-harakatlar* bilan ham almashinuvi nazarda tutiladi.

Muloqotning kommunikativ jihati - muloqotda hamkorlikdagi faoliyat ko'rsatuvchilar o'rtasida axborot ayirboshlashni o'z ichiga olib, ma'lumot almashinuvi sifatida ta'riflanadi.

Muloqotning perseptiv jihati - munosabatga kirishuvchilarning bir-birlarini idrok eta olishlari tushuniladi.

Nutq - inson til yordami bilan boshqa odamlarga o'tmish, hozirgi zamon va kelajakka oid narsalar, voqyelik yuzasidan axborot, xabar, ma'lumot berishi.

Ong va faoliyat birligi tamoyili - psixologiya fanida ong bilan faoliyat bir-biriga qarama-qarshi voqyelik emas, ular aynan bir-biriga o'xshash ham emas, biroq ular bir butunlikni tashkil etishi bilan izohlanadi.

Ongsizlik - shunday holatki, bunda odam ixtiyorsiz tarzda, o'zi bilmasdan yoki anglamasdan turli xatti-harakatlarni amalga oshiradi. Bu xatti-harakatlar avtomatik tarzda kundalik hayotda, uyquda, ya'ni tush ko'rayotganda yoki gipnotik holatlarda kuzatilib turadi. Ongsizlik, tabiiyki, ongga bog'liq bo'lmagan holat.

Oreol effekti - shaxs muloqot jarayonida o'z ob'ektiga nisbatan ijobiy taassurotga ega bo'lsa, sub'ektga ma'lum bo'lmagan fazilatlarini ijobiy baholashga yoki aksincha, ob'ekt salbiy taassurot qoldirgan bo'lsa, sub'ektga ma'lum bo'lmagan xislatlarini salbiy baholashdir.

Parapsixologiya - hozirgi zamon fanining chegarasidan tashqari-dagi, tushuntirish qiyin bo'lgan ekstrosensorika - o'ta sezuvchanlik, telepatiya - fikrni masofaga uzatish, kelajakka bashorat qilish va shu kabi psixik hodisalarni o'rganadi.

Parishonlik – diqqatni ma'lum bir ob'ektga qarata olmaslikdan iborat salbiy xususiyat.

Pedagogik psixologiya – tarbiya va ta'lim muammolarini hamda shaxsning maqsadga muvofiq rivojlanishi, bilish faoliyatining va shaxsda ijtimoiy ijobiy sifatlarni tarbiyalashning psixologik muammolarini o'rganadi.

Proeksiya - individ o'zining nojoiz istaklari va qilmishlarini boshqa odamga tegishli deb hisoblaydigan xavfli himoya mexanizmi hisoblanadi.

Proprioretseptiv sezgilar - tana va gavdaning holati hamda harakatlari haqida ma'lumot (axborot, xabar) beruvchi, muskullarda, bog'lovchi paylarda, mushaklarda joylashgan bo'ladi.

Psixogenetik yondashish - biogenetik, sosiogenetik omillarning qiymatini kamsitmaydi, balki psixik jarayonlar taraqqiyotini birinchi darajali ahamiyatga ega, deb hisoblaydi.

Psixika - yuksak darajada tashkil topgan materiyaning xususiyati va miyaning mahsuli bo'lib, u borliqni sezgi organlari orqali insonning miyasiga bevosita ta'sir etishi asosida vujudga kelib, bilish jarayonlarida, shaxsning xususiyati va holatlarida, diqqati, his-tuyg'ulari, xarakter xislatlarida, qiziqishi hamda ehtiyojlarida o'z ifodasini topadi.

Psixika va ongning faoliyatda rivojlanishi tamoyili - psixik taraqqiyot insonning mehnat faoliyatiga, ta'limga, o'yin va muloqot faoliyatiga bog'liq ekanligini aniqlashda foydalaniladi.

Psixologik himoya – sub'ektning mavjud ijobiy holatni saqlashga yunaltilgan jarayon va mexanizmlar tizimidir.

Psixologiya - yunoncha psychelogos so'zi "jon", "ruh" haqidagi fan, ta'limot degan ma'noni anglatadi.

Psixofiziologiya – odamlarning individual-psixologik va psixofiziologik farqlarini tadqiq qiluvchi, psixikaning genetikasini o'rganuvchi psixologiya sohasi.

Rad etish – individning atrofdagilar tufayli unga tahdid solayotgan kechinmalardan, ularning mavjudligidan o'zini chetga tortish yo'li bilan himoyalashida namoyon bo'ladigan himoya mexanizmi.

Ratsionalizatsiya - individga o'z muvaffaqiyatsizliklarini haqiqatga yaqinroq oqlab izohlashga imkon beradigan himoya mexanizmi sanaladi.

Reaktiv qurilma (reaksiya shakllanishi) - himoya mexanizmi bir xil impuls va hissiyotlarni cheklash, ularga qarama qarshi impuls va hissiyotlarni kuchaytirish yuli bilan xavotirlanish darajasini pasaytirishga imkon beradi.

Reaktivlik - aynan bir xil kuch bilan ta'sir etuvchi tashqi va ichki taassurotlarga shaxs qanday kuch bilan emotsional reaksiya qilishiga qarab munosabat bildiriladi va uning yorqin ro'yobga chiqishi – emotsionallik, ta'sirchanlikda ifodalanadi.

Reaksiya tempi – turli xususiyatli psixik reaksiyalar va jarayonlarning kechish tezligiga, binobarin, harakat tezligiga, nutq sur'atiga, farosatlilikka, aql tezligiga asoslanib xulosa chiqarishdir.

Regressiya – individning stressni bartaraf qilishga urinishda bir muncha soddaroq usullardan foydalanishi. Masalan, tang vaziyatlarda bolalikka qaytishi yoki o'zini yosh boladek tutishidir.

Repressiya (siqib chiqarish) - noxush fikrlarni ong darajasiga yetib borishiga to'sqinlik qiladigan himoya mexanizmi. Bunda ong uchun iztirobli bo'lgan mazmun birmuncha yengilroq narsaga ko'chadi.

Referent guruh - shunday odamlar guruhiki, ular har bir shaxs uchun ideal insonlar bo'ladiki, shaxs ularning niyatlari, qiziqishlari, harakat normalari, g'oya va fikrlariga ergashishga tayyor bo'ladi, harakatlaridan andoza oladi, ularga taqlid qiladi.

Refleksiya - kishining idrok etish sub'ekti sifatida o'ziga nisbatan sherigining munosabatini anglab yetishidir.

Ruhlanish - muayyan maqsadga, faoliyatga katta kuch va istak bilan intilishdan iborat bo'lgan holat.

Salomatlik psixologiyasi - psixogigiena va psixoprofilaktika, turmush darajasining infratuzilmasini oshirish masalalari bilan shug'ullanadi.

Samotizatsiya – qiyin vaziyatdan chiqib ketish uchun o'zini bemor sifatida ko'rsatish, yoki sog'ligi yomonligi bilan fiksatsiya qilish tushuniladi.

Sezgi - oddiy psixik bilish jarayoni bo'lib, moddiy qo'zg'atuvchilarning muayyan retseptorlarga bevosita ta'sir etishi orqali real olamdagi narsa va hodisalarning ayrim xususiyatlarini va shuning bilan birga, inson organizmining (uning a'zolarining) ichki holatlarini alohida-alohida aks ettirishdan iborat bilishning dastlabki bosqichidir.

Senzitivlik - (lot. «sensus» - sezish, his qilish) – insonda bironta psixik reaksiyani hosil qilish uchun zarur bo'lgan o'ta kuchsiz tashqi taassurot kuchiga qarab mulohaza yuritiladi jumladan, sezgilarning paydo bo'lishi uchun qo'zg'ovchining ozgina kuchi (ularning quyi chegarasi), ehtiyojlar qondirilmasligining sezilar-sezilmas darajasining (shaxsga ruhiy azob beruvchi) mujassamlashishi tushuniladi.

Sensibilizatsiya - analizatorlarning o'zaro munosabati va mashq qilish natijasida sezgirlikning kuchayishi.

Sinesteziya - (yunon. «sinesteziya» - birgalikda sezish) qo'zg'atuvchining birin-ketin analizatorga ta'siri bilan analizatorlarga xos sezgining paydo bo'lishi.

Sotsiogenetik konsepsiya - shaxs taraqqiyotini uning atrofidagi ijtimoiy muhitga bog'lab tushuntiradi. Bunga ko'ra, «odam ijtimoiy muhit nusxasidir».

Sotsiometrik test - kichik guruh a'zolari o'rtasidagi bevosita emotsional munosabatlarni o'rganish va ularning darajasini o'lchashda qo'llanilib, unga amerikalik sotsiolog Djon Moreno asos solgan.

Stereotiplashtirish - kishilarga, ijtimoiy guruh a'zolariga nisbatan berilgan xislatlarni hozirgacha ma'lum bo'lgan ijtimoiy qo'liplarga mos tarzda ommaviy tarzda yoyish, tavsif berish va baholashdir.

Stress - (inglizchada *stress* – *tazyiq ko'rsatish*, *zo'riqish degan so'zdan olingan*) psixologik ta'rifga ko'ra, affektiv holatga yaqin turadigan, lekin boshdan kechirilishining davomlilikiga ko'ra kayfiyatlarga yaqin bo'lgan his-tuyg'ular boshdan kechirilishining alohida shakli ya'ni, hissiy zo'riqishdir.

Sublimatsiya - idning impulslari ijtimoiy ma'qul faollikka yo'naltiriladigan o'rin almashtirish shaklidir.

So'rov metodi - psixologiyaning barcha tarmoqlarida birlamchi ma'lumotlar to'plashning an'anaviy usullaridan biri bo'lib, unda sinaluvchi tekshiruvchining savollariga javob berishi kerak bo'ladi.

Tabiiy eksperiment - kuzatish va laboratoriya eksperimenti metodi o'rtasida turadi. Tabiiy eksperimentda tekshiruvchi kishining o'zi tekshiriladigan kishida yoki kishilarda psixik jarayon (masalan, xotira, diqqat, tasavvur) hosil qilish yoki tekshiriladigan kishilarda individual xususiyatlarni namoyon etish uchun maxsus sharoit tug'diriladi.

Talant - (yunon. «*talanton*») - *qimmatbaho, noyob narsa, irsiy, tabiiy xislat*) muayyan faoliyatning muvaffaqiyatli va ijodiy ravishda bajarilishini ta'minlaydigan qobiliyat hamda iste'dodlar majmuasi-dir.

Tafakkur - atrof-muhitdagi voqeyelikni nutq yordamida bilvosita, umumlashgan holda aks ettiruvchi psixik jarayon bo'lib, u ijtimoiy sababiy ichki bog'lanishlarni anglashga, yangilik ochishga va bashorat qilishga yo'naltirilgan aqliy faoliyatdir. Qachonki muammoli vaziyat paydo bo'lganda tafakkur ishga tushadi.

Temperament (lot. «*temperamentum*») - *aralashma*) – shaxs faoliyati va xulqining dinamik (o'zgaruvchan) va emotsional-hissiy tomonlarini xarakterlovchi, biologik shartlashgan individual xususiyatlar majmuidir.

Test metodi - (ing. *sinash, tekshirish*) biror o'rganilayotgan hodisa xususida ham sifat, ham miqdor xarakteristikalarini olish, hamda ularni ko'pchilikda qayta-qayta sinash va ma'lumotlarni korrelyasion analiz orqali ishonchlilikni tekshirishda ham ishlatiladi.

Tibbiyot psixologiyasi – bemorlarning davolanishi, gigiena, profilaktika, diagnostika jihatlarini tadqiq qiluvchi psixologiya sohasi bo'lib, unda tadqiqotlar tizimiga kasalliklarning kechishi, ularning shaxs psixologiyasiga ta'siri qonuniyatlari, insonning kasallikdan sog'ayishiga mikroijtimoiy guruh ta'siri o'rganiladi.

O'yin faoliyati – bevosita biror moddiy yoki ma'naviy ne'matlar yaratishni nazarda tutmasada, lekin uning jarayonida jamiyatdagi murakkab va xilma-xil faoliyat normalari, harakatlarning simvolik andozalari taqlid qilish orqali bola tomonidan o'zlashtiriladigan faoliyatdir.

O'qish faoliyati - shaxs kamolotida muhim ahamiyatga ega bo'lib, uning jarayonida bilimlar, malaka va turli ko'nikmalar o'zlashtiriladi.

Umumiy psixologiya – umumiy psixologik qonuniyatlar, mexanizmlar, murakkab ichki bog'lanishlar, nazariy va metodologik tamoyillar, ilmiy tadqiqot metodlari, psixikaning filo va ontogenetik o'zgarishlarini, ilmiy tushunchalar va kategoriyalar, bilish jarayonlarini amaliy va nazariy jihatdan o'rganadigan fan sohasidir.

Faoliyat mahsulini tahlil qilish metodi - inson xotirasi, tafakkuri, qobiliyati va xayolining xususiyatlarini aniqlash maqsadida psixologiyada keng qo'llaniladi.

Faollik – inson qandaydir faollik darajasi bilan tashqi olamga ta'sir etishi va maqsadlarini amalga oshirishida ob'ektiv hamda sub'ektiv qarama-qarshiliklarni faollik bilan yengishidir.

Fasilitatsiya - inglizcha «*facilitate*» so'zidan olingan bo'lib, “yengillashtirmoq” degan ma'noni anglatib, o'zgalarning borligi tufayli shaxs faolligining ortishi, ishining yengillashuvi va samaradorligi tushuniladi.

Frustratsiya - doimiy stress oqibatida maqsadning yo'q bo'lib qolishi, rejaning izdan chiqish holatidir.

Xayol - inson ijodiy faoliyatining tarkibiy qismi sifatida talqin qilinadi, u tizimiy xususiyatli xatti-harakatning oraliq va yakuniy mahsullari orqali aks etadi, muammoli vaziyatda noaniqlik, noma'lumlik alomatlari vujudga kelsa, u holda faoliyat rejasini qayta ko'rib chiqishni ta'minlash imkoniyatiga ega.

Xarakter – ijtimoiy muhit ta'sirida tarkib topib, shaxsning atrofda voqeyelikka va o'z-o'ziga bo'lgan munosabatida ifodalanadigan, muayyan sharoitda tipik xulq-atvor usullarini belgilab beradigan barqaror individual psixik xususiyatlar yig'indisidir.

Xotira - individning o'z tajribasini esda olib qolishi (fiksatsiya), esda saqlashi (retensiya) va keyinchalik uni yana esga tushirishi (reproduksiya) yoki unutishi jarayoni.

His-tuyg'u – kishining o'z hayotida nimalar yuz berayotganiga, nimalarni bilib olayotganiga yoki nima bilan mashg'ul bo'layotganiga nisbatan o'zicha turli xil shaklda bildiradigan ichki munosabatidir.

Shaxs yo'nalganligi - psixologiyada ijtimoiylashuv jarayonida shaxs faoliyatini yo'naltirib turadigan hamda real vaziyatlarga nisbatan turg'un va barqaror motivlar majmuiga ega bo'lish deb, ta'riflanadi.

Shaxs - muayyan jamiyatda yashovchi faoliyatning biror turi bilan shug'ullanuvchi, kishilar bilan normal til orqali munosabatga kirishuvchi ongli individdir.

Ekzopsixika - shaxsning tashqi muhitga nisbatan munosabati, shaxsga qarama-qarshi bo'lgan barcha jihatlari, shaxslararo va ob'ektiv munosabati ifodalanaadi.

Eksperimental psixologiya - eksperimental metodlar yordamida psixik hodisalarni tadqiq qilishning umumiy sohasi. XIX asrning o'rtalarida psixologik hodisalar ustidan ilk bor amaliy eksperimental-psixologik tadqiqotlar o'tkazilgan. V.Vundt eksperimental psixologiya-ning fan sifatida ajralib chiqishiga o'zining katta hissasini qo'shgan.

Eksterioreseptiv sezgilar - tashqi muhitdagi narsa va hodisalarning xususiyatlarini aks ettirishga moslashgan hamda retseptorlari tananing sirtqi qismida joylashgan bo'ladi.

Eksteriorizatsiya - aqlda shakllangan g'oyalarni bevosita tashqi harakatlarga yoki tashqi faoliyatga ko'chirilishidir.

Ekstravertlik - shaxs faoliyati va reaksiyasi ko'p jihatdan favquloddagi tashqi taassurotlarga asoslangan holda munosabat ifodasidir.

Emotsiyalar - «hissiyot» («emotsiya») va «his-tuyg'u» so'zlari ko'pincha sinonimlar sifatida qo'llaniladi. «Emotsiya» so'zini o'zbek tiliga aniq tarjima qilinganda u ruhiy hayajonlanish, ruhiy harakatlanish degan ma'noni anglatadi.

Endopsixika - shaxs psixik tuzilishining ichki qismlari sifatida psixik elementlar va funksiyalarning o'zaro bog'liqligida aks etadi.

Ehtiros - uzoq davom etadigan va barqaror bo'lgan emotsional holatdir. Kayfiyatdan ehtirosning farqi shundaki, ehtiros muayyan harakatga, muayyan ob'ektga muttasil intilishda kuchli sur'atda ifodalangan holatdir. Bular - ijobiy ehtiroslarga misol bo'lib, odamni ulkan ijodiy faoliyat yo'liga yetaklovchi kuchdir.

1. O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. - T.: O'zbekiston, 1997.

2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. T-2008.

3. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. 2017 y, 104 bet, O'zbekiston matbuot va axborot agentligining "O'zbekiston" nashriyot matbaa ijodiy uyi.

4. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. 2017 y, 488 bet, O'zbekiston matbuot va axborot agentligining "O'zbekiston" nashriyot matbaa ijodiy uyi.

5. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. 2016 y, 56 bet, O'zbekiston matbuot va axborot agentligining "O'zbekiston" nashriyot matbaa ijodiy uyi.

6. Abdullaeva Sh. A. Pedagogika.- Toshkent: Fan va axborot texnologiyalari, 2012.

7. Azizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma. - T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jang'armasi nashriyoti, 2006.

8. Bern E. Игры, в которые играют люди. Люди, которые играют в игры. / Erik Bern; [per. s angl. A.Gruzberga]. -M.: Eksmo, 2012.

9. Bordovskaya N.V., Rozum S.I. Psixologiya i pedagogika. Uchebnik dlya vuzov Piter, 2016.

10. Verderber R., Verderber K. Psixologiya obsheniya. - SPb.: praysm - yeVROZNAK, 2003.

11. Davletshin M.G., To'ychieva S.M. Umumiy psixologiya T.:TDPU, 2002.

12. Ziyamuhamedov B. "Pedagogika" Toshkent. "Tamaddun" nashriyoti, 2014.

13. Ibodullaev Z. Tibbiyot psixologiyasi. Toshkent. "Yangi asr avlodi" nashriyoti, 2009.

14. Ibragimov X.I., Abdullaeva Sh.A. Pedagogika nazariyasi. / Darslik. - Toshkent: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2008.

15. Ibragimov X.I., Yo'ldoshev U.A., Bobomirzaev X. Pedagogik psixologiya. /O'quv qo'llanma. - Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2007.

16. Ivanov P.I., Zufarova M. ye. Umumiy psixologiya. - T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2008.

17. Ilin ye.P. Psixologiya obsheniya i mejlichnostnyh otnosheniy. - SPb.: PITeR, 2009.

18. Iskandarova Sh.T., Shoyimova Sh.S., Mirzaeva N.A. Psixologiya. Darslik – Toshkent, 2010.
19. Iskandarova Sh.T., Shoyimova Sh.S., Shukurova M.A. Psixik-bilish jarayonlari. O'quv-uslubiy qo'llanma. T., 2010.
20. Karimova V. M. Psixologiya. O'quv qo'llanma. – T., 2002.
21. Karimova V., Akramova F. Psixologiya. Ma'ruzalar matni. – T., 2000.
22. Karimova V.M. Psixologiya. T.: Sharq, 2000.
23. Kudryavaya N. V., ye.M.Ukolova, Smirnova N. B., Voloshina ye. A., Zorin K. V. (Pod obshchey redaksiyey: N. V. Kudryavaya) Pedagogika v meditsine. M.: Izdatelskiy sentr «Akademiya», 2012.
24. Kelvin S.Koll, Gardner Lindsey. Teoriya lichnosti / per. S angl. I.B.Grinshpun. – 2-ye izd. – M.: Psixoterapiya, 2008.
25. Mavlonova R. va boshq. Pedagogika. – Toshkent, «O'qituvchi», 2001.
26. Nемов R.S. Prakticheskaya psixologiya. Vlados, 2002.
27. Nемов R.S. Prakticheskaya psixologiya. Poznanie sebya: Vliyanie Na Lyudey: Posobie Dlya Uch-Sya. - M.: Gumanit. Izd.Sentr Vlados, 2003.
28. Nемов R.S. Psixologiya. M.: Vlados, 2003. 1-2 t.
29. Novgorodseva I.V. Pedagogika v meditsine. Izdatelstvo «FLINTA», 2017.
30. Oila psixologiyasi / Mualliflar: G'.B.Shoumarov va boshqalar. Prof. G'.B.Shoumarov tahriri ostida. – Toshkent: "Sharq" NMAK, 2008.
31. Ochilov M., Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi: "Nasaf" nashriyoti. 2000.
32. Pedagogika. O'quv qo'llanma Sh.A.Abdullaeva, D.A.Axatova, B.B.Sobirov, S.S.Sayitov. – T.: Fan, 2004.
33. Piz A., Piz B. Novyy telodvijeniy. Rasshirennaya versiya. – M.: Eksmo, 2010.
34. Podlasyy I.P. "Pedagogika" 2 tomlik kitob. Moskva. Vlados. 1999.
35. Rean A.A., Bordovskaya N.V., Rozum S.I. Psixologiya i pedagogika. Uchebnik dlya vuzov. - SPb.: Piter, 2002.
36. Umarov B.M., Raxmanova D.R. Osnovy uchebno-psixologicheskoy deyatel'nosti studentov vuzov. Izd. im. G.Gulyama, Tashkent, 2008.
37. Umarov B.M. Psixologiya (2-nashr. Nopedagogik, nopsixologik oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun dasrlik). "Voriz" nashriyoti, - Toshkent, 2012.
38. Umumiy psixologiya. A.V.Petrovskiy tahriri ostida. – T.: «O'qituvchi», 1992.
39. Freyjdjer R., Feydimen D. Bolshaya kniga psixologii. Lichnost. Teorii, uprajneniya, eksperimenty. /per. s angl.-SPb.:Praym-yeVROZNAK. 2008.
40. Xaydarov F.I., Xalilova N.I. Umumiy psixologiya. –T.: TDPU, 2010.

41. G'oziev E. Yosh davrlari psixologiyasi. –Toshkent: O'qituvchi, 2008. Uchinchi nashr.
42. G'oziev E.G'. Umumiy psixologiya. –T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati. 2010.
43. G'oziev E.G. Umumiy psixologiya. Toshkent. 2002. 1-2 Kitob.
44. Hayitov O.E., Lutfullaeva N.X. Psixodiagnostika va amaliy psixologiya. – T. 2005.
45. Chaldini R. Kak nauchitsya ubejdat i dobivatsya uspexa / Robert Chaldini; [per. s angl. O.yepimaxova]. –M.: Eksmo, 2010.
46. Shoyimova Sh.S. Muloqot psixologiyasi. O'quv-uslubiy qo'llanma «ZAMON POLIGRAF»OK Toshkent, 2017.
47. Shoyimova Sh.S. Shaxs psixologiyasi. O'quv qo'llanma «LESSON PRESS» Toshkent, 2017.
48. Myers David G., DeWall C. Nathan. Psychology. Hardcover, Revised. 2015.
49. Davis S. F. Handbook of Research. Methods in Experimental Psychology. Wiley-Blackwell, 2003.
50. Criteria for High-Quality Assessment. Stanford Center for Opportunity Policy in Education. Chicago. 2013.
51. Dominic Upton, Annie Trapp. Teaching psychology in higher education. Copyright © 2010 Blackwell Publishing Ltd . 328 pages.
52. Nine Principles of Good Practice for Assessing Student Learning. Authors: American Association for Higher Education (AAHE), 2014.
53. Syed Amin Tabish. Assessment Methods in Medical Education. 2012.
54. Tony Buzan. Mind Map mastery. The complete guide to leering and using the most powerful thinking tool in the Inverse. 2018 years. 233 page.

Internet saytlari:

1. www.edu.uz – OO'MTV rasmiy sayti
2. www.ziyonet.uz – ta'limiy portal
3. www.pedagog.uz – TDPU rasmiy sayti
4. www.natlib.uz - Alisher Navoiy nomli O'zbekiston Milliy kutubxonasi sayti.
5. www.istedod.uz – O'zR Prezidenti huzuridagi "Iste'dod" jamg'armasi portali.
6. www.thelearningweb.net – ta'lim tarmog'i.
7. www.inetlibrary.com. – Internet kutubxona
8. www.glef.org. - Djordj Lukasning Ta'limning fondi.
9. www.newhorizontsofedu.org. - Ta'limning yangi ufqlari.
10. www.teacherswithoutborders.org. - Chegarasiz o'qituvchilar.
11. www.thelearningweb.net. - Ta'lim tarmog'i.

MUNDARIJA:

KIRISH	3
BIRINCPHI BO'LIM. PEDAGOGIKA	5
PEDAGOGIK FAOLIYAT: NAZARIYA VA AMALIYOT BIR-LIGI, PEDAGOGIKANING DINIY TA'LIMDAGI O'RNI	5
1.1. Pedagogika fani nima haqida bahs qiladi?.....	5
1.2. Pedagogik kasbi, uning paydo bo'lishi va ravnaq topishi.....	7
1.3. Pedagogikada ma'naviy qadriyatlar va ularning shaxs ma'naviy madaniyatini shakllantirishdagi o'ri.....	12
PEDAGOGIKA – IJTIMOY FAN SIFATIDA	15
2.1. Pedagogika fanining predmeti, mazmun-mohiyati.....	15
2.2. Pedagogikaning ijtimoiy fan sifatida rivojlanishi.....	27
2.3. Pedagogika fanining metodologiyasi va uning ilmiy tadqiqot metodlari.....	31
2.4. O'zbek xalq pedagogikasi va uning ta'lim-tarbiyada tutgan o'ri.....	40
TARBIYA JARAYONI: MAZMUNI VA MOHIYATI	44
3.1. Tarbiya jarayonining mohiyati va uning tibbiyotdagi ahamiyati.....	44
3.2. Tarbiyaviy ta'sir etish usullari, vositalari va uni amalda qo'llash shakllari.....	50
TA'LIM – YAXLIT JARAYON SIFATIDA	58
4.1. Didaktika pedagogikaning tarkibiy qismi sifatida.....	58
4.2. Innovatsion ta'lim texnologiyalari.....	64
4.3. Pedagogik mahorat asoslari.....	73
PEDAGOGIK FIKRLAR TARIXIY TARAQQIYOTI	80
5.1. "Pedagogika tarixi" fanining maqsad va vazifalari.....	80
5.2. Pedagogika tarixini davrlashtirish muammosi.....	81
5.3. Eng qadimgi yozma manbalarda ta'lim-tarbiya masalalarining yoritilishi "Avesto" dagi ta'limiy-axloqiy g'oyalari.....	84
GLOSSARIY (pedagogika bo'yicha)	86
IKKINCHI BO'LIM. PSIXOLOGIYA	96
PSIXOLOGIYA FANINING PREDMETI, MAQSADI, VAZIFALARI, TARIXI VA ILMIY TADQIQOT METODLARI. PSIXOLOGIYANING DINIY TA'LIMDAGI O'RNI	96
6.1. Psixologiyaning predmeti va uning tibbiyot	

xodimlari faoliyatida tutgan o'ri.....	96
6.2. Psixologiyaning shakllanish tarixi.....	99
6.3. Psixika va ong.....	106
6.4. Psixologiyaning asosiy tamoyillari (prinsiplari), ilmiy tadqiqot metodlari, tarmoqlari.....	113
6.5. Psixologiyaning fanlar fizimida tutgan o'ri.....	119
6.6. Amaliy psixologiyaning bugungi kundagi holati va istiqbollari.....	125
PSIXOLOGIYADA SHAXS VA JAMIYAT MUAMMOSI SHAXS FAOLIYATI VA UNING INDIVIDUAL-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI	130
7.1. Psixologiyada shaxs muammosi va uning taraqqiyotiga ta'sir etuvchi omillar.....	130
7.2. Shaxs faoliyati va uning tuzilishi.....	137
7.3. Temperament.....	142
7.4. Xarakter.....	147
7.5. Qobiliyat.....	153
SHAXSNING BILISH JARAYONLARI	158
8.1. Diqqat va sezgi.....	158
8.2. Idrok.....	166
8.3. Xotira va mnemik jarayonlar.....	171
8.4. Tafakkur.....	181
8.5. Nutq va xayol.....	187
SHAXSNING EMOTSIONAL-IRODAVIY HOLATLARI	192
9.1. His-tuyg'ular.....	192
9.2.....	Iroda
.....	204
MULOQOT VA SHAXSLARARO MUNOSABATLAR PSIXOLOGIASI, JAMOA VA GURUH	211
10.1. Muloqot va shaxslararo munosabatlar psixologiyasi.....	211
10.2. Jamoa va guruh psixologiyasi.....	225
BOSHQARUV PSIXOLOGIYASI	237
11.1. Boshqaruv psixologiyasi va uning predmeti, vazifalari.....	237
11.2. Boshqaruv faoliyatining ijtimoiy-psixologik хусусиятлари.....	240
11.3. O'zaro munosabatlarning samarali va destruktiv ko'rinishi.....	242
11.4. Liderlik psixologiyasi.....	246
GLOSSARIY (psixologiya bo'yicha)	255
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	265



57158